

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 3, 2023

[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)



<https://buxdu.uz>

*The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency*

\*\*\*

*According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.*

\*\*\*

**Address:**

200117, Bukhara city,  
K.Murtazoyev street, 11  
Bukhara State University  
Editorial and publishing  
Department  
Phone: +998 (94) 837-18-38

**The journal is published 4  
times a year**

Website: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

*Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.*

\*\*\*

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

\*\*\*

**Tahririyat manzili:**

200117, Buxoro shahri,  
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy  
Buxoro davlat universiteti  
"Tahririy-nashriyot" bo'limi  
Tel: +998 (94) 837-18-38

**Jurnal 1 yilda 4 marta  
chiqadi.**

Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

*Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.*

\*\*\*

*Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.*

\*\*\*

**Адрес:**

город Бухара 200117,  
улица М.Икбола, 11  
Бухарский государственный  
университет  
Редакционный отдел  
тел: +998 (94) 837-18-38

**Журнал выходит 4 раза в  
год.**

Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)



# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

3-son 2023-yil. \* Выпуск 3. 2023 год.

**BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**

**BAROTOV SH. R.**

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии  
психологических наук

**ТАНРИР НАУ'АТИ – РЕДАКЦИОННАЯ**

**КОЛЛЕГИЯ:**

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SHOUMAROV G`B.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOROBENNIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor  
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor  
JUMAYEV R.G`.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

NISHONOVA Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor

BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor

MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor

RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor

BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent

AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

**MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:**

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., dotsent

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. - filologiya fanlari doktori,  
professor

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**ТЕХНИК МУХАРИЛЛАР – ТЕХ.**

**РЕДАКТОРЫ:**

Ostanov Sh.Sh, Shirinova M.Sh.,

Tilavov M.H.

**МАС'УЛ КОТИБ – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ**

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)



# PSYCHOLOGY

## SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 3: 2023

**EDITOR-IN-CHIEF:**  
**BAROTOV SH. R.**

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

**EDITORIAL BOARD:**

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,  
The rector of Bukhara State University

SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor  
UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor  
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KOROBAYNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor

SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor

BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor

KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor

JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor

OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical sciences,  
Professor

JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent

NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor

NAZAROV A.M.

PhD of Psychology

IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor

BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor

MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor

RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor

BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent

AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent

ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent

**EDITORS:**

Usmanova M.N. – Candidate of  
Psychology, Docent

Mukhtorov E.M. – Candidate of  
Psychology, Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences

(PhD), Docent

Abzalova M.K. – Doctor of Philological,  
Professor

Sobirova D.A. PhD of Psychology

**TECHNICAL EDITORS:**

Ostanov Sh.Sh, Shirinova M.Sh.,

Tilavov M.Kh.

**EXECUTIVE SECRETARY**

Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy  
in Pedagogical Sciences (PhD)



**Salixov Shoxrux Mansurovich**

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

[salikhovshoxrux@gmail.com](mailto:salikhovshoxrux@gmail.com)

<https://orcid.org/>

0000-0001-7520-6498

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning psixologik tomonlari yoritib berilgan. Psixologik mexanizmlarning turlari ularning inson faoliyatiga bevosita ta'siri, bundan tashqari bo'lajak pedagog kadrlarning himoya mexanizmlarining qay bosqichlarda shakllanishi, ushbu komponentlarning foydali va salbiy mexanizmlari ochib berilgan. Maqolada kuchli psixolog olimlar Z.Freyd hamda Higginslarning olib borgan tadqiqotlari o'rganilib tahlil qilingan. Freyd nazariyasi bo'yicha psixologik mexanizmlar Higgins mexanizmlar konsepsiyasining bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, pedagogika, jismoniy tarbiya, himoya mexanizmlar, yosh davrlari, xarakter sifatleri, ong, psixoloanliz, konsepsiya, komponentlar.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ

**Аннотация:** В данной статье описаны психологические аспекты использования цифровых технологий в подготовке будущих учителей физической культуры. Выявляются виды психологических механизмов и их непосредственное влияние на деятельность человека, кроме того, этапы формирования защитных механизмов будущих педагогических кадров, полезные и негативные механизмы этих компонентов. В статье изучены и проанализированы исследования, проведенные влиятельными психологами З. Фрейдом и Хиггинсом. Изложены психологические механизмы по теории Фрейда, а также значение концепции механизмов Хиггинса в подготовке будущих учителей физической культуры.

**Ключевые слова:** психология, педагогика, физическое воспитание, защитные механизмы, возрастные периоды, качества характера, сознание, психоанализ, концепция, компоненты.

## PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

**Abstract:** This article describes the psychological aspects of the use of digital technologies in the training of future physical education teachers. The types of psychological mechanisms are identified, their direct impact on human activity, in addition to the stages at which the protective mechanisms of future teachers are formed, useful and negative mechanisms of these components are identified. The article examines and analyzes studies conducted by influential psychologists Z. Freud and Higgins. Psychological mechanisms according to Freud's theory. The importance of the concept of Higgins mechanisms in the training of future teachers of physical culture is emphasized.

**Key words:** psychology, pedagogy, physical education, defense mechanisms, age periods, qualities of character, consciousness, psychoanalysis, concept, components.

**Kirish.** O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab madaniyat, ta'lim, ilm-fan bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport ishlariga ham katta e'tibor qaratildi. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'ning muttasil ortib borishi ham mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, sohaga bo'lgan katta e'tibor ko'rsatkichidir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari raqamli texnologiyalar bilan bog'liq masalalarni o'rganishda, eng avvalo, mazkur hodisaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "jismoniy tarbiya" tushunchasining o'ziga bir qancha ta'riflar berilganligini

ko‘rishimiz mumkin. “Jismoniy tarbiya – pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan” Mazkur pedagogik jarayonga yangi innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda eng avvalo bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida yuzaga keladigan psixologik muammolarni ham o‘rganib o‘tishimiz juda muhim. Ayniqsa, hozirgi davr yangi texnologiyalar davri ekanligini inobatga oladigan bo‘sak, har bir sohada raqamli texnologiyalarnig kirib kelishi rivojlanishning bir bosqichiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari yoki sport murabbiylari uchun raqamli texnologiyalarning ahamiyati 2020-yil boshlaridan juda katta ahamiyat kasb eta boshladi. Butun dunyoda pandemiya holatida barcha soha egalari kabi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ham masofaviy ish olib borishlari raqamli texnologiyalar, kompyuter savodxonligi kabi muhim sohalarda o‘z bilim-ko‘nikmalarini sinab ko‘rishdi. Ayniqsa, butun dunyoda bunday og‘ir vaziyatda yuzaga kelgan psixologik zo‘riqishlar girdobida o‘quvchi yoshlarni innovatsion texnologiyalar yordamida dars jarayonlariga qiziqтира olish, nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarining ham o‘z ruhiy holatini stabil ushlab tura olishi juda muhim edi. Hozirgi davrda biz juda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ta‘lim texnologiyalari davrida yashamoqdamiz ayniqsa bu jarayon biron bir sohani alohida ta‘kidlashimiz uchun o‘rin yaratib bermayapti, shularni inobatga olgan holda bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ongida ham raqamli texnologiyalarga oid bilim-ko‘nikmalarni shakllantira olish juda muhim jarayon hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining o‘z ko‘nikmalarini yaxshilashlari uchun asosiy vosita bo‘lib xiamat qiladi, ayniqsa ma‘lum bir faoliyatni boshlash jarayonida. Bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z faoliyati davomida muvaffaqiyatni oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olishi yoshlarning ta‘lim natijalariga erishish uchun raqamli vositalar va resurslardan qanday foydalanish mumkinligini aniqlash va o‘z yondashuvlarini moslashtirish, shuningdek, texnologiya haqida bilim va tushunchaga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun muhim hisoblanadi, jismoniy tarbiya ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar uyda va universitetda raqamli texnologiyalardan rasmiy va norasmiy ta‘lim faoliyati uchun foydalansa, bu ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, chunki ular o‘rganish vaqtini uzaytiradi. Albatta, raqamli texnologiyalar yoki innovatsiyalar deganda doim ijobiy ta‘sir jarayonlarini emas, balki salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni ham o‘rganib o‘tishimiz juda muhim hisoblanadi. Raqamli ta‘lim yoshlarning hamkorlikda o‘rganish va ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi rivojlangan texnologiyalar davrida har bir yosh avlodning mazkur sohaga qiziqishi juda katta hisoblanadi.


Higginsning 2012-yilda raqamli texnologiyalarning ta‘sirni o‘rganish bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyadan hamkorlikda foydalanish (juftlik yoki kichik guruhlarda) odatda tengdoshlari orqali o‘zaro ta‘sir va o‘rganish atrofidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishda individual foydalanishdan ko‘ra samaraliroq hisoblanadi. Ya‘ni bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda ham guruh bo‘lib ishlash individual ishlashdan ko‘ra yaxshiroq natijaga olib kelishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror rivojlanishida asosiy e‘tibor innovatsion-zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi jamiyatning barcha tarmoqlarini rivojlanishi bilan birga, ta‘lim jarayonini qamrab olishi va rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir fanlar kesimida texnologiyalarnig tatbiq etilishi yangi davr innovatsion loyihalaridan boxabar bo‘lishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini inobatga olgan holda bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun ham muhim o‘rin tutadi. Texnologiyalar foydali bo‘lishi va shu bilan birga yoshlar salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkinligini ham inobatga olishimiz juda muhim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish ustuvor bo‘limini o‘z ichiga olgan farmoni tasdiqlandi. Ushbu bo‘limning O‘zbekiston Respublikasi hukumati farmoniga kiritilishi yangi ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalarining qay darajada muhimligini namoyish etadi. Mamlakatimizda yurtboshimiz tomonlarida mazkur sohaga juda katta e‘tibor qaratilmoqda shu bilan birga juda katta resurslar ushbu soha rivoji uchun yo‘naltirilmoqda desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya hamda sport sohasiga singdirilishi natijani ijobiy tomonga o‘zgarishining muhim konsepsiyalaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda, innovatsion texnologiyalarni jismoniy tarbiya sohasiga singdirilishida albatta rivojlangan dunyo hamjamiati tan olgan tajriba usullardan foydalangan holda bosqichma-bosqich tatbiq etilishi bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism metodologiya.**

Bizning tanamiz o'zini-o'zi boshqaradigan tizimdir. Psixologik tomondan olib qaraydigan bo'lsak, mojarolar paytida, xususan, shaxslararo vaziyatlarda vaziyatni barqarorlashtirish uchun, bizning psixikamiz psixologik himoya mexanizmlarini ixtiro qiladi. Mexanizmni yoqishdan maqsad – ziddiyat yoki qiyinchilik paytida boshdan kechirgan tashvish va tajribalarni qiyinchiliklarni avtomatik kamaytirish. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarning mazkur soha egalari ongiga sigdirilishi ma'lum ma'noda har bir shaxs sifatlaridan kelib chiqqan holda ularda bosqichma-bosqich himoya mexanizmlarini shakllantira boshlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Himoya mexanizmi so'zini o'rganadigan bo'lsak shaxs psixiatrik buzilishining oldini olish vositasi hisoblanadi. Ya'ni har bir shaxsning yangi holatni o'rganish jarayonida, albatta, himoya mexanizmlari shakllana boshlaydi, bu jarayon avtomatik tarzda namoyon bo'la boshlaydi. Biroq himoya mexanizmlari bir xillikdan iborat emas. Bir tomondan ular barqarorlashadi, ya'ni odamning o'zi bilan munosabatlarini o'rnatadi, boshqa tomondan tashqi dunyo bilan munosabatlarni buzishi mumkin, ya'ni individuallik sifatlarini shakllantirgan holda guruh bo'lib ishlashda to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Higginsning olib borogan tadqiqotlari negizida biz ma'lum bir fikr mulohazarga kelishimiz mumkin bo'ladi, ya'ni guruh bo'lib ishlash raqamli texnologiyalarni o'rganishda anglashda kam vaqt ichida yaxshi natijaga erishish uchun juda muhim hisoblanishini inobatga oladigan bo'lsak, himoya mexanizmlarini ikkinchi tomoni bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishini o'rganib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Himoya qilishning maqsadi - oldini olish ya'ni juda ko'p holatlarda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun odatiy holat bo'lib qolgan faqat jismonan chiniqqanlik asosiy maqsad ekanligi boshqa jarayonlarning katta ahamiyat kasb etmasligi, ular ongida yangilikka intilish, anglash, ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarida juda ko'p holatlarda himoya mexanizmlarini keltirib chiqarishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

*Tadqiqotimiz davomida raqamli texnologiyadidan foydalanishning psixologik mexanizmlari bosqichma-bosqich o'rganib chiqildi.*




**1-rasm. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy psixologik mexanizmlari**

Mazkur mexanizmlar orqali bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar haqida tushuncha ko'nikmalarini shakllantirish uchun ma'lum bir ma'noda bosqichlarni inobatga olgan holda ish olib bordik. Asosan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning yangilikka intilishi muhim hisoblanadi, ya'ni raqamli texnologiyalar innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishini shakllantirish ularda rad etish hissini kuchaytirmaslik, himoyasiz mexanizmlarni shakllantirmaslik uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natija va mulohazalar.**

Psixologik mexanizmlar, ya'ni himoya mexanizmlari haqidagi birinchi nazariyalar. Avstriyalik olim Z.Freyd asarlarida paydo bo'la boshlagan. Ya'ni bizning ongimiz negizida paydo bo'ladigan va xatti-

harakatlarni tartibga soladigan bir qator psixologik jarayonlardan iborat bo'ladi. Ko'p holatlarda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda ular ongida paydo bo'ladigan yangi mexanizmlar bilan bog'liqligini ko'rib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Psixoanaliz maktabida o'rganilgan asosiy psixologik mexanizmlarni tadqiqotimiz jarayonida tahlil qilib chiqdik.



**2-rasm. Freydizm ta'limotining asosiy mexanizmlari**

Freydizm ta'limotining mazkur mexanizmlarini o'rgangan holda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari raqamli texnologiyalarga oid bilim-ko'nikmalarini takomillashtirishda inobatga olishimiz zarur bo'lgan asosiy konsepsiyalari ishlab chiqilgan, mazkur konsepsiyalar II sxemada tasvirlangan. Higgins va Freyd tomonidan o'rganilgan ushbu mexanizmlardan kelib chiqqan holda ma'lum bir ma'noda tadqiqotimizning asosiy fikr mulohazalarini qilib o'tsak bo'ladi. Juda ko'p jarayon holatlarda kuzatishimiz mumkinki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining yangilikka intilish qiziqish doiralari katta foizini tashkil etmaydi. Ushbu kasb egalarida stabillik tushunchasi hozirgi holatidan qoniqish hissi yuqori hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu soha bo'lajak egalarida raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqish, nafaqat raqamli texnologiyalar, balki barcha yangilikka qizishlari past natijani ko'rsatdi. Bularni inobatga olgan holda ma'lum bir ma'noda ularning psixologik holatini o'rganish vazifa qilib belgilandi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ham murabbiylarda ham ko'p holatlarda o'xshash psixologik mexanizmlar shakllanishini aniqladik.


O'z navbatida, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda ularning davriy xarakter sifatlaridan kelib chiqib, innovatsion faoliyatga tayyorlash yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish muhim vazifa hisoblanishini inobatga olishimiz zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar faoliyatini boshqarish eng avvalo, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining bevosita barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilishi bilan uzviy bog'lik ekanligini ham unutmasligimiz lozim.

**Xulosa.** Juda ko'p mazkur mavzuga oid manbalarni tahlil qilganimizda ko'rishimiz mumkinki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini yoki sport murabbiylarining raqamli texnologiyalarga yoki innovatsion yangiliklarga bo'lgan qiziqishi yuqori foizni tashkil etmaydi. Ushbu kasb egalari ma'lum bir ma'noda doim jismoniy chiniqishga e'tiborlarini qaratishlari ularda ma'lum bir ma'noda qoniqish hissini keltirib chiqargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining 70 foizidan ko'p qismi o'z sohalarida raqamli texnologiyalar yoki innovatsiyalarning zarur emasligini, bu soha bo'lajak egalari uchun komponent jismoniy chiniqqanlik xizmat qilishini ta'kidlashganini aniqladik. Aynan shunday fikr mulohazaning ular ongida shakllanishi tom ma'noda ularda yangilikka bo'lgan himoya mexanizmlarini keltirib chiqaradi. Yana bir muhim omil sifatida yosh davrlarini ham ta'kidlab o'tishimiz mumkin bo'ladi. Bunda raqamli texnologiyalar haqidagi tushuncha ko'nikmalarni bosqichma-bosqich mazkur kasb egalari ongiga singdirilib borilsa, albatta, ularda ijobiy natijaga tezroq erishish komponentlari shakllana borishi tezlashadi. Eng avvalo har bir kasb egalaridan kelib chiqqan holda ham ko'rishimiz mumkinki, insonning xarakter sifatlariga ham juda ko'p holatlar bog'liq. Xarakter



sifatlaridan kelib chiqqan holda ularda maxsus ko'nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Hozirgi davrning eng ilg'or talablaridan biriga aylangan yangi texnologiyalar har bir sohaga shiddat bilan kirib kelayotganini inobatga oladigan bo'lajak jismoniy tarbiya ta'lim yo'nalishi uchun mazkur mavzuni dolzarbligini yanada chuqurroq o'rganish lozim deb hisoblayman. Chunki hozirgi davrda bu muammo juda talabgor hisoblanadi. Eng avvalo yosh avlodni zamon talablari darajasida tarbiyalash biz pedagoglar oldimizdagi muhim vazifadir. Pedagog sifatida bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining mohir egasi, eng ilg'or texnologiyalardan xabardor bo'lgan yuksak salohiyatli kadrlar etib tarbiyalash va ularning ko'magida yosh avlod farzandlarimizni kamolga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Aynan shu komponentlarni inobatga olgan holda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini maqsadli dunyo tan olgan rivojlangan mamlakatlar texnologiyalarini o'rganib tahlil qilgan holda shakllantira borsak ijobiy natijaga erishishimiz mumkin bo'ladi.

*Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion raqamli texnologiyalarga yo'nalgan faoliyatidagi asosiy konsepsiyalarini ishlab chiqdik.*



**3-rasm. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan asosiy kompetensiyalar**

Xulosa sifatida mazkur konsepsiyalar orqali bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalar va umuman olganda yangi innovatsion loyihalarni jismoniy tarbiya sohasiga tadbiiq eta olish qobiliyatini shakllantirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni oldini olishda, o'z kasb faoliyatida pedagogik mahoratini shakllantirish maqsadida ishlab chiqildi.

#### **Adabiyotlar:**

- Schwarzer R. Stress, Resources, and Proactive Coping / R. Schwarzer // Applied Psychology: An International Review. - 2001. - № 50(3). - P. 400- 407
- Umedjanova M. L., Salixov S. M., Salixov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life // European Journal of Innovation in Nonformal Education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 271-276.
- Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
- Salixov S. M., Salixov T. M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – C. 1013-1019.4.
- Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik tomonlari // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – C. 1039-1044.
- Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies // European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – C. 107-111.



**Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent  
Elektron pochta:hasanboyabdusamatov@gmail.com



**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti  
Ijtimoiy psixologiya ixtisosligi 1-bosqich tayanch  
doktoranti  
Elektron pochta:dy25021998@icloud.com

## KO‘P YILLIK TURMUSH TAJRIBASIGA EGA OILALARDAGI AJRIM HOLATLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SABABLARI

**Annotatsiya:** Ajralish - bu oilaning me'yoriy bo'lmagan inqirozi bo'lib, uning asosiy mazmuni oila tizimining gomeostazasi buzilishi natijasida yuzaga kelgan, oilani tizim sifatida qayta tashkil etishni talab qiladigan nomutanosiblik holatidir. Ajralish er-xotin munosabatlarining rivojlanishidagi inqiroz natijasidir. Zamonaviy jamiyatda ajralish hodisa sifatida noaniq baholanadi. Agar ilgari bu bir ma'noda salbiy talqin qilingan bo'lsa - oilaga tahdid sifatida, bugungi kunda ajralish ehtimoli oila tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi, oilani bir xil tarkibda saqlab qolishning iloji bo'lmagan hollarda uni qayta tashkil etish uchun zarurdir. Ajralishlar sonining ko'payishi, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ma'lum ma'noda nikohning yangi usuliga o'tish bilan oldindan belgilanadi, bunda sevgi tuyg'usi va shaxsiy tanlov asosida turmush o'rtog'ini erkin tanlash birinchi darajali ahamiyatga ega. Turmush o'rtog'ini tanlash erkinligi, albatta, nikoh munosabatlari muvaffaqiyatsiz bo'lgan sharoitlarda nikohning erkin tarzda bekor qilinishini nazarda tutadi. Quyida keltirilgan maqolada ko'p yillik turmush stajiga ega oilalarda sodir bo'layotgan ajrim holatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** ajrim, oilaviy hayotdan qoniqish, emotsional yaqinlik, egalitar tip, shaxslararo munosabat, “men” lokus nazorat, “hayot” lokus nazorat.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ РАЗВОДА В СЕМЬЯХ С МНОГОЛЕТНИМ ОПЫТОМ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

**Аннотация:** Развод представляет собой ненормативный кризис семьи, главным содержанием которого является состояние дисгармоничности, обусловленное нарушением гомеостаза семейной системы, требующее реорганизации семьи как системы. Развод - это результат кризисного развития отношений супружеской пары. В современном обществе развод как явление оценивается неоднозначно. Если раньше его интерпретировали однозначно отрицательно - как угрозу семье, то сегодня возможность расторжения брака рассматривается как неотъемлемый компонент семейной системы, необходимый для её реорганизации в тех случаях, когда сохранить семью в прежнем составе и структуре оказывается невозможным. Рост числа разводов, по мнению исследователей, в определённом смысле предопределён переходом к новому способу заключения брака, когда основное значение приобретает свободный выбор супруга на основе чувства любви и личностной избирательности. Свобода выбора партнёра с необходимостью предполагает свободное расторжение брака в условиях, когда супружеские отношения складываются неудачно. В статье представлен анализ результатов исследования бракоразводных процессов в семьях с многолетним стажем брака.

**Ключевые слова:** развод, удовлетворённость семейной жизнью, эмоциональная близость, эгалитарный тип, межличностные отношения, локус контроля «я», локус контроля «жизнь».

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF DIVORCE IN FAMILIES WITH MANY YEARS OF MARRIAGE EXPERIENCE

**Abstract:** *Divorce is a non-normative crisis of the family, the main content of which is a state of disequilibrium caused by a violation of the homeostasis of the family system, which requires the reorganization of the family as a system. Divorce is the result of a crisis in the development of a couple's relationship. In modern society, divorce is ambiguously evaluated as a phenomenon. If earlier it was interpreted in a negative way - as a threat to the family, today the possibility of divorce is considered as an integral component of the family system, necessary to reorganize it in cases where it is impossible to keep the family in the same composition. The increase in the number of divorces, according to the researchers, is to a certain extent predetermined by the transition to a new way of marriage, in which the feeling of love and the free choice of a spouse based on personal choice are of primary importance. The freedom to choose a spouse, of course, implies the free termination of marriage in the circumstances of failure of marriage. The following article presents the analysis of the results of the research on the cases of divorce in families with many years of marriage.*

**Key words:** *divorce, satisfaction with family life, emotional closeness, egalitarian type, interpersonal relationship, “I” locus of control, “life” locus of control.*

**Kirish.** Ajrim ijtimoiy hodisa sifatida nikoh instituti mavjud ekan, ushbu muammoga ilmiy qiziqish 20-asrning ikkinchi yarmida ortdi va bu turli mamlakatlarda ajralishlar sonining tez o'sishi bilan bog'liq edi. Oila va nikoh chegaralarini o'zgartirish, oila va nikoh rollarining an'anaviy modellarini buzish, turmush o'rtoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlari (kasbiy muvaffaqiyat, moddiy daromad, ta'lim) ta'sirini aniqlash, shuningdek, turmush o'rtoqlarning gender rollarini nikoh sifati, uning barqarorligi bo'yicha qayta taqsimlash yo'nalishi bo'yicha tadqiqot optikasini o'zgartirdi. Zamonaviy oila, uning funksiyalari va tuzilishi XXI asr boshlarida katta o'zgarishlarga duch keldi va bu o'zgarishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Ajralish jamiyatimizning obyektiv ravishda mavjud hodisasidir. Ehtimol, bu funktsiya ajralishda yagona yaxshi narsadir [1]. Ajralish deyarli nikoh bilan bir xil. Ajralish shakllari, jamiyatning ajralishga munosabati o'zgardi, tarixda ajralish tabiiy hol yoki jiddiy ijtimoiy muammo sifatida qabul qilingan.

Ushbu masalaning taniqli tadqiqotchisi, amerikalik sotsiolog va psixolog Konstans Aronsning fikriga ko'ra, dunyoda har o'n uch soniyada bir juftlik ajralib chiqadi. Birgina AQShda har yili bir milliondan ortiq oila ajrashadi. Turmush qurgan har ikki juftlik uchun yiliga bitta ajrashish sodir bo'ladi. Ularning hech biri ajrashishni xohlamaydi. Ular ko'pincha yillar davomida hayotlaridagi eng og'ir vaqt deb da'vo qilishadi. Aytish mumkinki, ajralish shaxsiy stress indeksida faqat yaqin kishining o'limidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu g'ayrioddiy, juda og'riqli tajriba, u yoki bu tarzda bizning hayotimizni qisqartiradi. Ajralishda eng ko'p “azob chekadigan” tomon - bu bolalar. Gelmut Fidgor [5] ajralishni ba'zan bolaning erta yoshida, ba'zan esa hatto tug'ilishidan oldin ham ota-onalar o'rtasida paydo bo'ladigan “yorilish” tufayli yuzaga keladigan taqdir sifatida tavsiflaydi, bu ertami-kechmi ajralishga olib keladi. Ushbu ijtimoiy munosabatlardagi “ichki ajralish” ko'pincha fazoviy (va huquqiy) ajralish bilan birga keladi, bu ma'lum darajada “uchinchi harakat” da mavjudlikning yangi shakli - ajrashgan oilaga olib keladi. “Taqdir” shuni ko'rsatadiki, ajralishdan keyin bolalarning hayot yo'li shu paytdan boshlab yanada qiyinlashadi va bolaning umumiy va aqliy rivojlanishiga zarar yetkazmasdan bu qiyinchiliklarni yengish juda qiyin. Bir so'z bilan aytganda, nikoh va ajrashuv yonma-yon yuradi. Har yili minglab oilalar quriladi va yana minglab oilalar buzilib ketadi [2]. Statistikada buning hisobi ham alohida yuritiladi. Har ming kishiga nisbatan nikohlar soni va ajralganlar soni “promille”da, bir yil ichida nikoh qurgan oilalar sonining ajrashuv qayd etilgan oilalar soniga nisbati esa foizda o'lchanadi. Darhaqiqat, World of Statistics e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra, Portugaliya ajrashuvlar reytingida 94 foiz ko'rsatkich bilan birinchi o'rinda turibdi. Undan keyin Ispaniya (85%), Lyuksemburg (79%) va Rossiya (73%) keladi. Osiyo va Sharq davlatlari bu ro'yxatning oxirida albatta. Eng kam ajralish foizi Hindistonda qayd etilgan (1%). Undan balandroq “pillapoya”larni 7% ko'rsatkich bilan Vyetnam, 10 foiz ko'rsatkich bilan Tojikiston va 14 foiz bilan Eron band etgan.

Germaniya (38%), Buyuk Britaniya (41%), Avstraliya (43%), AQSh (45%), Janubiy Koreya (46) kabi rivojlangan davlatlarda ajralish darajasi 50 foizga yetmaydi. Ya'ni ularda har yili qurilgan oilalarning yarmidan kamrog'i ajrashib ketadi. O'zbekiston bu ro'yxatning pastidan o'rin olgan. Mamlakatimizda o'tgan yili 197 mingta nikoh qayd etilgan bo'lsa (7,4 promille), 34 400 ta nikoh bekor qilingan (1,4 promille). Ajrashuv darajasi 17 foizga teng bo'lgan. Demak, bu jihatdan biz dunyo reytingida Meksika, Misr va Janubiy Afrika respublikalari bilan baravar mavqedamiz [7].

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Turmush o‘rtoqlarning ijtimoiy-psixologik va boshqa xususiyatlari (masalan, er-xotinning birlamchi mosligi, ota-ona oilasining oilaviy hayotiy tajribasi, ijtimoiy-psixologik va boshqa xususiyatlar) bilan bog‘liq bo‘lgan oila buzilishining obyektiv xavf omillarini ko‘rib chiqadigan tadqiqotlar [6] mavjud (turmush o‘rtoqlarning demografik, fiziologik xususiyatlari va boshqalar). Ajralish sabablari oila ichidagi va tashqi sharoitlar va qarama-qarshiliklarning murakkab majmui bo‘lib, ularni hal qilish va yengish uchun oilaning xohishi yoki resurslari yetarli emas. Mavjud tadqiqotlar ushbu mavzu bo‘yicha monografiya va maqolalarda keltirilgan ajralishlar sabablarining turli tasniflarini taklif qiladi. Bir paytlar ajralishlar kamdan-kam uchraydigan va ko‘pchilik tomonidan qoralangan bo‘lsa, endi bu vaqt uzoq o‘tmishda, har yili yuz minglab oilalar buziladi. Joriy yilning birinchi choragi va o‘tgan yilning shu davriga oid statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarni qonuniylashtirmoqchi bo‘lganlar kamroq, nikohni buzmoqchi bo‘lganlar esa ko‘p. Nikohlar va ajralishlar soni o‘rtasidagi farq yil sayin qisqarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda fuqarolik nikohi modada. Ammo ko‘p odamlar fuqarolik nikohi er-xotinlarga bir-biriga nisbatan deyarli hech qanday huquq va majburiyatlarni bermasligini hisobga olmaydilar. Nikoh ikki kishilik qafasda umrbod qamoq jazosi emas. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, endi har ikkinchi nikoh buziladi. O‘n yil oldin har uchinchi ajralishdi. O‘shish juda katta - bir yarim baravar. Oilaviy hayot yillari bo‘yicha ajralishlar quyidagicha taqsimlanadi: 1 yilgacha - 3,6%, 1 yildan 2 yilgacha - 16%, 3 yildan 4 yilgacha - 18%, 5 yildan 9 yilgacha - 28%, 10 yildan 19 yilgacha - 22%, 20 yil va undan ko‘p - 12,4% [8].


Shunday qilib, dastlabki 4 yil ichida ajralishlarning 40% ga yaqini, 9 tasida esa ularning umumiy sonining 2/3 qismi sodir bo‘ladi. Statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, turmush o‘rtoqlar 20 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan davrda oila hayotidagi eng muhim davr hisoblanadi. Shuningdek, 40 yoshgacha bo‘lgan nikohlar, turmush o‘rtoqlar 40 yoshdan oshgan paytdagi nikohlarga qaraganda o‘rtacha ikki baravar ko‘p ekanligi aniqlandi. Ko‘p yillik turmush tajribasiga ega bo‘lgan oilalardagi ajrim holatlarining ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganish maqsadida jami 155 ta oila tanlab olingan bo‘lib, ajrim holatlarining psixologik determinantlarini aniqlash qiyosiy tahlilga asoslanishi bois, turmush qurganiga 1-3 yil bo‘lgan yosh oilalarni ham o‘rganish joiz.

1-jadval.

#### Tadqiqot obyektining spetsifik turiga muvofiq taqsimlanishi

Oilalar turlari	Soni	%
1-3 yillik turmush tajribasiga ega oilalar	80 ta	51,6%
10-15 yil turmush stajiga ega ajralish arafasidagi oilalar	75 ta	48,4%
<b>Jami:</b>	<b>155 ta</b>	<b>100,0%</b>

Yuqorida berilgan jadvaldan ma‘lum bo‘ladiki, 155 nafar oilalardan 80 nafar oila 1-3 yillik turmush tajribasiga ega yosh oilalar bo‘lsa, 75 ta oila 10-15 yil turmush stajiga ega ajralish arafasidagi oilalar hisoblanadi.



1-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan oilalarning oilaviy tajriba miqdoriga ko‘ra tafovutlari (% hisobida)

Berilgan rasmdan ma'lum bo'ladiki, oila 1-3 yillik turmush tajribasiga ega yosh oilalar 51,6% ni, 10-15 yil turmush stajiga ega ajralish arafasidagi oilalar 48,4% ni tashkil etmoqda. Psixologik tadqiqot o'tkazish qonuniyatlariga muvofiq tanlab olingan tanlanma to'plamlar reperezentativlik jihatdan bir-biriga mos deb aytishimiz mumkin.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Chuiko S.V.ning so'zlariga ko'ra, oilalarda ajralishning asosiy sabablari [9]: sevgining yo'qolishi va yetishmasligi, o'zaro hurmat, ishonch va tushunish; zino, nikohdan tashqari munosabatlar, rashk; alkogolizm va turmush o'rtog'i tomonidan ortiqcha ichish, giyohvandlik; uy vazifalarini adolatsiz taqsimlash; turmush o'rtloqlarning umumiy sevimli mashg'ulotlari va qiziqishlarining yo'qligi; belgilarning o'xshash emasligi, qarashlar va qadriyatlarining mos kelmasligi; turmush qurish uchun motivlarning yetarli emasligi, turmush o'rtloqlarning nikohga psixologik tayyor emasligi; nikoh munosabatlarining jinsiy uyg'unligi; turmush o'rtog'i tomonidan jinoiy huquqbuzarlik sodir etish, g'ayriijtimoiy va noqonuniy xatti-harakatlar; turmush o'rtloqlardan birining farzand ko'rishni qoniqtirmagan istagi; oilaning moddiy, moliyaviy va uy-joy muammolari. Darhaqiqat, bu sharoitlar oilaning buzilishiga olib kelishi mumkin, chunki o'zaro tushunish va umumiy manfaatlarning yo'qligi qiyinchiliklarga duch kelganda hissiy yordam bo'lmasligiga olib keladi. Uy-joy bilan bog'liq muammolar va turmush qurishni psixologik istamaslik yosh oilalarga ko'proq xosdir. Turmush o'rtloqlar, bu holda, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishga tayyor emaslar, o'z vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va paydo bo'lgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga majbur bo'lishadi [3]. Biz tarafdin tadqiqotimiz mobaynida o'tkazilgan navbatdagi psixodiagnostik vosita aynan ajrim holatlarining turmush staji jihatidan farqlarini o'rganish maqsad qilib olingani bois, dastlab D.Leontevning “Hayot mazmuni yo'nalganligini o'rganish” metodikasining tahlilini keltirishni joiz deb bildik.

2-jadval.

“Hayot yo'nalganligi” metodikasining tavsiflovchi statistik tahlili

Yo'nalishlar	Min	Max	X	$\sigma$	As	Ekz
Maqsad	7,00	42,00	31,1548	5,45363	-1,661	<b>5,644</b>
Jarayon	8,00	42,00	30,9419	5,87670	-1,256	<b>3,128</b>
Natija	5,00	42,00	29,4323	6,66647	-,884	1,698
“Men” lokus nazorat	6,00	46,00	29,7806	7,32393	-,669	,669
“Hayot” lokus nazorat	8,00	45,00	29,9935	7,68748	-,353	,169

Hayot mazmuni yo'nalganligi metodikasining tavsiflovchi statistik tahliliga ahamiyatimizni qaratar ekanmiz, maqsad yo'nalishida minimal ball 7 ni, maksimal ball 42 ni tashkil etib o'rtacha qiymat 31,15 ni oldi (Ekz=5,644). Olingan natijani tahlilidan ma'lum bo'ladiki, zamonaviy oilalarda maqsad yo'nalishi ustun ahamiyat kasb etib, aynan maqsadlarning turlichaligi ham ajralish motivlaridan biri bo'lishi mumkinligi ma'lum bo'ladi. Maqsad yo'nalishi o'zida shaxsning kelgusi kamoloti uchun “men kimman?”, “nima uchun yashayapman?” ma'nosidagi hayotiy faoliyatdan tub ahamiyat qidirishida namoyon bo'ladi. Ajrim arafasiga kelib qolgan ko'p yillik turmush tajribasiga ega oilalarda esa, vaqt o'tib maqsadlarning differensial ko'rinish olishi, “o'zi uchun ham yashash” istagining ehtiyojlar ierarxiyasida yuqorilab borishi natijasida ularning tub hayotiy mazmunlari boshqacha ko'rinishda bo'lganini “kech anglash” davri boshlanadi. Jarayon yo'nalishi borasida ham minimal qiymat 8 ni, maksimal 42 ballni, o'rtacha qiymat 30,94 ni tashkil etdi (Ekz=3,128). Oilalarda hayot yo'nalganligi asosan maqsad hamda maqsadlar orqali kechadigan jarayonga qaratilganligi – oilaviy turmush dinamikasining bir maromda kechishini ta'minlovchi kuch bo'lib xizmat qilishi mumkinligi natijalar orqali ochiqilanadi. Jarayonda shaxs qilayotgan ishining sifat ham miqdor jihatidan idrok qilishga intilib, oilaviy munosabatlardagi har bir holatni jarayon hamda munosabatlarning mevasi nima maqsadga ishlatilishi nuqtayi nazaridan sarhisob qilishga urinadi.

3-jadval.

“Hayot mazmuni yo'nalganligi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish

Yo'nalishlar	Kolmogorov-Smirnov mezonini bo'yicha (Z qiymat)	Ishonchlilik ko'rsatkichi (p)
Maqsad	2,630	<b>0,000**</b>
Jarayon	2,621	<b>0,000**</b>
Natija	1,427	<b>0,034*</b>
“Men” lokus nazorat	1,279	0,076
“Hayot” lokus nazorat	1,206	0,109

Izoh: \* -  $p < 0.05$ , \*\* -  $p < 0.01$ 

Navbatdagi tahlil tadqiqot natijalarini asosiy mezonlarga saralab, tanlab olishga xizmat qiluvchi normal taqsimlanish qonuni, ya'ni Kolmogorov-Smirnov mezoniga solish orqali amalga oshirilgan natijalar sharhiga bag'ishlanadi. Biz tarafdin olingan psixodiagnostik vosita D.Leontevning “Hayot mazmuni yo'nalganligini o'rganish” metodikasi bo'lib, uning ko'rsatkichlar bo'yicha tahlili quyidagicha tus oldi: maqsad shkalasi bo'yicha ( $Z=2,630$ ;  $p < 0,01$ ), jarayon shkalasi bo'yicha ( $Z=2,621$ ;  $p < 0,01$ ), natija shkalasi bo'yicha ( $Z=1,427$ ;  $p < 0,05$ ), “Men” lokus nazorati shkalasi bo'yicha ( $Z=1,279$ ;  $p < 0,076$ ), “Hayot” lokus nazorati shkalasi bo'yicha ( $Z=1,206$ ;  $p < 0,109$ ) natijalar qayd etildi. Mazkur olingan natijalarning 100% i normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Yuqorida bo'lgani kabi eng ustun ko'rsatkichlar maqsad, jarayon shkalalarida qayd etilib, oilaviy turmush tajribasidan qat'iy nazar barcha juftliklarda oiladagi munosabatlar maqsad-jarayon diadasida rivojlanib borishi aniqlandi.

## 4-jadval.

“Hayot mazuni yo'nalganligi” metodikasining oilaviy ahvolga ko'ra farqlanishi

№	Yo'nalishlar	O'rta rang		Statistik ko'rsatkichlar	
		1-3 yillik turmush tajribasiga ega oilalar	10-15 yil turmush stajiga ega ajralish arafasidagi oilalar	Mann-Uitni – U mezoni	Ishonchlik darajasi (p)
1	Maqsad	91,22	74,57	2742,5	<b>0,039*</b>
2	Jarayon	93,49	72,15	2561	<b>0,025*</b>
3	Natija	82,24	103,48	2661	<b>0,013*</b>
4	“Men” lokus nazorat	83,54	102,09	2557	<b>0,050*</b>
5	“Hayot” lokus nazorat	83,81	101,81	2535,5	<b>0,023*</b>

Izoh: \* -  $p < 0.05$ 

Hayot yo'nalganligining berilgan solishtirma jadvalidan ko'rinib turganidek barcha ko'rsatkichlarda ahamiyatli farqlar aniqlandi. Xususan, maqsad shkalasida ustunlik turmush staji kamroq bo'lgan oila vakillarida kuzatilgan bo'lib ( $U=2742,5$ ;  $p=0,05$ ), oila vakillarida mazkur ko'rsatkich bo'yicha ustunlikning bo'lishi maqsadlar va alternativ xohishlar darajasining to'g'ri proporsionallik kasb etganligi va ehtiyojlarning qondirilganlik darajasining normal holatda ekanligi bilan ham izohlanadi. Jarayon ko'rsatkichida ( $U=2561$ ;  $p=0,05$ ) ham xuddi yuqoridagi holat qayd etildi. Yosh oilalar oilaviy munosabatlarda bo'ladigan past-balandliklarni odatiy hol sifatida idrok etib, jarayonga mos taktika ishlab chiqish bilan vaziyatdan “talofatsiz” chiqishga urinishlari ma'lum bo'ladi. Natija ko'rsatkichida ustunlik ajralish rafasida bo'lgan oilalarda kuzatilib ( $U=2661$ ;  $p=0,05$ ), buni “shuncha yil yashab nima ko'rdim?” mazmunidagi savolga javob topa olmagan juftliklarning ko'proq turmushida natijalar izlashga urinish holatlarining munosabatlar kesimida ko'p takrorlanishi bilan izohlash mumkin. Samarasiz deya baholangan natijalar ortidan ularda ajralish motivi, o'zini qayta sinab ko'rish uchun yo'l sifatida baho olishi bilan ham xarakterga ega.


Metodikadan o'rin olgan so'nggi ko'rsatkichlarda ham ustunlik ajralish arafasida bo'lgan oilalarda qayd etildi: “men” lokus nazorat ( $U=2557$ ;  $p=0,05$ ), “hayot” lokus nazorat ( $U=2535,5$ ;  $p=0,05$ ). “Hayot” lokus nazorat o'zida shaxsga o'z hayotini boshqarish, erkin qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish uchun berilgan ishonchni, inson hayotini ongli ravishda boshqarishga bo'ysunishini aks ettiradi.

Ajralish arafasidagi oilalarda hayot lokusini nazorat qilishning yosh oilalarga nisbatan balandligini ularning qarorlar qabul qilishda mustaqillikka o'rganib qolishning yuqoriligi, shuningdek, hayot faoliyatidagi uchraydigan to'siqlarni tashqi ko'maklarsiz bartaraf etishga o'rganib qolganliklari bilan ham izohlanadi. Oilada er-xotinning maqsadlari aniq bo'ladi va ushbu maqsadlarga muvofiq ravishda hayot mazmunini muvofiq qurish g'oyalariga erkin tayanadi. Kuchli shaxs sifatida o'z g'oyalarida qat'iy turadi. Yosh oilalar ko'proq o'ziga ishonmaslik, o'z hayotidagi voqealarni nazorat qilish qobiliyatiga ishonishmaydi. Biroq tashqi xavf paydo bo'lganda birgalikda mustaqil bo'lmay kollegial hamkorlik qilishga moyil bo'lganliklari uchun ham ularda lokus nazorat diadik ko'rinishda bo'lar ekan.

## Hayot mazmuni yo‘nalganligining bog‘liqliklar qonuniyati (ajrim yoqasidagi oilalar misolida)

Ko‘rsatkichlar	Maqsad	Jarayon	Natija	Men lokus nazorat	Hayot lokus nazorat
Maqsad	1				
Jarayon	<b>0,697**</b>	1			
Natija	<b>0,580**</b>	<b>0,627**</b>	1		
Men lokus nazorat	<b>0,414**</b>	<b>0,442**</b>	<b>0,730**</b>	1	
Hayot lokus nazorat	0,151	<b>0,250*</b>	<b>0,391**</b>	<b>0,596**</b>	1

Izoh: \* -  $p < 0.05$ , \*\* -  $p < 0.01$



2- rasm. Hayot mazmuni yo‘nalganligining oilaviy turmush tajribasiga ko‘ra tafovutlari

Hayot mazmuni yo‘nalganligining bog‘liqliklar qonuniyati (ajrim yoqasidagi oilalar misolida) bo‘yicha jarayon va maqsad ( $r=0,697$ ;  $p=0,01$ ), natija va maqsad ( $r=0,580$ ;  $p=0,01$ ), jarayon ( $r=0,627$ ;  $p=0,01$ ) shkalalarida bog‘liqliklar qayd etilib, ajralish arafasida bo‘lgan “tajribali” oilalarda hayotga to‘g‘ri maqsad qo‘yish orqali muammolarni mustaqil emas, balki juftlari bilan birgalikda yechim izlash ko‘nikmasining ortishi ulardagi oilaviy hayotdan qoniqish, maqsadlarning umumiyliigi hamda oilaviy jarayonlarning tizimli kechishiga imkon berishi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, men lokus nazorat hamda maqsad ( $r=0,414$ ;  $p=0,01$ ), jarayon ( $r=0,442$ ;  $p=0,01$ ), natija ( $r=0,730$ ;  $p=0,01$ ) shkalalarida ham ijobiy aloqadorliklar qayd etildi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, tub hayotiy qadriyatlarda o‘zini mukammallashtirish, xatolarini to‘g‘rilagan holda olg‘a yurishning oila vakillarida asl sababiyat sifatida qarashlaridan o‘rin olishi ularning kelajakda erishayotgan natijalariga ijobiy ta’sir etib, maqsadlarning yuksaklashuviga hamda jarayonning muvaffaqiyatli yakun topishiga zamin yaratishi mumkin. Hayot lokus nazorati hamda jarayon ( $r=0,250$ ;  $p=0,05$ ), natija ( $r=0,391$ ;  $p=0,01$ ), men lokus nazorat ( $r=0,596$ ;  $p=0,01$ ) shkalalarida ham aloqadorliklar mavjud bo‘lib, hayotidagi qiyinchiliklarni yengish, o‘zini ekstremal holatlarda ham nazorat qila olish va aybni o‘zidan qidirish orqali ehtimoliy yechimlarni izlash kabilar natijasida ularda bo‘ysunmaslik, muammo oldida tiz cho‘kmaslik kabi sifatlar umumiydashgan holda kombinatsiyalashuv asosida shakllanib boradi.

**Xulosa.** Tadqiqotchi A.G.Volkov ajralishning obyektiv omillari - turmush o‘rtoqlarning nikohda bo‘lgan yoshi, turmush o‘rtoqlar yoshlarining nisbati, birinchi va ikkinchi nikohlarda ajralishlarning qiyosiy chastotasi tahliliga to‘xtalib o‘tadi. Olim eng kam barqaror nikohlar juda erta yoshda ham, keksa yoshda ham tuziladi, degan xulosaga keladi. Birinchi holda, ijtimoiy yetuklikning, iqtisodiy mustaqillikning yo‘qligi ta’sir qiladi, ikkinchidan - birinchi nikoh tajribasi va nikoh bilan bog‘liq umidlardan norozilik, shuningdek, o‘zaro moslashishning qiyinligi. Odamlar allaqachon shakllangan va nikoh munosabatlarida uyg‘unlik ortib borayotgan qiyinchilik bilan erishiladi. Turmush o‘rtoqlarning yoshiga kelsak, turmush o‘rtoqlarning nikohdagi yoshidagi farqning oshishi bilan ajralishlar soni ortadi. Eng kam barqaror nikohlar, qo‘shimcha

ravishda, turmush o‘rtog‘i eridan katta bo‘lgan nikohni o‘z ichiga oladi. Ajralish, shuningdek, ajrashayotgan turmush o‘rtoqlarning farzandlari soniga bog‘liq. Farzandi bo‘lmagan odamlar bolali turmush o‘rtoqlarga qaraganda tez-tez ajrashadi va oilada qancha ko‘p bola bo‘lsa, u nisbatan kamroq ajraladi [5].

Ajralish muammosi zamonaviy oiladagi munosabatlar turining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq: yangi oila modellari bu munosabatlarni buzishning o‘ziga xos shakllarini keltirib chiqaradi. Agar an’anaviy nikohda ajralish har ikkala turmush o‘rtog‘ining hayotini qayta tashkil etishni nazarda tutadigan huquqiy, iqtisodiy, psixologik nuqtayi nazardan munosabatlarning uzilishi deb tushunilsa, oilaviy munosabatlarning zamonaviy shakllari ular tugatilgandan keyin ham munosabatlarning psixologik jihatlarini ko‘rsatadi. Yuqorida olingan empirik tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra ko‘p yillik oilaviy turmush tajribasiga ega juftliklarda ajralishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari sifatida turmush o‘rtog‘idan yillar mobaynida qoniqmaganlikning affektiv yuzaga chiqishi natijasida manfaatlar to‘qnashuvi, hissiy, jinsiy hamda ma‘naviy nikohdan qoniqmaslik, oilaviy muhitning statik ko‘rinishda emasligi hamda turmush o‘rtog‘laridagi hayotiy mazmun yo‘nalishining tubdan farq qilishini keltirib o‘tish mumkin.

Oila-nikoh munosabatlarning zamonaviy hodisalari, xususan, kichik oilalar, nikohlar sonining kamayishi, ajralishlar sonining ko‘payishi, oilaviy axloqning demokratlashuvi, ayollarning emansipatsiyasi, nikohda shaxsiy erkinlik. nikohga yo‘naltirilgan er-xotinlarning nikoh ajralish bilan yakunlanishi mumkinligiga bag‘rikeng munosabat va boshqalar. Shunday qilib, oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha yo‘naltirilgan oilaviy siyosat mavjud bo‘lmagan taqdirda, ajralish uchun o‘ziga xos tayyorgarlik oilaning tug‘ilishining dastlabki bosqichidayoq nikohda paydo bo‘ladi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, ajralishga “tayyorlik” va nikoh kelajagi uchun mas’uliyat hissi yo‘qligi muammoli va ziddiyatli oilalarda eng aniq namoyon bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Аронс К. Развод: крах или новая жизнь? / Пер. с англ. М.: МИРТ, 1995. 448 с. // Педагогическая библиотека [Электронный ресурс] - Режим доступа: [http://www.pedlib.ru/Books/5/0128/5\\_0128-1.shtml](http://www.pedlib.ru/Books/5/0128/5_0128-1.shtml)
2. Ирвик О. История разводов [Электронный ресурс] - Режим доступа: <http://oleg.vik.narod.ru/books/razvod.htm>
3. Фигдор Г. Дети разведенных родителей: между травмой и надеждой (психоаналитическое исследование). М.: Наука, 1995. 376 с. // Институт христианской психологии [Электронный ресурс] - Режим доступа: [http://fapsyrou.ru/library/psychology/Figdor/10.laquorazvedennyuqaquo\\_rebenok\\_727/?m=print](http://fapsyrou.ru/library/psychology/Figdor/10.laquorazvedennyuqaquo_rebenok_727/?m=print)
4. Шнейдер Л.Б. Основы семейной психологии. М., 2005. С. 250; Басс Д. Стратегия выбора партнёра // Сексология: Хрестоматия. СПб., 2000; Эйдемиллер Э.Г., Юстицкий В.В. Семейная психотерапия. Л., 1990; Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. М., 2005.
5. Волков А.Г. Семья — объект демографии. М., 1986. С. 128.
6. Рузикулов Ф.Р. Ўзбек оиларида ажралишнинг ижтимоий-психологик асоратлари. Психол. фан. Номз. дисс. - Тошкент: УзМУ 2002. - 160 б.
7. <https://platina.uz/2023/5/2/ajrimlar-reytingi-boyicha-dunyo-statistikasi-elon-qilindi>
8. Харченко Л. Б. Статистика / Л. Б. Харченко, В. Г. Должникова, В. Г. Иошин. - М.: Курс лекций, ИНФРА - М, 2010. - 310 с.
9. Мотивы и причины разводов [Электронный ресурс] - 2016.- URL: <http://www.e-reading.mobi/chapter.php/99322/5/Celuiiko>





**Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna**

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi "Psixologik va profilaktik faoliyat" sikli o'qituvchisi  
taxt 1985@mail.ru*

### **HARBIY XIZMATCHILARNING FAOLIYATIDA EMOTSIONAL-IRODAVIY XUSUSIYATLARNING PSIXODIAGNOSTIKASI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning emotsional-irodaviy xususiyatlari Bass-Darki so'rovnomasi, Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xaninning vaziyatli bezovtalanishni o'zini-o'zi baholash orqali aniqlash shkalasi, irodaviy sifatlarni o'rganuvchi M.V.Chumakov so'rovnomasi yordamida psixologik tahlil etilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning emotsional-irodaviy xususiyatlari ijtimoiy-psixologik jihatlarini namoyon bo'lishi, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijobiy va salbiy tomonlari keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchilar, emotsiya, agressivlik, irodaviylik, bezovtalanish, murakkab vaziyatlar, chidamlilik, harakatchanlik.

### **ПСИХОДИАГНОСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ**

**Аннотация:** В данной статье с помощью опросника Басса-Дарки, шкалы определения ситуативной тревожности по самооценке Ч.Л. Спилбергера-Ю.Л.Ханина, опросника М.В.Чумакова по волевым качествам анализируются эмоционально-волевые особенности военнослужащих. Исходя из результатов проведенного исследования, широко освещаются эмоционально-волевые особенности военнослужащих, проявление социально-психологических аспектов, его специфика, а также положительные и отрицательные стороны

**Ключевые слова:** военнослужащие, эмоции, агрессивность, воля, тревожность, сложные ситуации, выносливость, мобильность.

### **PSYCHODIAGNOSTICS OF EMOTIONAL-VOLITIONAL PECULIARITIES IN THE ACTIVITIES OF MILITARY SERVICEMEN**

**Abstract:** This article analyzes the emotional and volitional characteristics of military personnel using the Bass-Darky questionnaire, the scale for determining situational anxiety based on self-assessment by Ch.L. Spielberger-Yu.L. Khanin, and M.V. Chumakov's questionnaire on volitional qualities. Based on the results of the study, the emotional and volitional characteristics of military personnel, the manifestation of socio-psychological aspects, its specifics, as well as positive and negative sides are widely covered.

**Key words:** military personnel, emotions, aggressiveness, will, anxiety, difficult situations, endurance, mobility.

**Kirish.** So'nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermog'da. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasida ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning bilimi, ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq dolzarb vazifalar qo'yilgan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aynan, shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador (xoh foydali, xoh zararli bo'lishdan qat'iy nazar) omillar, qo'zg'ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib

chiqish instinktlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilar (ovqatlanish, jinsiy himoyalanih, qo‘rqish va boshqalar) bilan bog‘liq sodda hissiy holatlar “emotsiya” deyiladi.

Ta’kidlash joizki, emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma’noda emotsiyalar hissiy kechinmalarning o‘ziga xos xususiyatli shakllaridan biridir. Emotsiya u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi jarayonidan iborat [2].

Irodaviy xususiyatlar muammosining o‘rganilishida iroda muammosiga asosan uchta yondashuv yoki nazariyalar mavjud, bular:

motivatsion yondashuv: irodani motivatsiya psixologiyasi bilan tushuntiradi. Buning o‘zi esa uchta qismlarga bo‘linadi. 1) irodani inson imkoniyatlaridan yuqori deb tushunuvchi dunyoviy kuch deb tushuntiruvchi nazariya, 2) harakatning boshlang‘ich motivatsiyasi deb tushuntiruvchi yondashuv, 3) irodani, qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchi qobiliyat sifatida tushuntiruvchi nazariyalar nazarda tutiladi.

Regulyatsion yondashuv: bunda iroda nazoratni amalga oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi, boshqaruvchi sifatida tushuntiradi.

Erkin tanlov yondashuvi esa, har qanday inson tushishi mumkin bo‘lgan jarayonda tanlovni amalga oshirish muammosidagi irodaviy jarayonlarning o‘zaro mosligida ekanligini tushuntiradi[3].

**Natijalar.** Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning emotsional-irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish maqsadida harbiy xizmatchilarda agressivlikni o‘rganish uchun Bass-Darki so‘rovnomasi, bezovtalanishini tushunish uchun Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xaninning vaziyatli bezovtalanishni o‘zini-o‘zi baholash orqali aniqlash shkalasi, irodaviy sifatlarni o‘rganuvchi M.V.Chumakov so‘rovnomasi o‘tkazildi[4]. Harbiy xizmatchilar bilan ushbu metodikalar jangovor sharoitlarga yaqinlashtirilgan o‘quv maydonarida turli mashqlarni bajarganlaridan so‘ng amalga oshirilgan. Tadqiqotda 60 nafar serjant harbiy xizmatchilar ishtirok etgan.


Harbiy xizmatchilarning agressiv xulq-atvorini o‘rganish uchun Bass-Darki so‘rovnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Maxsus avariya - tiklash boshqarmasi 60 nafar harbiy xizmatchilarda aybdorlik hissi bo‘yicha yuqori 34 nafarida yuqori ko‘rsatkichni berdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

**Agressivlikni o‘rganuvchi Bass-Darki so‘rovnomasi yordamida olingan natijalar ko‘rsatkichlari**

№	Agressiv xususiyatlar	Harbiy xizmatchilarning umumiy soni	Natijalar
1	Jismoniy agressiya	60	9
2	Verbal agressiya	60	24
3	Bilvosita agressiya	60	6
4	Negativizm	60	0
5	Tajanglik	60	1
6	Shubxalanish	60	5
7	Xafagarchilik	60	0
8	Aybdorlik hissi	60	34

Quyidagi 1-rasmda agressivlikni o‘rganuvchi Bass-Darki so‘rovnomasi yordamida olingan natijalar ko‘rsatkichlari diagramma shaklida berilgan.



1-rasm. Agressivlikni o‘rganuvchi Bass-Darki so‘rovnomasi yordamida olingan natijalari


Bezovtalanishini o'rganish uchun Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xaninning vaziyatli bezovtalanishni o'rganish metodikasi yordamida olingan natijalar quyidagicha bo'ldi. 59 nafar harbiy xizmatchilarda past vaziyatli bezovtalanish, 1 nafar harbiy xizmatchida o'rta vaziyatli bezovtalanish namoyon bo'ldi, yuqori vaziyatli bezovtalanish harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lmadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

**Vaziyatli bezovtalanishi (Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xanin) natijalarining ko'rsatkichlari**

№	Vaziyatli bezovtalanish	Harbiy xizmatchilarning umumiy soni	Natijalar
	Past vaziyatli bezovtalanish	60	59
	O'rta vaziyatli bezovtalanish	60	1
	Yuqori vaziyatli bezovtalanish	60	0

Quyidagi 2-rasmda vaziyatli bezovtalanish (Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xanin) natijalarining ko'rsatkichlari diagramma shaklida berilgan.



2-rasm. Vaziyatli bezovtalanishi (Ch.L. Spilberger-Yu.L.Xanin) natijalari


Irodaviy sifatlarni o'rganuvchi M.V.Chumakov so'rovnomasi natijasida esa, 60 nafar harbiy xizmatchilardan 19 nafarida energiyaga boy bo'lish va 20 nafarida maqsadga intiluvchanlik kuchli namoyon bo'ldi (3- jadvalga qarang).

3-jadval.

**Irodaviy xususiyatlarini (V.M. Chumakov) o'rganish natijalarining ko'rsatkichlari**

№	Irodaviy xususiyatlar	Harbiy xizmatchilarning umumiy soni	Natijalar
1	Ma'suliyatlilik	60	5
2	Tashabuskorlik	60	4
3	Tez, to'g'ri qaror qabul qilish	60	1
4	Mustaqillik	60	1
5	Chidamlilik	60	14
6	Harakatchanlik	60	0
7	Energiyaga boy bo'lish	60	19
8	E'tiborlilik	60	6
9	Maqsadga intiluvchanlik	60	20

Quyidagi 3-rasmda irodaviy xususiyatlarni (V.M. Chumakov) o'rganish natijalari ko'rsatkichlari diagramma shaklida berilgan.



3-rasm. Irodaviy xususiyatlarni (V.M. Chumakov) o'rganish natijalari

**Muhokama.** Harbiy xizmatchilarida aybdorlik hissi bo'yicha yuqori ko'rsatkichni (34 nafar) bergani ma'lum bo'ldi. Bu esa harbiy xizmatchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari kam ekanligidan va o'z-o'ziga qaratilgan agressiyaning kuchligidan darak beradi. Qo'shimcha kuzatish, suhbat metodi yordamida aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, berilgan vazifalarni bajarishda o'z kuchiga ishonmaslik, ikkilanish, har qanday muvaffaqiyatsizlikda o'zini ayblash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Ushbu holatlar korreksion dasturda ularning o'zlariga bo'lgan ishonchini darajasini kuchaytirishga qaratilgan treninglar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Sinaluvchilarning tanlovi bo'yicha bezovtalanishning past ko'rsatkichi yorqin namoyon bo'ldi. Demak, ushbu holat ma'lum bir stressli, ekstremal, murakkab vaziyatlardagina namoyon bo'ladi. Harbiy xizmatchilari maqsadga intiluvchanlik bo'yicha (20 nafar), e'tiborlilik bo'yicha (6 nafar), eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganlar. Ushbu harbiy xizmatchilarning faoliyatida asosan o'z ishlarini rejalashtirishga, tartibga keltirishga intilishlari, xavfsizlik qoidalariga doimiy rioya qilgan holda faoliyat olib borishlari, xizmat vazifalari kuchli e'tibor va diqqatni barqarorligini talab etuvchi ish bo'lganligi sababli yuqori ball olganliklariga izoh bo'ladi.

Murakkab vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning emotsional-irodaviy xususiyatlarining kelib chiqishi yosh xususiyatlaridan, xizmat vazifalarining tarkibiga ko'ra turlicha murakkablikda ekanligidan, harbiy xizmatchilarning shaxslararo munosabatlariga ko'ra yuzaga kelish omillariga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida psixodiagnostik testlarning tahliliga ko'ra korreksion dastur ishlab chiqildi va 12 kunlik korreksion ishlar amalga oshirilgandan so'ng qayta psixodiagnostika amalga oshirildi. Bass-Darki so'rovnomasi yordamida olingan natijalarda harbiy xizmatchilarda aniqlangan aybdorlik hissi, pasayib o'zlariga bo'lgan ishonch va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchaygani qayta diagnostika va suhbatlar davomida aniqlandi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda emotsional-irodaviy xususiyatlarni namoyon bo'lishi ularning xizmat faoliyatlarining tarkibiga, umumiy psixologik holatlariga bog'liq bo'ladi, psixokorreksiyaning o'z vaqtida amalga oshirish ularning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi va ekstremal vaziyatlarda berilgan vazifani o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Чумаков М.В. Эмоционально-волевая регуляция деятельности. - М., 2007. -с.54-55.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya 1-kitob. Toshkent, -2002. - b. 79-84.
3. Карелин А. Большая энциклопедия психологических тестов. М.: "ЭКМО", 2007. - 349 с.



**Ganjiyev Feruz Furqatovich**  
Buxoro davlat universiteti  
psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti (PhD)  
[f.ganjiyev@mail.ru](mailto:f.ganjiyev@mail.ru)

## AGRESSIV O‘SMIRLARDA JINOYATCHILIK XULQINING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumjahon muammolaridan biri hisoblangan agressiv o‘smirlar jinoyatchiligini tadqiq qilish borasida ko‘plab xorijiy va hamdo‘stlik mamlakatlarida va shu jumladan Respublikamizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarning kelib chiqishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy–psixologik omillar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining statistik, demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama ilmiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** jinoyatchilik, tovlamachilik, axloqiy talablar, referent guruhlar, krizis, xulq-atvor, psixopatologik o‘zgarishlar, agressivlik.

## ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ У АГРЕССИВНЫХ ПОДРОСТКОВ

**Аннотация:** В этой статье в соответствии с целью исследования рассматриваются теоретические и методологические основы социально-психологических механизмов, протекающих в подростковом возрасте. Статья позволяет сформировать более глубокое представление о социальной психологии на сегодняшний день, возрастных периодах, прикладных теоретических направлениях и перспективах психологических наук.

**Ключевые слова:** средства массовой информации, неудовлетворённость собой, моральные требования, эмансипация, кризис, поведение, упрямство, агрессивность.

## FORMATION OF CRIMINAL BEHAVIOR IN AGGRESSIVE ADOLESCENTS

**Abstract:** this article conducts a number of scientific research in many foreign and Commonwealth countries and including the Republic on the research of aggressive adolescent crime, which is considered one of the universal problems, in which socio–psychological factors affecting the origin of vices, such as violations, alcoholism and drug abuse among minors, statistical, demographic, collective and territorial characteristics of juvenile crime are comprehensively analyzed.

**Key words:** crime, extortion, moral demands, reference groups, crisis, behavior, psychopathological changes, aggressiveness.

**Kirish.** Respublikamiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar hamda qadriyatlarimizning qayta tiklanayotganligi, milliy, madaniy va ma‘rifiy meroslarimizdan xalqimiz hayotida, o‘smirlar tarbiyasida keng foydalanilayotganligi kishilar o‘rtasida mehr-oqibat, insoniylik, muruvvatlilik va olijanoblik kabi yuksak fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratish bilan bir qatorda yurtimiz fuqarolari turmush faravonligining oshishiga, ularda ertangi kunga nisbatan bo‘lgan ishonch hissining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda yosh avlodni voyaga yetkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta‘limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

**Asosiy qism.** Oiladagi nosog‘lom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda ta‘lim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, o‘smirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarda agressivlikning kelib chiqishi boshqa o‘smirlarga nisbatan tez va oson kechadi va shu tufayli voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish ishlarini tarbiyasi qiyin o‘smirlardan boshlash zarur degan qimmatli g‘oyaning ilgari surilganligini kuzatamiz. Shuningdek, agressiv o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida ijtimoiy muhit, ya‘ni oila, maktab va tengqurlari davrasi

ta'siri bilan bir qator shaxsning dunyoqarashi, qiziqishlari, ustanovkalari, ma'naviyati va individual psixologik xususiyatlari bir xil ishtirok etadi.

E.G'oziyev tadqiqotlarini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, agressiv o'smirlar va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan o'smirlar bilan profilaktik ishlarni olib borishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik qonuniyatlarga ham murojaat qilish zarurligi masalasi respublikamizda o'tgan asrning 70-80-yillaridayoq tadqiqotchi olimlar tomonidan ko'tarib chiqilganligining guvohi bo'lamiz.

Tadqiqotimiz natijalari va statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, agressiv o'smirlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligidan ijtimoiy xavflilik jihatidan kam xavfliligi bilan ajralib turadi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatning asosiy qismi, ya'ni 36,20 % o'g'irlik va bezorilik jinoyatlarini tashkil qiladi. Shuningdek, ular tomonidan ba'zan bosqinchilik, zo'rvonlik jinoyatlari (21,12%) ya'ni kishilarning sumkalarini qo'lidan tortib olib qochish, bosh kiyimini olib qochish, qo'rqitib pulini olib qo'yish kabi jinoyatlar ham sodir etilayotganligi kuzatildi. Juda kam darajadagi jinoyatlar davlat va mulkdorlar mulkini o'g'irlash bilan bog'liqdir. Bunda bolalar va o'smirlarning asosan moddiy-tovar boyliklarni, ya'ni shirinliklar, mevalar, tamaki va spirtli mahsulotlar, radio va teleapparaturalar, soat va fotoapparatlar, texnik asbob-anjomlar va boshqalarni o'g'irlaganliklari kuzatiladi. Ushbulardan kelib chiqib aytilish mumkinki, bolalar va o'smirlarning jinoiy harakatlarida ularning yosh xususiyatlari aks etishligi tufayli, texnik asbob-ukunalarga nisbatan qiziqishlarning ustunligi, jinoiy harakatlari mazmunida aynan shu predmetlarga bog'liq bo'lgan jinoiy harakatlar sodir etilgan.

O'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar orasida ikkinchi ko'rsatgichni (21,12%) bezorilik jinoiyati tashkil qiladi. Bezorilik jinoiyati ko'rsatkichi bir qator tadqiqotchilarning (N.P.Grabovskaya (1969), A.A. Gersenzonlarning (1970) ta'kidlashlaricha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko'rsatgichining taxminan 15-30%ini tashkil qiladi. Bizning tadqiqotimizda esa bu ko'rsatgich voyaga yetmaganlar umumiy jinoyatchiligining 24,30 foiziga teng bo'ldi.

**Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining jinoiy turlari bo'yicha umumiy ko'rsatgichi IPS**  
(foiz hisobida)


1-jadval.

№	Jinoiy turlari	Voyaga yetmaganlar umumiy jinoyatchiligi ko'rsatgichi		
		12-14 yosh	15-17 yosh	O'rtacha
1	O'g'irlik	30,42	31,86	31,46
2	Bezorilik va bosqinchilik	23,64	24,07	24,30
3	Tan jarohati yetkazish	18,99	19,84	19,34
4	Nomusga tegish va unga harakat qilish	5,86	6,68	6,25
5	Qasddan odam o'ldirish va unga harakat qilish	4,21	5,09	4,42
6	Tovlamachilik va firibgarlik	4,96	6,07	5,36
7	Boshqa jinoyatlar	11,95	6,38	8,86

*Ilova: boshqa jinoyatlarga spirtli ichimlik va giyohvand moddalar ta'siri ostida va boshqa birovlarining ta'siri ostida sodir etilgan jinoyatlar kiradi.*

1-diagramma.

**Agressiv o'smirlar jinoyatchiligining jinoiy turlari bo'yicha taqsimlanish diagrammasi**



1. O'g'irlik. 2. Bezorilik va bosqinchilik. 3. Tan jarohati yetkazish. 4. Nomusga tegish va unga harakat qilish. 5. Qasddan odam o'ldirish va unga urinish. 6. Boshqa jinoyatlar ( boshqa jinoyatlarga ko'zbo'yamachilik, ta'magirlik, spirtli ichimlik va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida sodir etilgan jinoyatlar ).

Kuzatishlarimizga qaraganda, voyaga yetmaganlarning bezoriliklari ko'pincha o'zini ko'rsatish va ermak, ovunchoq sifatida, tengdoshlarini kuldirish, qiliqlar ko'rsatish ma'nosida sodir etiladi. O'smirning bu xildagi xatti-harakatlari ba'zan jamiyatga, kishilarga jiddiy putur yetkazishi va jinoiy harakatga aylanishi mumkin.

Shaxsga tajovuz qilish jinoyatchiligi orasida voyaga yetmaganlarning nomusga tegish jinoiy harakatlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, o'smirlar tomonidan bunday jinoiy harakatlar mastlik holatida, guruhiiy ko'rinishda amalga oshiriladi. Bunday jinoyatlarning o'ziga xos jihatlardan biri hech qachon o'ziga yaxshi tanish bo'lgan xotin-qizlarda amalga oshirmasligidir. Ya'ni, bunday jinoyatlar asosan notanish, davraga yangi taklif etilgan yoki ko'cha-ko'yda uchratib qolgan xotin - qizlarda sodir etiladi.

Voyaga yetmaganlarning bunday jinoiy harakatlarini tahlil qilganimizda, ular nafaqat jinsiy ehtiyojni qondirish, balki jinsiy tarbiya borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli sodir etilayotganligining guvohi bo'lamiz. Bunday bolalar va o'smirlar oilada jinsiy tarbiya borasida yetarlicha tarbiya ko'rmaganliklari bilan ajralib turadilar. Ayrim o'smirlar o'zining bunday harakatlarini «erkak sifatida yetilganliklari» ni ko'rsatish, namoyish etish ma'nosida ham sodir etayotganliklari kuzatiladi.

O'smirlar tomonidan garchand kam darajada bo'lsa-da tovlamachilik, firibgarlik jinoyatlari ham sodir etilgandir. Bunday jinoiy harakatlar ko'pincha noto'liq oilalarda yoki ota-onasiz tarbiyalangan o'smirlar tomonidan amalga oshirilganligi kuzatildi. Shuningdek, bunday jinoyatlar kattalarning ishtirokida ularning ta'siri, yo'l-yo'riqlari asosida sodir etilayotganligining ham guvohi bo'lamiz. Bolalar va o'smirlar o'rtasida qanday jinoyat turlarining keng tarqalayotganligidan qat'iy nazar ularda yosh davri xususiyatlarining ta'siri, o'rni mavjudligini ko'ramiz.

O'smirlarda ijtimoiy muhitga nisbatan bo'lgan deformatsiyalashuvning yuzaga kelishi va ularda ijtimoiy pozitsiyaning mavjud bo'lmasligi yoki to'satdan yo'qolishi (maktabdan haydalis, oilada nosog'lom muhitning mavjudligi, ishidan, yaqin kishisidan mahrum bo'lish) o'z navbatida noqonuniy, noaxloqiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, turli xil g'ayriqonuniy, noaxloqiy guruhlarga qo'shilish, referent guruhlarning tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan jinoyatchilik ko'chasiga kira boshlagan o'smir ko'pincha maktabni tashlaydi, o'zicha ishga kirmoqchi bo'ladi, ko'pchiligi esa umuman foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaydilar.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, hech qayerda o'qimaydigan, ishlamaydigan o'smirlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yadrosini tashkil qiladi. Agressiv o'smirlar suhbat jarayonida maktabga bormadim, o'qishni xush ko'rmadim, o'qishga qiziqishim bo'lmadi, darslarni tez-tez qoldirdim, o'qishni tashlaganimda ahmoq bo'lgan ekanman, shundan so'ng o'g'irlik qila boshladim, o'qishni tashlamaganimda o'g'irlik ko'chasiga kirmagan bo'lar edim. O'zimning ahmoqligim tufayli qamoqqa tushdim va boshqa shu singari afsus va nadomatli gaplarni ta'kidlaganliklari ijtimoiy foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanmaslik holati bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida asosiy sabablardan biri sifatida namoyon bo'lishligini ko'rsatadi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan agressiv o'smirlarning ijtimoiy muhiti sog'lom xulqli o'smirlar ijtimoiy muhitidan o'ziga xos tor doiradagi dunyoqarashga egaligi, nizoli vaziyatlar doirasining kengligi, qat'iy hayotiy pozitsiyaning, kelajakka nisbatan ijobiy qarash, maqsad va intilishlarning yo'qligi va shu kabi bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Quyida biz ushbu jihatlarni kengroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

1. Jinoyatchi bolalar va o'smirlarning xatti-harakatlari oila a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanish holati. Bunda o'smirning noqonuniy xatti-harakatiga oila a'zolari va yaqinlari tomonidan ijobiy munosabat bildiriladi. Bunday ish qilma, qilayotgan harakating noqonuniy deyish o'rniga ota-ona va atrofdagilar ularning noqonuniy xatti-harakatlarini ma'qullashadi yoki unga e'tibor berishmaydi. Natijada o'z noqonuniy harakatining ma'qullanishini his etgan o'smir yana boshqa bir noqonuniy harakatga qo'l o'radi. Oqibatda jinoyatchilik xulqi o'smirning butun faoliyatini, ongini qamrab oladi.

Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lmagan bolalar va o'smirlar muhiti esa aksincha bo'lib, unda oila a'zolari, o'rtoqlari, o'smirning noqonuniy harakatini qo'llab quvvatlamaydilar, tanbeh va tushuntirishlar beradilar. Bunday holatlarda o'smir xulqida ijobiy xislatlar yuzaga keladi.

2. Sog'lom o'smirlarga qaraganda jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan agressiv o'smirlarga ijtimoiy muhitdagi salbiy ta'sirlarning bir joyga to'plangan holda (konsentratsiyalashgan) ta'sir etishi holati. Ya'ni,

jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan o'smirlar ijtimoiy muhitdagi salbiy ta'sirlar to'plangan va har taraflama ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'smirning noqonuniy, noxloqiy muhit hukm surayotgan muhitga tushib qolishi unga har tomonlama ya'ni, ham ma'naviy, ham ruhiy, ham jismoniy, ham ko'rgazmali tarzdagi ta'sir o'tkazadi. Bu o'smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Natijada o'smirda nosog'lom xulq-atvor psixologiyasi shakllanadi.

Sog'lom xulqli bolalar va o'smirlarda har taraflama salbiy ta'sir etish muhitining mavjud bo'lmashligi ularda g'ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishining oldini oladi.

3. Agressiv o'smirlarning sog'lom xulqli o'smirlarga qaraganda tez-tez nizoli vaziyatlarga tushib qolish holati. Bunda agressiv o'smir nizoli vaziyatlar muhitiga tez-tez tushib qoladi. Buning sababi birinchidan, u hayot kechirayotgan va faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhitning nosog'lomligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan jinoyatchi bolalar va o'smirlar xulq-atvoridagi psixopatologik o'zgarishlar va ularning yosh davri xususiyatlari nizoli vaziyatlarning ko'proq yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Sog'lom o'smirlarda esa ular yashayotgan va faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhitning sog'lomligi nizoli vaziyatlarning oldini oladi va shuning uchun ular nizoli vaziyatlarga kam duch keladilar.

4. Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan o'smirlar tomonidan amalga oshirilayotgan noqonuniy xatti-harakatlarga katta yoshdagi kishilar va ota-onalarning e'tiborsizligi holati. Bunda o'z noqonuniy harakatlarining javobsiz qolishligini, kattalar tomonidan ma'qullanishligini his etgan o'smir nizoli vaziyatlarga barham berishda noqonuniy yo'lni tanlaydi. Chunki u ota-onasidan, atrofdagilardan jazo olmasligini biladi. Bu esa o'smirlar yangi-yangi noqonuniy harakatlarni bajarishga imkoniyat eshigini ochib beradi.

Sog'lom o'smirlar esa o'zlarining jazolanishlarini bilishligi tufayli noqonuniy harakatlarni bajarishdan o'zlarini tiyadi. Chunki, ular muhitida noqonuniy harakatlarni qoralash psixologiyasi mavjud bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, nosog'lom muhitga tushib qolgan o'smir asta-sekin ushbu muhitning tartib va qoidalariga bo'ysina boshlaydi. Oqibatda o'smirda ushbu mikromuhitga xos bo'lgan salbiy xislatlar paydo bo'ladi. Bu bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishida ijtimoiy muhit shart-sharoitlarining o'rni, ta'siri katta ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikr mulohazalarimizdan ko'rinadiki, ijtimoiy foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish, kitob, gazeta o'qish, teatrlarga borish o'smirlarda ijtimoiy foydali, ijobiy pozitsiyalarning va ustanovkalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa bolalar va o'smirlar xulqida salbiy pozitsiya va ustanovkalarining shakllanishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy muhit voqea-hodisalari va shart-sharoitlarning o'smirlarga ta'sir etishi ular xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. Agarda ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalar va shart-sharoitlar o'smirlar uchun ijobiy ta'sir etsa, o'smir xulqida ijobiy xislatlar, aksincha holatlarda esa salbiy xislatlar, g'ayriqonuniy ustanovkalar shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Мақтабгача та'лим муассасаси тарбияланувчилари ијтимоий-психологик мослашувининг озига хос хусусиятлари. // Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020. №2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).

2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Х.О. Researching the scope of the professional competence within activities. // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.

3. Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.

4. Ganjiev F.F. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

5. Ганжиев Ф.Ф. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.





**Ibragimova Odina Kamoldinovna**

Umumiy psixologiya kafedrası doktoranti, Andijon davlat universiteti  
boburf@list.ru

### IJTIMOY OMILLAR BOLANING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA MOSLASHUVINING MUVAFFAQIYAT OMILI SIFATIDA

**Annotatsiya:** Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashishini ta'minlashga katta o'rin egallovchi figuralardan biri albatta, ota-ona va tarbiyachi-pedagoglardir. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida moslashib, guruhdoshlari bilan kunini o'tkazishidan tortib to ovqat, uyqu rejimiga o'rganish holatlarigacha barchasi ota-ona va pedagoglarning kompleks ravishda hamkorligini talab qiladigan tizimli jarayon ekanligi ham moslashish sharti sifatida ota-ona va pedagoglarni kollegial ishlash prinsipining ahamiyati yuqori ekanini yana bir bor ta'kidlaydi. Maqolada bolani MTTga samarali ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ota-ona hamda tarbiyachi-pedagoglarning ahamiyati ijtimoiylashuv omili sifatida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, ijtimoiylashuv, samarali moslashuv, “uch yosh inqirozi”, pedagogik kompetentlik, muloqot, simbioz, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

### СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ КАК ФАКТОР УСПЕШНОЙ АДАПТАЦИИ РЕБЁНКА К ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация:** Одними из важных фигур в обеспечении социальной адаптации ребёнка к дошкольной образовательной организации, безусловно, являются родители и воспитатели. Это системный процесс, требующий всестороннего сотрудничества родителей и педагогов, от адаптации ребёнка в дошкольной образовательной организации и проведения дня с одноклассниками до удовлетворения физиологических потребностей, принцип коллегиальной работы родителей и педагогов имеет большое значение как условие адаптации. В статье рассматривается значение родителей и воспитателей как фактора социализации в обеспечении эффективной социальной адаптации ребенка к дошкольной образовательной организации.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, социализация, эффективная адаптация, «кризис трёх лет», педагогическая компетентность, общение, симбиоз, социальная поддержка.

### SOCIAL FACTORS AS A SUCCESS FACTOR OF THE CHILD'S ADAPTATION TO THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

**Abstract:** One of the important figures in ensuring the social adaptation of the child to the preschool education organization is definitely parents and educators. It is a systematic process that requires the comprehensive cooperation of parents and pedagogues, from the child's adaptation in the preschool education organization and spending the day with his group mates to learning to eat and sleep, and the principle of collegial work of parents and pedagogues is of great importance as a condition for adaptation. The article examines the importance of parents and educators as a factor of socialization in ensuring the child's effective social adaptation to PEO.

**Key words:** organization of preschool education, socialization, effective adaptation, “three age crisis”, pedagogical competence, communication, symbiosis, social support.

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirishni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash muammosining dolzarbligi nafaqat intellektual, psixologik va ijtimoiy-madaniy salohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashning shoshilinch zarurati bilan belgilanadi. Shuningdek, zamonaviy real, dinamik o'zgaruvchan muhitga muvaffaqiyatli moslasha oladigan shaxsni kamol toptirish zaruratini ham o'rtaga qo'ygani bilan xarakterlidir. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotining sharoitlariga moslashtirish muammosi maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjudligining boshidanoq paydo bo'lgan va hozirgi kunda bizning zamonaviy dunyomizda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bolani bolalar bog'chasiga yuborish vaqti kelganda deyarli har bir oila bu muammoga duch keladi. Bu davrda bolalar yaqinlaridan ajralishga ayniqsa sezgir bo'lib, ular yangilikdan juda qo'rqishadi. Bolalar bog'chasi sharoitlariga moslashish ko'pincha juda og'riqli kechishi haqida ijtimoiy tasavvurlarning o'ziyoq ota-ona va bola munosabatlarida “inqirozli” holatlarni yuzaga keltirishi bilan ham tavsiflanadi.

#### **Empirik tadqiqot natijalari.**

Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uning hayotining muhim davrlaridan biri bo'lib, barcha tana tizimlari tomonidan sezilarli stress bilan birga keladi. Yosh bolalarning ta'lim maydoniga moslashish muammosini o'rganish N.M.Aksarina, R.V.Tonkova-Yampolskaya, L.V.Belkina, L.N.Galiguzova, T.A.Doronova, I.N.Serova, E.I.Morozova, S.V.Kryukova, N.P.Slobodyak, N.V.Kiryuxina, V.N.Gurova, V.P.Kostina va boshqalarning ishlarida yoritilgan Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bolalarning ular uchun yangi hayot sharoitlariga ko'nikish tezligi va sifatiga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy omilni aniqlashga imkon beradi: birinchisi, bolaning oilasi va ota-onalarning xatti-harakatlari uning bolalar bog'chasiga moslashishiga yordam berish kafolati sifatida; ikkinchisi - maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagogik xodimlarning maxsus ishi, bu bolalar guruhiga birinchi marta kiradigan bolalarning muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

Amalda, mutaxassislar ta'kidlaganidek, moslashish davri ko'pincha o'z-o'zidan o'tadi, ota-onalar farzandlarini yangi yashash sharoitlariga oldindan tayyorlamaydilar. Shu sababli, mutaxassislarning oila va bolani ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etishlari zarur, bu esa yangi ijtimoiy munosabatlarni qurishda, o'zlari va dunyo bilan o'zaro munosabatlarning yangi modellarini o'rgatishda, bolaning sotsializatsiyasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Ijtimoiy-pedagogik yordamni olimlar pedagogik harakatlar tizimi, boshqa xarakterdagi chora-tadbirlar majmui, aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lgan muayyan jarayon, pedagogik texnologiya sifatida qaraydi va tushunadi.

Oiladagi bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurishga tayyorligiga qarab, moslashish davrining borishi va uning keyingi rivojlanishi bog'liq. Bolaning moslashish davrini yengillashtirish uchun oilaga professional yordam kerak, bu rolda bolalar bog'chasi keladi. Bolalar bog'chasi rivojlanish va ta'limning barcha paydo bo'lgan masalalari bo'yicha “erkin” bo'lishi lozim. Muvaffaqiyatli moslashish ko'plab omillarga - inson salomatligi holati, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, uning asab tizimining xususiyatlari, shuningdek, ota-onalar va bolalar bog'chasi xodimlarining vakolatli harakatlariga ham bog'liq.

Ota-onalar munosabati bolaga nisbatan har xil his-tuyg'ularning tizimi sifatida, u bilan muomalada xulq-atvorning o'zgarishligi (stereotipligi) bola shaxsi, uning xatti-harakatlari, xarakteri, idrok qilish xususiyatlarini tushunish sifatida qaraladi. Shuningdek, ilk bolalik davridagi emotsional beqarorlik, qo'zg'aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga erishish hamda ularda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish situatsion vaziyatlarga bog'liq bo'lgan bolalarning dezadaptatsiyasining oldini olishda muhim hisoblanadi.

**1-jadval.**

#### **“Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi” metodikasining pedagog va ota-onalar tafovutlari**

Shkalalar	O'rtacha rang ko'rsatkichlari		Statistik ko'rsatkich	
	Tarbiyachi-pedagoglar (n=85)	Ota-onalar (n=115)	U	P
Qabul qilingan xo'rlangan	110,82	92,87	4010,500	<b>0,030*</b>
Simbioz	110,01	93,47	4079,500	<b>0,043*</b>
Kichik omadsiz	89,18	108,87	3925,500	<b>0,017*</b>

Izoh: \* -  $p < 0,05$

Ota-ona va pedagoglarning bolaga nisbatan munosabatlari diagnostika qilinganda qabul qilingan-xo'rlangan shkalasida tarbiyachi-pedagoglar 110,82, ota-onalar 92,87 qayd etib, ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=4010,500$ ,  $p < 0,05$ ). Tarbiyachilarning bolani bor imkoniyatlari, individual-psixologik xususiyatlari, rivojlanish darajasidagi farqlarni inobatga olgan holda munosabatda bo'lishi balandligi bolaning ijtimoiy moslashishini ta'minlashda muhim o'rin tutar ekan. Ota-onalarda nisbatan pastroq ko'rsatkichlar kuzatilganini esa, ko'proq ularda farzandini “ideallashtirish” motivining yuqori bo'lishi bilan izohlashimiz mumkin. Shuningdek, ota-onalar farzandiga ish, ro'zg'or tashvishlari bilan ko'p e'tibor qaratmagani natijasida farzandning bor imkoniyatlari, qiziqishlarini to'g'ri baholash holatlari kamroq sodir bo'ladi.

Kooperatsiya, ya'ni hamkorlik ko'rsatkichida ishonchli tafovutlar aniqlanmasdan, ota-ona va pedagog-tarbiyachilar bolaga yondashuvda hamkorlik, birgalikda faoliyat olib borish, qiziqishlarni hisobga olish, bolaning rejalarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish pozitsiyasini birdek afzal ko'rishlari ma'lum bo'ladi

( $U=4406,500$ ,  $p<0,230$ ). Shu bilan bir qatorda, ota-onalarda farzandlarining ijodiy va aqliy qobiliyatlarini yuqori baholash, u bilan faxrlanish, bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligi uchun uni taqdirlash, u bilan teng bo'lishga intilish. bolaga ishonch bildirish, munozarali masalalarda uning fikrini ma'qullash kabilar tarbiyachilarga qaraganda balandroq bo'ladi. Natijalar tahliliga muvofiq, ushbu holatning normadan yuqori ko'rinish olishi bolada “tanholik” instinktining rivojlanishida qo'l keladi hamda bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishdan bosh tortadi, xohishlarini ro'yobga chiqarishmaguncha tinchimaydi. Bu shkala bo'yicha past ballarda ota-onalar-farzandlariga nisbatan teskari munosabatda bo'ladilar.

2-jadval.

Ota-ona va bolalarning tadqiqot metodikalari natijalarining bog'liqliklari

Aloqadorlik ko'rsatkichlari	Qabul qilingan xo'rlangan	Kooperatsiya	Avtoritar giper ijtimoiylashuv	Kichik omadsiz
Otaga bo'lgan munosabat	<b>0,282**</b>	0,017	<b>-0,255**</b>	<b>-0,246**</b>
Aka-uka, opa-singilga bo'lgan munosabat	-0,131	<b>-0,416**</b>	<b>-0,225*</b>	<b>-0,407**</b>
Buvi-buvaga bo'lgan munosabat	<b>0,369**</b>	<b>0,215*</b>	-0,229*	0,069
Do'stga bo'lgan munosabat	0,137	<b>-0,187*</b>	<b>-0,243**</b>	<b>-0,287**</b>
Tarbiyachiga bo'lgan munosabat	-0,136	-0,129	<b>-0,222*</b>	<b>-0,262**</b>
Qiziquvchanlik darajasi	0,030	-0,048	-0,095	<b>-0,296**</b>
Hukmronlikka intilish	-0,105	-0,131	0,026	<b>-0,228*</b>
Xulq-atvorning ijtimoiy o'xshashlik darajasi	<b>-0,331**</b>	-0,084	0,028	0,040

Izoh: \* -  $p<0,05$ , \*\* -  $p<0,01$ 

Ota-ona va bolalarning tadqiqot metodikalari natijalarining bog'liqliklari tahliliga muvofiq bolada otaga bo'lgan munosabatning ortishi, otaga bog'lanib qolish kabi holatlar ota-onada bolaga nisbatan “nochor” shaxs pozitsiyasini shakllanib qolishiga turtki bo'lar ekan ( $r=0,282$ ,  $p<0,01$ ). Shuningdek, bolaning ota obrazini normal qabul qilishi ota-onaning bolaga nisbatan qattiq nazoratini ( $r=-0,255$ ,  $p<0,01$ ), uni haddan ortiq himoyalashga bo'lgan urinishlarining kamayishini taqozo qiladi ( $r=-0,246$ ,  $p<0,01$ ). Bola ota-onasi bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tashkilotiga borsa, moslashishda ota-ona ko'magiga tayansa unda o'zini mustaqil shaxs sifatida qarorlar qabul qilish motivi biroz pasayishiga qaramasdan, kollegial hamkorlik borasidagi ustanovkalari rivojlanib boradi. Mustaqil ish qilishdan oldin ota-ona bilan “o'rtoqlashish” tamoyili shakllanib boradi.

Navbatdagi aloqadorliklar aka-uka, opa-singilga munosabat hamda kooperatsiya ( $r=-0,416$ ,  $p<0,01$ ), avtoritar giperijtimoiylashuv ( $r=-0,225$ ,  $p<0,05$ ), kichik omadsiz shkalalari ( $r=-0,407$ ,  $p<0,01$ ) o'rtasida kuzatildi. Bolaning o'z tug'ishganlariga munosabatidagi notekisliklar hajmining ortib borishi, ya'ni o'zidan katta aka-opasining gaplariga kirmasligi, ularni qabul qilmasligi, yoki aksincha, opa-akasi bilan hamkorlik qilishi, ular bilan birgalikda vaqt o'tkazishga intilishining kuchayishi ota-onalarda kenja yoki ilk bolalik davridagi bolaga nisbatan himoyasiz kabi qarashlarning pasayishiga olib keladi. Bunda ota-ona nazoratni katta farzandlariga yuklaydi, bola bilan kundalik mashg'ulotlarga o'zidan katta aka yoki opasini birgalikda hamroh tarzda yuboradi, Bu o'z navbatida, sibling munosabatlar dinamikasining barqarorlashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin.

Buvi-buvaga bo'lgan munosabat ko'rsatkichi bolaning ota-onasidan ko'ra, buvi-buvasi bilan bo'lganda hissiy komfortni his qilishini bildirib, ushbu hissiy yaqinlik qanchalik ortsa, ota-ona tasavvurida bolaning kattalar ko'magiga muhtojligi ( $r=0,369$ ,  $p<0,01$ ), qarovsiz qoldirmaslik borasidagi fikrlari hamda haddan ziyoda bolaga bog'lanib qolishlari, uni ijtimoiy nazoratda ushlash istaklari ham ortib boradi ( $r=0,212$ ,  $p<0,05$ ). Yana bir bog'liqlik do'stga bo'lgan munosabat shkalasida ham kuzatilib, bolada o'z tengdoshlari bilan do'stlashish, vaqtini brigada o'tkazish kabi motivlar paydo bo'lsa, ota-onada bola bilan barcha narsani birgalikda qilish ( $r=-0,187$ ,  $p<0,05$ ), uni juda ham asrab-avaylash ( $r=-0,243$ ,  $p<0,01$ ), “nimjon” shaxs sifatida tasavvur etib, haddan ortiq e'tibor ko'rsatishi ( $r=-0,287$ ,  $p<0,01$ ) pasayadi.

Xususan, tarbiyachiga bo'lgan munosabatda bola uning aytganlarini, topshiriqlarini so'zsiz bajarsa, maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirish bo'yicha ko'rsatmalarni qilishda davom etsa, bolaga nisbatan ota-onaning xavotiri biroz kamayadi ( $r=-0,222$ ,  $p<0,05$ ), unga ishonishni boshlaydi, bolaning “ishonchli qo'llarda” ekanligini idrok qilib, bola qiziqishlari, intilishlarini baholashga intiladi ( $r=-0,262$ ,  $p<0,01$ ). Yuqoridagilar bilan bir qatorda bolada qiziquvchanlik darajasi ( $r=-0,296$ ,  $p<0,01$ ), hukmronlikka intilish ( $r=-$

0,228,  $p < 0,05$ ) xohishining ortishi ortidan ota-ona bilan munosabatlarida o‘zining iqtidori, qobiliyatlarini namoyon qilishi ularga “tan oldirish” darajasi ortadi. Bolaga ota-onaga kichik omadsiz sifatida emas, yetilayotgan iqtidor egasi sifatida qaray boshlaydi, uning rejaları, harakatlarini hurmat qilib to‘g‘ri baholaydi. Shular bilan birga bolada maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi bolalar bilan ijtimoiylashishga kirishish natijasida xulq-atvorining begona bolalarga o‘xshashligi paydo bo‘lishi, ularning so‘zlari, harakatlari va javob reaksiyalarini sekin o‘zlashtirib borishi natijasida ota-onada bolaning bu reaksiyalariga nisbatan uni “qabul qilish” ko‘lami ortib, bolani yolg‘iz, ko‘makka muhtoj shaxs sifatida idrok etish darajasi kamayib boradi ( $r = -0,331$ ,  $p < 0,01$ ).

3-jadval.

Ota-ona va bolalarning tadqiqot metodikalari natijalarining bog‘liqliklari

Aloqadorlik ko‘rsatkichlari	Qabul qilingan xo‘rlangan	Kooperatsiya
Qulay oilaviy sharoit	0,207*	0,278**
Oiladagi nizo	0,165	-0,220*
Oilaviy vaziyatda nomukammallik tuyg‘usi	0,060	0,350**

Izoh: \* -  $p < 0,05$ , \*\* -  $p < 0,01$

Ota-onaning farzand bilan munosabati hamda oila rasmi metodikasining bog‘liqliklari tahliliga binoan, ota-onasi tomonidan bolaga qulay oilaviy sharoitning yaratilishi bolaning ota-ona tomonidan yakka hukmronga aylanib, yanada bolaga g‘amxo‘rlik qilish ko‘lamining ortishiga olib keladi ( $r = 0,207$ ,  $p < 0,05$ ). Natijalarga muvofiq shuni aytish mumkinki, qulay oilaviy sharoit bir tarafdin bolada mustaqillik, erkinlik kabi xususiyatlarni shakllantirsa, ikkinchi tarafdin, ijtimoiylashuvda muhim ahamiyat kasb etuvchi maktabgacha ta‘lim tashkilotiga bosh tortish, o‘z uyidan chiqmaslik kabilarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Qo‘shimcha tarzda, qulay sharoitning vujudga keltirilishi ota-ona bilan bola munosabatlarining hamkorlik asosida rivojlanishiga ham undar ekan ( $r = 0,278$ ,  $p < 0,01$ ). Oiladagi sodir bo‘lib turadigan nizo, janjallar bola va ota-ona munosabatlaridagi hamkorlik prinsipining buzilishiga olib kelsa ( $r = -0,220$ ,  $p < 0,05$ ), oiladagi vaziyatdan u darajada qoniqmaslik, o‘zida nomukammallik tuyg‘usini his qilish ota-onaning bolaga munosabat ko‘lamini oshirib, ko‘proq birga vaqt o‘tkazishga undashi mumkin ( $r = 0,350$ ,  $p < 0,01$ ).

#### Xulosa va tavsiyalar.

Natijalardan ma‘lum bo‘ladiki, ota-onaning bola bilan hamkorligi yaxshilansa, unda moslashish jarayoni osonlashadi, lekin o‘ziga, o‘z kuchiga ishonmasligi ham ortadi, ichki ziddiyat ota-onaning bolaga haddan ortiq ishiga aralashib ketgan holatlarida ortib boradi. Manfiy aloqadorliklar aniqlangan shkalalarda esa, ota-onaning bolaga tazyiq o‘tkazmasligi, har bir bolaning qilayotgan harakatida boladan “hisobot” talab qilmasdan, qo‘lidan kelmayotgan topshiriqni birga bajarishga intilishi natijasida bolada maktabgacha ta‘lim tashkilotiga qiyin va o‘rta moslashish ko‘lami pasayadi. Natijada bola ijtimoiy moslashishga nisbatan o‘zida tayyorlik hosil qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Лапина И.В. Адаптация детей при поступлении в детский сад: программа, психолого-педагогическое сопровождение. Волгоград: Учитель, 2015. 128 с.
2. Социальная адаптация детей в дошкольных учреждениях [Текст] / Под ред. Р.В.Тонковой-Ямпольской, Е.Шмидт-Кольмер, А.Атанасовой-Буковой. М., 2008. 320 с.
3. Морозова Е.И. 2002. Группа кратковременного пребывания: мой первый опыт сотрудничества с родителями // Дошкольное воспитание. № 11. С.10-14.
4. Остроухова А. Успешная адаптация // Обруч. № 3. С. 16-18. 2000.
5. Балл Г.А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности [Текст] / Г.А.Балл // Вопросы психологии. – 1989. – № 1. – С. 92-100.
6. Барышникова Е.В. Изучение психологической адаптации детей раннего возраста к дошкольному образовательному учреждению // Концепт. - 2015. - № 03 (март). - ART 15066. - 0,3 п. л. - URL: <http://e-koncept.ru/2015/15066.htm>. - Гос. рег. Эл № ФС 7749965. - ISSN 2304-120X.
7. Долгова В.И., Капитанец Е.Г., Кондратьева О.А., Шумакова О.А. Психолого-педагогическое сопровождение детско-родительских отношений: монография. - М.: Буки Веди, 2012. - 152 с.

8. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. СПб.: Питер, 2016. - 400 с.
9. Корсун Т.А. Психолого-педагогические условия успешной адаптации в ДОУ [Текст] // Педагогический опыт: теория, методика, практика. Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс. 2014. №1(1). С. 59-63.
10. Пистун Ю.В. Психолого-педагогическое сопровождение адаптации ребенка и его семьи к условиям дошкольного образовательного учреждения / Ю.В.Пистун, К.И.Григорян, Г.П.Ковачева // Молодой ученый. 2014. № 4. С.1064-1066.
11. Аксарина Н.М. Воспитание детей раннего возраста. М., 1977; Ватутина Н. Д. Ребенок поступает в детский сад. М., 1983; Исаев Д. Н. Детская медицинская психология. СПб., 2004
12. Теплюк С. Улыбка малыша в период адаптации // Дошкольное воспитание. 2006. № 3. С. 29-35.

**Isoxonova Farzona Akbar qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Oila psixologiyasi” yo'nalishi magistranti  
farzonaisaxonova@gmail.com*

### **ZAMONAVIY SHAROITDA OILADA PSIXOLOGIK MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOYIY-MA'NAVIY OMILLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada jamiyatning muhim bolagi hisoblangan oilada psixologik muhit barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik tomonlarini ilmiy tadqiq etilgan. Oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish orqali uning ijtimoiy rivojlanishdagi rolini ko'rsatish dolzarbligi ochib berilmoqda. Maqolada mavzuga oid ilmiy izlanishda oiladagi psixologik muhit barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mohiyati, oiladagi ma'naviy olamidagi transformatsion va innovatsion xususiyatlar nazariy, metodologik va amaliy xulosalarda aniqlashtirilgan. Shuni hisobga olib, oiladagi ma'naviy muhitni globallashtirish sharoitida kirib keladigan turli tahdidlardan asrash, oilada barqaror turmush tarzi, oilani axloqiy va estetik takomillashtirib borishi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, oila, ma'naviyat, ma'naviy muhit, psixologik muhit, globallashtirish, axloq, tahdid, ma'naviy hayot, barqarorlik, ijtimoiy muammolar, turmush tarzi, ijtimoiy psixologiya.

### **СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ**

**Аннотация.** В статье научно исследуются социальные, духовные, этико-эстетические аспекты обеспечения стабильности психологической среды в семье, которая считается важной частью общества. Путём изучения социально-психологических аспектов обеспечения стабильности духовной среды в семье выявляется необходимость показать её роль в общественном развитии. В статье в теоретических, методологических и практических выводах уточняется социально-психологическая сущность обеспечения стабильности психологической среды в семье, трансформационные и инновационные особенности духовного мира в семье. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по защите духовной среды в семье от различных угроз в условиях глобализации, поддержанию стабильного образа жизни в семье, нравственному и эстетическому совершенствованию.

**Ключевые слова:** общество, семья, духовность, духовная среда, психологическая среда, глобализация, нравственность, угроза, духовная жизнь, устойчивость, социальные проблемы, образ жизни, социальная психология.

### **SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF ENSURING THE STABILITY OF THE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY IN MODERN CONDITIONS**

**Abstract.** In the article, the social, spiritual, educational, ethical and aesthetic aspects of ensuring the stability of the psychological environment in the family, which is considered an important part of society, are scientifically researched. By studying the socio-psychological aspects of ensuring the stability of the spiritual environment in the family, the need to show its role in social development is revealed. In the article, the socio-psychological essence of ensuring the stability of the psychological environment in the family, the transformational and innovative features of the spiritual world in the family are clarified in theoretical, methodological and practical conclusions. In addition, proposals and recommendations have been developed in order to protect the spiritual environment in the family from various threats in the context of globalization, to maintain a stable lifestyle in the family, and to improve the moral and aesthetic of the family.

**Key words:** society, family, spirituality, spiritual environment, psychological environment, globalization, morality, threat, spiritual life, stability, social problems, lifestyle, social psychology.

**Kirish.** Jamiyatda oila ma'naviy muhitini asrash, uni globallashtirish sharoitida kirib keladigan turli tahdidlardan asrash, oila ijtimoiy-ma'naviy hayotida ijobiy o'zgarishlarni doimiy ravishda ta'minlash bugungi davrimizning eng muhim muammolaridan hisoblanadi. Oila ma'naviy muhitida barqarorlik bilan

birgalikda turli to‘siqlar va ma’naviy tahdidlar va ijtimoiy muammolar bo‘lishi, tabiiy. Oila ma’naviyatini yuksalishiga to‘g‘anoq bo‘ladigan illatlarni engib o‘tish, ularni bartaraf etish va oldini olib borish jamiyatda eng muhim, birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hisoblanadi. Mazkur illatlarga qarshi kurashishda davlat va jamiyat institutlarining ham roli kattadir.

O‘zbekistonda oila ijtimoiy hayoti uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilayotganligi ularni ma’naviy olamini barqarorlashtirishda muhim xizmat qiladi. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda qonuniy va huquqiy baza yaratilgani oilada munosib turmushni ta‘minlash uchun boy amaliy tajriba to‘plangan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida oila masalasi alohida bobda ko‘rsatilgan bo‘lib, 76-moddada “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi” [1,25], deb ta’kidlangan.

Bugungi zamonaviy sharoitda oilada ma’naviy muhit barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari va axloqiy-estetik tomonlarini ilmiy tadqiq etish, nazariy hamda amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy psixologiya ilmida oilada ma’naviy muhit barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganish orqali uning ijtimoiy rivojlanishdagi rolini ko‘rsatish dolzrligi oshib bormoqda. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida oilaviy munosabatlar, oilaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va roli tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan.

Mavzuga oid ilmiy izlanishda oiladagi ma’naviy muhit barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik mohiyati va funksiyalari, uning transformatsion va innovatsion xususiyatga ega jarayon ekanligi nazariy, metodologik va amaliy xulosalarda aniqlashtirildi. Shuni hdek, oiladagi ma’naviy muhitni globallashtirish sharoitida kirib keladigan turli tahdidlardan asrash, barqaror turmush tarzi, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni doimiylikni ta‘minlash, oila axloqiy va estetik tomonlarini takomillashib borish kabi jarayonlar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Materiallar va metodlar** Oiladagi psixologik muhit va undagi ma’naviy munosabatlarni barqarorlashtirishga oid xususiyatlarini ilmiy o‘rganish bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa, psixologiya, sotsiologiya, politologiya, ma’naviyatshunoslik kabi fanlar tizimida ham oila barqarorligi, uning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni o‘rganilmoqdaki, bu jarayonlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etish imkonini beradi.

Oila va uning jamiyatdagi o‘rni borasidagi ilmiy muammoni xorijiy olimlarning bir qancha ishlarida tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik tadqiqotchilar A.Toynbi, G.Gadamer, D.Feldshteyn, Z.Freyd, I.Prigojen, K.Levi-Stross, E.Fromm, F.Nitsshe, S.Golod, M.Arutyunyan, O.Zdravomislova, Z.Yankova kabilar oiladagi sog‘lom turmush tarzining barpo etilishi, bu jarayon bilan bog‘liq etnoestetik muammolarini tadqiq etganlar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish muammolariga oid muayyan darajada o‘z ichiga olgan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, V.Karimova, O.Musurmonova, G‘.Shoumarov, M.Davletshin, N.Sog‘inov, R.Samarov, R.Abdullaeva, S.Karimov, X.Uzoqov, F.Akramova, X.Shayxova, G‘.Najimov, M.Xolmatova, N.O‘rinboyev singari olimlarimiz shular jumlasidandir.

**Muhokama va natijalar.** Zamonaviy sharoitda globallashtirish jarayonlarining rivojlanib borishi davrida jamiyatning har bir tizimida ijtimoiy va ma’naviy barqaror muhitni asrash borasidagi murakkab muammolar tahlili ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda oila muhitida mavjud salbiy vaziyatlar va muammolarni kelib chiqish sabablarini, namoyon bo‘lish shakllarini ijtimoiy-psixologik asoslarda tizimli tahlil qilish muhimligicha qolmoqda. Shuningdek, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish, muammoviy vaziyatlarni rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, ularni oldini olish va bartaraf etishda tavsiyalar berish hamda ularni bo‘lish ehtimolini oldindan bashorat qilish hozirgi kundagi dozarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta’kidlashicha, «... bugungi tez o‘zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin» [2,464]. Shu nuqtayi nazardan, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-madaniy muhitni, sog‘lom tafakkur tarzi, sog‘lom tarbiya tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, oilada sog‘lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish obyektiv zaruriyatdir.

Jamiyat ma’naviy barqarorligini ta‘minlash tizimida oila ma’naviy muhitiga salbiy ta’sir etadigan hodisa va jarayonlar, ularning o‘zaro bir-biriga ta’siri va muntazam sharoitlari o‘rganilib, ijtimoiy tizimning muvozanatiga nomuvofiqi va qarama-qarshi hodisasi sifatida tadqiq etilishi lozim. Oila muhitidagi alohida olingan muammolar va salbiy hodisalarni o‘rganish, tahlil etish, uning o‘sish va rivojlanish dinamikasini o‘rganish va ularni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq etishga ehtiyoj sezilmoqda. Bugungi tahlilshunoslik sohasi

doirasida jamiyat, xususan oila tizimi bilan aloqador bo‘lgan bir qancha tahdidlar, muammolar hamda salbiy omillar bilan bog‘liq tushunchalar mavjudirki, ularning tadqiq va tahlil etish dolzarb masaladir.

Inson ongiga ma’naviy tahdidlarning mavjudligi va ularning barqaror ma’naviy muhitga salbiy ta’sirlari borasida Sh.Paxrutdinovning ta’kidlashicha, “Tahdid insonning hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiradigan hamda muayyan tarixiy davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy tuzilmani, to‘g‘rirog‘i davlatning siyosiy asosini zaiflashtirilishi, emirilishiga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning “tajovuz”i tufayli makon va zamonda vujudga keladigan ma’lum ijtimoiy-siyosiy va tarixiy vaziyatdir. Tahdidlar turli tuman: ichki, tashqi, katta va kichik, makon va zamon nuqtayi nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin” [3,19].

Oila ma’naviy hayotida uchraydigan tahdidlar, salbiy omillar va muammolarni yanada aniqlashtirish, oydinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli izlanishlar va tadqiqotlar o‘tkazish darkor. Oila ma’naviy hayotiga, ularning turmush tarzi va yashash jarayonidagi muhim qadriyatlariga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan salbiy omillarni ko‘rsatib berish va uni oldini olish, bartaraf etish borasidagi ma’lumotlar to‘plash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida insoniyatning hayot-mamoti bilan bog‘liq terrorism, narkomaniya, ekologik tahdid, tabiatni asrab-avaylash, o‘zaro hamkorlik va tinchlik kabi dolzarb muammolarni bartaraf etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning ta’kidlashicha, “Globallashuv davrida tahdidlarning turlari, tez ta’sir o‘tkazish yo‘llari ko‘paydi va ommalashib bormoqda. Ularning quyidagi turlarini sanab o‘tish mumkin:

- diniy ekstremizm;
- xalqaro terrorism;
- giyohvandlik;
- ommaviy madaniyat;
- kosmopolitizm (dunyo fuqarosi yoki vatansizlik hoyasi);
- ludomaniya (kompyuter o‘yinlari kasalligi yoki asr kasalligi);
- missionerlik, prozelitizm;
- nigilizm (urf-odat, an’ana va qadriyatlarga bepisand munosabatda bo‘lish, ularni inkor etish);
- zo‘ravonlik (fashizm, neofashizm, shovinizm);
- egotsentrizm, individulizm;
- OITS;
- starizm (yulduzlarga ko‘r-ko‘rona taqlid);
- vandalizm (madaniy va moddiy yodgorliklarni vayron qilish);
- axloqsizlik (fohishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar);
- xepining (vahshiyona ko‘ngil ochishlar)” [4,6].

Hozirgi davrda oilada ma’naviy qadriyatlarni asrash oilada yoshlarni diniy ekstremistik, gedonistik, axloqsizlik kabi salbiy tahdidlardan himoyalash bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning negizi hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi jamiyat hayotiga zamonaviy madaniyatlar (ayniqsa, ommaviy madaniyatni) to‘xtovsiz kirib kelayotgan bir davrda barkamol avlodni shakllantirish masalasiga xushyorlik bilan yondashish taqozo etiladi. Yoshlar ongidagi ma’naviy bo‘shliqni milliy va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari bilan to‘ldirish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga zaruriyat sezilmoqda.

Oilada ijtimoiy, ma’naviy va psixologik muhitning sog‘lomligini ta’minlash oilaning bugungi va kelajakdagi barqarorligini ta’minlaydi. Afsuski, hozirgi davrda oila psixologik muhitning ko‘pgina hollarda nobarqaror ekanligi, salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mazkur salbiy oqibatlarining jamiyat uchun eng ayanchlisi oilaviy ajrimlar hisoblanadi. Oilaviy ajrimlar soni yildan yilga ko‘payib bormoqda. Masalan, 2022-yilda 2021-yildagimga nisbatan mamlakatimizda oilaviy ajrimlar soni 24 foizga oshgan. Manbada qayd etilishicha, “2022-yilda O‘zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman ajrashgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 39 227 tani tashkil qilgan. Bu esa 2022-yil uchun har ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni – 1,4 promillega to‘g‘ri kelishini anglatadi. Hududlar kesimida nikohdan ajralish holatlari soni eng ko‘p – Toshkent shahri – (5 901 ta) hamda Farg‘ona (5 445 ta) va Toshkent (5 098 ta) viloyatlarida kuzatilgan” [6,1].

Oiladagi har bir insonning oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti va uni doimiy sog‘lom holda saqlashga qaratilgan xatti-harakatlari, doimiy iliq munosabatlarni saqlashga intilishlari ularning tafakkur tarzi orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkurning mohiyatini hayotiy ilmlar va ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni teran tushunish belgilar ekan, sog‘lom tafakkur o‘z navbatida oilaviy hayotning ma’no va maqsadini to‘g‘ri yo‘lga solishga xizmat qiladi. Oilada ba’zi insonlarning tafakkuridagi nuqsonlar, tabiiyki, oiladagi nosog‘lom turmush tarzi, unda ba’zi ziddiyatlarning vujudga kelishiga olib keladi. Bu jarayon ikki tomonlama ro‘y



beradi, nosogʻlom tafakkur nosogʻlom oilaviy muhitni, noqulay turmush tarzi esa, tafakkurdagi degradatsiyaga sabab boʻladi.

Oilada psixologik muhit barqarorligini taʼminlashda quyidagi omillar muhim oʻrin tutadi:

oila mikromuhitida har bir aʼzoning oʻzini erkin, bir biri bilan teng, himoyalangan va oʻzaro ishonch asosidagi kayfiyatlari hukmron boʻlishi;

oila qadriyatlarining avloddan avlodga ogʻishmay oʻtib borishi va mazkur anʼanalarning oila mikromuhiti psixologik holatiga ijobiy taʼsirining doimiy davom etishi;

oila aʼzolarining boʻsh vaqtlarida doimo birga boʻlishiga erishish, turli xil tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan mavzularda suhbatlar qilinishi, uy ishlarini birgalikda amalga oshirish;

oilada oiladagi yutuqlar va tajribalar bilan faxrlanish tuygʻusini vujudga eltirish, oila aʼzolarining har birini maʼnaviy takomili, ijtimoiy masʼuliyatini shakllantirish.

Q.Quronboevning taʼkidlashicha, “Oila, maktab va mahallada barqarorlashgan yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlar teran tafakkurli barkamol shaxsni voyaga etkazadi. Bugungi yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilishga oʻrgatish, mamlakatimiz istiqboli va taraqqiyotiga oʻzining munosib hissasini qoʻsha oladigan, iymon-eʼtiqodi mustahkam, irodasi baquvvat farzand qilib tarbiyalashda ota-onalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, taʼlim muassasalarining hamkorligi izchil va tizimli ravishda olib borishni davrning oʻzi taqozo qilmoqda” [5,5].

Oilaning ijtimoiy-maʼnaviy hayoti murakkab jarayonlar ketma-ketligini tashkil etib, bu tizimning biron halqasiga darz ketsa turli-tuman tashqi taʼsirlarning oila muhitiga kirib kelishiga sabab boʻladi. Bu tashqi taʼsirlar ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy, axloqiy, ekologik va yana bir qator yoʻnalishlarga egadir. Mazkur jarayon oʻzining murakkab qonuniyatlariga ega boʻlib, tashqi taʼsirlarning oʻziga xos tarzda tashuvchilari, taʼsir etuvchi mexanizmlari mavjud boʻladi. Oila mana shunday turli-tuman salbiy taʼsirlarga dosh berish, oʻzini oʻzi himoyalashi jarayonlarida faoliyat koʻrsatib, ayni vaqtda unda oʻziga xos estetik muhitga ehtiyoj sezila boshlaydi.

**Xulosa.** Demak, xulosa qilib aytganimizda, zamonaviy sharoitda oilada maʼnaviy barqarorlikni taʼminlashning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil etishda quyidagi xususiyatlarni inobatga olish lozim:

1. Bugungi kunda jamiyatimizda oilada barqaror muhitni asrash va aholi turmush madaniyatini yuksaltirish borasida muhim chora-tadbirlar olib borayotganligi, oilada yosh avlod tarbiyasi yoʻlidagi ishlarning ijtimoiy taraqqiyot koʻlamlariga mos ravishda tashkil etilayotganligi oilaning jamiyatdagi rolini oshirmoqda.

2. Oilada baʼzi aʼzolarining globallashuv orqali kirib kelayotgan turli tahdidlarga berilishlarini oldini olish, bu borada doimiy ravishda kuchli tarbiyaviy mexanizmlarni qoʻllab borish, mazkur holatlarning vujudga kelish shart-sharoitlari va sabablarini oʻrganish muhim voqelik hisoblanadi.

3. Oilada ijtimoiy-psixologik muhitida deviant xulq-atvoriga ega boʻlgan yoshlar shakllanishiga yoʻl qoʻymaslik, ularning axloqiy tarzidagi salbiy oʻzgarishlar darajalarini oʻz vaqtida sezish, ota-onalarning maʼnaviy tarbiyadagi rolini oshirish muhimdir.

4. Oilaning baʼzi aʼzolari oʻrtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik hodisalari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi omil boʻlishi bilan birga oila maʼnaviy barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan jarayon sifatida jamoatchilik eʼtiborini qaratish lozim.

### Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 apreldagi <https://lex.uz/docs/6445145>. -B. 25.

2. Mirziyoev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va koʻrki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: Oʻzbekiston, 2018. – B. 464.

3. Paxrutdinov SH. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. -Toshkent: Akademiya, 2006. –B.19.

4. Qosimov N., Jumaev SH., Togʻayqulov T. Globallashuv: oila va farzand tarbiyasi (Ota-onalar uchun ilmiy-amaliy qoʻllanma). –Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2016. –B. 6. .

5. Quronboev Q. Shukronalik – maʼnaviyat targʻibotining uzviy jihati. //Yoshlarda shukronalik va hayotga pozitiv yondoshuvni mustahkamlash ijtimoiy barqarorlik omili sifatida./Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, Nishon-noshir, 2014. –B. 5.

6. <https://www.xabar.uz/mahalliy/ozbekistonda-oilaviy-ajrimlar-soni-qariyb-chorak-barobarga>.

*Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*qshakarjon@mail.ru*

### **БОШЛАНГИЧ СИНОФ ЎҚИШ ДАРСЛАРИДА МАТН УСТИДА ИШЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ**

**Annotatsiya:** Maqolada ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, madaniyat, san'at va adabiyotning jadal o'sishi bolalarning aqliy-ruhiy kamoloti xususida fikr yuritilgan. Ta'lim-tarbiya sohasida yangi usul va metodlardan foydalanishni, xususan, o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari va nutqini o'stiruvchi ish turlarini keng qo'llashni taqozo etadi. Nutq o'stirish bo'yicha ishlar xilma-xil. O'qituvchi ona tili bo'yicha nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda o'quvchilarga ko'maklashishi, ularni egallagan malakalaridan amaliyotda mohirona foydalanishga o'rgatishi lozim.

**Kalit so'zlar:** nutq o'stirish, matn ustida ishlash, og'zaki va yozma nutq, muloqot, so'z ma'nosi, nutq.

### **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются динамичное развитие науки, техники и технологий, бурный рост культуры, искусства и литературы в контексте психического и духовного созревания детей. Это требует применения новых методов и приемов в учебно-воспитательной сфере, в частности, широкого применения видов работы, развивающих у учащихся навыки самостоятельного творческого мышления и речи. Работа по развитию речи разнообразна. Учитель должен помогать учащимся в приобретении речевых знаний, умений и навыков по родному языку, учить их умело использовать полученные навыки на практике.

**Ключевые слова:** развитие речи, работа над текстом, устная и письменная речь, общение, значение слова, речь.

### **PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF WORKING ON TEXT IN PRIMARY CLASS READING LESSONS**

**Abstract:** The article examines the dynamic development of science, technology, the rapid growth of culture, art and literature in the context of mental and spiritual maturation of children. It requires the use of new methods and techniques in the educational sphere, in particular, the widespread use of types of work that develop students' skills of independent creative thinking and speech. The work on speech development is diverse. The teacher should help students to acquire speech knowledge, skills and abilities in their native language, teach them to skillfully use the acquired skills in practice.

**Keywords:** speech development, work on text, oral and written speech, communication, word meaning, speech.

**Kirish.** Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

“Ona tili dasturi”ning asosiy tamoyillaridan biri ham nutqni rivojlantirishga qaratilgan ekan, bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun har bir o'qituvchi, birinchidan, nutq o'stirish bo'yicha ishlar mazmuni, ya'ni o'quvchiga berish lozim bo'lgan aniq nutqiy malakalarni, ikkinchidan, ta'limni tashkil qilish usullari, ya'ni tegishli mashq turlarini aniq tasavvur qilishi lozim. Boshqacha aytganda, u yoki bu grammatik-orfografik malakalarni egallayotganda nutq nuqtai nazaridan nimalarga o'rgatish va buni qanday amalga oshirishni bilishi lozim.

**Muhokama va natijalar.** Ta'kidlab o'tilganidek, boshlang'ich sinf “O'qish kitobi” darsliklariga kiritilgan badiiy matnlarni o'qish o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish, tasavvurlarini kengaytirish hamda his-hayajonini tarbiyalashga ham ko'maklashadi. Shu jarayonda ularning nutqi ham yangi-yangi so'z va iboralar bilan boyiydi.

Metodist-olimlarning fikricha, o‘qish matndan axborotni aniqlash, faol qayta ishlash va anglashdan iborat bo‘lgan nutqiy faoliyat ko‘rinishidir. To‘g‘ri, matnni o‘qish unda bayon etilgan axborotni aniqlash hisoblanadi. Biroq bu uning o‘ziga xos tavsifi emas. Chunki umuman nutqni eshitish, hikoya qilingan yoki kimdir ovoz chiqarib o‘qiganini tushunish ham axborotni aniqlash, faol qayta ishlash, anglashdir. Demak, o‘qishning muhim xususiyati axborotni olishda emas, balki axborotni olish qanday asosda kechganligidadir. O‘qish jarayoni matn bilan chambarchas bog‘liq. Hatto eng yaxshi o‘qiydigan o‘quvchi ham qiyin so‘z yoki murakkab matnga duch kelsa, qiyinchilik bilan sekin o‘qiy boshlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda nutq va uni o‘stirishning nazariy asoslari, usullari borasida ko‘pgina olimlar, tilshunos va adabiyotshunoslar, metodist va o‘qituvchilar o‘z fikrlarini bayon etganlar.

N.Bekniyazova monografiyasi[6]da esa boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatishning nazariy, amaliy, lingvometodik asoslari tadqiq qilingan, matnning tashkiliy va leksik-grammatik jihatdan ichki tuzilish xususiyatlari, matn yaratishni o‘rgatishdagi mashqlar tizimi, tuzilgan matnni takomillashtirishni o‘rgatish borasida qimmatli fikrlar aytilgan.

Safo Matchanovning tadqiqot ishi[4]da o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish orqali mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ko‘rsatib berilgan. Unda matn turlari, ularning bir-biridan farqi hamda matn ustida ishlash bosqichlari muallifning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari mahsuli misolida yoritilgan.

D.Toshxo‘jaevaning tadqiqot ishi [4] ham rusiyazabon o‘quvchilarni matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatish orqali nutq o‘stirish masalalariga bag‘ishlangan. Bu borada muallif “Bola matn mazmunini so‘zlashga tayyor darajada nutqiy ko‘nikmaga ega bo‘lgandan keyin hikoya qilish bilan oldinma-keyin qayta hikoya qilishga o‘tiladi”, – deb ta’kidlaydi. Tadqiqot ishida, shuningdek, matnni o‘z so‘zlari bilan qayta hikoyalashning psixologik va metodik asoslari, o‘quvchilarni matn mazmunini tushunib o‘qishga tayyorlash uchun bajariladigan ayrim leksik va grammatik mashq turlari ham bayon qilingan.

A.Nisanbaevaning tadqiqot ishi [5]da esa o‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida yoritilgan.

“2-sinfda o‘qish darslari” nomli metodik qo‘llanmada o‘qish darslarida “badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish maqsadga muvofiqligi” qayd etilgan. Qo‘llanmada, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni ularning mutanosibligini ta’minlagan holda o‘stirish lozimligi, bolalarni o‘qishga o‘rgatishda usullardan to‘g‘ri foydalanish, og‘zaki hikoya, rasmlar asosida matn tuzish, o‘quvchilarni bayon va insho yozishga tayyorlash, ta’lim jarayonida o‘qituvchi nutqining o‘ziga xos jihatlari borasida ham fikr yuritilgan hamda dastur bo‘yicha dars ishlanmalaridan namunalar ham keltirilgan.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta’limida mustaqil ishlarni tashkil etish orqali o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, bunda nutqni va tafakkur integratsiyasini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarni uzviylikda izchil rivojlantirish masalalari tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi “til ta’limida tafakkurni rivojlantiruvchi aqliy faoliyatning analiz-sintez, taqqoslash, aniqlash, umumlashtirish, dalillash va xulosalash kabi usullariga e’tiborsizlik til va tafakkur uyg‘unligiga erishishning og‘riqli nuqtalaridan” ekanligini ta’kidlagan holda, “ta’lim bosqichlarida yuqori darajada rivojlangan og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkoniyat yaratibgina qolmay, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

“Savodga o‘rgatish darslari 1” nomli o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmada 1-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar, ushbu texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash usullari va dars ishlanmalaridan namunalar keltirilgan. Mualliflar savod o‘rgatish davrida o‘qitishning maqsadi va vazifalarini bayon etar ekanlar, “o‘quvchilarning lug‘atini boyitish va bog‘lanishli nutqini o‘stirish, dunyoqarashini boyitish uchun gaplarni ohangiga ko‘ra to‘g‘ri o‘qishni, o‘qiyotgan matnning mazmunini tushunib, ongi o‘qishlarini ta’minlovchi lug‘at ustida ishlashni tashkil etish, matnga yaqinlashtirib to‘liq qayta hikoyalashga o‘quvchilarni tayyorlovchi tahlil turlarini ishlab chiqish lozim”ligini alohida ta’kidlashgan.

“O‘qish 1” nomli metodik qo‘llanmada esa 1-sinf “O‘qish” fanini o‘qitishda o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga e’tibor qaratilgan va o‘quvchilarning kichik matnlarni mustaqil ravishda o‘qib, gapirib berishi, kichik she’riy parchalarni yod olishi hamda tanish bo‘lmagan matnlarni ongli o‘qish malakalarini egallash kerakligi qayd etilgan. Qo‘llanmada badiiy matn ustida ishlash bo‘yicha alohida tavsiyalar keltirilgan va o‘qish darslari uchun namunaviy dars ishlanmalari, darslarda foydalaniladigan ilg‘or pedagogik usullar, mashqlar va didaktik o‘yinlardan namunalar ham berilgan.

“O‘qish 2” nomli qo‘llanmada mualliflar 2-sinf o‘qish darslarini tashkil etishning qulay yo‘l va usullari haqida kerakli ma’lumotlarni bayon etganlar. Unda o‘qish darslarining namunaviy texnologik xaritasi hamda shu asosda jami 42 ta ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga

asoslangan namunaviy dars ishlanmalari keltirilgan. Mualliflar o‘qish darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarni bayon etar ekanlar, boshlang‘ich sinflarda o‘qish turlari va darslarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari haqida kengroq ma‘lumotlarni keltirishga harakat qilganlar.

Yuqorida ta‘kidlangan o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarining multimediali ilovalari boshlang‘ich sinflarda “O‘qish” o‘quv fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishida ko‘maklashishga, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitishga xizmat qiladigan qo‘shimcha materiallarga ega bo‘lgan interaktiv elektron axborot-ta‘lim resursi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu multimediali ilovalarda matn ustida ishlashga ham alohida e‘tibor qaratilishi ahamiyatga molik.

Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturida o‘quvchilarning og‘zaki, monologik va dialogik nutqining tushunarli, ravon, ta‘sirchan bo‘lishi, matn mazmunini tushunishlari, so‘zlarni takrorlashdan saqlanishlari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda bayon etishda mantiqiy izchillikning ta‘minlanishi, nutq sofligi va aniqligiga erishish muhim talablardan ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Boshlang‘ich sinf ona tili dasturidagi bo‘limlar “Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”, “Fonetika, grammatika, to‘g‘ri yozuv va nutq o‘stirish”, “Sinfda, sinfdan tashqari o‘qish va nutq o‘stirish” tarzida berilgan [6].

“Birinci sinf uchun dastur”da bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish uchun nutq a‘zolarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar o‘tkazish, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni takomillashtirish, bolalar nutqidagi ayrim kamchiliklarni to‘g‘rilash, lug‘at boyligini boyita borish, kichik hikoya tuzish, qayta hikoya qilish va bu jarayonda nutqning aniq, to‘liq va his-hayajonli, izchil va mazmunli bo‘lishiga erishish kerakligi ham uqtirilgan.

“O‘qish darslarining asosiy qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga ajratiladi”, – deyiladi 1-sinfning uzviylashtirilgan dasturida [7]. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchidan asarlar yuzasidan o‘qituvchi bergan savollarga va darslikda berilgan savollarga javob olish, asarning mavzu doirasini aniqlash, sarlavhani asardagi asosiy fikr bilan taqqoslash, asarning to‘liq mazmunini qayta hikoyalash yoki asar yuzasidan fikr bildirishga o‘rgatish, asarni qismlarga ajratish, ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish, matnda ishtirok etuvchilarni bilib olib, ularga eng oddiy tavsif berish, asardagi ayrim so‘zlarning ma‘nolarini izohlashga (gap orqali, ma‘nodoshi va zid ma‘noli so‘zni keltirish orqali) o‘rgatish, matndagi ayrim so‘zlarga ma‘nodosh, zid ma‘noli so‘zlar topishga o‘rgatish kabi muhim jihatlar ham ushbu dasturda alohida ta‘kidlangan.

“Ikkinchi sinf uchun dastur”[8]da umumta‘lim maktablarining ikkinchi sinf o‘qish darslari zahirida bolalarning aqliy, axloqiy tarbiyalariga, muomala odoblariga, nutqlarining ravon va nafis bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratish, o‘qish darslarida badiiy matnni tahlil qilishning eng oddiy ishlarini amalga oshirish va sekin-asta murakkab topshiriqlarni bajarishga o‘rgatish lozimligi uqtirilgan.

O‘qituvchi yordamida matnni qismlarga bo‘lish, ularga sarlavha tanlash, matnning asosiy mazmunini aniqlash, matnda qatnashuvchi shaxslarni, tabiat manzaralarini tasvirlovchi so‘z va iboralarni tahlil qilish hamda shu so‘zlar ishtirokida og‘zaki hikoya tuzish, ertak, she‘r, hikoyalarni janriy xususiyatlariga ko‘ra farqlay olish 2-sinf dasturining asosiy talablaridandir [8].

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarning amaldagi DTS va ona tili dasturida ham nutq o‘stirish yuzasidan maqsadli ishlar belgilangan va ular izchillikda berilgan.

Shu o‘rinda savollar tug‘iladi: Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash nutq o‘stirishning asosiy vositasi ekan, beriladigan matn va u asosida ishlangan savol-topshiriqlar qanday talablarga javob berishi kerak? Amaldagi “O‘qish kitobi” darsliklarida bu jihatlarga qay darajada e‘tibor qaratilgan?

Tadqiqot davomida ana shu savollarga javob topish maqsadida amalda qo‘llanilib kelingan 1- va 2-sinf “O‘qish kitobi” darsliklarining g‘oyaviy-nazariy jihatdan bugungi kun talablariga javob berishi tahlil qilindi.

Ma‘lumki, uzluksiz ta‘lim tizimida darsliklar asosiy didaktik vosita hisoblanadi. “Darslik tegishli fan asoslari zamonaviy fan va madaniyat yutuqlari asosida bayon etiladigan kitob bo‘lib, ta‘lim-tarbiya maqsad va vazifalariga javob beradi. U, bir tomondan, o‘quvchilar uchun asosiy bilim manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, asosiy o‘qitish vositasi hamdir”. Shuningdek, darslik “muayyan fanga doir bilim asoslarini ma‘lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma‘naviy-g‘oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o‘quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi” [8] ham sanaladi.

Har qanday darslik materiali o‘quvchining o‘qituvchi topshirig‘i asosidagi mustaqil faoliyati orqali o‘zlashtiriladi. Darsliklar ustida ishlash o‘quvchilarning ta‘limiy faoliyatiga oid quyidagi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1) o‘quv predmetini o‘zlashtirishdan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni tushunish; 2) darslik materialining umumiy xususiyatlarini o‘zlashtirish; 3) ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qayd etish.

Darsliklar ustida ishlashga doir mazkur masalalardan har birining grafik yechimi bir-birini takrorlamasligi kerakligi tushunarli, albatta.

Savod o‘rgatish, o‘qish va yozishga dastlabki o‘rgatish ona tili o‘quv fanining muhim jihati bo‘lib, til o‘rgatishda o‘ziga xos kirish vazifasini o‘taydi. “Alifbe” va undan keyingi “O‘qish kitobi” darsliklari ham o‘quvchilarga ona tilining bor boyligi va go‘zalligini ochib berishi lozim.

Ma’lumki, har qanday bilim muayyan sohalarga tegishli matnlar mutolaasi orqali o‘zlashtiriladi. Boshlang‘ich sinf «O‘qish kitobi» darsliklari ham bundan mustasno emas. Amaldagi 1- [6] va 2-sinf [7] «O‘qish kitobi» darsliklaridagi matnlar turli adabiy janrlarga mansub bo‘lib, ular aralash tarzda berilgan.

#### “O‘qish kitobi” (1-sinf uchun) darsligidagi matnlar miqdori va ularning janr bo‘yicha tarkibi

T/r	Matnlar janri	Matnlar miqdori	
		O‘quv matnlari	Mustaqil o‘qish uchun berilgan matnlar
1.	Ilmiy-ommabop matn	14	–
2.	She’r	16	8
3.	Hikoya	10	6
4.	Rivoyat	1	1
5.	Ertak	6	4
6.	Qo‘shiq	1	–
7.	Masal	3	1
<b>Jami:</b>		<b>51</b>	<b>20</b>

#### “O‘qish kitobi” (2-sinf uchun) darsligidagi matnlar miqdori va ularning janr bo‘yicha tarkibi

T/r	Matnlar janri	Matnlar miqdori	
		O‘quv matnlari	
1.	Ilmiy-ommabop matn	7	
2.	She’r	39	
3.	Hikoya	21	
4.	Ertak	14	
5.	Rivoyat	3	
6.	Masal	1	
<b>Jami:</b>		<b>85</b>	

Ko‘rinadiki, darsliklardagi matnlar ilmiy-ommabop matn, she’r, qo‘shiq, hikoya, ertak, rivoyat, masal kabi turli adabiy janrga mansub ekan. Shu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va uning natijalari ustida ham to‘xtalmoqchimiz. Biz 2-sinf o‘quvchilarining qaysi janrdagi asarlarni ko‘proq yoqtirishini aniqlash maqsadida “O‘qish kitobi” darsligida sizga ko‘proq qanday matnlar yoqadi? Ularni belgilang” savol-topshirig‘i yozilgan savolnomani tarqatdik va quyidagicha natijalarni oldik:

#### 2-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

T/r	O‘quvchilar tomonidan belgilangan janrlar	Ayrim janrlarga mansub asarlarning o‘ziga yoqishini ta’kidlagan o‘quvchilar soni (jami 33 nafar)
1.	Ertak	33
2.	She’r	29
3.	Hikoya	32
4.	Maqol	25
5.	Topishmoq	33
6.	Rivoyat	26
7.	Masal	29

8.	Tez aytish	30
9.	Qo‘shiq	24
10.	Latifa	29
11.	Ilmiy-ommabop matn	12

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aksariyati matnlarni janrlar bo‘yicha hali to‘laligicha ajrata olmaydilar. Shu bois olingan natijalar qaysidir jihatdan nisbiydir. Lekin “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritiladigan matnlarni o‘quvchilarning qiziqishi doirasida tanlash ham maqsadga muvofiqdir.

Darslik materiallarini anglash va tushunish, muallif matni bilan ishlash o‘quvchilarga boshqalarning qarashlarini o‘zlashtirish hamda asta-sekin o‘z qarashlarining vujudga kelishiga imkon yaratadi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarning «O‘qish kitobi» darsliklaridagi matnlar ham hajm va mazmun jihatdan o‘quvchilarning rivojlanish darajasi va barkamol avlodni tarbiyalash talablariga mos kelishi lozim. Matnda leksik va grammatik yuklama ortib ketsa, uni tushunish murakkablashadi. Shu sababli mazkur darsliklarda yangi so‘zlar miqdori chegaralangan bo‘lishi talab etiladi.

Ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilarning lug‘ati boyigani sari matnlar hajmi ortib, mazmuni murakkablasha boradi. Badiiy asarlardan parchalarga keng o‘rin beriladi. Bu esa namunaviy nutqni tushunish va uni qo‘llashga o‘rgatadi.

Taniqli psixolog D.B.Elkoninning fikricha, o‘quv faoliyatining yetakchi xususiyati – o‘quvchining turli mashg‘ulotlardagi o‘z ishini ijtimoiy tizim sifatida hamma uchun majburiy qoidalarga bo‘ysundirish malakasini egallashi bilan belgilanadi. Qoidalarga bo‘ysunish o‘quvchida o‘z xulqini boshqarish malakasini va shu bilan birga xulqni ixtiyoriy boshqarishning yanada yuqori shakllarini yaratadi. Muallifning fikriga ko‘ra, o‘quv faoliyati quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega: 1) o‘quv vazifalari; 2) o‘quv mashg‘ulotlari; 3) nazorat; 4) baholash. Bu faoliyat, avvalo, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nazariy bilimlarni, ya‘ni o‘rganilayotgan o‘quv fanining asosiy xususiyatlari yoritib beriladigan bilimlarni egallashi bilan bog‘liq. O‘quv vazifalarini hal etishda o‘quvchilar bunday munosabatlarda chamalashning umumiy usullarini egallab oladi. O‘quv mashg‘ulotlari aynan shu usullarni o‘zlashtirishga qaratiladi.

Amalda qo‘llanib kelingan boshlang‘ich sinflarning «O‘qish kitobi» darsliklari badiiy adabiyot namunalari vositasida o‘quvchilarda to‘g‘ri, tez, ravon, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, badiiy-estetik didini tarbiyalashdan ko‘ra tabiat hamda ijtimoiy-siyosiy sanalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bayon etishga xizmat qilayotgandek taassurot qoldiradi. Bir necha o‘n yilliklar mobaynida 1-4-sinf «O‘qish kitobi» darsliklarining barchasida yil fasllariga oid ilmiy-ommabop va badiiy matnlarga katta o‘rin ajratilayotgani yuqorida bildirilgan fikrimizning yaqqol dalilidir.

Amalda foydalanilgan 1- va 2-sinf «O‘qish kitobi» darsliklari yuzasidan olib borilgan nazariy tahlil yana bir qator savollarning tug‘ilishiga sabab bo‘ldi. Jumladan:

1. Darslikda keltirilgan barcha materiallar boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standartida qayd qilingan nutq o‘stirishga oid g‘oyaviy-didaktik talablarni qondira oladimi?

2. Matnosti savol-topshiriqlari matnlarning mazmun-mohiyatini ochishga xizmat qiladimi?

3. «O‘qish kitobi» darsligining vazifasi faqat pand-nasihah qilishmi yoki kitobga muhabbat uyg‘otish orqali o‘quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirish, ularni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash va dunyoqarashlarini boyitishmi?

Fikrimizcha, ta‘lim amaliyotida foydalanilgan va foydalanilayotgan 1- va 2-sinf «O‘qish kitobi» darsliklari g‘oyaviy-estetik jihatdan mazkur savollarga qoniqarli javob bera olmaydi.

Bizningcha, buning sabablari quyidagilardan iborat (amalda qo‘llanib kelingan 2-sinf darsliklari misolida):

1. Darslikdagi ko‘pgina matnlar kitob mualliflari tomonidan sun‘iy

to‘qilgan, hissiz va publitsistik ruhda. “O‘zbekiston – mening Vatanim”, “Kuz ne‘matlari”, “Kitob”, “Kiyimlar nimalardan tikiladi?”, “Tejamli bo‘ling” kabi matnlar shular jumlasidan bo‘lib, ushbu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Bunday mazmundagi «asarlar» endigina o‘qishni o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun hech qanday ma‘naviy ozuqa bermaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarini zavqlantirmagan matnlarni majburan o‘qiydilar. Biroq majburiylikka asoslangan ta‘limda kutilgan natijaga erishib bo‘lmasligini unutmazlik lozim.

2. Ayrim o‘rinlarda bir xil mazmundagi matnlar ketma-ket keltirilgan. Masalan, “Kuz”, “Kuz ne‘matlari”, “Kuzda” va hokazo. Bunday takrorlanish matnlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini hisobga olmaganda ham darslarni majburiy mashg‘ulotga aylantirib qo‘yadi.

3. Har bir bo‘lim bir nechta maqol va topishmoqlar bilan boshlanishiga qaramay, ko‘p o‘rinlarda sun‘iy to‘qima topishmoqlar ham keltiriladi. Metodik jihatdan muayyan maqsadga yo‘naltirilmagan maqol,

topishmoq, tez aytish hamda she’riy parchalarning bu tarzda zich berilishi o’quvchilarda ularga nisbatan yuzaki munosabatning shakllanishiga olib keladi. Natijada o’quvchilar matn ustida ishlash jarayonida zerikadilar. Bu holat ta’lim sifatining yomonlashuviga olib boradi.

4. “O’qish kitobi”da berilgan “Ob-havo darakchilari” matnlari “Atrofimizdagi olam” darsliklariga, “Nasihat”, “Suhbat odobi”, “Ruxsat so’rash odobi” kabi matnlar “Odobnoma” darsligiga mosdir.

5. Matnosti savol-topshiriqlarining talay qismi jo’n va sayoz tuzilgan bo’lib, ular aksariyat hollarda faqat daliliy ma’lumotlarni aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, «She’rni yod oling» tipidagi savol-topshiriqlar ham juda ko’p.

Tadqiqotimiz davomidagi kuzatishlarimiz hamda darsliklar tahlili natijasida shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, hozirgi kunga kelib yo’l qo’yilgan kamchiliklarning aksariyati bartaraf etilmoqda. Keyingi paytlarda darsliklar sifati va mazmunini takomillashtirish borasida ham bir qancha ijobiy yutuqlarga erishilmoqda. Bu borada 1- va 2-sinf “O’qish kitobi” darsliklari mazmunida ham ijobiy o’zgarishlarning kuzatilishi quvonarli hol, albatta.

Ta’kidlash joizki, “darsliklar mazmunini takomillashtirish fan bo’yicha muammoning qo’yilishi hamda yechimini hal qilishda qatnashuvchi axborotlar mazmuni, oqimi va hajmini belgilash asosida amalga oshiriladi” [119; 14-b.]. Hozirgi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun darsliklardagi mavjud xato va kamchiliklarni tuzatish maqsadida Respublika ta’lim markazi tomonidan “Darsliklarga taklif – 2020” telegram bot kanali tashkil etilib, unga 8 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Shundan mutaxassislar tomonidan o’rinli deb aniqlangan 1600 ga yaqin takliflar ajratib olingan va darsliklarni davriylik asosida nashrga tayyorlash jarayonida ushbu takliflar inobatga olinmoqda. Albatta, bu kabi ishlar natijasida darsliklar sifati va mazmuni yanada takomillashadi.

“O’qish kitobi” – xohlagan matnni o’qib, xohlamaganini tashlab o’tadigan badiiy bezakli, ilmiy-ommabop jurnal emas. U o’quv dasturi bo’yicha izchil ilmiy-metodik talablar asosida yaratilishi bilan o’quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, nutqni o’stirish bilan birga ularning ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo’lishlariga yordam beradi.

Yangi avlod darsliklari ta’lim mazmunining yangi modellari negizida yaratilishi, unda o’quvchini pedagogik qo’llab-quvvatlash, uzluksiz rivojlantirish, mustaqil fikrlashga odatlantirish, aniq hayotiy nuqtai nazarni qaror toptirish, yoshlarni eng zamonaviy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy, iqtisodiy-huquqiy yo’nalishdagi axborotlar bilan rivojlantirishga erishish bugungi kunda davlat siyosatidagi ustuvor maqsaddir.

**Xulosa.** Boshlang’ich sinf o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish jarayonida o’quvchilar quyidagi kommunikativ malakalarni o’zlashtirishga muvaffaq bo’ladi:

1. Mavzuni o’z mulohazalari asosida ochib berish malakasi.
2. Mulohaza bildirishda asosiy fikrni ochib berish malakasi.
3. Mulohaza bildirish uchun materialni yig’ish malakasi.
4. Yig’ilgan materiallarni tizimlashtirish malakasi.
5. Yozma nutqni rivojlantirish malakasi.
6. Alohida kompozitsion shaklda mulohazalarni bildirish malakasi.
7. O’z fikrini to’g’ri, aniq va tushunarli bayon qilish malakasi.

Shunday qilib, tadqiqot mavzusi bilan bog’liq ilmiy-metodik adabiyotlar, dastur va darsliklar tahlili shuni ko’rsatdiki, boshlang’ich sinflarning o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish yaqin o’tmishda sho’ro mafkurasi nuqtai nazaridan yo’l-yo’lakay ko’zdan kechirilgan bo’lib, ta’limiy muammo sifatida mavjud ehtiyoj, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida mustaqil tadqiq etilmagan.

Innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi, global axborotlashuv nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarning o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ta’minlamoqda.

### Adabiyotlar:

1. Aminova F. H. O’quvchilarni muloqot matni yaratishga o’rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: O’zPFITI. 2007. – 22 b.
2. Aslonova O.P. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo’yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020. – 49 b.
3. Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G’ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O’zbek tili mashg’ulotlarida nutq o’stirish. – T.: TDPU, 2000. – 58 b.

4. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi (tevarak-atrofni o‘rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 b.
5. Bakieva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta‘lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2019. – 47 b.
6. Bekniyazova N. Ta‘lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: 1998. – 22 b.
7. Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta‘lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.
8. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.– 144 b.
9. Ziyadova T.U. Ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: TDPI. 1995.– 19 b.



**Mardiyeva Shaxnoza Amirovna**  
Samarqand davlat chet tillar instituti "Gumanitar va  
axborot texnologiyalari" kafedrasida o'qituvchisi  
shaxnozamardiyeva123@gmail.com

## TALABALAR JAMOASIDA LIDERLIK QOBILIYATI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarni liderlik ko'nikmalari va qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirish, jamiyatga maqsadli integratsiyalasha oladigan, intellektual salohiyatli shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish hamda talabalar jamoasida tashabbuskorlikni faollashtirish, o'zaro samarali muloqotni tarkib toptirishga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** liderlik, talaba, jamoa, muloqot, munosabat, integratsiyalashuv, boshqaruv, ko'nikma, qobiliyat, hamkorlik, ijtimoiy-psixologik, xususiyat.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЛИДЕРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В СТУДЕНЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется развитию и формированию лидерских качеств и способностей студентов, воспитанию и развитию личности с интеллектуальным потенциалом, способной целенаправленно интегрироваться в общество, активизации инициативы в студенческом сообществе, формированию эффективных коммуникаций.

**Ключевые слова:** лидерство, студент, коллектив, общение, отношение, интеграция, управление, умение, способность, сотрудничество, социально-психологические, характеристика.

## SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATION OF LEADERSHIP ABILITY IN THE STUDENT TEAM

**Abstract:** This article focuses on the development and formation of leadership skills and abilities of students, the education and development of a person with intellectual potential who can integrate purposefully into society, the activation of initiative in the student community, and the formation of effective communication.

**Key words:** leadership, student, team, communication, attitude, integration, management, skill, ability, cooperation, social-psychological, characteristic.

**Kirish.** Jahonda liderlik fenomenini o'rganish muammosi insoniyat tarixida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Yosh iste'dodlarni jamiyat kelajagi uchun muhim bo'lgan liderlarga ehtiyoj o'sib bormoqda. Shu jihatdan qaralganda intellektual salohiyatli shaxsni tarbiyalash va kamol toptirishga ham katta e'tibor qaratish, iqtidorlilikka, intellektual qobiliyatlarning yuksak darajada namoyon bo'lishiga qiziqish juda yuqori va bu jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan ham izohlanadi.

Chunki raqobatbardoshlik, faollik, tashabbuskorlik zamonaviy jamiyatda insonning asosiy va eng muhim fazilatlariga aylanib borishining barchasi rahbarga xosdir, shuning uchun ularning shaxsda mavjudligi uni kasbiy shaxsiy yoki ijtimoiy faoliyatda liderlik qobiliyati bilan bog'liq.

Talabalarda liderlik ko'nikmalari va qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirish, jamiyatga maqsadli integratsiyalasha oladigan, muhim ijtimoiy muammolarni hal etishning zamonaviy yo'llarini topish va amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Talabalar jamoasida o'ziga xos liderlik qobiliyatini namoyon bo'lishini o'rganishdan iboratdir.

**Asosiy qism.** Jamiyat taraqqiyotini har tomonlama rivoj topishiga xizmat qilish, birinchi navbatda ilm-fanga bo'lgan e'tibor, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, intellektual salohiyati va o'z sohasida raqobatbardosh kadr sifatida namoyon bo'lishiga bog'liq. Hozirgi davrda dunyo hamjamiyati hayotida iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlarning keskinlashuvi yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ma'naviy hayotiga integratsiyalashuvini ta'minlashni taqozo etmoqda. Bu borada davlat va jamiyat barqarorligiga erishishning asosiy omili sifatida oliy ta'limda liderlik qobiliyati mavjud bo'lgan yoshlarni

tarbiyalashdan iborat. Respublikamizda yoshlarni madaniyat, teatr, sa’natga qiziqtirish, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish, kitobxonlikni targ’ib qilish, qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish maqsadida beshta muhim tashabbus ishlab chiqilgan bo’lib, u o’z navbatida, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu esa o’quv faoliyati jarayonida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari, asosiy jihatlari va funksiyalarini aniqlashtirishning muhim ekanligini ko’rsatadi. Shu sababli mustaqil hayotga kirib kelayotgan talaba yoshlarimizda liderlikni namoyon bo’lish omillarini o’rganishdan oldin liderlik tushunchasiga e’tibor qaratish lozim.

Lider – so’zi inglizcha so’zidan yetaklamoq ma’nosida ishlatiladi. Ingliz tilidagi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda liderlik tushunchasi mazmuni o’zgarib boradi. Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondoshuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo’lida muammoli vaziyatda o’z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan guruh doimo bir necha liderga ega bo’lishi mumkin va kezi kelganda har bir jamoa a’zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o’z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi.


Ushbu holatlarga ko’ra tadqiqot ishini olib borishda tajriba-sinov uchun tanlab olingan 1- va 4-bosqich talabalar jamoasida liderlik qobiliyatini aniqlash uchun metodikalarga tayangan holda ishni olib borishga harakat qilib, quyidagi natijalarga erishdik.

1-jadval.

Sinaluvchilarning liderlik sifatlarini % da ko’rsatkichlari


Liderlik sifatlarini*	1	2	3	4	5	6	7	8
1-kurs sinaluvchilar P=150 ta, o’rta ball %	85%	83%	72%	73%	79%	80%	84%	83%
O’rni	1	3	7	6	5	4	2	3
2-kurs sinaluvchilar P-150 ta, o’rta bal %	80%	89%	90%	75%	89%	72%	70%	65%
O’rni	3	2	1	4	2	5	6	7
O’rta ko’rsatkich	83%	86%	81%	74%	84%	76%	77%	74%
O’rni	3	1	4	7	2	6	5	7
3-kurs kurs sinaluvchilar P-150 ta, o’rta bal %	89%	73%	88%	75%	86%	90%	75%	73%
O’rni	2	6	3	5	4	1	5	6
4-kurs sinaluvchilar P-150 ta, o’rta bal %	92%	98%	89%	98%	90%	98%	97%	95%
O’rni	4	1	6	1	5	1	2	3
O’rta ko’rsatkich	91%	86%	89%	87%	88%	94%	86%	84%
	2	6	3	5	4	1	6	7

**Izoh:** 1–o’z-o’zini boshqara olish; 2–maqsadlarini anglash; 3–muammollarni hal qila olish; 4–ijodiy yondashuvining mavjudligi; 5–atrofdagilarga ta’sir o’tkaza olish; 6–tashkiliy ishlar qoidalarini bilish; 7–tashkiliy qobiliyatlari; 8–jamoalar bilan ishlay olish.



**1-rasm. 1-kurs sinalluvchi talabalarda liderlik sifatlarini namoyon bo'lishi**

*1-o'z-o'zini boshqara olish, 2- maqsadlarini anglash, 3- muammollarni hal qila olish, 4 – ijodiy yondashuvini mavjudligi, 5 – atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, 6– tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, 7 – tashkiliy qobiliyatlari, 8 – jamoa bilan ishlay olish.*




**2-rasm. 2-kurs sinalluvchi talabalarda liderlik sifatlarini namoyon bo'lishi**

*1 – o'z -o'zini boshqara olish, 2 – maqsadlarini anglash, 3 – muammollarni hal qila olish, 4 – ijodiy yondashuvini mavjudligi ijodiy yondashuvini mavjudligi, 5 – atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, 6– tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, 7 – tashkiliy qobiliyatlari, 8 – jamoa bilan ishla olish*


1-kurs sinalluvchilarda quyidagi liderlik sifatlar aniqlandi: o'z-o'zini boshqara olish, tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, maqsadlarni aniq ko'ra bilish (o'qishga moslashishi va ta'lim jarayoniga kirib borishi) bilan bog'liq. Shunda jamoa bilan ishlash ustunlik qilgan. Tashkiliy ishlarda faol bo'lishi. Atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olishga intilish. Ijodiy yondashuvni resurs sifatida ko'ra bilish oxirgi o'rinda va muammollarni o'zgarlar hal qilishlarini ma'qul ko'radilar.

2-kurs sinalluvchi talabalarida qo'yidagi liderlik sifatlar ustunligi aniqlandi: muammollarni hal qila olish, maqsadlarni anglashda o'zgarishlar aniqlandi, o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmasi va atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish.



3 rasm. 1-2 kurs sinalluvchilarni liderlik sifatlarini % namoyon bo'lishidagi farqi

Yuqorida ko'rsatilgan o'z-o'zini boshqara olish, maqsadlarini anglash, muammolarni hal qila olish, ijodiy yondashuvini mavjudligi ijodiy yondashuvini mavjudligi, atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, tashkiliy qobiliyatlari, jamoa bilan ishlay olish sifatlarini namoyon bo'lishi 1- va 2-bosqich talabalarida aniqlangan natijalarni farqli jihatlari aniqlandi.



4-rasm. 3-kurs sinalluvchilarning liderlik sifatlarini % ko'rsatkichlari

1 –o'z o'zini boshqara olish, 2–maqsadlarini anglash, 3–muammolarni hal qila olish, 4–ijodiy mavjudligi, 5 – atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, 6– tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, 7–tashkiliy qobiliyatlari, 8–jamoa bilan ishlay olish.


Atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, tashkiliy qobiliyatlari, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanmagan.

2-kurs talabalarida birinchi o'rinda o'zlarining shaxsiy manfaatlarini. Guruh va jamoada munosabatlarida muammolar mavjudligi aniqlandi. Jamoada nizolarni hal qilishning usuli atrofdagilarga ta'sirini o'tkazishda deb bilishlari bilan izohlandi.

3-kurs talabalar guruhlarida nizoli vaziyatlarning oshirilishi kuzatilgan. Har bitta talaba o'z-o'zini namoyon qilish yo'lini aniqlab rejalashtirishni kuzatamiz. O'qituvchilarga qarshi fikr bildirish, qoidalarni buzish, akademik qarzdor bo'lish, darslarni surunkali va besabab qoldirish kabi xulq-atvordagi buzilishlar kuzatilgan. Tashkiliy ishlar qoidalarini bilish shkalasi bo'yicha 90% yuqori ballar tuplanganligi va aynan solishtirish va shu qoidalarni o'zgartirishga moyillik kuzatilgan. Ya'ni qoidaga rioya qilib emas, balki

tanqidiy fikr bildirib qoidani buzishdir liderlikni ko'rinishi deb bilishgan. O'z-o'zini boshqara olish, muammollarni hal qila olish atrof dagilarga ta'sir o'tkazish yo'li bilan. Aynan 3-kurs talabalar liderlari o'zini guruhdoshining akademik muammolarini hal qilishda dallol rolini namoyon qilishi kuzatiladi. Guruhda o'zimmiki va begonalar degan guruhchalar paydo bo'lib jamoani buzilishiga va nizolarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Lider o'z ta'sirini o'tkaza olishga harakat qiladi. Ijodiy yondashuv va tashkiliy qobiliyatlar resurs sifatida ishlatilsa nizoli vaziyatdan chiqib ketish imkoniyati yaratiladi. Shunda har bir talabalar jamoasini a'zosi jamoada o'z o'ringa ega bo'la olishi aniq. Liderdan talab etilayotgan qobiliyatlar bu maqsadlarni aniqlashtirish va jamoa bilan ishlay olish (aynan shu jihatlar past darajada rivojlangan).

4-kurs talabalarda liderlik qobiliyatlarga oid sifatlar natijalari rasmda ko'rsatilgan.




**5-rasm. 4-kurs talabalarda liderlik sifatlarini % ko'rsatkichlari**

*1 – o'z o'zini boshqara olish, 2 – maqsadlarini anglash, 3 – muammollarni hal qila olish, 4–ijodiy yondashuvini mavjudligi, 5 –atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, 6–tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, 7 – tashkiliy qobiliyatlari, 8 – jamoa bilan ishla olish.*

4-kurs talabalarida liderlik sifatleri yuqori darajada shakllanganligi aniqlandi: maqsadlari aniq, ijodiy yondashuvining mavjudligi, tashkiliy ishlar qoidalarini bilish va ularga rioya qilish. Bitiruv malakaviy ish bilan shug'ullanish, amaliyot ushbu natijaga ta'sir etuvchi omillardan biri. Tashkiliy qobiliyatlari va jamoa bilan ishlay olish ko'nikmalari amaliyot davrida shakllanishi va yangi ko'nikma sifatida ishlata olinishi aniqlandi. O'z-o'zini boshqarish ikkinchi darajaga o'tganligi aniq bo'ldi. Ya'ni jamoaning qiziqishlari maqsadlari o'zini shaxsiy maqsadlaridan afzalligi tasdiqlangan.

1- va 4-kurs guruhdagi talabalarda liderlik sifatlarida o'zgarish dinamikasi va farqlari aniqlandi. 3,4,6 shkala bo'yicha ishonchli farqlar aniqlandi. Muammollarni hal qila olishda ijodiy yondashish, tashkiliy qoidalarga rioya qilish. 5,7,8 shkalalar bo'yicha atrof dagilarga ta'sir o'tkaza olish, tashkiliy qobiliyatlari, jamoa bilan ishlay olish kabi sifatlar ko'proq 4-kurs talabalar jamoasida yuzaga kelgan. O'z-o'zini boshqara olish sifatleri borasida farqlar deyarli sezilarli emas. Ya'ni 1-kursdan 4-kursga qadar yuqori darajada rivojlanganligi aniqlangan. 1-2-kursdan 3 to 4 kursgacha liderlik sifatlarini o'zgarishlari aniqlanganligi rasmda keltirilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni 1-kursdan 4-kursgacha liderlik qobiliyatini o'sishi to'rtta yo'nalish bo'yicha o'sib rivojlanib borganini ko'rib chiqildi.



**6-rasm. 3-4 kurs sinaluvchilarning liderlik sifatlarini % farqlari**

Yuqorida ko'rsatilgan o'z-o'zini boshqara olish, maqsadlarini anglash, muammolarni hal qila olish, ijodiy yondashuvini mavjudligi ijodiy yondashuvini mavjudligi, atrofdagilarga ta'sir o'tkaza olish, tashkiliy ishlar qoidalarini bilish, tashkiliy qobiliyatlari, jamoa bilan ishla olish sifatlarini namoyon bo'lishi 3- va 4-bosqich talabalarida aniqlangan natijalarni farqli jihatlarini aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, liderlikniing asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida g'amxo'rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta'rifidagi asosiy ma'no kasb etuvchi tomonlar bu – talabaning har qanday vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni 1-kursdan 4-kursgacha liderlik qobiliyatini o'sishi to'rtta yo'nalish va sakkizta sifatlar bo'yicha o'sib rivojlanib borgaligi ko'rib chiqildi.

#### Adabiyotlar:

1. Ilm-fanni rivojlantirish zarurati, uning joriy holati va mavjud muammolar// Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Lex.uz 2.9.b
2. Yu.Bazarov “Personalni boshqarish” T.2021. 3.25-b
3. «Men – liderman». Testi (Ye.S. Fëdorov O.V. Yerëmin, T.A. Mironova tomonidan modifikasiya qilingan, o'zbek tilida Karayeva N., 2018) 4.
4. “Personalni boshqarish”: Abdurahmonov Q O'quv qo'llanma // Mualliflar jamoasi.–T.:Sharq, 1998. 63-b
5. Psixologiya, 2-qism (Ma'ruzalar matni) Karimova V.M., Akramova F.A. - T.:TDIU, 2005.– 6.81-b
6. “Occurrence and diagnosis of leadership skills in the student community” Sh.A.Mardiyeva Science and innovation international scientific journal. 5.05.2023 y. 7.179-b
7. To'rayev K. Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yanshgilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy va amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. – T., 2020 y. 8.14-b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. 2013. 9.497-b.

*Norqobilova Surayyo Gulom qizi*

*Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida 1-kurs doktoranti*

## GIPERAKTIV O'SMIRLARNING O'Z-O'ZINI ANGLASH VA EMOTSIONAL INTELEKTNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada emotsional intellekt tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha yoritilgan, uning tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatilib, DEGS tashxisli yoshlarning EIning o'ziga xos jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan, ularning EI ni oshirish bo'yicha zarur tavsiya va maslahatlar berilgan.

**Kalit sozlar:** emotsional intellekt, empatiya, qayg'urish, hamdardlik, simpatiya, DEGS, his-tuyg'ularni idrok etish, o'zini anglash, ijtimoiylashish.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ САМОСОЗНАНИЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ГИПЕРАКТИВНЫХ ПОДРОСТКОВ

**Аннотация:** В данной статье научно и теоретически освещено понятие эмоционального интеллекта, выделены его составляющие, дана подробная информация об особенностях ЭИ молодых людей с диагнозом ДЭГС, даны необходимые рекомендации и советы по повышению их ЭИ.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, эмпатия, симпатия, DEGS, восприятие эмоций, самосознание, социализация.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF SELF-AWARENESS AND EMOTIONAL INTELLIGENCE OF HYPERACTIVE ADOLESCENTS

**Abstract:** This article scientifically and theoretically elucidates the concept of emotional intelligence, highlights its components, provides detailed information about the features of the EI of young people diagnosed with DEGS, provides the necessary recommendations and advice to improve their EI.

**Keywords:** emotional intelligence, empathy, sympathy, DEGS, perception of emotions, self-awareness, socialization.


**Kirish.** Tadbirkorlar va rahbarlar bugungi qiyin ishbilarmonlik muhitida ustunlikni izlar ekan, ular to'liq foydalanolmayotgan resurslardan biri ichki resurs ekanligi tobora yorqinroq ayon bo'lmoqda. O'z-o'zini anglash biznesda va hayotda ajralmas manba sifatida mashhurlik kasb etmoqda. O'z-o'zini anglash - bu uyg'onish davrini boshdan kechirayotgan yana bir konsepsiyaning asosi bo'lmish-emotsional intellektidir (EI).

O'z-o'zini anglagan odamlar samaraliroq, baxtliroq bo'lishi va o'zidan qoniqish hosil qilishi bilan xarakterlanadi. EI ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan jamoalar samarali natijalarga erishadilar. Xuddi shunday, yuqori natijalarga erishgan jamoa a'zolari asosan birgalikda yuqori EIga ega bo'ladilar. Aksariyat odamlar o'zlarini yuqori darajadagi o'z-o'zini anglashdan zavqlanishadi deb o'ylashsa-da, rahbarlarning hammasi ham o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega emas.

**Asosiy qism.** EI evolyutsiyasiga nazar solsak, emotsional intellekt psixologik nazariya sifatida Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan ishlab chiqilgan. Bu atama Daniel Golemanning 1995-yildagi "Emotsional intellekt" kitobida keltirilgan "nega bu IQ dan muhimroq bo'lishi mumkin?" mulohazasidan keyin mashhur bo'lib ketdi. Travis Bredberi emotsional intellekt konsepsiyasini Emotiona Intelligence 2.0 va Talent Smart orqali tegishli so'rovni taqdim etish orqali kengaytirdi". Mayer va Salovey "Emotsional intellekt - bu his-tuyg'ularni idrok etish, fikrlashga yordam berish, his-tuyg'ularni va hissiy bilimlarni tushunish va hissiy va intellektual o'sishni rag'batlantirish uchun hissiyotlarni refleksli tartibga solish uchun his-tuyg'ularga kirish va ularni yaratish qobiliyati" deya ta'riflaydi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, o'z-o'zini anglash hissiyotlarni idrok etish qobiliyati uchun zarurdir. Ajablanarlisi shundaki, ko'pchilik insonlar ularning xatti-harakatlarini qanday his-tuyg'ular nazorat qilishini anglamaydilar. EI tarafdorlari fikricha, inson his-tuyg'ulardan qanchalik xabardor bo'lsa, u shunchalik zukko bo'lishi mumkin. Bredberi o'z ichki dunyosidan va ijtimoiy muhitdan xabardorlik va tartibga solish o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlab bergan. So'nggi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, biz ongimiz va emotsional intellektimiz darajasini o'zgartirishimiz mumkin ekan. Quyidagi rasmga nazar tashlasak, biz o'z-o'zini anglash nafaqat qabul qilish va tartibga solishning kaliti, balki ijtimoiy xabardorlik va boshqaruvga

(jumladan, ilhomlantiruvchi liderlik, jamoaviy ishlash va hamkorlikka) birinchi qadam ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



DEGS emotsional intellekt usullarini rivojlantirishni murakkablashtirishi mumkin. O‘z-o‘zini anglashni shakllantirish oson emas. Chunki bu to‘g‘ri odamni yoki to‘g‘ri samaradorlik vositasini topish kabi tashqi faoliyat emas. O‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish mashaqqatli mehnatni talab qiladigan ichki jarayondir. DEGS to‘g‘ri tushuncha hosil qilish va fikrlash va harakatlarini tartibga solish qobiliyatini buzadi. DEGS va tegishli ijro etuvchi funksiyalar bilan bog‘liq muammolar bizning xabardorlikni oshirish va oxir-oqibat emotsional intellektni oshirish qobiliyatimizga to‘sqinlik qiladi. Oddiy qilib aytganda, o‘z pozitsiyasi amalda bo‘lgan tadbirkor ko‘pincha o‘ziga tegishli bo‘lmagan resurslarni - yangi xodim, tejamkor jarayon yoki mahsuldorlik vositasini oladi. EI va o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish turli xil munosabat, qiziqish va mulohazalarni o‘z ichiga oladi, bu maqsadga yo‘naltirilgan mutaxassislarining xususiyatlariga to‘liq mos kelmaydi.

DEGS bilan o‘z-o‘zini anglash bilan shug‘ullanish murakkabligi bu uni qilmaslik kerak degani emas. Lidiya Zylovska va uning Los-Anjelesdagi Kaliforniya universitetidagi guruhi diqqatni jamlash DEGS belgilarini yaxshiroq boshqarishga yordam berishini aniqladi. “Tasavvur qiling. O‘z-o‘zini anglashni kuchaytirish sizni nafaqat yaxshi rahbarga aylantirishi mumkin, balki u DEGSni boshqarishga ham yordam beradi” deydi u. Quyidagi 5 ta usul o‘z-o‘zini anglashni mashq qilishga yordam beradi:

- **Pauza** - emotsional intellektning rivojlanishi o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishdan boshlanadi. Anglash pauzadan boshlanadi. Bu, shuningdek, global kreativchilar muntazam ravishda kurashadigan ijro etuvchi funksiya mexanizmidir.

- **Meditatsiya bilan shug‘ullanish.** O‘zingizni muntazam meditatsiya mashg‘ulotlariga bag‘ishlang. Ko‘pchilik ertalab meditatsiya qilishni yaxshi ko‘radilar va amaliyotni kundalik yozib borish va jismoniy mashqlar bilan bog‘lashadi. Sinf jamoasiga qo‘shiling. Ijtimoiy mas‘uliyatni oshiradi.

- **Kundalik. Kundalik tutish** - bu fikrlash mashqidir. Kundalik yozishni tugatayotganingizda nima uchun minnatdor ekanligingizga e‘tibor bering.

- **Kunlik rejalarga amal qilish.** Ertalab kunlik reja qiling va kun oxirida undan olingan tajriba haqida o‘ylang. Uni nima muvaffaqiyatli qildi? Nima uni amalga oshirishga to‘sqinlik qildi? kabi savollarni xayolan muhokama qiling.

- **O‘z-o‘zini anglashni qadrlaydigan odamlar bilan vaqt o‘tkazish.** Bunday odamlar dramani yaxshi boshqarishga moyildirlar va o‘z atroflarini xabardorlik, hissiy aqlni qadrlaydigan kishilar bilan to‘ldiradilar.

Muxtasar qilib aytganda, ongni rivojlantirish amaliyoti bilan shug‘ullanishni kunning qolgan qismiga qoldirmang. Fikrlash va ogohlikning qadr-qimmatini o‘z tajribasida ko‘rganlar, strategik rejalashtirish va mulohaza yuritish kabi amaliyotlarni kunlarining muhim qismiga joylashtiradilar va ularni hech qachon arzimasi deb hisoblamaydilar.

Empatiya emotsional intellektning (EQ) asosiy komponenti bo‘lib, u o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish, tushunish va o‘z o‘rnini egallash qobiliyatini anglatadi. Ba‘zi odatlar, xatti-harakatlar yoki shaxsiy xususiyatlar qanchalik empatiyaga ega bo‘lishdan qat’i nazar, sizni yoki farzandingizni kamroq



empatik qilib ko'rsatishi mumkin. Masalan, diqqat yetishmasligi giperaktivligi sindromi (DEGS) bilan bog'liq ba'zi alomatlar empatiya yetishmasligini ko'rsatishi mumkin, deydi Mindpath Health kompaniyasining bolalar, o'smirlar va kattalar psixiatri Zeyeshan Xan. Bu alomatlar bezovtalik, impulsiv xatti-harakatlar va diqqatni jamlash yoki vazifani bajarishda qiyinchiliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, agar sizda DEGS bo'lsa, odatda boshqalarga xalaqit berishingiz, osongina chalg'ishingiz yoki boshqalarga nisbatan sabrsiz bo'lishingiz mumkin. O'z munosabatingiz haqida o'ylashdan oldin siz boshqa odamlar yoki vaziyatlarga munosabat bildirayotgan bo'lishingiz mumkin, bu esa empatik bo'lmagan so'z yoki harakatlarga olib kelishi mumkin, deydi Xan. Siz yoki farzandingiz giperfokus kabi ko'pincha DEGS bilan bog'liq bo'lgan boshqa xususiyatlar tufayli boshqalar bilan bo'lishish imkoniyatini qo'ldan boy berishi mumkin, deya qo'shimcha qiladi u. Albatta, bularning hech biri siz boshqalarning his-tuyg'ularini farqlamaysiz, tushunmaysiz yoki ularga ahamiyat bermaysiz degani emas. DEGS va empatiya o'rtasidagi bog'liqlik haqida gap ketganda, ko'p narsalarni hisobga olish kerak.

Kam empatiyaga ega bo'lish nimani anglatadi? Empatiyani va uning qanday namoyon bo'lishini yaxshiroq tushunish uchun uning hamdardlik va qayg'urish kabi tegishli javoblardan qanday farq qilishi haqida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish foydali bo'ladi:

• **Simpatiya:** bironing dardi va iztirobiga achinish yoki qayg'u kabi hissiy munosabat. Boshqacha qilib aytganda, siz ularga hamdardsiz.

• **Empatiya:** bironing his-tuyg'ularini tan olish va tushunish qobiliyati. Biror kishiga hamdardlik, siz u bilan bir xil his qilishingizni anglatadi.

• **Rahm-shafqat:** bironing dardini tushunish va bu azobni qandaydir tarzda yengillashtirishni xohlash. Rahmdillik, siz ikkalangiz ham kimgadir hamdardligingizni va unga yordam berish uchun harakat qilishni xohlayotganingizni anglatadi.

Mutaxassislar empatiyani sizda tug'ilgan xususiyat va siz rivojlantirishingiz mumkin bo'lgan qobiliyat yoki ijtimoiy javob deb hisoblashadi. Shuningdek, ular empatiyaning ikki xil turini ajratib ko'rsatadilar, ya'ni kognitiv va affektiv empatiya.

Kognitiv empatiya boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishning asosini anglatadi. Ushbu turdagi empatiya sizga ovoz, yuz ifodasi yoki tana tilidagi o'zgarishlarni tushunishga imkon beradi, bu esa kimdir nimani o'ylayotganini yoki his qilayotganini anglatadi. Affektiv empatiya, shuningdek, hissiy empatiya deb ham ataladi, bu sizga boshqa odamning hissiy tajribasini baham ko'rish yoki ular bilan "birgalikda" his qilish imkonini beradi. Bunday hamdardlik rahm-shafqat va mehribonlik harakatlarini kuchaytirishga yordam beradi. Empatiyaning yetishmasligi o'zini quyidagicha namoyon qilishi mumkin:

- boshqalarni tanqid qilishga moyillik;
- boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qiyinligi;
- xatolarni kechirishning oson kechmasligi;
- boshqalarni "juda sezgir" deb hisoblash;
- so'zlarning potensial ta'siri haqida o'ylamasdan gapirish;
- xatti-harakati boshqa odamlarga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylamasdan impulsiv harakat qilish;
- boshqa odamlarning fikri yoki nuqtayi nazariga unchalik qiziqmaslik;
- boshqa odamlarning hissiy reaksiyalaridan umidsizlik yoki xijolat bo'lish.

Har bir kishi individual ravishda turli darajadagi empatiyaga ega bo'ladi. Shubhasiz, empatiyaning past darajasi boshqa odamlarning his-tuyg'ulari va tajribalarini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin, ammo empatiyaning yetishmasligi kishini "yomon" odamga aylantirmaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, kimgadir hamdard bo'lish uning his-tuyg'ularini tushunish va narsalarni uning nuqtayi nazari bilan ko'rish mumkinligini anglatadi. Misol qilib aytganda: "Men onamga xalaqit qilganimdan juda afsusdaman. Men bunday qilishni aslo xohlamayman, biroq tez-tez qilaman. Bu uni xafa qilsa kerak" kabi jumlar hamdardlikdan dalolat beradi.

DEGS past empatiyaga olib keladimi? Xanning aytishicha, DEGS bilan og'rigan ko'plab odamlar uchun dunyo tartibsiz, bosim o'tkazuvchi va murakkab bo'lib tuyulishi mumkin. Impulsivlik va vazifalarga diqqatni jamlashda qiyinchilik kabi alomatlar boshqalar boshdan kechirayotgan narsalarni qadrlashga harakat qilish u yoqda tursin, o'z his-tuyg'ularini tushunish va qayta ishlashni qiyinlashtirishi mumkin. "Ba'zida DEGS shunday vaziyatlarga olib kelishi mumkinki, siz hattoki, aytgan so'zlaringiz qo'pollikdek tuyulganini anglamaysiz", deb tushuntiradi Xan.

Ba'zi cheklangan dalillar DEGS va past emotsional (affektiv) empatiya o'rtasidagi potensial bog'liqlikni ko'rsatadi. 2018-yilgi Ishonchli manba tadqiqoti mualliflari 112 nafar o'smir va katta yoshdagi ishtirokchilarni ikki guruhga bo'lishdi: Subklinik DEGS bo'lgan 56 kishi (rasmiy tashxis qo'yilmagan,

ammo DEGS belgilariga ega) va DEGS belgilari yo‘q yoki bo‘lsa ham juda kam bo‘lgan 56 kishi. Ular ishtirokchilarni talabalik maqomi, jinsi va yoshiga qarab moslashtirdilar.

Ko‘proq DEGS belgilariga ega subklinik DEGS guruhi - emotsional hamdardlik o‘lchovlari bo‘yicha sezilarli darajada pastroq ball oldi. Eng muhimi shundaki, bu ballar hali ham empatiyaning odatiy diapazonida edi. Tadqiqotchilar, kognitiv empatiya o‘lchovlarida sezilarli farq yo‘qligini aniqladilar. Ular subklinik DEGS bo‘lgan ishtirokchilarning "tizimlashtiruvchi" kognitiv uslubga ega bo‘lish ehtimoli ko‘proq ekanligini aniqladilar. Tafsilotlarga ko‘proq e‘tibor va yuqori tahlil qobiliyatini o‘z ichiga olgan bu uslub erkaklar va autizm spektridagi odamlar orasida keng tarqalgan. Tadqiqotchilar DEGS bilan og‘rigan odamlarda empatiya ko‘rsatkichlarining pastligi e‘tiborsizlik, impulsivlik va rejalashtirish, vaqtni boshqarish va tashkilotchilik kabi ijro etuvchi funksiyalardagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta‘kidladilar. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, ushbu ishtirokchilarning hech biri DEGSning haqiqiy klinik tashxisiga ega emas edi. Bundan tashqari, 112 kishi ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan kam sonli deb e‘tirof etilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mutaxassislar biron bir xulosaga kelishdan oldin empatiya va DEGS o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq o‘rganishlari, ayniqsa kattalarda yaxshilab tahlil qilishlari kerak. Boshqalarni tushunish yoki aloqa o‘rnatishda qiyinchiliklar, munosabatlardagi keskinlik yoki mojaroga hissa qo‘shishi mumkin. Biroq yaxshi muloqot qobiliyatlari yaqinlar bilan munosabatda muhim ahamiyat kasb etadi, u rishtalarni mustahkamlaydi va do‘stona aloqalarni yaratishga yordam beradi. Quyida DEGS tashxisli kishilar munosabatlarini yaxshilash uchun usul va vositalar keltirilgan:

○ **Simptomlar qanday namoyon bo‘lishini tushuntirish:** Bu do‘stlar va yaqinlarga xalaqit qilmaslikni yoki suhbatni davom ettirmaslikni aytish kabilarni o‘z ichiga oladi - siz gapirayotgan narsangizga e‘tibor qaratishingiz, yoki odamlarning sizga aytayotgan gaplariga diqqat bilan quloq solish sizga qiyinchilik tug‘dirishini aytishingiz mumkin, biroq siz kerakli sana va rejalarni yozib borishni yaxshi bilasiz.

○ **Ko‘proq savollar berish:** Muloqot nafaqat gapirishni, balki tinglashni ham o‘z ichiga oladi. Biror kishidan nima haqida o‘ylayotganini so‘rash sizga qo‘shilish, uning nuqtayi nazarini bilish, faol va o‘ylangan tinglashni mashq qilish imkoniyatini beradi.

○ **Tana tili belgilariga e‘tibor berish:** tana tili kimdir nimani o‘ylayotgani va his qilayotgani haqida ko‘p ma‘lumot berishi mumkin. Boshini qimirlatib, sizga ochiq, bo‘shashgan holatda qaraydigan odam, ehtimol, siz aytayotgan narsaga juda qiziqadi. Boshqa tomondan, agar odam yarim yuz o‘g‘irgan yoki telefoni bilan o‘ynasa, savol berish yoki mavzuni o‘zgartirish haqida o‘ylashingiz kerakligidan dalolat beradi.

○ **Ehtiyojlari haqida gapirish:** Bu sizning yaqinlaringiz sizga qanday yordam berishi mumkinligini bilishini anglatadi. Masalan, siz: “Odatda men rejalarimizni unutganim uchun emas, balki biror narsa bilan band bo‘lganim va vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaganim uchun kechikaman. Vaqt muhim bo‘lgan rejalarni tuzayotganimizda, menga 30 daqiqa erta kelishimni ayta olasizmi? “deyishingiz mumkin

○ **Zaif bo‘lishni mashq qilish:** fikr va his-tuyg‘ularingizni o‘zingizga saqlashga moyilmisiz? O‘z his-tuyg‘ularingizni yanada qulayroq ifodalash sizga boshqalar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatishga va munosabatlaringizni yaxshilashga yordam beradi. Shunda ular sizning hamisha 5 daqiqa kechikishingiz yoki hayajonlanganingizda tez-tez suhbatga kirishishingizni sezishsa ham, ular sizni avtomatik befarq deb bilishmaydi.

Terapiya qanday yordam berishi mumkin? Agar siz DEGS tashxisiga ega bo‘lsangiz, terapiya sizning hayotingizda o‘ziga xos alomatlar qanday namoyon bo‘lishini tushunishga yordam beradi. Tashxis qo‘yilmagan va davolanmagan DEGS sizning hayotingiz va munosabatlaringizga katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, ammo malakali terapevt ixtisoslashgan ko‘rsatmalarni taklif qilishi mumkin.

- o‘ziga xos alomatlar va ularning ta‘sirini aniqlash;
- ushbu alomatlarni samaraliroq boshqarishni o‘rganish;
- ehtiyojlaringizni hayotingizdagi odamlar bilan bo‘lishish uchun muloqot qilish ko‘nikmalarini mashq qilish;

- boshqalar bilan mazmunli muloqot qilish uchun g‘oyalarni o‘rganish;
- hamdardlik yo‘qligi bilan bog‘liq har qanday tashvishlaringizni ochish.

Sandra Kalsadilla buni quyidagicha tushuntiradi: “Buni shunday o‘ylab ko‘ring: siz sport zaliga borib, mustaqil ravishda mashq qila olasizmi? Albatta, lekin agar siz qanday mashqlarni bajarishingiz, qanchalik tez-tez va qancha vaqt davomida bajarishingiz kerakligi haqida ko‘proq yordamga muhtoj bo‘lsangiz, mutaxassis maqsadlaringizga erishishda yordam berishi mumkin. Misol uchun, agar siz tez-tez kechiksangiz, terapevt sizga uydagi chalg‘ituvchi omillar kabi potensial qo‘zg‘atuvchilarni o‘rganishga yordam beradi va jadvalga rioya qilishingizga yordam beradigan bir nechta o‘zgarishlarni taqdim etadi.

Terapevt - ko‘pincha DEGS va autizm bilan bog‘liq bo‘lgan rad etilishga sezgirlik disforiyasini (RSD) o‘rganish va ishlashga yordam beradi. RSD boshqalarning tanqidi yoki salbiy munosabatini olgandan keyin kuchli va haddan tashqari hissiy tanglikni boshdan kechirishni yoki o‘zingizni tushkunlikka solib qo‘yganingizga yoki biron bir tarzda boshqalarning hafsalasi pir bo‘lganiga ishonishni o‘z ichiga oladi. Rad etilishning bunday sezgirligi hissiyotlarni qayta ishlash va ifodalashni qiyinlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu sizni rad etish, salbiy fikr-mulohazalar yoki hamdardlik yo‘qligi uchun tanqid qilish haqida tashvishlanadigan vaziyatlardan qochishingizga olib kelishi mumkin.

Dori-darmonlar vaziyatni o‘zgartira oladimi? 2021-yilgi kichik tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, metilfenidat (Ritalin), tez-tez DEGSni davolash uchun ishlatiladigan stimuly beruvchi dori, DEGS bilan og‘rigan o‘smirlar va bolalarda hissiy (affektiv) empatiyani kuchaytirishi mumkin. Tadqiqot mualliflarining fikriga ko‘ra, preparat miyaning kimyoviy moddalari dofamin va norepinefrin darajasini oshiradi, bu esa DEGS bilan og‘rigan odamlarda impulsivlikni kamaytirish va e‘tiborni kuchaytirishga yordam beradi. Metilfenidat empatiyani avtomatik ravishda oshirmaydi, chunki empatiya orttirilgan malakadir. Ammo DEGS belgilarini davolash uning so‘zlari va harakatlarining mumkin bo‘lgan oqibatlarini ko‘rib chiqishni osonlashtiradi yoki chalg‘itmasdan boshqalar bilan hissiy aloqada bo‘lishga yordam beradi.

Yuqori empatiya qayerlarda mos keladi? Yuqori sezuvchanlik DEGS bo‘lgan odamlarda keng tarqalgan xususiyatdir, deydi psixiatr va Done klinikasi direktori MD Zoe Martinez. Xususan, siz o‘z muhitingizdagi ma‘lumotlarga nisbatan sezgir bo‘lishingiz yoki boshqalardan olgan hissiy ma‘lumotni, jumladan, yuz ifodasi yoki ovoz ohangidagi o‘zgarishlar kabi nozik hissiy signallarni filtrlash qiyinroq bo‘lishi mumkin. Ishonchli manbalardan ba‘zi ekspertlar bu yuqori sezuvchanlikni ko‘proq empatiya va hissiy reaktivlik bilan bog‘lashadi. Hissiy energiyaga nisbatan yuqori sezuvchanlik sizni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy vaziyatlardan tezda xalos qiladi. Bu shuningdek, quyidagilarni ham anglatishi mumkin:

- boshqalarning his-tuyg‘ulari va kayfiyatlarining kuchli ta‘sirini his qilish va boshqalar kuchli his-tuyg‘ularni ifoda etgan vaziyatlarda qiyinchiliklarga duch kelishi;
- boshqa odam kuchli hissiy reaksiya ko‘rsatganda, o‘zini jabrlangan his etish;
- haddan tashqari emotsional vaziyatlardan qochishga harakat qilish;
- odamlar kuchli his-tuyg‘ularga ega bo‘lsa, chegaralarni belgilashda muammolarga duch kelish;
- o‘zini himoya qilish uchun boshqalardan uzoqlashish;
- haddan tashqari oshirib yuborganingizda his-tuyg‘ularingizni boshqarish yoki nazorat qilish qiyinligi.

Agar siz empatiya va sezgirlik bilan kurashayotgan bo‘lsangiz, Xan va Kalsadilla bu bora quyidagicha maslahat beradilar:

- his-tuyg‘ularingizni yozishga vaqt toping;
- emotsional noqulaylikni samarali aniqlash va unga qarshi kurashishga yordam beradigan ongni saqlash usullarini qo‘llang;
- o‘zingizni hissiy jihatdan himoya qilish va energiyangizni tejash uchun munosabatlarda chegaralarni belgilashni o‘rganing;
- hissiy jihatdan keskinlashgan vaziyatlarda stressni bartaraf etish uchun jismoniy mashqlar, chuqur nafas olish yoki meditatsiyadan foydalaning.

O‘zingizni boshqa odamning o‘rniga qo‘yish va uning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati sizga mehribonlik, mehr va rahm-shafqat bilan javob berishga imkon beradi, bu esa oxir-oqibat munosabatlaringizni mustahkamlashi mumkin. Agar siz boshqalar bilan hissiy munosabatda bo‘lish, ularning his-tuyg‘ularini tan olish va o‘z his-tuyg‘ularingizni ifoda etish qiyin bo‘lsa, professional mutaxassis yordami muhim ahamiyat kasb etadi. Terapevt siz boshdan kechirgan har qanday DEGS belgilari bilan kurashish bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatmalar, shuningdek, ko‘proq empatiyani rivojlantirish uchun o‘qitish usullari va muloqot strategiyalarini taklif qilishi mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Barkley RA(1997) Behavioral inhibition, sustained attention and executive functions: constructing and unifying theory od ADHD. Psychol Bull, 121: 65-94;
2. Bar-On RE, Parker JD (2000) The Handbook od Emotional Intelligence: The Theory and Practice od Development, Evaluation, Education and Application -at Home, School, and in the Workplace. San Fransisco, CA, Jossey-Bass;

3. Cadesky EB, Mota VL, Schachar RJ (2000) Beyond words: how do children with ADHD and conduct problems process nonverbal information about affect? *J Am Acad Child Adolesc Psychiatry*, 39: 1160-1167;

4. Hetchman L (2005) Attention deficit hyperactivity disorder. In comprehensive textbook of psychiatry, 8th edition (Eds BJ Saddock, VA Saddock): 2679-2692. Philadelphia, Lippincott Williams and Wilkins.



*Nusratova Mexriniso Baxshilloeyvna*  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi*

### SHAXSDAGI ALTRUISTIK XULQ MOTIVLARINING GENDER FARQLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak psixologlardagi altruizm namoyon bo'lishining gender farqlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishining natijalari nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada altruizm va empatiya, irodaviy sifatlar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlarning psixologik tahlillari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** altruizm, gender, empatiya, irodaviy sifatlar, determinat, motiv, metodologik, xulq-atvor, akmeologik, motivatsiya, pozitiv, kommunikativ, kompetentlikni, persepsiya, egoizm.

### ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В МОТИВАХ АЛЬТРУИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ

**Аннотация:** В данной статье теоретически анализируются результаты научного исследования, направленного на определение гендерных различий в проявлении альтруизма у будущих психологов. Также в данной статье представлен психологический анализ соотношения альтруизма и эмпатии, волевых качеств.

**Ключевые слова:** альтруизм, пол, эмпатия, волевые качества, детерминированные, мотивные, методологические, поведенческие, акмеологические, мотивационные, позитивные, коммуникативные, компетентностные, перцептивные, эгоистические.

### GENDER DIFFERENCES IN MOTIVES OF ALTRUISTIC BEHAVIOUR OF PERSONALITY

**Abstract:** In this article, the results of the scientific research aimed at determining gender differences in the manifestation of altruism in future psychologists are theoretically analyzed. Also, this article presents psychological analyzes of the correlation between altruism and empathy, volitional qualities.

**Keywords:** altruism, gender, empathy, volitional qualities, determinate, motive, methodological, behavior, acmeological, motivation, positive, communicative, competence, perception, egoism.

**Kirish.** Sharqona tarbiya bolaning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissida namoyon bo'ladi. Qolaversa, millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik, o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish, o'z millatining moddiy, a'naviy merosini asrab-avaylash, xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilishi, ularni boyitishi va takomillashtirishi, o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatida namoyon etish har bir psixologiyada shaxs altruistik xulq-atvori motivlarini izohlab beruvchi turli konseptual yondashuvlar mavjud. Altruizm tushunchasiga olimlar turli izohlar berishgan [2].

Sharq mamlakatlarida farzandni qanday qilib voyaga yetkazish, ularning kamoloti uchun nimalarga e'tibor berish kerak degan masala doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shu boisdan, eng qadimgi qo'l yozmalardan tortib zamonaviy manbalarga qadar barkamol avlod tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat qaratilgan. Xususan, barkamol avlodni tarbiyalashda shaxsdagi axloqiy, kognitiv, motivatsion komponentlar va ularga ta'sir etish mexanizmlari Sharq allomalarining durdona asarlarida yoritib berilgan.

Xususan, altruistik xulq masalalari Sharq allomalarining asarlarida "altruizm" tushunchasi orqali emas, balki, "ezgulik", "muruvvat", "yaxshilik", "sahovat", "futuvvat" kabi tushunchalar negizida yoritib berilgan.

**Asosiy qism.** Altruizm – bu o'zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlariga yo'naltirilgan va hech qanday manfaat ko'zlanmaydigan shaxs xulq-atvoridir. Altruizm atamasini birinchi bo'lib, fransuz faylasufi O.Kont egoizmga qarama-qarshi atama sifatida qo'llagan. Bizga ma'lumki, Sharq allomalarining asarlarida keltirilgan yuqorida sanab o'tilgan mana shu oliy sifatlar zamirida o'zgalarning manfaatlari, qarashlari yotadi. Shunga ko'ra, allomalarimiz asarlarida keltirilgan mana shu kabi shaxs ijobiy sifatlarini

aynan altruizmning sharqona tavsifi deb hisoblash mumkin. Biz tadqiq etishni maqsad qilib belgilagan altruizm ham aynan o'zida sharqona milliy xarakterni belgilab beruvchi real xatti-harakatlarda ro'yobga chiqadigan muayyan xulqiy normalar va qadriyatlar tizimi majmuidan (A.O.Boronoyev, P.I.Smirnov) iborat, o'zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlariga yo'naltirilgan va hech qanday manfaat ko'zlanmaydigan xulq-atvor shaklidir [2].

Altruizm shaxs xulq-atvorini to'liqligicha aks ettirishga u anglangan qadriyatlar tizimiga aylanishi va shaxsning hayoti mazmuniga singib ketishi mumkin. Altruizm kishilarning kundalik muloqot va faoliyatida ijtimoiy-psixologik voqelik sifatida namoyon bo'lishi mumkin [5].

Ko'pgina psixolog olimlar tomonidan altruizmning psixologik mexanizmlari tadqiq etilib, tahlil qilib berilgan. Jumladan, Dj.Aronfrid va V.Paskallar altruizmni maktabgacha yoshdagi bolalardagi empatiyani namoyon bo'lishi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, B.Mur ijobiy emotsiyalar altruistik xatti-harakatlarga sabab bo'lishini isbotlab bergan, S.Staub esa o'z tadqiqotlari davomida altruistik xulq-atvor motivlarini ko'rsatib o'tgan. Bundan tashqari, xorij psixologlarining ilmiy izlanishlarida altruizmning vaqt omiliga (D.Beytson), aybdorlik hissiga (D.Mak-Millen, Dj.Ostin), kayfiyatga (D.Kenrik, D.Baumann), shaxsning individual xususiyatlariga (E.Igli, M.Krouli) bog'liqlik jihatlari tadqiq etilgan. Shaxsdagi altruistik xulq muammosining o'rganilishiga xorij va rus olimlari ancha ilgari kirishgan bo'lsalarda, ularning soni juda ko'p emas, ya'ni bu mavzu juda kam olimlar tomonidan o'rganilgan. Bizning respublikamizda bu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi sifatida deyarli ish olib borilmagan. Lekin keyingi yillarda shaxsda axloqiy tushunchalar, emotsional intellekt va milliy o'zlikni anglashning shakllanishiga oid ilmiy tadqiqot ishlariga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, o'zbekistonlik psixologlar tomonidan o'quvchilarda axloqiy tushunchalarning shakllanishi (Z.E.Usmanova), talabalarda milliy o'zlikni anglashning psixologik xususiyatlari (N.S.Safoyev), maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda burch hissi muammosi (M.Sh.Rasulova) chuqur tadqiq etilgan [3].

#### **Altruizmning mohiyatini ochib beradigan uch xil yondashuv mavjud, bular:**

- **Psixologik yondashuv.** Jamiyatda har qanday shaxslararo munosabatlar zamirida o'zaro manfaatdorlik yotadiki, shunga muvofiq altruizm – bu mehr-muhabbat, hurmat, g'amxo'rlik kabi psixologik hissiyot va ijtimoiy-psixologik qadriyatlarni o'zaro almashinishdir. Bunda kishilardagi empatiya va egoizm hislarining namoyon bo'lish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Ijtimoiy yondashuv.** Shaxs va jamiyat hayotida ijtimoiy ta'sirlarning roli beqiyosdir. Aynan ijtimoiy ta'sirlar, ya'ni ijtimoiy norma, sanksiya, ijtimoiy ma'suliyat hissi va ijtimoiy rollarning o'zaro ta'siri natijasida kishilar altruistik xatti-harakatlarni sodir etadilar.

- **Biologik yondashuv.** Ushbu yondashuvda altruizm biologik ehtiyoj sifatida ko'rib chiqiladi va altruizm kishilar xulq-atvorida instinktiv ravishda namoyon bo'ladi deb qaraladi. Altruizmning asl mohiyati kishilarning o'z naslini saqlashga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ota-onaning o'z farzandiga nisbatan altruistik xatti-harakati negizida o'z naslini saqlab qolishga bo'lgan biologik ehtiyoj yotadi deb tushuntiriladi.

**Metodika.** Shaxsdagi altruizmning shakllanganlik darajasini tadqiq etish yo'nalishlaridan biri bu ulardagi gender farqlarni aniqlashdir. Shu maqsadda shaxslarda “Altruizm-egoizm” shkalasi bo'yicha shaxsning ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini diagnostika qilish so'rovnomasini o'tkazdik. Mazkur metodikadan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

**1-jadval.**

#### **Altruizm namoyon bo'lishining gender farqlari**

Altruizm	Eksperimental guruh		Nazorat guruhi	
	O'rtacha (X)	Standart og'ish ( $\sigma$ )	O'rtacha (X)	Standart og'ish ( $\sigma$ )
O'g'il bolalar	4,0	0,549	7,134	0,976
Qiz bolalar	4,02	0,653	7,182	1,161

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, eksperimental va nazorat guruhidagi o'g'il va qiz bolalarda altruizm shakllanganligi orasidagi farq deyarli kuzatilmadi, lekin nazorat guruhi vakillarida altruizm darajasi eksperimental guruh sinaluvchilariga qaraganda yuqoriroq. Altruizmning namoyon bo'lishidagi gender farqlarning ko'zga tashlanmaganligiga sabab qiz bolalarda ham o'g'il bolalarda ham altruistik xulq-atvor shakllangan, biroq ularni altruistik xatti-harakatlarni sodir etishga undovchi omillar turlichadir. Xuddi shunday vaziyat Y.P.Ilin boshchiligidagi o'tkazilgan tadqiqotlarda ham kuzatilgan bo'lib, ular bu vaziyatni izohlashda quyidagicha yondashganlar: qiz bolalarda bu ko'proq “g'amxo'rona yordam berish” ko'rinishida bo'ladi, ya'ni bu ularning boshqalarni shaxsiy va hissiy ehtiyojlari haqida qayg'urishi hamda ularga o'z

maqsadlariga erishishlariga yordam berishi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda esa bu “qahramonlik yordami” ko‘rinishida bo‘lib, g‘ayrioddiy va tavakkal harakatlarni bajarish, o‘zlarini haqiqiy qahramondek tutish holatlarini o‘zida mujassam etadi [6].

Demak, altruizmning namoyon bo‘lishida deyarli farqlar yo‘q, lekin o‘g‘il va qiz bolalarni altruistik xatti-harakatlarga undovchi omillar turlichadir. Shunday omillardan biri empatiyadir. Psixologik tadqiqotlardan ma‘lumki, empatiya butun insoniyatga xos xususiyat bo‘lib, empatiya turli narsa yoki kishilarga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin. Biroq barcha ham o‘zidagi bu qobiliyatni namoyon etavermaydi, ayniqsa, o‘g‘il bolalar. Lekin, bu ularda empatiya hissi yo‘q degani emas. Biz aynan empatiyaning namoyon bo‘lishidagi gender farqlarni aniqlash maqsadida I.M.Yusupovning “Empatiya darajasini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Metodikadan olingan natijalar quyidagi jadval va gistogrammalarda keltirilgan [2].

2-jadval.

*Empatiya darajasining gender farqlari  
( $\bar{X}$  – o‘rtacha arifmetik qiymat hisobida)*

Shkalalar nomi	Eksperimental guruh		Nazorat guruhi	
	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar
Past	14,7	14,4	5,75	3,7
O‘rta	9,78	12,25	17,3	20,2
Yuqori	1,73	3,87	4,03	5,36

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan empatiya hissi biroz kuchliroqdir. Buning asl sababini oiladagi tarbiya usuli va jamiyatdagi ijtimoiy kutuvlar bilan bog‘lash mumkin. Chunki odatda o‘g‘il bolalardan yoshligidanoq mustaqil, mard, jasur, o‘z hissiyotlarini tuta bilish talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida ulardagi shaxsiy hissiyotlarini oshkor etish imkonini cheklaydi. Shu boisdan, o‘g‘il bolalarda o‘zgalarga hamdardlik qilish oshkora holda kuzatilmaydi, aksincha ular ich-ichlaridan azoblanayotgan insonga nisbatan empatiyani his etadilar. Qiz bolalar esa mutlaqo buning aksidir, ya‘ni ular hech qachon o‘z hissiyotlarini oshkor etishdan uyalmaydilar. Shu jumladan, o‘zgalarga oshkora hamdardlik bildirish, atrofdagilarning g‘amlariga qayg‘urish ular uchun xosdir. Qolaversa, jamiyatning ayollarga nisbatan ijtimoiy kutuvlari ham, ya‘ni mehribon ona, yaxshi tarbiyachi bo‘lish va boshqalar ulardan aynan empatiya hissini talab etadi.

Altruizmning yuzaga kelishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillardan yana biri irodaviy sifatning ham namoyon bo‘lishida gender farqlar kuzatildi, ya‘ni o‘g‘il bolalar va qiz bolalardagi altruizmni namoyon bo‘lishida turlicha irodaviy sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu fikrimizni tasdiqlash uchun Chumakovning shaxs irodaviy sifatlarini aniqlovchi metodikasidan olingan natijalarning faktorli tahlilini keltirib o‘tamiz.

3-jadval.

**Altruizm va shaxs irodaviy sifatleri orasidagi interkorrelyatsion bog‘lanishlarning gender farqlari**

Shkalalarning nomi	O‘g‘il bolalar uchun	Qiz bolalar uchun
	Altruizm	
G‘ayratlilik	0,805*	0,823*
E‘tiborlilik	0,765*	-0,577*
Maqsadga intiluvchanlik	0,557*	0,713*
Matonatlilik	0,845**	0,501**
Mustaqillik	0,625*	0,222*
Tashabbuskorlik	0,545***	0,701***
Qat‘iyatlilik	-0,535*	-0,202*
Mas‘uliyatlilik	-0,426*	0,812*
Jur‘atlilik	-0,639*	-0,265**

Izoh: \*\*\*  $r < 0.001$ , \*\*  $r < 0.01$ , \*  $r < 0.05$

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, o‘g‘il bolalarda atrofdagilarga nisbatan altruistik xatti-harakatni sodir etishlariga ulardagi g‘ayratlilik, e‘tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlar kuchliroq ta‘sir etar ekan.

O‘g‘il bolalardagi altruizm qat‘iyatlilik, jur‘atlilik va ma‘suliyatlilik bilan teskari aloqada ekanligi kuzatildi. Bizga ma‘lumki, qat‘iyatlilik insonning maqsadga erishishga bo‘lgan ishonchining darajasiga, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga, qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi irodaviy ustanovkalarga bog‘liqdir. Ma‘suliyatlilik esa o‘z zimmasiga javobgarlikni olish va o‘zgalar xavfsizligi uchun ma‘suliyatni his etishni talab etuvchi kabi irodaviy kuchdir. Tadqiqotlar natijasida ushbu ikki irodaviy sifatlarning altruizm bilan teskari aloqadaliigi birining yuqori darajada bo‘lishi ikkinchisining past darajada bo‘lishini anglatadi. Bu o‘g‘il bolalar altruistik xatti-harakatlarni sodir etishlarida mustaqillik, tashabbuskorlik, g‘ayratlilik kabi irodaviy sifatlar muhim o‘rin egallashini anglatadi [4].

Tadqiqot davomida olingan natijalardan ham ko‘rinib turibdiki, qiz bolalarning ko‘rsatkichlari o‘g‘il bolalarning ko‘rsatkichlaridan farqlanadi. Qiz bolalar uchun eng avvalo jur‘atlilik va matonatlilik yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Qolaversa, o‘tkazilgan faktorli tahlil natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan qator omillar ta‘sirida altruistik xatti - harakatlarni sodir etadilar. Bu shundan dalolat beradiki, qiz bolalarning xarakteri serqirra bo‘lib, ular o‘g‘il bolalarga qaraganda vaziyatga bir muncha tezroq moslasha oladilar.

Bundan tashqari, qiz bolalardagi altruizm ma‘suliyat, mustaqillik va g‘ayratlilik bilan teskari aloqada ekanligi kuzatildi. Bu ham o‘z navbatida oiladagi tarbiya usuliga bog‘liqdir. Chunki, o‘zbek xalqining milliy mentalitetida qiz bolalar yuqorida aytib o‘tilganidek “g‘amxo‘rona yordam” beruvchi shaxs sifatida tarbiyalanadi [1].

O‘g‘il bolalardan farqli ravishda qiz bolalarning altruistik xulq-atvori qat‘iyatlilik bilan ham ijobiy bog‘lanishga egadir. Bu qiz bolalarning turli noqulay vaziyatlarda o‘zlariga to‘g‘ri irodaviy ustanovkalarni bera olishlari hamda chidamliliklari bilan uzviy bog‘liqdir.

**Xulosa.** Demak, o‘smirlarda altruizm shakllanganligining gender farqlari miqdor jihatdan ahamiyatli emas. Chunki o‘g‘il va qiz bolalardagi altruizm darajasi orasida aytarli farq ko‘zga tashlanmadi. Biroq altruistik xulq-atvorning ichki determinantlari bo‘lmish empatiya va irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasiga hamda turli faktorlarning ta‘siriga ko‘ra altruizmga moyillikning namoyon bo‘lishida farqlar kuzatildi. Qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga qaraganda empatiya hissining kuchliligi, qolaversa, ular turli omillar ta‘sirida ham o‘z xarakterlaridagi moslashuvchanlikni saqlab qolgan holda o‘zgalarga beg‘araz yordam berishlari o‘z tasdig‘ini topdi. O‘g‘il bolalar esa bundan farqli ravishda o‘zlarining kuchli iroda egasi ekanliklari bilan ajralib turib, ularning altruistik xulq-atvorlariga aynan iroda kuchining hamda qator omillarning ta‘siri aniqlandi.

Shaxsda altruizmi rivojlantirishda quyidagilarga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiq deb topdik:

- shaxsning ijtimoiy-axloqiy bilimlarni egallashga tayyorlik motivatsiyasini kuchaytirish;
- bolani ijtimoiy ahamiyatli faoliyat sohalariga yo‘naltirish (loyihalar yaratishga jalb qilish, volonterlikda ishtirok etish, ijodiy faoliyatga jalb qilish);
- bolaning faol tashabbusini qo‘llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlarda o‘zaro hamkorlik modelini qo‘llash, bolaning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish;
- bolaning maxsus trening dasturi asosida ijtimoiy va emotsional intellektini shakllantirish

#### Adabiyotlar:

1. Shoniyozov Karim. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni/ Tahrir hayati: D.A.Alimova, E.X.Arifxanova, U.S.Abdullaev va boshq.- T.: “Sharq”, 2001. - 464 b.
2. Atabayeva N.B. O‘quv jarayonida altruizm motivlarining shakllanishi // O‘zbekiston aholisining etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Namangan. 2022. B.576-579.
3. Atabayeva N.B. Gender differences of altruism in pupils. Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue). – India. 2021. Vol. 10. – (SCOPUS). P.1752-1759.
4. Головин С.Ю. Словарь психолога-практика. - Минск: Харвест. 2001, -27с
5. Ильин Е.П. Эмоция и чувства. - СПб.: Москва-Харьков-Минск 2001. С.125 - 127.





**Raximova Indira Igorevna**

*O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy psixologiya kafedrasida dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
indira.rahimova.1987@mail.ru*

### **IJTIMOYIY FAOL YOSHLARNI ANIQLASH SO'ROVNOMASINING TAVSIFI VA XUSUSIYATLARI**

	<b>Eng yaxshi talabalar</b>	<b>«O'rtacha talabalar»</b>	<b>akademik samaradorligi past talabalar</b>
O'qituvchilarni sinash	28.6	26.2	25.2
O'qituvchilarni baholashi	38.3	30.6	25.8
O'quvchilarning o'zini o'zi qadrlashi	34.2	28.3	25.2

**O'qituvchining o'quvchilar temperamentini turini aniqlash qobiliyati.**

Har xil temperament turlariga mansub o'quvchilarni aniqlash qobiliyati o'qituvchiga o'quvchiga individual yondashuvni topishga, tarbiyaviy ta'sir qilish usullarini kerakli tarzda o'zgartirishga, o'quvchining xatti-harakati va imkoniyatlarini tushunishga imkon beradi (Minahmetova, Epaneshnikov va Shagivaleeva, 2012). O'qituvchining o'quvchilarning temperament turlarini aniqlay olishi o'qituvchining ish stajiga ham, ular o'rgatgan faniga ham bog'liq emas; ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsining yo'nalishiga bog'liq. 2-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar o'z ishlarida o'quvchilar temperamentining turlarini diagnostika qilishadi, bilishadi va hisobga olishadi, lekin ularda emas. O'qituvchilar bolalarni kategorik va konseptual apparatlar nuqtayi nazaridan tavsiflashda qiynaladilar, chunki ular psixologik atamalarni eslab qolishga harakat qiladilar va bolaning haqiqiy shaxsini yo'qotadilar.

Nerv tizimining xususiyatlarini va ularning namoyon bo'lishini aniqlashning aniq usullariga ega bo'lmagan holda, o'qituvchi talabalarning xususiyatlarini muntazam ravishda kuzatib boradi va ularga mos keladi.

**O'quvchining fikrlashiga diagnostika qilish qobiliyati.**

Talabalarning aqliy faoliyatidagi farqlar, asosan, aqlning chuqurligi, uning moslashuvchanligi, barqarorligi, ongliligi kabi aqliy sifatlarda namoyon bo'ladi. 3-jadvalda o'quv natijalari yuqori, o'rtacha va past bo'lgan talabalarning muvaffaqiyatga qarab guruhlariga taqsimlanishi ko'rsatilgan. Natijalar akademik ko'rsatkichlar va fikrlash moslashuvchanligi o'rtasidagi ma'lum bir muvofiqlikdan dalolat beradi. Xuddi shunday natijalar ravonlik va ichki reja bo'yicha ham olingan harakat.

2-jadval. O'quvchilarning temperament turlari (%)

Ustun temperament turi	Eng yaxshi talabalar		«O'rtacha» talabalar		Talabalarning akademik samaradorligi past	
	test	o'qituvchilar	sinov	o'qituvchilar	Sinov	o'qituvchilar
Xolerik mavzu	57.2	51.4	79.3	54.6	62.7	50.8
Sangvinik odam	21.4	29.4	16.7	22.4	28	24
Xolerik – sanguine	14.3	19.2	2	21.7	7	19
Melanxolik - flegmatik	7.1	-	-	-	-	-
Melankolik	-	-	2	1.3	2.3	3
Flegmatik	-	-	-	-	-	3.2

3-jadval. O'quvchilarning fikrlash moslashuvchanligining rivojlanish darajalari, (%)

Talabalar testi	O'qituvchilarni baholash					
	O'rtacha	Past	yuqori	O'rtacha	past	Yuqori
Eng yaxshi talabalar	85.7	-	14.3	30	3.3	66.8
O'rtacha talabalar	62.5	31.3	6.2	60	9.8	30.1
Talabalarning akademik samaradorligi past	60.5	30.2	9.3	62.8	31	6.1

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'quvchilarning aqliy fazilatlarini yetarli darajada baholay olmaydilar. Aqliy fazilatlarini aniqlash qobiliyati o'qituvchining ish stajiga, o'qitiladigan fanga va o'qituvchining shaxsiy yo'nalishiga bog'liq emas. Buni o'qituvchilarning fikrlash jarayonining o'zini tushunmasligi, aqlning sifat ko'rsatkichlari (yuqori yoki past) chegarasini aniqlashda qiynalayotganligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning psixodiagnostikasini o'tkazish qobiliyati mustaqil ravishda shakllanmaydi va uning rivojlanishi o'qitish tajribasiga va o'qitiladigan fanga bog'liq emas. Bu butun sinf va har bir o'quvchi hamda o'qituvchining shaxsiy yo'nalishi va psixodiagnostika maqsadlarining psixodiagnostikasining qandaydir bog'liqligini ochib beradi. O'qituvchilar ta'lim jarayoniga qanchalik ko'p jalb qilinsa, ular o'quvchilarning individual fazilatlarini qanchalik muvaffaqiyatli tan oladilar. Ta'lim sohasiga tasodifan kelgan va shuning uchun o'z shaxsiyatiga yo'naltirilgan o'qituvchilar talabalarning vazifalarini amalga oshirishda inertsyani namoyon etadilar.

#### Shakllantirish eksperimenti natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar psixologik bilimga muhtoj. Shunday qilib, o'qituvchilarning psixodiagnostika bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi sabablarini oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan kasb-hunar ta'limidagi kamchiliklardan izlash zaruriyati paydo bo'lishi aniq. Psixodiagnostikani amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish maxsus tashkil etilgan kursda amalga oshirilishi kerak. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun maxsus kurs ko'rinishidagi maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi o'quvchilarning psixodiagnostika sifatini oshirishga qaratilgan.

Oraliq aniqlash natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar psixodiagnostikasida ijobiy xarakterdagi sezilarli miqdoriy va sifat o'zgarishlari yuz berdi. Masalan, ko'rsatkichlarning eng katta o'sishi «o'rtacha» o'quvchilarning temperament turini aniqlashda kuzatiladi ( $p \leq 0,01$ ). Agar maxsus kursga qadar o'qituvchilar yuqori va o'rta o'quvchilarning xolerik temperament tipini aniqroq aniqlagan bo'lsalar, bu guruhlardagi o'quvchilarning boshqa temperament turlarini to'g'ri aniqlash biroz qiyinchilik tug'dirdi; O'qituvchilar maxsus kursdan o'tgandan so'ng, o'quvchilar temperamenti turini aniqlash ko'rsatkichlari talabalarning test sinovlari natijasida olingan natijalarga yaqinlashdi ( $p \leq 0,05$ ). O'tkazilgan o'lchovlar shuni ko'rsatadiki, sur'atlarning o'sishi nafaqat o'quvchilarning temperament turlarini aniqlashda, balki aqliy fazilatlarini, shaxsning yo'nalishini va boshqalarni baholashda ham kuzatiladi. Ushbu dastur natijasida psixodiagnostikani amalga oshirish sifati yaxshilandi. Talabalarning individual xususiyatlarini diagnostika qilish sifatli va informatsion xususiyatga ega bo'ldi. Maxsus o'qituvchilar malakasini oshirish kursidan o'tgan o'qituvchilar psixodiagnostika bo'yicha nisbatan yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatdilar. Bu o'qituvchilarning psixologik madaniyati darajasini oshirish va psixologik mazmun ustunligi bilan tizimli-pedagogik bo'lgan psixodiagnostik faoliyatni amalga oshirishning yuqori darajasi haqida gapirishga imkon beradi.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda maktab islohotining amalga oshirilishi munosabati bilan ushbu masalalar ta’lim sohasida, birinchi navbatda, umumta’lim maktablarida ham dolzarbdir. O’qituvchi faoliyatining psixodiagnostik komponentini sifat jihatidan yaxshilash mumkinligi haqida dalillar mavjud. Pedagogik kollejlarda uzluksiz pedagogik amaliyotni joriy etish o’quv jarayonining barcha ishtirokchilarining o’qish va o’qitishga bo’lgan ijobiy motivatsiyasini kuchaytiradi, bu esa ta’lim sifatining oshishiga va o’qituvchilarning professional standartida qayd etilgan asosiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Bu psixodiagnostik muammolarni hal qilish uchun zarur.

#### **Adabiyotlar:**

1. Anufriyev, AF (2006). Psixologik diagnostika. M: «Os-89».
2. Kamalova, LA, Zokirova, V.G. (2015). Universitetda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining pedagogik qadriyatlarini shakllantirish, Yevropa Tadqiqotlari Sharhi, 7 (5), 1-9.
3. Kostromina, S.N. (2006). Zamonaviy psixodiagnostika : tizimning asosiy tushunchalari. SPb : Sankt-Peterburg davlat universiteti.
4. Psixologiya fanidan nomzodlik dissertatsiyasi. Qozon. Minaxmetova, AZ, Epaneshnikov, VV, Shagivaleeva, GR (2012). O’qituvchi va o’quvchining psixotipi korrelyatsiyasi ta’limdagi o’zaro ta’sirning samaradorligi omili sifatida // Jahon amaliy fanlar jurnali 20-jild (Pedagogika va psixologiya bo’yicha maxsus nashr).
5. Tarmoqlar innovatsion ta’lim muassasasini rivojlantirish omili sifatida (2016) <http://anyanova.tomsk.ru/wp-content/uploads/2013/02/cetevoy.pdf>.
6. Fridman, LM (1997). Umumiy ta’lim psixopedagogikasi. M: “Amaliy institut” nashriyoti Psixologiya».

**Salikhov Timur Mansurovich**

Buxoro davlat universiteti stajor tadqiqotchisi

[Salixovtimur9@gmail.com](mailto:Salixovtimur9@gmail.com)

<https://orcid.org/>

0000-0003-4769-1075

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari, ya'ni kichik maktab yoshidagi o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish komponentlari, sog'lom turmush tarzini takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, o'quvchilarning yosh davr psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib pedagog o'z faoliyatini olib borishi ochib berilgan. Taniqli psixolog L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan yosh xususiyatlari negizida metodologik asoslar keltirib o'tilgan. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda uchraydigan psixologik nomutanosiblikni oldini olish. Kichik maktab yosh davridagi o'quvchilarni har tomonlama yetuk, o'z o'rniga ega kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalash maqsadi hamda vazifalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, pedagogika, jismoniy tarbiya, komponentlar, yosh davrlari, sog'lom turmush tarzi, kichik maktab yoshi, men konsepsiyasi, mutanosiblik.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены компоненты формирования здорового образа жизни у младших школьников, т.е. учащихся младшего школьного возраста, факторы, оказывающие негативное влияние на совершенствование здорового образа жизни. Методические основы даны на основе возрастных особенностей, выдвинутых известным психологом Л. С. Выготским, профилактика психологической неуравновешенности у детей младшего школьного возраста. Объяснены цели и задачи воспитания учащихся младшего школьного возраста как зрелых личностей, имеющих своё место во всех аспектах.

**Ключевые слова:** психология, педагогика, физическое воспитание, компоненты, возрастные периоды, здоровый образ жизни, младший школьный возраст, представление о себе, пропорции.

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Abstract:** This article discusses the components of the formation of a healthy lifestyle among younger students, i.e. students of primary school age, factors that have a negative impact on the improvement of a healthy lifestyle. The methodological foundations are given on the basis of age characteristics put forward by the famous psychologist L. S. Vygotsky. Prevention of psychological imbalance in children of primary school age. The goals and objectives of educating primary school students as mature individuals who have their place in all aspects are explained.

**Key words:** psychology, pedagogy, physical education, components, age periods, healthy lifestyle, primary school age, self-image, proportions.

**Kirish.** Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng kelajak avlod bunyodkorlari bo'lgan yoshlarga e'tibor yanada yuksak bosqichga chiqdi. Yoshlarning sog'ligini mustahkamlash maqsadida Prezidentimiz tomonlaridan keng qamrovli e'tiborning qaratilishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Har bir yoshning doim sport mashqlari bilan mashg'ul bo'lib turishi, kamida sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarga e'tibor qaratishi, albatta, juda katta e'tiborni talab etadi.

21-asr keng ko'lamli rivojlanish asri ekanligini inobatga oladigan bo'lsak yoshlarimizning har jabhada hech kimdan kam bo'lmasliklari, ma'nan yetuk jismonan chiniqqan komil shaxs bo'lib tarbiyalanishlari uchun albatta sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning o'rni va ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning ma'lum bir yoshdan emas balki, boshlang'ich sinf yoshidan tarbiyalanib borilishi juda muhim jarayon hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab madaniyat, ta'lim, ilm-fan bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport ishlariga ham katta e'tibor qaratildi.

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘ning muttasil ortib borishi ham mamlakatda jismoniy tarbiya va sog‘omlashtiruvchi sport sohasining davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, sohaga bo‘lgan katta e‘tibor ko‘rsatkichidir.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ishlari zamonaviy talablar darajasida bo‘lishi uchun, bu sohani boshqarish borasida olib borilayotgan ishlarni tubdan yaxshilanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Buning uchun har bir kishi o‘z salomatligini bosqichma-bosqich mustahkamlab borishi, o‘z organizmining imkoniyatlarini avaylab asrashi, uzoq umr ko‘rishni niyat qilishi va shunga intilishi, o‘z salomatligi haqida doimo qayg‘urishi va uni davlatning yoki biron bir kishining vazifasi deb qaramay, o‘z salomatligi eng avvalo, uning o‘zining qo‘lida ekanligini anglab olishi va shunga yarasha harakat qilishi lozim. Inson salomatligi uning baxtli va farovon turmush kechirishi uchun asosiy zamin bo‘lib xizmat qilishini esdan chiqarmasligimiz kerak. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tadbirlari orasida barcha aholi qatlamlarini ommaviy ravishda sog‘lomlashtiruvchi mashqlarga jalb etish, ommaviy targ‘ibot ishlarini olib borish, ularning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning shaxs sifatida kamol topishi uchun o‘zi sog‘lom turmush tarziga rioya qilish orqali sog‘lig‘ini mustahkamlashi mumkin, lekin tana o‘sishi va qarishi bilan zarur harakatlar oshib boradi. Afsuski, sog‘lik, u yoki bu maqsadga erishishning muhim hayotiy ehtiyoji sifatida, qarilik yaqin haqiqatga aylanganda, odam tomonidan anglab yetiladi. Ma‘lum bir ma‘noda inson o‘z jismoniy chegaralarini kesib o‘tgandan keyin jismoniy sog‘lomlashtiruvchi mashqlarning ahamiyatiga yeta boshlaydi, Xuddi shu asnoda qaraydigan bo‘lsak har bir shaxsning sog‘lom bo‘lib kamol topishida jismoniy tarbiyaning o‘rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Ma‘lumki, zamonaviy odamning kasalliklari, birinchi navbatda, uning turmush tarzi va kundalik xatti-harakatlariga, uni o‘rab turgan atrof muhitiga chambarchas bog‘liq. Hozirgi vaqtda sog‘lom turmush tarzi kasalliklarning oldini olishning asosi hisoblanadi. Juda ko‘p olib boriladigan tadqiqotlarda insonlarning sog‘lom turmush tarzi haqidagi fikr mulohazalari ancha kech shakllanishi aniqlanganini inobatga oladigan bo‘lsak boshlang‘ich sinf yoshidan boshlab ushbu komponentlarga e‘tibor qaratish kelajak uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda aholi o‘rtasida sog‘lom muhitni shakllantirish, odamlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishning muayyan mexanizmlarini shakllantirish borasida ko‘plab muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish odamlarning bo‘sh vaqtini sog‘lom jismoniy mashqlar bilan ta‘minlashga juda katta e‘tibor berilmoqda. Har bir viloyat, shahar va tumanga biriktirilgan sektorlarda yoshlarning doimo sog‘lom jismoniy mashqlar bilan band bo‘lishi uchun aniq ishlar amalga oshirilib, har bir tuman mahalla kesimida jismoniy sog‘lomlashtiruvchi tarbiya bilan shug‘ullanish shart sharoitlari sport maydonchalari, alohida yo‘naltirilgan maydonchalar (futbol, basketboll, voleyboll) kabi sport to‘garaklarining tashkil etilishi, e‘tiborning qay darajada kuchli ekanligini ko‘rsatib juda katta maqsadlar uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Mashhur olim, faylasuf Abu Bakr Ar-Roziy (865-925) “Ma‘naviyat tibbiyoti”, “Falsafiy turmush tarzi” kabi asarlarida inson salomatligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar haqida batafsil ma‘lumotlar beradi. Abu Bakr Ar-Roziy Tibbiyot ta‘limotini ikkiga bo‘lib shaxs kamol topishi uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tadi. 1. Jismoniy tibbiyot- inson tanasi kasalliklarining oldini olish va davolash kabi jarayonlarga bo‘lib o‘rganadi. 2. Ruhiy tibbiyotni: inson ruhiy axloqini yo‘lga qo‘yish va insonning ma‘naviy sifatlarini takomillashtirish deb belgilaydi. U aqlning vazifasini ta‘riflar ekan, quyidagilarni ta‘kidlaydi, insonni ehtiroslar emas, balki aql boshqarishi lozim, aql insonni bir daqiqalik o‘tkinchi ehtiroslardan xalos qiladi, bilimlar bilan qurollangan aql o‘z ehtiroslarini nazoratsiz qoldirmaydi. Ya‘ni o‘sha davrlardan boshlab faylasuf olimlarning insonning jismoniy sog‘ligi eng avvalo uning turmush tarzi hamda ruhiy-psixologik holatiga bog‘liq ekanligi doimo o‘rganib kelinganligini ko‘rishimiz mumkin. Shohona yashashga, ortiqcha bezakka intilmaslik. O‘zining “Rohatlanish nazariyasi”da odamlarga oqilona hayotdan zavqlanib, sog‘lom yashashga intilish o‘z organizmimizni azob uqubatga bermasdan yashash, chekishdan saqlanish, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, odamlarga nisbatan yaxshilik qilishni va foydali bo‘lishni, doimo targ‘ib etib etadi. U o‘z fikrlarida insonlarning ruhiy holatining stabiligi sog‘ligimizga ham doim ta‘sir etishini ta‘kidlaydi. Inson salomatligini birlamchi mustahkam qilib yaratish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini nazariy jihatdan asoslash hozirgi davrning muhim talablaridan biri hisoblanadi, uning nazariy ta‘limoti masalasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib doim ilmiy nazariy asoslarga muhtoj bo‘lib kelmoqda va ma‘lum bir ma‘noda doim yangilanishni talab etadi. Har bir olib borilgan tadqiqotlar negizini o‘rgangan holda doim sog‘lom turmush tarzini yangi texnologiyalar orqali shakllantira borish hozirgi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism. Metodologiya.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda eng avvalo mazkur yoshdagi bolalarning yosh davr psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan holda o'z faoliyatimizni olib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir bolaning rivojlanish jarayonini o'rganish, turli yosh davrlarida turlicha qarashlar orqali bajariladi. Bu “bolalik” va “yosh” kabi tushunchalar bilan harakat qiladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning asosiy psixologik sog'lomlashtiruvchi aspektlari ularning harakat dinamikasiga yo'nalgan holda aniqlanadi. Juda ko'p hollarda yosh davrlarini inobatga olmagan holda sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarni boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilariga berish ko'proq salbiy oqibatlarga olib kelishini ham unutmaslik kerak bo'ladi. Ma'lum bir ma'noda bu davr kichik maktab yoshi deb atalishini o'qituvchilar anglashi lozim bo'ladi. Ya'ni mazkur yoshda 7-12-yosh skeletning suyaklashuvi davom etadigan yosh davri hisoblanadi. Bola tanasidagi proporsiyalar shakllana boshlaydi, shu jarayonlarning barini inobatga olgan holda o'qituvchilar eng avvalo bosqichma-bosqich ma'lum bir kam vaqtni talab etadigan hamda kichik yuklama asosida bola jismoniy holatiga ta'sir qilishimiz lozim bo'ladi.

L.S. Vigotskiy, ta'lim jarayoni bola psixikasining rivojlanishidagi asosiy bosqich deb ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga bosqichma-bosqich bola psixikasining asosiy mexanizmlari ham shakllana borishini va pedagog kadrlar aynan shu omillarga alohida e'tibor qaratishlari zarurligi aytib o'tilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshidagi bolalarni sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarga jalb etishdan oldin eng avvalo yosh davrlar psixologiyasi fanining metodlaridan foydalanish juda muhim jarayondir. Bunda yosh va pedagogik psixologik jarayonning emperik metod turlariga alohida e'tibor qaratib har bir bolaga individual yoshdashish juda muhim hisoblanadi. Pedagoglar tomonidan psixik taraqqiyot mohiyatini tushunish unga bo'lgan turli qarashlarni o'rganish, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlarni metodolgik asoslab faoliyat jarayonini olib borish, yoshni davrlashtirish haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Albatta bola rivojlanishi uchun boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarni sog'lomlashtiruvchi mashqlarga yo'naltirishning yana muhim vazifasi bu uni o'rab turgan atrof muhitning ta'siri ham katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning asosan sog'lomlashtiruvchi mashqlari jamoaviy tarzda tashkillashtilsa ularda mazkur o'yin faoliyatiga bo'lgan qiziqish yanada oshadi hamda o'yin faoliyat turi orqali jamoaviy tengdoshlari bilan bir xillikda berilgan yuklamalarni qabul qilish prosesi ularning ongida tezroq kechadi. Juda ko'p uchraydigan muammolardan biri bu pedagog o'qituvchilarning jismonan hamda psixologik yuklama berishdan oldin o'z obyektlarining yosh davr xususiyatlarini ularda kechayotgan psixik jarayonlarni unutib qo'yishlari umumiy yuklamani boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchi bolalarga berish salbiy oqibatlarga olib kelishi eng avvalo ularda psixik nomutanosiblik kuztilishiga olib kelishi mumkin. Shu sabab o'z davrining barcha yetuk psixolog pedagog olimlari har bir yosh xususiyatlariga e'tiborni kuchaytirish zarurligi haqida doimo o'z ilmiy ishlarida ta'kidlab kelishadi.


Ma'lumki, har bir inson o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egaligini inobatga oladigan bo'lsak boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ham sog'lomlashtiruvchi mashqlarni jamoaviy tarzda shakllantirib borish muhim. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlar, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak atrofidagi ijtimoiy muxitda, shakllanishini eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshidagi bolalarning sog'lomlashtiruvchi mashqlari va holatlari ularga ta'lim tarbiya beradigan pedagoglarga bog'liqligini unutmasligimiz zarur. Inson shaxsi doimiy jamoaga bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda kichik maktab yoshidagi bolalarning taraqqiyoti ijtimoiylashuv jarayonida oladigan tajribaga ham bog'liq. Buning natijasida mazkur yoshdan boshlab kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlari, dunyoqarashkari tarkib topa boshlaydi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchining ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda sharti hisoblanadi. Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosini o'rganish mavzusida keng doirada doim bahs yuritib keladilar. Shu munosabatda boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshidagi bolalarda sog'lomlashtiruvchi mashqlarni tashkil etish jarayonida eng avvalo biz pedagoglar ularni psixik holatlariga alohida e'tibor qaratishimiz muhim. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir, ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir.

**Natija va mulohazalar.**

*Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik tarkibiy qismlarini ishlab chiqdik.*






**1-rasm. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy psixologik kompetensiyalari**

Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, asosan boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning asosiy vaqti o'tirgan holda kechishini inobatga olishimiz ekologik hamda iqlim o'zgarishlarini inobatga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlarning targ'ibot tarzida tashkillashtirib bosqichma-bosqich bolalar ongiga singdirib borish, mazkur yoshdagi o'quvchilar orasida doimiy tibbiy ko'riklarni tashkillashtirish hamda jismoniy yuklamalar hajmini vaziyatga qarab o'zgartirib borish, doimiy bir xil reja asosida emas balki uning jismoniy hamda psixologik holatiga qarab vaziyatni e'tiborga olish. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olish maqsadida tashkillashtiriladigan mashqlarni doimiy hamda uzviy va izchil holda tashkil etish. Boshlang'ich sinf kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya beradigan pedagog kadrlarning bilim ko'nikmalarini doimiy rivojlatirib borishlari ham juda muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning yana bir asosiy omili bu ularning rivojlanish bosqichlariga ta'sir etadigan barcha shaxslarni doimiy hamkorlikda ishlashini ta'minlashimiz ham juda muhim hisoblanadi. Ota-ona va pedagoglar orasidagi hamkorlikni tashkil etish, birgalikda bolaning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib kamol topishida kuchimizni ayamasdan ishlashimiz zarur.

*Tadqiqotimiz so'ngida xulosa sifaida kichik maktab yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy komponentlarni ishlab chiqdik.*



**2-rasm. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy muammoli vaziyatlarni nazorat qilish bosqichlari**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari II va IV sinfdagi ta'lim tarbiyaviy jarayonlarida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada kuchayadi bola o'zini o'zi anglay boshlaydi. U o'ziga xos bo'lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o'zini “Men”ini his qiladi. Aynan shu jarayonda menlikni anglash boladagi qiziqishlar tarkibini shakllantiradi. O'zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, uyga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi. Bu yoshdagi bolalarni maktab dasturiga kiritilmagan juda ko'p atrof-muhit hodisalari haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Hozirgi davr bolalari misolida oladigan bo'lsak innovatsion texnologiyalar gadgetlar electron vositalarga bo'lgan qiziqishlar. Bu qiziqishlar bolaning ko'pincha e'tiborga olinmaydigan ijodiy o'yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan psixolog pedagoglarining ta'kilashicha dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. III-IV sinflarda esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi.

Eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning avvalo pedagogning ta'lim tarbiyaviy metodologiyasiga bog'liq. Aynan shu sabab sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlarni ta'lim metodlari bilan birlashtirish juda muhim deb hisoblaymiz.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirida eng avvalo faqat o'qituvchi yoki ota-onaning harakari emas, balki birgalikda hamkorlikda olib boriladigan faoliyat juda muhim hisoblanadi. Keltirilgan natijalardan ham ko'rishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish juda keng qamrovli barchamizning hatti-harakatimizni talab etadigan muhim jarayondir. Aynan II sxemada tadqiqotning tahliliy qismini ochib berishga harakat qildik. Mazkur omillarga e'tibor qaratgan holda biz pedagoglar ota-onalar bilan hamkorlik kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy hamda psixologik mutanosibligiga erisha olamiz.

#### Adabiyotlar:

1. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1013-1019.4.
3. Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik tomonlari // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1039-1044.
4. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies // European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-111.



**Sattarova Gulnora Ikromovna**

*Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### **JISMONIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN O'SMIRLAR HISSIY-IRODAVIY SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI**

**Annotasiya:** Mazkur maqolada aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch harakatida nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishining o'ziga xosligi yoritilgan. Shuningdek, Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'smirlarning hissiy-irodaviy sohalarini rivojlanishi eksperimental materiallar asosida izohlangan, natijalar yuzasidan o'ziga xos mushohadalar bildirilgan, subyektlarda iroda shakllanishining jabhalari talqin qilingan, muammo bo'yicha umumiy empirik xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** nogironlik, o'smir, hissiy-irodvaviy soha, maqsadlilik, mustaqillik, chidamlilik, o'zini o'zi nazorat qilish, lokus nazorat.

### **СПЕЦИФИКА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОГО ФОРМИРОВАНИЯ ПОДРОСТКОВ С ОТКЛОНЕНИЯМИ В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается особенность формирования эмоционально-волевых качеств у учащихся-подростков с нарушениями опорно-двигательного аппарата при сохранённом психическом развитии. Также на основе экспериментальных материалов было объяснено развитие эмоционально-волевой сферы подростков с ограниченными возможностями в их физическом развитии, высказаны конкретные наблюдения по результатам, интерпретированы аспекты формирования воли у испытуемых, даны общие эмпирические выводы по проблеме.

**Ключевые слова:** инвалидность, подросток, эмоционально-волевая сфера, целеустремлённость, независимость, выносливость, самоконтроль, локусный контроль.

### **THE SPECIFICS OF THE EMOTIONAL-VOLITIONAL FORMATION OF ADOLESCENTS WITH DISABILITIES IN PHYSICAL DEVELOPMENT**


**Abstract:** This article examines the peculiarity of the formation of emotional and volitional qualities in adolescent students with disorders of the musculoskeletal system with preserved mental development. Also, on the basis of experimental materials, the development of the emotional and volitional sphere of adolescents with disabilities in their physical development was explained, specific observations on the results are made, aspects of the formation of will in the subjects are interpreted, general empirical conclusions on the problem are given.

**Key words:** disability, teenager, emotional and volitional sphere, purposefulness, independence, endurance, self-control, locus control.

**Kirish.** Respublikamizda nogironlik hamda jismoniy rivojlanishida nuqsoni borlikni erta yosh bosqichidan boshlab aniqlash, nogiron o'smirlarning sog'ligini doimiy nazorat qilish va mustahkamlash, shuningdek, ularning sifatli bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan inklyuziv ta'lim samarali tashkil etish uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'smirlar shaxsini tarbiyalash, ular bilan maxsus psixologik ishlarni olib borish, nogiron shaxslarning intellektual, kognitiv, hissiy-irodaviy sohasi rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning qadriyatlar va motivatsion sohasini faollashtirish, hayotga va o'z yaqinlariga, jamiyatga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirish qolaversa, mazkur masalaga ilmiy oydinlik kirituvchi ilg'or psixodiagnostik metodikalar va shaxs so'rovnomalarini to'g'ri tanlab olish, hissiy-irodvaviy sohani darajasini baholashda ularning rolini yanada oshirish, empirik natijalarni sharhlashda yangi statistik usullarni qo'llash kabilar, psixologik bilimlarni yangi sifat darajasiga ko'tarishni talab etmoqda. Zamonaviy ta'lim muhitida nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muhitda moslashuviga ko'maklashish, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarda psixologik farovonlikni ta'minlash, nogiron o'quvchilar shakllanishining qadriyatli, motivatsion, emotsional jihatlarini ilmiy kuzatish, ularning

nuqsonlarini korreksiyalash, shuningdek, rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va ularni bartaraf etish muammolari, maxsus psixologiyaning dolzarb masalalari G'.B.Shoumarov, Z.T.Nishanova, Z.R.Ibodullayev, L.R.Muminova, M.U. Xamidova., N.Z. Abidova kabi olimlar tomonidan mazkur muammoga yaqin masalalar atroflicha o'rganilgan [1,2,3].

**Asosiy qism.** Jismoniy nuqsoni bo'lgan o'smirlar xulqida hissiy-irodaviy sifatlar tarkib topishi, rivojlanishi sabablarini o'rganish o'ziga xos psixologik tadqiqot sanalib, ularni psixodiagnostik jihatdan baholash, negativlik yuzaga kelishining oldini olishni psixologik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, emotsional zo'riqlashlarning shakli sanalgan qo'rquv, tashvishlanish, xavotirlik hissi, stress, frustratsiya, tushkun kayfiyat kabi hissiy holatlarning tabiatini aniqlashtirish va konseptual tavsiflash o'ta aktual ishlar turkumidan biri sanaladi. Bir so'z bilan aytganda, hissiy-irodaviy sifatlar insonning salomatligiga va faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir etib, keyinchalik, barcha kuchlarni bitta qiyin vaziyatga safarbar etishga olib keladi. Hissiy-irodaviy sifatning namoyon bo'lishi va uning muddatli kechishi, shaxsda professional deformatsiyaning namoyon bo'lishiga, har qanday samaradorlikning pasayishi va psixosomatik kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keluvchi asosiy shartlaridan biri sanaladi.



**1-rasm. Koping-indikator sifatlarini aniqlash so'rovnomalari natijalari  
(Tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlar)**


Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodika va so'rovnomalarni tanlab olingan. Jumladan, Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan "Koping-indikator" testi, E. V. Pugachevaning "Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish" so'rovnomasi, D.V. Lyusinaning "Emotsional intellekt" metodikasi, S.R. Panteleev va V.V.Stolinning "Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari" so'rovnomasi hamda G.S. Nikiforov tomonidan yaratilgan "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" so'rovnomalardan foydalanilgan. Mazkur metodikalarni sinovchi haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

"Koping-indikator" testi bo'yicha olingan natijalar jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan, ya'ni tayanch harakatida nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlashga mo'jallangan so'rovnomalarni psixologik jihatdan baholashga harakat qildik. Shu jihatdan olib qaralganda, tayanch harakatida nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarning koping-indikator sifatlarini aniqlash so'rovnomalari shakllari quyidagicha natijalarni namoyon qilgan. Quyidagi jadvalda tayanch harakatida nuqsoni bor bo'lgan o'smirlardan olingan natijalar haqida so'z boradi.

Sinaluvchilarning muammoni yechish 61% quyni, 19% o'rta darajani va 20% yuqori birliklarni tashkil etgan. Hissiy-irodaviy sifatlar - maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashqi va ichki to'siqlarni

yengishning ichki sharti, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, kognitiv sxemalar, rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadlarni modellashtirish, hayotiy strategiyalar kabi funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasiga ko‘ra 34% quyi, 23% o‘rta va 43% yuqorini namoyon qilgan. Maqsadlilik – inson harakatlarini belgilangan maqsadlarga nisbatan bo‘ysundirish qobiliyatidir. Shaxsiyatning eng muhim xususiyati bo‘lgan maqsadga muvofiqlik, boshqa irodali sifatning mazmuni va shakllanish darajasini belgilab beradi. Psixologiyada strategik va taktik maqsadlilik ham ajratiladi. Strategik maqsadlar insonning butun hayoti davomidagi ma‘lum prinsiplar va ideallariga yetakchilik qilish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Taktik maqsadlar - individual harakatlar uchun aniq, real maqsadlarni belgilash va ijro etish hamda ulardan chalg‘imaslik qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Keyingi muammodan qochish bo‘yicha 28% quyi, 36% o‘rta va 36% yuqorini tashkil qilgan. Irodaviy tashabbuskorlik – insonning ijodiy ishlash qobiliyati sifatida tan olinib, u o‘z tashabbusi bilan barcha harakatlarni amalga oshiradi. Bunga misol qilib, muvaffaqiyatli faoliyatning namoyon bo‘lishi, ixtirochilik, topqirlik, zukkolik bilan birga yangi faoliyat turlariga nisbatan ichki istaklarning tan olinishi kabilarni kiritish mumkin. I.V.Plaxotnikovaning so‘zlariga ko‘ra, irodaviy tashabbuskorlikning pasayishi harakatizlik, passivlik kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi [2]. Shuningdek, insonda irodaviy tashabbusning yetishmasligi ko‘proq, boshqa insonlardan yo‘l-yo‘riq kutish, boshqalarning yordamiga tayanish kabilarni bilan tavsiflanadi. Samimiylilik (tanqidiy tafakkur) shkalasi bo‘yicha 26% quyi, 30% o‘rta va 44% yuqorini namoyon qilgan. Hissiy-irodaviy sifatlarini mustahkamlashda mustaqillik xususiyati muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik – shaxsning avtonom mazmunidagi qobiliyati bo‘lib, mazkur xususiyat yordamisiz inson hech bir muvaffaqiyatga erisha olmaydi. R.F.Baumesterning so‘zlariga ko‘ra, mustaqillik sifati mazmunan, insonda shakllangan tashqi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsata olish ko‘nikmasi va boshqalarning maslahat va takliflariga tanqidiy baho bera olish qobiliyati kabilarni qamrab oladi[1]. Bizningcha, har bir inson hayotda o‘z qarashlari va e’tiqodlari asosida harakat qilishi lozim.



**2-rasm. Irodaviy sifatlarni aniqlash so‘rovnomasi natijalari  
(Tayanch harakatida nuqsoni bor o‘smirlar)**

Keyingi keltirilgan jadvalda tayanch harakatida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning irodaviy sifatlarni o‘rganish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalari taqdim qilingan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor o‘smirlar hissiy-irodaviy sifatlarga ega shaxs sifatida shakllanadi, odatda, boshqalarning ko‘magisiz, muammolarni ko‘rishadi va undan kelib chiqib, o‘z oldilariga maqsadlar qo‘yadilar. Bundan tashqari, ushbu sifatga ega shaxslar o‘z nuqtayi nazarlarini, o‘zlarining maqsad va istaklarini faol himoya qila oladilar. O‘z-o‘zini himoya qilish va o‘z fikr-mulohazalarini bildira olish, jur‘at bilan ishni yakunlash mustaqillik sifatiga xos ko‘nikmalardir.

Irodaviy sifatlarni aniqlash so'rovnomasiga ko'ra sinalluvchilarning natijalari irodaviy mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha quyi daraja 33%, o'rta 38% va yuqori 29%ni tashkil etgan. Irodaviy chidamlilik – biror qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan xatti-harakatlar, his-tuyg'ular hamda fikrlarni o'z vaqtida sekinlashtirishga, ularni doimiy nazorat qilishga yordam beruvchi sifatdir. Mazkur masalada V.E.Fishenkonning aytishicha, tajribali odam har doim, sharoitga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'pincha, insonning o'zini tutish qobiliyati sifatida, ichki sokinlik, qiyin hayotiy vaziyatlarda oqilona va muvozanatli harakat qilishi lozim [8].

Jur'atlilik shkalasi bo'yicha quyi farq 36%, o'rta 33% va yuqori 31% bilan xarakterlangan. Jur'atlilik - bu faoliyatga ta'sir etuvchi ichki to'siqlar, ya'ni charchoq, yomon kayfiyat, mayda og'riqlar paydo bo'lgan paytda, yordamchi ixtiyoriy harakatlar bilan, bajarilayotgan vazifaning intensivligini ushlab turishga qaratilgan qobiliyat turi sanaladi.

Matonatlilik shkalasi bo'yicha quyi farq 44%, o'rta 24% va yuqori daraja 32% bilan namoyon bo'lgan. Matonatlilik - o'ziga ishongan shaxs muvaffaqqiyatli xatti-harakatlari bilan boshqalardan alohida ajralib turadi. Bunday insonlar muvaffaqqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqishmaydi, ular doim optimistik kayfiyatda yurishadilar. L.I.Bojovichning ta'kidicha, o'ziga ishonchi kam bo'lgan insonlarda mustaqillik, dadillik, tirishqoqlik kabi sifatlari yetishmaydi. Ularda qaror qabul qilish jarayoni biroz qiyinchilik bilan kechadi va har qanday xavfga katta qo'rquv hissi bilan javob beradilar [2].

Qat'iylik shkalasiga ko'ra quyi 39%, o'rta 35% va yuqori 26% ni tashkil etgan. Qat'iylik – bu tez va qat'iy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatidir. Aniq maqsadga erishish uchun, etakchi motiv va yetarli vositalarni tanlash amalga oshadi. V.I.Selevanovning yozishicha, jasorat bu - psixologik munosabat yoki maxsus xulq-atvor, xavf tug'ilganda qo'rquvga qarshi kurashish uchun qilingan harakatdir. Jasorat keng ma'noda, qat'iyatlilik, o'zini tuta bilish, o'ziga bo'lgan ishonch, qiyinchiliklarga qaramay maqsad sari borishga imkon beradigan murakkab sifatlari majmui hisobalanadi.

G'ayratlilik shkalasiga ko'ra quyi farq 35%, o'rta 38% va yuqori 27%ni tashkil qilgan. G'ayratlilik - kuchli irodali insonlar o'zini tuta bilishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Ular har qanday holatda ishlashga qodir insonlardir, hatto xohlamasalar ham, “endi qila olmayman” iborasidan keyin ham, o'zlarida biror vazifani qilishga kuch topa oladilar. I.V.Morasanov o'zini o'zi nazorat qilish haqida so'z bildirar ekan, u haqda shunday deydi: “inson o'zini o'zi nazorat qila olishni o'zlashtirish mumkin. Buning uchun avvalambor, u qat'iy turmush tarziga amal qilishi lozim [5]. Ya'ni o'z vaqtida turish, uyquga yotish, ijtimoiy tarmoqlardan kerakli vaqtda foydalanish, o'z vaqtida ovqatlanish va boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lish va hokazo. Bunday sifatlari o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Keyingi keltirilgan jadvalda tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlarning emotsional intellektni aniqlash so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan.


Emotsional intellektni aniqlashga (Lyusinaning “Emotsional intellekt” metodikasi) qaratilgan so'rovnomasi bo'yicha jismoniy rivojlanishda, ya'ni tayanch harakatida nuqsoni bor bo'lgan o'smir yoshlaridan olingan natijalar birinchi shkala o'z his-tuyg'ularini anglash bo'yicha quyi nisbatda 28%, o'rta darajada 34% va yuqori darajada 38%ni namoyon qilgan.

O'z his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha quyi farq 32%, o'rta 26% va yuqori 42%ni aks ettirgan. Hissiy-irodaviy sifatlari, har qanday sharoitda muvaffaqqiyatli ishlash qobiliyatini ta'minlovchi sifatlari majmui sanalib, ularsiz hech bir faoliyatni samarali amalga oshirish mumkin emas.

Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash shkalasi bo'yicha quyi natija 40%, o'rta 24% va yuqori 36%ni namoyon qilgan. Maqsadlilik insonni nafaqat aniq maqsadga yetaklaydi, balki unga bo'lgan yuqori darajadagi intilishni ta'minlaydi. Biroq maqsadga yo'nalganlik va irodalilikni namoyon etish uchun, uzoq muddatli tayyorgarlik zarurdir. Darhaqiqat, maqsadlilik irodaviy sifatlari ichida eng muhim bo'lgan sifatlardan biri bo'lib, uni rivojlantirish har bir soha uchun muvaffaqqiyatlar garovi hisoblanadi.

Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha quyi farq 36%, o'rta 31% va yuqori 33% bilan farqlangan. D.A.Leontevning yozishicha, har bir inson uchun ixtiyoriy fazilatlar yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi, lekin bu tizimning bo'g'inlari tuzilishi, turli insonlar uchun bir xil emas. Bundan tashqari, har xil faoliyat turlarida ixtiyoriy fazilatlar o'zgaradi, shuning uchun irodali sifatlari yig'indisi bir-biri bilan uzviy bog'langan, uni tadqiq etishda mobil, dinamik tizim sifatida qaralishi lozim [3].


Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati shkalasi bo'yicha farq quyi 38%, o'rta 30% va yuqori 32%ni qayd etgan. Emotsional intellektning shaxslararo jihati shkalasi bo'yicha quyi farq 45%, o'rta darajani 26% va yuqori darajani 29% bilan namoyon qilib alohida xarakterlangan. Bundan tashqari, insonlar ba'zi vaziyatlarda faol boshqalarida esa, o'z harakatlarini cheklashga harakat qiladilar. Irodaviy sifatlarni tadqiq etishning psixologik masalalari, R.Assadjiolining izlanishlarida ham aks etib, unda irodaviy sifatlarni tasniflashga oid o'ziga xos yondashuvni ko'rish mumkin[1].



**3-rasm. Emotsional intellektni aniqlash so'rovnomasi natijalari (Tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlar)**

Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi shkalasiga ko'ra, quyi farq 41%, o'rta darajani 31% va yuqori darajani 28% bilan namoyon bo'lgan.

Keyingi keltirilgan jadvalda tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlarning subyektiv lokus nazorat xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan.




**4-rasm. Subyektiv lokus nazorat xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari (Tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlar)**

Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatadiki, eksternal lokus nazorat shkalasi bo'yicha quyi daraja 23%, o'rta 28% va yuqori 49%ni tashkil etgan. Hissiy-irodaviy sifatlar bu – tasodifiy tabiatning tuhfasidir, u rejalashtirilgan harakatlar uchun motivatsiya etishmasligini bartaraf etadigan, murakkab sharoitlarda muqobil variantlardan birini tanlashni ta'minlaydigan, ayrim muammolarni hal qilish uchun qo'llanadigan ongning mahsulidir. Hissiy-irodaviy jarayonlar ta'sirida inson qiyinchiliklarni engish sharoitida o'z harakatlarini faollashtirish va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishiga erishish uchun harakat qilishi mumkin.

Internal lokus nazorat shkala bo'yicha quyi farq 35%, o'rta 37% va yuqori 28% bilan xarakterlangan. Rus olimi A.V.Bikov o'zining “Irodaviy sifatlarini boshqarish genezisi” asarida yozishicha, irodaviy harakatlarni bajarish orqali, shaxs faoliyat jarayonida o'zida uni shaxs sifatida tavsiflovchi hayot va mehnat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan irodaviy fazilatlarini rivojlantiradi [2]. Ba'zi xususiyatlar shaxsni faollashtiradi, bu miya yarim sharlarida qo'zg'atish jarayonlarining ustunligi bilan bog'liq, yana boshqa fazilatlar esa istalmagan aqliy jarayonlar va harakatlarni boshqarish, kechiktirish, bostirishda namoyon bo'ladi.

Samimiylik shkalasi bo'yicha quyi farq 39%, o'rta 34% va yuqori daraja 27% bilan namoyon bo'lgan. Hissiy-irodaviy fazilatlar - bu shaxs tomonidan erishilgan xulq-atvorning ongli ravishda o'z-o'zini boshqarish darajasini va uning o'zi ustidan hokimiyatini tasdiqlovchi, muayyan vaziyatdan mustaqil, nisbatan barqaror ruhiy shakllanishni ifodalaydi. Unga ko'ra, insonning irodaviy fazilatlarini tug'ma va orttirilgan qotishma, insonning mavjud imkoniyatlarining fenotipik xususiyati sifatida qaraladi. Hissiy-irodaviy sifatlar irodaning tarbiya jarayonida shakllanadigan axloqiy komponentlarini va nerv sistemasining tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan irsiy komponentlarini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, qo'rquv, charchoqqa uzoq vaqt bardosh bera olmaslik, tez qaror qabul qilish ko'p jihatdan insonning tug'ma xususiyatlariga (asab tizimining kuchli va zaifligi) bog'liq.



**5-rasm. Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishni aniqlash so'rovnomasi natijalari (Tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlar)**

Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishni aniqlashga mo'ljallangan so'rovnomasi bo'yicha birinchi shkala o'quv faoliyatida o'zini nazorat qilish bo'yicha quyi nisbatda 28%, o'rta darajada 32% va yuqori darajada 40%ni namoyon qilgan. Tashabbusiz inson boshqa insonlarning harakatlariga, xatti-harakatlariga osongina ta'sir qiladi, o'z qarorlarini shubha ostiga qo'yadi, ularning to'g'riligi va zarurligiga ishonch hosil qilmaydi. Bu fazilatlar, ayniqsa, taklif shaklida namoyon bo'ladi. K.Makgonigalning fikricha, shaxsning erkinligi uning rejaliligi bilan tavsiflanadi, bu insonning o'z xatti-harakatlarida qat'iy belgilangan reja



bo'yicha rahbarlik qilish qobiliyatidan iborat. Bu sifat nafaqat rejangizni barqaror amalga oshirish, balki vaziyat o'zgariganda kerakli moslashuvchanlikni ko'rsatish qobiliyatini ham talab qiladi[4].

Muloqotda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha quyi farq 35%, o'rta 39% va yuqori 26%ni aks ettirgan. Tadqiqotchil A.M.Hademian maqsadlilik sifatini quyidagicha ta'riflaydi: maqsadlilik - bu insonning qat'iy e'tiqodi tufayli o'z harakatlari va ishlarida umumiy va barqaror maqsadlarga yo'naltirilishidir. Maqsadli inson doimo umumiy, ko'pincha uzoq maqsadga tayanadi va o'zining aniq maqsadini unga bo'ysundiradi. Bunday inson nimaga erishmoqchi ekanligini va nima qilishni yaxshi biladi. Maqsadning ravshanligi - bu uning qadr-qimmatini anglaganligi bilan harakterlanadi. Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha quyi natija 38%, o'rta 34% va yuqori 28%ni namoyon qilgan. Shaxsning mustaqilligi o'z tashabbusi bilan faoliyatni tashkil etish, o'z oldiga maqsad qo'yish, kerak bo'lganda, xatti-harakatlarga o'zgartirishlar kiritish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mustaqil shaxs boshqa insonlarning maslahatlarini, ko'rsatmalarini kutmaydi, o'z qarashlarini faol himoya qiladi. Tayanch harakatida nuqsoni bor o'smirlar o'quv faoliyatida mustaqillik sifatiga ega bo'lish murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa sifatida** shuni aytish mumkinki, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlari shuni namoyon qildiki, irodaviy faollik xususiyatlari sanaladigan tashqi va ichki qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi shart-sharoit va holatlarni aniqlashda namoyon bo'luvchi barqaror shaxslilik qirralarini yuksaltirishda asosiy ahamiyat qaratigan mezonlardan biri sanalar ekan.

#### Adabiyotlar:

1. Ассаджиоли Роберто Психосинтез. Принципы и техники / Роберто Ассаджиоли. – М.: Эксмо-пресс, 2002. – 416 с.
2. Ильин Е. П. Психология воли / Е.П. Ильин. - М.: Питер, 2000. – 288 с.
3. Леонтьев А.Н. Воля // Вестник Московского университета. Сер. 14, Психология. № 2. М.: 1993.-3-14с.
4. Макгонигал К. Сила воли. Как развить и укрепить / Келли Макгонигал; пер. с англ. Ксении Чистопольской. М.: Манн, Иванов и Фербер. 2012. – 320 с.
5. Нишанова З.Т., Камилова Н.Г., Абдуллаева Д.У., Холназарова М.Х. Ривожланиш психологияси. - Т.: 2017. – Б. 9-10.
6. Муминова Л.Р., Хамидова М.У., Абидова Н.З. Махсус психология. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2013. – Б.48-49.
7. Мамедов К.К., Шоумаров Ғ.Б.. Ақли заиф болалар психологияси. Т.: 1994. – Б.10-11.
8. Фещенко Е.К. Возрастно-половые особенности самооценки волевых качеств. – СПб., 1999. – С.32.



**Shamsiddin Botirjon Nuriddinovich**

*Umumiy psixologiya kafedrası doktoranti, Andijon davlat universiteti  
shamsiddinobotir87@mail.ru*

### **YOSHLARNI INDIVIDUAL-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARIDA HIMOYA MEXANIZMLARI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOY- PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashdan iborat ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan himoya mexanizmlarining tipologik xususiyatlarini, o‘ziga xos jihatlarini va o‘rganilganlik holatini tahlil qilish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy munosabat, shaxs, stumillar, egolar, ijtimoiy identifikatsiya, qiziqishlar, qobiliyatlar, xarakter va temperament.

### **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЗАЩИТЫ МОЛОДЁЖИ В ИНДИВИДУАЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ**

**Аннотация:** В статье анализируются специфические аспекты типологической характеристики механизмов защиты и состояния изучения, направленного на формирование молодёжи как личности в социальных отношениях, которая заключается в определении социально-психологических аспектов проявления механизмов защиты в их индивидуально-типологические особенности.

**Ключевые слова:** социальная установка, личность, стимулы, эго, социальная идентичность, интересы, способности, характер и темперамент.

### **SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE EXISTENCE OF PROTECTIVE MECHANISMS IN THE INDIVIDUAL-TYOLOGICAL CHARACTERISTICS OF YOUTH**

**Abstract:** The article analyzes the specific aspects of the typological characteristics of the protection mechanisms and the state of study aimed at the formation of young people as individuals in social relations, which consists in determining the socio-psychological aspects of the manifestation of protection mechanisms in their individual-typological characteristics.

**Key words:** social attitude, personality, stimuli, egos, social identity, interests, abilities, character and temperament.

**Kirish.** Jahondashaxsning o‘z-o‘zini anglashi, istiqbolni rejalashtira olishi, shaxs rivojlanishiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs himoya mexanizmlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish muammosi tobora dolzarblashib bormoqda. Psixologik lug‘atda qayd etilishicha, «...psixologiya fani rivojlanishida amaliy psixologiya rolining ortishi sezilarli tendensiya hisoblanadi»[1]. Bu borada psixologik amaliyot va psixoterapiya kontekstida shaxsning psixologik himoya mexanizmlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish muammosi eng muhim va zarur fenomen hisoblanadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning individual ichki dunyosiga hamda psixikaning namoyon bo‘lishi shakllariga moslashishini ta’minlash bilan birga, jamiyatda uning o‘z o‘mini topa olishi yoki aksincha, yo‘qotishining asosiy sababi bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda mazkur muammo hozirgi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan va dolzarb ahamiyatli muammo sifatida ilmiy tadqiq etishni taqazo etadi.

Jahon ta’lim va ilmiy muassasalarida shaxsining himoya mexanizmlariga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar ma’lum darajada olib borilmoqda. Bu borada, shaxs rivojlanishining eng muhim bosqich ekanligi, mazkur yosh davrida shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi mumkinligi, mutlaqo individual bo‘lgan hayot yo‘lini tanlash nuqtayi nazaridan ahamiyati beqiyos ekanligi, o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi faollashtirish, kelajakka refleksiv munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish muhimligi bois o‘springan shaxs sifatidagi rivojlanishini ta’minlanishida uning himoya mexanizmining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan

bog‘liqligini o‘rganish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda shaxsning ma‘naviy, ruhiy va aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, o‘sprinlik davridan ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha zaruriy-me‘yoriy asoslar yaratildi. «Yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, yoshlarning mukammal ta‘lim olishi...»[2] ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi o‘spirin shaxsida himoya mexanizmlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ilmiy tadqiq etish orqali istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bu borada yangi avlodning davlat taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi uchun «... barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan bilim va ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlash»[3] talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarda himoya qilish mexanizmlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasiga bog‘liq ekanligini aniqlash hamda o‘sprinlarning ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Empirik tadqiqot natijalari.**

Bizning tadqiqotimizda ushbu talablar talaba yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashdan iborat ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining kompleks diagnostikasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘ldi. Shu bilan birga, yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashdan iborat ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishini rivojlantirishga yordam beradigan psixologik-pedagogik omillarni o‘rganish vazifasi hal qilindi.

Tadqiqotning umumiy namunasi 420 kishini tashkil etdi, jumladan:

- 220 kishi - 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan bolalar (110 o‘g‘il va 110 qiz),

- 200 kishi - region jihatidan tarkibi boshqa viloyatdan o‘rganib chiqildi.

Tadqiqot 2020-yildan 2023-yilgacha olib borildi. Gipotezaning maqsad va vazifalari, metodologik asosiga muvofiq, bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olgan tadqiqot dasturi ishlab chiqildi.

Psixologik himoya murakkab vaziyatlarda hissiy zo‘riqishni bartaraf etishga qaratilgan aqliy faoliyatning muhim jihati sifatida qaraladi. Rivojlanish psixologiyasi va yosh psixologiyasi sohasidagi mahalliy tadqiqotlar tahlili o‘sprin davridagi zo‘riqishning eng keskin pozitsiyalari – “o‘sprinning o‘z-o‘ziga baho berishi”, “oilaga munosabati”, “o‘sprinning ijtimoiy moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklari” o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ko‘rsatdi.


Ushbu sohani o‘rganish inson xarakterini shakllantirishi jarayonidagi murakkabliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini, shaxsning sog‘lig‘i va uning shaxsiy rivojlanish istiqbollarini yangicha anglashga imkon beradi. Tadqiqot natijasi psixologik ko‘rsatkichlardan “himoya mexanizmlarini shakllantirishga ta‘sir qiluvchi omillarni”, “himoya usulini tanlashning o‘ziga xosliklarini va ularning hissiy stressni yengillashtiradigan asosiy imkoniyatlarini”, “o‘z-o‘zini baholashni” va “shaxs rivojlanishini” kabilarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga imkon berdi.

#### **1-jadval.**

##### **Hayot tarzi indeksi darajalari va ko‘rsatkichlari**

	Me‘yordan past		Me‘yorda		Me‘yordan yuqori	
	X	$\sigma$	X	$\sigma$	X	$\Sigma$
O‘rin almashish	28,46	13,47	39,85	16,19	51,53	13,76
Regressiya	17,73	11,37	27,27	11,83	31,38	10,89
Bo‘sh o‘rinni egallash	8,07	9,38	20,42	13,87	28,84	17,73
Inkor	48,26	16,06	52,14	15,57	66,61	13,42
Proyeksiya	51,00	17,76	66,21	15,11	71,46	12,82
Kompensatsiya	34,61	12,07	46,71	17,08	55,76	19,21
Giperkompensatsiya	39,23	14,67	52,57	21,03	55,00	15,03
Rasionalizatsiya	53,73	12,57	62,82	13,49	68,61	11,37
NOZ	34,73	3,44	45,42	3,19	52,57	1,301


Hayot tarzi indeksining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish o‘sprinlarda PHM (psixologik himoya mexanizmi) ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymatlarini taqqoslashga asoslangan. 1-jadvalda o‘sprinlarda PHM ning o‘rtacha qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ular Styudentning t-mezoni asosida ishonchli farqlar bilan aniqlangan.



1-rasm. Yoshlarda namoyon bo'ladigan psixologik himoya mexanizmlari

1-rasmda sakkizta himoya mexanizmidan beshtasining ko'proq namoyon bo'lishini va NOD shkalasi statistik jihatdan sezilarli darajada farqlanishini va normalar o'rtasidagi sezilarli farqlarni ko'rsatadi. Eng katta farqlar proyeksiyada pastki norma va yuqori norma o'rtasida qayd etilgan, ular 10,14 va ratsionalizatsiyalar 14,76 ni tashkil qiladi, bu "Men" va xulq-atvor o'rtasidagi chegaralarning aniq ekanligini anglatishi mumkin [3]. Ammo agar biz ularni introyeksiya bilan solishtirsak, ularda sezilarli siljish mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu siljish shunday amalga oshiriladiki, bu holda "Men" ning rad etilgan tomonlari go'yo o'ziga xos tarzda emas, balki tashqi muhitga xos tarzda qabul qilinadi. Bu shuni anglatadiki, oxir-oqibat, prognoz "Men" ichida sodir bo'layotgan hodisalarning sabablari va javobgarligi o'sprindan tashqi muhitga va uning tarkibiy qismlariga ko'chiriladi. Misol uchun, avtonomiyaning mumkin emasligi va sevilish qobiliyati ko'pincha odamni ratsionalizatsiya orqali mukammal tanlovni tanlashga va oqlashga majbur qiladi [4]. Biroq ikkinchisi ko'pincha regressiya kabi mexanizm bilan almashtiriladi, bu ushbu turdagi tanlovni amalga oshirish zarurati bilan kurashishga imkon beradi.

2-rasmda ko'rsatilganidek, gender xususiyatlari psixologik himoyani tanlashni quyidagi tarzda belgilaydi. O'g'il bolalar guruhida ratsionalizatsiya birinchi o'rinda (51%), inkor ikkinchi (50%) va proyeksiya uchinchi (43%). Shunday qilib, emotsional vaziyatlarda sinovdan o'tgan o'spin o'g'il bolalar o'z-o'zini hurmat qilishga intiladi, ayblov yoki tahdid holatini inkor etadi va qabul qilmaydi, ba'zan esa o'zlarining ichki holatini tajovuzkorlik yoki begonlashuv shaklida aks ettiradi.



2-rasm. Psixologik himoyani tanlashda gender farqi

Qizlar guruhida proeksiya birinchi o‘rinda (57%), rasionalizasiya ikkinchi o‘rinda (52%), uchinchi o‘rinda inkor etish (44%). Emosional vaziyatlarda sinovdan o‘tayotgan o‘sprin qizlar o‘zlarining holatini loyihalashga moyil bo‘lib, shu bilan hozirgi vaziyatda o‘zlarining qadr-qimmatini va ustunligini saqlab qolishadi, ular rasionalizasiya va inkor etishga moyildirlar.

2-jadval.

## Yoshlardagi himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishida jins farqi (me‘yor)

		X	$\sigma$	t
O‘rin almashish	O‘g‘il bolalar	40,93	13,04	0,687
	Qizlar	37,81	18,96	
Regressiya	O‘g‘il bolalar	23,62	10,34	2,087*
	Qizlar	29,21	11,12	
Bo‘sh o‘rinni egallash	O‘g‘il bolalar	17,50	11,07	1,099
	Qizlar	21,25	15,18	
Rad etish	O‘g‘il bolalar	53,15	16,41	0,814
	Qizlar	49,18	15,39	
Proyeksiya	O‘g‘il bolalar	64,31	16,22	-1,265
	Qizlar	68,56	14,33	
Kompensatsiya	O‘g‘il bolalar	51,25	16,60	1,904
	Qizlar	42,50	15,45	
Giperkompensatsiya	O‘g‘il bolalar	45,93	19,97	-2,611**
	Qizlar	60,00	20,00	
Rasionalizasiya	O‘g‘il bolalar	63,28	12,26	-0,420
	Qizlar	61,93	14,39	
NOZ	O‘g‘il bolalar	44,21	2,79	-7,758***
	Qizlar	45,87	3,14	

Umuman olganda, tadqiqot o‘ziga xos gender xususiyatlarini aniqladi. Qizig‘i shundaki, inson ongi bunday hollarda salbiy tajribalarni filtrlaydi va ularni boshqa o‘tib ketishga yo‘l qo‘ymaydi. Bunday holda, travmatik hodisalar o‘ylab chiqarilgani bilan almashtiriladi. Ya‘ni, inkor inson e‘tiborini unga noqulaylik tug‘diradigan vaziyatdan chalg‘itishda ifodalanadi. Shu bilan birga, bu fikrlar, his-tuyg‘ular va emotsiyalar ong uchun mavjud bo‘lib qoladi. Yetakchi psixologik himoya mexanizmi inkor etish bo‘lgan o‘spirinlar juda aqlli, o‘zini o‘zi taklif qiladigan, ochiqko‘ngil, ko‘pincha o‘z-o‘zini tanqid qilmaydi va ular juda boy tasavvurga ega. Ko‘pincha bu o‘spirinlar o‘zini yuqori baholaydilar. Bunday o‘zini o‘zi qadrlash o‘spirinning o‘zi ham o‘z fazilatlariga ishonch hosil qilishi bilan birga kelganligi sababli, u jamiyat unga e‘tibor qaratishi uchun hamma narsani qiladi. Ammo shu bilan birga, u o‘ziga nisbatan faqat ijobiy munosabatni sezishga moyildir. Bu shuni anglatadiki, o‘spirinning har qanday salbiy ko‘rinishlari shunchaki e‘tiborga olinmaydi.

Hayot tarzi indeksining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish o‘g‘il va qiz o‘spirinlarda PHMLari ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymatlarini taqqoslashga asoslangan. 6-jadvalda o‘g‘il va qizlarda PHMning o‘rtacha qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning asosida Styudentning t-mezoniga muvofiq sezilarli farqlar aniqlandi.

**Xulosa va tavsiyalar.**

“Yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Yangi darajadagi kompetensiyaga erishilgandan so‘ng dastlabki, erta davrlardagi, bolalik bilan bog‘liq reaksiya shakllari va xulq-atvor turlariga qaytish bo‘lgan regressiya paytida almashinish sodir bo‘lishi aniqlandi, bu esa o‘z navbatida asabiy vaziyatning ta‘siri ostida paydo bo‘lgan hissiy bosimni anglatadi, lekin bu engillik yoki maqsadga erishishga olib kelmaydi. Bunday vaziyatda subyekt ba‘zan ichki keskinlikni buzadigan, kutilmaganda ma‘nosiz harakatlarni amalga oshirishi mumkin, ammo shu vaqtning o‘zida haqiqat idrok etilgan holda tashqi tomondan bu harakat sezilmasligi mumkin.

2. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, (qiz) yoshlarda, shuningdek, (o‘g‘il) yoshlarda ham ijtimoiy muhitda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik ularning o‘z-o‘zini borligicha qabul qilishlari, shuningdek boshqalarni ham qabul qilishlari, hissiy qulaylikni his etishlari, yuqori darajadagi subyektiv nazoratga ega

ekanliklarining ko‘rsatkichidir, bu kabi o‘sprinlar ular bilan sodir bo‘ladigan voqealarni, birinchi navbatda, ularning shaxsiy fazilatlari (kompetensiya, qat’iyatlilik, qobiliyat darajasi va boshqalarga) va o‘z faoliyatlarining tabiiy oqibatlarining natijasi deb hisoblashishlari isbotlandi;

3. Tadqiqot jarayonida yoshlarning o‘zini o‘zi baholashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini va psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash usullari yuzasidan ishlab chiqilgan mualliflik so‘rovnomasi asosida qaltis vaziyatlarda o‘springing o‘zini o‘zi baholashi va xulq-atvor reaksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar mavjud ekanligi tasdiqlandi.

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

Pedagoglar va amaliyotchi psixologlar uchun:

- o‘rta-maxsus ta’lim muassasalari o‘spirin o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan hayot strategiyalarini to‘g‘ri tanlash bo‘yicha metodik qo‘llanma va psixologik yo‘riqnomalar ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish lozim;

- yoshlarda kelajak rejalarini tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kasblar haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda davra suhbatlar, seminar-treninglarni doimiy tashkil qilish maqsadga muvofiq;

- o‘sprinlarning hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlash, kelajakda tanlagan kasblariga nisbatan istiqbol rejalarini ishlab chiqishga e’tibor qaratish, maqsadni anglab etish darajasini oshirishga ahamiyat berish lozim;

- yoshlarda hayotiy strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadlidir.

#### Adabiyotlar:

1. Роджерс, К.Р. Взгляд на психотерапию. Становление человека [Текст] / К. Роджерс. – М.: Изд. группа «Прогресс», «Универс», 1994.– 480 с.
2. Фрейд, З. Введение в психоанализ. Лекции [Текст] / З. Фрейд. – СПб.: Питер, 2007. – 384 с.
3. Фромм, Э. Бегство от свободы [Текст] / Э. Фромм. – М: АСТ, 2016. – 288 с.

**Sharipov Alisher Nuriddinovich**  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

## O'SMIRLARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI MUHIM OMILLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlarning (11-15 yosh) irodaviy sifatlarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosi ekanligi yoritilgan. Shuningdek, irodani tarbiyalashda kattalarning yetakchiligi, insonning o'z burchi va mas'uliyatini anglashi, muvaffaqiyatli insonga qo'yiladigan talablar, yoshlarning mustaqillik taraqqiyoti bosqichlari, irodaviy fazilatlarini rivojlantirishda o'z-o'zini tarbiyalash, shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalashda jamoaning roli, o'smirlarni kuchli irodali qilib tarbiyalashga intiluvchi o'qituvchi ular bilan kundalik ish olib borishi uchun pedagogik qoidalar va o'smirlar uchun amaliy maslahatlar aks topgan.

**Kalit so'zlar:** iroda, o'smir, irodaviy sifatlar, barqarorlik, o'jarlik, murakkab vaziyat, qat'iyatlik, dadillik, mavjudlik, mustaqillik.

## ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ

**Аннотация:** В данной статье формирование волевых качеств подростков (11-15 лет) выделено как актуальная проблема современности. В данной статье объясняется, что формирование волевых качеств подростков (11-15 лет) является актуальной проблемой современности. А также отражены личный пример взрослых в воспитании воли, руководство взрослых в воспитании волевых качеств подростка, понимание своего долга и ответственности, требования к успешному человеку, этапы развития самостоятельности молодых людей, самовоспитание в развитии волевых качеств, роль коллектива в воспитании волевых качеств личности, педагогические правила и практические советы подросткам для ежедневной работы с учителем, стремящимся воспитывать волевых подростков.

**Ключевые слова:** воля, подросток, волевые качества, устойчивость, упрямство, трудная ситуация, решительность, смелость, присутствие, самостоятельность.

## IMPORTANT FACTORS IN THE FORMATION OF VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS

**Abstract:** In this article, it is explained that the formation of willful qualities of teenagers (11-15 years old) is an urgent problem of today. Also, the personal example of adults in training the will, the leadership of adults in training the will qualities of a teenager, the understanding of one's duty and responsibility, the requirements for a successful person, the stages of the development of independence of young people, self-education in the development of will qualities, the role of the community in the education of strong-willed qualities of the individual, pedagogical rules and practical advice for teenagers for daily work with the teacher who strives to educate teenagers with strong will are reflected.

**Key words:** will, teenager, volitional qualities, stability, stubbornness, difficult situation, determination, courage, presence, independence.

**Kirish.** Iroda inson shaxsining eng muhim sifatidir. Farzandlariga bu fazilatlarini singdirishga intilmaydigan ota-ona yoki o'qituvchini topish qiyin. Har bir inson o'z farzandlarini irodali, qat'iyatli, maqsadli ko'rishni xohlaydi. Aynan shu fazilatlar insonni o'z hayotining erkin va ongli subyektiga aylantiradi. Ular bizga maqsadlar qo'yish va rejalashtirgan orzu - istaklarimizga erishish imkonini beradi. Faraz qilish mumkinki, irodani shakllantirish bola shaxsini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Har bir inson ixtiyoriy faoliyatining yetarlicha to'liq tavsifini biron bir faoliyat turida namoyon bo'ladigan qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, chidamlilik, tashkilotchilik va intizomni kuzatish orqali olish mumkin. Bu irodaviy sifatlar harakat va ishlarda eng yaqqol namoyon bo'ladi, ular kuzatish uchun qulay bo'lib, barcha faoliyat turlariga (o'qish, mehnat, sport, ijtimoiy mehnat va aqliy faoliyat) xosdir.

Har bir shaxs shaxsiyatga xos bo'lgan barcha irodaviy fazilatlariga ega, ammo ular har kimda turlicha rivojlanadi.

Muayyan irodaviy sifatlari yuqori darajada rivojlangan kishilar haqli ravishda kuchli irodali kishilar deb ataladi. Ammo ko‘pincha biron bir sifatni rivojlantirgan odamlar bor, qolgan sifatlari esa kamroq yoki past darajada. Misol uchun, qat‘iyatli odam yaxshi o‘ylangan, to‘g‘ri, o‘z vaqtida qarorlar qabul qiladi, lekin qat‘iyatsizlar ana shunday qarorga kelsalar-da ularni yakunlay olmaydi. Yoki, ehtimol, odam qat‘iyatli, lekin o‘zini tuta olmaydi; qat‘iyatli, lekin ayni paytda taklif qilinadigan ishlarni oxiriga yetkaza olmaydi.

Barcha irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasi past bo‘lgan odamlar bor. Bunday odamlar odatda zaif irodali yoki irodasiz deb ataladi.

**Asosiy qism.** Irodaviy sifatlari, shaxsning boshqa xususiyatlari kabi, faoliyatda rivojlanadi. Bu yerda biz sun‘iy mashqlarni emas, balki kundalik vazifalarni bajarish jarayonida ixtiyoriy harakatlarni o‘rgatishni nazarda tutamiz.

Bolaning tashkilotchilik va kuchli irodali xarakter xususiyatlarini shakllantirishga puxta o‘ylangan rejim va kundalik tartib yordam beradi. Hayotning qat‘iy tartibi unga o‘z xatti-harakatlarini faol va oqilona boshqarishga, shaxsiy xohish va ehtiyojlardan qat‘i nazar, o‘z vazifalarini bajarishga o‘rgatadi, hatto faoliyat unga qiziqmas, yoqimsiz, zerikarli, monoton bo‘lib tuyulsa ham. Bilim, ko‘nikma va odatlarni o‘zlashtirish, maktabda va uyda mehnatning turli shakllari o‘smirni qiyinchiliklarni yengib o‘tishda doimo mashq qilishga, kuzatishga, yod olishga, faol fikrlashga majbur qiladi, bu esa ko‘pincha katta irodaviy sa‘y-harakatlarni talab qiladi. Irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda jismoniy tarbiya, sport va kundalik to‘g‘ri rejim muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy zaif odam tezda qo‘rquv yoki stress ta‘siriga berilib, o‘zini tuta olmaydi. Chidamlilik, matonat, to‘g‘ri qaror qabul qilish, ko‘proq jismonan sog‘lom odamlarga xos bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport tanani mustahkamlaydi, odamni o‘z tanasini va xatti-harakatlarini boshqarishga o‘rgatadi.

Bolaga yagona yondashuvni o‘rnatish, barcha oila a‘zolarining tarbiyaviy sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirish juda muhimdir. Ta‘lim usullarida ota-onalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bolaning xulq-atvorining ikkilanishini, narsa va hodisalarga ayyorroq munosabatini rivojlantiradi.

Barqarorlik tamoyiliga rioya qilish bir xil darajada muhimdir, ya‘ni kecha bolaga taqiqlangan narsaga ruxsat bera olmaysiz. Bolada o‘z xohish-istaklarini egallash qobiliyatini asta-sekin tarbiyalash, uni o‘zini tutib olishga, og‘riq, xafagarchilik, qo‘rquv tuyg‘ularini yengishga o‘rgatish kerak. Bularning barchasi uning irodasini mustahkamlaydi, mashqlantiradi.

O‘jarlik - bu harakatlarning maqsadga muvofiqligi va to‘g‘riligidan qat‘i nazar, bolaning o‘ziga xos tarzda biror narsa qilish istagida namoyon bo‘ladigan irodaning yetishmasligi. Negativizm – o‘jarlik namoyon bo‘lishining eng yuqori darajasidir. Bolaning negativligi har qanday so‘rov, maslahat, talabga teskari tarzda javob berishida namoyon bo‘ladi.

Eng muhimi, bolani to‘siq yoki muammolar paydo bo‘lganda maqsadli harakatlarni to‘xtatmaslikka o‘rgatishdir. Ko‘pincha bolaning maqsadlilikini aks ettiruvchi uzoq muddatli rejalar va uning faolligini kamaytiradigan situatsion manfaatlar, istaklar, ehtiyojlar o‘rtasida ziddiyat mavjud. Shu munosabat bilan maqsadlilikni saqlashning asosiy usullarini bilish kerak.

Faoliyatning maqsadi va istiqbollarni konkretlashtirish (aynanlashtirish) o‘quv faoliyati yoki sport mashg‘ulotlari jarayonida alohida ahamiyatga ega. Har bir dars shunday o‘tkazilishi kerakki, o‘smirlar «umuman» mashq qilmasdan, balki muayyan materialni o‘zlashtirsinlar. Sinflarni tark etib, o‘smirlar imkon qadar tez-tez biror narsaga erishganliklarini, oldinga siljiganliklarini bilishlarini ta‘minlash kerak.

O‘smirning irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda kattalarning yetakchiligi muhim ahamiyatga ega. O‘smir atrofidagi o‘qituvchi, ota-onalar, kattalar, birinchi navbatda, irodani tarbiyalash, uning rivojlanishiga yo‘naltirish uchun muayyan usul va vositalarni qo‘llaydi. Kattalar o‘smirni o‘z xatti-harakatlarini o‘zlashtirishga o‘rgatadi, uning ixtiyoriy faoliyatini jamiyatdagi xatti-harakatlar amaliyoti sifatida tashkil qiladi. Iroda faqat qiyinchiliklarni yengishda tarbiyalanadi. Mas‘uliyat va burchni tarbiyalash irodani tarbiyalashning muhim shartidir.

Irodani tarbiyalashda kattalarning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Iroda kuchli irodali kishilar - o‘qituvchilar, ota-onalar, kitob qahramonlari va boshqalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali tarbiyalanadi. Shunda ham kattalarning nazorati zarur.

Maqsad va vaziyatning noaniqligi safarbarlik va mehnatsevarlik darajasini pasaytiradi, faoliyatning pasayishiga olib keladi. O‘quvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi har doim ham o‘qituvchining maqsad va vazifalari bilan mos kelmaydi. Bunday tasodif maqsadga muvofiqdir, lekin ta‘lim jarayonining dastlabki bosqichlarida ba‘zan unga erishish qiyin. Gap shundaki, maktab o‘smirlari dastlab faoliyatning aniq bevosita motivlariga asoslanadilar. Maqsadlilikni tarbiyalash uchun o‘qituvchi bunday hollarda bu motivlarni e‘tiborsiz qoldirmasligi kerak. Aksincha, ulardan maktab o‘smirlarida ta‘lim jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun foydalanish, o‘smirning o‘sishiga qarab yanada jiddiyroq tarbiyaviy vazifalarni bosqichma-bosqich ilgari surishi kerak.



O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning turli xil vositalari, shakllari va usullari kanday bo‘lishi lozim? Kundan kunga takrorlanib turadigan uzoq va ba‘zan monoton mashg‘ulotlar surunkali monotonlik va ruhiy to‘yinganlik holatlarining rivojlanishiga olib keladi, bu nafaqat mashg‘ulot samaradorligini pasaytiradi, balki qat‘iyatlilik va maqsadga muvofiqlikni ham kamaytiradi. Shu munosabat bilan, maqsadlilikni saqlab qolish uchun o‘quv va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish vositalari, shakl va usullarini diversifikatsiya qilish kerak. Ma‘lumki, qiziqarli material ham yaxshi esda qoladi, ham o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va mashg‘ulotlardan keyin sportchining tanasida biokimyoviy jarayonlarning borishi uning kayfiyati va mashg‘ulotlarga munosabatiga bog‘liq: ijobiy his-tuyg‘ular, o‘zgarishlar bilan. bu jarayonlarning kechishiga katta yordam beradi.

Mashg‘ulotlardan qoniqish orqali butun ta‘lim jarayonidan qoniqish hosil bo‘ladi, bu maqsadlilikni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda uzoqdagi maqsadga o‘z vaqtida erishishda muqarrar bo‘ladigan nosozliklar o‘smirlar tomonidan unchalik keskin sezilmaydi va shuning uchun maqsadlilikni shakllantirishga kamroq salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Albatta, darslarning hissiy jozibasini ta‘qib qilish uchun ularni ko‘ngilochar tadbirga aylantirib bo‘lmaydi. Biroq bu omilni e‘tiborsiz qoldirib ham bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi darslarning mazmunini yo‘qotmasdan, ularni tashkil etish vositalari va usullarini almashtirishni diqqat bilan ko‘rib chiqishi kerak.

Mavjudlik tamoyiliga rioya qilish ham juda muhimdir. Maqsadlilik muhim maqsadlarga erishish bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Shu munosabat bilan, shaxsning irodaviy sohasini rivojlantirish uchun yengib bo‘lmaydigan qiyinchiliklarga duch kelish kerak. Mutaxassislar vazifalarning maqbul qiyinligi haqida gapirishadi, bu esa ularni ma‘lum bir irodali harakatlar qilishga majbur qiladi. Hayotiy tajribalarga ko‘ra, o‘ta oson vazifa maqsad tuyg‘usini saqlab qolish va qat‘iyatlilikni rivojlantirishda samarali emas. Biroq, haddan tashqari qiyin ish umidsizlikni, o‘z kuchiga ishonchni yo‘qotishi mumkin. Qiyinchilikning yuqori qismiga yaqin joylashgan optimal qiyinchilik o‘smirlarni ko‘proq imkoniyatlarni safarbar qilishga undaydi, o‘z-o‘zini hurmat qilishni qiyinlashtiradi va qiyinchilikni yengishga qaratilgan o‘smirlar faoliyatini rag‘batlantiradi.

Raqobat ta‘siridan foydalanish. Maqsadlilikni saqlash va qat‘iyatni oshirish uchun o‘quv jarayonining muayyan nuqtalarida raqobat ta‘siridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunga erishishning eng oson yo‘li - raqobat usulidan foydalanish. Siz, masalan, o‘smirlarga oldingi guruhda barcha o‘smirlar taklif qilingan dasturni muvaffaqiyatli o‘zlashtirganliklari haqida ma‘lumot berishingiz mumkin yoki: «Parallel sinfda ular ham xuddi shu masalani hal qilishadi. Keling, qaysi sinf bu vazifani yaxshiroq bajarishini ko‘rib chiqaylik». Motivni bunday yo‘llar bilan kuchaytirish qat‘iyatni oshiradi, maqsadlilikni saqlash uchun yangi hissiy kuchlanishni yaratadi.

Insonning o‘z burchi va mas‘uliyatini anglashi. Insonning burch tuyg‘usining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan, qat‘iyatlilik to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. To‘g‘ri, uning namoyon bo‘lishi g‘arazli intilishlar (xudbinlik, haddan tashqari shuhratparastlik) bilan mumkin, ammo bunday maqsadlilik va bunday matonatning namoyon bo‘lishi o‘qituvchiga ma‘qul kelishi dargumon.

Shaxsning o‘z burchini anglashi, o‘z iste‘dodini rivojlantirishi va ro‘yobga chiqarishi uchun mas‘uliyat o‘lchovi uning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun maqsadlilik va qat‘iyatlilik uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi. Agar inson o‘zi uzoq maqsadga erishishga intilmasa, o‘qituvchining hiyla-nayranglari yordam bermaydi. Agar inson barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tish istagiga ega bo‘lsa, u o‘zining yetarli darajada ifodalanmagan qobiliyatlarining bir qismini qoplashi va maqsadiga erishishi mumkin.

Muvaffaqiyatli insonga qo‘yiladigan talablar ro‘yxati qanchalik to‘g‘ri tuzilgan va tushunarli ekanligiga bog‘liq. Bundan tashqari, intizomli xulq-atvor ko‘nikmalarini mustahkamlash ham u bilan bir xil darajada muhimdir.

Intizomni tuzatish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

1. Itoatsiz o‘smirlarni har xil turdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish, ularning qiziqishlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda, topshirilgan ishga faqat tartibsiz o‘smirlar uchun emas, balki butun jamoa uchun ahamiyat berish.

2. Intizomsiz o‘smirlarga muayyan ijtimoiy foydali ishlarda tashabbus ko‘rsatish.

3. O‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

4. Ishontirish, rag‘batlantirish, omma tomonidan ma‘qullash, xushmuomalalik, ishonch usullaridan foydalanish.

5. Intizomni doimiy ravishda buzuvchilarga qarshi sinfning jamoatchilik fikridan foydalanish.

Yoshlarning mustaqillik taraqqiyoti bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Birinchi bosqichda mustaqillik faqat o'qituvchi yoki rahbar, murabbiy tomonidan o'smirlar, qo'l ostidagilar bilan birgalikda rejalashtirilgan narsani bajarishda namoyon bo'ladi. Ikkinchi bosqichda mustaqillik nafaqat ishlashda, balki o'zini o'zi boshqarishda ham namoyon bo'ladi. Uchinchi bosqichda ularga faoliyatni o'zlari rejalashtirish qobiliyati qo'shiladi. To'rtinchi bosqichda ijodiy tashabbus, ya'ni maqsadni belgilash, unga erishish yo'llarini tanlash, ishni amalga oshirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishda mustaqillik paydo bo'ladi.

Mustaqillikning muvaffaqiyatli shakllanishi bir qator holatlarni hisobga olish va muayyan shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

1. Mustaqillikni rivojlantirish faqat ushbu faoliyat turida zarur bilim va ko'nikmalarni egallash asosida bo'lishi mumkin.

2. Mustaqillikni rivojlantirish ustoz (o'qituvchi, ota-ona va boshqalar) nazorati ostida, lekin keraksiz vasiylik, shaxs tashabbusini kishanlamasdan amalga oshirilishi kerak.

3. Bu faoliyat turiga o'smirning qiziqishi zarur.

Qat'iylikni rivojlantirishning asosiy usuli - muammoli vaziyatlarni takroriy takrorlash bilan mashq qilish, ya'ni tanlash sharoitida qaror qabul qilish zarur bo'lganda, ma'lumotlar yetishmasligi va boshqalardir. Bu qat'iyatlikni rivojlantirishga yordam beradi. xavfli mashqlar, masalan, jasoratni rivojlantirish uchun ishlatiladigan mashqlar hisoblanadi.

Siz bilishingiz kerakki, irodaviy fazilatlarini rivojlantirish yo'lida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishingiz mumkin, shuning uchun o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalardan sezgirlik talab etiladi (masalan, siz «qo'rqq» yorlig'ini qo'rqqga yopishtirishingiz mumkin emas), buning uchun sabr-toqat va pedagogik donolik zarur.

«Siz xohlaganingizcha» emas, balki «kerak» sifatida bajarishni talab qiladigan ta'lim faoliyati ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun o'smirlar doimo aqliy va jismoniy kuchlarini siqib chiqarishlari, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun matonat va yana matonat ko'rsatishlari kerak.

Irodaviy fazilatlarini rivojlantirishda o'z-o'zini tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Aqliy faoliyatning boshqa hech bir sohasida o'z-o'zini tarbiyalash irodani rivojlantirishdagi kabi rol o'ynamaydi. Faqat o'z-o'zini tarbiyalash insonga o'zini boshqarish, kuchli irodali sa'y-harakatlarni ko'rsatish, qiyinchiliklarni yengish, shaxsning salbiy xususiyatlari va yomon odatlarini yengish uchun barcha imkoniyatlarini safarbar qilish imkoniyatini berishi mumkin.

**Muhokamalar va natijalar.** Irodani o'z-o'zini tarbiyalash zarurati o'smirlik va erta o'smirlik davrida paydo bo'ladi. Va bu tabiiydir, chunki o'smirlar kattalardan kupincha mustaqil bo'lishga intiladilar. Ammo ular irodani o'z-o'zini tarbiyalash usullarini bilmagani va shuning uchun ham kuzatmaganligi sababli, ularni tarbiyalash o'rniga, ko'pincha o'z irodasini sinab ko'rish bilan shug'ullanadilar. Ba'zan bu sinovlar qiynoq shaklida bo'ladi. Masalan, ba'zi maktab o'smirlari «chidamlilik va o'zini tuta bilishni rivojlantirish» uchun o'zlariga nojo'ya harakat qiladilar, devor va karnizlarga chiqadilar, baland narsalardan yerga sakraydilar, notanish suv havzalarida o'zlarini sinaydilar, qishda yalang'och yurishadi va hokazo.

Shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalashda jamoaning roli katta. Maqsadli, mehnatsevar jamoa o'smirlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, unga qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarni to'g'ri bog'lash qobiliyatini rivojlantiradi. Odamlar jamoadan orqada qololmaslikka intiladi, o'smir esa eng yaxshi jihatga taqlid qiladi. Kattalar o'smirlarga o'z irodasining kuchli va zaif tomonlarini tushunishiga yordam berishlari, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida o'zini – o'zi tarbiyalashning o'ziga xos usullarini topishlari kerak (o'quv fanlari bo'yicha orqada qolishni bartaraf etish, zarur va foydali odatlarni egallash va boshqalarda).

Irodani tarbiyalashda, barcha tarbiyaviy ishlarda bo'lgani kabi, o'qituvchi ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lishi kerak. O'smir irodasini, xarakteriga xos muhim fazilatlarini tarbiyalashda o'qituvchi faqat oila bilan birgalikda yuksak natijalarga erisha oladi.

**Xulosa.** O'smirlarni kuchli irodali qilib tarbiyalashga intiluvchi o'qituvchi ular bilan kundalik ish olib borishda quyidagi pedagogik qoidalarga amal qilishi kerak:

- o'smirlar o'rganishi kerak bo'lgan narsani qilish emas, balki ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati uchun sharoit yaratish;

- o'smirning mustaqil ishini faollashtirish va erishilganidan xursandchilik tuyg'usini uyg'otish;

- o'smir uchun hech narsa qaror qilmaslik, balki uni faqat oqilona qarorlar qabul qilishga olib borish va undan qabul qilingan qarorlarning ajralmas bajarilishini izlash;

- o'smirlarda o'zlariga g'amxo'rlik qilish, kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilish (yomon odatlar, loqaydlik, qat'iyatsizlik), yaxshi odatlarini barqaror ravishda tarbiyalash.

- o'smir shaxsining irodaviy fazilatlari boshqalar kabi faoliyatda, kundalik vazifalarni bajarish jarayonida irodaviy harakatlarni o'rgatishda rivojlanadi.

- o'smirlarning irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'qituvchining shaxsiy namunasi va jamoaning talablari muhim rol o'ynaydi.

- faqat ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning intellektual va irodaviy fazilatlari shakllanadi, o'smir yangicha fikrlash va his qila boshlaganda rivojlanish darajasiga erishiladi, u faqat hayotda amalga oshirishi mumkin bo'lgan yangi istaklarga ega bo'ladi. Shuning uchun o'smir o'zining voyaga yetganligini va undan kelib chiqadigan avtonomiyani tan olishga qiynaladi.

O'smirlar uchun amaliy maslahatlar:

O'smirlarda irodani tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning bir qator qoidalari va usullari mavjud bo'lib, ular ma'lum bo'lishi va iloji bo'lsa, nazorat qilib borilishi kerak.

- kuchli irodaviy fazilatlar faoliyatning barcha turlarida va nafaqat ekstremal vaziyatlarda, balki kundalik hayotda ham namoyon bo'lishi kerak.

- faqat erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yishga harakat qiling. Siz bajarib bo'lmaydigan vazifalarni bajara olmaysiz.

- maqsadga erishish kerak. Har qanday topshiriq va vazifalarni tugatilishini cheksiz muddatga qoldirmaslik uchun tugatilishi kerak.

- nisbatan katta qiyinchiliklarni darhol yengishga urinmaslik kerak. Biz birinchi navbatda oddiy to'siqlarni yengib o'tishni o'rganishimiz zarur. Muvaffaqiyatsiz bo'lsangiz, tushkunlikka tushmang. Siz sabr va matonat ko'rsatib, qiyinchiliklarni yengib o'tishga qayta-qayta harakat qilishingiz kerak.

- agar biror narsa amalga oshmasa, uni tashlamang. Vazminlik va sabr-toqatni namoyon eting, hamma narsani qaytadan boshlang, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzating, uni amalga oshirishning yanada oqilona usullari va yo'llarini o'ylab toping.

- ekstremal vaziyatga tushib qolganingizda, o'zingizni nazorat qilishni yo'qotmang, undan munosib chiqish yo'li uchun bor kuch va imkoniyatlaringizni safarbar qiling. Qabul qilgan qaroringiz har qanday to'siqlarga qaramay amalga oshirilishiga ishonch hosil qiling.

- ishga kirishishdan avval uni amalga oshirishni to'g'ri rejalashtiring, keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini oldindan ko'ring, harakatlaringiz natijalari va ularning oqibatlarini haqida o'ylang.

Yuqorida keltirilgan tarbiyaviy omillarga amal qilish yoshlarda irodaviy sifatlarni va ular xarakteriga xos fazilatlarni shakllanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Jabborov A.M., Abduqahhorova G. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. -Qarshi: "Nasaf", 2017.-72 b.
2. Ivannikov V.A. Psixologicheskiye mexanizmi volevoy regulyatsii. Uchebnoye posobiye. 3-ye izdaniye. – SPb., 2006. – S. 208.
3. Ilin YE.P. Psixologiya voli. 2-ye izd. – SPb., 2009. – S. 368.
4. Shopengauer A. Svoboda voli i nravstvennost. – M.: "Nauka", 1992. – S. 448.
5. Xayriyev I. Irodani tarbiyalash – komillikka eltadi. –T.: 2021. -511 b.

**Safarov Dilmurod Xalimovich**

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## UMUMTA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING NIZOLI VAZIYATLARDAGI HOLATINI O'RGANISH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rahbar boshqaruv faoliyatining o'ziga xos jihatlari, pedagoglar jamoasidagi negativ ta'sirlardagi asosiy omillar, pedagog-rahbarlar jamoasidagi muhim psixologik jihatlari, rahbar o'z atrofidagi muhit, ma'naviy iqlim, odamlarni o'ziga qaratishi, o'ziga jalb eta olishligi, boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish kabi mavzular ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, boshqaruv, ma'naviy iqlim, qat'iyatlilik, nizo, pedagog.

## ИЗУЧЕНИЕ ПОЛОЖЕНИЯ ДИРЕКТОРОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ В СПОРНЫХ СИТУАЦИЯХ

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены специфические аспекты управленческой деятельности руководителя, основные факторы негативных воздействий в коллективе педагогов, важные психологические аспекты в коллективе педагогов-лидеров, окружающая лидера среда, духовный климат, внимание к нему людей, раскрываются такие темы, как получение, осуществление процесса управления в соответствии с целью.

**Ключевые слова:** лидер, управление, духовный климат, настойчивость, конфликт, педагог.

## STUDY OF THE SITUATION OF PRINCIPALS OF UNIVERSAL EDUCATION SCHOOLS IN DISPUTE SITUATIONS

**Abstract:** In this article, the specific aspects of the leader's management activities, the main factors of negative effects in the team of pedagogues, the important psychological aspects of the team of pedagogues-leaders, the environment around him, the spiritual climate, the way the leader attracts and attracts people topics such as obtaining, implementing the management process in accordance with the purpose are disclosed.

**Key words:** leader, management, moral climate, persistence, conflict, pedagogue.

**Kirish.** Mamlakatimizda rahbar kadrlarni tayyorlash bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har jihatdan mukammal rahbarlarni tayyorlamay turib jamiyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Zero, O'zbekistonning buyuk bo'lishi, hayotimizning tinch, farovon va ijtimoiy jihatdan yuksak bo'lishi barcha bo'g'inlardagi kadrlarga bog'liqdir. Kadrlarni tanlashda avvalo uning ma'naviyati muhim o'rin tutadi. Chunki rahbar va uning ma'naviyati xalqning, davlatning va jamiyatning kuch-qudratidir. Qolaversa har qanday rahbarni ham ma'naviyatsiz tasavvur etish juda qiyin. Shu nuqtayi nazardan, biz tadqiqotimiz davomida rahbar ma'naviyati va uning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari borasida tegishli adabiyotlarni o'rgandik va izlanishlar olib bordik. Bunda asosan rahbarning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o'rni hamda shaxsiy fazilatlariga jiddiy e'tibor qaratildi. O'ylaymizki, biz o'rgangan nazariy bilimlar rahbarning boshqaruv faoliyatiga, uning ma'naviyatiga hamda uning individual psixologik xususiyatlariga oid bugungi talablarni yanada chuqurroq tasavvur etish imkonini beradi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, pedagog-rahbarlar jamoasidagi muhim psixologik jihatlardan biri bu jamoa a'zolarining o'zaro hamjihatlikda samarali faoliyat olib borishlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, pedagoglar jamoasidagi ziddiyatli holat ular faoliyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Bu esa ularning nafaqat faoliyat tizimlariga, balki o'quvchi shaxsini ta'lim-tarbiya olishiga, kasbiy kamolotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Pedagoglar jamoasidagi negativ ta'sirlardagi asosiy omil bu nizolardir.

**Nizo** - bu shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi u yoki bu qarorlarni qabul qilishda yuzaga keladigan insonlar orasidagi qarama - qarshiliklardir. Biroq har qanday qarama - qarshilik nizolarni keltirib chiqarmaydi. Insonlar turli qarashlarga ega bo'lishi mumkin, lekin bu ularning hamkorligiga xalal bermaydi. Agar qarama-qarshiliklar shaxs qiziqishlarini, mavqeyi, axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, nizolarni keltirib chiqaradi. Nizolar jamoada nosog'lom muhitni yuzaga keltirib chiqaradi hamda o'zaro munosabatlarni

“aniqlashtirib olish”ni talab qiladi. Nizolar o‘zning mohiyat mazmuniga ko‘ra, *destruktiv* va *konstruktiv* turlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Nizoning ijobiy tomoni shundaki, u shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Insoniy munosabatlar tizimida nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni 5 guruhga kiritish mumkin, ya‘ni ular axborotlar, tuzilishlar, qadriyatlar, munosabatlar va xulq-atvorlardir.

Ko‘pgina nizolar negizida bir tomon uchun noma‘qul bo‘lgan axborot tashkil etadi. Bu noto‘liq va noaniq faktlar, mish-mishlar bo‘lishi mumkin, ya‘ni ma‘lumotlarning aniqligiga, axborot manbasini ishonchligiga shubhalanish, bahs- munozara va boshqalar.

Nizolarning tuzilishli omillari ijtimoiy guruhlarning rasmiy va norasmiy tashkil topgani bilan bog‘liq. Bunda shaxsiyat, ijtimoiy mavqeyi, hukmronlik, turli ijtimoiy norma va standartlar, an‘analar xavfsizlik tizimi, rag‘bat va jazo, geografik joylashuvni, resurslar taqsimoti, tovarlar, xizmatlari, daromadlarni kiritish mumkin.

Qadriyatlar omili — bu biz tan oladigan yoki inkor etadigan tamoyillar. Bu guruhiy yoki shaxsiy e‘tiqod ishonch va xulq-atvor tizimi ideologik madaniy, diniy, etnik, siyosiy, kasbiy qadriyatlarni kiritishi mumkin.

Munosabatlar omili shaxslararo munosabatlardan qoniqqanlik bilan bog‘liq. Bunda munosabatlar asosini, ularning mavjudligi, kuchlar muvozanatini, o‘zi va boshqalar uchun ahamiyatini, o‘zaro kutishlarni, munosabatlarining davomiyligini, tomonlarning qadriyatlar tizimini muvofiqligini, xulq-atvorni inobatga olish zarur.

Xulq-atvor omili ham qiziqishlar turli bo‘lsa, o‘z-o‘ziga noadekvat baho, xavf tug‘ilsa emotsional holatlarni yuzaga kelishiga zamin yaratilsa, agar shaxs xulq-atvorida xudbinlik, mas‘uliyatsizlik, adolatsizlik kuzatilsa, nizolarni vujudga keltirish mumkin.

Bunday guruhlashtirish nizolarning tabiatini chuqur tushunib etishga va ularni oldini olishga xizmat qiladi.

Ko‘lamiga ko‘ra nizolar ichki, shaxsiy, shaxslararo, shaxs va guruh orasidagi va guruh, guruhlararo nizolarga bo‘linadi.

Ichki shaxsiy nizolar ishlab chiqarish talablari va shaxsning ehtiyojlari yoki qadriyatlarini o‘zaro nomuvofiqligi, ish yuklamasining noadekvatligi natijasida kelib chiqadi.

Shaxslararo nizolar resurslar, kapital ishchi kuchining, asbob uskunalar, vakant o‘rinning tanqisligi oqibatida kelib chiqadi.

Shaxs va guruh orasidagi nizo alohida shaxs kutishilari, talablari va guruhda qabul qilingan normal va xulq-atvorning nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladi.

Ushbu nizo boshqaruv uslubining noadekvatligi, jamoaning to‘liq etilmaganligi, rahbar va jamoa orasidagi munosabatlarning yaxshi emasligidan kelib chiqadi.

*Guruhlararo nizolar* - bu rasmiy guruh jamoasi ichidagi va norasmiy guruh jamoasi ichidagi, qolaversa, rasmiy va norasmiy guruh orasidagi nizolardir.

Nizolarning davomiyligiga ko‘ra, qisqa vaqtli va uzoq muddatligiga ajratish mumkin. Birinchisida, tushunmovchiliklar va kamchiliklar tez anglanadi. Ikkinchisida, esa chuqur axloqiy - psixologik jarohatlar bilan bog‘liq bo‘lib, uzoq vaqt davom etadi. Nizolarning davomiyligi shaxs xarakteriga bog‘liq. Uzoq vaqt davom etuvchi nizolar xavfli bo‘lib, unda tomonlarning negativ holatlari kuzatiladi.

Nizolarni guruhlashtirishda ularning jamoa hayotidagi ta‘sir darajasini inobatga olish zarur. Shu o‘rinda jamoa hayotini zaharlovchi nizolarni ham aytib o‘tish joiz. Bunday nizolarda arzimas narsalardan fojialar yasaladi.

Nizolarning jamoani kelgusidagi taraqqiyotiga qarab salbiy oqibatlarga va ijobiy oqibatlarga ega nizolarga ajratish mumkin. Nizodan keyingi holatda negativ emotsiyalar yuzaga keladi. Bu esa nizoning salbiy oqibatidir.

Nizolarni keltirib chiqaruvchi manbalarga ko‘ra, obyektiv shartlanganlikka ajratish mumkin. Murakkab qarama-qarshiliklar vaziyatida obyektiv nizolar yuzaga keladi. Noqulay mehnat sharoiti, funksiyalarning noaniq taqsimoti va mas‘uliyatsizlik, sharoitning o‘zgarishi, obyektiv nizolarni yuzaga keltiradi. Subyektiv nizolar shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Bunda shaxsning qiziqishlari, istaklari, intilishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlar nizoli vaziyatlarda o‘zlarini turlicha tutadilar: ba‘zilar yon bosadi, ba‘zilar o‘zlarining qarashida qat‘iy turib oladilar. Iqtisod fanlari doktori N.Obidov nizoli vaziyatlardagi 3 xil xulq-atvor tipini ajratib ko‘rsatadi: “Amaliyotchi”, “Hamsuhbat”, “Fikrlovchi” xulq-atvor tiplari. Ular nizoli vaziyatlarda turlicha harakat qiladilar. “Amaliyotchi” “Eng yaxshi himoya - hujum” tamoyiliga amal qiladi. Ular uchun

eng muhimi harakatdir, mana shu nizolarni uzoq vaqt davom etishiga olib keladi. Atrofdagilarning fikrini o‘zgaruvchanligi turli qaralsa qarshiliklarga olib keladi.

“Rahbar — rahbar” munosabatlarida biror muammoni hal qilishda nizodan qochib bo‘lmaydi “Amaliyotchi”lar juda maydakash bo‘lgani uchun munosabatlarda buzilishlar kuzatiladi.

“Hamsuhbatlar” uchun “Yaxshi urushlardan ko‘ra, yomon dunyo yaxshi” degan tamoyilga amal qiladilar. Ular uchun insonlar bilan muloqotda bo‘lish birinchi o‘rinda turadi. Bunday tipdagi shaxslar o‘zgalar fikrini osonlik bilan qabul qiladilar. Shuning uchun ular ko‘pincha jamoadagi norasmiy emotsional liderga aylanadilar.

“Fikrlovchilar” uchun “O‘zlarini g‘olib bo‘ldim deb o‘ylayversinlar!” tamoyili xosdir. “Fikrlovchi”lar o‘zlari va muhitni anglashga moyil bo‘ladilar. Nizoli vaziyatlarda ular o‘zlarini haqliklarini va qarama-qarshi tomonni nohaqligini isbotlashda murakkab faktlarni keltiradilar. Nizolashayotgan tomonlarni murakkab vaziyatdan faqatgina uchinchi tomon chiqarib olishi mumkin. “Fikrlovchi”lar doim o‘z xulq-atvorini o‘ylab amalga oshiradilar.

Pedagog rahbarlar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar va ulardagi nizolarni kelib chiqishini tadqiq etish maqsadida K.N.Tomasning “Shaxs so‘rovnomasi” shaxsning turli vaziyatlarda o‘zini ko‘pincha qanday tutishini aniqlash imkonini beradigan metodikasidan foydalanildi. Uning yordamida shaxsning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi, murosaga, kompromiss, yon bosishga yo‘l berishga tayyorligi, nizolardan qochish yoki ularni keskinlashtirishga intilishi kabi sifatlarning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash mumkin.

Metodika tajriba sinov ishtirokchilari guruhida o‘tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirildi (1- jadval).

Tadqiqot natijalarini sifat jihatidan tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda raqobat bo‘yicha ko‘rsatkichlar 19% ni tashkil qiladi. Bu ulardagi faoliyatlarida bir-biridan o‘zib ketishiga nisbatan moyillikni ortishi bilan belgilanadi. Ma’lumki, shaxslararo munosabat o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, o‘zaro manfaatlarning to‘qnashuvi yuzaga keladi va bu o‘z navbatida raqobatchilik muhitini hosil qiladi.

**1-jadval.**

**Pedagog rahbarlar jamoasida nizoli xulq-atvor tiplari (n=80)**

№	Ko‘rsatkichlar	80 nafar
1	Raqobat	19%
2	Hamkorlik	21%
3	Murosaliylik kelishuvchanlik	28%
4	Tortishuvlardan qochish	15%
5	Moslashuvchanlik	17%

Pedagog rahbarlar jamoasi hamkorlikdagi faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Tajriba sinov ishtirokchilari guruhida hamkorlik 21% ni tashkil qiladi. Bu ulardagi hamkorlikka intilish bilan bir qatorda o‘z maqsadlariga intilishining yo‘qligini aniqlashga yo‘naltirgan, qolaversa, ishtirokchilar o‘zlarini nizo bo‘lmagandek tutib, befarq munosabat bo‘lishning xosligi bilan belgilanadi. Bunday insonlar jamoasi doimo o‘zlarida kuchli darajadagi hamkorlikka qo‘llab-quvvatlashga ishtiyoklarining kuchligi ajralib turadi.

Tadqiqotlarda ishtirok etgan tajriba sinov ishtirokchilari guruhida murosaliylik, kelishuvchanlik 38% ni tashkil qiladi. Bu ulardagi faoliyat nuqtayi nazaridan olganda, pedagogik jamoa urushqoq, bir-birlari bilan munosabatlari tizimli ekanligini qayd etish mumkin.

Pedagog rahbarlar jamoasidagi ko‘rsatkichlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tortishuvlardan qochish 15% ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki o‘qituvchilar jamoasida ijtimoiy psixologik muhitning sog‘lomlik darajasi ko‘p jihatdan ularning shaxslararo munosabatlari tizimi bilan uzviy bog‘liq.

Moslashuvchanlik pedagog shaxsi uchun xos xususiyatlardan biri sanaladi. Chunki ularni faoliyatga kirib borishlari bilan belgilanadi. O‘z navbatida pedagogik faoliyatga moslashganlik shaxs, xulq-atvor xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Unga ko‘ra, tajriba-sinov ishtirokchilarining natijalari 17% ni tashkil qildi. Bu ularning faoliyatlariga nisbatan ongli yondashishi uning ko‘rsatkichlarini birgalikda baham ko‘rishi bilan izohlanadi.

Metodika natijalaridan ko‘rish mumkinki, pedagog rahbarlar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar shaxsning nizoli xulq-atvor tipi bilan uzviy bog‘liq. Xususan, o‘qituvchilarning jamoadagi munosabatlari ularning axloqiy qadriyatli sifatlari bilan belgilanishi ko‘rsatiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbarlarning boshqaruv faoiyatini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri bu ulardagi nizoli xulq-atvorning tarkib topganligidir. O‘z navbatida bunday salbiy

ziddiyatli holat rahbarlarning kelgusidagi faoliyatlariga to‘siq bo‘luvchi psixologik omillardan sanaladi.

Pedagogik jamoadagi psixologik muhit eng avvalo o‘qituvchilar kayfiyatini aniqlaydi. Ma’lumki, ta’lim jarayoni pedagoglar jamoasini umumiy maqsad asosida birlashtiradi. Agar bu jamoa hamjihat va undagi har bir shaxs maqsadlar umumiylikni anglasa, bu juda ham yaxshidir. Natijada pedagogik jamoadagi nosog‘lom ijtimoiy muhit juda ham oson anglanishi mumkin.

Pedagogik jamoadagi o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari ular faoliyatining maqsad va tarkibi bilan bevosita ifodalanadi. Jamoada hamkorlikdagi munosabat va muloqot jarayonida aloqalarning bir qancha tizimi shakllanadi hamda umumiy tarzda ularni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

O‘qituvchilar o‘rtasida ularning faoliyatlarini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidagi munosabatlarni shartli tarzda rasmiy deb atash mumkin. Ular o‘ziga barcha o‘qituvchilar u yoki bu tarzda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ish yuzasidan munosabatlar va boshqaruv aloqalarini rahbariyat hamda o‘qituvchilar o‘rtasida, rahbar-o‘qituvchilar va ularning shu sohadagi hamkasblar orasida yuzaga keladigan faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari pedagogik jamoadagi munosabatlarning ikki tizimi shakllanadi:

Birinchi, butun pedagogik jamoani o‘z ichiga oluvchi shaxslararo axloqiy psixologik munosabatlar tizimi.

Ikkinchi, alohida o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikdagi munosabatlarga asoslangan tanlov aloqalari to‘g‘riligi qayd etiladi. Munosabatlarning ikki tizimi ham o‘qituvchilar faoliyatini tarkibi va uni tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarning kuchli ta’siri ostida yuzaga keladi.

Pedagogik jamoa faoliyatining samaradorligi asosan ularning qadriyatlar yo‘nalganligi tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Bu tizimga guruh a’zolarining o‘quvchilarga, tarbiya maqsadlariga o‘qituvchilarning ta’sir usullariga, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat uslubiga va boshqalarga nisbatan ustanovkalari kiradi. Agar bu jarayonda birlik bo‘lmasa, bu holda jamoada o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi, o‘qituvchilarni sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi kasalliklar rivojlanishi mumkin. Bu jaryonda pedagogik jamoaning psixologik muhiti katta rol o‘ynaydi. Bunday muhit qadriyatli yo‘nalganlik birlik va shaxslararo munosabatlarni namoyon bo‘lishida eng ahamiyatlilaridan biridir. Unga ko‘p miqdorda o‘qituvchining o‘zining his qilishi, pedagogik faoliyatga o‘zini qay darajada bag‘ishlashi bilan bog‘liqdir. Jamoadagi muhit har bir o‘qituvchining ijodkorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Sog‘lom muhit, jamoadagi mehnat, muloqot, optimizm, ishonch, himoyalanganlik hissi, tetiklik va shu kabi emotsional holatlar bilan belgilanadi.

Pedagogik jamoadagi muhit bir qator vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Muhitga pedagogik jamoani boshqarish uslubi, mehnat jamoalari ham ta’sir qiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, pedagoglar jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit insonlarning o‘zaro samimiy munosabatlari, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlariga bog‘liq. Shuningdek, jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch hissini tarkib topishi bilan izohlanadi

#### Adabiyotlar:

1. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: “Akademiya”, 2006.
2. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabat psixologiyasi.— T., 1997
3. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: “Akademiya”, 2008.

*Tirkasheva Mavluda Akram qizi*  
*O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali magistranti*

## OILAVIY MUAMMOLAR YECHIMINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Maqolada oilaviy muammolar yechimining psixologik xususiyatlari yoritilib, unda oilaning har bir a'zoning salohiyati, ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishning optimal modeli hisoblanib, oila me'yorini aniqlash uchun oila tizimining farovonligining tizimli ko'rsatkichi sifatida uning sifati bilan bog'liq bo'lgan savollar ishlab chiqilganligi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, asosan, nikohning barqarorligi, turmush o'rtoqlarning bir-biriga mos kelishi, oilaviy munosabatlar o'rganildi. Oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqarishligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oilaning har bir a'zosi, ijtimoiy ko'nikmalar, optimal model, me'yor, oila tizimi, farovonlik, tadqiqotlar, nikohning barqarorligi, turmush o'rtoqlar, bir-biriga mos kelishi, oilaviy munosabatlar.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕШЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ПРОБЛЕМ

**Аннотация:** В статье описываются психологические особенности решения семейных проблем, при которых рассматривается потенциал каждого члена семьи, оптимальная модель овладения социальными навыками, и это связано с его качеством как системного показателя благополучия семьи. С целью определения семейного стандарта и семейной системы были разработаны вопросы, и проводимые в связи с этим исследования в основном изучали стабильность брака, совместимость супругов, семейные отношения. В связи с перестройкой семьи как социального института выявлено, что она создаёт новую социальную ситуацию для развития личности.

**Ключевые слова:** Каждый член семьи, социальные навыки, оптимальная модель, норма, семейная система, благополучие, исследование, стабильность брака, супруги, совместимость, семейные отношения.

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOLVING FAMILY PROBLEMS

**Abstract:** The article describes the psychological features of solving family problems, in which the potential of each family member is considered, the optimal model for mastering social skills, and this is due to its quality as a systemic indicator of family well-being. Family system, in order to determine the family standard, questions were developed and studies conducted in connection with this mainly studied the stability of marriage, the compatibility of spouses, and family relations. In connection with the restructuring of the family as a social institution, it was revealed that it creates a new social situation for the development of the individual.

**Keywords:** Each member of the family, social skills, optimal model, norm, family system, well-being, research, marital stability, spouses, compatibility, family relationships.

**Kirish.** Jahonda oila urf-odatlarini ahamiyatining zaiflashuvi, noto'liq oilalar sonining ko'payishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizligi kabi holatlarning jamiyatga ta'sir etishi sababli ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish instituti bo'lgan oilani mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oila institutini qo'llab-quvvatlash, psixologik xizmat ko'rsatishni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash, inson qadrini yuksaltirish hamda ulug'lashga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur asoslari yaratilmoqda: «Xalq bilan muloqot, odamlarning dard-u tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi...» g'oyalari hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...».

**Asosiy qism.** Oila qurilayotganda kamdan kam yoshlar munosabatlarda shunchalik baxtsiz bo'lib qolishi va ajralish haqida jiddiy o'ylashadi. Ammo oilaviy hayot ko'pincha kutilmagan qiyinchiliklar va muammolar bilan to'la bo'ladi.



Agar munosabatlar boshi berk ko‘chada bo‘lsa, bu vaziyatda ikkala juftlik ham uni qutqara oladi. Ularning ikkalasi ham oilani ajralish yoqasida ushlab turishga qodir ekan, ular birgalikda harakat qilishlari kerak. Bu holatni yengish oson kechmaydi, shuning uchun er-xotin sabr-toqatli bo‘lishlari va uyg‘unlikni tiklash uchun uzoq hamda samarali ishlarga moslashishlari kerak. Ammo nikohda sevgi saqlanib qolgan bo‘lsa, uni qutqarishga harakat qilish kerak.

**Nima uchun oilalar ajrashishadi?!** Er va xotin nima uchun ajralishni xohlashlarini tushunishlari kerak. Har bir er-xotin o‘ziga xos bo‘lsa-da, munosabatlardagi muammolar o‘xshash naqshlarga va shunga o‘xshash sabablarga ega:

- Aldash, hatto bir-biriga g‘amxo‘r juftliklarda ham ajralishning eng keng tarqalgan sababidir. Xiyonatning og‘rig‘i shunchalik kuchliki, ko‘pchilik uni yengib, davom eta olmaydi.

- Tez-tez to‘qnashuvlar va janjallar ajralish haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradigan yana bir omil hisoblanadi. Oiladagi qulay muhit baxt va munosabatlardagi o‘zaro tushunishning asosiy shartidir.

Oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish ko‘p jihatdan ularning muammolarini psixodiagnostik ma‘lumotlar to‘plami asosida to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq. Oilaning psixologik diagnostikasi quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- oila muammosi psixolog yoki boshqa mutaxassislar (psixiatr, defektolog, advokat va boshqalar) ta‘sir obyekti ekanligini aniqlash;

- psixologik yordam obyektlarini aniqlash (bola, uning ota-onasi, oilaning boshqa odatlari);

- ta‘sir qilish usullarini tanlash (farzand, er-xotin, bola va ota, bolalar guruhi, ota-onalar, butun oila bilan individual ish);

- tuzatish jarayonining taktikasini aniqlash uchun tuzatish ta‘siri jarayonida psixodiagnostik tahlilini o‘tkazish (oilani a‘zolarining psixologga va bir-biriga bo‘lgan munosabati, ularning xatti-harakatlarining xususiyatlari va boshqalar).

Bu muammolarni hal qilishda oilaning murakkabligi, oilaning shakllanishiga ko‘plab tashqi va ichki omillar ta‘sir ko‘rsatadigan, shuningdek, oilaviy muammolarni hal qilishda yagona yondashuvning yo‘qligi to‘sqinlik qilmoqda.

Mavjud nazariy tushunchalar orasida G. Kisarchuk oilani o‘rganishning ikki xil yondashuvini ajratib ko‘rsatadi: **individual** va **tizimli**.

Shaxsiy yondashuv bilan oila psixologga murojaat qilgan oila a‘zosi tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan stress omili sifatida qaraladi. Psixologning doimiy vazifasi oila a‘zolarining oila moslashuvini qiyinlashtiradigan individual xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tizimli yondashuv diagnostika markazini tizim sifatida oiladagi individual jarayonlardan guruh jarayonlariga o‘tkazadi hamda oila a‘zolarining muammolari oila tizimining disfunktsiyasining aksi sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv oiladagi guruh jarayonlarini hisobga olib, oila va uning hayoti haqida har tomonlama tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.

Individual yondashuvning bir qismi sifatida diagnostika vositalari oilaviy hayotning nikoh munosabatlari, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiya uslublari va ularning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga ta‘siri kabi sohalarini o‘rganish uchun ishlatiladi.

Psixologik diagnostika tizimli yondashish oilaning tuzilishi va uning yaxlit organizm sifatidagi faoliyatni tushunishga asoslanadi. Oila tizimini tahlil qilishning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular oilaviy hayotning turli tomonlarini ko‘rib chiqadigan bir nechta yondashuvlarning (tarkibiy, funksional va boshqalar) integratsiyalashuvi natijasidir.

Oilani maqsadli tadqiq qilishni tashkil etish maqsadida quyidagi oila modellarini aniqlab, *ideal*, *haqiqiy*, *normal*, *g‘ayritabiiy*, “*normallik* – anomaliya” shkalasi bo‘yicha oila modellarining tipologiyasini D. Olson tomonidan ishlab chiqilgan oila tipologiyasini ko‘rishimiz mumkin.

V. N. Drujinin “normal haqiqiy oila” mezonlarini belgilash zarurligini ta‘kidlab, tadqiqotda uni bir butun sifatida tavsiflovchi oila modellarining barcha tipologik anomaliyalar, ma‘lum bir me‘yordan turli xil og‘ishlar asosida qurilganligi bilan asoslanadi. Hozirgacha ushbu fundamental muammo to‘g‘ri yechimini topmagan, garchi *oilaning psixologik salomatligini* uning me‘yori sifatida aniqlash nuqtayi nazaridan tadqiqotlar mavjud.

Oilaning psixologik salomatligi oila barqarorligining subyektiv omillari majmui hisoblanadi:

- oila a‘zolarining hayotning asosiy yo‘nalishlarida qadriyatlarga yo‘naltirilganligi;
- funksional va rollarning izchilligi;
- ijtimoiy va rolning adekvatligi;
- hissiy qoniqlik;

• oilaning uzoq umr ko‘rishiga e‘tibor qaratish psixologik sog‘lom oila amalga oshirish uchun sharoit yaratilishi.

Oilaning har bir a‘zosining salohiyati ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning optimal modeli hisoblanadi. Oila me‘yorini aniqlash uchun oila tizimining farovonligining tizimli ko‘rsatkichi sifatida uning sifati bilan bog‘liq bo‘lgan savollar ishlab chiqilmoqda. Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, asosan, nikohning barqarorligi, turmush o‘rtoqlarning bir-biriga mos kelishi, oilaviy munosabatlarni o‘rganishga tegishli.

Eng to‘liq tizimli yondashuv A.B. Xolmogorovning integral modelida keltirilgan. Ushbu modelga muvofiq, ma‘lum bir oila ma‘lum bir davr mobaynida nisbatan o‘zgarmagan va hayot siklining tegishli bosqichlari bilan taqqoslanadigan parametrlar bo‘yicha o‘rganiladi.

Oilaga psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyati, psixodiagnostik ma‘lumotlar asosida uning muammosini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq. Oilani o‘rganishning quyidagi psixologik metodlari mavjud:

• amaliyotchi psixologning kasbiy yetukliklarini kengaytirishga, ma‘lumotlarni nazariy umumlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar;

• diagnostika, uning yordamida ma‘lum bir oila bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan aniq ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi;

• tuzatish-diagnostik yoki psixoterapevtik, oila bilan tuzatish ishlarining shakli va mazmunini aniqlash metodi.

Shu bilan birga, oilaning psixodiagnostikasi quyidagi muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi:

• oila muammosi psixolog yoki boshqa mutaxassislar ta‘sir obyekti ekanligini aniqlash;

• psixologik yordam obyektini aniqlash (farzand, uning ota-onasi, butun oila);

• ta‘sir qilish usulini tanlash (farzand, uning ota-onasi, er-xotin, bola va ota, bolalar guruhi, ota-onalar, oila bilan individual ishlash);

• tuzatish jarayonining taktikasini (oila a‘zolarining psixologga va bir-biriga bo‘lgan munosabati, xatti-harakati va boshqalar) aniqlash maqsadida korreksion aralashuv vaqtida psixodiagnostikani amalga oshirish.

Ro‘yxatda keltirilgan vazifalarni hal qilish, birinchi navbatda, oilaning shakllanishiga ko‘plab tashqi va ichki omillar ta‘sir ko‘rsatadigan tizim sifatida murakkabligi va oilaning muammolarni hal qilishda yagona yondashuv.

Mavjud nazariy tushunchalar orasida Z.Kisarchuk oilani o‘rganishning ikkita qutbli yondashuvini ajratib ko‘rsatadi: individual va tizimli.

Shaxsiy-individual yondashuv bilan oila psixologga murojaat qilgan oila a‘zosi tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan stress omili sifatida qaraladi. Psixologning vazifasi oila a‘zolarining moslashuvini qiyinlashtiradigan individual xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tizimli yondashuv diagnostika markazini individuallikdan tizim sifatida oilaning guruh jarayonlariga o‘tkazadi

Individual yondashuvning bir qismi sifatida tashxis vositalari oilaviy hayotning nikoh munosabatlari, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, tarbiya uslublari va bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga ta‘siri kabi sohalarini o‘rganish uchun ishlatiladi.

Nikoh munosabatlarining diagnostikasi birinchi navbatda nikohdan qoniqishni kamaytiradigan va shuning uchun uning barqarorligini buzadigan omillarni aniqlashga qaratilgan.

Strukturaviy va funksional yondashuvga asoslangan nikoh muvofiqligi darajasini aniqlash (muvofiqlik qobiliyatda namoyon bo‘lganda).

Er-xotinlar izchil oilaviy rollarga ega bo‘lgan yaxlit, muvozanatli oilaviy juftlikni shakllantirish, ularning turli xususiyatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi:

• oila a‘zolari individualligining psixofiziologik xususiyatlari, turmush o‘rtoqlarning yuqori asabiy faoliyati turlarining mosligini, ularning temperamentlarini ekspress usullardan foydalanish mumkin bo‘lgan holda aniqlashni nazarda tutadi (testlar - anketalar Eysenk, Strelau va boshqalar);

• oila a‘zolarining xarakterli xususiyatlari (Kettel so‘rovnomasi (16 RR), MMRI va boshqalar);

• Er-xotinning qiymat-motivatsion sohasining xususiyatlari (Rokeach-Yadovning qiymat yo‘nalishi usuli, TUV Shmelev-Boldirevoy usuli, “Oilaviy qadriyatlar” usuli. Toroxtiya va boshqalar);

• psixologik oilaviy rollarning o‘zaro bog‘liqligi (A. Volkova va G. Trapeznikovaning ROPD usuli, S. Kovalyovning funksional-rol izchilligini aniqlash usuli, “Ijtimoiy-rolning adekvatligi” usuli va boshqalar).

Moslashuvchan yondashuvga asoslangan nikoh munosabatlarining diagnostikasi shaxslararo munosabatlar, oiladagi muloqot va o‘zaro ta‘sirning xususiyatlarini o‘rganish, er-xotinlarning bir-biriga moslashuvi uchun zaxiralarni izlash, tushunmovchilik va nizolarga olib keladigan tomonlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Oilaviy munosabatlar psixodiagnostikasining obykti sifatida bolali oila alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pincha butun oilaning muammolari farzandning muammolarida aks etadi.

1. Ota-onalar va bola bilan suhbatda, shuningdek, test usullari (“to‘liq bo‘lmagan jumlar”, “oilaviy rasm” va boshqa proyektiv usullar) yordamida ziddiyat zonasini aniqlash.[35]

Bunday holda, farzand hayotining turli tomonlarini (uning oiladagi mavqeyi, ota-onaga, aka-uka va opa-singillarga, boshqa qarindoshlarga munosabati, oiladagi tarbiyaning xususiyatlari, mukofot va jazolardan foydalanish va bolaning munosabati) o‘rganish muhimdir. Ularga, maktabga (bolalar bog‘chasiga) va tengdoshlariga, o‘qituvchilarga munosabati), uning qiziqishlari va imkoniyatlarini aniqlash.

Shu bilan birga, quyidagi ziddiyatlarini ajratish mumkin: oilaning rasmiy yoki norasmiy tengdoshlar uyushmalari, davlat ta‘lim muassasalari (maktab, bolalar bog‘chasi), individual o‘qituvchilar yoki o‘qituvchilar bilan ziddiyatli munosabatlar.

2. Bola bilan suhbat davomida ziddiyatning mazmunini aniqlash, shuningdek, farzandning individual xususiyatlarini, uning aqliy va birinchi navbatda hissiy, holatini (kayfiyati, tashvish darajasi, qo‘rquv va boshqalar) aniqlashga qaratilgan psixodiagnostika usullaridan foydalanish. boshqalar), atrofingizdagilar bilan o‘zaro munosabatlarning tabiati.

Amalda ular Luscher testi, Shpilberger-Xanin xavotirlik darajasini o‘z-o‘zini baholash shkalasi, SAN, depressiya shkalasi, Budassi yoki Dembo-Rubinshteyn o‘zini-o‘zi baholash usuli, subyektiv nazorat darajasi shkalasi, Uy daraxti kabi usullardan foydalanadilar. Mavjud bo‘lmagan hayvonlar testi, oilaviy rasm va boshqalar.

3. Bolaning konfliktidagi xatti-harakatlarining xususiyatlarini uni bevosita kuzatish asosida aniqlash, ya‘ni Tomas testi, proyektiv usullar (masalan, Rozensweig testi) bolalar bilan suhbatni qo‘llash ma‘lumotlari asosida. bolaning muammolari haqida. Bunday holda, bolalar muammolarining yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning xatti-harakatlaridagi og‘ishlar ularning hissiy sohasidagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, uyat, kamsitish, aybdorlik hissi tufayli yuzaga keladi.

O‘smirlarning muloqot doirasini kengaytirish, mustaqillik, o‘zini-o‘zi ma‘qullashga bo‘lgan xarakterli istagi yetarli darajada muloqot qilish qobiliyatining yo‘qligi, o‘z-o‘zini hurmat qilmasligi, da‘volar darajasining yetarli emasligi, boshqalarga talablarning kuchayishi tufayli boshqalar bilan nizolarga olib kelishi mumkin.

Shu tarzda olingan ma‘lumotlar psixolog va tarbiyachining bola va oila bilan keyingi faoliyati uchun asosdir.

Agar oila bolaning aniqlangan ziddiyat zonasi bo‘lsa, psixologik tashxisning keyingi yo‘nalishi uni oilada tarbiyalashning xususiyatlarini aniqlashdir.

Oiladagi tarbiya jarayonini tahlil qilar ekanmiz, psixolog birinchi navbatda tarbiya uslubini aniqlab olishi zarur. Agar bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shmaydigan uslub topilsa, ota-onalarning bolaga nisbatan noto‘g‘ri munosabati sabablarini aniqlash kerak. Eidemillerning “Oilaviy tashvish tahlili”, “Oilaviy munosabatlar tahlili” so‘rovnomalari, ota-onalarning munosabati bo‘yicha test anketasi qo‘llaniladi. O.Vargi, A.Etkindning munosabatlarning rang testi, Liri testi va boshqalar.

“Oila genogrammasi” metodi oila a‘zolarining bir-biriga bog‘lanish ko‘rsatkichi, hissiy bog‘liqligini ko‘rsatadigan an‘anaviy belgilar yordamida ushbu munosabatlarning tabiati haqidagi oila a‘zolarining g‘oyalarini grafik tasvirlashni o‘z ichiga oladi.

Oila a‘zolaridan qaysi biri qayerda ekanligi aniq bo‘lishi uchun imzo qo‘yib, doira shaklida chizish so‘raladi. Bu usul oilaning psixologik diagnostikasiga tizimli yondashish uchun asosdir .

Oila tizimini tahlil qilishning turli sxemalari mavjud bo‘lib, ular aslida oilaviy hayotning turli tomonlarini ko‘rib chiqadigan bir nechta yondashuvlarning (tarkibiy, funksional va boshqalar) integratsiyalashuvi natijasidir.

Shunday qilib, oilaning psixologik holatini o‘rganish metodologiyasi oila faoliyatining ayrim shakllarini tashxis qiluvchi individual metodlar to‘plamidan iborat:

- har bir oila a‘zosining asosiy sohalarida hayotiy pozitsiyalarining yaqinlik darajasini aks ettiruvchi “oilaviy qadriyatlarining o‘xshashligi”;

- ichki oilaviy integratsiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishga asoslangan funksional rollarning muvofiqligi;

- oiladagi munosabatlarning affektiv, kognitiv va xulq-atvor sohalarida muvozanat zarurligini hisobga olgan holda qurilgan “mikroiijtimoiy munosabatlardagi adaptivlik”;

- “emotsional qoniqish”, bu oila a‘zolarining umidlari va real yutuqlariga asoslangan;

• “oilaning uzoq umr ko‘rishga intilishlari” shaxsning oiladagi ehtiyojlarini rivojlantirish va amalga oshirish xususiyatlarini ochib beradi.

Oilaning psixologik salomatligining umumlashtirilgan ko‘rsatkichi har bir usul uchun ko‘rsatkichlar to‘plami sifatida belgilanib, oila farovonligining umumiy tendensiyalarining ajralmas xarakteristikasi bo‘lishi mumkin.

Strukturaviy nazariyaga ko‘ra, oiladagi disfunktsiya qat’iy chegaralar yoki sust chegaralar (oila a’zolarining atrof-muhit bilan juda ko‘p aloqada bo‘lishi) tufayli yuzaga keladi).

Disfunktsional oilalarda avlodlar o‘rtasidagi chegaralar noaniq bo‘lib, bu avlodlararo koalitsiyalarga olib keladi, masalan, “ota-ona-bola” quyi tizimlarida birdamlik ota-ona quyi tizimiga qaraganda ancha yuqori bo‘lsa (oila guruhida esa, o‘z navbatida) optimal bo‘ladi.

Disfunktsional oilalarda, masalan, bolaning ta’siri ota-onalarning ta’siridan kuchliroq bo‘lsa yoki avlodlararo koalitsiyani tashkil etgan oila a’zolari boshqa oila a’zolarining maqomlari pastroq deb hisoblanganda, disfunktsional oilalarda ko‘pincha bunday holatlar kuzatiladi.

Bosqichlarda oilaning tipik vazifalari va muammolari, oilaning tarkibiy muammolarining mohiyatini aniqlash osonroq bo‘ladi.

Oilaning tarixiy rivojlanishi, ajdodlar oila tizimi parametrlarining unga ta’sirini aniqlash maqsadida tahlil qilinadi. Oila tarixini tahlil qilishda “Oila genogrammasi” metodikasidan tashqari, “Vaqt chizig‘i”, “Oila xaritasi” va boshqalar kabi grafik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Psixologlar tomonidan oilaning faoliyati uchun muhim voqealar, uning tuzilishidagi o‘zgarishlar o‘rganilgan. Avlodlar oilalaridagi voqealarning mumkin bo‘lgan tasodifi, oila a’zolarining munosabatlari xususiyatlarini keyingi avlodlarga o‘tkazishni bilvosita belgilaydi.

Oiladagi aloqalarni tahlil qilib, quyidagi natijalarni ko‘rishimiz mumkin:

- oilada o‘zaro munosabat qoidalari (aniq yoki yashirin);
- muloqotning ochiqlik darajasi, yashirin ma’lumotlarning mavjudligi, taqiqlangan mavzularni muhokama qilish;
- his-tuyg‘ularning ochiq namoyon bo‘lish imkoniyatining mavjudligi;
- bevosita muloqotning ustunligi;
- munosabatlarning bir-birini to‘ldiruvchanligi.

Shu bilan birga, bir oila a’zosining muayyan xatti-harakatlari boshqasining xatti-harakatlarini qo‘zg‘atishi mumkin, bu esa birinchisining xatti-harakatini kuchaytiradi, sehrli doirani hosil qiladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha oilaga tizimli yondashish asosida ish olib boruvchi simptomatik xulq-atvor (oiladagi ma’lum bir tartibsizlik) odamlar o‘rtasidagi yashirin muloqot rolini o‘ynaydi, bu oilada mavjud munosabatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lish ehtimolini istisno qilganda kuzatiladi.

Suhbatlar yordamida oiladagi muloqotning xususiyatlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Voqealar bilan bog‘liq ketma-ketligini aniqlash simptomatik xatti-harakatlarni tavsiflovchi javoblarni taklif qiladigan “Bu qanday sodir bo‘ldi?”, “Bu holat nimaga olib keldi?” kabi xolis savollarni berib, suhbat yordamida siz savollarga javoblarni tahlil qilish asosida oiladagi munosabatlarning xususiyatlarini, oila a’zolari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash mumkin (“ko‘proq-kamroq”, “yaxshiroq-yomonroq” toifalari yordamida, “ko‘pincha-kamroq”, “yaqinroq-uzoqroq” va boshqalar). Masalan: “Otaga kim yaxshi munosabatda bo‘ladi?” Bundan tashqari, oila a’zolarining qarshiligini yengish uchun foydalanish tavsiya etiladi.

**Xulosa.** Oilaviy muloqot, shaxsdan farqli o‘laroq, uning tuzilishini, oila tarixini, oilaviy hayot siklining tipik muammolarini tahlil qilishga tizimli yondashish oiladagi guruh jarayonlarini hisobga olish, oiladagi munosabatlar haqida har tomonlama tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Akramova F.A. va boshqalar. Oila ensiklopediyasi. – T: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.
2. Akramova F.A. Oiladagi zo‘ravonlik profilaktikasi va ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi: Monografiya. – Toshkent: “Lesson-press” nashriyoti, 2021. – 138 b.
3. Андреева Т.В. Семейная психология. - М., 2004. - 242 с.
4. Антонов А.И. Семья: функции, структуры, теории семейных изменений. Курс лекций / А.И. Антонов - М.: Знание, 2009. - 198 с.
5. G‘affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. – T. 2002. – 214 s.
6. Davletshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiy psixologiya. – T.. 2002. – 231 s.
7. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2006. – 142 b.

**Muxtorov Erkin Mustafoyevich**  
*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Zaripova Zarina Eshpo'latovna**  
*Buxoro psixologiya va xorijiy tillari instituti magistranti*

## **O‘SMIRLARDAGI PSIXOLOGIK MUHOFAZA HAQIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada o‘smirlarning o‘zini-o‘zi psixologik muhofaza qilish jarayoni va uning shakllanish dinamikasiga oid o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish olindi. Psixologik muhofaza doirasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixologik muhofaza imkoniyatlarini o‘rganish, o‘smirlardagi psixologik muhofaza jarayonini tadqiq qilish bilan bog‘liq tadqiqot metodikalarini tanlash va qo‘llash, o‘smirlardagi hissiy bezovtalik va psixologik muhofaza mutanosibligi ko‘rsatkichlarini o‘rganish va tadqiq qilish, o‘smirlarda o‘zini-o‘zi psixologik muhofaza qilish tizimiga oid ayrim ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘rganish va tadqiq qilish, olingan empirik ma‘lumotlar va ularning statistik tahlil natijalariga tayanib tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi: o‘smirlardagi psixologik muhofaza imkoniyatlarini o‘rganish jarayoni ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ilk bor tadqiq qilindi, psixologik muhofaza muammosiga oid ilmiy-nazariy manbalar muayyan mezonlar asosida tahlil etildi va umumlashtirildi, muayyan mezonlar asosida ilk bor psixologik muhofaza ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish uslubi ishlab chiqildi, o‘zini-o‘zi psixologik muhofaza qilish jarayonining o‘smirlik davriga xos xususiyatlari, umumiy va qiyosiy-tipik ko‘rsatkichlari dinamikasi tadqiq qilindi. O‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan psixologik muhofaza jarayonining ijtimoiy-psixologik muammo sifatida talqin qilinishi, psixologik muhofaza mezonlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi, psixologik muhofaza ko‘rsatkichlari dinamikasi haqidagi ilmiy mulohazalar bayon etildi.

**Kalit so‘zlar:** psixologik muhofaza, iroda, metodologiya, mexanizm, individual, komponent, adekvat, malaka, barqarorlik, adaptatsiya, qobiliyat, psixoanalitik, fenomen, strategiya.

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ У ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация:** В статье изучен процесс психологической самозащиты подростков и изучение специфических социально-психологических особенностей динамики её формирования. Проведён анализ научной литературы в рамках психологической защиты, изучение возможностей психологической защиты, специфических для подросткового периода, выбор и применение методов исследования, связанных с изучением процесса психологической защиты у подростков, эмоциональных нарушений у подростков и психологических показателей защищённости, исследована динамика некоторых показателей системы самопсихологической защиты у подростков, на основании полученных эмпирических данных и результатов их статистического анализа даны соответствующие научные выводы и практические рекомендации. Научная новизна исследования: процесс изучения возможностей психологической защиты у подростков впервые изучен как социально-психологическая проблема, на основе определённых критериев проанализированы и обобщены научно-теоретические источники, связанные с проблемой психологической защиты, а показатели психологической защиты впервые определены на основе определённых критериев, разработана методика исследования, изучены особенности процесса самопсихологической защиты в подростковом возрасте, динамика общих и сравнительно-типических показателей. Описаны трактовка характерного для подросткового возраста процесса психологической защиты как социально-психологической проблемы, выделение и исследование критериев психологической защиты, динамика показателей психологической защиты.

**Ключевые слова:** психологическая защита, воля, методология, механизм, личность, компонент, адекватность, компетентность, устойчивость, адаптация, способность, психоаналитический феномен, стратегия.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF IDEAS ABOUT PSYCHOLOGICAL PROTECTION IN ADOLESCENTS

**Abstract:** *In the article, the process of self-psychological protection of adolescents and the study of specific socio-psychological characteristics of the dynamics of its formation was studied. Analysis of scientific literature within the framework of psychological protection, study of the possibilities of psychological protection specific to the period of adolescence, selection and application of research methods related to researching the process of psychological protection in adolescents, emotional disturbance in adolescents and psychological studying and researching the indicators of protection ratio, studying and researching the dynamics of some indicators of self-psychological protection system in adolescents, based on the obtained empirical data and the results of their statistical analysis relevant scientific conclusions and practical recommendations were given. The scientific novelty of the research: the process of studying the possibilities of psychological protection in adolescents was studied for the first time as a socio-psychological problem, the scientific and theoretical sources related to the problem of psychological protection were analyzed and summarized based on certain criteria, and the indicators of psychological protection were determined for the first time based on certain criteria the research method was developed, the characteristics of the process of self-psychological protection during adolescence, the dynamics of general and comparative-typical indicators were studied. The interpretation of the process of psychological protection characteristic of adolescence as a socio-psychological problem, the selection and research of psychological protection criteria, and the dynamics of psychological protection indicators were described.*

**Key words:** *psychological protection, will, methodology, mechanism, individual, component, adequate, competence, stability, adaptation, ability, psychoanalytic, phenomenon, strategy.*

**Kirish.** Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'lga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bugun barcha davlatlarda yoshlarning ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan shaxs va uning ijtimoiy faolligi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan psixologik muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Vaholanki, iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, umuman psixologik muhofaza jarayoni shaxs tabiati uchun xarakterli bo'lgan boshqa xil mulohazalar orasida ham alohida ajralib turadi. Jumladan, biologik mulohazada shaxsning individ yoxud biologik mavjudot sifatidagi ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog'liq harakatlar tushunilsa, ijtimoiy muhofazada esa shaxsning davlat va jamiyat tomonidan ma'lum me'yoriy hujjatlar asosida himoya qilinishi tushuniladi. Iqtisodiy muhofaza jarayoni shaxsning moddiy ta'minlanganlik darajasini belgilashga qaratilgan tadbirlar, qonunlar va rasmiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ko'pgina adabiyotlarda ma'naviy-mafkuraviy muhofaza jarayoniga dahldor mulohazalar ham mavjud. Bunda asosan yoshlardagi milliy e'tiqodni mustahkamlash ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Insonning psixologik himoyasi esa uning shaxs sifatidagi faoliyati hamda faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi o'ziga xos psixologik imkoniyatlar bilan belgilanadi va baholanadi.

Psixologik muhofaza metodologiyasini talqin etishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o'z mehnati mahsullaridan ijtimoiy qoniqish jarayonini tahlil qilish va rivojlantirishga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarning o'rni va istiqboliga ham alohida e'tiborni qaratish lozim, deb o'ylaymiz. Masalan, F.Xertsberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. (Hukzbukg - 1959). Mazkur izlanish mahsuliga ko'ra, mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o'zini-o'zi bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e'tibor berilsa, shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik

jarayondangina iborat bo'lgan mehnat sharoiti yaratilsa, shaxs faolligiga salbiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmagan ekan, faoliyat mahsuli ham insonning o'z faoliyatidan ijtimoiy ma'nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo'ladi. Psixologik muhofaza jarayoni esa xuddi ana shu yerda o'z ta'sirini, ya'ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma'lum darajada yuqori saviyaga ko'tara olish san'atini ko'rsatishi lozim.

**Adabiyotlar tahlili va natijalar.** Barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda shaxs psixologik muhofazasi uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida shaxs psixologik muhofazasi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni G.M. Andreyeva, M.G. Davletshin), YU.M. Zabrodin, D. Karnegi, V.M. Karimova, B.D. Parigin<sup>5</sup>, T.B. Snigireva, A.V. Filippov, P.N. Shixirev, G'.B. SHoumarov, V.A. YAdov, E.G'. G'oziyev; shaxs faolligi bilan bog'liq tadqiqotlarni K.A. Abulxanova-Slavskaya, L.P. Grimak, B.F. Lomov<sup>6</sup>, N.S. Leytes, E.A. Golubeva, B.R. Qodirov, A.I. Lipkina, A.V. Petrovskiy, S.L. Rubinshteyn; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni A.G. Asmolov, Sh.A. Nadirashvili, D.N. Uznadze, P.N. SHixirev, ijtimoiy ehtiyojlar va faoliyatdan qoniqish bilan bog'liq tadqiqotlarni L. I. Bojovich, A. A. Bratko, V. K. Vilyunas B. I. Dodonov, T.A. Kitvel, A.N. Maslow; shaxsga individual yondashuvning ta'minlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni E.A. Klimov, B.S. Merlin, N.M. Peysaxov, V.M. Rusalov, L.S. Slavina, A. Strelyau, B.M. Teplov; shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollari bag'ishlangan tadqiqotlarni A. G. Zdravomislov, E. S. Kuzmin, A. F. Lazurskiy, V. N. Muasishev, V.V. Stolin, A.I. Sherbakov, V.V. Bogoslavskiy; shaxsga hissiy-irodaviy sifatlar asosida yondashuv istiqbollarini tadqiq qiluvchi tadqiqotlarni F.V. Bassin, F.E. Vasilyuk, L.D. Gissen, P.B. Zilberman, O.A. Konopkin, N. Majidov, N.I. Naenko, A.M. Priojan, V.V. Rozelnblat, X. Xekxauzen, G. Eberleyn, D.O. Nevv; ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni M.S. Breinshteyn, I.V. Dubrovina, U.V. Kala, V.V. Rudik, X.O. Leymets, G.O. Mattes, Yu.M. Pratuivich, Yu.L. Sierd mehnat jamoalarida psixologik xizmat vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlarni (V.I. Gerchikov, O.I. Zotova, K. Izard, G.A. Ishutina, G.A. Kovalev, A.B. Leonova, V.G. Loos, I.I. Popova, V.D. Parigin, T.I.Saksakulm, S.M.Saylus alohida qayd etish mumkin. Bu esa psixologik muhofaza jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga ilmiy-nazariy va metodologik manba sifatida yordam beradi deb o'ylaymiz. Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi, prinsiplari va vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar mazmunida psixologik xizmat muammosining ham ma'lum ma'noda yashirinib yotganligini ko'ramiz. Zero, bugungi kungacha yaratilgan barcha ijtimoiy psixologik prinsiplarning asosiy mezonlari bo'lgan "shaxs va faoliyat birligi", "ongning faoliyatda taraqqiysi", "muomala", "individual yondashuv", "munosabat", "turmush tarzi", "ijtimoiy ustanovka", "borliqni obyektiv va subyektiv aks ettirish", "jamoat", "ijtimoiy qoniqish", "ijtimoiy xulq-atvor" kabilarning jamiyatdagi amaliy o'rni va istiqbolini psixologik xizmat tatbiqisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlarini asosida yondashuv muammosining (M.G.Andreyeva), YU.M.Zabrodin, D. Karnegi, E.G'oziev, V.M.Karimova, I.S.Kon, G.B. Koralev, B.D.Parigin, E.V.SHoroxova, G'.B.Shoumarov) shaxs va faoliyat uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta'minlash muammosining (Abulxanova-Slavskaya J.Bruner, L.S.Vigotskiy, M.G. Davletshin, U.Djems, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L. Rubinshteyn, V.A.Tokareva, D.I.Feldishteyn, E.Fromm, Qodirov B.R.) o'rta tashlanishi psixologik muhofaza metodologiyasi haqida jiddiroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

1-jadval.

### O'smirlarda himoya mexanizmlari

Himoya mexanizmlari	Mazmuni
Tajovuzkorlik	Individning unga past baho bergan, o'zi haqidagi tasavvuriga ikkilanishga sababchi shaxsga bo'lgan reaksiya
O'ylash	Noxush hissiyot, his-tuyg'ularning bir obyektidan talabga muvofiq bo'lmagan boshqa obyektga ko'chirilishi
Tasavvur	O'zining hissiyoti, istak-xohishlari va xususiyatlarini o'zi bilmagan holda boshqa ishga ko'rishi

Ideallashtirish	O'zini "ideallashtirish" o'z xatolarini, kamchiliklarini tan olmaslik
Qabul qilmaslik (inkor etish)	Individning voqea va hodisalarni qabul qilmasligi, inkor etishi va u haqdagi bilimlarini "men bu haqda hech nimani bilmasdim", "bu meniki emas", "menga shunday aytdilar", "men bunday aytmagani edim" kabilar bilan chegaralanishi.
Unutish	Shaxsning yoqtirmagan, noxushliklarini unutishi: odamlarning timsoli, ismi, muloqot vaqtida noxush yoqimsiz xotiralarning esga tushurilishi kabi holatlar va hokazo
Diskreditatsiya	Xabar manbalarining past baholash "men-timsol", "hamma gapirsa ham, sen gapirma", "kim hakam?" kabi gaplar bilan shaxsni kamsitish va unga past baho berish
Identifikatsiya	O'zini boshqa odam bilan va namunali xulq-atvoriga ega guruh bilan solishtirish va o'z xulq-atvori va munosabatini atrofdagilar bilan taqqoslab, hayot tarzini yengillashtirish
Konversiya (o'zgarmoq)	"Men"ligi yuqoriligini saqlab qolib o'ziga noxush holatlarni, vaziyatlarni hazilga yoyadi va muomalada bo'ladi hamda berilgan tanbehlarini hazil deb qabul qiladi.

Ushbu psixologik himoya mexanizmlarining berilishi orqali muallif shaxs xulq-atvori formalarida tashqi (atrof) muhitdan va tajovuzkorlikdan o'zini-o'zi himoya qilish holatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixologik muhofaza ko'rsatgichlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik omillariga jiddiy e'tiborni qaratish o'smir shaxsi ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu jarayonning kechishida hududiy va yoshga oid omillarning ham o'ziga xos o'rni bo'lishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan qishloqda istiqomat qiluvchi o'smirlarga xos bo'lgan psixologik muhofaza ko'rsatgichlari va uning imkoniyatlari hamda o'smirlarning boshi va oxirida psixologik muhofaza imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun o'smirlarda alohida tadqiqotlar olib borilib, empirik ma'lumotlar yig'ish va uning natijalarini ijtimoiy psixologik talablar asosida tahlil qilish masalasi qo'yilgan edi. Mazkur paragrafda ushbu masalaga yanada ilmiy oydinliklar kiritish orqali qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan.

Albatta, psixologik muhofaza ko'rsatgichlari ko'lamini bitta tadqiqotning o'zida to'liq yoritish qiyin. Shunday bo'lsa-da biz tadqiqot maqsadidan kelib chiqib shartli ravishda biz qabul qilgan psixologik muhofaza mezonlari asosida psixologik muhofaza ko'rsatgichlarini o'rganishga, tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarib amaliy tavsiyalar berishga harakat qildik.

Mazkur nazariy va eksperimental jihatdan asoslangan ilmiy prinsiplardan kelib chiqib umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi o'smirlar (5-,9-sinf o'quvchilari) faoliyati o'rganildi. 5-sinf ( $n=50$ ) hamda 9-sinf ( $n=50$ ) o'quvchilari tanlandi va barcha respondentlarda tadqiqot metodikalari talablari bo'yicha tegishli empirik ma'lumotlar olindi.

Har bir olingan natija maxsus tartibda qabul qilingan mezonlar va ballar tizimiga kiritilib quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini berdi:

- O'smirlardagi psixologik muhofaza jarayonining kechishi va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.
- O'smirlardagi turli ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq bezovtalik darajalarini aniqlash.
- O'smir bezovtaligi va asabiylik holatlari bilan bog'liq o'zini-o'zi nazorat qilish haqidagi subyektiv tasavvurlariga baho berish.
- O'zini-o'zi hissiy baholash zahirida yotuvchi asabiylik-xotirjamlik, toliqqanlik-ishchanlik, tushkunlik-ko'tarinkilik va o'z-o'ziga ishonch asosida o'smir faoliyati motivatsiyasiga baho berish.
- Ziddiyatli holatlarni bartaraf etish uchun o'smir individual imkoniyatlari va xulq-atvor motivatsiyasiga xos yo'nalishlarni belgilash.
- O'smir shaxsidagi temperament sifatleri ekstroversiya, introversiya, neyrotizm, hissiy barqarorlik, hissiy beqarorlikning psixologik muhofaza ko'rsatgichlari ta'siriga baho berish.
- Psixologik muhofaza va o'smir shaxsining profillashgan xususiyatlari o'rtasidagi ijtimoiy psixologik uyg'unlikni izohlab berish va hokazo.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha har bir olingan natija tadqiqotning yagona maqsadi asosida birlashtirilib umumiy tartibda tadqiq qilindi.



**Tomas uslubi bo'yicha psixologik muhofaza motivatsiyasi ko'rsatkichlarining respondentlar umumiy soniga nisbatan tutgan o'rinlari (Tomas uslubi)**

o'rin	Mezon			
	5-sinf n=50		9-sinf n <sub>2</sub> =50	
	%	mezon	%	mezon
1	30	II	29	I
2	28	III	22	II
3	24	V	18	IV
4	10	IV	17	III
5	8	I	14	V

Endi o'smirlikning bevosita ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual xulq-atvor motivatsiyasi ko'rsatkichlari tahliliga o'tamiz. Chunki mazkur yo'nalishdagi tahlil asosida ziddiyatli holatlarda o'smir ichki motivatsiyasida namoyon bo'ladigan psixologik muhofaza imkoniyatlari haqida tegishli empirik ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad: birinchidan, o'smirlik davrining boshlanishi (5-sinf o'quvchilari misolida) va o'smirlik davrining oxirgi bosqichi (9-sinf o'quvchilari misolida) uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlarni aniqlash, ikkinchidan har bir o'smir uchun ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual-psixologik muhofaza imkoniyatlarini bilish, u chindan, umuman o'smirlik davri uchun xarakterli bo'lgan 5 yo'nalishdagi (“A”, “B”, “V”, “G”, “D”) barcha muhofaza motivatsiyasi ko'rsatkichlarini qiyosiy-tipik tahlil qilish va tegishli qonuniyatlarni o'rganishdan iboratdir. Mazkur metodikani qo'llash tartibi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuning uchun endi bevosita mazkur metodika natijalarining empirik tahlillariga o'tamiz. Keltirilgan jadvallardan yaqqol ko'rinib turibdiki, Tomas uslubi bo'yicha aniqlangan psixologik muhofaza motivatsiyasi ko'rsatkichlari 5- va 9-sinf o'quvchilari orasida turli xil darajalarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Chunonchi, tadqiqot maqsadiga mos va shartli ravishda qabul qilingan mezonlarning (“bahs-munozara”, “hamkorlik” “kelishuv- kompromiss”, “o'zini chetga olish”, “moslashish”) o'ziga xos psixologik muhofaza dinamikasini tashkil etadi. Jumladan, psixologik muhofaza omili sifatida ziddiyatni yengish, psixologik muhofaza mezoni sifatida adekvat xulq-atvor motivatsiyasi, psixologik muhofaza belgisi sifatida o'ziga xos individual uslubni namoyon qila olish kabi xususiyatlarning o'smir shaxsida va faoliyatida namoyon etilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar miqdorini tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib tegishli xulosalarni bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvaldagi raqamlardan ko'rinadiki, 5-sinf o'quvchilari ziddiyatli vaziyatga tushganda o'zlarini ko'proq “hamkorlik” motivatsiyasi asosida psixologik muhofaza qilishni afzal bilsalar, 9-sinf o'quvchilari esa bunday vaziyatda ko'proq “Bahs-munozara” motivatsiyasini afzal bilishlari yaqqol seziladi. Har bir motivatsiya yo'nalish bo'yicha va bu motivatsiya yo'nalishining qiyosiy-o'rtacha tipik ko'rsatkichlari bo'yicha empirik ma'lumotlar 14 jadvalda qayd etilgan. Biz bu yerda o'smirlikning boshlanishi (5-sinf) va o'smirlikning oxirgi bosqichi (9-sinf) davrida Tomas uslubi bo'yicha psixologik muhofaza ko'rsatkichlari iyerarxik tizimini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Unga ko'ra 5-sinf o'quvchilari orasida (p=2000) taqdim etilgan 5 yo'nalish bo'yicha 1-o'rinni “hamkorlik” asosidagi muhofaza motivatsiyasi egallagan bo'lsa, 2-o'rin “kelishuv” (kompromiss) motivatsiyasiga, 3-o'rin “moslashish” motivatsiyasiga, 4-o'rin o'zini chetga olish motivatsiyasiga va oxirgi 5-o'rin “bahs-munozara” motivatsiyasiga to'g'ri kelishi bilan xarakterlanadi. Demak, o'smirlik davrining dastlabki bosqichlarida ziddiyatli vaziyatlarda o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar ko'proq hamkorlik va kelishuv (kompromiss) motivatsiyalari asosida shakllanishi mumkinligini ko'ramiz. Ayni paytda, bahs-munozara (1-yo'nalish) asosida o'zini-o'zi muhofaza qilishga moyillik nisbatan (taqdim etilgan beshta yo'nalish bo'yicha albatta) kamroq uchrashishni ko'rish mumkin. Aniqrog'i, o'rganilgan 2000 nafar respondentning atigi, 8 %i bu yo'nalish asosida o'zini muhofaza qilishni afzal bilishgan. O'smirlik davrining oxirgi bosqichida kelib (9-sinfda) ziddiyatli vaziyatlarda o'zini-o'zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar nisbatan biroz o'zgariganligini ko'ramiz. Ya'ni tanlov uchun taklif etilgan besh yo'nalishga nisbatan eng birinchi o'rin “Bahs-munozara” yo'nalishiga to'g'ri kelyapti. Demak, o'smirlikning boshlanishida bu yo'nalish oxirgi o'rinda bo'lishi va o'smirlikning oxirida (9-sinf) birinchi o'ringa chiqib olishining asosiy sababi o'smirlarning o'ziga xos ijtimoiylashuvi, o'smirlardagi “Menlik”ning o'zgarishi va

o‘smir mustaqil fikrlashga, hayotda o‘z fikrini o‘zgalarga singdirishga ko‘proq moyilligining namoyon etilishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Tadqiqot maqsadiga mos qo‘shimcha usullar orqali olingan ma‘lumotlarimiz ham ushbu fikrni tasdiqlashi mumkin. Masalan, 9-sinf o‘quvchisi M ning ta‘kidlashiga, u ko‘proq turli munozaralarda ishtirok etishni, o‘zi aytgan gapida qat‘iy turishni o‘z maqsadiga erishish uchun juda ko‘p intilishni yoqtiradi va u har qanday ziddiyatli holatga duch kelganda mazkur qoidalarga asoslanib ish tutishi juda muhimdir. 5-sinf o‘quvchisi “L” esa men ziddiyatli vaziyatga tushganda o‘rtoqlarimdan yordam so‘rayman, ular bilan birgalikda muvaffaqiyatsizliklarni yengishga intilishni afzal ko‘raman, deya o‘z mulohazasini bildiradi.

**Xulosa.** Mamlakatimizda o‘ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy islohotlarning tub negizida eng avvalo har bir insonning qadr–qimmat, aql–zakovati, ma‘naviy salohiyati va o‘ziga xos ijtimoiy psixologik taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar yotadi. Zero, bu omillarni har jihatdan muhofaza qilish bashariyatning eng oliy ne‘mati hisoblangan shaxsni muhofaza qilish demakdir. Shu bilan birga shaxsdagi o‘z–o‘zini turli xil muvaffaqiyatsizlikdan, turli xil salbiy holatlarga tushib qolishdan himoya qila olish tizimini o‘rganish, tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik kerak bo‘ladi. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan barcha ilmiy–uslubiy ishlar va ularning empirik natijalariga asoslangan ilmiy–nazariy mushohadalar xuddi shu masalaning mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Chunonchi, o‘tkazilgan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosan quyidagi umumiy xulosalarga kelishimizga sabab bo‘ldi:

Ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy–nazariy va metodik adabiyotlar tahlili shaxs faolligi va ijtimoiy taraqqiyotining ta‘minlanishi uchun muhim yo‘nalish hisoblangan o‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan o‘z–o‘zini psixologik muhofaza qilish jarayonini maxsus tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning nihoyatda taqchil ekanligini ko‘rsatadi. Holbuki, har qanday shaxs, ayniqsa o‘smirlik davrida uning ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan turli xil muvaffaqiyatsizliklardan, ichki ziddiyatlardan yuqori darajadagi stress holatlariga tushishdan vaqtidayoq o‘zini–o‘zi psixologik muhofaza qila olishga tayyor bo‘lsagina u yetarli darajada faoliyat va faollik ko‘rsata oladi. Bunday faoliyat va faollikning ta‘minlanishi esa har bir o‘smirda shakllanayotgan o‘z–o‘zini psixologik muhofaza qilish jarayoniga dahldor bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy psixologik holatlarni tadqiqot predmeti sifatida o‘rganishni, tadqiq qilishni va tegishli ilmiy–amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис.докт. психол. наук. – Ташкент, 1998.- 37 с.
2. Давлетшин М.Г. Новая концепция преподавания психологических дисциплин в педвузах Узбекистана // Педагогика олий ўқув юртларида психология фанларини ўқитишни такомиллаштириш муаммолари. – Тошкент, 1997.- Б.3-9.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 1994. – 98 b.
4. Бехтерев В.М. Роль внушения в общественной жизни. – М., 1898. - 234 с.
5. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –1993. – 223 b.
6. G‘oziev E. Ta‘lim muassasalarida psixologiyaning vazifalari //Xalq ta‘limi 1995 12-son 25-34-betlar.
7. Qodirov B.R. Iste‘dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. – T., 1992. – 326 b.

**Рахимов Абдулатиф Абдимуратович**  
Қарши давлат университети психология  
кафедраси мустақил тадқиқотчиси  
Психология фанлари доктори (DSc) Б.Жўраев тақризи остида

### **ЎСМИР БОКСЧИЛАРДА МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШ МОТИВЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада ўсмир боксчиларда муваффақиятга эришиш мотивларини шакллантиришнинг психологик хусусиятлари ўрганилган. Унда муаммонинг назарий ва амалий жиҳатлари, бу борада олимлар томонидан амалга оширилган илмий тадқиқот ишлари ҳақида сўз борган. Муаллиф томонидан олиб борилган тадқиқотлар мазкур муаммони ўрганиш бугунги кунда ҳам жуда долзарб эканлигини кўрсатади.

**Калит сўзлар:** жисмоний тарбия, спорт, бокс, шахс, ўсмир, муваффақият, мотив, ирода, мусобақа, психологик тайёргарлик.

### **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВОВ ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА У БОКСЁРОВ-ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация.** В статье рассматриваются психологические особенности формирования мотивов достижения успеха у боксёров-подростков. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учёными в связи с этим. Исследования, проведённые автором, показывают, что изучение данной проблемы остаётся весьма актуальным и на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** физическая подготовка, спорт, бокс, личность, подросток, успех, мотивация, воля, соревнование, психологическая подготовка.

### **PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF SUCCESS MOTIVES IN TEENAGE BOXERS**

**Abstract.** The article deals with the psychological features of the formation of motives for achieving success in teenage boxers. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

**Key words:** physical training, sport, boxing, personality, teenager, success, motivation, will, competition, psychological preparation.

**Кириш.** Бугунги кунда мамлакатимизда ёшларнинг жисмоний-интеллектуал ресурсларини уйғун ривожлантиришда жисмоний тарбия ва спортнинг имкониятларидан кенг фойдаланиш давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида қаралмоқда. Чунки жисмоний тарбия ва спорт мазкур ресурсларни янада ривожлантириш ва мустаҳкамлашнинг зарур омилidir. Жисмоний тарбия ва спорт нафақат шахснинг жисмоний, балки маънавий камолотга етишишда ҳам муҳим ўрин тутди. У иродани тоблаиди, ёшларни аниқ мақсад сари интилиш, қийинчиликларни бардош ва чидам билан енгишга ўргатади. Инсон қалбида ғалабага ишонч, ғурур ва ифтихор туйғуларини тарбиялайди. Ватанпарварлик, инсонпарварлик, адолат, миллий ғурур руҳида тарбияланган ёшлар эса ҳаёт ва спортдаги қийинчиликлар, юксак марраларни босиб ўтишда кўшимча кучга эга бўладилар. Демак, жисмоний тарбия инсоннинг биологик тузилишига таъсир кўрсатиб, шубҳасиз, ақлий, хиссий, маънавий имкониятларига, ботирлик ва қатъиятлилик, ташаббускорлик, топқирлик, ирода, уюшқоқлик, интизом, жамоавийлик ва бошқа ижобий сифатларга ҳам таъсир этишлигида намоён бўлади.

Маълумки, спортнинг ҳозирги ривожланиш босқичида дунёнинг турли мамлакатларида бокс спорт тури ёшлар орасида тобора оммалашиб бормоқда. Бизнингча, ҳар қандай спорт тури, жумладан бокс ҳам ўсмир спортчилар шахсидан ўзига хос жисмоний ва психологик тайёргарликни талаб этиши табиийдир. Шунинг учун ҳам жаҳон таълим ва илмий тадқиқот марказларида ўсмир спортчиларнинг юқори савиядаги мусобақаларга бўлган мотивацияларини ошириш, уларнинг иродавий сифатлари имкониятларини янада такомиллаштириш, функционал тайёргарлик шарт-шароитларини дунё

тажрибасига тенглаштириш борасидаги илмий изланишларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада ўсмир боксчиларнинг касбий тайёргарлиги ва иродавий тайёрлашнинг шартлари ва методикаларини такомиллаштириш, муваффақияти учун зарур бўладиган касбий билим, малака ва кўникмаларни аниқлаш, инсоннинг рефлексив қобилиятлари, ўзини ва ташқи дунёни англаши, адекват баҳолаш ва бошқариш, ўзини ўзи назорат қилиш ва тарбиялаш билан боғлиқ психологик омиллар психодиагностикаси ва психокоррекциясини амалга ошириш масалаларига эътибор қаратиш зарурати кузатилмоқда.

Бугунги кунда мутахассислар томонидан ўсмир боксчиларда муваффақиятга эришиш мотивларини шакллантириш вазифасига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунда асосий урғу мураббийлар фаолиятига қаратилган бўлиб, айнан мураббий учун спортчиларни мусобақада қатнашиши, машғулот мотивларини билиши катта амалий аҳамият касб этади. Чунки у спортчини бўлажак мусобақага ва машғулотга бўлган муносабатини, спорт режимига, спорт билан шуғулланиш мақсадини аниқлашга бевосита таъсир этади. Мураббийнинг амалий фаолиятида спортчиларни машғулот фаолиятига мотивини оширишнинг бир қанча усуллари мавжуд бўлиб, айнан мотивлар машғулот ва мусобақа вақтида намоён бўладиган қийинчиликларни енгиш учун максимал даражада спортчини кучини тўплашга ёрдам беради. Машғулотга бўлган мотивацияни беқарорлигини инобатга олиб мураббий доимий равишда ёш спортчилар билан мулоқотда бўлиши лозим, уларни ички кечинмаларидан хабардор бўлиши керак, ҳар кунги бўладиган машғулот бошида ҳамда машғулот сўнгида болаларни фикри билан дўстлашиши, уларни мотивацион ҳолатини аниқлаши, керак бўлса уларни машғулот мотивацион ҳолатига коррекция киритиши лозим.

Юртимизда ёш боксчиларни мусобақаларга жисмоний тайёргарлиги билан бир қаторда психологик тайёргарлигига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу ўринда спортчиларни ҳиссий-иродавий тайёргарлигига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Юқори натижаларга эришиш учун мунтазам машғулотлар олиб бораётган спортчиларга мусобақа жараёнида салбий эмоционал ҳолатлар таъсири, натижага эришиш мотивацияси пастлиги ҳақида гапирилади. Спортчида мусобақа олдидан пайдо бўлган салбий эмоционал ҳолатлар ғалабага эришиш мотивининг сусайишига олиб келади. Шу боис, спортчиларнинг стартолди эмоционал ҳолатини ўрганиш спортдаги муҳим талаблардан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мамлакатимиз психология фани соҳасида ўсмир боксчиларда муваффақиятга эришиш мотивларини шакллантириш, уларнинг ҳиссий-иродавий сифатларини шаклланишига таъсир этувчи психологик омилларни аниқлаш учун бир қатор илмий тадқиқот ишлари амалга оширилаётгани айни муддодир. Жумладан, мазкур соҳада психологлардан О.Ҳайитов, Й.Машарипов, З.Файзиев, Р.Абдурасулов, З.Гаппаров, З.Ғозиева, Ж.Искендеров, Д.Илхамова ва бошқалар томонидан амалга оширилган илмий тадқиқот ишларини таъкидлаш ўринлидир.

**Тадқиқотнинг натижалари ва унинг муҳокамаси.** Бизнинг илмий тадқиқот ишимиз юқорида олимлар томонидан амалга оширилган изланишлардан фарқли равишда, ўсмир боксчиларда муваффақиятга эришиш мотивларини шакллантириш, спортчи ўсмирларнинг иродавий сифатларини шаклланишига таъсир этувчи психологик омилларни аниқлашга қаратилганлиги билан муҳим аҳамиятга эга. Тажиба-синов ишларимизда Қарши олимпия ва паралимпия спорт турларига тайёрлаш маркази қошидаги “Бокс” спорт тури бўйича шуғулланувчи спортчи-ўқувчиларни респондент сифатида танлаб олдик. Тадқиқот ишимизда бир қатор методикалардан, жумладан, Т.Д.Дубовицкаянинг “Енгиб ўтувчи хулқ-атворни ўрганиш” ва Т.Элерс муаллифлигидаги “Муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш” сўровномаларидан фойдаландик.

1-жадвал.

**Енгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш-муваффақиятсизликдан қочиш сўровномалари омилли анализ кўрсаткичлари**

Шкалалар	Омиллар			
	1	2	3	4
Матонат	0,643		0,538	0,566
Вазиятни енгиб ўтиш		0,637		
Оқилона ҳаракат		0,594	0,554	
Журъатсизлик	0,589	0,567	0,646	
Назорат				0,738
Кечинмалар намойиши	0,732		0,518	
Мадад истаги	0,724	0,485	0,652	
Муваффақиятга эришиш	0,743			
Муваффақиятсизликдан қочиш	0,670			0,562

Ўсмир ёшдаги боксчи спортчиларда иродавий сифатларга таъсир қилувчи психологик омилларга доир тадқиқотимизга аниқлик киритиш давомида шахснинг ҳаёти давомида мураккаб вазифаларни бажаришда иродавий сифатларни шакллантириш энг асосий жараёнлардан бири ҳисобланади. Синалувчилар натижалари омилли анализ бўйича кўрсаткичлар 4 та омилга бирлашганлиги намоён бўлди. Биринчи шкалани ташкил этган психологик омиллар: иродавий матонат, журъатсизлик, кечинмалар намоёйиши, мадад истаги, муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш каби натижалар билан ўзаро фарқланган. Аксарият ҳолларда инсон шахсининг ижтимоий шартланган хусусиятлари унинг иродавий фаоллиги йўналишини гавдалантиради. Ижтимоий йўналганлик шахснинг мотивацион-иродавий ҳислати ҳисобланмиш собитқадамликда ўз ифодасини топади. Инсон шахсининг иродавий жараёнлари, ҳолатлари, ҳислати фаолиятнинг мотивлари ва мақсадини амалга оширишнинг ўзига хос усули сифатида юзага келади. Ақлий фаолиятда иродавий жараёнлар иродавий хатти-ҳаракатлар кечишининг айнан ичида, яъни мақсад белгилашдан тортиб, то унинг бажарилишигача ораликда кўзга ташланади.

Иккинчи шкалани ташкил этган психологик омиллар: вазиятни енгиб ўтиш, оқилона ҳаракат, журъатсизлик ва мадад истаги каби натижа билан алоҳида тавсифланган. Онгли хулқ-атворда, ихтиёрий диққатда, эслаб қолишда, эсга туширишда, тафаккурда, хаёлда ифодаланади, мураккаб муаммоларни ечиш, иродавий зўр беришни сабаблар этиш учун мутлақо зарур, чунки бусиз меҳнат ва ўқув фаолиятида ҳеч қандай натижага эришиш мумкин эмас. Уларнинг ўзаро уйғунлашуви самаралар келтириш мажмуаси сифатида иккиёқлама хусусият касб этади.

Учинчи шкалани ташкил этган психологик омиллар: иродавий матонат, оқилона ҳаракат, журъатсизлик, кечинмалар намоёйиши ва мадад истаги каби даража билан алоҳида характерланган. Тўртинчи шкалани ташкил қилган психологик бирликлар: иродавий матонат, назорат ва муваффақиятсизликдан қочиш каби психологик хусусиятлар билан ажралиб турганлигини қайд қилиш мумкин. Меҳнат фаолиятидаги ва таълим жараёнидаги иродавий ҳолатлар - бу вужудга келган қийинчиликларни муваффақиятли бартараф этишнинг усуллари, инсон шахсининг омилкор, оқил ички шароитларининг муваққат руҳий ходисасидир. Уларни қаторига бир талай ҳаётий шарт-шароитлар таъсири остида вужудга келувчи оптимизм ва умумий фаоллик, қизиқувчанлик, мотивацион, мобилизацион тайёргарлик, қатъиятлилик хусусиятлари қиради. Меҳнат ва стресс-эмоционал зўриқишнинг кескин ҳолати кўриниши, шакли ҳисобланиб, ташки ва ички муҳитнинг нохуш омилларини шахсга фавқулудда таъсир этиш натижасида вужудга келади. Шахс узлуксиз пайдо бўлувчи ва бартараф қилиш қийин тўсиқларнинг таъсири остида руҳан тушкунлик, ўзини йўқотиб қўйиш, кўпинча экспериментга, вазиятга нисбатан агрессив (тажовузкор) реакциялар (жавоб хатти-ҳаракатлари) юзага келиши кузатилади. Ахлоқий қоидалар иродани бевосита белгилаганда, ирода ахлоқий қоидаларга бўйсунганда у эркин ҳисобланади. Бунинг натижасида инсон фақат ҳиссий таассуротлар, истаклар билан эмас, зарар ва фойда ҳақидаги тасаввурлари, тушунчалари, асосида ҳаракатланади.

2-жадвал.

**Енгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш –  
муваффақиятсизликдан қочиш сўровномалари ўртасидаги корреляция кўрсаткичлари  
(К.Пирсоннинг корреляция коэффициенти бўйича)**

Матонат	Вазиятни енгиб ўтиш	0,476*
	Оқилона ҳаракат	0,486*
	Журъатсизлик	0,568**
Вазиятни енгиб ўтиш	Журъатсизлик	0,484*
	Кечинмалар намоёйиши	0,518**
	Муваффақиятга эришиш	0,476*
Оқилона ҳаракат	Журъатсизлик	0,568**
	Назорат	0,486*
Журъатсизлик	Мадад истаги	0,548**
	Муваффақиятга эришиш	0,641**
Назорат	Оқилона ҳаракат	0,472*
	Журъатсизлик	0,529**
Кечинмалар намоёйиши	Оқилона ҳаракат	0,470*

	Иродавий матонат	0,464*
Мадад истаги	Назорат	0,562**
	Кечинмалар намойиши	0,582**
Муваффақиятга эришиш	Назорат	0,458*
Муваффақиятсизликдан қочиш	Мадад истаги	0,526**

Изоҳ: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

Ўсмир боксчиларда иродавий сифатлар, энгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш - муваффақиятсизликдан қочиш сўровномалари бўйича олинган натижалар шуни намён қилдики, ўсмир ўқувчиларнинг энгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш хусусиятлари ўртасидаги ўзаро алоқадор омиллар орасидаги корреляцион алоқалар кўпроқ иродавий матонат шкаласи: вазиятни энгиб ўтиш ( $r=0,476$ ,  $p \leq 0,05$ ), оқилона ҳаракат ( $r=0,486$ ,  $p \leq 0,05$ ) ва журъатсизлик ( $r=0,568$ ,  $p \leq 0,01$ ) омиллари билан, вазиятни энгиб ўтиш шкаласи: журъатсизлик ( $r=0,484$ ,  $p \leq 0,05$ ), кечинмалар намойиши ( $r=0,518$ ,  $p \leq 0,01$ ) ва муваффақиятга эришиш ( $r=0,476$ ,  $p \leq 0,05$ ) омиллари билан, оқилона ҳаракат шкаласи: журъатсизлик ( $r=0,568$ ,  $p \leq 0,01$ ) ва назорат ( $r=0,486$ ,  $p \leq 0,05$ ) омиллари билан, журъатсизлик шкаласи: мадад истаги ( $r=0,548$ ,  $p \leq 0,01$ ) ва муваффақиятга эришиш ( $r=0,641$ ,  $p \leq 0,01$ ) омиллари билан, назорат шкаласи: оқилона ҳаракат ( $r=0,472$ ,  $p \leq 0,05$ ) ва журъатсизлик ( $r=0,529$ ,  $p \leq 0,01$ ) омиллари билан, кечинмалар намойиши шкаласи: оқилона ҳаракат ( $r=0,470$ ,  $p \leq 0,05$ ) ва иродавий матонат ( $r=0,464$ ,  $p \leq 0,05$ ) омиллари билан, мадад истаги шкаласи: назорат ( $r=0,562$ ,  $p \leq 0,01$ ) ва кечинмалар намойиши ( $r=0,582$ ,  $p \leq 0,01$ ) омиллари билан, муваффақиятга эришиш шкаласи: назорат ( $r=0,458$ ,  $p \leq 0,05$ ) омиллари билан, муваффақиятсизликдан қочиш шкаласи: мадад истаги ( $r=0,526$ ,  $p \leq 0,01$ ) орасида юқори даражада корреляцион алоқаларга киришганлигини кўриш мумкин.

**Хулосалар.** Ўсмир боксчиларда иродавий сифатлар шаклланишига таъсир этувчи психологик омилларга ижтимоий фрустрация, шахс иродавий сифатлари, энгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш - муваффақиятсизликдан қочиш каби психологик хусусиятлар таъсири аниқланди. Тадқиқот ишимизда ўсмир боксчиларда иродавий сифатларнинг ижтимоий-психологик жиҳатларини таъминловчи: иродавий матонат, оқилона ҳаракат, вазиятни энгиб ўтиш, муваффақиятга эришиш, назорат, қатъийлик, матонатлилик ва иродавий масъулиятлилик каби психологик омиллар иродавий сифатларнинг шаклланишида муҳим кўрсаткичлар эканлиги аниқланди. Ўсмир боксчилар иродавий сифатларининг барқарорлигини таъминлашда: иродавий матонат, тангли вазиятларни энгиб ўтиш, оқилона ҳаракатларнинг мавжудлиги, иродавий масъулиятлиликнинг конструктивлиги ва ижтимоий фрустрацион ҳолатларга бардошлилик каби психологик хусусиятларнинг шаклланганлиги асос сифатида хизмат қилади. Боксчи спортчиларда иродавий сифатларини ривожланишига салбий таъсир кўрсатаётган: ижтимоий фрустрация, муваффақиятсизликдан қочиш, журъатсизлик, иродавий масъулиятсизлик ва қатъиятсизлик каби психологик омиллар таъсирини олдини олиш билан боғлиқ тарбиявий шарт-шароитларни яратиш асосий омил сифатида хизмат қилади.

#### Адабиётлар:

1. Абдурашулов Р.А. Спорт машғулотларининг ўқувчи-спортчилар шахсини шакллантиришдаги роли (яккакураш турлари мисолида): психология фан. доктори (DSc) диссертация автореферати: 19.00.06. -Т.: 2018.
2. Арзикулов Д.Н. Психология ва спорт психологияси. -Ч.: “ЎзДЖТСУ”, 2020.
3. Маматов М. Татбиқий спорт психологияси. -Т.: “Университет”, 2019.
4. Машарипов Й. Спорт психологияси. -Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2010.
5. Файзиев З.Х. Казусли вазиятларда спортчи эмоционал ҳолатини коррекциялашнинг ижтимоий-психологик механизмлари: психология фан. бўйича фал. доктори (PhD) диссертация автореферати: 19.00.05. -Б.: 2020.
6. Ҳайитов О.Э. Спорт фаолияти психологияси. -Т.: “Umid Design”, 2021.

*Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna*

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida  
dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## GURUHLARDAGI PSIXOLOGIK MUHITNI O'RGANISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Guruhni yaratishda eng ko'p uchraydigan sabab - bu odamlarning suhbatlashish va o'z doiralari yaratishga intilishi, bu erda ular erkin muloqot qilishlari, bir-birlarini bilishlari, birlashishlari va o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari mumkin. Ushbu maqolada rasmiy va norasmiy guruhlar o'rtasidagi farq va ulardagi psixologik muhit tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** guruh, jamoa, rasmiy guruh, norasmiy guruh, rivojlangan guruh, individual munosabat, jamoa munosabatlari, guruhiy moslik, liderlik, psixologik muhit.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ГРУППАХ

**Аннотация.** Наиболее распространённой причиной создания группы является желание людей пообщаться и создать свой круг, где они могут свободно общаться, знакомиться друг с другом, объединяться и выполнять поставленные перед ними задачи. В данной статье представлена разница между формальными и неформальными группами и анализ психологической среды в них.

**Ключевые слова:** группа, команда, формальная группа, неформальная группа, развитая группа, индивидуальное отношение, командное отношение, групповая совместимость, лидерство, психологическая среда.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN GROUPS

**Abstract.** The most common reason for creating a group is the desire of people to communicate and create their own circles, where they can freely communicate, get to know each other, unite and complete the tasks assigned to them. This article presents the difference between formal and informal groups and the analysis of the psychological environment in them.

**Key words:** group, team, formal group, informal group, developed group, individual attitude, team attitude, group compatibility, leadership, psychological environment.

**Kirish.** Birgalikdagi sotsial qimmatga ega va shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyatning amalga oshirilishi o'zaro jamoatchilik munosabatlari o'rnatilishini, individual munosabat bilan jamoa munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlar barham topishini ta'minlaydi. Bunday faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarda boshqa sharoitlarda qayd etilishi mumkin bo'lmagan alohida hodisalar yuz beradiki, guruh rivojlanishining alohida belgisi sifatidagi jamoatchilik hosil bo'ladi. Aynan, jamoa shaxsning jamiyatga bog'liqligini ifoda etadi. Shaxs ana shu bog'liqlik orqali erkinlikka muvaffaq bo'ladi.

Jamoaning yuksak darajada rivojlangan guruh sifatida boshqa barcha guruhlariga nisbatan prinsipial jihatdan farqlari tajriba yo'li bilan qayd etilgan. Jamoada faoliyatning samaradorligi bilan o'zaro hishayajonli psixologik munosabatlarning maqbul xarakteri o'rtasidagi nisbat ijobiy, sust rivojlangan guruhlarda esa salbiy bo'ladi. Past darajada rivojlangan guruhlarda guruhning miqyosi bilan uning a'zolaridan umumiy ishga eng ko'p hissa qo'shish istagi o'rtasidagi teskari bog'lanish mavjudligi aniqlandi, guruhning tarkibi yiriklasha borishi bilan jamoadan birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarning motivlari susaymaydi. Tasodifiy guruhda yordamga muhtoj kishiga yordam ko'rsatilishi ehtimoli guruhning miqyosi kengayishi bilan susaya boradi, jamoada esa bunday qonuniyat namoyon bo'lmaydi.

**Asosiy qism.** Jamoada guruhlar shakllanishi tabiiydir, xoh u tashkilotning maqsadlarini bajarish uchun rahbariyat tomonidan tashkil etilsin yoki o'zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkilot a'zolari tomonidan. Guruhning ikki turi mavjud, ya'ni rasmiy guruhlar va norasmiy guruhlar. Rasmiy guruhlar rasmiy vakolatga ko'ra, maqsadni amalga oshirish uchun yaratilganlardir. Farqli o'laroq, norasmiy guruhlar xodimlar tomonidan o'zlarining yoqtirishlari, qiziqishlari va qarashlariga qarab shakllantiriladi.

Tabiiy ravishda, tashkilot ichida, ijtimoiy va psixologik kuchlar ta'sirida vujudga keladigan guruhlar norasmiy guruhlar deb nomlanadi. Ushbu guruhga binoan tashkilot xodimlari o'zlari ish joyidagi ijtimoiy

ehtiyojlarini qondirish uchun rahbariyatning tasdiqisiz guruhlariga kiradilar. Hech kim alohida yashashni xohlamaydi; odamlar o'zlarining hissiyotlari, fikrlari, tajribalari, ma'lumotlari va boshqalarni o'zaro ta'sirlashishlari va baham ko'rishlari uchun o'zlarini atrofida aylana hosil qilishadi. Ushbu doiralar ish joyidagi norasmiy guruhlar deb nomlanadi. Ushbu guruhlar umumiy yoqtirishlar, yoqtirmasliklar, aqidalar, aloqalar, a'zolarining tili, qiziqishlari, qarashlari asosida tuziladi. Bu qiziqish guruhi va do'stlik guruhini o'z ichiga oladi.

Guruhda quyidagi ijtimoiy psixologik hodisalar mavjud: ijtimoiy fikr, taqlid, ta'siriga berilish, konformizm. Ijtimoiy - psixologik muhit ko'p jihatdan jamoa a'zolarining sig'ishuvchanligiga bog'liqdir. Guruhiy mos kelish (sig'ishuvchanlik) fiziologik va psixologik bo'lishi mumkin. Guruhiy psixologik mos kelish psixomotor, emotsional - irodaviy xususiyatlariga diqqat va tafakkurdagi farqlariga bog'liqdir. Lekin hammadan ko'ra ko'proq guruh tarkibiga kiruvchi har bir kishining shaxsiy xarakteri xususiyatiga bog'liq bo'lmasligi, ammo moslashuvchan bo'lishi kerak. Psixologik muhit vujudga keltirishda, aksari guruhga mos kelishga bog'liq bo'lgan ijtimoiy kayfiyat katta ahamiyatga ega. U guruhda bevosita ijobiy yoki salbiy psixologik muhit vujudga keltiradi.

Har qanday guruh tuzilishiga ko'ra guruh a'zolari nufuzi va statusining o'ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqorisida referentometrik va sotsiometrik tarzda tanlanadigan shaxslar o'rin oladi, eng orqada esa noreferent va sotsiometrik jihatdan ajratib chiqarilgan individlar turishadi. Mazkur iyerarxiya zinapoyasining eng yuqori bosqichida guruhning lideri mavjud bo'ladi.

Lider - bu shunday shaxsdirki, guruhning qolgan barcha a'zolari uchun o'zlarining manfaatlariga daxldor bo'lgan hamda butun guruh faoliyatining yo'nalishini va xarakterini belgilab beradigan eng ma'suliyatli yechimlarni qabul qilishga haqli deb hisoblaydilar. Lider rasman guruhning rahbari bo'lishi ham va aksincha, bo'lmasligi ham mumkin. Lider bilan rahbarlikning yagona bitta shaxsda shakllanishi maqbul hodisa hisoblanadi. Bordi-yu, agar bunday muvofiqlik bo'lmasa, u holda guruh faoliyatining samaradorligi rasmiy rahbar (masalan, sinf boshi) bilan norasmiy lider yoki liderlar o'rtasidagi munosabatlar qay tarzda yuz berishiga bog'liq bo'ladi.

Guruh jamoasining rasmiy rahbarlik tizimi, unda norasmiy nufuzning taqsimlanishi va norasmiy peshqadam sifatida tanilish uchun to'g'ri kelishi ham, to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Natijada, shaxslararo munosabatlarda umumiy maqsadlarning mavjudligi jamoaga xalaqit qiladigan emas, balki hatto yordam berishi ham mumkin. Chunonchi, 30-40 o'quvchidan iborat kichik guruh hisoblanadigan guruhda guruhboshi va yoshlar tashkilotchisidan tashqari, odatda bir necha peshqadamlar mavjud bo'lib, ular tevaragida bir nechta norasmiy guruhlar uyushadi. Norasmiy guruhlarda liderlarning quyidagi tiplari farqlanadi:

1. Faoliyatining mazmuniga qarab:

a) ilhomlantiruvchi, harakat yoki axloq dasturini taklif qiluvchi lider;

b) bajaruvchi - berilgan dasturni bajarish tashkilotchisi;

v) bir vaqtda o'zida ham ilhomlantiruvchi, ham bajaruvchi

2. Boshqarish usuliga ko'ra:

a) avtoritar

b) demokratik

v) yuqoridagi ikki uslubni o'zida mujassamlashtirgan.

3. Faoliyati xarakteriga qarab:

a) universal - o'zida liderlik xususiyatlarni doim ko'rsatib turadigan;

b) situativ (vaziyatga bog'liq) - o'zida liderlik xususiyatlarini ma'lum o'ziga xos vaziyatlarni ko'rsatib turadigan.

Psixologiyada guruhdagi tabaqalanishni (uning ichki tuzilishini) o'rganish uchun ko'plab metodlar qo'llaniladi. Ulardan ikkita asosiylari - sotsiometriya (sotsiometrik so'rov) va referentometriya metodidir. Amerikalik psixolog, mikrosotsiolog J. Moreno guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o'rganish uchun shaxslarning bir birini saylashini (tanlashi, afzal qo'rishlarni) aniqlash usulini va hissiy afzal qo'rishlarni qayd qilish texnikasini taklif etdi. Buni u sotsiometriya deb atadi. Sotsiometriya metodi kichik guruhlariga taalluqli bo'lgan shaxslararo munosabatlarni o'rganish va o'lchashning metodi sifatida taklif qilingan. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruh a'zolarida namoyon bo'ladigan afzal ko'rishni, befarqlik yoki xush ko'rmaslikni miqdoriy m'yorini aniqlash mumkin. Sotsiometriya guruh a'zolarining bir - birlarini xush ko'rishi yoki xush ko'rmasligini aniqlashda keng qo'llanadi. Guruh a'zolarining o'zlari bunday munosabatlarni anglab ola olmasliklari va ularning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida o'zlariga hisob bermasliklari mumkin. Sotsiometriya metodi juda ham tezkor bo'lib, uning natijalari matematik usul bilan qayta ishlanishi va yozma shaklda ifoda etilishi mumkin.



Sotsiometrik usulning negizida "Sen kim bilan birga bo'lishni xohlarding?" degan to'g'ridan - to'g'ri savol turadi. U kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni xohlagan jabhasida tatbiq qilinishi mumkin: sen kim bilan birga bitta partada o'tirishni, dam olishni, vaqt o'tkazishni, ishlashni xohlarding va hokazo. Qoida tariqasida tanlashning ikki yo'nalishi - birgalikda mehnat qilish sohasidagi va vaqtni birgalikda o'tkazish yo'nalishlari tavsiya qilinadi. Bu o'rinda, tanlashning maqbulligi darajasida (benihoya istak borligi, bajonudilligi, befarqligi, unchalik istalmayotganligi, sira ham istak yo'qligi) aniqlik kiritilishi va tanlash uchun tavsiya qilinadigan shaxslar soni cheklangan bo'lishi ham mumkin. Tanlashlarni sotsiometriya matritsasiga tushirish chog'ida bular hisobga olinadi. Natijalarni tahlil etish o'zaro xush ko'rish va xush ko'rmasliklarning murakkab tarzda qo'shib ketganligini, sotsiometrik "yulduzlar" (ularni ko'pchilik tanlaydi), "outsayder" larning (ulardan hamma o'zini chetga tortadi) mavjudligini va butun iyerarxiyasini ko'rsatib beradi. Sotsiometriya metodini juda ham tezkor ekanligiga shubha yo'q va uning yordami bilan guruh ichidagi hissiy intilishlar manzarasi yetarli darajada aniq - ravshan ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu natijalarni kuzatishlar yo'li bilan aniqlash uchun uzoq vaqt sarflashga to'g'ri kelgan bo'lardi. Har qanday guruhni hosil bo'ladigan kommunikativ shaxobcha sifatida talqin qilish mumkin.

Lekin, sotsiometrik tahlil guruhdagi shaxslararo kommunikativ shaxobchaga juda ham umumiy tarzda ta'rif berishi mumkin. U nima uchun individ bir xil birliklarda guruhga qarama - qarshi qo'yilganligi, boshqalarida esa kommunikativ birlik borligini payqamasligini tushunib yetishga olib boradi. Sotsiometrik texnika yordamida qayd etiladigan bog'lanishlar tizimini muqarrar deb hisoblab bo'lmaydi. Bugungi "yulduz" ertaga yakkalanib qolishi mumkin. Sotsiometriya natijalari bizga bunday o'zgarishlarning sabablari haqida ma'lumot bera olmaydi. Shuningdek, guruh a'zolari bir-birovlarni rad etib, boshqalarni tanlaganlarida nimalarga asoslanganliklari, guruhning har xil a'zolariga xos xush ko'rish va xush ko'rmasliklar zamirida qanday ma'no borligi mavhumligicha qoladi.

Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuell o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo'lmish liderlik masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatli bo'lgan tushunchadan biri bu – «superlider» tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, xayoliy repititsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishontira olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobilyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muvaffaqiyati va shu ta'lim tizimida o'quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti eng avvalo har bir o'quvchining shu ta'lim faoliyatiga nisbatan mustaqil va ijodiy yondashuviga, o'quv faolligiga nisbatan barqaror qiziqishlarning tarkib topishiga va ayni paytda u yoki bu

guruhda o'zining ijtimoiy menligini nechog'lik shakllantirishga bog'liqdir. Zero, maktab davridayoq guruhiy va ijtimoiy menlikning yetarli darajada tarkib topishi o'quvchi shaxsi ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim “manba” hisoblanadi. Bu jarayon bizning nazarimizda o'ziga xos imkoniyatlar ko'lamiga ega bo'lgan guruhiy mas'ullik, jamoatchilik, guruhiy jipslik, o'zaro aloqadorlik, o'zaro samimiylik, guruhiy tashkilotchilik, o'zaro guruhiy xabardorlik kabi sifatning namoyon etilishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy psixologiyada muhim o'rin tutuvchi kichik guruhlar doirasidagi o'quvchi shaxsi va shaxslararo faollik motivatsiyasining tarkib topishga daxldor bo'lgan mezonlarning (guruhiy mas'ullik, jamoatchilik, guruhiy jipslik, guruhiy aloqadorlik, o'zaro samimiylik guruhiy tashkilotchilik, o'zaro xabardorlik) bugungi ta'lim jarayonida har bir o'quvchi va aksariyat kichik guruhlar a'zolarining amaliy faoliyatlarida qay tariqa namoyan bo'lishini tasdiqlovchi o'rtacha umumiy va qiyosiy-tipik ko'rsatkichlarni aniqlash va shu asosda muayyan ijtimoiy-psixologik xulosalar chiqarish asosiy maqsad qilib qo'yilmog'i dardkor.

Chunki kichik guruhlariga bo'lgan alohida e'tibor va kichik guruhlariga ko'rsatilgan maxsus dasturdagi alohida psixologik xizmat jarayoni har bir o'quvchidagi guruhiy faollik va guruhiy ijtimoiy identifikatsiyani bir muncha yuqori darajada ta'minlashga olib keladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotshi psixologlar uchun «Men va mening guruhim» mavzusida suhbatlar, yozma ishlar olib borish va ularning birlamchi natijalari bo'yicha kontent tahlillar o'tkazish, Dj.Morening «Sotsiometriya» metodini, P.C.Nemovning «Ijtimoiy-psixologik relef ko'rsatkichlarini aniqlash» metodikalarini qo'llash tavsiya etiladi. Shu metodikalar orqali o'quvchi shaxsidagi guruhiy faollik mexanizmlari aniqlangash, psixologik xizmat jarayonidagi individual va guruhiy korreksiya ishlari samaraliroq kechadi.

Guruhdagi psixologik muhitni o'rganishga bag'ishlangan R.S. Nemovning “Guruhning ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini tahlil qilish metodikasining natijalariga asoslanib umumta'lim maktablaridagi rasmiy va norasmiy kichik guruhlar doirasida har bir o'quvchi shaxsi uchun xarakterli bo'lgan individual va guruhiy faollik motivatsiyasi omillari namoyon etilishining qiyosiy-tipik ko'rsatkichlariga muayyan ijtimoiy psixologik mezonlar asosida baho berish mumkin. Bunda kichik guruhlar doirasiga kiruvchi har bir o'quvchi shaxsida guruhiy faollik motivatsiyalarining namoyon etilishi ko'p jihatdan muayyan ijtimoiy psixologik mezonlar hisoblanmish guruhiy mas'ullik, jamoatchilik, guruhiy jipslik, guruhiy aloqadorlik, o'zaro samimiylik, guruhiy tashkilotchilik, o'zaro xabardorlik kabi xislatlarning yetarli darajada tarkib topganligi bilan belgilanadi.

Mazkur metodika guruhdagi munosabatlar darajasini aniqlashga mo'ljallangan. U 75 ta hukmdan iborat. Sinaluvchilar har bir hukm guruhning qancha a'zosiga taalluqli ekanini belgilaydilar.

Ko'rsatma. «Quyida 75 ta hukm berilgan. Siz har bir hukmning mazmuni bilan tanishib, so'ng u guruhingizni qancha a'zosiga tegishli ekanligini quyida berilgan ballar bilan belgilang : 0 ball - hukm kim, 1 ball- deyarli hech kim, 2 ball-kamchilik, 3 ball yarmi, 4 ball ko'pchilik, 5 deyarli barcha, 6 ball barcha, « » - bir narsa deyishim qiyin».

Javob varaqasi							
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	
8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.	15.
16.	17.	18.	19.	20.	21.	22.	
23.	24.	25.	26.	27.	28.	29.	30.
31.	32.	33.	34.	35.	36.	37.	
38.	39.	40.	41.	42.	43.	44.	45.
46.	47.	48.	49.	50.	51.	52.	
53.	54.	55.	56.	57.	58.	59.	60.
61.	62.	63.	64.	65.	66.	67.	
68.	69.	70.	71.	72.	73.	74.	75.

Hukmlarning 70 tasi ishchi bo‘lib, 5 tasi nazoratchi hukmdir. Nazoratchi hukmlar javoblarning chinligini aniqlash uchun ishlatiladi. Agar nazoratchi hukmlar yuzasidan berilgan javoblar samimiy javobni bildiruvchi variantda bo‘lsa, ishchi hukmlarga berilgan javoblar ishonchli bo‘lib, hisoblanadi, aks holda ular ishonchsiz bo‘ladi.

Ishchi 70 ta hukm 7 guruhga ajratilgan. Ushbu 7 guruh, hukmlari jamoa sifatida guruhdagi 7 xil munosabatning qanchalik rivojlanganli gini aniqlashga yordam beradi. Bu munosabatlar quyidagilardan iborat 1. Mas’uliyat - guruh oldidagi maqsad va vazifalarga mas’uliyat bilan yondoshish; 2. Kollektivizm - guruh oldida turgan muammolarni hal etish, guruhni faoliyatni bajarishda hamkorlik qilish ; Z. Jipslik - guruh hayotidagi asosiy masalalar bo‘yicha guruh a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik va guruhni faoliyatda «bir tan-u bir jon» bo‘lib harakat qilish; 4. Muloqotchanlik - guruh a’zolarining o‘zaro muloqotga, shaxsiy - emotsional munosabatlarga kirishuvchanligi; 5. Ochiqlik - boshqa guruhlar va guruhning yangi a’zolariga ijobiy munosabatda bo‘lish; 6. Tartib - intizomlilik guruh faoliyati samaradorligi yo‘lida uning tarkibiy tuzilishini tez o‘zgartira olish, yangidan tuza olish; 7. Axborotga egalik - guruh ishlari va guruh a’zolari haqidagi ma’lumotni bemaolol qo‘lga kiritish imkoniyatining mavjudligi.

#### Natijalarni qayta ishlashga tayyorlash.

Javob varaqalaridagi natijalar qayta ishlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak: 1) 15, 30, 45, 60, 75 hukmlarga qo‘yilgan ball «0» bo‘lishi (verbal bahoda «hech kim» degan javob berilgan bo‘lishi) kerak. Eslatma: Ko‘p hollarda javob varaqasida nazorat savollariga (15,45, 60, 75) berilgan javoblar orasida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javob variantlari birgalikda mavjud bo‘ladi. Bunday vaziyatda nazorat savollariga noto‘g‘ri javob berilgan satr va undan oldingi satr o‘chiriladi va natijalarni hisoblashda inobatga olinmaydi; 2) Hukmlarga javoban qo‘yilgan ballar kamida uch xil (masalan, 1, 4, 6 yoki 1, 3, 4) bo‘lishi kerak.

Ushbu ikki talab bajarilgandagina natijalarni qayta ishlash jarayonini boshlash mumkin. Natijalar statistik qayta ishlanishi uchun quyidagicha tayyorlanadi.

1. Statistik qayta ishlashga yaroqli bo‘lgan barcha javob varaqalari 7 ta ustunga ajratib kesib chiqiladi. quyida to‘ldirilgan javob varaqasining qayeridan kesish kerakligi punktir chiziqlar bilan ko‘rsatilgan.


2. Hosil bo‘lgan tasmlar ichida tartib raqami bir shkalaga tegishli bo‘lganlari toza varaqqa yonmayon qilib yopishtiriladi. Bunday varaqlar soni 7 ta bo‘ladi. Natijada quyidagi manzara hosil bo‘ladi.

1.3	2.4	3.5	4.-	5.3	6.5	7.6
8.-	9.5	10.4	11.2	12.4	13.1	14.6
16.3	17.6	18.5	19.3	20.2	21.3	22.5
23.4	24.5	25.4	26.3	27.1	28.4	29.4
31.5	32.3	33.2	34.1	35.3	36.5	37.5
38.4	39.3	40.2	41.5	42.6	43.4	44.6
46.5	47.3	48.4	49.5	50.4	51.6	52.5
53.3	54.4	55.5	56.2	57.3	58.5	59.6
61.5	62.3	63.2	64.4	65.6	66.5	67.4
68.3	69.3	70.4	71.5	72.4	73.6	74.5


1.	1.	1.	1.	1.	1.	1.
8.	8.	8.	8.	8.	8.	8.
16.	16.	16.	16.	16.	16.	16.
23.	23.	23.	23.	23.	23.	23.
31.	31.	31.		31.		31.
33.	33.	33.	31.	33.	31.	33.

46.	46.	46.	33.	46.	33.	46.
53.	53.	53.	46.	53.	46.	53.
61.		61.	53.	61.	53.	61.
68.	61. 68.	68.	61. 68.	68.	61. 68.	68.

Расм. Гурухнинг ижтимоий жихатдан ўз-ўзини таҳлил қилиш методикасининг матрицаси.



Расм. Гуруҳдаги ижтимоий психологик рельеф кўрсаткичларининг матрицада жойлашуви.



Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxs faolligi va ijtimoiy taraqqiyoti, guruhlarda ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish, psixologik xizmat ko’rsatish konsepsiyalarini takomillashtirishga, gumanistik va identifikatsion jarayonlarning ilmiy tahliliga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, psixologik xizmat jarayonini maxsus dasturlar asosida tashkil etish orqali o’quvchilarning guruhiy munosabatlar dinamikasi va guruhiy faollik motivatsiyasini muayyan

darajada rivojlantirish, professional darajada psixologik faoliyatni takomillashtirish, shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq etish zarurati oshib bormoqda.

**Adabiyotlar:**

1. Агеев В.С., Андреева Г.М. Межличностное восприятие в группе.– М.: 1981. – 294 с.
2. Немов П.С. Психология. - Учеб. для студ.высш.пед.учеб.заведений.-М.: Гуманит.изд.тсентп ВЛАДОС,1999.-Кн.1. Общие основы психологии.-С. 528-647.
3. Немов П.С. Психология.- Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений.- М.: Гуманит.изд.тсентп ВЛАДОС,1999.-Кн.3. Психодиагностика.-С. 389- 600..
4. Морено Дж. Сотциометрия. – М., 1958. – 244 с.
5. G'oziyev E.G', P.N.Melibaeva. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent-2009.- В. 143.
6. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent : Noshir, 2013.

*Elov Ziyodullo Sattorovich*  
*Buxoro davlat universiteti dotsenti,*  
*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## **O'SMIRLAR ORASIDA SUITSIDGA MOYILLIKNI ANIQLASH VA KORREKSIYALSHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada o'smirlar orasida suitsidal xulq namoyon etilishining empirik asoslari tahlillar, turli psixologik qarashlar va o'tkazilgan tadqiqot xulosalari, shuningdek, o'z joniga qasd qilishga sabab bo'luvchi turli psixik faktorlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** suitsid, APA, deviant, xulq, kayfiyat, qasd, o'zini o'ldirish.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И КОРРЕКЦИИ СУИЦИДАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ У ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация.** В статье освещены эмпирические основы суицидального поведения подростков, анализ, различные психологические взгляды и выводы исследований, а также различные психологические факторы, вызывающие суицид.

**Ключевые слова:** суицид, АПА, девиант, поведение, настроение, намерение, суицид.

## **PSYCHOLOGICAL BASIS OF DETERMINING AND CORRECTING SUICIDAL TENDENCIES AMONG ADOLESCENTS**

**Abstract.** The empirical basis of suicidal behavior among adolescents, analyzes, various psychological views and research conclusions, as well as various psychological factors that cause suicide, are highlighted in the article.

**Key words:** suicide, APA, deviant, behavior, mood, intention.

**Kirish.** Jahon miqosda deviant xulq-atvorli shaxslarda suitsid namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash va uni baholash o'ta ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, suitsidal xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

2019-yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA) ning navbatdagi ilmiy –amaliy konferensiyasida deviant xulq va yoshlar mavzusida diqqatga sazovor ma'ruza taqdim etilgan. Ma'ruzachi M.J.Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo'lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'p sodir bo'ladi. Chunki bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidagi chegaralar juda kichikdir<sup>2</sup>.

Jamiyat o'zini biologik va ijtimoiy jihatdan yosh avlod orqali rivojlanadi. Ma'lumki, yoshlar mamlakat kelajagini ifodalaydi, shu bilan bog'liq holda ularning kayfiyati, xulq-atvori muayyan jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik, siyosiy muhitning o'ziga xos «o'lchovi»dir. I.S.Kon yoshlarga keng quyidagicha ta'rif beradi: «Yoshlar - bu yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqeyi va ma'lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining kombinatsiyasi asosida aniqlangan demografik guruhdir. Yoshlik hayot siklining ma'lum bir bosqichi sifatida biologik mukammallikdir, lekin uning o'ziga xos yosh chegaralari, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir [1].

**Asosiy qism.** Suitsid – o'z joniga qasd qilish bo'lib, lotin tilida «o'zini o'ldirish» ma'nosini anglatib, qasddan insonning o'z hayotiga nuqta qo'yishidir. Mazkur xulq, o'zini-o'zi yo'q qilishga qaratilgan ekstremal harakat turi deb ham ta'riflanadi. Mohiyatan, suitsid qasddan qilingan harakatlar, o'z hayotini yo'q qilish g'oyasiga asoslanadi. O'z joniga qasd qilishda namoyon bo'luvchi patologik fikrlar, niyatlar, his-tuyg'ular o'ziga xos psixologik yondashuvni talab etadi.

<sup>2</sup> American Psychological Association. (2019). Publication Manual of the American Psychological Association (6th ed.). Washington, DC: American Psychological Association.

Suitsid muammosi turli psixologik maktablarda turlicha qarashlar bilan o'rganilgan.

Bunda asosan deviant xulq-atvor va uni keltirib chiqaradigan motivatsiyalar to'g'risida bir qator ilmiy qarashlar mavjud.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiyaning asosiy vazifasi xulqni tadqiq qilishdan iborat, deb tushuntirishga harakat qiladi. U psixik holatlarni xulqning ifodasi sifatida qarab, inson xulqini ichki va tashqi shakllarga ajratadi va ular stimulg javob sifatida bevosita o'zaro bog'langanligini asoslashga urinadi.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiyaning predmeti psixika emas, balki stimullarga reaksiyalar qaytaruvchi xulqdir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimolni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida qaraydilar va tana a'zosining ichki quvvatini faollashtiradi deb tushunadilar [2].

Bixeviorizm nazariyasiga ko'ra, tajovuzkor xulq tahlil qilishda quyidagi uchta jihatni hisobga olish lozim:

1. Mazkur harakatlarni o'zlashtirish usullari;
2. Uni yuzaga keltiruvchi omillar;
3. Ular mustahkamlanadigan sharoitlar.

E.Daffi o'zining «xulq motivatsiyasini faollashtirish» nazariyasida motivatsiya muammosini kengroq tadqiq qilishga uringan. Ushbu nazariyaga ko'ra motiv xulq yo'nalganligi (xulqning faolligi) orqali ifodalanishi mumkin. Xulq intensivligi va uning aktivatsiyasi darajasini o'rganishda bosh miya po'sti (psixika) bilan sklet muskullari funksiyalari o'rtasida korrelyatsion munosabatlar indikatorlar sifatida qabul qilinadi. Uning fikricha, stimol bilan reaksiya kabi bilish bilan faollashish jarayonlari ham o'zaro o'rin almashib turadi.

E.Daffi o'z joniga qasd qilishni oqlash mumkin bo'lgan quyidagi oltita sababni tan oladi:

- yashash uchun mablag'larning yetishmasligi bilan;
- kuchli og'riq bilan kechadigan kasallik;
- umidsiz holat (asir, tahdid, qiynoqlar);
- chuqur qarilik;
- nopok yoki kamsituvchi harakatga majburlash;
- umumiy baxtsizlik. [3]

A.Bandura o'zining «Motivatsiya – sistematik reinterpretatsiya» nomli tadqiqotida xulq-atvorning namoyon bo'lishini odatda retikulyar formatsiyadan kelayotgan faollik darajasiga, miyaga boruvchi qonning fiziologik tarkibi ta'sir qilishiga bog'laydi. U motivatsiyani fiziologik qonuniyatlarga ko'ra tushuntirib berish bilan birga unga ta'sir etuvchi sub'ektiv omillarga (ichki stimullar va xulqning hayotdan o'zlashtirgan me'yorlarga) ham bog'liqligini ta'kidlab o'tadi [4].

D.Berlayn motivlar mohiyatini ochishda ehtiyojning o'rniga bevosita murojaat qiladi va uni bir necha xil ma'noda talqin etadi. Birinchidan, ehtiyoj – bu faollik va faoliyat darajasini belgilovchi shart-sharoit (energetik manba). Ikkinchidan, ehtiyoj - bu insonning maqsadiga ko'ra aniq javoblarga erishishga yordam beruvchi ichki holat yoki ularning tanlovchiligini (selektivligini) aniqlovchi turtki. Uchinchidan ehtiyoj – bu inson uchun rag'bat yoki mukofot olishga aloqador sharoit mazmuni. Muallifning fikricha, ehtiyoj – organizm uchun zarur bo'lgan javoblarni aniqlashga xizmat qiladi [5].

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar)ni turli bosqichlarda o'zaro murakkab bog'liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta'kidlaydi [6].

Psixanaliz asoschisi, psixiatr Z.Freydning suitsid borasidagi tasavvurlari odamdagi mavjud ikkita asosiy mayl konsepsiyasiga asoslanadi: Eros – hayot instinkti va tanatos – o'lim instinkti. Inson hayoti ular o'rtasidagi jang maydoni hisoblanadi. Inson nafaqat yashashni, suyuqli bo'lishni va o'zining davomini farzandlarida ko'rishni istaydi – shunday davrlar yoki ruxiy holatlar bo'ladiki, bunda o'lim istalgan bo'ladi. Yosh o'tishi bilan eros o'lib boradi, tanatos kuchli, qatiyatli bo'lib boradi va odamni o'limga olib borib, o'zini to'liq ro'yobga chiqaradi. Freydg muvofiq suitsid va o'zini o'ldirish tanatosning buzg'unchi ta'sirining namoyon bo'lishidir, ya'ni agressiyaning natijasidir [7].

Ayni paytda, suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilash va ularning har birini chuqur o'rganish uchun tegishli usullarni tanlash va saralashga to'g'ri keldi. Unga ko'ra, ko'p yillik tajribalarimiz va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, suitsidal xulqning psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus metodikalar va o'smirlar orasida suitsidal xulqqa moyillikning namoyon etilishini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqot uslubi belgilandi.

«Suitsidial xulq-atvorni aniqlash so‘rovnomasi» orqali olingan dastlabki statistik tahlillar  
(n=620)

Omillar	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezon	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Havotirlanish	13,6	7,2	1094	0,005
Umidsizlik	10,9	6,7	726	0,005
Tajovuzkorlik	9,9	8,9	832	0,018
Dezadaptatsiya	11,9	7,4	892	0,005
Suitsidial xulq-atvor	46,3	30,2	1014	0,005

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida **suitsidial** holatlarga moyillik aniqlanmadi, ammo ba’zi omillarga ko‘ra, natijalar biroz yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, 1-guruh respondentlarida yuqori darajadagi havotirlanish aniqlandi (*12-16 ball yuqori darajadagi xavotirlanishni anglatadi*). Havotirlanish darajasini yuqori bo‘lishi asosan ekstremal vaziyatlarda o‘zini namoyon qilish bilan belgilanadi. Bu holat o‘smirlardagi oddiy holatlarda ham tez-tez kuchli tashvishlarni boshdan kechirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Havotirlanish omili yuqori bo‘lgan talabalar muammoli vaziyatlarga, qiyinchiliklarga haddan tashqari kuchli munosabat bildirishadi. Bundan tashqari mazkur holatning yuqori bo‘lishi ulardagi o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarni, aqliy jihatdan tez toliqishlarga olib keladi. Havotirlanish ruhiy holatlarni belgilaydi, hissiy sohaga, xulq-atvoriga va kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, havotirlanish o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati uchun xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. 2-guruh o‘smirlarida esa xavotirning past darajasini ko‘rishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar hamda o‘smirlar orasida mazkur omil bo‘yicha ishonchli farq kuzatildi ( $U=1094$ ,  $p\leq 0,005$ ).

«Umidsizlik» omilida ham 2 ta guruh sinaluvchilari orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi ( $U=726$ ,  $p\leq 0,005$ ). Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda mazkur omil bo‘yicha yuqori natijani ko‘rishimiz mumkin (10-15 ball yuqori darajadagi umidsizlikni anglatadi). Ma’lumotlarga ko‘ra emotsional tushkunlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z ehtiyojlarini qondirish darajasi past darajada bo‘ladi. Umidsizlik shaxslarda butun e’tiborini muammoga va uni hal qilishga qaratilishini ta’minlaydi. Biroq, yuqori darajadagi hissiy zo‘riqishning kuchayishiga yordam beradi va neyropsixik taranglikni keltirib chiqaradi. Ushbu xususiyatning rivojlanishi o‘smirlarning individual xususiyatlari, o‘zini anglashi, o‘zini o‘zi qadrlashi va boshqalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Deviant xulq-atvoriga ega bo‘lmagan o‘smirlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

«Tajovuzkorlik» shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhda sezilarli farqlar kuzatilmadi. Har ikkala guruhda ham tajavuzkorlik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin ( $U=832$ ,  $p\leq 0,018$ ).

«Dezadaptatsiya» omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ( $U=892$ ,  $p\leq 0,005$ ).

Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarlar uchun yangi vaziyatlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, har bir holatlarga kuchli emotsional munosabatda bo‘lish, xulq-atvordagi muammolar, mavjud muammolarni bartaraf etishdagi qaror qabul qilish darajasining passivligini bildiradi. «Dezadaptatsiya» omiliga teskari bo‘lgan adaptatsiya omili yuqori bo‘lishi, o‘smirlarda turli vaziyatlarda tez moslasha olish, emotsional holatlarini nazoart qilish va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yenga olish xususiyatlarini mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Suitsidial xulq-atvor omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ( $U=1014$ ,  $p\leq 0,005$ ) (1-jadval).

Shaxsning suitsidial xulq-atvoriga bo‘lgan potensial va haqiqiy tendensiyalarini o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholash uning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi samaradorligining asosiy sharti sanaladi. Eng muhimi, suitsidial xulq-atvor mexanizmining bir qismi bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni aniqlashtirish hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘smirlardagi nafaqat suitsidial niyatlarini amalga oshirishga hissa qo‘shadigan motivatsion va semantik komponentlarni o‘rganish, balki oldini olish ham muhimdir.



**“Suitsidal xavf so‘rovnomasi” T.N. Razuvayeva modifikatsiyasi bo‘yicha yigitlar va qizlardan olingan natijalar tahlili (n=620)**

Omillar	Qiz bolalar	O‘gil bolalar	p
Namoyishkoronalik	20,0 ± 3,0	22,2 ± 1,9	<b>0,002</b>
Affektivlik	50,3 ± 2,0	35,8 ± 3,2	<b>0,000</b>
Noyoblik	24,1 ± 2,9	16,1 ± 2,2	0,005
Layoqatsizlik	30,8 ± 2,9	24,6 ± 2,6	0,005
Ijtimoiy pessimizm	50,8 ± 2,5	41,3 ± 2,3	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	30,7 ± 2,3	31,7 ± 2,6	0,005
Maksimalizm	41,3 ± 4,3	39,6 ± 3,3	<b>0,002</b>
Vaqtinchalik perspektiva	17,5 ± 2,1	18,5 ± 1,6	0,005
Antisuitsidal faktor	88,1 ± 2,7	84,2 ± 3,0	0,005

**Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.**

Mazkur metodika bo‘yicha olingan natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, deyarli barcha omillarda yigitlar va qizlarda statistik farqlar kuzatildi. Eng yuqori farqlar «namoyishkoronalik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ )), «affektivlik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,000$ )) va «maksimalizm» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ )) da aniqlandi. Masalan, qizlarda «namoyishkoronalik» omili yuqori ekanligi ulardagi salbiy emotsional holatlarda atrof-muhitni e‘tiborini o‘ziga tortishda bo‘lgan harakatlarida, boshqalar ular uchun qayg‘urishini istashlarida ko‘rinadi. Yigitlarda esa mazkur omillar teskarisiga, ya‘ni o‘zi bilan bo‘layotgan voqealarni atrof muhitdan nisbatan yashirishga intilar ekanlar.

«Affektivlik» omili esa qizlarga nisbatan yigitlarda ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa ularda vaziyatlarni adekvat baholashda ko‘pincha intellektal sohaga emas, balki emotsional sohaga e‘tibor qaratishida namoyon bo‘lar ekan. Qizlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq ekanligi qayd etildi.

«Maksimalizm» omili qizlarda ustun ekanligi aniqlandi. Ya‘ni aynan o‘smirlik yoshida hos xususiyat bo‘lib, atrofda narsa va hodisalarga faqat o‘zining “qarichi” bilan munosabat bildirishidir. Ularning fikrlashi asosan ijtimoiy munosabatlarga zid bo‘ladi. Bu esa ularda turli ko‘rinishda, dezadaptatsiya, destruktivlik, turli zararli odatlarga berilish bilan tugashi mumkin.

Endi, mazkur metodikani deviant xulq-atvorli o‘smirlar va deviant xulq-atvoriga ega bo‘lmagan o‘smirlar kesimida tahlil qilamiz. Biz dissertatsiyamizning ikkinchi bobida, ya‘ni, tadqiqot ob‘ekti haqidagi bo‘limida deviant xulq-atvorli o‘smirlarni viloyat, tuman kesimida aniqlab olgan edik. Maqsadimiz har ikkala respondentlar guruhidagi suitsidga moyillik darajasini aniqlashdan iborat (2-jadval).

**Suitsidal xavf so‘rovnomasi (T.N. Razuvayeva modifikatsiyasi) metodikasi (n=620)**

Omillar	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezon	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Namoyishkoronalik	3,1	3,2	867	0,584
Affektivlik	3,6	2,7	356	0,005
Noyoblik	3,2	3,4	962	0,117
Layoqatsizlik	4,7	3,2	426	0,005
Ijtimoiy pessimizm	3,9	2,6	384	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	1,6	1,9	1014,2	0,047
Maksimalizm	2,8	2,9	1123,2	0,352
Vaqtinchalik perspektiva	3,4	2,4	364	0,005
Antisuitsidal faktor	3,2	3,9	983	0,025

**Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.**

Olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, har ikkala respondentlar guruhida ma'lum bir farqlar kuzatildi. Jumladan, «affektivlik» ( $U=356, p \leq 0,05$ ), «layoqatsizlik» ( $U=426, p \leq 0,05$ ), «ijtimoiy pessimizm» ( $U=384, p \leq 0,05$ ) hamda «vaqtinchalik perspektiva» ( $U=364, p \leq 0,05$ ) omillarida yuqori farqlar kuzatildi.

«Affektivlik» omili deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida o'rtacha qiymat ( $Me=3,6$ ) ni, deviant xulq-atvoriga ega bo'lmagan o'smirlarda esa ( $Me=2,7$ ) ni ko'rsatdi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, ularda stressli vaziyatga haddan tashqari hissiy munosabat bildirish tendensiyasi hamda kuchli emotsional holatlarda aqlning affektiv blokadasini o'zini namoyon qilgan ekan.

«Layoqatsizlik» omili ham deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida ( $Me=4,7$ ) ni ko'rsatdi. Bu esa ularda hayotni anglashdagi muammolar, o'z rejalarini amalga oshirishda ishonchsizlik va o'ziga o'zi qarama-qarshi munosabatda bo'lishini anglatadi. Ular o'zlarini qobiliyatsiz, mazkur dunyodan uzilgan hamda jamiyatga butunlay foydasiz deb bilishadi.

«Ijtimoiy pessimizm» ( $Me=3,9$ ) bo'yicha ham deviant xulq-avorli o'smirlarda natijalar salbiy ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur shaxslar ularni o'rab turgan dunyoni salbiy jihatdan tasavur qilishadi. Ular boshqalarni salbiy fazilatlariga ega, dunyo tashvish va xavf-xatarlarga to'la, dushmanlik deb baholashadi, ularni fikrlari boshqalar bilan uyg'un insoniy munosabatlar g'oyalari mos kelmaydi.

«Vaqtinchalik perspektiva» ( $Me=3,4$ ) omilida ham deviant xulq-avorli o'smirlarda 3 baldan yuqori natija qayd etildi. Bu esa mazkur guruhda kelajak hayotga bo'lgan ishonchsizlik, rejalashtirish qobiliyatining pastligi bilan belgilanadi. Bu esa ularning ayni holatidagi ruhiy zo'riqishlar, havotirlanish darajasining yuqoriligidan ham kelib chiqishi mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlardan aytish mumkinki, deviant xulq-atvorli o'smirlarda mazkur omillar suitsidal holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, mazkur guruhda «antisuitsidal faktor» ( $Me=3,2$ ) ham majud bo'lib, suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillar ularda yuqori chiqqan bo'lsada, ulardagi ma'suliyat, burj hislari mazkur holatlarni pasaytirishi mumkin (3-jadval).

#### 4-jadval.

#### Suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=620)

Omillar	Xavotirlanish	Umidsizlik	Tajovuzkorlik	Dezadaptatsiya
Namoyishkoronalik	0,118	0,434**	0,147	0,142
Affektivlik	0,150	0,110	0,599**	0,118
Noyoblik	0,138	0,062	0,150	0,128
Layoqatsizlik	0,042	0,137	0,120	0,215
Ijtimoiy pessimizm	0,646**	0,172	0,225	0,466**
Madaniy to'siqlarni buzish	0,091	0,238	0,198	0,105
Maksimalizm	0,039	0,142	0,463**	0,254
Vaqtinchalik perspektiva	0,247	0,570**	0,230	0,122

Tadqiqotimiz davomida suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Bundan asosiy maqsad deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash edi. 4-jadvalda keltirilgan malumotlar tahliliga o'tadigan bo'lsak, bunda eng ko'p korrelyatsion bog'lanish «Ijtimoiy pessimizm» omilida kuzatildi. Agar o'smirlarda qanchalik atrofdagi olamga va o'zining ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy qarashlar, dushmanlik ruhidagidek olamni qabul qilish va atrofdagilar bilan qoniqarsiz munosabatda bo'lish darajalari yuqori bo'lsa, ularda «xavotirlanish» ( $r=0,646**$ ) va «dezadaptatsiya» ( $r=0,466**$ ) omillari ham yuqori bo'lishi aniqlandi. «Namoyishkoronalik» omili «Umidsizlik» bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligi kuzatildi ( $r=0,434**$ ). Bu shundan dalolat beradiki, agar o'smirlarda o'zining baxtsizligiga atrofdagilar diqqatini tortish xohishi, achinishga bo'lgan xarakterlarining ustun bo'lishi, ulardagi o'z istaklarni qondira olmaslik, g'azab, xavotir yoki disforiya ifodalari bilan hissiy darajaga ta'sir qilishi bilan belgilanadi. «Affektivlik» ( $r=0,599**$ ) va «Maksimalizm» ( $r=0,463**$ ) omillari «Tajovuzkorlik» bilan bog'liqlik kuzatildi (4-jadval).

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda tajovuzkorlik sifatini yuqori bo'lishi, ularning ijtimoiy munosabatlarni baholashda intellektual nazorat ustidan emotsiyalarning balandligi hamda jamiyatdagi voqea-hodisalarga o'ta jiddiy munosabatda bo'lishi bilan izohlanadi. Demak, deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidial holatlarni aniqlash hamda uni oldini olishda mazkur holatga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimizning navbatdagi metodikasi «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» (K.N.Tomas) bo'lib, mazkur metodikani qo'llashimizdan asosiy maqsad, deviant xulq-atvorli o'smirlarning shaxslararo munosabatlardagi o'rnini aniqlash edi. Chunki, shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarning ko'payishi, ulardagi o'z ijtimoiy hayotidagi norozilik, o'z-o'zidan qoniqmaslik, o'ziga nisbatan past baho berishiga olib kelishi mumkin. Tomas testi asosida tadqiqotimiz davomida olingan o'ziga xos empirik tahlillar talqini deviant xulq-atvorli o'smirlardagi ziddiyatli holatlardan chiqish motivatsiyasi bilan bog'liq holatlarini ilmiy interpretatsiya qilishni taqozo etadi. Chunki, mazkur yo'nalishdagi tahlil asosida deviant xulq-atvorli o'smirlarning turli xil muammolar bilan bog'liq turli xil ziddiyatlardan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Zero, ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad shuki, unda har bir o'smir uchun xarakterli bo'lgan motivatsiya ko'rsatkichlariga empirik jihatdan baho berish orqali ulardagi ziddiyatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan o'ziga xos individual – psixologik yondashuvlar ko'lamini belgilab olishdir. Chunki har bir ko'rsatkich darajasi Tomas uslubi bo'yicha belgilangan 5ta mezonga dahldorlik imkoniyati bo'yicha tadqiq qilinadi [7].

5-jadval.

Tomas uslubi bo'yicha ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari (n=620)

Omillar	n <sub>1</sub> 5-sinf	n <sub>2</sub> 6-sinf	n <sub>3</sub> 7-sinf	Ishonchlilik darajasi
Bahs-munozara	4,40	7,13	8,87	0,002
Hamkorlik	6,40	5,07	4,67	0,332
Kelishuv	7,67	5,70	5,30	0,231
O'zini chetga olish	5,33	6,33	6,23	0,006
Moslashuv	6,20	5,87	5,83	0,611

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01, \*\*\*-p<0,001.

Keltirilgan jadval interpretatsiyasiga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, mazkur uslub yordamida olingan ma'lumotlar o'smirlar guruhlarida doirasida turli xil ko'rinishlarda namoyon etilganligi bilan xarakterlidir. Zero, ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari har bir deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'ziga xos aloxida dinamik xususiyatlarga ega ekanligini yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, 5-sinf o'smirlari orasida eng yuqori natija “Kelishuv” (7,67) omilida kuzatildi. Eng quyi natija esa “Bahs-munozara” (4,40) ekanligi qayd etildi. 5-sinf o'smirlari kichik maktab yoshidan eni chiqqanligi sababli, ularda asosan deviansiya muammosi faqatgina oilaviy muhitda kuzatilishi olib borilgan kuzatish, suhbat metodlarimiz orqali aniqlandi. Demak 5-sinf o'quvchilari suitsidial holatlarga moyillik darajasi nisbatan boshqa yoshga qaraganda pastroq darajada bo'lishi mumkin ekan.

Navbatdagi respondentlar guruhida esa o'rganilgan 6-sinf va 7-sinf guruhi bo'yicha Tomas shkalasidagi 5 ta mezon ichida birinchi o'ringa “bahs munozara” motivatsiyasi (1-mezon) to'g'ri kelgan bo'lsa 2-o'rinda esa o'zini chetga olish (4-mezon) motivatsiyasi yetakchilik vazifasini o'taydi. Bu holatning asosiy sabablariga yanada ko'proq aniqliklar kiritish maqsadida har bir respondent bilan individual suhbatlar olib borildi. Yig'ilgan ma'lumotlarning kontent-tahlil natijalariga murojaat qilindi. Umuman, barcha qo'shimcha usullarning natijalari ham o'rganildi. Demak, Tomas uslubi bo'yicha belgilangan 5 ta mezon ichida bahs-munozara va “o'zini chetga olish” motivatsiyalarining yetakchi o'rinlarni egallashi, 6-sinf va 7-sinflar orasida orasida ko'proq bahs-munozaraga moyillik, o'z “men”ligini ustun qo'yish har qanday holatda o'z fikri va g'oyalarni boshqalarnikiga nisbatan ustun qo'yishga intilish kabi harakatlarining yaqqol namoyon etilishi bilan ko'zga tashlanib turdi. Shunday bo'lsada, o'smirlarning sezilarli darajadagi bir qismi (n<sub>2</sub> 6,33, n<sub>3</sub> 6,23,) har qanday ziddiyatli holatlar paytida o'zlarini chetga olib turishni va munozaralarga aralashmaslikni, chetda turib voqelikni kuzatib borishni afzal bilganliklari bizni hayron qoldirdi (5-jadval).

Chunki, aynan biz o'rganayotgan yoshlar orasida bir-biriga teskari ikki xil motivatsiyaning nisbatan yetakchilik qilishi (albatta shartli tarzda qabul qilingan 5 xil motivatsiya yo'nalishi bo'yicha taqqoslab olganda) ulardagi o'ziga xos individual – psixologik xususiyatlar bilan bevosita bog'liq ekanligini yana bir

bor namoyon qildi. Qolaversa, bu o‘rinda har bir shaxsning o‘ziga xos muammosi, qiziqishlari, ichki his-tuyg‘ularini ham unutmaslik kerak bo‘ladi. Eng quyi natija har ikkala guruhda ham “hamkorlik”, “kelishuv” “moslashuv” omillarida qayd etildi.

Deviant xulq-atvorli o‘smirlardan olingan qo‘shimcha ma‘lumotlar ham ushbu ko‘rsatkichni tasdiqlamoqda. Binobarin, deviant xulq-atvorli o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq ziddiyatli holatga duch kelganlarida aksariyat holatda “moslashuvchanlik” motivatsiyadan qochishga harakat qilar ekanlar. Shuningdek, ular aksariyat holatlarda “moslashishga” emas “baxs-munozaraga” moyil bo‘layotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Albatta, psixologik korreksiya jarayonida mazkur holatlarni inobatga olishi shart va zarur bo‘ladi. Keltirilgan jadvallar interpretatsiyasiga asoslanib shuni ta’kidlash joizki, mazkur test yordamida ziddiyatli xolatdan chiqish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining xar bir axoli guruhiga xos dinamik xususiyatlar mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Shaxsni ijtimoiy munosabatlarda o‘zining ma‘lum bir o‘rnini topa olmasligi, jamiyat qonun-qoidalariga moslasha olmaslik darajalari qaysidir ma‘noda ulardagi negativ hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Bu esa ko‘pincha o‘smir yoshidag shaxslarda ko‘pincha salbiy holatlar bilan tugashi mumkin. Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik metodikasi asosida ko‘rib chiqilayotgan parametrlar ham o‘smirdagi dezadaptatsiya darajasini, hamda uning “men timsoli” xususiyatlarini baholashga imkon beradi. Bu ko‘rsatkichlarning mos kelish darajasini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil o‘tkazildi (6- jadval).

**6-jadval.**

**Ijtimoiy psixologik moslashuvchanlik metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili  
(n=620)**

Ko‘rsatkichlar	Adaptatsiya	O‘zini qabul qilish	Boshqalarniqabul qilish	Emotsionaldiskomfort	Nazorat	Hukmronlik
N	620	620	620	620	620	620
M	78,80	26,30	15,95	19,70	33,75	8,20
Standart og‘ish	9,40	6,69	3,22	4,13	5,83	1,67
Pozitiv	0,11	0,11	0,07	0,12	0,09	0,16
Negativ	-0,08	-0,10	-0,10	-0,07	-0,06	-0,09
Kolmogorov-Smirnov	0,52	0,52	0,47	0,56	0,40	0,73

Deviant xulq-atvorli o‘smirlardagi sotsial adaptatsiya, ya’ni, moslashuvchanlikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning sotsial adaptatsiyani aniqlash so‘rovnomasining umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari birinchi shkala bo‘yicha, ya’ni, adaptatsiya mulohazasi o‘quvchilarda 78,80 natijani qayd etgani va bu standart me’yor bo‘yicha o‘rtacha miqdorda ekanligini ifodalaydi. O‘zini qabul qilish shkalasiga ko‘ra, o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvchanlik darajalari 26,30 nisbatni tashkil qilgan. Bu shkala bo‘yicha o‘smirlarning olingan natijalari so‘rovnoma me’yoriy ko‘rsatkichiga ko‘ra, o‘rtacha natijani ko‘rsatgan. O‘quvchilarda o‘zini qabul qilish shkalasi bo‘yicha o‘rtacha natijani namoyon qilganligi, ularda boshqalar bilan birgalikda o‘zlarini ham tushunishlari bilan izohlanadi. Uchinchi shkala ya’ni boshqalarni qabul qilish bo‘yicha olingan natijalar 15,95 ni tashkil etgan. Bu esa, o‘quvchilarda o‘zlarini bilan birgalikda atrofdagi insonlarni ham tushuna olish imkoniyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. To‘rtinchi shkala emotsional diskomfort shkalasiga ko‘ra, o‘quvchilarning natijalari 19,70 natijani tashkil qilganligi va bu standart me’yor bo‘yicha o‘rtachaga yaqin miqdorni tashkil qilishini anglatadi. Beshinchi shkala nazorat bo‘yicha 33,75 qiymatni tashkil qilganligi, o‘zini boshqara olishi, nazorat va tartibli xulq-atvorni amalga oshirishi bilan belgilanadi. Oxirgi shkala hukmronlik bo‘yicha natijalar 8,20 o‘rtacha ko‘rsatkichni tashkil qilganligi va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnata olishda avtoritar hokimiyatga moyilligi bilan ajralib turadi. O‘quvchilardan olingan natijalar sotsial adaptatsiyani aniqlash so‘rovnomasi bo‘yicha umumiy o‘rtacha miqdor o‘rtacha ekanligini ko‘rsatdi.

7-jadval.

## Ijtimoiy psixologik moslashuvchanlik metodikasi bo'yicha olingan natijalarning korrelyatsion aloqadorlik ko'rsatkichlari (n=620)

Mezonlar	Moslashuvchanlik	O'zini o'zi qabul qilish	Boshqalarni qabul qilish	Emotsional komfort	Internallik	Ustunlikka intilish
Moslashuvchanlik	1	0,688*	0,509*	0,648**	0,640**	0,526**
O'zini o'zi qabul qilish	0,688**	1	0,198	0,738**	0,617*	0,558**
Boshqalarni qabul qilish	0,509*	0,198	1	0,608*	0,037	-0,053
Emotsional komfort	0,648**	0,618*	0,608**	1	0,629	-0,029
Internallik	0,640*	0,513	0,037	0,629	1	0,253
Ustunlikka intilish	0,526*	0,558*	0,053	0,029	0,253	1

p&lt;0,005;\* p&lt;0,001\*\*

Demak, muayyan umumiy tahlil natijalariga ko'ra tadqiqot obyekti sifatida empirik jihatdan o'rganilgan o'smirlarda moslashuvchanlik mezonining «o'zini o'zi qabul qilish» (0,688), «emotsional komfortlik» (0,648) «internallik» mezonlari (0,640) o'rtasida yuqori korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Biroq, «boshqalarni qabul qilish» mezonining esa «ustunlikka intilish» (0,053), «internallik» (0,037), «o'zini-o'zi qabul qilish» (0,198) mezonlari o'rtasida korrelyatsion aloqadorlikning bir muncha zaifroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqori korrelyatsion bog'lanish, shuningdek, «o'zini qabul qilish» mezoniga nisbatan «emotsional komfortlik» (0,738), «internallik» (0,617) va ustunlikka intilish (0,558) kabi mezonlar o'rtasida ham kuzatildi. Ayni paytda eng zaif korrelyatsion ko'rsatkichlar miqdori «Boshqalarni qabul qilish va ustunlikka intilish» (-0,053), «emotsional komfort va ustunlikka intilish» mezonlari o'rtasida namoyon etildi. Buning asosiy sababi deviant xulq-atvorli o'smirlarda «boshqalarni qabul qilish» ko'rsatkichlarining ortishi ulardagi emotsionallik va ustunlikka intilishning kamayishi hisobiga ro'y berishi bilan bog'liqligi tasdiqlandi (7-jadval).

8-jadval.

## Bass va A.Darkining “Tajovuz holati tashxisi metodikasi” bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Kolmogorov-Smirnovning z- mezonini bo'yicha) (N=620)

Ko'rsatkichlar	Jismoniytajovuz	Verbal tajovuz	Bilvositatajovuz	Negativizm	Tajanglik	Shubhalanuvchanlik	Xafagarchilik	Aybdorlik
N	620	620	620	620	620	620	620	620
M	3,50	6	3,50	1,55	3,50	3,05	2,75	2,80
Standart og'ish	1,19	1,55	1,10	0,94	1,46	1,39	1,20	1,28
Pozitiv	0,16	0,20	0,22	0,17	0,13	0,16	0,18	0,18
Negativ	-0,16	-0,16	-0,16	-0,23	-0,14	-0,13	-0,16	-0,16
Kolmogorov-Smirnov	0,72	0,89	1	1,04	0,65	0,73	0,81	0,82

Deviant xulq-avorli o'smirlarda suitsidial holatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida tajovuz holatidan olingan natijalar birinchi shkala bo'yicha jismoniy tajovuz 3,50 qiymatdagi darajani ko'rsatgan. Bu natija shu narsani anglatadiki, o'smirlarning deyarli hammasi hozirgi davrda jismoniy

zo‘ravonlik bilan bog‘liq munosabatlarni xisobga olganligi bilan alohida xarakterlanadi. Shu jihatdan o‘smirlarning hammasida jismoniy tajovuz o‘rtachadan past ekanligini aks ettirgan. Bu shkaladan ko‘rinadiki, o‘smirlarda jismoniy hatti-xarakatlar bilan bog‘liq og‘ishlar ma‘lum darajada quyi roq shakllangan. Ikkinchi shkala ya‘ni verbal tajovuz bo‘yicha natijalar 6 darajani tashkil qilgan. Bu nisbat esa, o‘smirlarda nizoli vaziyatlarni hal qilishda verbal tajovuzlarning past darajada shakllanganligidan dalolat beradi. O‘smirlarda verbal agressiya quyi darajada ekanligidan darak beradi. Keyingi shkala bilvosita tajovuz bo‘yicha olingan natijalar standart me‘yorga ko‘ra, 3,50 darajani qayd etgan. Bu natija o‘smirlarda bilvosita tajovuz xavfi o‘rtachadan pastroq ekanligini ko‘rsatgan. Tadqiqot ob‘ekti sifatida tanlangan o‘smirlar bilvosita tajovuzga ko‘ra, boshqalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nizoli vaziyatlarga borish ehtimoli pastroq ekanligini tashkil qilgan. To‘rtinchi shkala negativizm bo‘yicha o‘smirlarning to‘plagan natijalari 1,55 ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichda ham standart me‘yorga ko‘ra, o‘smirlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari eng quyi darajani namoyon qilgan. Ya‘ni, o‘smirlar atrofdegilar bilan munosabat o‘rnata olishida ularning fikr-mulohazalarini inobatga olishidan dalolat beradi. Keyingi shkala tajanglik bo‘yicha 3,50 qiymatni tashkil qilganligi va biror-bir noxushlikni ijobiy darajada qabul qilishi bilan belgilanadi. Navbatdagi shkala shubhalanuvchanlik 3,05 nisbatga ko‘ra, o‘smirlarda turli hil axborotlarni qabul qilishda ularga shubha bilan qaramasligi past darajada ekanligini anglatadi. Xafagarchilik shkalasi bo‘yicha o‘smirlarning olgan qiymatlari 2,75 ni tashkil qilganligi va bu o‘zgaralar bilan shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda tez ranjib qolmasliklaridan dalolat beradi. Oxirgi shkala aybdorlik hissiga ko‘ra, o‘quvchilarda birorta ishni noto‘g‘ri bajargan holda ham aybdorlik hissi 2,80 juda quyi darajada ekanligi bilan belgilanadi (8-jadval).

9-jadval.

**Sub‘ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan olingan umumiy natijalar (n=620)**

№	Ko‘rsatkichlar	Ui	Mi	Oi	Yai	Oi	Shi	Si
1.	Omillar soni	44	12	12	10	8	4	4
2.	O‘rtacha qiymat	26,3	7,2	5,9	5,1	4,8	2,5	2,5
3.	Foizda	60	62,5	49,1	51	60	62,5	60

Ui-Umumiy internallik

Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik

Oi - Omadsizliklar sohasidagi internallik

Yai-Yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallik

Oi-Oilaviy munosabatlardagi internallik

Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik

Si-Sog‘liq va kasallik bo‘yicha internallik

Natijalar tahlil qiladigan bo‘lsak, eng yuqori natija (62,5%) shaxslararo munosabatlar hamda muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallikda kuzatildi. Bu o‘smirlarning nisbatan muloqotda va muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan kompetensiya ko‘rsatkichlarini namoyon etishi mumkin.

Eng quyi natija (51% i 49%) omadsizliklar sohasidagi internallik va yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallikda ekanligi qayd etildi (9-jadval).

O‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi testining natijalari bo‘yicha barcha o‘rtacha ko‘rsatkichlar 50% dan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabat omillari ijobiy eanligini ko‘rishimiz mumkin.

Eng yuqori natija III shkalasida 80,7% ni tashkil etdi. Bu esa o‘smirlik davrida yuz beradigan krizislarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki o‘smirlik davrida emotsional holatning yuqori bo‘lishi ularda boshqa insonlardan ijobiy munosabatlarni kutish tendensiyasini namoyon etadi.

Eng quyi natija 61,2% ni, ya‘ni II shkalada kuzatildi. Bu esa o‘smirlarning tarbiyaviy jarayonlarida ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Endi mazkur metodika shkalalari bo‘yicha olingan natijalarning gender farqlarini ko‘rib chiqamiz.

**Subyektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan  
olingan natijalarning gender tahlili (n=620)**

Ko‘rsatkichlar	Qizlar	Yigitlar
	% hisobida	
Internal	41,1	68,7
Eksternal	17,6	18,7
Aniqlanmagan tip	35,2	18,7
O‘z-o‘ziga yuqori baho	58,8	75
O‘z-o‘ziga quyi baho	41,1	25
Hayotdan qoniqish indeksi (yuqori)	70,5	81,2
Hayotdan qoniqish indeksi (quyi)	29,4	18,7

**Xulosa.** Mazkur omillar bo‘yicha olingan statistik natijalarning gender tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, internallik omilida eng yuqori farq kuzatildi. Yigitlarda qizlarga nisbatan ichki lokus nazorat kuchliroq ekanligi qayd etildi. Buni esa yigitlarda o‘z hayotlari uchun qizlarga qaraganda ko‘proq mas’uliyatni his qilishlari hamda o‘z hayotida bo‘layotgan yututqlar hamda muvaffaqiyatsizliklarga ko‘proq o‘zlarini sabachi deb bilishadi. Qizlarda esa mazkur holat aksincha, ko‘proq boshqalarni ayblash tendensiyasi ustunlik qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Кон. И.С Особенности саморазрушающего поведения при различных типах акцентуации характера у подростков // Саморазрушающее поведение у подростков. - Л., 1991. – С. 9-14.
2. Adler A. Suicide. // J. Individ. Psychol. 1958. № 14 – P.57-62.
3. Daffi. E Child care and the growth of love // Abridged and edited by Frym. –London and Tonbrige, 2019. – P. 104-130.
4. Bandura A. Social learning theory of identificatory processes // Handbook of socialization theory and research / Ed. by D.A. Coslin. Chicago, 1969. P. 159.
5. Берлайн. Д Основы превентивной психологии. М.: Редакционно- издательский центр консорциума «Социальное здоровье России», 1993.– 199 с.
6. Рубинштейн. Л.С. Проблемы общей психологии. - М.; 1973. - 424 с.
7. Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. – С. 5-42.; Freud S. Mourning and melancholia // Hogarth Press, London – 1957.
8. Elov Z.S. O‘smirlarda suitsidga moyillikni korreksiyalashning psixologik mexanizmlari. Avtoreferat 2023 y.

**Eshmuradov Olmosbek Elamanovich**

*Termiz davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
[olmosbekeshmuradov@gmail.com](mailto:olmosbekeshmuradov@gmail.com)

## ZAMONAVIY DAVRDA JAMIYATNING SHAKLLANISHIDA OILANING IJTIMOYIY INSTITUT SIFATIDAGI ROLI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning ajralmas bo'lagi ekanligi, uning ijtimoiy roli, hayotiy faoliyat uchun mavjud vazifalari tadqiq qilingan va yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada demografik jarayonlar sifatida globallashtirish, urbanizatsiya, migratsiya jarayonida oila va uning jamiyatdagi rolini tasniflovchi ilmiy qarashlar keltirilgan va umumlashtirilgan. Avlodlararo va etnik xususiyatlarga ega bo'lgan oila institutiga ta'riflar berilgan va uni turli millat vakillari tomonidan talqini bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, ijtimoiy institut, transformatsiya, zamonaviy jamiyat, millat, oila ichidagi munosabatlar.

## РОЛЬ СЕМЬИ КАК СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВА В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД

**Аннотация.** В данной статье исследуется и освещается тот факт, что семья является неотъемлемой частью общества как социального института, её социальная роль, существующие у неё задачи жизнедеятельности. В статье также представлены и обобщены научные взгляды, которые классифицируют семью и её роль в обществе в процессе глобализации, урбанизации и миграции как демографические процессы. Даны определения института семьи с межпоколенческими и этническими особенностями, и описана его трактовка представителями разных национальностей.

**Ключевые слова:** семья, социальный институт, трансформация, современное общество, нация, отношения внутри семьи.

## THE ROLE OF THE FAMILY AS A SOCIAL INSTITUTION IN THE FORMATION OF SOCIETY IN THE MODERN PERIOD

**Abstract.** In this article, the fact that the family is an integral part of society as a social institution, its social role, and its existing tasks for vital activity are researched and highlighted. Also, the article presents and summarizes the scientific views that classify the family and its role in society in the process of globalization, urbanization, and migration as demographic processes. Definitions of the family institution with intergenerational and ethnic characteristics are given and its interpretation by representatives of different nationalities is described.

**Key words:** family, social institution, transformation, modern society, nation, relations within the family.

**Kirish.** Dunyoning hamma joyida oilalar intellektual darajasi, kasbi, moddiy va ma'naviy imkoniyatlari, shahar va qishloq aholi punktlari, ijtimoiy-madaniy, diniy, mafkuraviy va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu farq oilalarning shakli va xarakterida ham namoyon bo'ladi [1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda idealroq va nazariyroq bo'lgan yagona oila modeli haqida gapirish o'rinsiz bo'ladi. Biroq jamiyatda turli oilalarni birlashtirib, milliy o'ziga xoslikni shakllantiradigan umumiy qadriyatlar (umumiy til, diniy birdamlik, fuqarolik) mavjud. Umumiy qadriyatlar mustahkam bo'lsa, oila va oilalararo rishtalar mustahkamlanib, jamiyat shu asosda rivojlanadi.

**Asosiy qism.** An'anaviy jamiyatda har bir insonning tasavvuriga ko'ra, dunyo ikki sohaga bo'linadi: "o'z" va "o'zga". Insonning yashash jarayoni koinotning markazi hisoblanadi. Koinot esa ma'lum, o'zlashtirilgan, tuzilgan makon va yagona dunyodir. Shuning uchun an'anaviy jamiyatda o'tmishni aniqlash muammosi bo'lgan juda muhim bir nuqta paydo bo'ladi. Zamonaviy davrda yuz berayotgan turli jarayonlar, an'anaviy qadriyatlardan uzoqlashish, migratsiya, urbanizatsiya, umuman olganda demografik jarayonlar va



hokazolar klassik oila modelini modernizatsiya qilishga olib keladi. Dual an'anaviy madaniyatga ega jamiyatda ijtimoiy guruhlarning o'ziga xosligi etnos bilan bog'liq.

Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyati uning vazifalari, tuzilishi, har bir oila a'zosining oiladagi o'rni bilan ifodalanadi. Oila quyidagi muhim funktsiyani bajaradi:



**1-rasm. Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyati**

Inson avlodining ketma-ket o'zgarishi jarayoni oila orqali o'tadi. Bola oilada tug'iladi, u orqali bolalarning dastlabki ijtimoiylashuvi va tarbiyasi amalga oshiriladi. Ushbu sanab o'tilgan funktsiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va zamonaviy oila modelining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy institut bo'lgan oilaning tarbiyaviy vazifasi ijtimoiy qadriyat sifatida qadrlil bo'lib, shaxsni shaxsga aylantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiylashuv - bu shaxsning jamiyatga moslashish jarayoni bo'lib, uzoq davrni qamrab oladi. Inson biologik mavjudod bo'lib tug'iladi, so'ngra o'zi yashayotgan jamiyatning me'yor va qadriyatlarini shaxs sifatida qabul qilib, ijtimoiy mavjudotga aylanadi. Oila ijtimoiy institut bo'lib, u erda bola birinchi marta ijtimoiy normalarni o'rganadi va shaxs sifatida ijtimoiylashadi. Ijtimoiylashtirish funktsiyasi tufayli oilada shakllangan shaxs jamiyat ehtiyojlarini qondiradi va o'zining ijtimoiy "men"i yoki o'ziga xosligini egallashga va jamiyat a'zosiga aylanishga erishadi.

Ko'pgina mamlakatlarda oilada o'sish funktsiyasi demografik vaziyat bilan bog'liq; agar oilada bola tug'ilishi obyektiv shart bo'lsa, bolalarni tarbiyalash, ikkinchi funktsiya asosiy rol o'ynaydi. V.S. Yazikova va L.A.Zubenkolarning fikricha, oilaning tarbiyaviy funktsiyasi jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot va nihoyat, inson shaxsini rivojlantirish maqsadiga qaratilgan asosiy va eng muhim funktsiyadir[3]. Jamiyatning har bir a'zosining shaxs sifatida shakllanishida shaxsning jismoniy va ma'naviy salomatligi bolalik va inson rivojlanishining boshqa davrlarida oilada olgan ijtimoiylashuviga qarab o'zgaradi.

Oila har bir davrda tuzilish jihatdan bir xil, ammo vaqt tushunchasi qadriyatlarni yo'qotish kabi masalalarning paydo bo'lishini o'z ichiga olgan omillarning mavjudligini yanada tezlashtiradi. Oilaning asosiy funktsiyalaridan biri avlodlararo munosabatlarning shakli va mazmunidagi o'zgarishlardir. Vaqt o'tishi bilan har bir etnik guruh ichida bu aloqalar zaiflashadi va oila a'zolari orasidagi masofa uzoqlashadi. Bu jarayon yana texnologiya predmeti bilan qiyoslanadi va tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Ilmiy-texnik yangiliklar, insonlar afzal ko'rgan virtual dunyo jonli kuchlarni jonsiz kuchlarga qaram qiladi.

Taxminan ikki asr muqaddam dunyo xalqlarining har birida klassik oila institutining asosiy tuzilmasi ota-onalar, bolalar va nabiralar (katta oila)dan iborat bo'lgan bo'lsa, XX asr oxiridan boshlab bobo va buvilar so'nggi davrdan chetda qolib ketgan oila modeli deb ataladi. Bu jarayon natijasida nevaralar o'z uyiga tashrif buyurganlarida yoki aksincha, taklif etilganlarida bobo va buvilarini ko'rishlari mumkin. Shunday qilib, vaqt omili tabiiy ravishda har bir vaziyatda oila institutining tuzilishi va tartibga solinishiga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy institut - bu odamlarning obyektiv aloqalari asosida shakllanadigan integratsion yaxlitlikning alohida turi. U jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun jamoat boyliklari va qadriyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy normalar va munosabatlarning uyushgan tizimi sifatida ishlaydi. Turli fanlarning tadqiqot obyekti bo'lgan ijtimoiy institutlar maqsad va vazifalari jihatidan o'xshashdir. Bularga oila, oqsoqollar, mulk va boshqalar kiradi. Bu institutlar, o'z navbatida, oila institutining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi zamonda dunyoda sodir bo'layotgan turli jarayonlar har bir shaxsga ta'sir qiladi. Ular orasida butun demografik jarayonlar sifatida globallashtirish, urbanizatsiya, migratsiyani nomlash maqsadga muvofiqdir. Globallashtirish jarayoni bu yo'nalishdagi ko'p asrlik qadriyat va tamoyillarning tanazzulga uchrashini

iqtisodiy omillar bilan bog'laydi. Bunday holda, odamlarni bir-biridan ajratib turadigan masofalar shaxsiy fazilatlarini baholash imkoniyatini cheklaydi. Shunday qilib, taqdim etilgan maqolada ushbu masala bilan bog'liq tushunchalar oila institutining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy-psixologik funktsiyalar mavjudligini tasdiqlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Avlodlararo munosabatlarga xos bo'lgan bu tendentsiya etnik dunyoqarash, o'tmish va kelajak birligi muammosini ko'taradi.

Har bir xalqning an'alarida muloqot, samimiylilik, xulq-atvor kabi amaliy jarayonlar, global aloqa modellari qator ijtimoiy institutlarning ishlash mexanizmiga ta'sir ko'rsatadi. Bu, birinchi navbatda, oila institutining jamiyatdagi mavqeiga qarab o'zgaradi. Bu pozitsiya qit'adan qit'aga va millatdan millatga farq qiladi. Bu odatda jamiyatdagi sinfiy va ijtimoiy mavqeni ko'rsatadigan shaxs tomonidan shakllantiriladi. Bunday odatlar bir xil xalq vakilining boshqasiga nisbatan hayrixohlik bilan munosabatda bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Mega shaharlar bilan solishtirganda, qishloqda oila milliy mentalitet asosida qurilgan deyish o'rinliroq. Oila ichidagi mavjud me'yor va qoidalarning mentalitet bilan bog'liqligi mentalitetning subyektivi sifatida odamlar, etnos va boshqalar kabi omillarning konstitutsiyasi bilan izohlanadi. Sanab o'tilgan institutlarni mentalitet deb ataladigan komplekslar tizimining asosiy tashuvchilari deb hisoblash mumkin. Mentalitet mavzusi qadimdan faylasuflarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadim zamonlarda ham "ruh" atamasi mentalitet haqida o'ylash uchun ishlatilgan. Bu tushuncha orqali insonning ichki dunyosi bilan bog'liq g'oyalar qo'llanilgan. Qadimgi yunon falsafasida bilish predmeti markaziy mavqega ega edi. Aql, ruh va tana ierarxik munosabatlarda amalga oshirildi. Tana faoliyatini ta'minlovchi vosita ruh, bu faoliyatni amalga oshiruvchi kuch esa aql ekanligi da'vo qilingan. Aristotelning fikricha, insondagi tajriba xotira orqali, narsa va hodisalar haqidagi bir-birini takrorlovchi taassurotlar esa tajriba orqali amalga oshadi [4].

#### **Turli xalqlar oila institutining ayrim xususiyatlari**

Oila ijtimoiy institut sifatida etnosning kundalik hayoti bilan yaqin aloqada bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir elatning oilaviy qadriyatlarini ularning kundalik hayoti bilan bog'liqligini ta'kidlash mumkin. Bu qo'shilish bir nechta xalqlarda kuzatilishi mumkin

Oila ichidagi munosabatlar kishilarning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi institut sifatida shaxsning shakllanishini tezlashtiruvchi, boshqa urf-odatlarini bajarishga undaydigan omil rolini o'ynaydi. Misol uchun, Markaziy Osiyoda bu masala bo'yicha juda qiziqarli va o'ziga xos an'alar borligini ta'kidlash mumkin. O'zbek oilalarining odatiga ko'ra, mehmonni oila boshlig'i yoki uning o'g'illari kutib olishgan. Odatda, hurmat belgisi sifatida mehmonni otdan tushirishga yordam berish, mo'ynasi, qurol-yarog'ini saqlash, so'ng o'zi uchun ajratilgan xonaga taklif qilish, otni bog'lash va ovqatlantirishgan. Ozarbayjon xalqining yozma yodgorligi bo'lgan "Dada qo'rquv kitobi" dostonida keksalar, ota-onalarga hurmat ko'rsatish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning gap-so'zlariga quloq solish, nasihatlarini tinglash oilaning qadri an'analari sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining milliy bayrami Navro'z har yili 21-mart kuni o'tkaziladi. Bayram bir butun sifatida muqaddas qadriyatlar bilan bog'liq. Bu bayramda el-yurtning har bir a'zosi kichikdan kattagacha ishtirok etishi bejiz emas.

#### **Oila instituti haqida turli olimlarning fikrlari**

Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi kontseptsiyasiga yondashuv bir necha jihatlardan dolzarbdir. Tadqiqot jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, har bir turdagi jamiyatda shaxs asosiy subyekt hisoblanadi. Oila institutini o'rganishda subyekt bo'lgan shaxsning erkinligi va mas'uliyati o'zini namoyon qilishning ko'rinishidir. Demak, bu masalada etnosotsiologiya va etnologiya sohasida faoliyat yuritayotgan olimlarning fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Bu muammo bilan shug'ullanuvchi sotsiologlar orasida birinchi navbatda T.Parsons va K.Devislarning nomlarini qayd etish mumkin. Parsons oilani jamiyatning quyi tizimi sifatida tavsiflaydi, bu unga qarshi emas. Oila butun jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. Bu boshqa ijtimoiy quyi tizimlar va tuzilmalar bilan "instrumental" munosabatlarni yaratish tufayli mumkin. Shaxslararo dinamikada integrativ tendentsiyalar va muvozanatni saqlab, oila ichki "ifodali" munosabatlarni yaratadi [4].

E.A. Anufrievning fikricha, "shaxsning ijtimoiy tuzilishi shaxs obyektiv ravishda tegishli bo'lgan uyushmalar ta'siri ostida shaxsning rang-barang faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan va rivojlanadigan barqaror obyektiv va subyektiv ijtimoiy xususiyatlar guruhini o'z ichiga oladi". Anufriev ushbu tuzilmaning quyidagi elementlarini ajratib ko'rsatadi: turmush tarzini shakllantirishda mehnat faoliyati, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-kognitiv, oilaviy-maishiy faoliyat kabi faoliyat turlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy fazilatlarini amalga oshirish usuli; obyektiv ijtimoiy talablar, ijodiy faoliyat ko'nikmalari (tug'ma), bilim, odatlar, din, madaniy qadriyatlarni egallash darajasi, shaxsning ma'naviy dunyosi, axloqiy me'yor va tamoyillar, e'tiqodlar [3].

An’ana va modernizatsiya muammolarini tahlil qilish bilan shug’ullangan tadqiqotchilar orasida muhim hakam va o’ziga xos g’oyalar muallifi S.Eyzenshtadt “odatda, ibtidoiy, yozilmagan jamiyatdan tortib, patrimonial (nasab), feodal, shahar-davlatlargacha, deb taklif qiladi. va hokazo tuzilmalarga ega bo’lgan jamiyat an’anaviy jamiyat deb ataladi”[8]. An’ana so’zining etimologik izohiga kelsak, u keng ma’noda barqarorlik va meros (lotincha – traditio – uzatish, tarqatish) ma’nosini bildiradi. An’ana mohiyatan insoniyat tajribasini, shu jumladan madaniyatni saqlash, foydalanish, uzatish va tarqatishni anglatadi. Oila institutining tanazzulga uchrashining asosiy sabablaridan biri umumiy qadriyatlarining zaiflashishi va yo’q qilinishidir. Masalaning asosiy mohiyati shundan iboratki, bu boradagi salbiy holatlar kundalik hayotda tezroq aks etadi. Hozirgi kunda dunyoda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining o’zgarishiga ta’sir etuvchi omillardan biri axborot texnologiyalari vositalaridir. Hozirgi davrda u shunday ijtimoiy institutga aylandiki, u nafaqat jamoatchilik ongini, balki butun jamiyatning qadriyatlar tizimini shakllantirishga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Darhaqiqat, “virtual hayot” deb ataladigan ushbu tizim jamiyat ongida turli xulq-atvor uslublari bo’yicha axborot almashinuvini ta’minlovchi mexanizm sifatida o’zining imkoniyatlari bilan yaqqol ko’zga tashlanadi. An’anaviy jamiyatda oila tuzilishining tubdan o’zgarishi milliy qadriyatlarga emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga moyillik sifatida kuzatildi.

A.Komt o’z tadqiqotlarida ayolning oiladagi muhim o’rni haqida shunday yozgan edi: “Ayolning ijtimoiy roli uning hissiy-axloqiy fazilatlarini va odamlarni yaqindan birlashtirib, ularni ma’naviy tarbiyalash qobiliyati bilan belgilanadi”. Sotsiolog o’sib kelayotgan avlod tarbiyasida ayolning o’rni kattaroq, deb hisoblaydi: “Oila urf-odatlar, o’tgan avlodlar tajribasining himoyachisi va uzatuvchisidir. Shaxs oilada ijtimoiylashadi, insoniyatga muvaffaqiyatli xizmat qilish uchun zarur fazilatlariga ega bo’ladi, tabiiy individualizmni engadi, "boshqalar uchun" yashashni o’rganadi. Shu bilan birga, avlodlar o’rtasidagi do’stona munosabatlarning ijtimoiy muvozanatini, keksalar va yoshlar tomonidan olib boriladigan an’ana va yangilik o’rtasidagi muvozanatni saqlaydi”[9].

Germaniyadagi vaziyat va sotsiologlarning fikrlariga asoslanib, I.Ostroux oila institutining inqirozini sanoat (ayniqsa postindustrial) davrda ayollar mustaqilligining (shu jumladan, iqtisodiy) ortishi bilan izohlaydi, lekin ayni paytda inqirozning “umumiy hayot davridagi paternalizm kuchayishi”ni qayd etadi. farovonlik” [10].

Oila institutida mavjud bo’lgan urf-odatlar va me’yorlar qisman ularning ma’lum bir mavqega ega bo’lishi va barqarorligini saqlab qolish uchun o’tkazildi. Jamiyat ushbu odat va me’yorlarda qisman modernizatsiya jarayoni kechayotganini qayd etsa-da, o’zgarishlar ma’naviy mezonlar o’lchovida yaqqolroq seziladi. Shunday qilib, bu odatning milliy-etnik xususiyatlari bajariladigan ijtimoiy vazifalar bilan bir xilda tahlil qilinib, masalaning mohiyati birinchi o’ringa olib chiqildi.

#### **Oila va boshqa ijtimoiy institutlar o’rtasidagi munosabatlar**

Oilani institutsionallashtirish - bu rasmiy va norasmiy ko’rsatmalar tizimini shakllantirish jarayoni bo’lib, ular asosida oilaning funktsiyalarini amalga oshirishga yordam beradigan ijtimoiy amaliyotlar amalga oshiriladi. Bu jarayon oila institutini ijtimoiy-madaniy va huquqiy sohaga kiritishni nazarda tutadi.

Oila alohida ijtimoiy munosabatlar majmui bo’lib, tarixiy jarayonlar jarayonida u birinchi odamlar davridan boshlab jamiyatning boshqa institutlariga qo’shilib, turli etnik guruhlarning zarur elementiga, omillardan biriga aylandi. har bir davlatning mavjudligi uchun zarur. Bu erda mulk institutining nomini alohida ta’kidlash mumkin.

Mulk institutini tashkil etuvchi munosabatlar davlat, ijtimoiy va iqtisodiy xarakterga ega. Masala huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bu tushunchaga ijtimoiy jixatdan yondashilganda mulk har bir shaxsning ijtimoiy ehtiyoji sifatida tushuniladi. Masalan, shaxs ega bo’lishga qaror qilgan qadriyatlar uni boshqalardan ajratib turadi. Bu tushunchaning o’ziga xoslik atamasi bilan bog’liqligi ham diqqatga sazovordir. Agar o’ziga xoslik shaxsning biron bir millat, til yoki dinga mansubligini bildirsa, mulkchilik ma’lum bir obyekt bilan belgilanadi va shaxs tomonidan o’zlashtiriladi. Bu, shuningdek, o’z mulki deb hisoblagan qiymatni himoya qilish funktsiyasiga ega ekanligini belgilaydi. Har qanday narsani mulk deb atash uchun uning iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lishi oqilona hisoblanadi. Mulk instituti ham me’yoriy, ham huquqiy tizim darajasida oila institutining bir qismi hisoblanadi. Umuman olganda, mulk instituti boshqa barcha ijtimoiy institutlar bilan bog’liq holda ishlaydi. Mulk institutining muhim normalari oila ichidagi meros huquqi va boshqa meros masalalari hisoblanadi. Masalan, bu munosabatlarning zichligi majburiyat burchi bilan yanada aniqroq talqin qilinishi mumkin. Ma’lumki, mulk instituti iqtisodiy munosabatlar yig’indisi bo’lib, uning asosiy obyekti narsalardir. Aynan mana shu narsalar sovg’a qilinishi yoki ijaraga berilishi, qoidalarga muvofiq ijaraga olinishi mumkin. Bu yerda asosiy nuqta har qanday obyektning odamlarning ixtiyori doirasida, hadya qilish, oldi-sotdi va hokazolar yo’li bilan amalga oshirishdir. Mulk institutida vasiyat qilish orqali mulkdor o’zi hadya qilgan mulkni oila

doirasida bo'lish jarayonini tartibga soladi. Ammo oila instituti doirasidagi muhim mavzulardan biri bo'lgan mulk huquqi instituti o'z taraqqiyotining turli bosqichlarini bosib o'tib, bugungi kungacha takomillashgani shubhasiz haqiqat.

B. S. Antimonov va K. A. Gravenning bu boradagi qarashlari ham xuddi shunday pozitsiyaga ega. Ular meros huquqini fuqarolik huquqi institutlaridan biri sifatida tan oladi [11]. O.S. Ioffe ham meros huquqini fuqarolik huquqi institutlaridan biri deb hisoblaydi [12]. P.S. Nikityukning masalaga yondashuvi quyidagicha: muallif meros huquqini fuqarolik huquqi instituti deb ataydi. Uning qayd etishicha, merosxo'ning merosxo'rlariga meros bo'yicha huquq va burchlarning o'tish tartibi huquqiy normalar bilan belgilanadi va bu normalar yig'indisi fuqarolik huquqining meros huquqi deb ataladigan institutini vujudga keltiradi. Boshqa tadqiqotchilarning fikri institut sifatida meros huquqining fuqarolik huquqi tizimidagi o'rnini belgilaydi [13]. Ko'rinib turibdiki, fuqarolik huquqi instituti bevosita oila, siyosat va boshqa institutlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ularning tarkibiy tarkibiga kiradi va ijtimoiy, jamoat va iqtisodiy elementlarning zanjirli bog'liqligini tasdiqlaydi. Masalan, mulk huquqi instituti sanab o'tilgan alohida institutlarda mavjud bo'lgan mulkiy munosabatlarni tartibga solish normalarini to'liq o'z ichiga oladi. Aynan shuning uchun ham oilada meros va meros normalarini rasmiy asosda belgilash qonunlar va urf-odatlarini ziddiyatga olib keladi. Ota ismi guruhlariga mansub oilalarda o'sadi, xuddi patriarxal oilalarda bo'lgani kabi, otaning so'ziga qonun sifatida qaralgan.

Institutsionalizatsiya paradigmasi Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlarining ijtimoiy va madaniy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash zaruratini tug'dirdi. Amerikalik sotsiolog K.Kulining ta'kidlashicha, "birinchi navbatda, shaxsning ijtimoiylashuvi oila doirasida sodir bo'ladi va oila a'zolari o'rtasidagi aniq munosabatlar strukturasi shakllanishi muhitida sodir bo'ladi. Keyingi bosqichda sotsializatsiya jamiyat ichida sodir bo'ladi. bu yerda munosabatlar mavhum shakllangan [14].

Jamiyatda mavjud oila institutining namoyon bo'lish shakllari haqida fransuz ziyolisi Jan-Jak Russo shunday deb yozgan edi: "Oila barcha jamiyatlarning eng qadimgi va yagona tabiiy oilasidir. Shunday qilib, oila, agar iloji bo'lsa, siyosiy jamiyatlarning prototipidir" [15].

**Xulosa.** Oila instituti va u bilan bog'liq muammolar fan va jamiyatning dolzarb masalalaridandir. Bu, birinchi navbatda, oila institutining inqirozi bilan bog'liq. So'nggi paytlarda oila tarkibida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda: bolalar soni kamaymoqda, qarindoshlik aloqalari ahamiyatini yo'qotmoqda. Muammoning murakkabligi shu bilan izohlanadiki, hozirgi vaqtda oila institutiga jamiyatning deyarli barcha boshqa muhim sohalari – madaniyat, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot va boshqalar ta'sir ko'rsatmoqda. Turli xalqlarda vujudga kelgan oila modelining ko'rinishlariga qarab baholanadi. ularni tashkil etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmga.

Ma'lumki, zamonaviy fanda oila institutini o'rganishda ijtimoiy, jamoat va gumanitar sohalarda turli tadqiqotlar ajralib turadi. Shunga qaramay, ushbu tadqiqotlar davomida qo'llaniladigan, oilani xarakterli nuqtayi nazardan tavsiflovchi alohida jihatlari, usullar va yondashuvlar ushbu hodisani to'liq qamrab olishi kerak; Shu bilan birga, oilaga xos bo'lgan turli faoliyat turlarini, oilaning vazifalarini, oilani o'rganishni qamrab oluvchi bilim sohalari o'zida mujassamlashtirgan jarayonlar ham oila shaxsning shaxsga aylanishining boshlang'ich bosqichi ekanligini tasdiqlaydi. Oila institutining asosiy tamoyilini aks ettirgan holda, uning vazifalari jamiyat va shaxs talablari bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari, oilaning vazifalari tarixiy ahamiyatga ega; ular jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq. Vaqt o'tishi bilan oila instituti bajaradigan funksiyalarning tabiati ma'lum darajada o'z yo'nalishini o'zgartiradi. Garchi barcha qadriyatlar tanazzulga yuz tutayotgani, oila instituti tanazzulga yuz tutayotgani aytilsa-da, oilaviy hayot va ijtimoiy qadriyatlar shaxs shakllanishi va fuqaro mavqeining mustahkamlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy o'zgarishlarning asosiy omillari hisoblanadi. Shunday qilib, yakunda shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyat taraqqiyoti jarayoni, urf-odatlardagi yangiliklar, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, demografik va boshqa omillar oila tarkibiga, oila a'zolarining o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila institutining uzluksizligi. Oila instituti jamiyatning nisbatan barqaror va konservativ elementi bo'lishiga qaramay, jamiyat bilan birga muqarrar ravishda o'zgaradi. Turli jarayonlarning eng muhimi globallashuv va axborot texnologiyalarining shakllanishi bo'lib, bu oilani geografiya va jamiyat nuqtayi nazaridan yanada mukammal institutga aylantiradi.

**Adabiyotlar:**

1. Antimonov, B.S and Grave K.A. Soviet Provost / B.S. Antimonov, K.A. Grave. Moscow: Gosyurizdat, 1955.
2. Anufriev, EL. Social status and activity of a person //Personality as an object and subject of social relations. Moscow: Publishing House of Moscow University, 1984.
3. Babosov, E.M. Applied Sociology. Tutorial. Minsk: TetraSistems, 2000. Bayramov, G. Nationality and internationalism in moral life. Baku: Ganjlik, 1980.
4. Cooley, C. Primary groups. American sociological thought. Moscow: (1996). 328-332
5. Comte, A. System of positive politics. Volume 2 containing Social Statics or the Abstract Treatise on Human Beings. Paris: Carilian-Goeury and Vor Dalmont, 1852.
6. Dranikov, V.K. Inheritance by will in Soviet law. Ministry of Higher. Education of the Ukrainian SSR. Kyiv state. un-t im. T. G. Shevchenko. - Kyiv: Publishing house Kyiv University, 1957.
7. Eisenstadt, S.N. Tradition, change, and modernity. New York: Wiley, 1973.
8. Ganiyeva, F. "Nowruz" in the national thinking of the Azerbaijani people //
9. - Baku: Materials of the III international scientific conference on humanities and social sciences. (2021, April). 75-77.
10. Golod, S. I. Family and marriage: historical and sociological analysis / S. I. Hunger. - St. Petersburg: Petropolis, 1998.
11. Gostev, A.V. The problem of human thought in Aristotle's treatise "On the soul"// Knowledge and tradition in the history of world philosophy. Sat articles. – Moscow: (2001). 30-67.
12. Hospitality business: textbook. pod ed. d. isk., prof. N.M. Myshyakova, Ph.D., dots. S.G. Shkuropat. - SPb: SPbGUSE Publishing House, 2013.
13. Inal-Ipa, Sh.D. Abkhazians. (Ist.-Ethnographic essays). - 2nd ed., revised and additional. Sukhumi: Alashara, 1965.
14. Ostroukh, I. Trends in the development of the modern family in the Federal Republic of Germany. In the book. Family in modern European society. Moscow: (1996). 233-260.
15. Parsons, T. The Structures and Functions of the Nuclear Family. New York, Harper and Row, 1959.

**Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
Ma'mun universiteti "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi  
[sabohatfozilova202@gmail.com](mailto:sabohatfozilova202@gmail.com)

### KICHIK MAKTAB YOSHIDA EKOLOGIK ONG SHAKLLANISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunning dolzarb muammosi ekologik inqiroz, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati o'zgarishi bularga yechim sifatida yosh avlodni ekologik ong bilan tarbiyalash lozimligi haqida keltirilgan. Bunda o'rganish obyekti sifatida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda ekologik ongning o'ziga xos xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari keltirilgan. Turli yoshdagi bolalarning tabiat va "inson-tabiat" o'zaro ta'siri haqidagi g'oyalarini tahlil qilish ekologik ongni shakllantirish jarayonini kuzatish imkonini beradi.

**Kalit so'zlari:** ekologik ong, atrof-muhit, tabiat hodisalari, mezon, ijobiy ta'sir, xavotir, ekologik muvozanat.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

**Аннотация.** В статье рассматривается актуальная проблема современности - экологический кризис, изменение характера взаимоотношений человека и природы, и необходимость воспитания экологического сознания подрастающего поколения как выход из них. Представлены результаты эмпирического исследования особенностей экологического сознания детей младшего школьного возраста как объекта изучения. Анализ представлений детей разного возраста о природе и взаимодействии «человек-природа» позволяет проследить процесс формирования экологического сознания.

**Ключевые слова:** экологическое сознание, окружающая среда, явления природы, критерий, положительный эффект, забота, экологическое равновесие.

### SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AT THE PRIMARY SCHOOL AGE

**Abstract.** In the article, the urgent problem of today is the ecological crisis, the change in the nature of the relationship between man and nature, and the need to educate the young generation with ecological consciousness as a solution to them. The results of the empirical study of the specific characteristics of environmental consciousness in children of primary school age as an object of study are presented here. Analyzing the ideas of children of different ages about nature and "man-nature" interaction makes it possible to observe the process of formation of ecological consciousness.

**Key words:** ecological awareness, environment, natural phenomena, criterion, positive effect, concern, ecological balance.

**Kirish.** Zamonaviy davr rivojlanishning jadal sur'atlari bilan ajralib turadi. Global iqtisodiyotning shakllanishi, axborotning ulkan oqimlari, kompyuter texnologiyalarining keng joriy etilishi, globallashtirish tendensiyasi, bularning barchasi bizni o'rab turgan dunyoni va global sivilizatsiyani o'zgartirmoqda.

XX asr faqat inson iste'mol obyekti sifatida tabiatga odatiy munosabatdan voz kechish zarurati haqidagi savolni ko'tardi. Endilikda nafaqat olimlar, balki turli jamoat tashkilotlari vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari, diniy konfessiyalar ham odamlarda ekologik ongni shakllantirish zarurligiga e'tibor qaratmoqda. Inson va tabiat o'rtasidagi shakllangan qadriyatlar o'z mohiyatini kun sayin mohiyatini yo'qotmoqda, o'rnini insoniyatning axborot makoniga bog'lovchi qadriyatlar paydo bo'lmoqda. Odamlarning tabiatdan uzoqlashishi dunyo ekologiyasiga salbiy ta'sirlarni rivojlanishi sabab bo'lmoqda. Insoniyat oldida tanlov turibdi, uning natijasi ham o'zining yashashi, ham kelajakdagi rivojlanishi masalasining yechimi bo'lishi kerak. Aniq hisob-kitoblardan bilamizki, ekologik toza texnologiyalar va boshqa ekologik harakatlar, ularning hayotiy ahamiyatiga qaramay, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosini hali ham tubdan hal qilishga qodir emasdek tuyulmoqda. Sayyoramizdagi ekologik muvozanat buzilishining qaytarilmas oqibatlarini haqida butun dunyoda havotirni tug'dirmoqda. Sayyora olimlarining ushbu muammo bilan bog'liq tashvishlari uzoq o'tmishga va yaqin kelajak tarixiga ega deysish mumkin.

Rio-de-Janeyroda (1992 yil) atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasi qarorlarida o'z aksini topgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasida ifodalangan. Ushbu kontseptsiyada insonda ekologik ongni shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratiladi, bu esa uni amalga oshirishga yordam beradi. Yurtimizda ham ekologik muommolar kun sayin ortib bormoqda. Oral bo'yi hududlarida tuzli shamollar, chang bo'ronlarini tez-tez kuzatilishi, xaroratning ortishi, chiqindilarning qayta ishlash darajasini pastligi tufayli, atrof-muhit ifloslanishi kabi belgilar bilan kuzatilmoqda. Respublikamizda ekologik muhitni yaxshilash borasida Prezidentimizning raisligida 2021-yil 2-fevral kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan video uchrashuvda quyidagi jumalarni keltirib o'tdilar: *“Hammangiz yaxshi bilasiz, xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Tuproqni, suvni, havoni, ostonasini pok saqlashga intilgan. Xalqimizda “Birni kessang, o'nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Oilada yangi farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan.* Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo'qolib ketdi. Ekologik ong qadryatlar bilan naqadar bo'g'liq ekanligi manashu jumalardan ham bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bu uchrashuvda Davlat ekologiya qo'mitasiga 2022-yil 1-dekabr qadar **Ekologik kodeks** loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatildi. Kodeksni keng jamoatchilik, ilmiy-tadqiqot institutlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb etgan holda ishlab chiqish belgilangan va bu jarayon qizg'in davom etmoqda. Ekologik kodeksni qabul qilinishi ekologik inqilobni yaxshilashda tizimli ishlashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda ekologik ong ko'pincha tabiiy dunyo haqidagi g'oyalar tizimi, tabiiy dunyoga shaxsiy munosabat, tabiiy dunyo bilan o'zaro ta'sir qilish texnologiyalari va tabiatga axloqiy munosabat sifatida tushuniladi. Ekologik ongni shakllantirish insoniyatni kelajakdagi atrof-muhit inqirozidan saqlashga yordam beradi. Insoniyat ongida unitilayotgan tabiat go'zalliklarini qayta tilash imkonini yaratadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik ongini shakllantirish lozimligini ijtimoiy muhit taqozo etmoqda. Barqaror rivojlanish va ekologik inqirozni bartaraf etish ekologik mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir. Yosh avlod yaqin va uzoq kelajakni ifodalaydi. Jamiyat, shuning uchun unda ekologik ongni shakllantirish juda muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ekologik ongni shakllantirish muammolari o'z aksini topgan asarlar ko'plab psixologlar tomonidan o'rganilgan. Ekologik psixologiya asoschilaridan biri R.Barker “Atrof-muhit psixologiyasi xulq-atvor fanidan ancha kengroqdir yangi yo'nalish - bu eko-xulq-atvor yondashuvi”ni o'rgangan. Odamlarning ekologik ongini o'rganish va shakllantirish V.A.Yasvin, S.D.Deryabo, E.A.Klimov, ekologik xulq-atvor, xulq-atvor motivatsiyasi, atrof-muhitni optimallashtirishga qaratilgan E.A. Klimov, ekologik inqirozning psixologik oqibatlarini sayyora E.A. Klimov, V.I. Panov, tabiiy muhitni va insonning o'zini shikastlanishdan himoya qilish ifloslangan tabiiy muhitning harakatlari, beqaror ijtimoiy atrof-muhit, ekstremal hayotga psixologik tayyorgarlik (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tabiiy va boshqalar) sharoitlar V.I. Panov tomonidan o'rganilgan. [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Atrof-muhit ongining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha biz “Atrof-muhit ongining so'rovnomasi” (Panov va boshqalar) dan foydalandik. So'rovnoma kattalarning ekologik ongini o'rganish uchun mo'ljallangan, shuning uchun biz ushbu tadqiqot uchun 6-10 yoshli bolalarga mo'ljallangan so'rovnomaning yangi ko'rinishini ishlab chiqdik. So'rovnomamiz 2 ta mezonni o'z ichiga oldi “Tabiiy hodisalar” va “Kasblar”. [1].

“Tabiat hodisalar” tabiatning insonga ta'siri baholovchi mezon. “Kasblar” mezoni - inson faoliyatining tabiatga ta'sirini baholash sifatida qabul qilindi.

1. “Tabiiy hodisalar” mezoni uchun 12 ta tabiiy hodisalar ro'yxati ishlab chiqilgan:

№	Tabiiy hodisalar	Baholash
1	Dengiz	
2	Daraxtlar	
3	Quyosh	
4	Daryo	
5	Qushlar	
6	O'rmon	
7	Hasharotlar	
8	Yomg'ir	
9	Issiqlik	
10	Ayoz	

11	Olov	
12	Momaqaldiraq	



1-rasm. Uchta kulgich

Har bir tabiat hodisasini 3 ta balli tizimda ya'ni uchta kulgichdan birini tanlagan holda, ushbu hodisalarning har birining inson uchun zararli va foydalilik darajasini baholashi kerak edi. (1-rasm)

2. “Kasblar” mezoni-. Insonning tabiatga ta'sirini baholashda bolalar o'zaro aloqada bo'lgan, ular biladigan kasblar ro'yxati:

№	Kasblar	Baholash
1	bog'bon	
2	veterinar	
3	duradgor	
4	farrosh	
5	haydovchi	
6	o'rmonchi	
7	ovchi	

Ushbu uchta kulgichdan birini tanlab, bola ular yordamida bu kasblar vakillari tabiatga zarar yetkazishni baholashi kerak edi.


**Tahlil va natijalar:** Ushbu so'rovnomada Xorazm viloyati Xiva shahar 9-son umumiy o'rta ta'lim maktabida 2-sinfning 60 nafar o'quvchilari qatnashdi.

Avvalo, biz bolalarni “Tabiiy hodisalar” mezoni baholash natijalariga to'xtalamiz.

3-jadval. “Tabiiy hodisalar” mezoni ko'rsatkichi

1	Dengiz	0,16
2	Daraxtlar	0,88
3	Quyosh	0,93
4	Daryo	0,6
5	Qushlar	0,52
6	o'rmon	0,85
7	Hasharotlar	0,33
8	Yomg'ir	0,77
9	Issiqlik	0,76
10	Ayoz	0,13
11	Olov	-0,3
12	Momaqaldiraq	-0,21






2-jadvalda bolalarning tabiat hodisalarining odamga taʼsirining ijobiy yoki salbiy taʼsirini uch balli shkala boʻyicha baholashni koʻrsatadigan oʻrtacha maʼlumotlar keltirilgan (+1 - ijobiy taʼsir qiladi, 0 - taʼsir qilmaydi, hammasi, -1 - salbiy taʼsir qiladi). Jadvaldan koʻrinib turibdiki, oʻn ikki tabiat hodisasidan sakkiztasi bolalar tomonidan insonga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan tarzda qabul qilinadi. “Quyosh” eng ijobiy bahoni oldi va “Daraxtlar” unga “Oʻrmon” ergashadi. “Ayoz” va “Dengiz” ularni kamroq qoʻrqitadi. Dengiz bizni yashab turgan xududimizga xos boʻlmagan va uni goʻzalligidan baxramand boʻlmagani uchun ham bolalar ijobiy baxo berishmagan. Bolalar "momaqaldiroq" va "Olov" ni eng "salbiy" tabiat hodisasi deb bilishadi. Chunki ular “Momaqaldiroq” va “Olov” ular shu kungacha bilgan qoʻrqinchli tabiat xodiasidir.

4-jadval. “Kasblar” mezoni koʻrsatkichi

№	Kasblar	Baholash
1	bogʻbon	0,91
2	veterinar	0,86
3	duradgor	0,78
4	farrosh	0,61
5	haydovchi	0,42
6	oʻrmonchi	0,21
7	ovchi	0,18



2. “Kasblar” mezon - inson faoliyatining tabiatga taʼsirini baholash natijalarini koʻra : tabiatga salbiy taʼsir koʻrsatadigan yettita kasbdan 2tasi faqat ikkitasini hamma taniydi - oʻrmonchi va ovchi. Bolalar tamonida aynan shu oʻrmonchi va ovchi kasb egalarini tabiatga zarar keltiruvchi sifatida tanishdi. Haydovchi faoliyatining tabiatiga ijobiy taʼsirni baholashgan. Chiqindi gazlarning tabiatga keltiradigan zarari haqida hali oʻylashmagan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ekologik ongni shakllantirish bolalarga beriladigan taʼlim va aniq maʼlumotlar bilan bogʻliqligini tadqiqot natijalaridan ham koʻrish mumkin. Turli tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekologik ong - kognitiv, tartibga solish, hissiy, axloqiy va boshqa jihatlarni oʻz ichiga olgan murakkab ruhiy shakllanishdir. Aynan boshlangʻich maktab yoshi bolalarning tabiiy muhit haqidagi bilimlarini faol egallashi va unga nisbatan hissiy munosabatni shakllantirish bilan tavsiflanadi. Oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalaridan ham shuni xulosa qilishimiz mumkinki ekologik ongni shakllantirish bolalikdan ijtimoiy-muhitdan va taʼlim jarayonidan olingan bilimlar natijasida vujudga kelishi aniqlandi. Demak, insonlarda yoshligidan atrof-muhitni sevish, oʻzini borliqning qismi sifatida xis qilishni anglashni shakllantirish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Стерлигова Е.А. Экологическая психология Пермь, 2012. – 94 с
2. Дерябо С.Д. Экологическая психология: диагностика экологического сознания / С.Д. Дерябо. М.: 1999. 113 с.
3. Акопов Г.В., Чердымова Е.И. Проблема соотношения экологической установки и поведения в концепте экологического сознания // 2-я Российская конференция по экологической психологии: материалы (Москва, 12–14 апреля 2000 г.) / Под ред. В.И. Панова. М. Самара: Изд-во МГППИ, 2001. С. 120–134
4. Гагарин А.В. Природоориентированная деятельность учащихся как ведущее условие формирования экологического сознания: монография. М.: РУДН, 2003
5. Панов В.И., Мдивани М.О., Кодесс П.Б., Лидская Э.В., Хисамбеев Ш.Р. Экологическое сознание: теория, методология, диагностика // Психологическая диагностика. Тематический выпуск. 2012. 126 с.
8. Степанов С.А. Основные методологические и содержательные аспекты экологического образования для устойчивого развития в высшем учебном заведении: монография. М.: Изд-во МНЭПУ, 2010. 28 с.

*Olimova Furuza Aslonovna*

*Buxoro davlat universiteti*

*Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi*

## STRESSLI HOLATLARGA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada stressli holatlarga psixologik barqarorlikni shakllantirishining ijtimoiy-psixologik omillari shuningdek stress holatidapsixofizologik reaksiyalar namoyon bo'lishini tadqiq etish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar amaliy psixologiya, umumiy psixologiya, ijtimoiy va tibbiy psixologiya, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, psixologik trening bo'yicha amaliy psixologik maqsadlarda foydalanish uchun amaliyotchi psixologlarga mo'ljallangan stress diagnostikasi va psixokorreksiya yuzasidan amalga oshiriladigan tadqiqot natijalari psixologiya sohalarini nazariy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari stress psixologik muammo sifatida o'rganildi, stressning asosiy xususiyatlari, klassifikatsiyasi va ularni yengish yo'llarini aniqlash va stressning shaxs xususiyatlar bilan aloqadorligi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** stress, shaxs, boshqarish, motivatsion, qobiliyat, zehn, bilish jarayoni, psixik xususiyat, tafakkur, tarbiya, o'qitish usullari, axborot kommunikatsion texnologiya.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ К СТРЕССОВЫМ СИТУАЦИЯМ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются социально-психологические факторы формирования психологической устойчивости к стрессовым ситуациям, а также проведённые исследования по изучению проявлений психофизиологических реакций в стрессовых ситуациях. Результаты проведённых исследований по диагностике и психокоррекции стрессов, предназначенных для практических психологов для использования в практических психологических целях по психологическому тренингу теоретически изучены в областях психологии, в таких дисциплинах, как практическая психология, общая психология, социальная и медицинская психология, психопрофилактика, психокоррекция. Помимо этого, стресс рассмотрен в качестве психологической проблемы, были изучены основные характеристики стресса, классификация и определение способов их преодоления, а также связь стресса с личностными качествами.

**Ключевые слова:** стресс, личность, контроль, мотивация, способности, разум, познавательный процесс, психическая характеристика, мышление, воспитание, методы обучения, информационно-коммуникационные технологии.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL STABILITY TO STRESSFUL SITUATIONS

**Abstract.** In this article, the socio-psychological factors of the formation of psychological stability to stressful situations as well as studies carried out to study the manifestation of psychophysiological reactions in Stress disorder are Applied Psychology, General Psychology, Social and medical psychology, psychoprophylaxis, psychocorrection, the results of the study carried out on the diagnosis and psychocorrection of stress, aimed at practicing psychologists for use in practical psychological purposes in psychological training, have theoretically studied the fields of psychology. In addition stress has been studied as a psychological problem, identifying the main characteristics, classification, and ways to overcome stress, and researching the relationship of stress to personality traits.

**Key words:** Stress, personality, management, motivational, ability, mind, cognitive process, psychic trait, thinking, upbringing, teaching methods, Information Communication Technology.

**Kirish.** Stress – ruhiy zarba, inglizcha stress - zo'riqish, kuchlanish so'zidan olingan bo'lib, organizmning turli yoqimsiz omillarga javoban moslashuv reaksiyasi hisoblanadi. Boshqa ruhiy xususiyatlar kabi stress holatida inson xatti-harakatlari uning individual psixik xususiyatlariga bog'liq.

Boshdan kechiriladigan kuchli stress oqibatida yurakning ishemik kasalliklari, qon bosimi oshishi, ateroskleroz, nevrozlar, oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligi, o'sma shishlar, qandli diabet, tireotoksikoz va shunga o'xshash ko'plab kasalliklar kelib chiqishi psixologiya va tibbiyotda isotlangani


ma'lum. Stress holatida asab tolalari zo'riqadi, taranglashadi, oqibatda ruhiy va jismoniy quvvat taqsimotida buzilish ro'y beradi. Oilada, ishda va jamiyatda yuz berib turadigan ziddiyatli holatlar – salbiy emotsional stresslar bu muvozanatni izdan chiqaradi.

Zamonaviy jamiyatda inson kapitalining ortishi va mavaffaqiyatga erishishni kuchli iroda bilangina emas, balki munosabatlar jarayoniga bog'liq tomonlarga ham e'tibor qaratish zarurligini bugungi kun talablari taqazo etmoqda. Shu nuqtayi stress holatida psixofizologik reaksiyalar namoyon bo'lishini tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Stress insonda nerv tizimining qattiq emotsional zo'riqishi oqibatida yuzaga keladigan, kuchli va uzoq davom etuvchi psixologik tanglik holatidir. Stress inson organizmida bosim, tanglik, kuchli zo'riqish holatini yuzaga chiqaradi. “Stress” so'zi ingliz tilida “bosim”, “zo'riqish”, “kuchlanish” ma'nolarini anglatadi. Birinchi bo'lib stressga kanadalik fiziolog Gans Selye ta'rif bergan. Stress insonga ijobiy ta'sir qilsa eustress, salbiy ta'sir qilsa distress deyiladi. Eustress insonga ruhiy kuch beradi, faoliyatga undaydi. Distress odamga salbiy ta'sir qiladi. Uning oqibati aqliy, jismoniy, emosional va ruhiy zo'riqishga, organizmning holdan toyishiga va qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi, oshqozon yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili Psixik holatlarni izchil o'rganish eramizdan 2-3 ming yil avval Hindisonda boshlangan edi. Qadimgi yunon faylasuflari ham psixik holatlar muammosi bilan shug'ullanib ko'rganlar. “Holat” tushunchasi falsafiy tushuncha sifatida Kant va Gegel ishlarida ham keltirilgan. Psixologiyada stress muammosi keng doirada tadqiq etilgan. Jumladan, Yu.L.Xanin stressni o'rganish, o'lchash va uni boshqarish yo'llarini talqin etgan, V.E. Milman, B.A. Vyatkin, V.L. Marishuk, A.V. Malchikova, Yu.Ya. Kiselev, G.D. Gorbunov, S.Ye. Pavlov, T.N. Kuznesova, jahon olimlari R.M. Naydiffer, R.M. Suinn, Yu.K. Mosk va boshqalarning stress tadqiqotiga bag'ishlangan izlanishlari yoritilgan. O'zbekistonlik psixologlardan, E.G'oziyev, E.Z.Usmanova, V.M.Karimovalar tadqiq etganlar.

V.S.Merlin, “Qachonki inson biror motivni amalga oshirishga harakat qilsa, u qarama-qarshilikka duch keladi. Har xil tashqi va ichki qarama-qarshiliklar natijasida qiyin vaziyat paydo bo'ladi. Qiyin vaziyatdagi holat nerv psixik zo'riqish yoki stress kabi talqin qilinadi”, deydi.



**1-rasm. Turli kurs respondentlarida stressga barqarorlikning namoyon bo'lishi (% hisobida)**

Xorij va rus psixologlari R.Lazarus, L.Merfi, S.Folkman, D.Amirxan, N.Sirota, D.A.Leontyev, Ye.I.Rasskazova, B.B.Velichkovskiy kabi tadqiqotchilar stressogen vaziyatlarda shaxsning faolligini, ishchanlik kayfiyatini tushirmaslik yoki buzmaslik uchun zarur bo'lgan stressga barqarorlikka ega bo'lish lozimligi, shaxsning stressga barqarorligi – bu o'z emotsiyalarini boshqarish, o'zini qo'lga olish va ma'lum

bir taktikaga ega bo'lish asnosida qiyinchiliklarni yengib o'ta olish ko'nikmasi ekanligi haqidagi fikrlarni tahlil qilishgan.

O'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova va ularning shogirdlari tomonidan muammoga yaqin bo'lgan masalalarning o'rganilganligi haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

1-rasmda ko'rinib turganidek, 1-kursdagi 29,1% va 3-kurslarda 21,1% respondentlarda stressga barqarorlikning past darajasi kuzatilgan. Buni quyidagicha izohlash mumkin: 1-kurs talabalarida turli ta'lim dargohlaridan keyin oliy ta'limdagi yangi talablarga ijtimoiy moslashishning sustligi hamda talab qilinayotgan darajada o'qish uchun vaqtning yetishmasligi, kerakli informatsiyalarning barchasini o'zlashtirib olishga ulgura olmayotganligi va ish bilan ko'mib tashlanganini his qilish kabi omillar bu borada muhim hisoblanadi.

Garchi bunday omillar faqat 1-kurs emas, balki 3-kurs talabalarini uchun ham xos bo'lsa-da, 1-kurs talabalarida o'zining kundalik o'quv faoliyatini rejalashtirish va mavjud informatsiyalar oqimi bilan ishlash tajribasi hamda ko'nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligi ularning stressga barqarorligini pasaytirishda muhim asos hisoblanadi.

Uchinchi kurs respondentlari orasida stressga barqarorligi past bo'lganlarning nisbatan kamligi ularning o'quv faoliyatiga moslashganligi, psixologik bilim, ko'nikma, malakalar darajasining ortganligi, fanlarga va kasbiy sohasiga oid tushuncha hamda tasavvurlarning kengayganligi hamda o'z vaqtlarini unumli rejalashtirishga o'rganganligi bilan asoslanadi.

**Xulosa.** Umumiy xulosa qilinsa, talabalarda stressga barqarorlikning past ko'rsatkichi 3-kursda 21,1%ni va 1-kursda 29,1%ni ko'rsatganligini 3-kurs sinaluvchilarida o'quv faoliyatiga nisbatan barqaror va moslashuvchanlik munosabatlarining hamda o'quv jarayonlaridagi muammolarni hal etishda o'ziga xos ko'nikma va malakalarning yuzaga kelganligi bilan asoslash mumkin.

Shuningdek, biz respondentlarning umumiy soniga nisbatan ham stressga barqarorlik darajasini tahlil qildik va shu asosda tadqiqotimizning eksperimental hamda nazorat guruhlarini ajratib oldik. Stressga barqarorligi past bo'lganlar eksperimental guruh sifatida tanlab olindi. Natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Агаджанян Н.А. и др. Физиология человека. – М.: НГМА, 2003. – С. 154- 160.
2. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: 2000
3. Антонов А.И., Борисов В.А. Кризис семьи и пути его преодоления. – М.: 1990.
4. Брутман В.И., Филиппова Г.Г., Хамитова И.Ю. Методика изучения психологического состояния женщин во время беременности и после родов // Вопросы психологии. 2002. № 3.
5. Мерлин В.С. «Структура личности. Характер, способности, самосознание. Пермь». 1990. – С.96.
6. Фрейджер Р., Фейдимен Д. Личность: Теории, упражнения, эксперименты. – СПб.: 2002.



**Ostanov Shukhrat Sharifovich**

*Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Psychology and Sociology, Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)*

## **PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF CREATIVITY DEVELOPMENT IN ADOLESCENTS WITH DESTRUCTIVE BEHAVIOR**

**Abstract.** The work is devoted to the problematic destructive behavior of adolescents at school. It manifested itself in the violation of school order, conflict environment with peers and teachers, destruction of school property. Destructive behavior is diverse, but in general, the quality of an aggressive and oppositional attitude of a teenager to the social space of the school. Modern ideas about its development are focused on accelerating the development of the child's mental development, problems related to the consequences, the negative influence of peers and adults. School-related socio-psychological factors of destructive behavior are often not covered by attention. Therefore, the purpose of the article is to identify a teenager with the presence of space in school as one of the causes of destructive behavior. To do this, the authors discuss the influence of the social environment on the formation of social and personal identity, discuss the influence of adults and peers surrounding a teenager on his self-harming criminal behavior.

**Key words:** destructive behavior, criminalization of schoolchildren, socialization of adolescents deviant, behavior of schoolchildren, correction of illegal behavior, destructive behavior, criminalization of schoolchildren, socialization of adolescents deviant behavior of schoolchildren, termination of illegal behavior

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА У ПОДРОСТКОВ С ДЕСТРУКТИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ**

**Аннотация.** Работа посвящена проблемному деструктивному поведению подростков в школе. Оно проявляется в нарушении школьного порядка, конфликтном окружении со сверстниками и учителями, разрушении школьного имущества. Деструктивное поведение многообразно, но в целом качество агрессивно-оппозиционного отношения подростка к социальному пространству школы. Современные представления о развитии его сфокусированы на ускорении развития психического развития ребёнка, проблемах, связанных с последствиями, негативным влиянии сверстников и взрослых людей. Связанные со школой социально-психологические факторы деструктивного поведения часто не охватываются вниманием, поэтому цель статьи состоит в выявлении подростка с наличием пространства в школе в качестве одной из причин деструктивного поведения. Для этого автором анализируется влияние социальной среды на формирование социальной и личностной идентичности, обсуждается влияние окружающих подростка взрослых и сверстников на его самоповреждающее криминальное поведение.

**Ключевые слова:** деструктивное поведение, криминализация школьников, социализация подростков, отклоняющееся поведение школьников, коррекция противоправного поведения, деструктивное поведение, криминализация школьников, социализация подростков девиантное поведение школьников, прекращение незаконного поведения.

## **BUZG'UNCHI XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA IJODKORLIK RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**Annotatsiya.** Ish maktabdagi o'spirinlarning muammoli buzg'unchi xatti-harakatlariga bag'ishlangan. Bu maktab tartibini buzishda, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan ziddiyatli muhitda, maktab mulkini yo'q qilishda namoyon bo'ldi. Buzg'unchi xatti-harakatlar xilma-xil, ammo umuman olganda, o'smirning maktabning ijtimoiy makoniga tajovuzkor va oppozitsion munosabat sifati. Uning rivojlanishi haqidagi zamonaviy g'oyalar bolaning aqliy rivojlanishini, oqibatlari bilan bog'liq muammolarni, tengdoshlar va kattalarning salbiy ta'sirini tezlashtirishga qaratilgan. Buzg'unchi xatti-harakatlarning maktab bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillari ko'pincha e'tibor bilan qamrab olinmaydi. Shuning uchun maqolaning maqsadi o'smirni maktabda bo'sh joy mavjudligi bilan buzg'unchi xatti-harakatlarning sabablaridan biri sifatida aniqlashdir. Buning uchun mualliflar ijtimoiy muhitning ijtimoiy va shaxsiy o'ziga xoslikni shakllantirishga

*ta'sirini muhokama qiladilar, o'smirni o'rab turgan kattalar va tengdoshlarining uning o'ziga zarar yetkazadigan jinoiy xatti-harakatlariga ta'sirini muhokama qiladilar.*

**Kalit so'zlar:** *buzg'unchi xatti-harakatlar, maktab o'quvchilarining kriminallashuvi, o'smirlarning deviant ijtimoiylashuvi, maktab o'quvchilarining xulq-atvori, noqonuniy xatti-harakatlarni tuzatish, buzg'unchi xatti-harakatlar, maktab o'quvchilarining kriminallashuvi, o'smirlarning ijtimoiylashuvi maktab o'quvchilarining deviant xulq-atvori, noqonuniy xatti-harakatlarni tugatish.*

**Introduction.** The concept and signs of destructive behavior. In the scientific and methodological literature, there is a variety of terms that mean a deviation from social norms and behavior acceptable in society. The most widely used terms are: "deviant behavior", "deviance", "deviations", "deviant behavior", "social deviations". Often science uses the definition of "deviant behavior" in a broad sense, meaning deviations from the norms both in the "negative" direction (pathological deviations) and in the "positive" direction (overdeveloped abilities, excessive altruism, asceticism, etc.).

In a narrow sense, those forms of behavior that are perceived by society as undesirable, requiring suppression and prevention, are considered deviant. Such behavior is called destructive because it threatens the survival of that society.

**Main part.** Destructive behavior has a number of characteristics:

- deviation from the norms of social development (the discrepancy between the individual line of development of an individual or group and the dominant values / trends in social life);
- destabilization and destructiveness (the presence of objective damage, suffering from this behavior or its consequences at several levels: the body, personality, immediate environment and at the macrosocial level);
- negative social assessment and punishability (negative public assessment of this discrepancy as socially undesirable and the desire of society to control, eliminate undesirable manifestations in the behavior of individuals);
- compensatory (compensation by destructive behavioral acts of the existing personal ill-being and social maladjustment);
- specificity (expression in the destructive behavior of individual and gender and age originality).

Thus, destructive behavior is a stable behavior of a mentally healthy individual or group of individuals that deviates from the most significant social norms in a particular society, causing real damage to the individual himself, his immediate environment, and society as a whole.

Reasons for destructive behavior:

Analysis of various classifications of factors (causes, conditions of occurrence) of destructive behavior allows us to distinguish two main groups:

- environmental causes (which, in turn, are divided into factors of the external natural environment and factors of the social environment);
- Personal reasons (which, in turn, are divided into personal biological factors and personal psychological factors).

The factors of the external natural environment include geographical location, climate, ecological situation, richness / scarcity of natural resources, local features of the flora, etc. There are scientific data on the relationship between the prevalence of types of destructive behavior and the specifics of climate, location; scientists fix the connection of bursts of deviance with solar activity, lunar phases, etc.

The factors of the social environment include the defective, difficult functioning of social institutions (insufficient or defective performance of functions by the family institution, educational and cultural institutions, economic and political institutions, etc.).

Personal biological factors include the constitutional and biological vulnerability of the individual: hereditary pathologies of the body, organic and functional disorders of the central nervous system; mental disorders, limited physical abilities; low endurance and performance; excitability, impulsivity, etc.

Personal psychological factors include maladaptive personality traits: violations of legal and regulatory consciousness; opposition orientation; deviant values; egocentric fixation; lack of communication skills; emotional disturbances; ineffective self-regulation; violations of identity and self-esteem; cognitive distortions, etc.

It is believed that environmental factors and personal biological factors can only be slightly influenced in order to prevent destructive behavior, but these factors must be taken into account in order to minimize their impact, while social environmental factors and personal psychological factors are quite amenable to influence and change in order to prevent destructive behavior.

### **Types of destructive behavior:**

*Destructive behavior can be roughly divided into two main categories:*

– *delinquent behavior (illegal);*

– *deviant behavior that does not fall into the category of illegal.*

*In turn, deviant behavior that does not fall into the category of illegal has the following varieties:*

1) *addictive behavior (chemical and non-chemical addictions);*

2) *deviant behavior based on the aggressiveness of the individual (verbal aggressiveness, bullying, tyranny against a loved one);*

3) *suicidal behavior (behavior driven by motives and ideas about taking one's own life);*

4) *pathological sexual and reproductive behavior (distortion of sex-role identification, abnormal sexual desires, etc.);*

5) *socially parasitic behavior (avoidance of socially useful labor by manipulating human needs, feelings, desires: professional begging, prostitution, social dependency);*

6) *deviant behavior based on violations of social and personal self-realization, caused by the distortion of the processes of assimilation, identification of the individual with society and the desire for individuality, uniqueness (shocking body modifications, "freak-style"; drawing attention by dangerous acts or outrageous actions; membership in marginal and non-criminal but rejected subcultures, etc.).*

It should be borne in mind that under certain environmental circumstances, deviant behavior can develop into illegal behavior or be combined with it.

The problem of destructive behavior of minors is one of the main social and psychological problems of modern science.

As many researchers of this phenomenon note, destructions appear precisely in adolescence, since it is one of the most difficult periods in the life of every person.

Every year there is a tendency to increase the number of minors with deviant behavior. Deviations in the behavior of adolescents not only attract attention, but also alert parents, teachers, and the public.

Destructive behavior (lat. Destructio - "destroy") - destructive behavior that deviates from social and psychological norms, leading to a violation of the quality of human life, a decrease in criticality towards one's behavior, cognitive distortions in the perception and understanding of what is happening, a decrease in self-esteem and emotional disturbances, which in as a result, it leads to a state of social maladjustment of the individual, up to its complete isolation.

Destructiveness is inevitably present in every person, however, it is found, most often in critical periods of life. This is especially true for adolescents, since the internal difficulties of adolescence affect, starting with psych hormonal processes and ending with the restructuring of the self-concept.

The period of growing up can provoke the emergence of deep psychological problems. The acceleration of biological and psychological processes during a crisis leads to the fact that a deviation in behavior appears as if suddenly. So, a completely prosperous teenager, unexpectedly for those around him, suddenly appears emotional callousness, cruelty, a tendency to aggression, violence.

A teenager whose behavior is considered destructive is characterized by the following features:

- ✓ aggression and cruelty towards others;
- ✓ the tendency to destroy material objects and things;
- ✓ hostility in communication;
- ✓ he desire to upset the established way of life of people close to him;
- ✓ inability to experience emotions and feelings (may be constant, or may appear only from time to time);
- ✓ a threat to the lives of both others and one's own.

Destructive behavior is a kind of defensive reaction to the outside world, is associated with disorders of the nervous system and is mainly associated with childhood experiences and the desire to feel more comfortable.

At risk are minors who grow up in a "high-risk" family. These are an incomplete family, a conflict family, an "asocial family", a formal family, an "alcoholic family", a family in which there are mentally ill parents. In such families, conditions are not created for the full development of the personality of a teenager; they lack parental attention and support.

Most often, destructive forms of behavior are exposed to adolescents who, for one reason or another, consider themselves guilty of the problems of loved ones, with increased anxiety, obsessed with negative emotions, depressed adolescents suffering from severe somatic or mental illnesses, as well as adolescent girls who have interpersonal problems. Love conflicts.



Destructive behavior is considered as aggressive, which manifests itself in actions based on aggressiveness and aimed at causing physical, moral or other damage to people or other objects of the surrounding world, associated with violence against them. Aggressive behavior can be directed both at others and at oneself - self-destruction.

**The following types of destructive behavior of a minor are distinguished:**

- ❖ addictive (the desire to escape from reality with the help of intoxicating substances);
- ❖ antisocial (illegal);
- ❖ fanatical (fanatical attraction to something);
- ❖ autistic (difficulty in social relations, interpersonal contacts);
- ❖ suicidal (self-destruction);
- ❖ conformist (adaptability);
- ❖ narcissistic (narcissism, hypersensitivity to the assessments of other people, on this basis, the lack of sympathy for them, for everything around)..

For effective work on the correction of destruction in a teenager, a complex of purposeful psychological and pedagogical influence is needed. The solution to this problem will be more successful with complex interaction:

- psychologist;
- social educator;
- educators and class teacher;
- parents;
- other significant people in the adolescent's social environment.

Working with a teenager involves the implementation of the following areas:

- education of moral and legal conviction;
- the formation of adequate self-esteem, the ability to be critical of oneself;
- development of the emotional sphere of the personality: the formation of the will, the ability to manage oneself;
- inclusion in socially significant activities, creating a situation of success in the chosen type of activity by a teenager;
- ensuring a favorable socio-psychological climate;
- organization of psychological and pedagogical influence on the opinions of others (family, peers, teachers, other adults);
- prevention of neurotic disorders and pathological drives (character accentuations, neuroses, suicide, kleptomania, etc.);
- contributing to filling gaps in knowledge.

**Conclusion.** Ignoring or untimely detection by adults of signs of destructive behavior in a teenager can become a source of increased danger both for himself and for his relatives, those around him and society as a whole.

Every year, about 4.5 million children from 7 to 18 years old face various manifestations of destructive behavior. They may become aggressive, get into fights, steal, self-harm, consider suicide, bully others, or become the victim of bullying themselves.

**References:**

1. Аверин В.А. Психология детей и подростков: учеб.пособие. – 2 изд., — СПб, Издательство Михайлова В.А., 1998. — 379 с.
2. Гребенщикова Л. Г. К вопросу изучения деструктивного поведения и предрасположенности к нему у несовершеннолетних // Психология в России и за рубежом: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, октябрь 2011 г.). — СПб. Реноме, 2011. — С. 40-43.
3. Девиантное поведение детей и подростков: проблемы и пути их решения/под ред. В.А. Никитина. -М.: ВЛАДОС, 1996. – 147 с.
4. Дроздов А.Ю. Агрессивное поведение молодежи в контексте социальной ситуации. / Социс. 2003. — №4.- С. 95-98.
5. Змановская Е.В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 288с.

*Sharifova Mahliyo Zarif qizi*  
*Kogon shahar 14-son DMTT psixologi*

### TALABALARDA O'Z USTIDA MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari hamda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish mazmunini ishlab chiqish va uni shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. talabalarda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish haqidagi bilimlarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; talabalarda kasbiy ta'lim o'qituvchilarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishni o'rganish jarayonida maqbul shakl, usul va vositalarni qo'llashni tashkil etish yo'llarini aniqlash; talabalarda bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish usullarini o'rganishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik jarayonning samaradorlik darajasini aniqlash borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** suhbat, anketa, test, pedagogik tahlil, kuzatish, savol-javob, pedagogik tajriba-sinov, mustaqil ta'lim, rivojlanish, intellektual taraqqiyot, qobiliyatli, kasbiy ko'nikma, tafakkur.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ НАД СОБОЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются психологические особенности формирования у учащихся самостоятельной трудовой деятельности над собой, а также разрабатываются методические рекомендации, направленные на разработку содержания эффективной организации их самостоятельного обучения и его формирование. В статье обсуждаются разработка и внедрение в практику методики формирования у обучающихся знаний об эффективной организации самостоятельного обучения, определение путей организации применения оптимальных форм, методов и средств в процессе обучения эффективной организации самостоятельного обучения обучающихся у педагогов профессионального образования, речь идёт об определении уровня эффективности педагогико-психологического процесса, направленного на изучение способов эффективной организации у обучающихся самостоятельного обучения будущих педагогов профессионального образования.

**Ключевые слова:** беседа, анкета, тест, педагогический анализ, наблюдение, вопросы и ответы, педагогические опытно-экспериментальные работы, самостоятельное обучение, развитие, интеллектуальный прогресс, одарённость, профессиональные навыки, мышление.

### PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF THE ACTIVITY OF INDEPENDENT WORK ON ONESELF IN STUDENTS

**Abstract.** In this article, the psychological characteristics of the formation of independent work in students, as well as the development of the content of the effective organization of independent education and methodical recommendations aimed at its formation have been developed. Development and implementation of the methodology for the formation of knowledge on the effective organization of Independent Education in students; determination of ways to organize the use of acceptable forms, methods and means in the process of learning how to effectively organize independent education in teachers of professional education in students; it is spoken about determining the level of effectiveness of the pedagogical-psychological process aimed at studying the methods of effective organization of Independent Education in future teachers of professional education in students.

**Key words:** conversation, questionnaire, test, pedagogical analysis, observation, question and answer, pedagogical experience-testing, independent education, development, intellectual development, capable, professional skills, thinking.

**Kirish.** Ma'lumki, ta'lim tizimi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bo'g'inlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yoshlarni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish, ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Mustaqil Respublikamiz ta’lim tizimi o’ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda, ta’lim – tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya’ni o’zimizning juda boy o’tmishimiz va tariximiz, madaniyatimiz va ma’naviyatimiz, fanimiz va tilimiz o’z mohiyati bilan yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo’lgan milliy-urf odatlarimiz asosida yanada takomillashtirilib, jahon ta’lim standartlari darajasida modernizatsiyalashtirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlarning zaminida jamiyatimiz kelajagi bo’lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, yurt ravnaqi uchun mas’ul etib kamol toptirish, ular qalbida yuksak g’urur hislarni to’lqinlantirish yotadi. Bu ayniqsa, talabalarni, bo’lg’usi o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning metodik tayyorgarligini orttirishda mustaqil ishlarning o’ziga xos talablar asosida tashkil etish, ularni metodik tizimini yaratishni talab etadi.

Hozirgi yoshlarimizning har tomonlama kuchli, bilimli, dono, ilmiy salohiyatli, tafakkur doirasi shakllangan, qobiliyatli, kasbiy ko’nikma, malakalarini yetarli darajada egallagan bo’lishlari talab qilinadi. Buning uchun esa, yoshlarimizni ilm fanning so’nggi yutuqlaridan xabardor qilgan holda, ularga o’z tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy meroslarimiz haqida ma’lumotlar berish, ularni kasbiy madaniyatini shakllantirishimiz zarur. O’tmishsiz kelajak bo’lmaganidek, o’z tarixini, qadriyatlarini, madaniyatini bilmagan xalqda ilm-fan va boshqa sohalarida ham taraqqiyot bo’lmaydi.

**Mavzu bo’yicha adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimiz psixolog olimlaridan N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, A.R.Xodjaboyev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.A.Muslimov, O.A.Qo’ysinov va boshqalar o’z tadqiqotlarida talabalarning o’z ustilarida mustaqil ishlashning tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar.

Shuningdek, fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo’lmish «Avesto» da ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu amal ko’rinishida o’z ifodasini topgan. Sharqning buyuk allomalari bo’lmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Burxoniddin Marg’iloniy, Mahmud Qoshg’ariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa’diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Maxmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ijodiy faoliyatida bu borada chuqur fikr-mulohazalar yuritilgan.

Talabalarda o’z ustida mustaqil ishlash faoliyatini tashkil qilishni pedagogik-psixologik muammo sifatida T.R.Niyazmetova, R.Saidova, A.I.Axmedov, B.M.Turdiyeva, N.A.Muslimov, O’Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.Nishonova, J.Tolipova, N.Xalilov, S.Matchanov, T.Niyazmetova va boshqalar o’z ishlarida tadqiq qilishgan.

Psixolog olim S. Matjonovning tadqiqot ishi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag’ishlangan bo’lib, unda darslarda talabalarning og’zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, ma’naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o’z-o’zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri, o’z nuqtai nazariga ega bo’lmagan talaba ijodkor bo’la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi.

Talabalarda o’z ustida mustaqil ishlash faoliyatini tashkil qilish mustaqil ta’lim va uning ma’naviy-kasbiy mohiyati bo’yicha konseptual yondashuvlar D.Krotval (AQSH), A.Dobrolskiy, V.Okon’ (Pol’sha), P.Gal’pern, K.Talzina, V.Buryak, S.Bondorenko, V.Slastenin, E.SHIyanov (Rossiya), S.Rajabov, X.Ibragimov, M.Ochilov, N.Saidahmedov, O’Q.Tolipov, X.To’raqulov, M.Quronov (O’zbekiston) va boshqalarning ishlarida bayon etilgan.

Bugungi kunda mustaqil ta’limni orqali talabalarning o’z ustilarida mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish jarayonini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Ayni paytda ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning yagona konsepsiyasi to’la shakllanmagan bo’lsada, talaba va o’qituvchi munosabatlarini modellashtiruvchi kompyuter o’qitish tizimi kun sayin rivojlanmoqda. Shuningdek, ayni paytda mustaqil ta’limga va talabalarni mustaqil o’z ustilarida ishlashga bo’lgan innovatsion yondashuvlar islohotlar talabi darajasida to’laqonli o’z yechimini topolgan emas. Talabalarning mustaqil ta’limini yo’lga qo’yishga qaratilgan ta’lim prinsiplari, qonuniyatlar hamda uni amalga oshiruvchi interfaol metodlar metodikasi to’liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g’oyalarni generatsiyalash hamda uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G’oyalarni integratsiyasi jarayonida mustaqil ta’lim texnologiyasining o’rni hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o’rganilmagan. Shunga ko’ra biz tomondan olib borilayotgan tadqiqot ishining maqsadi: ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq mustaqil ta’lim texnologiyasi asosida bo’lajak kasbiy ta’lim o’qituvchilarining erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g’oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta’lim mazmunini takomillashtirishga lozim.

Talaba yetuk, raqobatbardosh kadr darajasiga yetishishi uchun o’z ustida mustaqil ishlashning o’rni beqiyosdir. Biz mustaqil ta’limni yo’lga qo’ya olsak, uni tashkillashtira olsakgina Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk,

raqobatbardosh, qo‘yilgan muammoni mustaqil hal qilish layoqatiga ega, o‘z ustida ijodiy ishlab boradigan mutaxassislar tayyorlay olamiz. Talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq izlanishga, o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llari va manbalarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘llanmalar berish oliy o‘quv yurtlarda talabalarni yetuk kadr darajasida shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur ishni tashkil etish esa oliy ta’lim muassasasida pedagoglar oldiga o‘quv mashg‘ulotlarini zamon talablari darajasida olib borish bilan birgalikda talabning mustaqil faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va takomillashtirish vazifasini qo‘yadi.

Talabalar ko‘pincha darslikda berilgan materialni ongli o‘zlashtirmay, faqat yodda saqlab qoladilar va o‘qituvchiga so‘zlab beradilar. Bunday talabalar kasbiy faoliyatda ham faqat topshiriq asosida ishlashga o‘rganib qoladilar. Ular berilgan «Namuna» asosidagina ish yuritadilar. Natijada faol mustaqil tafakkurga ega bo‘lishga intilmaydilar. Bu quyidagi xulosalarda ifodalanadi: o‘qituvchi ularga murakkab materialni tushuntirib beradi va talaba tayyor material asosida ish ko‘radi, biroq undan murakkabroq material ustida ishlamaydi. O‘qituvchi kitobda yozilgandan ko‘ra talabalarning mustaqil ishlashlari uchun oddiyroq, tushunarliroq tilda tushuntirib beradi.

### O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarining tahlili

Talabalarni mutaxassislik fanlarini laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida mustaqil ta’limni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida talabalarga laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida taqdim etiladigan axborotlarning mazmuni asosida mustaqilishlarning mazmuni, shakl va vositalari ishlab chiqildi.

1. Asosiy tajriba-sinov bosqichida mustaqil ta’lim mazmuni va metodlari laboratoriya va seminar faoliyatida sinab ko‘rildi.
2. Yakuniy tajriba-sinov bosqichida talabalar mustaqil ta’limi samaradorligi shakllanganlik natijalari tahlil qilindi.

*Tadqiqot ishi yuzasidan amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarida Oliy ta’limdan 58 nafar talaba ishtirok etdi.*

1-jadval

Tajriba-sinov maydonlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami talabalarsoni
	_____	_____	
Buxoro davlat universiteti 3-4 bosqich talabalar	30	28	58
Jami	30	28	58

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlarini talabalarining mustaqil ta’limni samarali tashkil etish topshiriqlariga bergan javoblari natijalarini tahlil etamiz.

1. Talabalarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy – tarixiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu bilimlar bo‘yicha savollarga javoblari tajriba guruhini o‘rtacha bali 84,2 ni va nazorat guruhini o‘rtacha bali 71,6 balni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq unchalik katta bo‘lmasligining sababi nazorat guruh talabalarida pedagogika nazariyasi va tarixiga oid bilimlari yetarli bo‘lmasada boshlang‘ich ma’lumotlarga egaliklaridir .

2. Pedagogika va psixologiya nazariyasi tushunchasi, uning kategoriyalari, tarbiya jarayonining qonuniyatlarini o‘rganish faqat dars jarayonida emas, balki hayotda ham kerak bo‘ladi. Bu bilimlar bo‘yicha savollargaga javob bergan tajriba guruh talabalarini o‘rtacha bali 81,6 balni va nazorat guruhini o‘rtacha bali 61,6 balni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 20 balni tashkil etadi.

3. Psixologiya sohasiga oid fanlarini o‘qitishda uni qanday kasblarda qay holda ishlatilishi topshiriqlariga javob bergan tajriba guruh talabalarini o‘rtacha balli 80,6 balni va nazorat guruhini o‘rtacha bali 59,3 balni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 21,3 balni tashkil etadi.

Fanga oid topshiriqlarga javob bergan tajriba guruh talabalarining o‘rtacha bali 82,9 balni va nazorat guruhini o‘rtacha bali 66,6 ni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 16,3 balni tashkil etadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar bilan ishlashga oid topshiriqlarga javob bergan tajriba guruh

talabalarining oʻrtacha bali 81,5 balni va nazorat guruhini oʻrtacha bali 62,4 ni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq unchalik katta boʻlmasligining sababi nazorat guruh talabalarida pedagogikaga oid bilimlari yetarli boʻlmasada boshlangʻich maʼlumotlarga egadir.

4. Pedagogik terminologiyani bilish boʻyicha topshiriqlarga javob bergan tajriba guruh talabalarini oʻrtacha bali 80,6 balni va nazorat guruhini oʻrtacha bali 59,3 balni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 21,3 balni tashkil etadi. Kasblarni farqlarini bilish boʻyicha nazorat guruhini oʻrtacha balini past ekanligini koʻramiz.

5. Fanga oid savollardan unumli foydalanishga oid bilimlar boʻyicha topshiriqlariga javob bergan tajriba guruh talabalarining oʻrtacha bali 82,9 balni va nazorat guruhini oʻrtacha bali 66,6 ni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 16,3 balni tashkil etadi.

6. Taʼlim va tarbiyani mujassamlashtira olishga oid topshiriqlariga javob bergan tajriba guruh talabalarining oʻrtacha bali 81,5 balni va nazorat guruhini oʻrtacha bali 62,4 ni tashkil etdi. Nazorat guruhining oʻrtacha bali 62,4 ballni tashkil etishi va ular orasidagi farq uncha katta boʻlmasligiga sabab talabalarni kasbga yoʻnaltirish mashgʻulotlarida kasbiy tarbiyaga oid bilimlarni olganligi va topshiriqlar bajarganligidir. Bu bilimlar pedagogika nazariyasi va tarixi faniga nisbatan oʻrgatilib tajriba guruhlaridagi oʻrtacha balning 19,2 balga oʻsishiga sabab boʻldi.

Taʼlim - tarbiyani shakllantirilganligiga oid topshiriqlariga javob bergan tajriba guruh talabalarining oʻrtacha balli 81,4 balni va nazorat guruhini oʻrtacha bali 61,3 ni tashkil etdi. Ballar orasidagi farq 20,2 balni tashkil etadi.

Pedagogika metodlarini oʻrgatish orqali uni ilmiy asoslab berish kabi koʻrsatkichlarini hisobga olib ularning malakalari shakllanganligini koʻrdik. Bu bilimlar boʻyicha topshiriqlariga javob bergan tajriba guruh talabalarining oʻrtacha bali 80,8 balni va nazorat guruhining oʻrtacha bali 64,1 ni tashkil etdi.

#### Talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish natijalari

2-jadval

№	Baholash mezon	-			
		oliy taʼlim			
		Tajriba guruhi		Nazorai guruhi	
		Tajriba boshi	Tajriba oxiri	Tajriba boshi	Tajriba oxiri
	Guruh talabalari	30	30	28	28
1.	“5”	3	5	2	3
2.	“4”	2	8	1	4
3.	“3”	10	17	8	10
4.	“2”	15	-	17	11
	Sifat koʻrsatkich	16%	43%	11%	25%
	Oʻrtacha qiymat	2,7	3,6	2,5	2,9
	Samardorlik	1,3		1,1	

Talabalarining mustaqil ishlarni taqdim etish natijalari boʻyicha aytish mumkinki, tajriba guruhi aʼzolari maksimal balning 80,8 foizini olishga muvaffaq boʻlganlar, nazorat guruhida bu koʻrsatkich 62,3 foizga teng. Ular orasidagi farq 18,5 foizni tashkil etdi.

**Xulosa.** Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari sifatida quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin.

Oliy taʼlim talabalarining darsdan tashqari mashgʻulotlarda mustaqil taʼlimni shakllantirish hamda tashkil etishlari uchun quyidagilarga eʼtibor berishlari zarur. Mustaqil taʼlimda qoʻllanilgan tajriba va usullarni oʻrganish hamda ota-onalarning talabalarni tushunishi, undan xabardorlik darajasini;

Darsdan tashqari mashgʻulotlarda mustaqil taʼlim samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini oʻrgatish;

Oliy taʼlimda mustaqil taʼlimni shakllantirishda zamonaviy oʻqitish texnologiyasining muhim komponentlaridan foydalanildi. Oliy taʼlimning darsdan tashqari mashgʻulotlarda mustaqil taʼlimni

shakllantirishda talabalarni kasbiy bilimni oshirish talablari yoritildi. Oliy ta'lim talabalari xalqimizning milliy-ma'naviy merosidan, ulug' siymolarimizning muomala odobini shakllantirish haqidagi ta'limotlaridan, tajribali o'qituvchi va o'z kasbining yetuk mutaxassislarining ish tajribalaridan foydalanadilar.

Shularni e'tiborga olgan holda, ta'lim jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ta'limni shakllantirishning mazmuni, zamonaviy o'qitish texnologiyalari, kasbiy bilimlar va ta'limni tashkil etish turlaridan foydalangan holda ongli holatda o'zlashtirish va faoliyat jarayonida unga amal qilishni taqozo etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. G'oziev E. Umumiy psixologiyasi. -T.: O'qituvchi. 2006. -185 b.
2. Jalilova S.X. “Amaliy psixologiya” T: 2008yil. 104 bet.
3. Karimova V.M. “Amaliy psixologiya” O'quv qo'llanma. T. 2003y 118- bet.
4. Кукушин В.С. Современные педагогические технологии: Начальная школа. Пособие для учителя. - Ростов на Дону: Реникс. 2003. - 448 с.
5. Norov Sh. Ta'lim sifatini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni.”Kasb-hunar ta'limi” jurnali №1 2007 yil 10 bet.

*Shermatov Javohir Sherzodovich*  
*Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi*  
*profil.uz2222@gmail.com*

### O'SMIRLARDA JINOYAT SODIR ETISHGA MOYILLIK SHAKLLANISHINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy psixologiyaning dolzarb bo'lgan muammolaridan - o'smirlarda jinoyat sodir etishga moyillik shakllanishini eksperimental o'rganish va tahlil qilish haqida fikr yuritilgan. O'smirlarda jinoyatga moyillikning paydo bo'lishi, xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarning shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilishga munosabat bildirilgan. Shuningdek, o'smirlar xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlili bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** o'smirlik, jinoyatchilikka moyillik, ontogenez, agressiya, psixologik maslahat, psixoterapevtik ta'sir va deviant xulq-atvor.

### ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ И АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕНДЕНЦИЙ К СОВЕРШЕНИЮ ПРЕСТУПЛЕНИЙ У ПОДРОСТКОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем современной психологии - экспериментальное изучение и анализ формирования склонности к совершению преступлений у подростков. Дана реакция на психологический анализ формирования криминальных тенденций, поведения и проблем, возникающих в жизни подростков. Также описан психологический анализ закономерностей формирования проблем, возникающих в поведении и жизни подростков.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, криминальная склонность, онтогенез, агрессивность, психологическое консультирование, психотерапевтический эффект и девиантное поведение.

### EXPERIMENTAL STUDY AND ANALYSIS OF THE FORMATION OF TENDENCIES TO COMMIT CRIMES IN TEENAGERS

**Abstract.** This article discusses one of the urgent problems of modern psychology - the experimental study and analysis of the formation of the tendency to commit crimes in adolescents. A reaction to the psychological analysis of the formation of criminal tendencies, behavior and problems arising in the life of adolescents is given. Also, the psychological analysis of the patterns of formation of problems arising in the behavior and life of teenagers is described.

**Key words:** adolescence, criminal tendency, ontogenesis, aggression, psychological counseling, psychotherapeutic effect and deviant behavior.

**Kirish.** Mamlakatimizda hozirgi ta'lim siyosatining bosh vazifasi o'quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o'zlashtirishini ta'minlashdir. O'zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo'lib, odamning bilishiga oid olamdagi xilma-xil noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi. Psixologiya fani nuqtayi nazaridan noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o'zlashtirish jarayoni, asosan, uchta yo'nalishga bog'liq bo'ladi. Birinchidan o'zlashtirilayotgan materialning mazmun-mohiyati o'zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarligiga, ahamiyatligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog'liqdir. Ikkinchidan, ta'lim jarayonini boshqarayotgan mas'ul kishi (o'qituvchi)ning shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga uzviy bog'liqdir. Uchinchidan, o'quvchining aqliy taraqqiyoti va tarbiyalanganlik darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o'qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog'liqdir. Ana shu uchta yo'nalish to'la ta'minlangan ta'lim jarayonidagina samarali o'zlashtirish hosil bo'lishi allaqachonlar rivojlangan mamlakatlar fani tajribasida isbotlangan. Shu bois, mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, buyuk ma'naviyatimizni tiklab namoyish etishga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

**Asosiy qism.** Biroq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi insonlar va o'qituvchilar jamoasi har

qancha urinmasin, baribir ta’lim jarayonida jinoyat sodir etishga moyilligi bor o’smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi. Ana shunday tarbiyaviy muammolarni yechishning qanday yo’llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixolog olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko’rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, o’zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko’rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari organizmdagi biofiziologik jarayonlarning kechishiga e’tiborsizlik, pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta’siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o’rganishga yo’nalgan biz olib borayotgan tadqiqotlar natijalarining tahliliga ko’ra o’smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojo’ya xatti-harakatlar paydo bo’lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biofiziologik o’sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o’qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar tarbiyasi qiyin yoshlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o’sishidagi kamchiliklar, chunonchi, akl-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo’shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o’smirning intilishiga xos mavjud imkoniyati o’rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy xislatlarning yetishmasligi, sinf jamoalari, oila a’zolari bilan noto’g’ri muloqot, ishyoqmaslik, bo’sh vaqtni to’g’ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga kelishiga asos bo’ladi. Shaxsning bilim, o’quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko’nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, maktab faoliyatidagi kamchiliklari: o’qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, otanonaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog’atga yetmagan tengqurlarining ta’siri, madaniy-ma’rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham jinoyat sodir etishga moyilligi bor o’smirlar ko’payishiga sabab bo’ladi.

Jinoyat sodir etishga moyilligi bor o’smir o’quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e’tibor berish va nuqsonlarni tuzatib, inson uchun zarur bo’lgan sifat va fazilatlarini shakllantirishda kerakli tarbiyaviy – psixologik shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ontogenez psixologiyasida jinoyat sodir etishga moyilligi bor o’smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga (E.G’oziyev) quyidagi omillar ta’siri alohida ko’rsatib o’tilgan. Ushbu omillarning faol ta’siri tadqiqotlarimiz tahlillarida ham o’z aksini topdi.

1. Shaxsning biologik nuqsonlari:

- o’zlashtirish va anglashda sezgi organlarining kamchiliklari;
- o’qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentga xos xususiyatlarning mavjudligi;
- psixopatologik oqizliklarning ta’siri.

2. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- aqlning bo’sh o’sganligi va maqsadga muvofiq shakllanmaganligi;
- irodaning zaifligi, jur’at, qat’iylilik, o’zini tuta bilish, dadillik va matonatning shakllanmaganligi;
- shaxsda hissiyotning kam rivojlangani, o’zini tuta olmaslik, hissiyotlarni boshqara olmaslik;
- zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;
- o’smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

3. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

- axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;
- o’smirning o’qituvchi, sinf jamoasi va oila a’zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;
- mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, o’quvsizlik, yoshiga xos bilim, malaka va mahoratning shakllanmaganligi;
- bo’sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar, vaqtdan unumli foydalana bilmaslik.

4. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

- bilimlar, maxsus ko’nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
- ta’lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining shakllanmaganligi va yetishmasligi.

5. Maktab ta’limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

- ta’lim jarayonida bilimlar va xatti-xarakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o’quv qo’llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda bolaga e’tiborsizlik va sinfda qoldirish;
- maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar, o’qituvchining o’smirda xayrixoh emasligi, o’quvchining ikkilanishi, o’qituvchilar va o’quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o’z o’mini topa olmaslik va boshqalar.

6. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

- oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;



-bolani tarbiyalash bilan bog‘liq psixologik qonuniyatlarni bilmaslik, oilada bola tarbiyasi bilan bog‘liq munosabatlarda unga amal qilmaslik;

- oilaning buzilishi va oilaviy nizolarning ta‘siri;

-ota-ona yoki oila a‘zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

-oila a‘zolari o‘rtasida o‘z burchi va vazifalarini bajara olmaslik yoki sudlangan odamning uchrashi va uni bola tarbiyasiga ta‘siri;

-tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo‘li egrilikka) o‘rgatishi va hokazo;

-madaniy-ma‘rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklari va boshqalar.

Ko‘rinib turganidek, jinoyat sodir etishga moyilligi bor o‘smirlarni tarbiyaviy tuzatish yoki ular tarbiyasidagi ana shunday qiyinchilik va muammolarni oldini olish uchun avvalo yoshlar tarbiyasiga e‘tiborni bola tug‘ilishidan boshlab oilada sog‘lom tarbiya muhitini yaratish, ota-ona va oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tarbiyaviy-psixologik qonuniyatlarni asosida tashkil etish, shundan so‘ng esa tarbiyachilar, o‘qituvchilar va jamoatchilikning yoshlar o‘quv-tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonlarga mas‘uliyatini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida odamlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o‘qishi va mehnat faoliyatida qanchalik afzalliklar yuzaga kelgan bo‘lmasin, shu barobarida turli-tuman muammolar ham shakllanayotganligini tan olish zarur. Mazkur muammolarning aksariyati insonlar hayoti va faoliyatiga daxldor bo‘lganligi uchun psixologik muammolar hisoblanadi. Shu bois, har bir muammoni yechishda psixologik bilimlarga tayanish, psixolog mutaxassislar maslahatiga amal qilish yaxshi samara berayotganligi insonlar hayoti va jamiyat taraqqiyotida ko‘p bora kuzatilgan (o‘z tasdig‘ini topgan).

Insonlarning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, yoshlar hayoti va ta‘lim tizimida, umuman, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida psixologik xizmat ko‘rsatish hamda psixoterapevtik jarayonni amalga oshirish ko‘p jihatdan har bir inson uchun xos bo‘lgan individual psixologik xususiyatlarni o‘rganish, milliy- madaniy, milliy-psixologik hamda hududiy shart-sharoitlarni e‘tiborga olish bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko‘ra psixologik xizmat ko‘rsatish obektlarini atroflicha o‘rganish natijalariga ko‘ra, psixoterapevtik yo‘nalishlar uchun xarakterli bo‘lgan muammolar ko‘pincha quyidagi omillar (sabablar) ta‘sirida o‘smirlarda shakllanishi kuzatildi:

- o‘smirlarga xos zarur sifat va fazilatlarining yetarli darajada shakllanmaganligi;

- hayotda to‘g‘ri yo‘nalish olmaganligi;

- o‘zida shakllanayotgan kamchiliklarni payqamaslik;

- o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaslik;

- o‘ziga (o‘z imkoniyatlariga) ishonmaslik;

- yon atrofidagilar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlaridan qanoatlanmaslik;

- o‘zaro tushunmaslikning kelib chiqishi;

- bezovtalik darajasining oshishi;

- boshqalar faoliyatiga, narsa va voqealar rivojiga to‘g‘ri baho bera olmaslik;

- odamlar bilan nizolar chiqishiga yo‘l qo‘yish;

- odamlar bilan o‘zaro muomalaga kirishishda uquvsizlik, o‘zgalarning faoliyati, munosabati va xatti-harakatlari ta‘sirida muammolarning shakllanganligi va boshqalar.

Psixoterapevtik xizmat yo‘nalishlari bir-biridan ancha farqliday ko‘rinsa-da, ular bir- biri bilan uzviy bog‘liq va uyg‘unlashgan bo‘lib, birinchi navbatda o‘smir shaxsiga amaliy psixologik yordam ko‘rsatish uchun quyidagi muammoli vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilishi zarur:

- o‘smirning o‘z hayot yo‘lida yuzaga kelgan muammoni va uning sabablarini aniqlashi, tahlil qilib bir qarorga kelishi va uni yechishiga;

- o‘smir o‘zligini anglashi uchun shaxsiga xos sifat va fazilatlarini o‘rganishi hamda uni o‘zidagilar bilan taqqoslab, psixokorreksiya va psixik rivojlantirishga ehtiyoj sezishiga;

- o‘smir o‘z atrofidagi odamlar bilan munosabatini o‘rganib, xatolarini anglagan holda tushunib tuzatishiga;

- o‘smir o‘z hayoti davomida yuzaga kelgan muammolarni yechish yo‘llarini qidirishi va mutaxassis maslahatiga amal qilishiga;

- muammoni yechish uchun belgilangan qarorni amalda qo‘llanilishi va samarasini nazorat qilishiga;

-psixoterapevtik ta‘sir jarayonida o‘smir shaxsining xulq-atvorida yuzaga kelgan ijobiy o‘zgarishlarni muntazam mustahkamlab borishiga.

Xullas, o‘smirlar xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur tarbiyaviy- psixologik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish, natijalarni to‘g‘ri baholash hamda asosli qarorlar qabul qilish bosqichlari albatta, psixoterapevtik xizmat

tashkilotchisining psixologik savodxonligiga va o'qituvchi, o'smirning ota-onasi hamda jamoatchilikning muntazam hamkorlikda ishlashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

O'smirlarda jinoiy moyillikni tuzatishning bir necha usullari mavjud:

1. Ta'lim: balog'atga yetmagan jinoyatchilar uchun yaxshi ta'lim va tarbiya berish juda muhimdir. Ota-onalar va o'qituvchilar ularga qonuniy huquqlari, xavfsizligi va yaxshi xulq-atvori haqida o'rgatishlari kerak.

2. Psixologik maslahat: huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar ko'pincha psixologik muammolarga duch kelishadi, shuning uchun ularga maslahat va yordam berish muhimdir.

3. Faoliyat va tajribalar: voyaga yetmagan huquqbuzarlar o'zlarini boshqarish qobiliyatini yaxshilaydigan tadbirlar va tajribalarda ishtirok etishlari kerak. Ushbu tajribalar ularga o'zini tuta bilish, yaxshi xulq-atvorni o'rganish, kelajakdagi ishlarga tayyorgarlik ko'rish va maslahat so'rashga yordam beradi.

4. Davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash: huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda davlat va jamiyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular ta'lim olish, maslahat olish, o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish va jamiyatga qayta integratsiyalashuvida yordam berishlari kerak.

5. Huquqiy va inson huquqlari bo'yicha ta'lim: huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar huquqiy va inson huquqlari bo'yicha to'g'ri ta'lim olishlari kerak. Bu ularning o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish va jinoiy faoliyatdan qanday qochishni o'rganish uchun muhimdir.

Ushbu usullar birgalikda o'smirlarda jinoiyatchilikka moyillikni kamaytirishga yordam beradi va balog'atga yetmagan huquqbuzarlarni tuzatish uchun zarurdir.

**1-jadval.**

**Jamoaviy va individual usulda ta'lim berish orqali o'smirlar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar hamda noto'g'ri yo'nalganlikni bartaraf qilish bilan bog'liq tarbiya jarayonining olti fazasi**

FAZALAR	Bajariladigan vazifalar	O'qituvchining faoliyati
1-faza	Maqsadni qo'yish va vazifalarni belgilash	O'qituvchi dars uchun rejalashtirilgan asosiy maqsad va barcha vazifalarni o'quvchilarga birma-bir tushuntirib chiqadi hamda darsni boshlaydi
2-faza	Zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash	O'qituvchi o'quvchilarga ogzaki yoki yozma tarzda kerakli ma'lumotlarni aytadi yoki tarqatma materiallar beradi
3-faza	O'quvchilarni guruhlarga bo'lish va faoliyatini nazorat qilish	O'qituvchi o'quvchilarga qanday qilib ishchi guruhlar tashkil qilishni tushuntiradi va guruhlarga nima ish qilish kerakligini anglatadi
4-faza	Guruhlardagi ishga va masalani o'rganish jarayoniga yordam berish	O'qituvchi guruhlarga muammoni qanday hal qilish bo'yicha zarur yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, amaliy yordam beradi
5-faza	Faoliyat jarayonini tekshirib, tuzatib va yo'naltirib borish	O'qituvchi guruhlarning o'zlari erishgan natijalarini taqdimot qilishlariga baho beradi va ular tayyorlagan fikr, yechim va xulosalarni tekshiradi.
6-faza	Natijalarni o'rganish, tahlil qilish va baho berish	O'qituvchi guruhlarning va alohida o'quvchilarning mehnati va bilimiga munosib baho beradi va ilmiy yechimlarning ahamiyatini asoslaydi.

Xulosa: Jahon psixologiyasida jinoyatchilikka moyillikning yuzaga kelishi, turlari va yo'nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, subekt faoliyatida (o'yin, o'qish va mehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida shakllanishi keng ko'lamda tadqiq qilingan. Aksariyat mualliflar shaxsni biologizatsiyalashtirishga intilganliklari tufayli motivning psixologik mohiyatini yetarlicha yoritmay, oddiy turki bilan tenglashtiradilar. Natijada xulq motivlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy xususiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan chetda qoladi. Motivni keltirib chiqaruvchi va psixologik mohiyatini izohlovchi mexanizmlar, ularning manbalari hamda ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. O'smirlarga xos jinoyat sodir etishga moyillikni shakllanishi, yo'nalganligi, mazmuni, mexanizmi, manbalari, boshqa kategoriyalar bilan izchil aloqasi, iyerarxiyasi, ularning faoliyat, xulq-atvor va muomala jarayonida namoyon bo'lishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog'liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarga uzviy bog'liqligi aniqlandi. Ular orasida eng xavfli hamda shaxs va jamiyat hayotida ayanchli oqibatlarini

keltirib chiqaruvchi omillar: o'smirdagi tabiiy-biologik ehtiyojlarning vaqtida va me'yorli qondirilmaslik holatlari (91,6%), oilada o'smirlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy motivlarning me'yorli ta'minlanmaganligi (84,5%), tarbiya uchun mas'ullarning tarbiya jarayonlarida o'smirlar rivojlanishini ta'minlaydigan jismoniy, ijtimoiy-madaniy va individual psixologik omillar ta'siridan yetarlicha xabardor emasligi (82 %), o'smirlarga xos tarbiyaviy muhitning yetarlicha va barqaror ta'minlanmaganligi (72,6 %) dir.

O'spirinlarda jinoyat sodir etishga moyillikni shakllanishining asosiy sabablari (n=423)

№	M A N B A L A R	Tanlov natijalari	
		O'rin	Foiz
1.	O'spirinning yetarlicha tarbiyalanmaganligi, unda tarbiyaviy bo'shliqning mavjudligi	1,79	87,2
2.	O'spirin taqdiri uchun ota-onalarning e'tiborsizligi (tarbiyada loqaydlik, beparvolik, nazoratning yo'qligi))	1,80	92,0
3.	O'spirin turmushida iqtisodiy yetishmovchilikning ta'siri	2,52	76,5
4.	O'spirin yolg'on tasavvurlarning psixologik ta'sir kuchiga ishonib (aldanib), hayotda o'z o'rmini topishga intilishi	2,56	71,8
5.	O'spirin ma'naviyatining bo'shligi natijasida yolg'on tasavvurlarga ishonishi (tasavvurlar to'qnashuvida aldamchi tasavvurlarga tobeligi)	2,77	70,8
6.	O'spirin hissiy-irodaviy holatining beqarorligi, unda tobelikning mavjudligi (hissiy-irodaviy holatlar me'yorida shakllanmaganligi)	3,20	63,1

**Xulosa.** O'smirlarda jinoyat sodir etishga moyillik shakllanishini oldini olish uchun ular tarbiyasiga mas'ullik o'rganilganda, respondentlarning 100 % o'smirlarning hayoti va tarbiyasida ota-onalar hamda ularning oila a'zolari doimiy mas'ul va ogoh bo'lishlari, o'smirning o'zi mas'ul va ogoh bo'lishi muhimligi (92,0%), undan so'ng maktab rahbariyati, o'qish jamoalari hamda o'smir tengqurlari uning tarbiyasida mas'ul ekanliklari va doimiy ogoh bo'lishlari (86,1%), ular tarbiyasida yanada mas'uliyatliroq yondashishda huquq tartibot organlari (84,5%), mahalla faollari va jamoatchilik (78,6%), qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar (73,8%) ham muhim tarbiyaviy ta'sir manbalari sifatida yaqindan yordam berishlari tasdiqlandi.

#### Adabiyotlar:

1. Baratov Sh. Psixologik xizmat. –T. 2018.
2. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. –T., 2014.
3. Rahimova K., Abdullayeva A. Jinoyat sodir etishga moyilligi bor o'spirinlar psixologiyasi.- Farg'ona, 2006.
4. Olimov L.Y., Nazarov A.M. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020.
5. E. G'oziyev Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010.
6. Бандура А., Уолтере Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. - М.: Апрель-Пресс, изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000.



**Turg'unov Baxromjon Raximjonovich**

*Umumiy psixologiya kafedrasida doktoranti, Andijon davlat universiteti  
baxromjonturg'unov@mail.ru*

## TALABALARDA INTELLEKTUAL SALOHİYAT NAMOYON BO'LIŞHINING IJTIMOİY-PSIXOLOGİK XUSUSİYATLARI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada talabalar intellektual salohiyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida psixologik usul va vositalari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Intellektual salohiyatli talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy vaziyat, o'quv faoliyati, intellektual salohiyat, muammoli vaziyat, muammoli masala, muloqot, emotsional yaqinlik, ilmiy tafakkur, intellektual rivojlanish va intellektual muvaffaqiyat.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА У СТУДЕНТОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РАЗВИТИЯ

**Аннотация.** В статье изучены психологические методы и средства, специфика на основе выявления социально-психологических факторов, влияющих на интеллектуальный потенциал студентов. Исследованы методы и средства, которые могут быть использованы в процессе психологического сопровождения интеллектуально одарённых учащихся, даны эффективные рекомендации.

**Ключевые слова:** социальная ситуация, учебная деятельность, интеллектуальный потенциал, проблемная ситуация, проблемный вопрос, общение, эмоциональная близость, научное мышление, интеллектуальное развитие и интеллектуальный успех.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTELLECTUAL COMPETENCE IN STUDENTS AND DEVELOPMENT OPPORTUNITIES

**Abstract.** The article studies psychological methods and means, specifics based on the identification of socio-psychological factors affecting the intellectual potential of students. The methods and tools that can be used in the process of psychological support of intellectually gifted students have been investigated, effective recommendations are given.

**Key words:** social situation, educational activity, intellectual potential, problematic situation, problematic question, communication, emotional closeness, scientific thinking, intellectual development and intellectual success.

**Kirish.** Jahon miqyosidagi yetakchi universitetlaridan talabalar intellektini o'rganish bo'yicha Avstraliya instituti (Australian Institute of Family Studies), Seul Milliy universiteti (Seoul National University, Janubiy Koreya), Moskva davlat universiteti (M.V. Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya), Boston Shimoliy-Sharqiy universiteti (Northeastern University Boston, AQSh), Angliyaning Chyester Universitetlari (Psychology and Child Development (with Placement Year) BSc), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya) va boshqalar tomonidan intellektual muvaqqiyatli talabalar psixologik xususiyatlarini o'rganish tobora dolzarb bo'lib kelmoqda. Xorij psixologlarining ilmiy tadqiqotlari xulosalarida qayd etilishicha, shaxsning intellektual muvaffaqiyatga erishishi uning kelgusi faoliyati uchun muhim zarurat.

Hozirgi davrda talabalarning intellektual salohiyatga erishish ko'nikma va malakalarini psixologik jihatlarini tadqiq etish orqali mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishga qaratilgan tub o'zgarishlarga ijobiy dahldorlik munosabatni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida “Yangi ish oʻrinlarini yaratish, uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish va sifatli taʼlim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish”[1] boʻlimi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2017 yildagi 72-sessiyasida BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surilishi[2]. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan oʻtkazgan uchrashuvida “Yangi Oʻzbekistonni, albatta, yoshlar bilan quramiz. 2020 yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili boʻladi”[3] deya taʼkidlashlari. Globallashtirish sharoitidagi xavf-xatarlar, mafkuraviy xurujlar va ijtimoiy voqelikka yoshlar munosabati shakllanishi borasida soʻz borar ekan, Prezidentimiz maʼrifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Bu dunyo kurash maydonidir. Sogʻlom tan, oʻtkir aql va yaxshi ahloq bu maydon qurolidir” degan ibratli soʻzlarni keltirganliklari tadqiqotimiz dolzarbligiga asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida aynan shu savolga javob topishga harakat qildik. Birlamchi navbatda buni tushunish uchun insonlarning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining asosiy tiplarini, shuningdek, ularning talabalarining taʼlim faoliyatiga taʼsiri toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻrganish tadqiqot perimetri yanada dolzarblashtiradi degan taxmin ilgari surildi. Dastlab muvaffaqiyatli taʼlim olishiga tananing psixofiziologik tuzilishini koʻrib chiqamiz[3].

Konstitusial (tana tuzilishi) E. Krechmerning fikricha, quyidagi turlar ajratiladi:

- astenik - oʻrtacha yoki oʻrtachadan yuqori, mushaklar rivojlanmagan, tor koʻkrak, choʻzilgan oyoq-qoʻllar, choʻzilgan boʻyin va bosh;
- piknik - oʻrtacha yoki oʻrtacha balandlikdan past, katta ichki organlar, qisqargan oyoq-qoʻllari, mushaklari rivojlanmagan, qisqa boʻyin, ortiqcha vazn;
- atletik - oʻrtacha yoki oʻrtacha balandlikdan yuqori, yaxshi rivojlangan mushaklar, katta koʻkrak hajmi, keng elkalar, tor sonlar, mutanosib bosh;
- displastik - tananing tuzilishidagi keskin nomutanosiblik (masalan, juda uzun oyoq-qoʻllar, erkaklarda keng son va tor elkalar va boshqalar)[4].

Tadqiqotning maqsadi. talabalar intellektual salohiyatiga taʼsir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Empirik tadqiqot natijalari.** Bizning tadqiqotimizda intellektual salohiyatli talabalarni psixologik qoʻllab-quvvatlash jarayonida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan;

1-jadval.

**Talabalar intellektual salohiyatini aniqlashda qatnashgan ishtirokchilar ish tajribasi boʻyicha koʻrsatkichlari.**

Jinsi	Mehnat staji				
	5 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilar	5 yildan 10 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilar	10 yildan 15 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilar	15 yildan 20 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilar	20 yildan ortiq ish tajribasiga ega oʻqituvchilar
Erkak	84	57	128	74	39
Ayol	132	241	246	122	58
Jami	216	298	374	196	97

Olingan natijalar amaliyotchi psixologlar faoliyatida manba sifatida muvaffaqiyat potentsialini tashxislash nuqtai nazaridan yondashishga imkon beradigan standartlardan biri sifatida foydalanishi mumkin.


Tadqiqot natijalari oʻqituvchilar, psixologlar va talabalar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislar uchun kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning umumiy namunasi sifatida Andijon davlat universiteti talabalaridan 341 nafar (128 ta erkak, 213 ta ayol) Andijon davlat chet tillari institutidan 260 nafar (94 ta erkak, 166 ta ayol) Andijon davlat pedagogika instituti 143 nafar (27 ta erkak, 116 ta ayol) jami 744 nafar (249 ta erkak, 495 ta ayol) jalb qilinib, bir necha bosqichlarni oʻz ichiga olgan tadqiqot dasturi ishlab chiqildi.

Biz talabalarda intellektual salohiyatni namoyon boʻlishini psixologiya fanida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni oʻrganish asosida chiqarilgan xulosalardan tashqari bugungi kunda taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali professor-oʻqituvchilar oʻrtasida kichik soʻrovnomaga oʻtkazdik. Bunda Andijon viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan 8 ta davlat va nodavlat oliy taʼlim muassasalari, jumladan, Andijon davlat universiteti 241 nafar, Andijon tibbiyot instituti 190 nafar, Andijon

qishloq xo'jaligi instituti 174 nafar, Andijon mashinasozlik instituti 178 nafar, Andijon davlat chet tillari instituti 148 nafar, Andijon davlat pedagogika instituti 126 nafar, Andijon qurilish-iqtisodiyoti instituti 76 nafar, Andijon pedagogika va iqtisodiyot instituti 48 nafar, jami 1181 nafar professor-o'qituvchilari ishtirok etib ular ish tajribasi asosida guruhlashtirildi.

Dastlab biz ishtirokchi-respondentlarga “Intellectual salohiyat deganda nimani tushunasiz?” savol bilan murojaat etdik. Olingan natijalar quyidagicha ko'rsatgichlarni keltirib chiqardi.




**1-rasm. So'rovnoma natijalri**

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, professor-o'qituvchilarning 321 (28,97 %) nafari intellektual salohiyat deganda nimani tushunasiz savoliga “Bilimdonlik” tushunchasini, 214 (19,31 %) nafari “Aql-zakovat”, 173 (15,61) nafari “Kompetensiya”, 151 (13,63 %) nafari “Xabardorlik”, 58 (5,23 %) nafari “O'z ustida ishlash”, 51 (4,60 %) nafari “Ijodkorlik”, 39 (3,52 %) nafari “Tafakkur”, 34 (3,07 %) nafari “Mustaqil fikrlash”, 30 (2,71 %) nafari “Izlanuvchanlik”, 14 (1,26 %) nafari “Aql-idrok”, 9 (0,81 %) nafari “Ta'minlanganlik”, 14 (1,26 %) nafari “Boshqa javoblar” deb javob berdilar.

So'rovnomaimizning keyingi “Hozirgi kun talabasining intellektual salohiyatini qanday baholaysiz ?” savoliga respondentlar quyidagicha javob berdilar.

Natijalar asosida shunday xulosalarga kelish mumkinki, professor-o'qituvchilar bugungi kun talabalarining intellektual salohiyatini baholashda ijobiy natijalar qo'lga kiritilmadi. 1108 nafar respondentlardan 454 nafari talabalarining intellektual salohiyatini past darajada shakllangan deb baholagan bo'lsa, 321 nafari o'rtacha darajada shakllangan deb baholashgan. 254 nafar respondent esa bugungi kun talabasining intellektual salohiyatidan qoniqish hosil qilgan. 79 nafar professor-o'qituvchilar esa intellektual salohiyatni baholay olmaganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Dastlabki asosiy metodikamizni o'tkazganimizdan so'ng talabalarda unga qo'shimcha ravishda intellektual salohiyatning shakllanishida motivatsion komponentning ta'sirini o'rganish maqsadida D.A.Leonteevning “Hayot mazmunini belgilovchi yo'nalishlar” testini o'tkazdik. Olingan natijalar matematik statistik jihatdan ko'rinishi quyidagi jadvalda aks etgan.



2-rasm. So'rovnoma natijalari

2-jadval

## D.A. Leontevning " Hayot mazmunini belgilovchi yo'nalishlar " testi so'rovnomasi

Subshkala	Jinsi	n	O'rtacha	Standart og'ish	Dispersiya	t
Hayotdagi maqsadlar	Erkak	249	32,90	5,92	28,04	-3,002***
	Ayol	495	29,38	6,24	38,93	
Hayotiy jarayoni (qiziqish va hayotning hissiy boyligi)	Erkak	249	31,09	4,44	19,71	2,59**
	Ayol	495	28,80	6,14	37,69	
Hayotiy samaradorlik yoki o'zini o'zi anglashdan qoniqish.	Erkak	249	25,46	4,30	18,49	-3,012*
	Ayol	495	23,30	4,95	24,50	
Lokus nazorati (Men o'z hayotimni egasiman)	Erkak	249	21,13	3,85	14,82	2,41***
	Ayol	495	18,58	4,30	18,49	
Hayotiy lokus nazorat	Erkak	249	30,14	5,80	33,64	2,81**
	Ayol	495	28,70	6,10	37,21	
Umumiy	Erkak	249	103,10	15,03	225,9	-4,018***
	Ayol	495	95,76	16,54	273,5	

\*p&lt;0,05; \*\*p&lt;0,01; \*\*\*p&lt;0,001

Kuzatishlarimiz va o'tkazilgan metodikalarimiz natijasida shu ko'rindiki, testdagi ballar asosidagi har besh shkalada erkaklar ayollarga nisbatan yuqori ballar yig'ishga muvaffaq bo'ldilar. Buning sababi etnopsixologik omillarga bog'liq bo'lib, azaldan erkak kishi oilani moddiy ta'minlovchi rolda shakllanib tarbiyalanayotganligida ko'rishimiz mumkin. Chunki voyaga yetgan har bir yigit oilani iqtisodiy tomondan ta'minlash uchun o'z hayotiy strategiyalariga ega bo'lib boradi.

**Xulosa va tavsiyalar.**

"Talabalarda intellektual salohiyat namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va rivojlantirish imkoniyatlari" mavzusida o'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ta'lim olish muvaffaqiyatiga ko'plab omillar ta'sir qiladi - ichki va tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, pedagogik va boshqalar).

2. Intellektual salohiyat muvaffaqiyatli kechishida avvalo ichki omillarni tartib bilan o'rganish tadqiqotning mazmunini yoritishga va uning mazmun-mohiyatini tushunishni yanada osonlashtiradi.

3. Qobiliyatlar tarkibida umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt, maxsus qobiliyat va ijodkorlik kabi nisbatan mustaqil tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish zarur hisoblanadi. Biz faqat maxsus qobiliyatlarga nisbatan mashg'ulot muvaffaqiyati bilan ijobiy munosabat haqida gapirishimiz mumkin.

4. Ko'p hollarda kasbiy rivojlanishning past darajasi muhim maxsus qobiliyatlar tegishli profildagi

universitetda muvaffaqiyatli o'qishni imkonsiz qiladi. Aksincha, universitetda muvaffaqiyatli ta'lim aslida maxsus kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayoniga to'g'ri keladi.

5. Intellektual salohiyatni rivojlantirish manbalari xilma-xil bo'lib, u ham ommaviy axborot vositalari, ham turli jamoat birlashmalari bo'lishi mumkin. Ammo intellektual salohiyatni rivojlantirishda asosiy rol ta'lim tizimiga tegishli. Bu shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga qodir bo'lgan eng kuchli ijtimoiy, ilmiy muassasadir.

**Adabiyotlar:**

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari. 2017.- (766)-son. B.36-37.
2. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambeliyasidagi nutqi. 19.09.2017 y.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T., 2010. – 544 b.
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2010. – 283 b.





*Usmanova Manzura Naimovna,*  
Associate Professor, Bukhara State University

### RESEARCH ON SOCIAL COMPETENCE OF TEACHERS

**Abstract.** The modernization of the education system in Uzbekistan puts forward the issues of forming the professional competence of a teacher to one of the leading places. Professional competence is a condition for the effectiveness of the organization of the educational process. The problem of the formation of psychological competence in the system of pedagogical education is one of the most urgent at present. In the article we proceeded from the fact that **an** integral part of psychological competence is communicative competence, the process of formation which is the object of this study.

**Keywords:** professional, psychological, communicative competence, professional and personal growth of a teacher.

### ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** Модернизация системы образования в Узбекистане выдвигает вопросы формирования профессиональной компетентности педагога на одно из ведущих мест. Профессиональная компетентность является условием эффективности организации образовательного процесса. Проблема формирования психологической компетентности в системе педагогического образования является одной из наиболее актуальных в настоящее время. В статье мы исходили из того, что неотъемлемой частью психологической компетентности является коммуникативная компетентность, процесс формирования которой и является объектом данного исследования.

**Ключевые слова:** профессиональная, психологическая, коммуникативная компетентность, профессионально-личностный рост педагога.

### O'QITUVCHILARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYASI BO'YICHA TADQIQOTLAR

**Annotatsiya.** O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini yetakchi o'rinlardan biriga qo'yimoqda. Kasbiy kompetensiya ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorligining shartidir. O'qituvchilarning ta'lim tizimida psixologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Maqolada biz psixologik kompetensiyaning ajralmas qismi kommunikativ kompetensiya ekanligidan kelib chiqdik, uning shakllanish jarayoni ushbu tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy, psixologik, kommunikativ kompetensiya, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishi.

**Introduction.** Currently, the problem of professionalism is in the center of attention of many sciences. A professional in modern literature is defined as a subject of professional activity, having high rates of professionalism of the individual and activity, having a high professional and social status, a dynamically developing system of personal and active regulation, constantly aimed at self-development and self-improvement, personal and professional achievements, having a socially positive meaning.

Шу асосда психологлар томонидан стратегик бошқарувнинг муқобил асосий тушунчалари илгари сурилди. Маълум бўлдики, стратегияни шакллантириш - стратег онгида содир бўладиган жараён бўлиб, менежерларда тўлиқ маълумот, билим, малака, ҳатто ўзларида мавжуд бўлган барча маълумотларни қайта ишлаш имконияти бўлмаслиги мумкин. Стратегияларнинг шаклланиши атроф-муҳитдан маълумот олишнинг муайян усулларини белгилайдиган ақлий хариталар ва баъзи маълумотларни ўз ичига олган тузилмаларга асосланади. Когнитив психологлар ахборотни қайта ишлаш жараёнларини таҳлил қилиш учун компьютер метафорасидан фойдаланадилар, яъни бир томондан менежерлар томонидан рақобат муҳитини лойиҳалаш, моделлаштириш ва тузилмалаш, иккинчи томондан "коллектив компьютер" томонидан маълумотларни юқорига ва пастга қайта ишлаш ўртасида параллеллик олиб борилади. Шу билан бирга, менежерларнинг гуруҳ ақлий моделлари стратегик фикрлашнинг стереотипларини, инерциясини ва номукамаллигини келтириб чиқаради.

Когнитив психология иқтисодий назария билан бир қаторда фирманинг динамик имкониятлари концепциясининг ресурс ёндашувидан келиб чиққан янги стратегик менежмент мактаби асосида ётади. Фирманинг динамик қобилияти назарияси бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнида "совук" когнитив ва "иссик" ҳиссий жараёнларни мувофиқ равишда бирлаштириш учун мўлжалланган. Нейрология соҳасида "ижтимоий мия"ни ўрганиш бўйича сўнгги кашфиётлар туфайли топ-менежерларнинг тушуниш ва ўзгартириш қобилияти бевосита интуитив ва ҳиссий жараёнларга боғлиқ эканлиги эътироф этилмоқда. Бундан ташқари, қарор қабул қилишнинг индивидуал ва жамоавий даражаларини интеграциялашга эътибор дисфункционал фикрлаш шакллари самарали равишда четлаб ўтиши ва менежерларнинг ташкилотдаги ўзгаришларга салбий ҳиссий реаксиялари билан боғлиқ стратегик инертсияни энгиб ўтиши мумкин. Гиперрақобат, технологик ва ижтимоий ўзгаришларнинг тезлашиши компаниянинг динамик имкониятларининг самарали ишлаши учун ташкилотнинг бутун ишчи кучининг ҳам, алоҳида ишчи гуруҳлар ва ходимларнинг ҳам ижтимоий-психологик хусусиятларини ҳисобга олиш зарурлигига олиб келади.

#### **Ташкилий психология нуқтаи назаридан рақобат афзалликлари.**

Фирманинг динамик имкониятлари назариясининг кенг муҳокама қилинган камчилиги бу "имконият" тушунчасининг ноаниқлиги бўлиб, у шунчалик кенг бўлиб чиқдики, уни ишга амалга ошириш мураккаб бўлди. Динамик имкониятлар асосидаги механизмларни аниқлаштириш зарурати янги тадқиқот ённалиши - стратегик ташкилий психологиянинг пайдо бўлишига олиб келди, у ташкилий ҳетероженлик ва барқарор рақобатдош устунликнинг микро асосларини (яъни индивидуал, шахслараро ва гуруҳ омилларини) ўрганади. Корхона тузилмаси ва ходимларнинг ички хилма-хиллиги, ғоялар хилма-хиллиги, билимларнинг ўзига хослиги рақобатбардошлик шартига айланган шароитда, компаниянинг самарадорлиги ва ҳаётийлигига таъсир қиладиган жамоавий психологик ресурслар (инсон капитали, ташкилий иқлим, ижтимоий тармоқлар ва ишонч, корпоратив маданият) қандай бўлиши бўйича тадқиқотлар фаоллашди. Ташкилотнинг стратегик муҳим ресурслари қандай шаклланганлиги ҳақидаги саволга жавоб излаш ташкилий психологларини индивидуал ходимлар ёки кичик гуруҳларни ўрганишдан индивидуал хусусиятлар, гуруҳ жараёнлари ва умуман ташкилотнинг рақобатбардошлиги ўртасидаги боғлиқликни кўп босқичли ўрганишга парадигма бурилишларига ундайди.

Парадигмалар - бу атрофимиздаги дунёни идрок этадиган ва унинг келажакдаги ҳатти-ҳаракатларини башорат қиладиган қарашлар ва ғоялар тизими. Бироқ дунё доимо ўзгариб туради ва ўтмишда яхши ишлаган қоидалар ривожланишга тўсқинлик қилиши мумкин.

Корпоратив ресурслар стратегик таъсирга эга бўлиши учун улар бир хил бўлмаган, камдан-кам учрайдиган (гетероген) ва рақобатчилар томонидан тақлид қилинмаслиги керак, бу ижтимоий мураккаблик, яъни шахслараро ва гуруҳлараро ўзаро таъсирда номоддий психологик ресурсларнинг бир-бирини тўлдириши ва хилма-хиллиги билан таъминланади. Ижтимоий муаммо стратегик менежмент нуқтаи назаридан ташкилотнинг энг муҳим ресурси бўлган ташкилотнинг инсон капиталида мужассамланган бўлади. Ташкилий психологлар томонидан ходимларнинг индивидуал билимлари, кўникмалари, қобилиятлари ва бошқа хусусиятлари маълум бир корхонанинг инсон капиталига қандай интеграциялашганлигини тушунтириш учун инсон капиталининг кўп даражали моделини ишлаб чиқди. Ушбу жараён икки босқичдан иборат: биринчи босқичда ишлаб чиқариш фаолияти вазифаларининг мураккаблиги ишчиларнинг ўзаро муносабатлари, уларнинг ҳатти-ҳаракатларини мувофиқлаштириш ва синхронлаштириш даражасини белгилайди. Иккинчи босқичда жамоа аъзолари ўртасидаги ўзаро муносабатларга ёрдам берадиган ижтимоий контекстнинг ўзига хос



омили пайдо бўлади. Инсон капитали ва фирма самарадорлиги ўртасидаги воситачи - бу оператсион фаолият. Билим ва кўникмалар муайян ходимлар ва уларнинг фаолияти билан боғлиқ бўлиб, улар ҳар бир компания хусусиятларидан келиб чиқиб ўзига хосдир, яъни жами инсон капитали рақобатдош устунлик учун асос болади.

Ташкилий психология узоқ вақтдан бери ташкилотнинг турли даражаларида психологик ходисаларнинг ўзаро боғлиқлигини ўрганиб келган. Анъанавий парадигмага кўра, бундай ходисалар шахсларнинг билишида, хатти-ҳаракатларида пайдо бўлган, кейин уларнинг ўзаро таъсири орқали улар ташкилот даражасида жамоавий ходисаларга айлантирилган. Стратегик менежментда, қоида тариқасида, бутун ташкилот ўрганиш объекти ҳисобланади (юқори бошқарув гуруҳи бундан мустасно). Стратегик ташкилий психология ушбу иккала ёндашувни ўзида мужассамлаштириб, стратегик ресурсларни яратиш ва амалга оширишда "индивидуал" қандай қилиб "жамоа"га айланишини аниқлаб беради.

**Хулоса.** Ҳозирги кунда хорижда амалга оширилаётган илмий-тадқиқот дастурининг муҳим ютуқларини эътироф этган ҳолда, унинг бир қатор объектив камчиликларини ҳам қайд этиш мақсадга мувофиқдир. Бихевиоризм учун бу "рағбатлантириш-жавоб" нинг бошланғич тамойилининг услубий чекловлари, нейропсихологияга асосланган стратегик бошқарувнинг манипулятив амалиётларини ривожлантириш хавфи. Когнитив психология учун бу асосий қарорларни қабул қилишда компютер метафорасининг редукционизми, шунингдек, стратегик фикрлаш ва режаларни амалиётда амалга ошириш ўртасидаги заиф боғлиқликдир. Ташкилий психологиясида инсон капитали ва стратегия ўртасидаги воситачи сифатида операцияларнинг роли етарлича баҳоланмаган. Ташкилотнинг динамик қобилиятини биргаликдаги фаолият сифатида ҳисобга олсак, унинг давомида жамоавий субъект, жамоавий ўтмиш, ҳозирги ва келажакка гуруҳ муносабати шаклланади, муваффақиятли стратегик бошқарув учун муҳим бўлган асосий психологик ходисаларни аниқлаш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, биз стратегик менежмент соҳасида психологик тадқиқотларнинг бир нечта истиқболли йўналишларини ажратиш кўрсатишимиз мумкин. Биринчидан, бу стратегик бошқарувда жамоавий эмоционал ҳолатлар ва гуруҳ ҳиссий интеллектнинг ролини чуқур ўрганишни талаб қилади. Иккинчидан, гуруҳлараро таққослаш жараёнлари, стратегияни ишлаб чиқиш жараёнида ўз компаниясининг топ-менежерларини рақобатчилар билан солиштиришда ўзига хослик ва гуруҳ стереотипларининг роли кам ўрганилган. Учунчидан, ноаниқлик ва тез ўзгариш шароитида гуруҳ ақлий моделлари ва транзаксия хотирасини шакллантириш бўйича қўшимча тадқиқотлар талаб этилади. Бошқарув гуруҳларида стратегияни ишлаб чиқишда рефлекс жараёнлари ва метакогнитив компетенцияни ўрганиш стратегияни амалга ошириш жараёнида ўзаро боғлиқлик ва биргаликдаги фаолият билан гуруҳ субъектининг бошқа хусусиятлари билан боғланиши керак. Тўртинчидан, стратегик қарорларни қабул қилишда жамоавий импровизация ва режалаштириш ўртасидаги муносабатни аниқлаштириш талаб этилади. Ва ниҳоят, ҳар хил бизнес моделлари самарадорлигининг ижтимоий-психологик омилларини, шунингдек, бир моделдан иккинчисига ўтишдаги гуруҳ жараёнларини ўрганиш тобора долзарб бўлиб бормоқда.

#### Адабиётлар:

1. Журавлёв А. Л. Психология коллективного субъекта // Психология индивидуального и группового субъекта / Под ред. А. В. Брушлинского, М. И. Воловиковой. М., 2002. С. 51–81.
2. Нестик Т. А. Коллективный образ будущего: социально-психологические аспекты прогнозирования // Вопросы психологии. 2014. № 1. С. 3–13.
3. Ходкинсон Дж., Сперроу П. Компетентная организация: психологический анализ процесса стратегического менеджмента. Харьков, 2007.
4. Healey M. P., Hodgkinson G. P. Psychological Foundations of Strategic Management // The Blackwell Encyclopedia of Management: Strategic Management / 3rd ed. London: Wiley-Blackwell, 2015. V. 12. P. 1–3.
5. Ployhart R. E., Hale D. Jr. The Fascinating Psychological Microfoundations of Strategy and Competitive Advantage // Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior. 2014. V. 1. № 1. P. 145–172.
6. Powell T. C., Lovallo D., Fox C. R. Behavioral strategy // Strategic Management. 2011. V. 32. P. 1369–1386.

*Аваязова Дилфуза Шавкатовна*

*Маъмур Университети НТМ "Психология" кафедраси ўқитувчиси  
avazyazovadilfuza@gmail.com*

## **ХОРИЖЛИК ТАЛАБАЛАРНИ УНИВЕРСИТЕТ ТАЪЛИМ МУҲИТИГА МОСЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада глобаллашув шароитида таълимнинг халқаролашуви, бу борада олий таълим муассасалари томонидан олиб борилаётган ишлар, олий таълим муассасасида таълим олаётган хорижлик талабаларнинг таълим олиш ва яшаш муҳитига мослашишида дуч келадиган ижтимоий-иқтисодий, психологик ва маданий тўсиқлар ҳақида сўз бориб, хорижлик талабаларнинг таълим жараёнидаги муваффақиятини таъминловчи мослашув тушунчасининг моҳиятини очиқ беришга қаратилган. Шунингдек, Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиалининг хорижлик талабаларида ўтказилган махсус сўровнома натижаларининг таҳлилий хулосалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** халқаро таълим тизими, ижтимоий-психологик мослашув, академик мослашув, таълим сифати, ўқув фаолияти, мотивация, таиқи муҳит, хулқ-атвор.

## **ПРОБЛЕМЫ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ К ВУЗОВСКОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

**Аннотация.** В данной статье говорится об интернационализации образования в условиях глобализации, о работе, проводимой высшими учебными заведениями в этом направлении, о социально-экономических, психологических и культурных препятствиях, с которыми иностранные студенты, обучающиеся в высших учебных заведениях, сталкиваются в своем образовании и адаптация к среде обитания и образовательному процессу иностранных студентов. Также представлены аналитические выводы специального анкетирования, проведенного среди иностранных студентов Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии.

**Ключевые слова:** международная система образования, социально-психологическая адаптация, академическая адаптация, качество образования, образовательная деятельность, мотивация, внешняя среда, поведение.

## **PROBLEMS OF ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS TO THE UNIVERSITY EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

**Abstract.** This article talks about the internationalization of education in the context of globalization, about the work carried out by higher educational institutions in this direction, about the socio-economic, psychological and cultural obstacles that foreign students studying in higher educational institutions face in their education and adaptation to the environment and the educational process of foreign students. Analytical conclusions of a special survey conducted among foreign students of the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy are also presented.

**Key words:** international education system, socio-psychological adaptation, academic adaptation, quality of education, educational activity, motivation, external environment, behavior.

**Кириш.** Замонавий дунёда таълим соҳасидаги халқаро ҳамкорлик, давлатлар ўртасида тобора долзарб масала сифатида кун тартибига чиқиб, минглаб ёшлар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий омиллар таъсирида хорижда таълим олишни маъқул кўришяпти. Халқаро таълим тизими халқлар ва мамлакатларнинг бир-бирига яқинлашувига катта ҳисса қўшибгина қолмасдан, бу борада, яъни хорижлик талабаларни университетларга қабул қилишда юқори натижаларни қайд қилиш, ўша давлатнинг халқаро майдондаги обрў-эътиборининг ҳам асосий кўрсаткичи ҳисобланади. Глобаллашув жараёнидаги фаол ривожланаётган жамият, олий таълимга доимий ўзгаришда бўлган меҳнат бозорида рақобатга бардош бера олувчи мутахассисларни тайёрлай олиш талабини қўяди. Олий таълим бу каби талабларни қондиришга таълим сифатини ошириш, хорижлик талабалар сонини кўпайтириш, уларга замонавий талабларга жавоб бера оладиган таълим тизими ва яшаш шароитларини яратиш орқали эришиши мумкин. Олий таълимда халқаролашувнинг ривожланиши, университетларга тўлов-контракт асосида хорижлик талабаларни жалб қилади, бу эса,

махаллий университетларнинг молиявий ҳолатини яхшилашга, турли халқаро таълим лойиҳаларини амалга оширишга хизмат қилади. Шу боисдан, Ўзбекистонга ҳам хорижлик талабаларнинг кириб келиши йиллар давомида ошиб бораётганлигини инобатга олиб, ўз тадқиқот ишимиз доирасида хорижлик талабаларнинг янги муҳитга ижтимоий-психологик ва академик мослашувчанлигига таъсир қилувчи омилларни ўрганишни мақсад қилган ҳолда, хорижда ўтказилган илмий-тадқиқотларни таҳлил қилишга ва шулардан келиб чиққан ҳолда ўз тадқиқот ишимизни олиб боришга қарор қилдик.

**Асосий қисм.** Хорижлик талабалар таълим олиш учун келган давлатида бошқа ижтимоий-маданий вазият, тил борасидаги муаммолар, ўзгача таълим анъаналари ва талаблари, иқлим шароитлари билан боғлиқ қийинчиликларга дуч келишади. Талабалар ўзларидаги бу каби муаммоларни мослашувчанлик қобилиятларини ривожлантирган ҳолда бартараф этишлари мумкин. Мослашиш жараёни чет элда таълим олаётган хорижлик талабаларнинг психосоциал, психофизиологик, маданий ҳолатига таъсир қилади. Албатта, таълим жараёнининг самарадорлиги хорижлик талабаларнинг мослашув даражаси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу ҳам, талабаларнинг ўқув фаолиятига тайёргарлик даражасига, мотивациясига, шунингдек, университет томонидан тақдим қилинадиган шарт-шароитлар мажмуасига боғлиқ.

Таълим хизматлари соҳасида ҳар қандай мамлакатнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, бу хорижлик талабаларнинг ўқув жараёнига тез кириб боришига тўсқинлик қилади. Хорижлик талабаларни олий таълимга мослашуви деганда, талабанинг янги таълим тизими муҳитига комплекс мослашиши, яъни янги шароитларга, академик таълим усуллари ва шакллари, катта ҳажмдаги билимларни ўзлаштириш, ўқув материални анализ ва синтез қилиш жараёнига мослашишини тушунишимиз ва бу таълимнинг самарадорлигини белгилайдиган асосий омиллардан бири эканлигини англашимиз лозим [1].

Дастлаб мослашиш тушунчасининг моҳиятига тўхталадиган бўлсак, мослашув мураккаб ва кўп қиррали жараён ҳисобланиб, шахс ва ижтимоий муҳит ўртасида муайян муносабатларни ўрнатиш натижасидир. Мослашув жараёнида ўзаро боғлиқ бўлган иккита компонент: инсон ва унинг муҳити мавжуд бўлиб, шахс ва ижтимоий муҳит ўртасидаги ўзаро таъсирнинг ўзига хослиги ижтимоий-психологик мослашувни белгиловчи асосий омил ҳисобланади.

А.И.Сурыгин бўйича мослашув тушунчасини таҳлил қиладиган бўлсак, мослашиш - бу организмнинг ўзгарувчан шароитларга нисбатан сезгирлигининг пасайиши натижасидир. Мослашувнинг ижтимоий-психологик, физиологик турларини фарқлаш мумкин [2].

И.В.Ширяева ва Т.Д.Чернявская янги педагогик тизимга мослашиш ёки академик мослашишни алоҳида тур сифатида ажратишган. Академик мослашиш иккита жиҳатга эга бўлиб, биринчиси бир таълим тизимидан иккинчи юқорироқ таълим тизимига ўтиш, масалан, мактабдан университетга, иккинчиси, бошқа миллий-маданий, ижтимоий, иқтисодий анъаналарга эга таълим тизимига ўтиш. Бу асосан хорижлик талабалар билан содир бўлади [3].

Психологияда умуман талаба шахсияти ва унинг ўзига хос томонлари ва хорижлик талабалардаги психологик хусусиятларни, уларни мослаштириш муаммоларини ўрганиш бўйича кўплаб олимлар ўз тадқиқотларини олиб борган бўлиб, мақолада улардан бир нечтасига тўхталиб ўтамиз.

Хорижлик талабаларни университетдаги ўқув жараёнига мослаштириш хусусиятларини И.В.Ширяева, таълим фаолиятида муваффақиятга эришиш омиллари Е.Ф.Изотова, М.А.Иванова, Н.А.Титкова, В.П.Трусова, Н.Д.Шаглина хорижлик тадқиқотчиларнинг тадқиқот натижаларидан олинган хулосалар асосида хорижлик талабаларни мослаштириш муаммолари, хорижлик талабаларни ўқув гуруҳига мослаштириш, гуруҳдаги психологик иқлимни ўрганиш бўйича, А.С.Филиппова талабалардаги ижтимоий стереотипларни ўрганиш, А.М.Горошенко талабаларнинг кадриятлар йўналишлари, М.А.Иванова ва Л.П.Цокол хорижлик талабаларнинг миллий психологик хусусиятларни педагогик жараёнда ҳисобга олиш муаммолари, Т.Д.Чернявская талабаларнинг дидактик мослашувига доир тадқиқотларни олиб борганлар.

Л.Г.Почебут фикрича, талабаларнинг таълим фаолиятига мослашиши ижтимоий-психологик ва психологик-педагогик омиллар билан белгиланади.

Улардаги умумий ижтимоий-психологик омилларга: университет, факультетни танлашдаги мотивация, танлаган касб ва мутахассисликка бўлган қизиқиш, педагогик тизимга бўлган ички муносабат, талабанинг ўзидаги конструктив, ташкилий, коммуникатив ва гностик қобилиятлар, характернинг ўзига хос хусусиятлари, билим, кўникма ва малакаларни келтириш мумкин.

Мослашувнинг психологик-педагогик омиллари қаторига: мутахассислик йўналишининг табиати, ўқитувчининг касбий фаолият даражаси ва қобилиятларини келтириш мумкин.

Е.Д. Максимчук хорижлик талабаларнинг маданиятлараро мослашуви ва мослашишга тайёрлик кўрсаткичларини таҳлил қилар экан, университетда ташкилий фаолият доирасида мослашув дастурларини амалга оширишнинг алоҳида аҳамиятини таъкидлайди, бу эса хорижлик талабанинг ижтимоий-маънавий муҳит билан этник ўзига хосликнинг психологик хусусиятлари, вазиятлардан ташвишланиш, маданий шокнинг оғирлиги каби ходисалар билан алоқага киришиш орқали талабанинг ҳар томонлама интеграциялашувини таъминлайди.

Л.Д. Столяренко ўз тадқиқотларида талабаларни таълим шароитларига мослаштиришнинг учта турини ажратиб кўрсатганлигини кўришимиз мумкин:

- расмий мослашув;
- ижтимоий мослашув;
- дидактик мослашув.

А.А.Деркач бўйича, талабанинг таълим фаолиятига мослашишга тайёргарлигини шакллантириш ички ресурсларни комплекс сафарбар қилишни ўз ичига олади. Нерв-психик зўриқиш ҳолатида талаба бирламчи сафарбарлик ҳолатини бошдан кечириб, таълим ва касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган ақлий ва психофизик жараёнлар сафарбар қилинади. Кейинги босқичда ўткир реакция юзага келади, бунда шахс атроф-муҳит омилларининг ҳозирги таъсирига жавоб бериши керак бўлиб: талаба илгари қабул қилмаган қарорларни қабул қилиши, янги ўқув воситаларини ўзлаштириши ва одатларни ўзгартириши керак. Ушбу ноқулайликлар талабаларда умидсизлик туйғусини шаклланишига олиб келиши натижасида адаптив (эҳтиёжларни қондириш воситалари мавжуд) ва нотўғри (ғазаб, тажовузкорлик ва қочиш) стратегияларни намоён қилиши мумкин.

Чет эллик олимларнинг асарларида хорижлик талабаларнинг АҚШ, Англия, Австралия, Ҳиндистон ва Германия каби мамлакатлардаги ижтимоий ва маданий фарқларга мослашувининг ижтимоий-психологик омиллари билан боғлиқ бир қатор психологик муаммолар ёритиб берилган.

Таълим даргоҳидаги янги ижтимоий-маданий муҳит талабаларга ўзига хос юкламаларни юклаши натижасида талабалар ушбу муҳитда янги муносабатлар тизимини қуришларига тўғри келади. Ушбу талабаларга мувофиқ бўлиш ёки бўлмастик талабаларнинг академик муваффақиятини, талабаликнинг биринчи босқичида касбий ижтимоийлашувини меъёрий ҳолатда бўлишини таъминлаб беради.

Академик мослашув мураккаб жараён бўлиб, ҳар бир хорижлик талабанинг ҳаётига оид бир нечта жиҳатларни мослаштиришни ўз ичига олади. Жумладан:

**Лингвистик мослашув** - турли этник гуруҳлар ўртасидаги табиий тўсиқ бўлиб, уни енгиб ўтиш муваффақиятли таълим йўлидаги дастлабки қадамдир.

**Дидактик мослашув** - таълимнинг янги педагогик усуллари ва шаклларига мослашиш


**Маданий мослашиш** - онг ва ҳулқ-атворнинг стереотипларини, ижтимоий ташкил этиш ва тартибга солиш шакллари, қабул қилинган меъёрлар ва қадриятларни, турмуш тарзи ва дунёқараш элементларини ўзгартириш орқали ҳаётнинг ўзгарувчан табиий-географик, тарихий-ижтимоий шароитларига мослашиш [4].

Мослашувнинг ушбу жиҳатларига қўшимча равишда, хорижлик талабалар учун мустақил таълим олишни ташкил қила олиш кўникмасининг етишмаслиги катта муаммодир. Талабалар кутубхонадан фойдаланишда, манбалар билан ишлашда, фанлар бўйича конспект ва тезислар ёзиш бўйича бир қатор муаммоларга дуч келишади. Лекин бугунги кунда таълим тизимига ахборот технологияларни жорий этиш талабаларда мустақил ўқишларини, ўз-ўзини тарбиялаш ва ривожлантириш жараёнларини бир мунча осонлаштирган [5].

Талабаларни университетдаги ўқув муҳитига мослашишини ўрганишга қаратилган тадқиқотларга мурожаат қилган ҳолда, И.Гонта ва А.Булгак томонидан ўтказилган тадқиқотни таҳлил қилдик. Ушбу тадқиқот 2019 йилда Бухарест политехника университетининг 148 нафар маҳаллий талабасида ўтказилган. Улардан “Талабанинг академик ҳаётга мослашуви” сўровномаси олиниб, натижалар таҳлил қилинганда, кўплаб талабалар ҳаётнинг янги контексти бир қатор муаммоларга дуч келганлигини таъкидлаган ва олинган кўрсаткичлар талабаларнинг 69,59 фоизи университет дастурига мослаша олганлигини, 30,41 фоизи эса ҳалигача мослаша олмаганлигини кўрсатган. Натижада, уларнинг кўпчилиги университетни ташлаб кетиш ҳақида ўйлашган. Шунингдек, суҳбатдошларнинг учдан бир қисми ўқитувчилар талабаларни академик ҳаётга жалб қилиш ва мослаштиришда ҳисса қўшмаган деб ҳисоблашган ва 10 % талаба психолог ёрдамига

муружаат қилишган. Мослашишда қийналаётган талабалар, уларнинг ўқув фаолияти турли курслар билан тўла эканлигини ва улар орасидаги танаффус улар учун етарли эмаслигини таъкидлашган[6]. Ушбу тадқиқот натижалари нафақат хорижлик талабалар, балки маҳаллий талабаларда ҳам янги ўқув фаолияти талабларига мослашиш бўйича кўплаб муаммолар мавжудлигини кўрсатди ва хорижлик талабалар мослашувчанлиги билан боғлиқ тадқиқот ишимизни олиб боришга асосий туртки бўлди.

**Муҳокама ва натижалар.** Бизнинг тадқиқот ишимизнинг мақсади хорижлик талабаларнинг янги ўқув фаолияти талабларига мослашувини ўрганишга қаратилгани учун, дастлабки маълумотларни олиш учун махсус сўровнома тузилди. Ушбу сўровномада Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиалининг 1-босқич Покистон ва Хиндистон фуқароларидан иборат 72 нафар хорижлик талабаси иштирок этишди. Улардан 40 нафари қиз бола, 32 нафари ўғил болани ташкил қилди. Сўровнома натижалари қуйидаги диаграммада келтирилган.



Сўровнома бўйича, 40 нафар хорижлик талаба қизларнинг 15 нафари ўқув фаолияти талабларига мослаша олганлиги, 25 нафари қийинчиликларга учраётганлигини қайд қилишган бўлса, 32 нафар ўғил болаларнинг 14 нафари мослаша олганлигини, 18 нафари муаммоларга учраётганлигини қайд қилишган. Сўровномада келтирилган саволлар бўйича синалувчиларнинг жавобларини таҳлил қилсак, тил билан боғлиқ муаммоларни, ўқув юкларлари кўплигини, иқлим шароитларидан келиб чиққан стресс ҳолатларини, вақтни тақсимлашда ўзлари хатоликларга йўл қўйишлари натижасида дарсларга улгурмаётганликларини қайд қилишган.

**Хулоса ва тавсиялар.** Шунинг таъкидлаш лозимки, хорижлик талабанинг мослашиш жараёни кўплаб ижтимоий-маданий фарқлар ва қийинчиликларга дуч келиш билан ўтади, масалан, кадриятлар, тил, урф-одатлар ва бошқалар. Шунинг учун унинг олдида ўзининг ўтмишдаги ижтимоий тажрибаси, мавқеи, хулқ-атворини қабул қилувчи мамлакатда қабул қилинган ҳаёт талаблари ва стандартларига мослаштириш вазифаси туради. Бундай вазиятда хорижлик талабалар билан фаол алоқада бўлувчи педагоглар, психологлар учун асосий вазифа пайдо бўлган муаммоларни баҳолаш, талабага уларнинг объектив моҳиятини тушунтириш ва мослашиш инқирозидан чиқиш йўллари биргаликда излашдир. Ўқитувчилар хорижлик талаба дуч келадиган ёшга боғлиқ муаммоларни ҳисобга олишлари керак ва маълум бир ёш даврига хос бўлган тажрибаларни эътиборсиз қолдирмасликлари керак.

Тадқиқотимизнинг дастлабки натижаларига кўра, таълимнинг дастлабки йилларида хорижлик талабаларнинг ўқув фаолиятига нисбатан академик мослашувчанлик даражаси пастроқ эканлиги аниқланиб, бу талаба тушган янги ижтимоий-маданий муҳит билан ҳам боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Ушбу боғлиқликлар талабаларнинг таълим олиш фаолияти самарадорлигига, хатти-ҳаракати, қарор қабул қилиш даражасига ўз салбий таъсирини кўрсатиб, университет психологи ва тьюторларига хорижлик талабалар билан боғлиқ маълум бир вазифаларни юклаб, хорижлик

талабалар учун ўқув йилининг дастлабки даврларида адаптацион тренинглар ўтказиш, тьюторлик дарсларида яшаш ва ўқув фаолиятига доир муаммоларни муҳокама этиш, психолог мутахассислар билан давра суҳбатлари ташкил этиш, айниқса, университет психологлари учун хорижлик талабаларни янги ижтимоий-маданий, ўқув фаолиятига мослаштиришга қаратилган психологик коррекцион дастурларни яратиш лозимлигини кўрсатади.

#### Адабиётлар:

1. Коларькова О.Г., Повshedная Ф.В. Адаптационный аспект профессионального самоопределения студентов-иностранцев в условиях педагогического вуза // Вестник Адыгейского государственного университета. — 2008. — № 3. — С. 111—115.
2. Сурыгин А.И. Основы теории обучения на неродном для учащихся языке.— СПб.: Издательство «Златоуст», 2000. — 233 с.
3. Ширяева И.В. Особенности адаптации иностранных студентов к учебно-воспитательному процессу в советском вузе. Автореф. дисс. ... канд. псих. наук, Л., 1980.
4. Никифоров В.И., Сурыгин А.И. Теория и практика высшего профессионального образования. Термины, понятия и определения. — СПб.: Изд-во Политех. ун-та, 2009.
5. Сазонова З.С., Матвеева Е.В. Информационно-образовательное пространство новой педагогики // Высшее образование в России. — 2011. — № 2. — С. 98—103.
6. Gonta, I., & Bulgac, A. (2019). The Adaptation of Students to the Academic Environment in University. *Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala*, 11(3), 34-44. doi:10.18662/rrem/137
7. Почебут Л.Г. Этнические факторы развития личности // Введение в этническую психологию / Под ред. Ю.П. Платонова. СПб: СПбГУ, 1995. с. 66-83.

*Авулхаиров Фирдавсий Ўткир ўгли*

*Самарқанд давлат чет тиллари институти*

*"Гуманитар фанлар ва ахборот технологиялари" кафедраси ўқитувчиси*

## **ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА СОҒЛОМ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада ўзбек оилаларида миллий қадриятлар асосида соғлом авлодни тарбиялашнинг ижтимоий-психологик асослари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, бугунги кунда миллий қадриятлар асосида ўзбек оилаларида фарзандларни тарбиялаш борасида йўл қўйилаётган айрим камчиликлар тўғрисида мулоҳазалар баён этилган.

**Калит сўзлар:** соғлом авлод, миллий қадриятлар, миллат, тарбия, ижтимоий муҳит, оила, урф-одатлар, низоли вазиятлар, хулқ-атвор.

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ**

**Аннотация.** В статье рассматриваются социально-психологические проблемы воспитания детей на основе национальных ценностей в узбекских семьях. А также обсуждаются некоторые недостатки современного воспитания детей в узбекских семьях на основе национальных ценностей.

**Ключевые слова:** здоровое поколение, национальные ценности, национальность, образование, социальная среда, семья, традиции, конфликтные ситуации, поведение.

## **SOCIAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF EDUCATION OF A HEALTHY GENERATION IN UZBEK FAMILIES**

**Abstract.** The article deals with the socio-psychological problems of raising children on the basis of national values in Uzbek families. Also, some shortcomings of the modern upbringing of children in Uzbek families based on national values are discussed.

**Key words:** healthy generation, national values, nationality, education, social environment, family, traditions, conflict situations, behavior.

**Кириш.** Мамлакатимизда чуқур ўзгаришлар, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг барча томонларини изчил ислоҳ этиш ва либераллаштириш, жамиятимизни демократик янгилаш ва модернизация қилиш жараёнлари жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда. Бунда кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида белгилаб олинган ва изчил равишда амалга оширилаётган улкан вазифалар мустаҳкам замин яратмоқда.

Тарихимизга кириб келаётган буюк марра муносабати билан ўтган давр мобайнида ҳаётимиз сифати, мамлакатимиз қиёфаси қандай ўзгариб бораётгани, қандай ютуқ ва натижаларга эришганимиз, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган очиқ демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлида қандай суръатлар билан ривожланиб бораётганимизни баҳолаш эҳтиёжи туғилмоқда.

Қисқача айтганда, биз ўз олдимизга қўйган узоқ муддатли стратегик мақсадлар, яъни замонавий ривожланган демократик давлатлар қаторига кириш, иқтисодиётимизнинг барқарор ўсишини таъминлаш, ҳаёт сифатини яхшилаш ва жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаш борасидаги саъй-ҳаракатларимизга бугунги кун нуқтаи назаридан холисона баҳо беришимиз табиийдир.

**Асосий қисм.** Инсон саломатлиги бу - энг аввало, унинг руҳий ва физиологик сифатларини ривожлантириш, умрнинг максимал давомийлигида мақбул даражадаги ишчанлик қобилияти ва ижтимоий фаоллигини сақлаб қолишдан иборатдир. Кўпгина олимларнинг фикрича, инсон организмнинг функционал имкониятлари ва унинг ташқи муҳитдан бўладиган нохуш омилларга барқарорлиги бутун умри давомида ўзгариб туради, негаки, саломатликни сақлаш, жўшқин жараён бўлиб, у ёш, жинс, касбий фаолият, яшаш муҳитига боғлиқ ҳолда яхшиланиб (саломатлик бўшашиб ёки мустаҳкамлашиб) боради.

Одам ҳаёти, соғлиғи - энг катга ижтимоий бойлиқдир. Бу оила, мактаб ва инсон тарбияси, камолоти билан шуғулланувчи бошқа масканлар олдига соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласини кўндаланг қўяди. Миллат соғлиғи ҳам табиий равишда, соғлом турмуш тарзи орқали ҳал этилади. Шу боисдан, ёшларни комил инсон сифатида тарбиялаш аждодларимизнинг азалий орзу нияти бўлиб келган.

Тарбия бу инсоннинг ўзи ва ўз хулқи ҳақидаги тасаввурининг тўғри ва холис бўлишини таъминловчи мураккаб жараён ҳисобланади. Буюк маърифатпарвар Абдулла Авлоний тарбия ҳақида “Тарбия биз учун ё ҳаёт ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир,”- деган фикрни айтиб ўтган. Унинг бу фикрини кенг мушоҳада қиладиган бўлсак, бугунги кунда ёшлар тарбиясига алоҳида эътибор билан ёндошиш зарурлиги аён бўлади. Шуни таъкидлаб ўтиш лозимки, миллатга хос бўлган анъаналар, кадриятлар, урф-одатлар шахс маънавияти, камолотини шакллантиради [1].

Халқимизда “Ватан остонадан бошланади” деган доно ҳикмат мавжуд. Остона оиладан бошланиб, у маънавият, тарбия ўчоғи, жамиятнинг асосий бўғини ҳисобланади. Оиланинг асрлар мобайнида сақланиб келаётган муқаддас анъаналари орқали ёшларимиз қалбида Ватанга муҳаббат, иймон-эътиқод, масъулият, инсонпарварлик каби эзгу ғоялар жой олади. Оила билан биргаликда ёш авлодни тарбиялашда маҳалланинг ўрни ҳам бекиёсдир. Маҳалла халқимизнинг азалий удумлари, урф-одатлари ва анъаналарига таянган ҳолда улкан тарбиявий вазифани амалга оширади. Маҳалла, мактаб ва жамоатчиликнинг авлоддан авлодга мерос бўлиб ўтиб келаётган миллий кадриятларга таянган ҳолда иш кўриши фарзандлар тарбиясида ижобий натижаларга олиб келиши шубҳасиздир.

Тарбия борасидаги миллий кадриятларимиз бўйича маҳалла аҳли, айниқса кексалар кўчада нобоп иш қиладиган бола олдидан ҳеч қачон бепарво ўтиб кетмаган, шу заҳотиёқ танбеҳ бериб уларни тўғри йўлга чақирган. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-қуй ҳам катта ибрат мактабидир. Ёшларнинг ҳар томонлама чиройли, одобли, гўзал хулқли бўлишида оила ва кўни-кўшниларининг ўрни борасида муқаддас динимизда ҳам катта аҳамият берилади. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз. Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш туриши, муомаласи, бошқалар билан ўзаро муносабатида олижаноб фазилатларни намоён эта билиши керак. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофдагилари ўз одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлғон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қиладиган носоғлом муҳитни келтириб чиқаради.

Оилада фарзандларни маънавий ва миллий кадриятлар руҳида тарбиялаш уларни маънан етук, ахлоқан пок, ақлан зукко ва соғлом авлод бўлиб етишишларида муҳим ўрин тутди. Аммо, бугунги кунда айрим оилаларда бу масалада қатор камчиликлар ҳам кўзга ташланмоқда. Қуйида ўзбек оилаларида миллий кадриятлар асосида фарзандларни тарбиялаш борасида йўл қўйилаётган айрим камчиликлар тўғрисида фикр юритишга ҳаракат қиламиз.

1. *Оилавий тарбияда миллий кадриятларимиздан, яъни эртақ, мақол, ривоят ва ҳадис илмидан етарлича фойдаланилмаётганлик ҳолати.* Тадқиқотларимиз натижаларидан маълум бўлишича, ота-оналарнинг атиги чорак қисми фарзандларига ёшлигида эртақ, ривоят ва мақоллар айтиб беришганлигини эслашадилар холос [3]. Ахир кадриятларимиз, халқ оғзаки ижоди дурдоналари, ривоятлар ва ҳадис илми болаларда яхшилик, олижаноблик, хуш хулқлилик хислатларининг шаклланишига хизмат қилиши ҳаммага аёнку. Шундай бўлсада, нега бугун фарзандлар тарбиясида бу масалага эътиборсизлик қиламиз. Сизу бизнинг ана шу эътиборсизлигимиз, эртага катта бўлганда тарбияланиб қолар, деган ақидага берилишимиз болаларимизнинг баркамол, хуш хулқли инсонлар бўлиб етишишига салбий таъсир кўрсатмасдан қолмайди.

2. *Оилада болалар тарбиясида қарияларнинг иштирок этмаслиги ҳолати ҳам болалар тарбиясига салбий таъсир кўрсатади.* Ахир халқимизда «қариси бор уйнинг – париси бор», деб бежиз айтилмаган. Қарияларнинг биринчидан, деярли уйда бўлишлари болалар билан доимо мулоқотда бўлишга, улар фаолиятини доимо назорат қилиб туришга олиб келса, иккинчидан улардаги ҳаётий тажрибанинг кўплиги болалар тарбиясида муҳим ўрин тутди.

Назаримизда кейинги йилларда ёшларимизда ўзбек халқига хос бўлган меҳр-шафқатлилик, бағрикенглик (толерантлик), ночорлар, дардманлар ҳолидан хабар олиш, уларга ёрдам бериш хислатлари негадир бугунги кунда кўринмай қолаётгандай туюлмоқда. Ёшларимиз ўртасида хасислик, боқибегамлик, лоқайдлик, бетга чопарлик, манфаатпарастлик, тамагирлик, кўзбўямачилик каби иллатлар кучайиб бормоқда.

3. *Болалар ва ўсмирларда гайриахлоқий хулқнинг келиб чиқишига сабаб бўлувчи оилавий*



тарбияга боғлиқ бўлган омиллардан яна бири оилавий тарбияда приметив (эскирган, номаъқул) усуллардан фойдаланишидир. Бундай тарбия усулида тарбия баъзан ўта қаттиққўллик, авторитар, болаларнинг фикр ва қарашларини инобатга олмаслик асосида олиб борилади. Бундай усулда болаларни тарбиялашнинг нотўғри эканлигини бугун ҳаётнинг ўзи ҳам кўрсатиб турибди. Чунки бугунги ёшлар мустақил фикрлашга интилувчан, ўз қарашларига эга бўлган, ақлан етук ёшлардир. Бундай ёшлар билан ҳисоблашиш, уларнинг фикр ва мулоҳазаларини эшитиш, керакли жойларда маслаҳат бериш, йўл-йўриқ кўрсатиш яхши натижалар беришини унутмаслигимиз керак.

4. *Оилаларда фарзандлар учун имкон қадар моддий ва маънавий шароитнинг яратиб берилмаслиги ҳолати улар хулқида оғишларнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.* Умуминсоний ва диний таълимотларга кўра, оилада ота-оналар фарзандлар тарбияси учун ҳар томонлама зарурий шар-шароит яратиб бериш таъкидланади. Аммо, бугунги кунда айрим оилаларда бола учун зарурий моддий шароитларнинг мавжуд эмаслиги сабабли баъзан фарзанд муаммоли ҳолат билан ёлғиз кураш олиб бориш кечинмаларига дуч келади. Бундай ҳолат ўсмир дунёсида оилавий шароитга нисбатан пайдо бўлган норозилик ҳиссининг кундан-кун авж олиб, ички кўзғолонга айланиб боришига олиб келиши мумкин.

5. *Айрим оилаларда фарзандларнинг ғайриқонуний хатти-ҳаракатларини ота-она ва оиланинг бошқа аъзолари томонидан қўллаб-қувватланиши ҳолати.* Бунда болалар ва ўсмирларнинг тарбиясизлик ва ғайриқонуний хатти-ҳаракатига оила аъзолари ва яқинлари томонидан ижобий ёки эътиборсизлик кўринишидаги муносабат билдирилади. “Бундай иш қилма”, “Қилаётган ҳаракатинг ёки гап-сўзларинг тарбиясизлик ҳисобланади”, дейиш ўрнига ота-оналар ёки атрофдагилар уларнинг хатти-ҳаракатларини маъқуллашади ёки унга эътибор беришмайди. Натижада ўз ғайритабиий ҳаракатининг маъқулланишини ҳис этган бола яна бошқа бир тарбиясизлик ҳаракатига қўл уради. Оқибатда салбий хулқ-атвор ўсмирнинг бутун фаолиятини, онгини камраб олиши учун имконият яратади.

6. *Айрим ота-оналарнинг оилада фарзандлари билан қилаётган муомала-муносабатлари болалар ва ўсмирларда ғайриахлоқий хулқнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши ҳолати.* Сир эмаски, оилада қаҳр-ғазаб асосидаги ота-она муносабати болаларни уйдан бездиради. Уйдан бешиш, оила муҳитини тан олмаслик ўсмирларда оилавий муҳитга нисбатан мослашишнинг издан чиқишига олиб келади. Натижада ўсмир оиладан ташқари носоғлом кўча муҳитини ўзига маъқул кўради. Кўча муҳити эса баъзан ғайриахлоқий мазмунга эга бўлиши мумкин. Натижада ноахлоқий хулқ-атвор муҳитига тушиб қолган ўсмирда тарбия бузилишининг келиб чиқиши учун имконият яратилади.

7. *Ота-оналарнинг фарзандлари ҳаёти ва фаолияти билан жиддий қизиқмасликлари, уларни назоратсиз қолдиришлари, кўпинча ўсмирни ғайриқонуний хулқ-атворга эга бўлган болалар ва ўсмирлар сафига қўшилиб кетишига олиб келади.* Шунинг учун ота-оналар фарзандларининг айниқса, ўсмирлик ёши давридаги фаолиятларини, бўш вақтларида нималар билан шуғулланаётганликларини домий равишда назорат қилиб боришлари мақсадга мувофиқдир. Қолаверса, ўсмирлик ёши давридаги психофизиологик ўзгаришлар ва ўтиш даври хусусиятлари бу ёш ота-оналар ва катта ёшдаги кишиларнинг ўзига хос алоҳида эътиборини талаб қиладиган ёш даври ҳисобланади. Оилада ота-оналарнинг бу ёшдаги ўсмирларга нисбатан бўладиган эътиборсизликлари ёки тарбия шундай берилиши керак деган, қарашлари болалар ва ўсмирларда ғайриахлоқий хулқнинг келиб чиқишига шароит яратади [4].

8. *Оилавий тарбияда қўполлик, андишасизлик, ҳақорат, дўқ-нўписа ва жисмоний жазолаш сингари усуллардан фойдаланиши ҳолати кўпинча болалар ва ўсмирларнинг уйдан қочишига, бирон иш қилиб қўйиб ота-онасидан қўрқанидан кўчаларда дайдисираб юришига, қаерлардадир тунаб қолишига олиб келади.* Бундай ҳолатларда болаларнинг оила муҳитига нисбатан ижтимоий психологик мослашуви издан чиқади. Оқибатда ўзига маъқул бўлган оиладан ташқари гуруҳ ёки кўча муҳитини қабул қиладди. Бу муҳит ўзининг характерига кўра, болага салбий ёки ижобий таъсир қилиши мумкин. Афсуски, носоғлом муҳит психологиясига эга бўлган кўча муҳити болаларга кўп ҳолатларда салбий таъсир кўрсатади.

9. *Оилаларда ота-она ҳамда фарзанд ўртасидаги муносабатларда ўзига хос самарасиз усуллардан фойдаланиши ҳолати.* Ота-оналар баъзан фарзандларига ўта даражада меҳр кўядилар. Уларни асраб авайлайдилар, эъзозлайдилар. Уларга гард юктирмасликка ҳаракат қиладилар. Айтган ёки истаган нарсаларни муҳайё қилишга интиладилар. Бир қарашда ота-онада шундай қилса нима қилибди, дейсиз. Аммо ота-оналарнинг болаларга бундай муносабатлари болаларда салбий ҳислатларнинг шаклланишига олиб келмоқда. Ота-онаси томонидан кўрсатилаётган бундай муносабат натижасида болада манманлик, бировларни менсимаслик, тайёрга-айёрлик, меҳнатнинг

кадрига етмаслик, сабр-тоқатсизлик каби салбий хислатлар пайдо бўлмоқда. Бундай хислатларга эга бўлган болаларда ўзбек халқига хос бўлган меҳнатсеварлик, олижаноблик, ўзгаларни ҳурмат ва эъозлаш, меҳнатнинг қадрига етиш хислатлари шаклланмайди. Шунингдек, уларда мақтанчоқлик, бировларнинг устидан кулиш, ночорлигини юзига солиш одатлари ҳам кузатилади. Бундай руҳда тарбияланган болалар муаммоли вазиятларда мустақил фикр юритиш, муайян қарорларга келиш борасида ҳам қийинчиликларга учрайдилар.

10. *Ота-оналарнинг рад этиши, таъқиқлаш, руҳсат этмаслик асосидаги тарбиялаш усули баъзан болалар ва ўсмирларда тарбия бузилишига олиб келади.* Бу хилдаги тарбия усулида болаларнинг хоши-истаги, ўй-хаёллари, орзу ва интилишлари, фикр ва мулоҳазалари инobatга олинмайди. Бундан ташқари бундай тарбия усулида болаларга ўз фикр мулоҳазаларини очикча баён этиш, мустақил қарорларга келиш ва муайян вазиятларга ўз нуқтаи назарини билдириш имконияти чекланади. Бундай тарбия усулида баъзан болаларнинг хатти-ҳаракатлари мажбурий тарзда тақиқлаш усуллари билан бошқариб борилади. Уйда бу нарсага тегиш мумкин, бу нарсага тегиш мумкин эмас, бу кийимни киясан, бунисини киймайсан қабилдаги муносабат ўрнатилади. Боланинг кизиқиши, эркинлиги, ўзига ёққан кийимни кийиши, кўнгли истаган иш билан машғул бўлиши, кизиққан китобини ўқиши ва хоҳлаган спорт тури билан шуғулланиши ота-она ихтиёри билан амалга оширилади. Оилада ота ёки онанинг айтгани-айтган, дегани-деган бўлади. Бундай усулда тарбияланган болаларда мустақил фикр юритиш қобилиятининг суст ривожланиши, тортинчоқлик, ўз фикр-мулоҳазаларини баён эта олмаслик, тобелик, қўрқоқлик ва журъатсизлик каби салбий хислатлар ёрқин намоён бўлади. Журъатсиз, тобе, тортинчоқ болада фаоллик ва ўз-ўзига ишонч хисси етишмайди. Шунингдек, уларда нутқнинг суст ривожланиши ҳолати ҳам кузатилади. Бундай болалар бутун умр давомида бировларга тобе бўлиб яшайдилар. Уларда раҳбарлик, бошқарувчанлик қобилиятлари суст ривожланган бўлади. Улар бировларнинг гап-сўзларига тез учадилар. Шунинг учун улар алдовлар, кўзбуямачиликлар, таъмагирликлар қурбонига айланиб қолмоқдалар. Қолаверса, улардаги фикрлаш қобилиятининг суст ривожланганлиги низоли вазиятларга тез-тез тушиб қолишликка сабаб бўлади. Бундайлар низоли вазиятларда тўғри қарорлар қабул қилишга қийналадилар. Улар бировларнинг таъсири, қистови ёки мажбурлаши натижасида турли хил конунбузарликларни амалга оширишлари мумкин.

11. *Ўзбек оилаларида ота-оналарнинг фарзандларни тарбиялашдаги камчиликларидан яна бири болаларнинг тарбиясига ёшлигидан эътибор берилмасликдир.* Ахир халқимизда “тўққизида бўлмаган, тўқсонда ҳам бўлмайди”, деган ажойиб нақл борку. Болани қанчалик эрта ўргатсанг, тарбия берсанг шунчалик тез мослашади, ўрганади. Афсуски, кўпгина ота-оналар ёшлигида фарзандимнинг қорни тўқ, усти бут бўлса бўлди, деб ўйлашади. Ёши 16-17га бориб, мактабни битираётганда эса фарзанди ҳақида ўйлаб қолишади. Бу даврга келиб фарзанд тарбияси, унинг эртанги куни ҳақида ўйлашлиги кеч бўлганлигини кўпчилик ота-оналар англаб етмайдилар. Натижада тарбияда қўлдан бой берилган фурсат азобини ўзимиз тортамыз. Бу ҳам етмаганидек боланинг келажиги, эртанги куни, фаровон ва бахтли ҳаёт кечиришини барбод қиламыз. Бундай ҳолатларда айбни кўпинча болалардан излаймиз. Ўз айбимизни эса тан олмаймиз ёки кўра билмаймиз.

12. *Оилаларда фарзандларни жисмонан соғлом, ақлан етук, маънан баркамол этиб тарбиялаш борасидаги эътиборсизлик.*

Маълумки, соғлом авлоднинг шаклланишида оиланинг, оила муҳитининг ўрни катта. Оиладаги ўзаро соғлом муносабатлар, психологик муҳит ва соғлом турмуш тарзи ҳар томонлама баркамол авлодларни вояга етказишда бош омил ҳисобланади. Шу боисдан, энг аввало оилада соғлом турмуш тарзи муҳитини, психологиясини шакллантириш муҳимдир. Аммо кузатишларимизга қараганда, кўпчилик оилаларда соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантириш масаласида ўзи бўларчилик ҳолати учрайди. Бу эса оилаларда вояга етаётган фарзандлар онгида, дунёқарашида соғлом турмуш тарзига нисбатан носоғлом муносабатнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Юқоридагилардан хулоса қиладиган бўлсак, ўзбек халқининг маънавий ва миллий қадриятлари, урф-одат ва анъаналари оила ва оилавий муносабатларда, жумладан болалар тарбиясида муҳим ўрин тутади. Жисмонан бақувват, маънан баркамол, ақлан етук фарзандларни вояга етказиш тамойили Шарқ ижтимоий тафаккурининг ва менталитетининг асосий мазмунини ташкил этади. Чунки, болани тарбиялаш орқали меҳр-мурувват туйғулари шаклланган баркамол инсонни вояга етказилади. Бола қадрияти – бу ўзбек халқи турмуш тарзи, руҳияти, болажонлик одатлари, серфарзандлик ва айни пайтда соғлом, бақувват, маънавий ва жисмоний етук авлод етиштириш анъаналари, тафаккур тарзидир.

**Хулоса.** Шуни айтиб ўтиш жоизки, миллий кадриятлар, анъаналар, урф-одатлар оилада бизгача етиб келади. Шу муҳитда ўсаётган миллатимиз келажаги меросхўрлари фарзандларимизни миллий урф-одатларга хос қилиб тарбиялаш лозимдир. Назаримизда оилавий тарбия бўйича миллий кадриятларимиз ва удумларимизга эскилик сарқити деб қараш нотўғридир[2]. Бой ва ранг-баранг маданиятимиз, урф-одат ва анъаналаримиз барча кадриятларимиз миллатимизнинг маънавий, руҳий бойликларини ташкил этади. Уни чуқур ўрганиб, ўзлаштириб олган инсон олдига қўйилган ҳар қандай мақсадга эриша олади. Чунки маданиятимиз ахлоқ-одоб, урф-одат меъёрларидан хабардор инсон ҳеч қачон кўр-кўрона иш қилмайди. Демакки, барча миллий тарбия бўйича урф-одатларимиз замирида эзгулик ётади. Уларда фақат озодлик, яхшилик, одамийлик касб ётади. Миллий урф-одатларимиз асносида тарбияланган шахс юксак маънавияти бой инсон бўлиб шаклланади. Фарзандларимизга шундай тарбия берайлики, улар ўз ота-боболарига, ўз тарихи, Ватани, она тилига, миллати, динига ва анъаналарига содиқ бўлиб камол топишсин.

#### **Адабиётлар:**

1. Илояев М. “Оила, ижод, тарбия ва маънавият”. Т., “Шарк” 2000. 114 б.
2. Оилавий муҳит ва болалар // Қалқон. – 2006, - №1. - Б.14-15.
3. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. (Монография) “Фан” нашриёти, Тошкент – 2008, 284 б.
4. Ядгарова Г.Т., Авлаев О.У. Тарбияси қийин, қалтис гуруҳга мансуб болалар билан ишлаш (Услубий қўлланма) Т.: 2007, 74 б.

УДК 159.9.07.

**Акрамова Феруза Акмаловна**

Ташкентский Государственный Педагогический Университет имени Низами,  
доктор психологических наук, доцент, г. Ташкент, Узбекистан  
e-mail: akramova\_feruza@mail.ru,

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ РАННИХ БРАКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

**Аннотация.** Данная статья посвящена социально-психологическим причинам ранних браков, в частности, проанализированы мотивы создания ранних браков, мнения респондентов о негативных последствиях таких браков. Приведены основные выводы и предложены рекомендации профилактики ранних браков и сохранения семьи.

**Ключевые слова:** брак, семья, ранний брак, социально-психологические проблемы, возраст вступления в брак, причины раннего брака, мотивы создания ранних браков, последствия ранних браков, негативные последствия ранних браков, система ценностей, жизненные цели.

## О‘ЗBEKISTONDA ERTA NIKOHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA ULARNING SALBIY OQIBATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola erta nikohlarning ijtimoiy-psixologik sabablariga bag'ishlangan, xususan, erta nikohlarni yaratish motivlari, respondentlarning bunday nikohlarning salbiy oqibatlari haqidagi fikrlari tahlil qilingan. Ertanikohlarning oldini olish va oilani saqlab qolish bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** nikoh, oila, erta nikoh, ijtimoiy-psixologik muammolar, nikoh yoshi, erta nikoh sabablari, erta nikohni yaratish motivlari, erta nikohning oqibatlari, erta nikohning salbiy oqibatlari, qadriyatlar tizimi, hayotiy maqsadlar.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CAUSES AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF EARLY MARRIAGES IN UZBEKISTAN

**Abstract.** This article is devoted to the socio-psychological problems of early marriages, in particular, problems such as the causes of early marriages, the motives for creating early marriages, and respondents' opinions about the negative consequences of such marriages are analyzed. The main conclusions and recommendations for the prevention of early marriage and the preservation of the family are presented.

**Keywords:** marriage, family, early marriage, socio-psychological problems, age of marriage, reasons for early marriage, motives for creating early marriages, consequences of early marriages, negative consequences of early marriages, value system, life goals.

**Введение.** Одним из основных задач в сфере укрепления института семьи является предупреждение потенциально рискованных браков. Ранние браки безусловно можно отнести в данную категорию. На практике существует необходимость изучения социально-психологических, социальных и других последствий данной проблемы.

По статистике в 2017 году почти 25 тысяч девушек вступили в брак в возрасте 16-18 лет, что составляет около 8 % от общей численности женщин, вступивших в брак, в отдельных регионах данная доля достигает 15 %. Помимо этого, если учесть, что определённая часть незарегистрированных браков приходится на долю женщин этой возрастной группы, то доля ранних браков реально окажется выше, чем показывает официальная статистика.

**Основная часть.** Для девушек, вступивших в брак в раннем возрасте, особенно актуальны проблемы, связанные с беременностью и родами, с их дальнейшей профессиональной занятостью. Первая беременность в раннем возрасте сопряжена с риском. В связи с этим профилактика подростковой беременности является необходимой мерой, способствующей улучшению охраны материнства. Ранние нежелательные беременности могут привести к серьёзному риску для здоровья, в том числе к смерти. Беременность в подростковом возрасте также опасна для ребёнка: в странах с низким и средним уровнями доходов число мертворождений и летальных исходов в первую неделю и в первый месяц жизни на 50 % выше среди детей, рождённых от матерей в возрасте до 20 лет, чем

среди тех, которые родились от матерей в возрасте 20-29 лет, причём чем моложе мать, тем выше риск. Показатели преждевременных родов, рождения ребёнка с низкой массой тела и асфиксии выше среди детей, рождённых от девушек-подростков; все эти условия повышают вероятность смерти ребёнка или будущих проблем со здоровьем<sup>3</sup>.

«А» типдаги толерантлик – бу бошқа инсонни сўзсиз, табиий равишда, борича қабул қилиш унга нисбатан қадрли ва азиз мавжудот сифатида муносабатда бўлишдир. Бундай толерантлик ёш бола ҳаётида катта ўрин эгаллайди, чунки унинг шахс бўлиб шаклланиш жараёни ҳали индивидуал ва ижтимоий тажрибаларни ҳис этишга етиб бормаган. Толерантликнинг бу тури болалар психологияси ва психоанализида етарлича тадқиқ этилган. Гўдак ўз эҳтиёжларига нисбатан мутлақо сабрсиз – у очлик, совуқ, эмоционал «хувиллашга» нисбатан чидамсиздир. У ўзидаги базавий эҳтиёжларни қондирилишини ўзига хос бўлган қурол – йиғи билан талаб қилишга мойил. Агар унда бошқа «қурол» бўлганида эди, у албатта, ундан фойдаланган бўлар эди. Кейинчалик ота-оналар ўз фарзандларини сабрлиликка ўргатадилар, баъзида эса айрим катталар ўз эҳтиёжларини тезда қондирилишини талаб этиб, «гўдаклигича» қолиб кетадилар.

Толерантликнинг «А» типи ёш болаларнинг ўз ота-оналарини, ҳаттоки улар каттиққўл муносабатда бўлганларида ҳам – психологик ёки жисмоний зўравонликлар жараёнида ҳам меҳрибондек қабул қилишининг асосидир. «А» типдаги толерантликнинг мавжуд бўлиши ёмон муносабатнинг намоён бўлишидан психологик, субъектив ҳимояланганлик ва ота-оналари билан ижобий муносабатни сақлашга ёрдам беради.

«В» типдаги толерантлик шахс сифатида ўзини кўрсатиш учун характерли бўлган, индивиднинг шахс бўлиб шаклланиш жараёнининг ихтиёрий қисми ҳисобланади. Кўпинча бу тип катта ёшдагиларга хос эканлигини алоҳида қайд этиш лозим. Толерант шахс кўпроқ босиқликка ҳаракат қилади, у кўпинча ҳимоя механизмларидан фойдаланади. Бироқ баъзида ўзининг ҳаяжонларини, ҳиссиётларини айтмоқчи бўлган норозиликлар ва агрессияларини яширади. Шунини айтиш мумкинки, кўпинча «В» типдаги толерантлик ҳақиқий бўлмаган, қисман намоён бўлувчи, шартли, маданий толерантликдир. Яъни, бу типдаги толерантликка мисол келтирадиган бўлсак, қуйидагича ифодаларни кўриш мумкин: «Биз сизга сабр қиламиз, чунки.....», «Шароит шунини тақозо қиладики, биз сизга чидашга мажбурмиз, чунки ....», «Айни пайтда мен ўзимдек бўла олмайман ва ўзимни сабрлидек қилиб кўрсатишга мажбурман....» «Мен бошқа нарса ҳақида ўйлайман, лекин буни ошқор айтиш.....»

«В» типдаги толерантлик – бу берк, яширин ички агрессия бўлиб, бундай сабрлилик бир қарашда сабрсизликдан яхшироқ бўлиб кўринса-да, униси ҳам буниси ҳам табиатан бир хил ҳодисалар ҳисобланади. Уларнинг психологик асоси бир хил бўлиб, улар орасидаги фарқ сифат жиҳатидан эмас, фақатгина сон жиҳатидандир. Шунини айтиш мумкинки, «D» типдаги толерантлик – сабрсизликнинг тескари тескари томони бўлиб, инсон устидан турли хилдаги зўравонлик, манипуляция, унинг субъектив тавсифларининг суистеъмол қилинишидан иборатдир.

«D» типдаги толерантлик инсон томонидан атрофдагилар билан бир қаторда ўзини ҳам бир хилда қабул қилишдир. Зўравонлик ва манипуляцияга қарама-қарши бундай ўзаро таъсир этиш бошқа инсон учун қадрли бўлган ички қадриятлар, ҳаётнинг мазмунини, ҳис-ҳаяжонларига ҳурмат билан қарашни ва уларни тўғри қабул қилишни акс эттиради. Бу ҳақиқий етук, асл позитив толерантлик бўлиб, «А» ва «В» типдаги толерантликларга нисбатан инсон ҳақиқатини чуқурроқ ва тўлиқроқ англашга асосланади. Болалар ва ота-оналар ўртасидаги муносабатдаги ўзаро сабрсизлик ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, бу катталарнинг сабрлилиги, яъни толерантлиги оқибатидир.

Психология фанида толерантлик феномен сифатида ўрганилаётганига деярли кўп вақт бўлгани йўқ. Жумладан, А.В.Петровский, А.В.Зимбули, Ю.А.Ищенко, В.М.Золотухин, А.Г.Асмолов, Г.У.Солдатовалар томонидан сабр, чидамлиликнинг асосий ташкил этувчиси деб қаралади.

А.А.Реан чидамлилик ва толерантлик тушунчалари ўртасидаги муносабатлар бўйича юқоридаги муаллифлар келтирган фикрларига қарама-қарши фикрини баён этади. У толерантлик психофизиологик атама бўлиб, у ноҳуш омилларга жавоб қайтаришнинг сусайиши деб билади. А.А.Реан фикрига кўра, «чидамлилик» умумийроқ тушунча бўлиб, турли хил фикрларга нисбатан муносабати билан боғлиқ [2].

Э.В.Магомедовнинг фикрига кўра, толерантликни инсон онгининг икки даражасида рационал-манتيқий ва эмоционал-ҳиссий кўриб чиқиш мумкин [3].

Рус тадқиқотчилари толерантликнинг баҳовий табиатини таъкидлаб ўтиб, уни инсоннинг ахлоқий ривожланиши билан муносабатини кўрсатиб ўтишади. Бундан ташқари бихевиористик ёндашувда ҳам толерантликни алоҳида таҳлил қилиб, уни инсоннинг алоҳида бир хулқ-атвори сифатида қарайди.

Толерантликнинг когнитив компоненти мукамалликни дунёнинг турли-туманлигини қабул қилиш орқали намоён бўлади. Толерантликнинг эмоционал компоненти толерант муносабатларнинг таркибий қисми бўлган эмоцияни кўриб чиқади [4]. Эмоционал компонентнинг алоҳида ташкил

килувчиси сифатида Г.Кристалл томонидан эмоционал турғунликнинг асосий кўринишларидан бири «аффектив толерантлик» ни ажратилиб кўрсатилади. Унинг асосида эмоционал зўриқишни енга олиш, бошқаларнинг оғир кечинмаларига сабрли бўлиш ётади. Толерантликнинг хулқ-атвор компоненти тадқиқотчиларнинг эътиборини тортади.

С.Л.Братченко хулқ-атвор толерантлиги таркиби ичида қуйидагиларни ажратиб кўрсатади [5]:

- ўз фикрида қатъий тура олиш ва уни изохлашда толерантлик қобилиятига эга бўлиш;
- бошқаларнинг мулоҳазаларига толерант муносабатда бўлишга тайёрлик, келиша олиш кўникмаси;

- қийин вазиятларда толерант хулқ-атвор.

С.Л.Братченко толерантлик компонентининг шартли вербал кўринишини ҳам ажратишни таклиф қилади (1-жадвал).

1-жадвал.

### Толерантлик-интолерантлик муносабатларининг таркибий қисмлари

Психологик тузилиш компонентлари	Толерант муносабатлар	Интолерант муносабатлар
Мотивацион-кадриятли	Фалсафий–этник кадриятларни қабул қилиш мотивлари: Ёрдам, ҳамкорлик, муҳаббат, ён босиш, мурувват	Фалсафий–этник кадриятларни қабул қилмаслик мотивлари: бефарқлик, қабул қилмаслик, бошқаларнинг қарашлари ва хулқ-атворини ўзгартириш истаги
Когнитив	Тушуниш, қабул қилиш механизмининг ривожланганлиги	Тушуниш, қабул қилиш механизмининг ривожланмаганлиги
Эмоционал-продавий	Сабр-тоқат механизмининг ривожланганлиги: асабийликни енгиш, жаҳлни тийиш, ўзини ўзи бошқариш, ўзини ўзи назорат қилиш, эмпатия, севги, хурмат, қизиқиш, эмоционал турғунлик	Сабр-тоқат механизмининг ривожланмаганлиги: ўзини тута билмаслик, асабийлик, совуқлик, бефарқлик, эмоционал нотурғунлик, агрессивлик, писанд қилмаслик
Конатив	Ассертив хулқ: Мурувват, ҳамкорлик. Мулоқот усуллари: ён бериш, тушунтириш, келишиш, ҳамкорлик, ёрдам, огоҳлантириш	Агрессив хулқ: импульсивлик, ўзини четга олиш. Мулоқот усуллари: диктаторлик, манипуляция қилиш, буйруқ бериш, кўрқитиш

Шундай қилиб, толерантлик тушунчаси, кўпгина манбаларда бардошлилик тушунчаси билан тенглаштирилади. Толерантлик – фаол, бошқаларнинг фикрига, дунёқарашига ва ҳаракатларига нотабиий равишда бўйсунуш эмас, балки фаол ахлоқий-маънавий дунёқараш ва этнослар орасидаги, ижтимоий гуруҳлар орасидаги бошқа маданият, миллат, динлар ва ижтимоий муҳитлар орасидаги ўзаро муносабатларда инсонни бардош билан сабр қилишга психологик жиҳатдан тайёрлигини кўрсатиб турувчи фаол позиция деган хулосага келишимиз мумкин.

Кўпгина манбаларда толерантлик сабр-бардошлилик, ўзларидан фарқ қиладиган инсонлар билан мулоқот ўрнатиш қобилияти, умумқабул қилинган фикрга қўшилмайдиганларга нисбатан чидамлик сифатида талқин қилинади [6].

Психологик тадқиқотлардан маълум бўлишича, боланинг оиладаги эрта психологик жароҳатланиши, доимий равишда боланинг индивидуал намоён бўлишини босиб борилиши натижасида шахснинг интолерантлигининг ривожланишига олиб келади.

Авлодлар ўртасидаги низо – бу, энг аввало, кадриятлар тизими конфликтидир. Масалан, ўсмирлик ёшидаги кўпгина муаммолар асосан уларнинг ота-онаси билан муносабатдаги сабрсизлиги билан боғлиқдир. Албатта, бу сабрсизлик бирданига юзага келмайди. Ўсмирлик давридаги низолар шуниси била қизиқки, толерантлик кўринишлари шаклланишининг кетма-кетлигини инобатга олган ҳолда ўсмирни «катталарнинг каттаси» сифатида кўриб чиқиши мумкин. Ўсмир катта бўлиб турган сари унинг ҳаётидаги барча ўзгаришлар унинг учун янгилик бўлиб, ҳали ўсмир томонидан етарли даражада ўзлаштирилмаган бўлади. Ўзининг сабрсизлиги, қаттиққўллиги, қатъиятлилигида ўсмир

катталардан анча ўзиб кетади. Ўсмир «ўз оламида» яшайди, унинг қадриятлари тизими яхшилик ва ёмонлик дуализмига асосланган бўлиб, айнан уларни атроф-оламга кўчиришга интилади; катталар эса уларнинг рухий мавжудлик томонларини кучайтириш ўрнига, уларни кўпроқ ижтимоийлаштиришга ҳаракат қиладилар, бунинг натижасида резонанс юзага келади, яъни ота-онасининг негатив атмосфераси таъсирида ўсмирда негативизм кучайиб боради.

Айнан ўсмирлик ёшида ўзига хос «туйнук» пайдо бўлиб, бу туйнук «А» типдаги толерантлик билан «В» тип толерантлик ўртасида ҳосил бўлади, ўсмир энди бола учун характерли «А» типдаги толерантликка тоқати йўқ ва ўз навбатида катталарга хос бўлган сабрлилик толерантлигига ҳам тайёр эмас. Ўсмирлик суициди аксарият ҳолатларда ўсмирнинг «маргинал толерантлиги» каби чегараланган имкониятлари билан изоҳланади. Катталарнинг ёш болалар билан ўзаро муносабатидаги муаммо шундан иборатки, болани эмас, ўзини ўзи қабул қилишни, яъни ота-оналарнинг ўзларини бирламчи қабул қилишлари ва бу нарса қандайдир «соя»ни ҳис этишни юзага келтиради.

«D» типдаги толерантлик бир қатор мулоқот амалиётларнинг ўзига хос характерли хусусиятларидан ҳисобланиб, психотерапевтик эффектга эгадир.

Толерантлик турли фалсафий ва психологик ёндашувларга кўриб чиқилади. Замонавий психологик адабиётларда бихевиорал (толерантлик инсоннинг алоҳида хулқ шакли сифатида кўрилади) ва когнитив (толерантлик ўз асосида билим ва рационал сабабларга эга) ёндашувлар устунлик қилади. Толерантликка нисбатан бир қанча ёндашувларнинг бу борада ўзига хос фикрларни билдиради.

Шахсий ёндашув – толерантликнинг мураккаб анатомиясида унинг психологик асоси ва бош ўлчови – толерантликнинг шахсий ўлчами (қадриятлар, шахсий установакалар) ҳисобланади.

Фасилитатив ёндашув – шахслараро муносабатлар жараёнида тўлиқ толерантлик нафақат шаклланади, балки ривожланади ҳам, толерантликнинг шаклланишида унга ривожланиш учун яратилган шароитлар ёрдам беради.

Бундан ташқари экзистенциал-гуманистик ёндашув – толерантлик қандайдир омиллар ҳаракатининг механик натижаси ҳисобланмайди, ҳақиқий толерантлик – бу шахснинг анланган ва масъулиятли танлови бўлиб, инсоннинг бошқалар билан муносабат ўрнатишдаги позицияси ва фаоллигидир. Экзистенциал-гуманистик нуқтайи назардан тўлиқ, етук толерантлик бу сўзсиз анлаш, тушуниш ва масъулиятлиликидир. Бундай толерантлик автоматизм, яъни оддий стереотипик ҳаракатлар эмас, балки қадрият ва ҳаётини позиция бўлиб, уларни амалга ошириш ҳар бир конкрет вазиятда ўзига хос маънога эга ва толерантлик субъектдан ушбу мазмунни излашни талаб этади.

Толерантликка диверсификацион ёндашув – толерантликнинг психологик мазмуни, алоҳида бир хусусиятга тавсифга олиб келиниши мумкин эмас, бу мураккаб, кўп аспекти ва кўп компонентли феномен бўлиб, бир неча базавий ўлчамларга эга.

Аксарият ҳолларда мураккаб психологик ҳодисаларни тасвирлашда компонентлар триадасидан фойдаланилади. Бу триада қуйидагиларни ўз ичига олади: когнитив компонент, эмоционал компонент ва хулқ-автор компоненти. Ушбу схемани қўллашга интилишлар толерантликка ҳам пайдо бўлди. Энг умумий ҳолларда юқоридаги компонентларнинг асосий мазмуни ёки толерантлик ўлчамлар қуйидагича таърифланиши мумкин:

**Толерантликнинг «когнитив» компоненти.** Бу компонент яққол кўринувчи ва кўп жиҳатдан тадқиқ этилганлиги учун толерантлик кўпинча когнитив «транскрипция»да тасвирланади. Бу ердаги асосий жиҳатлар мураккаблик, кўп ўлчамлилиқ, олдиндан башорат қилиб бўлмаслиги, у ҳақдаги индивидуал фикрлар табиатини тан олишдир. Шунинг учун ҳам у ҳақдаги фикрларни ягона ҳақиқатга бирлаштиришнинг имкони йўқ.

Толерантликнинг когнитив компоненти инсон томонидан мураккаблик ва кўп ўлчамлилиқни қабул қилиш ва тушунишдан иборат бўлиб, булар ҳаётини ҳақиқат билан бир қаторда уни қабул қилиш вариантларининг турличалиги, уларни турли инсонлар томонидан турлича баҳолалиши ва утушунилиши, нисбий ва тўлиқ эмаслиги, субъективлигидир. Толерантлик когнитив ўлчамда айнан карама-қаршилиқ ҳолатларида намоён бўлади: фикрларнинг тўқнаш келиши, қарашларнинг мос келмаслиги ва ҳоказо. Бу мос келмаслик плюрализмни қабул қилиш, интерпретацияларнинг бойлигидан далолат беради. Когнитив интолерантлик толерантликнинг акси бўлиб, меъёр мавжудлиги позициясидан келиб чиқади, шунининг учун у фикрларнинг кўп бўлиш имкониятини рад этади ва ҳар қандай фикрлар плюралиزمни, инсонларнинг турлича нуқтайи назарларини хатолик, адашиш ва ҳатто атайин қарши чиқиш деб баҳолайди. Толерантлик шунингдек, шахснинг

сухбатдоши билан маълум вазият юзасидан турлича фикрлар билдириш имкониятини ҳам англатади, когнитив «низо» шахсларро низога олиб келмайди.

**Толерантликнинг эмоционал компоненти.** Толерантликка эмпатиянинг аҳамияти бекиёс ва бу фикрни деярли барча тадқиқотчилар маъқуллаган. Толерантликнинг эмоционал ташкил этувчисининг аҳамияти шундаки, айнан шу ўлчов коммуникатив жараёнда сухбатдошларни ўзаро умумийликка эришишлари, узилган инсоний алоқаларни тиклашлари имконини беради. Бунда ташқари эмпатия сухбатдошлар ўртасидаги когнитив ёки хулқ-атвор текислигида юзага келиши мумкин бўлган қарама-қаршиликларни бартараф этиш ёки юмшатиш имконини беради. Тўлиқ эмпатия бебаҳо ва бу маънода мазмунан толерантдир. Эмоционал компонентнинг алоҳида ташкил этувчиси сифатида эмоционал барқарорликнинг ўзига хос кўриниши – «аффектив толерантлик»ни айтиш мумкин. Унинг мазмуни эмоционал толерантликни, оғриқли ҳисларни сабр билан енгиш ва ҳоказо. Толерантликнинг ушбу кўринишининг бошқа бир аспекти ўзга кишининг турли эмоционал кўринишларига сабрли муносабатла бўлиш билан боғлиқ. Ривожланган аффектив толерантлик инсонга шахсий эмоционал жараёнлари билан бир қаторда бошқа инсонларнинг ҳис-ҳаяжонларини яхшироқ англашга, асабийлашмай ва улардан ёмон маъно изламай қабул қилишга ёрдам беради.

**Толерантликнинг хулқ-атвор компоненти.** Ушбу ўлчов «толерантлик айсберги»нинг энг кўзга кўринган қисмини ташкил этади ва одатда ўзига эътиборни жалб қилади. Хулқ-атвор толерантлигига қараб кўникма ва қобилиятларни киритиш мумкин, улар орасидан қуйидагиларни ажратиб кўрсатамиз:

1) толерант фикр билдириш ва ўз нуқтайи назарини шахсий мулоаҳаза сифатида химоя эта олиш қобилияти;

2) бошқаларнинг фикрига толерант муносабатда бўла олиш қобилияти, яъни ўзининг шахсий фикридан қанчалик фарқ қилишига қарамасдан, бошқаларнинг ҳам ўзига хос фикри борлиги ва у ҳам бу фикрни билдириш ҳуқуқига эга эканлигини тан олиш;

3) низоли вазиятларда (қарама-қарши нуқтайи назар, фикрлар тўқнашув юз берганда) толерант бўла олиш қобилияти.

Булар орасида охириги учинчиси, нафақат хулқ-атвор ўлчамида балки бошқа ўлчамларда ҳам алоҳида эътиборни талаб қилади [1]. Толерантликнинг ушбу жиҳатларини тадқиқ этишда Б.И. Хасаннинг конфликт ва конфликт компетентлиги концепцияси асос бўлиб хизмат қилади [7]. Когнитив компонент толерантлик принципларини қабул қилиш, тушуниш, фикрлаш, интерпретациялашни назарда тутса, вербал компонент «илмий ташкил этувчилар» билан чегараланади [1].

**Хулоса.** Шундай қилиб, толерантлик тушунчаси кўпгина манбаларда бардошлилик тушунчаси билан тенглаштирилади. Толерантлик фаол, бошқаларнинг фикрига, дунёқарашига ва ҳаракатларига нотабиий равишда бўйсунуш эмас, балки фаол ахлоқий-маънавий дунёқараш ва этнослар орасидаги ижтимоий гуруҳлар орасидаги ўзаро муносабатларда инсонни бардош билан сабр қилишга психологик жиҳатдан тайёрлигини кўрсатиб турувчи фаол позиция. Бинобарин, замонавий шарт-шароитлар ўсиб келаётган авлодни хилма-хилликка чидамли, бошқа фикрларни эшита олиш ва уларни ҳурмат қилиш, бир сўз билан айтганда, бардошлилик ва толерантлик руҳида тарбиялашни тақозо этади.

#### Адабиётлар:

1. Ismoilova N.Z., Abdullayeva D.U. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Tashkent, 2013. – 168 b.
2. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. СПб.: Питер, 2002. – 432 с.
3. Магомедова Е.В. Толерантность как принцип культуры. Ростов-на-Дону, 2000. – С.46-60
4. Волков Б. С. Психология развития человека: учебное пособие для вузов / Волков Б. С., Волкова Н. В. – Москва: Академический Проект, 2020. – 224 с.
5. Братченко С.Л. Психологические основания исследования толерантности в образовании / Л.С. Братченко Электронный ресурс. — Режим доступа: [www.hpsy.ru](http://www.hpsy.ru).
6. Bafayev M.M. Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari. – "Pedagogika" jurnali. – № 1. – Tashkent, 2023. – B.66-70
7. Хасан Б. И. Конструктивная психология конфликта: учебное пособие по дисциплине "Педагогика" цикла "Общепрофессиональные дисциплины" для студентов вузов, обучающихся по педагогическим специальностям": описание и анализ конфликта. Модели разрешения конфликта. Технологии переговорного процесса. Тренировка переговоров. – М.: Питер, 2003. – 250 с.

**Жўраева Соҳибжамол Норқобиловна**  
Низомий номидаги ТДПУ Умумий психология кафедраси  
доценти, психология фанлари доктори

## ПЕДАГОГЛАР ИМИЖИНИНГ ГЕНДЕР ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада замонавий ўқитувчининг гендер хусусиятлари, касбий тайёргарлиги, инновацияларга мойиллиги, ижодий изланишларга тайёрлиги, шахсий фазилатлари, психологик-педагогик фаолиятда ўзининг педагогик имижига эга бўлиши бугунги ва эртанги ўқитувчилар имиджининг ўзига хос талаблари бўйича тадқиқот натижалари баён этилади.

**Калит сўзлар:** имиж, гендер хусусиятлари, замонавий педагогик имиж, имиж механизмлари, касбий талаблар, шахсий талаблар, ижтимоий муносабат, мулоқот, фаолият тузилиши.

## ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИМИДЖА ПЕДАГОГОВ

**Аннотация.** В данной статье представлены результаты исследования специфических требований сегодняшнего и завтрашнего образа педагога, гендерных особенностей современного педагога, профессиональной подготовки, склонности к новаторству, готовности к творческому поиску, личностных качеств, наличия педагогического имиджа в психолого-педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** имидж, гендерные характеристики, современный педагогический имидж, имиджевые механизмы, профессиональные требования, личностные требования, социальная установка, общение, структура деятельности.

## GENDER CHARACTERISTICS OF THE IMAGE OF EDUCATORS

**Abstract.** In this article, the results of research on the specific requirements of today's and tomorrow's teacher's image of the modern teacher's gender characteristics, professional training, propensity for innovation, readiness for creative research, personal qualities, having a pedagogical image in psychological-pedagogical activity are presented.

**Key words:** image, gender characteristics, modern pedagogical image, image mechanisms, professional requirements, personal requirements, social attitude, communication, activity structure.

**Кириш.** Замонавий педагог имиж муаммосининг ижтимоий-психологик феномен сифатида тадқиқ этиш билан боғлиқ изланишларга алоқадор назарий таҳлилларга ҳамоҳанг тарзда замонавий психологик тадқиқотларда ўрганилганлигини жаҳон психологияси ва ватанимиз олимлари томонидан ўрганилганлигини тадқиқ этганмиз.

Мазкур муаммога алоқадор илмий манбалар билан танишиш жараёнида қатор тадқиқот ишларига дуч келиндики, уларда имиж тушунчасига берилган изоҳлардаги сингари фанлараро тадқиқот масаласи эканлиги кузатилди. Бу эса тадқиқотларни тизимлаштириганда имижалогия, фалсафа, социология, менежмент, мода ва либослар, психология, педагогика, маданиятшунослик, сиёсатшунослик йўналишларида амалга оширилганлигининг гувоҳи бўлинди. Имижнинг фанлар тизимида ўрганилиши юзасидан тақдим қилинаётган материаллар бир жиҳатдан мазкур тадқиқотимиз учун методологик асос сифатида хизмат қилса, яна бир жиҳати келгусида Ўзбекистонда имиж муаммоси доирасида изланиш олиб борувчилар учун йўналтирувчи манба вазифасини ўтайди. Шунга кўра биз, юкорида имиж муаммосига бағишланган тадқиқот манбаларини умумий тизимини соҳаларга кўра тақдим этамиз ва уларнинг айримларини хусусиятларини ёритамиз.

Имижеология соҳасидаги тадқиқотларда имижнинг шахс камолоти учун аҳамияти, имиж шахсий таассурот манбаи эканлиги, имижеологиянинг фан сифатида такомиллашув хусусиятлари, имижни камол топтириш тактикаси, имижмейкер фаолияти, имиж ва идеология муносабатлари, имижеологиянинг терминологияси, имижга қарши имиж ёрдамида курашиш, имижни таркиб топтириш йўллари, мен ва имиж муносабати, имижнинг социал-маданий муҳитдаги ўрни масалалари юзасидан талқин қилинган.

Имежеологияда ўқитувчи имижи сиёсий етакчилар ва раҳбар тимсоллари билан таққосланади. Ўқитувчи жамиятнинг етакчи инсонлари сингари доимо кўзга ташланиб туради. У жамоат жойларида танилади ва кундалик фаолиятида кўпгина муҳим масалаларни ҳал қилади.



Юкоридагиларнинг ҳаммасидан ташқари педагог талабалар гуруҳларини бошқаради. Педагогнинг ташқи кўриниши ва хатти-ҳаракатларидан ташқари талабаларнинг педагог шахсий фазилатларига билдирган муносабатлари катта рол ўйнайди. Шу сабабли ҳам олий таълим муассасаларида профессор-ўқитувчиларнинг йиллик ўқув фаолияти юзасидан мониторингда талабаларни жалб қилиш орқали ҳам анча салмоқли натижалар олинади.

Замонавий педагог имижини таҳлил қилишда бир қатор йўналишлар бўйича ёритишга эътибор қаратдик. Биз мазкур масаланинг гендер хусусиятлар бўйича тадқиқ эътишга ҳам эътибор қаратмоқчимиз. Бу масаланинг айрим жиҳатларини педагогларнинг габитар хусусиятларини ёритиш билан боғлиқ манбаларда қайд этган эдик. Шундай бўлса-да, муаммонинг айрим бандлари бўйича гендер хусусиятларини ёритишга эътибор қаратамиз.

**Методика ва натижа.** Педагог имижининг гендер тафовутларини ёритишда «Ўқитувчи шахсини ўрганиш сўровномаси»дан фойдаланилди. Сўровноманинг ўзига хослиги 4 та йўналишдаги хусусиятларни ўрганишга мўлжалланган.

Методика натижаларига кўра эркак билан аёл педагогларнинг кўрсаткичлари ўртасидаги ўқитувчининг устувор кадриятлари, психоэмоционал ҳолатлари, ўзини ўзи баҳолаши ва таълим бериш усули шкалаларининг биринчи йўналишлари устун кўрсаткичларни акс эттирди.

1-жадвал.

**Замонавий педагог имижидagi устувор кадриятлар, психоэмоционал ҳолати, ўзини ўзи баҳолаш ва таълим бериш усули кўрсаткичлари (Э.В.Резапкина ва Г.В.Резапкиналарнинг «Ўқитувчи шахсини психологик ўрганиш сўровномаси» (N=234))**

Шкалалар		Эркак (N=95)		Аёллар (n=139)		t
		X	σ	X	σ	
Ўқитувчининг устувор кадриятлари	1.1	4,08	1,17	4,25	1,31	-0,242
	1.2	3,62	,95	3,58	,95	0,533
	1.3	2,24	1,17	2,09	1,10	0,154
Психоэмоционал ҳолати	2.1	2,88	1,28	3,68	1,35	-4,168***
	2.2	2,33	1,024	3,38	1,07	1,438
	2.3	4,79	1,24	3,54	1,12	3,206***
Ўз-ўзини баҳолаш	3.1	4,24	1,24	4,12	1,20	1,322
	3.2	3,09	,84	3,06	,89	0,250
	3.3	2,54	1,19	2,64	1,14	-1,583
Таълим бериш усули	4.1	3,75	1,19	3,80	1,32	-1,309
	4.2	3,02	1,264	2,96	1,30	-0,826
	4.3	3,43	1,56	3,19	1,57	1,643

Изоҳ:\*\*\* p<0,001

Педагог-ўқитувчиларнинг устувор кадриятлари шкаласидаги қийматлари ҳар учала даражада ҳам статистик фарқ кузатилмади, аммо педагогларнинг асосий қисмида куйидаги психологик хусусиятлар устувор кўриниш олмақда.

Ҳар икки тоифа педагогларнинг гендер хусусиятига кўра тафовутлари масаласи бир неча ўн йиллар илгари эркаклар таълим муассасаларида фаолият олиб борувчилар ҳисобланганда кескин тафовут кузатилган дейиш мумкин. Бугунги кунда узлуксиз таълимнинг барча бўғинларида аёл педагогларнинг кенг кўламда фаолият олиб бораётганлиги сабабли айрим ўринларда гендер стереотипларнинг ўзгаришига сабаб бўлган дейиш мумкин. Тадқиқотимизда эркак (4,08) ва аёл (4,25) педагогларнинг талабалар қизиқиши ва муаммоларига бефарқ эмас эканлиги аниқланди. Талабалар педагогларни шахс сифатида тан олишади, педагоглар эса уларнинг қизиқишларига эътибор билан қарайдилар, ишончини қозона олганлар ва ҳурматига сазовордирлар. Талабалар умумий ҳолда педагогларнинг дарсларида ўзларини хавфсиз ва енгил ҳис этадилар. Бундай мақбул эмоционал ҳолатлар педагогларнинг самарали ва ижодий ишлашга имкон беради. Бу ҳол педагоглар билан талабалар саломатлиги учун ижобий таъсир кўрсатади.

Психоэмоционал ҳолатлари кўрсаткичларида биринчи ва учинчи даражадаги ҳолат устуворлик қилмоқда: эркак (2,88) ва аёл педагоглар (3,68:t=4,168, p<0,001). Ушбу даража

методиканинг меъерий кўрсаткичлари бўйича биринчи даража бўйича аёлларда устунликни кўрсатмоқда. Аёлларда биринчи йўналишнинг устуворлиги қуйидаги мулоҳазани ифодалайди: улардан бу ҳолда талабалар билан ишлашда анча руҳий ва жисмоний куч талаб этади. Педагогларнинг талабалар билан мулоқотга киришиши шунчаки ишга боғлиқ зарурат эмас, балки маънавий эҳтиёж сифатида ёндашмоқдалар, педагогларнинг талабалар билан муносабатда аёлларга хос мулойимлик, оналарга хос меҳрибонлик ва илиқ муомаласи таъминлаётган бўлиши мумкин. Кескин вазиятларда эса аёллар анчагина эмоционал зўриқишларга дуч келадилар. Улар вазиятни ўзгартириш имкони йўқлигидан тез-тез асабий ҳолатга тушадилар, жаҳллари чиқади, ташвиш чекади ва ўзини ожиз ҳис қиладилар. Эҳтимол, улар ўзларининг ва теварак-атрофидагиларга ҳаддан ортик талаблар қўядилар ва шунинг учун ҳам изтироб чекадилар. Агар юзага келган вазиятларга нисбатан ўз муносабатларини ўзгартира олсалар, у ҳолда ўқитувчи фаолияти учун характерли бўлган стресслардан озод бўладилар ва ўзларининг психоэмоционал ҳолатини яхшилайдилар.

Миқдорий кўрсаткичнинг изоҳига кўра: эркак педагоглар (4,79) ва аёл педагоглар (3,54), статистик тафовут:  $t=3,206, p<0,001$ ). Эркак педагоглардаги ижобий психоэмоционал ҳолат уларнинг иши самарадорлигини белгилаб бермоқда. Бу ҳолат эркак педагогларнинг табиатидаги оталарга хос қаттиқ қўллик ва талабчанлик айрим ўринларда талабалар томонидан ижобий қабул қилишга тўсик бўлиши мумкин. Шу боис эркак педагоглар талабалар билан бўладиган фавқулудда ҳолатларда ўзларини йўқотиб қўймайдилар ва уларнинг оқибатлари учун масъул қарорлар қабул қилишга қодирлар. Уларнинг ҳиссий барқарорлиги, узокни кўра билишлари ва меҳнатсеварлиги таълим муассасасидаги психологик муҳитга ижобий таъсир кўрсатади.

Ўзини ўзи баҳолаш шкаласи бўйича эркак (4,) ва аёл ўқитувчилар ўртасида маълум фарқлар кузатилмади. Бу эса ҳар иккала жинс вакилларида биринчи шкала етакчилик қилаётганлигини кўрсатади. Ўзини ўзи баҳолаш бўйича гендер тафовутлар кузатилмаганлигини қуйидаги талқин орқали изоҳлаш мумкин: эркак ва аёл педагоглар ўзларини ижобий қабул қила оладилар. Улар ижодий фикрлайдилар, дарсада жонли мулоқот муҳитини яратишга қодирлар, талабалар билан ҳамжиҳатликда ишлаб, уларга психологик ёрдам кўрсата оладилар. Улар талабаларни шахс сифатида қабул қиладилар ва уларни кадрлайдилар. Бу эса талабаларнинг ҳиссий ривожланишига ва ўзлари ҳақидаги тасаввурларини реалликка айланишига олиб келади. Уларнинг шижоатлари, ёрқин хулқ-атворлари, ижодий ёндашувлари ва демократик тамойилларга амал қилишлари билан ажралиб турадилар. Олий таълим тизимида фаолият кўрсатаётган замонавий педагог эркак ва аёлларда ўзини ўзи англаш бўйича гендер тафовутларнинг йўқлиги бир жиҳатдан педагогик жараённинг талабларига мослашиш борасида ўз устиларида ишлаётганликларидан далолат бермоқда.

Педагоглар имижидаги гендер тафовутларни ўрганиш бўйича изланишларнинг навбатдаги босқичи профессор-ўқитувчиларнинг ташкилотчилик ва коммуникатив қобилиятлари ўрганилди. Бу қобилиятлар педагоглар ва талабалар ҳамкорлик фаолиятини ташкил этишнинг муҳим шартловчилари ҳисобланади. Шу сабабли профессор-ўқитувчиларнинг ташкилотчилик ва коммуникатив қобилиятларидаги гендер фарқларни ўрганиш учун «Коммуникатив – ташкилотчилик қобилияти (КОС)» тестидан фойдаланилди. Тестларнинг натижалари таҳлили қуйида келтирилган.

2 – жадвал.

**Эркак ва аёл педагогларнинг КОС бўйича натижалари  
«Ташкилотчилик ва коммуникативлик қобилиятлари»  
(В.В.Синявский, В.А.Федорошин) сўровномаси бўйича) (N=234)**

№	Қобилиятлар	Педагоглар				t
		Эркак (N=95)		Аёл (N=139)		
		X	σ	X	σ	
1.	Ташкилотчилик қобилияти	0,81	0,14	0,64	0,17	3,19***
2.	Коммуникатив қобилияти	0,64	0,18	0,54	0,21	1,25

Изоҳ:\*\*\* $p<0.001$

Методиканинг натижалари ва меъерий кўрсаткичларига кўра эркак ва аёл педагогларнинг ташкилотчилик қобилияти бўйича кўрсаткичлари ўртасида статистик тафовут кузатилди. Бу тафовутни педагоглар ўртасидаги гендер фарқлар сифатида баҳолашимизга тўғри келмоқда. Меъерий

кўрсаткичларга кўра эркак педагогларда ташкилотчилик қобилияти (0,81) жуда юқори, аёлларда эса (0,64) ва улар ўртасида ( $t=3,19$ ,  $p<0.001$ ) аҳамиятли фарқлар борлигидан далолат бермоқда. Бундан кўринадики, эркак педагоглар кўп ҳолларда талабалар билан ишлаш жараёнидаги ташкилотчилик қобилиятлари умумий олинганда аёл педагогларга қараганда етакчиликка эга бўлмоқдалар.

Коммуникатив қобилиятлари бўйича эркак (0,64) ва аёл (0,54) педагоглар ўртача меъёрий кўрсаткични ифодаламоқда. Талабалар билан ўқув фаолиятини ташкил этиш учун педагогларда коммуникативлик қобилияти муҳим ҳисобланади. Умумий олганда эркак ва аёл педагогларда коммуникатив қобилиятлари бўйича гендер тафовут мавжуд эмас деган хулосага олиб келди.

Тадқиқотнинг навбатдаги таҳлили педагогларни ёш хусусиятларига кўра амалга оширилди. Бунда 30 ёшдан 55 ёшгача бўлган педагогларнинг ташкилотчилик ва коммуникатив қобилиятларидаги гендер тафовутлар ўрганилди.

30 ёшгача бўлган эркак (0,80) ва аёл (0,75) педагогларнинг ташкилотчилик қобилиятлари юқори даражага эга, аммо гендер тафовут кузатилмади. Коммуникатив қобилиятлари ҳам эркак (0,77) ва аёл педагогларда (0,76) жуда юқори коэффицентни ифодалади.

Педагогларнинг ёшига кўра ташкилотчилик ва коммуникатив қобилиятларида бир неча гендер фарқлар кузатилди. 30-35 ёшли педагог эркакларда (0,76) ва аёлларда (0,64) ташкилотчилик қобилиятида гендер тафовут мавжуд экан ( $t=2,99$ ,  $p<0.01$ ) ҳамда коммуникатив қобилиятлари бўйича эркак (0,64) ва аёлларда (0,55) гендер тафовут аниқланди ( $t=2,25$ ,  $p<0.05$ ). Ушбу ёш босқичида эркак педагоглар аёлларга нисбатан коммуникатив ва ташкилотчилик қобилиятлари бўйича устуворликни намоён қилдилар.

35-40 ёшгача ва 45-50 ёшгача бўлган эркак (0,65 ва 0,36) ва аёл (0,71 ва 0,48) педагогларда ҳам коммуникатив қобилиятлари бўйича тафовутлар аниқланган ( $t=3,18$ ,  $p<0.001$ ;  $t=4,47$ ,  $p<0.001$ ). Ушбу ҳолатда эркак педагогларнинг ҳар иккала ёш босқичида коммуникатив қобилиятлари ўртача ва юқори даражаларни акс эттирди. Аёлларда эса ўртачадан паст коэффицентлар кузатилди.

50-55 ёшлилар ва 55 ёшдан катта ёшдаги эркак ва аёлларда ташкилотчилик ва коммуникатив қобилиятларда ёш кўрсаткичлари бўйича гендер тафовут аниқланмади. Синов натижалари коммуникатив ва ташкилотчилик қобилияти педагогларда ҳар бир ёш босқичида учраши мумкин экан, аммо тадқиқотдаги фарқли ҳолатларда эркак педагогларда коммуникатив ва ташкилотчилик қобилиятлари аёлларга нисбатан устун бўлиши кузатилди.

Эркак ва аёл педагогларнинг имижидagi гендер фарқларни аниқлашда педагогларнинг меҳнат стажларига кўра ўрганишга ҳам эътибор қаратдик. Эркак педагогларнинг меҳнат стажлари бўйича кўрсаткичлари ташкилотчилик қобилиятлари бўйича 0,72 дан 0,82 гача, аёлларда эса 0,57дан 0,75 гача бўлган коэффицентлар аниқланди. Агар эркак педагогларда ташкилотчилик қобилиятларининг меъёрий кўрсаткичлари бўйича юқори ва жуда юқори қийматларни ифодалаганда, аёл педагогларда эса қийматлар ўртачадан паст билан юқори даражаларни акс эттирди. Педагогларнинг меҳнат стажига кўра гендер фарқлар 10 йилдан 20 йилгача (эркаклар-0,76 ва аёллар-0,57;  $t=7,09$ ,  $p<0.001$ ) ва 40 йилгача ва ундан юқори меҳнат стажига (эркаклар-0,82 ва аёллар-0,64;  $t=2,56$ ,  $p<0.01$ ;) эга бўлган педагогларнинг ташкилотчилик қобилиятларида кузатилди.

**Хулоса.** Таълим бериш усули даражалари бўйича ҳам эркак ва аёл педагогларнинг кўрсаткичларида гендер тафовутлар кузатилмади. Мазкур шкала бўйича ҳам замонавий педагоглардаги бу ҳолатни қуйидагича изоҳлаш ўринлидир: улар етакчилик хусусиятга эга ва «кучли педагог» эканликларидан далолат беради.

Талабалар улар учун тенг ҳуқуқли ҳамкор эмас, балки таъсир кўрсатиш объекти ҳисобланади. Улар талабаларга кескин ва талабчанлик билан муносабатда бўладилар. Вазиятлар ва талабаларнинг фикр-мулоҳазасини ҳисобга олмаган ҳолда қарорлар қабул қилишлар учраб туради. Уларнинг ўқитиш усулидаги яқка ҳокимлик (авторитарлик) дарсларда ижобий психологик муҳит ва ишончли муносабат ўрнатишга тўсқинлик қилади. Оқибатда талабалар ўз фаоллиги ва мустақиллигини йўқотади, улар ўз-ўзини анча паст баҳолайди, ўзини психологик ҳимоя қилиш мақсадида агрессив кайфиятга берилади. Эҳтимол, уларни энди «ўқитувчи-бошлик» вазифаси унчалик қаноатлантirmас ва шунинг учун ҳам касбий ва шахсий соҳада ўзларини камол топтиришга, ўзаро мулоқот тамойилларини янада чуқурроқ ўзлаштиришлари зарурдир.

Эмпирик кўрсаткичлар бўйича педагоглар имижида коммуникатив ва ташкилотчилик қобилиятлари бўйича гендер фарқлар кузатилади, аммо тафовутлар изчилликда эмас. Гендер фарқлар умумий қийматларда, ёш ва меҳнат стажлари бўйича ҳам учраб экан.

Олий таълим муассасаларида педагогларнинг талабалар билан маънавий-маърифий ишларни ташкил этишларига алоҳида урғу берилиши педагоглар шахсий иш режаларининг ажралмас қисми

хисобланиб, ўзбек этносида тарбия ва маънавий камолот масаласига алоҳида эътибор қаратилганлиги сабабли педагогларнинг мураббийлик сифатига эга бўлиши эмпирик кўрсаткичларда ҳам ўз исботини топди. Мураббийлик сифатининг ўсиб бориши уларда сермулоҳазалик, айтиладиган гапнинг муҳимлигини баҳолай оладиган, сугестив қобилиятга эгалликни таъминлаган ( $r=0,260$ ;  $p\leq 0,05$ ).

**Адабиётлар:**

1. Жўраева С.Н. Cultural and historical prerequisites for the development of the innovative potential of the subject of creativity // Psychology and education: 2870-2873. 2021.
2. Джураева С.Н. Структурные компоненты профессионального имиджа педагога // Школа Будущего. Уфа. 2018.ст.104-108. № 4.

*Икромова Ситора Акбаровна*

*г. Бухара, Узбекистан*

## **ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ИДЕОЛОГИИ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У ПОДРОСТКОВ**

*Аннотация.* В данной статье говорится об основных понятиях и актуальных аспектах концепции мировоззрения и формирования идеологического иммунитета у студенческой молодежи. Мысли и комментарии упоминаются на протяжении всей статьи.

**Ключевые слова:** идеология, идеологический иммунитет, компетентность, мастерство.

## **O‘SMIRLARDA MAFKURA VA MAFKURAVIY IMMUNITET KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

**Аннотация.** Ushbu maqolada talaba-yoshlarda dunyoqarash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish konsepsiyasining asosiy tushunchalari va dolzarb jihatlari muhokama qilinadi. Fikrlar va sharhlar maqola davomida eslatib o‘tilgan.

**Калит so‘zlar:** mafkura, mafkuraviy immunitet, kompetentsiya, mahorat.

## **FORMATION OF THE CONCEPT OF IDEOLOGY AND IDEOLOGICAL IMMUNITY IN ADOLESCENTS**

**Abstract.** This article talks about the basic concepts and current aspects of the concept of worldview and the formation of ideological immunity among students. Thoughts and comments are referenced throughout the article.

**Key words:** Ideology, ideological immunity, competence, skill.

**Введение.** Идеология (араб. - совокупность идей) - идейно-теоретические взгляды, выражающие интересы, пожелания и цели той или иной социальной группы, слоя, нации, общества, государства, и система их реализации. Выражено прошлое, настоящее и будущее сил и слоев, интересы которых в нем выражены. В истории человечества были различные идеологии. Идейные лидеры, мыслители и деятели различных народов и общественных сил разрабатывали идеологические учения и программы, исходя из своих интересов и целей. Идеология создается на основе определенных религиозно-философских учений, опирается на определенные научные взгляды и нравственные принципы. По своему характеру и влиянию идеологии могут объединять общество или разделять его на противоборствующие стороны, повышать или понижать престиж и положение государства в мире, поднимать нации на вершину или приводить к их упадку. Идеология, основанная на высоких целях и созидательных идеях, стимулирует общественное и экономическое развитие, возвышает духовность, мобилизует людей на благородные дела. Идеология, сформированная на основе идей свободы, независимости, мира и сотрудничества, служащих благородным целям, будет носить характер творчества.

**Основная часть.** Идеологии, сформированные на основе деструктивных идей, тормозят развитие общества и создают проблемы для наций и народов. По своей сути эта идеология проявляется в формах властолюбивого, авторитарного, агрессивного, агрессивного, экстремистского, фанатичного. Во времена бывшего союза не было сформировано универсальное представление об идеологии, это не допускалось. Возможность дать ему правильную и объективную оценку открылась благодаря самостоятельности. В трудах Первого Президента Республики Узбекистан И.Каримова, в том числе в ответах на вопросы главного редактора журнала «Тафаккур» и корреспондента газеты «Фидокор», дается глубокое научное определение идеологии. Понятие «идеология» - любая теория или учение состоит из совокупности идей, объединенных в единую систему. Идея является основой мировоззрения и основой определенных убеждений. Интересы и цели людей, социальных классов и слоев, наций и государств также выражаются в идеях. Система представлений о цели, которую она ставит перед собой, какое общество она хочет построить, какими путями и средствами хочет ее достичь, составляет основу национальной идеи каждой нации, народа и общества. Идеология – это система идей, методов и средств их реализации, выражающих потребности, цели и стремления,

социальные и духовные принципы определенной социальной группы или слоя, нации или государства.

Естественно, что идеологии разных социальных систем, разных классов и слоев общества различны. Это основано на многообразии интересов, возможностей и способов их удовлетворения. В режимах, где усилилась классовая поляризация, обострилась (или искусственно обострилась) классовая борьба, идеология сильно политизируется и настраивает население друг против друга. В странах, стремящихся к созданию свободного демократического общества, основанного на общественном сотрудничестве, национальная идея призывает к консолидации всех слоев населения, объединению ради общего блага и единой цели. В таких идеологиях укрепляются не конфликтующие аспекты, а универсальные принципы. Национальная идея народа Узбекистана мобилизует общество на сплочение, на совместную работу во имя великого будущего, на достижение особого места каждого нашего соотечественника в строящемся свободном гражданском обществе.

*Идеологический иммунитет* – это система мировоззренческих взглядов и ценностей, служащих защите личности, социальной группы, нации, общества от различных вредных идеологических воздействий. Иммунитет (лат. *immunitas* — высвободиться, ускользнуть) — понятие медицинское, под ним понимается совокупность реакций, способных поддерживать постоянное внутреннее своеобразие организма, защищая себя от различных воздействий и внешних инфекций. Проще говоря, иммунитет – это способность организма человека защищаться от различных заболеваний. В отличие от вышеизложенного, если общая иммунная система человека врожденная, необходимо формировать мировоззрение. Во-вторых, она имеет свои особенности для каждого поколения. В-третьих, обеспечить идеологический иммунитет в обществе можно только тогда, когда иммунная система сформирована. Основным и первым элементом системы идеологического иммунитета являются знания. Однако существует множество видов знания. Приверженцы великогосударственного шовинизма или агрессивного национализма, конечно, тоже полагаются на определенные «знания». Поэтому знания в системе идеологического иммунитета должны быть объективными, точно и полно отражать действительность, обогащать духовность человека и служить развитию общества. По своей сути они должны быть неразрывно связаны с интересами Родины и нации. Вторым основным элементом системы идеологического иммунитета является система оценок и ценностей, формируемых на основе таких передовых знаний. Ведь чем объективнее и глубже знание, тем прочнее ценности, сформированные в его основе.

Словом, система ценностей определяет возможности идеологического иммунитета и служит крепким щитом от вредных идей. Но само по себе наличие системы знаний и ценностей не может в полной мере выразить сущность идеологического иммунитета. Ведь эти два элемента родственны третьему важному элементу идеологического иммунитета, то есть системе целей в социально-экономической, политической и культурно-образовательной сферах. Без такой системы четких целей человек, нация или общество будут подвергаться идеологическому давлению, иногда открыто, а иногда тайно.

Идеологический иммунитет и идеологическая профилактика. Идеологический иммунитет (лат. быть свободным) означает идеологическое влияние, способность противостоять чужим идеям. Иммунитет врожденный, а идеологический иммунитет формируется. Идеологическая иммунная система: 1. Знание (но шовинизм опирается и на знание) 2. Система ценностей 3. Связана с системой конкретных целей и задач в социально-экономической, политической и культурно-образовательной сферах. Идеологическая профилактика – это комплекс мер, направленных на недопущение внедрения чужих идей и их искоренение, правильно организованная система воспитания. Идеологическая профилактика представляет собой комплекс идейно-воспитательных, духовно-идеологических работ различных форм, реализуемых общественными институтами, который охватывает всю систему идеологического воспитания. Идеологическая профилактика осуществляется в целях ликвидации идеологической брешки, предотвращения идеологического беспорядка или освобождения региона, слоя, группы от влияния чужеродных и вредных идей. Если сделать вывод об идеологическом ландшафте современного мира, то процесс глобализации идеологий идет полным ходом.

Значение слова «иммунитет» дается в национальной энциклопедии Узбекистана следующим образом: (лат. — избавляться от чего-либо, освобождаться, избавляться) — защита, сопротивляемость, сопротивляемость живых существ от чужеродных факторов, разрушающих их целостность и биологическую уникальность. К чужеродным факторам относятся бактерии и их токсины, вирусы, грибы, простейшие, гельминты, трансплантированные органы и ткани, измененные

клетки организма (например, опухолевые клетки) и др. входит. Эти факторы улавливают химические агенты - антигены, генетически чужеродные организму<sup>1</sup>.

Идеологический иммунитет - это не простое принятие духовных, образовательных, политических, экономических знаний, а сознательное их осмысление, формирование навыков реагирования на современные социальные события, основанные на реальности идеологических схваток, реагирование на те или иные нездоровые идеи, а не принятие их.

Идеологический иммунитет проявляется в ситуациях, когда сталкиваются определенные идеи. Поскольку идеологический иммунитет является результатом мыслительного процесса, он строится на научно обоснованной, доказательной системе. В состав идейного иммунитета школьника входят мировоззренческие знания (о природе и различии деструктивных и созидательных идей), (Ч) чувство, (И) воля, (К) умения и навыки (М) система. Мировоззренческие способности проявляются в единстве знаний, деятельности и поведения. Навыки – это автоматизированные установки, адекватные пути и методы против влияния чужих идей.

**Заключение.** Таким образом, формулу идеологического иммунитета можно выразить следующим образом:

1. Религиозный фанатизм и другие чужеземные идеологии опираются прежде всего на идейно-политическую неопытность некоторых молодых людей. Борьба с чуждой идеологией и деструктивными влияниями требует нетерпимости к любым проявлениям индифферентности и равнодушия в идеологическом воспитании.

2. Одним из необходимых принципов эффективности контрпропаганды является ее оперативность, при которой предусматривается учет определенных региональных условий, возрастных особенностей людей, идеологических возможностей, которые высшее учебное заведение может решить в тот или иной период.

3. Способность человека самостоятельно анализировать события, происходящие внутри страны и за ее пределами, укрепляет идеологический иммунитет.

#### Литература:

1. Каримов И.А. Пусть критерием нашей деятельности будет приоритет закона и справедливости. Выступление на внеочередной сессии Совета народных депутатов Сурхандарьинской области. Народное слово, 2 июня 2004 г.

2. Каримов И.А. Мир и безопасность нашей страны зависят от нашей собственной силы, единства и несгибаемой воли нашего народа. - Т.: «Узбекистан», 2004.

3. Азизходжаев А.А. Независимость: борьба, боль, радость. - Т.: "Шарк", "Академия" 2001.

4. Азод Аббасходжаев. О тайных играх центра или о разорении волчьего гнезда, свитого в Узбекистане. Народное слово 8 августа 2003 года.

5. Идея национальной независимости: основные понятия и принципы. - Т.: "Поколение нового века", 2001 г.

*Каюмова Гўзал Нарзуллаевна*  
*Термиз давлат университети тадқиқотчиси*

## НИКОҲ МОТИВЛАРИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада оила инсон тақдирида асосий ва ўта муҳим жамоалардан бири эканлиги, никоҳ олди омиллари, никоҳ мотивларининг мазмуни, моҳияти ва ижтимоий-психологик хусусиятлари таҳлил қилинган. Никоҳ мотивларининг оила мустаҳкамлигига таъсири, никоҳ мотивларининг классификацияси келтирилган. Алоҳида никоҳ мотивларининг оила мустаҳкамлигидаги роли кўрсатилган. Шунингдек, талабаларда никоҳ мотивларини диагностика қилишида қўлланилган сўровнома ва унинг натижалари баён этилган.

**Калим сўзлар:** оила, никоҳ, мотив, никоҳ қуриш мотиви, севги, моддий манфаат, бойлик, стереотип.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ МОТИВОВ БРАКА НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ

**Аннотация.** В данной статье анализируется тот факт, что семья является одной из основных и чрезвычайно важных групп в судьбе человека, добрачные факторы, содержание, характер и социально-психологическая характеристика брачных мотивов. Влияние брачных мотивов на прочность семьи, дана классификация брачных мотивов. Показана роль отдельных брачных мотивов в стабильности семьи. Также описаны анкета, использованная при диагностике мотивов вступления студентов в брак, и её результаты.

**Ключевые слова:** семья, брак, мотив, мотив вступления в брак, любовь, материальная выгода, богатство, стереотип.

## PSYCHOLOGICAL EFFECT OF MARRIAGE MOTIVES ON FAMILY STRENGTH

**Abstract.** This article analyzes the fact that the family is one of the main and extremely important groups in the fate of a person, premarital factors, the content, nature and socio-psychological characteristics of marital motives. The influence of marital motives on the strength of the family, the classification of marital motives is given. The role of individual marital motives in family stability is shown. The questionnaire used in diagnosing the motives for students to marry and its results are also described.

**Key words:** Family, marriage, motive, motive for marriage, love, material gain, wealth, stereotype.

**Кириш.** Жамиятдаги ҳар қандай қусур ва камчиликларнинг илдизини аксар ҳолларда оилалардаги ижтимоий-маънавий муҳитдан излаш нечоғлик ўзини оқлагани каби кучли, барқарор ва фаровон давлат негизини ҳам, аввало, мустаҳкам оилалар ташкил этиши бугун тобора чуқур англономқа. Мамлакатимизда оила ва никоҳ муносабатларини мустаҳкамлашнинг аҳамиятига алоҳида урғу берилиб келинмоқда. Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев ўз нутқида “Энг катта бахт, мен бунинг минг марта қайтаришдан чарчамайман, оиламиз тинч бўлсин! Оила кичик ватан, оила тинч бўлса, бахтли бўлса, ватан тинч бўлади. Ўша бахтли кунларни, ватанимизнинг, ёшларимизнинг камолини ҳозир ният қилаётганимиз каби кўриш ҳаммамизга насиб этсин!” – деб алоҳида таъкидлайдилар.

Шунингдек, мамлакатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев ўз асарларида оила хусусида тўхталиб, “Турмуш қурган ёшлар орасида ҳаётни энгил-елпи тасаввур қилиш, оила муқаддас эканини тушуниб етмаслик ҳолатлари ҳам, афсуски, учраб турибди. Ёш оилалар орасида арзимас сабаблар билан ажрашишлар кўпайиб бормоқда. Бегуноҳ болалар етим бўлиб, меҳр ва эътиборга энг ташна вақтида ота-она тарбиясидан четда қолмоқда”, “Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш. Хонадонларда тинчлик-хотиржамлик. аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш. маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур”[1] бунинг учун эса ёшлар ўртасида болалиқдан кўпроқ иш олиб борилиши шарт. Негаки, аксарият ҳолларда, ёшлар ўртасида маърифат ва эътиқодсизлик кучсизланган жойларда турли хил кўнгилсиз воқеа – ходисалар рўй беради, ёшлар онгига Ватан туйғуси, миллий ғурур, миллий ғоя каби тушунчаларни сингдира олмас эканмиз, уларнинг шууридаги эркин тарққиёт ҳиссини уйғота олишимиз анча



мураккаб кечади. Мақсад эса бугун ва эртанги кун маънавиятининг асл моҳияти кишиларимиз, айниқса ёшларимиз онгида ўзининг ижобий ифодасини топсин.” –деб таъкидлаган.

**Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар.** Оила инсон тақдирида асосий ва ўта муҳим жамоалардан бири ҳисобланиб, меҳр-муҳаббат, нафрат, қўрқув ва ҳадик, одамлар орасида бахт ҳиссини туюш, оқибат ҳамда ҳамдардлик тушунчаларини англайдиган муҳитдир. Оиланинг мустаҳкамлиги, оилавий анъаналарнинг бардавомлилиги миллий ва умуминсоний қадриятларнинг уйғунлиги билан таъминланади. Оила аъзоларининг ҳар бири шахс сифатида муайян маънавий дунёга эга бўлиб, улар ўртасидаги яқин муносабатлар, мулоқотлар натижасида ўзига хос оилавий маънавият юзага келади. Ўзбек оилаларида ота-онанинг маънавий фазилатлари эр-хотинлик муносабатларининг шарқона юқори инсонийлик ва ахлоқийлик даражасини белгилаб беради. Оиланинг маънавий олами ўзаро ҳурмат, кадрлаш, ҳамкорлик, мурасасозлик, меҳрибонлик, олийжаноблик каби маънавий қадриятларни ўзида мужассамлаштириши лозим. Бундай қадриятларнинг эъзозланиши, уларга амал қилиниши оилада ижобий маънавий муҳит ва иқлимни яратади.

Мамлакатимизда оила мустаҳкамлигига катта эътибор қаратилаётган бугунги кунда айрим оилавий келишмовчиликлар, низолар ва ажралишларнинг учраб тураётганлиги бу ҳолатнинг ижтимоий-психологик томонларини чуқур ўрганиб таҳлил қилишни тақозо этмоқда. Ҳақиқатдан ҳам, илк болаликданок кўплаб эртақлар эшитиб, кейинчалик ўзлари ҳам уларни турли китоблардан ўқиб ўсган бўлса-да, ёшлар ўзларининг бўлажак оилавий ҳаётларини адекват тасаввур эта олишлари мушкул. Чунки, эртақларда ҳам, кинофильмларда ҳам қаҳрамонлар бир-бирларига етушгунларига қадар не-не машақатларни, захматларни бошларидан кечириб, бу йўлда дуч келган қора кучларни енгиб, охир-оқибатда висолга эришадилар. Шундай эртақмонанд тасаввурлар, орзулар оғушида оила курган ёшлар ўзларининг оилавий ҳаётларида дастлабки муаммоларга дуч келишлари биланок, уларнинг оилавий ҳаётлари ўзлари кутганларидек бўлмаётганлиги, турмуш ўртоғини танлашда «хато қилганлиги», улар олдинги (тўйдан олдинги) ҳолатига нисбатан маълум даражада, албатта «салбий» томонга ўзгариб қолганлиги кабиларни «тушуна» бошлайдилар. Шунингдек, ёш оилада эр ва хотин ўзаро муносабатлари ривожланишнинг ўзига хос қонуниятлари, айниқса, ёш ўзбек оиласида этник, худудий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ёш келин-куёвнинг янги ижтимоий шароитларга мослашиши жараёни билан боғлиқ қийинчиликлар мазкур муносабатларда хилма хил вазиятларни юзага келтириши табиийдир [3].

Шахснинг никоҳ қуришга муносабати, никоҳга тайёрлиги ва никоҳ қуриш мотивларини ўрганишда асосан сўровнома ва анкеталардан фойдаланилади. Тадқиқотимизда социолог С.И.Голод томонидан ишлаб чиқилган «Никоҳ қуриш мотивлари» анкетасидан фойдаландик. Мазкур сўровнома айнан никоҳ қуриш мотивларини ўрганишга қаратилган. Машҳур рус социологи Сергей Исаевич Голоднинг фикрига кўра, турмуш қуришнинг етакчи сабаблари: - севги, - умумий қарашлар ва кизиқиш, - ёлғизликни ҳис қилиш, - раҳм-шафқат, - фарзанд кутиш, - тасодифий, - моддий таъминланганлик; - бўлажак турмуш ўртоғининг бошпанага эгалиги кабилардан иборат.

Синалувчилар рўйхатда берилган саккизта никоҳ мотивидан 8 тасини танлашлари керак. Бунда энг муҳимидан бошлаб 1-ўрин ва колганларини муҳимлигига қараб кейинги ўринларда танланиши сўралади. Биз натижаларни ҳисоблашда 1-, 2-, 3 –ўринларни эгаллаганларнинг умумий сонини олдик. Натижа қуйидагича бўлди:

1-жадвал.

**«Никоҳ қуриш мотивлари» методикаси бўйича респондентларнинг кўрсаткичлари**

Никоҳ мотивлари	1 севги	2 умумий қарашлар ва кизиқиш	3 ёлғизликни ҳис қилиш	4 раҳм-шафқат	5 фарзанд кутиш	6 тасодифий	7 моддий таъминланганлик	8 бўлажак турмуш ўртоғининг бошпанага эгалиги
Кўрсаткичлар сони	28	8	21	15	31	17	23	38
Кўрсаткичлар фоизи	46,6%	13,3%	35%	25%	51,6%	28,3%	38,3%	63,3%

Ушбу анкета шартларига кўра, респондент С.И.Голод таклиф қилган 8 та вариантда тузилган саволлар ичидан ўзи учун мақбул бўлган фақат битта асосий вариантни танлаши керак.

Синалувчиларга 8 та никоҳ мотивлари келтирилган қатор тақдим этилиб, улардан бирини танлаш тақлиф этилди. Тадқиқотимизда 60 нафар университет талабалари иштирок этдилар.

Жадвалдан кўришиб турибдики, никоҳ қуриш ёшидаги талабаларнинг никоҳ мотивларида 1-ўринни “бўлажак турмуш ўртоғининг бошпанга эгаллиги”, иккинчи ўринни “фарзанд кутиш”, 3-ўринни “севги” эгалламоқда.

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Ёшларда никоҳ мотивларининг эр-хотин муносабатлари шаклланишига таъсири жуда катта бўлиб, оилавий муносабатлар аттракцияси шаклланишида муҳим рол ўйнайди. Оилавий муносабатлар аттракцияси оила аъзолари ўртасида содир бўладиган мураккаб ва серқиррали ўзаро муносабатлар бўлиб, кўплаб психолог олимлар, шу жумладан, ўзбекистонлик олимлардан М.Давлетшин, Ғ.Шоумаров, Э.Ғозиев, Х.Каримов, Н.Соғинов, Ф.Акрамова, Г.Ядгарова, М.Салаева, Д.Холиқов кабилар томонидан тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, оилалар билан олиб бориладиган ижтимоий – педагогик фаолият мазмуни, шакл ва методлари бир қатор олимлар В.Н.Гуров, С.Назарова, Ю.П. Азаров, Е.П.Арнаутова, Железнова А.К, Т.В. Шеляг, ўзбек олимларидан А.Мунавваров, Т.Х.Тешавоева, М.Д.Савуров, О.Мусурмоновлар ўрганган.

Уларда кўпроқ ўзбек оиласига хос урф-одатлар, удумлар, анъаналар нуқтаи назаридан оилавий муносабатларнинг этнопсихологик қирралари тадқиқ этилган. Лекин оила институтини ижтимоий воқелик сифатида унинг қонуниятларини таҳлил этар эканмиз, бу ўринда биз оилага хос бўлган муносабатларнинг психологик табиатига, келиб чиқиши ва динамикасига эътиборни қаратдик.

Оила психологиясида никоҳ қуриш мотивларининг оилавий муносабатларга таъсири муаммоси кенг ўрганилган бўлса-да, муаммо жамият тараққиётининг замонавий босқичида алоҳида ўрганишга эҳтиёж сезади. Никоҳ олди омилларининг энг муҳими - шу никоҳ қурилишига асос бўлган никоҳ мотивларидир, «Мотив» ибораси психологияда маълум бир хулқ, фаолиятнинг юзага келишига асос бўлган куч, туртки, манба, асосни билдиради. Хўш, оилалар қандай мотивлар туфайли юзага келиши мумкин?

Психологик адабиётларда бир неча ўнлаб никоҳ мотивлари фарқланади. Лекин улар умумлаштирилган ҳолда учта классификацияга ажратилади. Булар: сеvgи туфайли оила қуриш, яъни ёшлар оила қуришдан аввал бир-бирларини севиб, маълум бир муддат севиб-севилиб юрганларидан сўнг шу ўзаро сеvgининг маҳсули сифатида бир-бирларининг висолига тўй қилиб, оила қуриб етишадилар [4].

Мотивларнинг иккинчи классификацияси моддий ёки ўзга манфаатдорлик туфайли оила қуриш бўлиб, бунда ёшлар оила қураётган эканлар ниманидир ҳисобга олган ҳолда, маълум бир мақсадни кўзлаб оила қуришлари мумкин, масалан, бойликни, мансабни, моддий ёки ижтимоий манфаатдорликни кўзлаган ҳолда: «Агар шу йигитга турмушга чиқсам, бой-бадавлат яшайман» ёки «Шу қизга уйлансам, унинг ота-онаси ёрдамида маълум бир мансаб, мавқега эришаман», - деган фикрлар асосида ўзининг ижтимоий-иқтисодий аҳволдан қутулиш, «ёлғизликдан қутулиш» кабилар. Шу кабилар ҳисобга олинган вазият ва сабабларни кўплаб келтириш мумкин.

Никоҳ мотивлари классификациясидан яна бири - стереотип бўйича оила қуриш деб аталади. Бу тоифа ёшларда олдинги мотивларнинг иккаласи ҳам қузатилмаслиги мумкин. Улар оила қураётган эканлар, стереотипларга таянадилар. Бундай ёшлардан нима учун оила қурганликлари сўралса, одатда «Ҳамма тенгдошларим уйланаётганди, мен ҳам уйландим!» ёки «Ҳамма дугоналарим турмушга чиқишаётганди, мен ҳам турмушга чиқдим!» қабалида жавоб берадилар.

Хўш, санаб ўтилган учала мотив: сеvgи, моддий ёки ўзга манфаатдорлик туфайли, стереотип бўйича қурилган оилаларнинг қай бири мустаҳкамроқ бўлади, яъни қайси никоҳ қуриш мотиви оила мустаҳкамлигини кучлироқ таъминлашини ўрганиш ҳамда айнан оила мустаҳкамлигига таъсир кўрсатувчи жиҳатларга ёшларни оилага тайёрлашда алоҳида эътибор қаратиш имконини беради.

Албатта, бу саволга ёшларнинг аксарияти, биринчи мотивни, яъни сеvgи мотивини танлаб жавоб беришади. Чунки улар сеvgи туфайли оила қуриш никоҳ мустаҳкамлигини таъминловчи энг ишончли, мустаҳкам пойдевор деб ҳисоблайдилар. Ҳақиқатан ҳам, сеvgининг оила мустаҳкамлигидаги ўрни беқиёсдир. Ҳақиқатан ҳам, сеvgи - бу ўта қудратли кучдир. У туфайли инсон нималарга кўп нарсага қодир бўлади. Инсоният ўз тараққиёти давомида эришган энг юксак чўққилар ҳам сеvgи туфайлидир [4].

Психоанализ назариясининг асосчиси З.Фрейд таъкидлаганидек: «Сеvgи - бу инсониятни ҳайвонот оламидан суғуриб олган кучдир!». Инсон яратган буюк мўъжизаларнинг барчаси сеvgи туфайлидир. Бу фикрдан кўришиб турибдики, сеvgи туфайли оила қуриш бахтли ва мустаҳкам никоҳнинг асосини таъминлайди. Албатта, сеvgишиб турмуш қурган жуфтларнинг аксарияти энг бахтли

оилавий ҳаёт кечирадилар. Лекин статистик маълумотларга қараганда, оилалар ажралишининг кўпчилик қисми ҳам худди шу севишиб оила қурган жуфтларга тўғри келар экан. Бундай вазият, нега энди севишиб оила қурган жуфтлар оилавий ҳаётларида ҳамма вақт ҳам бахтли бўлавермайдилар? Нега кечагина бир-бирларини севиб, бир-бирларисиз яшай олмаслигига тўла амин бўлган ёшлар бугун никоҳларини бекор қилиш ҳақида судга ариза бераяптилар? Уларнинг севгисига нима бўлди? Севги - ўзи нима? У бор нарсами ёки йўқми? Бу ўринда ҳақли равишда «Севги оилавий ҳаётнинг мустаҳкам бўлишига ёрдам берадими ёки халақит қиладими?», деган саволлар туғилиши табиий ҳолдир. Бу каби саволлар азал-азалдан ёшларни, умуман инсониятни қизиқтириб келган. Бу ҳақда ўтмиш мутафаккирлари, олимлар шоир ва ёзувчиларнинг асарларидан, халқимизнинг доно маънавий меъросларида баъзан бир-бирига қарама-қарши бўлган кўплаб мисолларни кўришимиз мумкин.

Севги, агарда у ҳақиқий бўлса, севишганлар бир-бирларини ҳурмат қилиб, тушуниб, бир-бирларини эъзозлаб, авайлаб, керак бўлса бири иккинчисининг бахти, шодлиги, қувончи, манфаати учун ўз манфаатидан воз кечиб, ўта нозик бўлган туйғу севгини ҳар қуни, ҳар доим асраб яшасалар, унда севги муносабатларни янада мустаҳкам бўлишига ва ўзаро яқинлашишига, оилавий ҳаётининг мустаҳкамланишига ва биргаликдаги ҳаётларида энг олий завқ-шавқларни ҳис қилишларига асос бўлиши мумкин. Бу эса албатта, ёшлардан сабр-тоқат, чидам, ўз севгисини сақлаб қолиш ва уни янада ривожлантириш учун тинимсиз изланиш, меҳнат қилиш, «жафо чекиш»ни талаб қилади. Шундагина севги ўзининг куч-қудратини кўрсатиши мумкин.

Албатта ҳар бир йигит-қиз ўзаро оила ришталарини боғлар экан, ҳаётларидаги бу муҳим воқеага умид, орзу билан ёндашишлари табиий. Агар севишганлар оила қурганларидан кейин «мурод-мақсадимга эришдим» деб севгисини ҳимоя қилишни, уни парвариш қилишни унутса, унинг учун курашмаса, қаровсиз қолган ҳар бир нозик ниҳол нобуд бўлганидек, энг нозик туйғу бўлган севги ҳам нобуд бўлади. Шундан сўнг севги номи билан қилинган орзу-ниятлар саробга айланади, ёшларнинг оила, никоҳ, севги фонида шаклланган тасаввурлари «нотўғри» бўлиб чиқади. Оқибатда оилавий ҳаётдан кутганлари қолиб кетиб, мутлақо кутмаган нарсаларига дуч келишлари кузатилади. Бундай ҳолатда севги ёшларнинг бахтига, уларнинг оилавий ҳаёти мустаҳкамлигига халақит беради.

Никоҳ қуриш мотивининг навбатдагиси моддий ёки ўзга манфаат туфайли оила қуришдир. Бу мотивнинг ҳам оила мустаҳкамлигига таъсири унинг кейинчалик қай даражада амалга оширилишига боғлиқ. Оила қуришдан олдин ёшларнинг ҳисобга олган, кўзда тутган нарсаларининг ҳаммаси рўёбга чиқаверса, бу мотив маълум даражада никоҳ мустаҳкамлигини таъминлашга хизмат қилиши мумкин. Афсуски, оилавий ҳаётда ҳамма нарса ҳам ёшлар кутганидек бўлавермайди. Бу ўринда Л.Н.Толстойнинг: «Бадий асарларда, романларда, киноларда сюжет, воқеалар ривожланиб-ривожланиб бориб, охирида ҳаммаси тўй билан, яхшилик билан тугайди. Ҳаётда эса аксинча, ҳамма нарса тўйдан кейин бошланади», - деган фикрини таъкидлаш мақсадга мувофиқ.

Шунинг учун ҳам оилавий ҳаётда қутилган, ҳисобга олинган нарсаларга ҳамма вақт ҳам эришиб бўлавермайди. Ниманидир ҳисобга олиб оила қурган ёшларнинг оилавий ҳаётда амалга ошмай қолгундек бўлса, унда уларнинг оилавий ҳаёти ғурбатга, турган-битгани азобга, низо-жанжалга айланади. Улар учун бундай оилада яшагандан кўра яшамагани афзал кўринади. Бу ҳам охир-оқибат оилаларнинг инкирозига ва «ҳисоб» пойдевори устига қурилган иморатнинг қулашига олиб келади [3].

**Хулоса.** Статистик маълумотларга кўра, юридик жиҳатдан энг мустаҳкам, турғун оилалар стереотип бўйича оила қурган жуфтларга тўғри келар экан. Бундай оилаларда ажрашишлар миқдори олдинги икки мотив асосида қурилган оилаларга қараганда жуда кам кўрсаткични ташкил қилади. Чунки улар «ҳамма қатори» оила қуришган. Қарашсаки, «ҳаммаси бинойидек яшайпти» - булар ҳам яшайверишади. Бу мотив асосида қурилган оиладаги эр-хотинлар ўта бахтли ҳам, ўта бахтсиз ҳам бўлмайдилар. Лекин биргаликдаги ҳаёт туфайли эр-хотин ўртасида бир-бирларига мослашиш, бир-бирини тушуниш, бир-бирига нисбатан меҳр-оқибат юзага келиб, улар ривожланиб юқорида айтганимиздек, севги-мухаббат даражасига ўсиб етиши ҳам мумкин. Бундай ҳолатлар, шубҳасиз, бу тоифа оилаларни нафақат расмий, юридик жиҳатдан, балки эмоционал, психологик жиҳатдан ҳам турғун бўлишини таъминлайди.

Мамлакатимизда оилани мустаҳкамлашга қанчалик эътибор катта қаратилаётганига қарамадан оила қуриш ёшидаги йигит-қизларнинг оила муқаддаслиги, оила ва оилавий муносабатлар муҳим қадрият эканлигини, оилани иқтисодий, бошқарув, тарбиявий, рекреатив, релаксация, фелиоцитологик функцияларини чуқур англамасдан, номувофиқ никоҳ қуриш мотивлари асосида турмуш қуришлари замонавий бахтли оилани яратишга тўсқинлик қилмоқда.

**Адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон”, 2017, 43-бет.
2. “Ёш авлодда маънавий-ахлоқий қадриятларни шакллантириш ва оиланинг тарбиявий ва маданий-илмий салоҳиятини ошириш масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами, Термиз, 2019 й, 22-25 б.
3. Н.А.Соғинов, Ф.Х.абибуллаев “Оилани ўрганиш психодиагностикаси методикалари.” - Тошкент-1996
4. Хетфилд Э. Любовь // Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А. Ауэрбаха. – СПб.: 2003.



**Olimov Laziz Yarashovich**

*Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti*

## **SUD VA TERGOV JARAYONIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

## **ХАРАКТЕРИСТИКА КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОМ И СЛЕДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование её конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компонентов судебного психолога; раскрывается их связь в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов с правовой системой.

**Ключевые слова:** судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

## **CHARACTERISTICS OF THE PSYCHOLOGIST’S COMPETENCE IN THE COURT AND INVESTIGATION PROCESS**

**Abstract.** This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

**Key words:** forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

**Kirish.** Jahonda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o‘rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo‘ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, sud psixolog ekspertlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan

bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko‘rsatmalar haqiqiylikliginiga tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo‘lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o‘ziga bora borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o‘rinlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo‘yish va hal etish imkonini beradi.

S.S.Shipshin va V.F.Engalichevlar yozganidek, sud ekspertizasi tushunchasining asosiy belgilari quyidagilar:

a) sud psixologik ekspertizaning tayyorlanishi, tayinlanishi va o‘tkazilishi maxsus huquqiy reglamentga muvofiq amalga oshiriladi, u muvofiq jarayondagi ekspertning va ekspertizani tayinlaydigan shaxsning huquq va majburiyatlarini aniqlash bilan birga, bu borada ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ning haq-huquqlarini ham aniqlaydi;

b) maxsus psixologik bilimlarni qo‘llash asosida tadqiqotni o‘tkazish;

c) isbotlar manbai mavqeiga ega bo‘lgan xulosani berish. Jinoiy ish yuritilishida ekspertizaning asosiy mazmuni, jinoyatlarning dastlabki tergov jarayoni uchun yoki sudda jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan, yangi faktlarni aniqlash maqsadida ma‘lum ma‘lumotlarni tadqiq etishdan iborat. Sud psixologik ekspertiza huquqni muhofaza qilish organlarining amaliyotida keng qo‘llaniladi. Sud ekspertizasining boshqa turlari kabi u o‘zining aniq maqsadlari va vazifalariga ega ekanligini qayd etish lozim.

Sud psixologik ekspertizasining asosiy maqsadi, yuridik psixologiya yoki amaliyotda to‘planib, ishlab chiqilgan aniq ma‘lumotlar asosida tadqiqotni o‘tkazish va tergovchi, aniqlash organi yoki sud tomonidan qo‘yilgan savollarga javob berishdan iborat bo‘ladi. Ekspert o‘zining xulosasi bilan sud va tergovchiga ish holatlarini aniqlashda, ularga yuridik baho bermay turib, yordam beradi.

V.V.Romanov ta‘kidlaganidek, “Sud psixologik ekspertizaning asosiy maqsadi sud va dastlabki tergov organlariga jinoiy ishlar bo‘yicha isbotlash predmeti tarkibiga kiruvchi psixologik mazmunga ega maxsus savollarni yanada chuqurroq tadqiq etishda yordam berish, jinoiy ishlar predmeti esa fuqarolik bahslarini isbotlash predmetining tarkibiy elementi, qonunda aks ettirilgan bir qator huquqiy tushunchalarning psixologik mazmunini tadqiq etishda ko‘maklashishdan iborat.

M.V.Kostitskiy fikricha, sud psixologik ekspertizasining maqsadi – qabul qilingan qaroriga, sodir etilgan harakatiga, ularning samaradorligiga, ifodalangan yo‘nalishiga, ularning haqiqiy va istiqbolidagi sifatiga manfaatdor bo‘lmagan holda obyektiv baho olishga zaruriyatdir; to‘qnashuv, bahs uning predmetiga obyektiv, adolatli va qat‘iy baho berish qobiliyati, psixologik bilimlar yordamida mavjud bo‘lgan masalalarni yechishdan iborat.

Sudga oid psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari o‘rganish obyekti va o‘tkazilayotgan ekspertizaning qaysi turga mansubligidan kelib chiqib belgilanadi. A.O.Ekmenchi sudga oid psixologik ekspertizasining vazifalariga: guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi va sudlanuvchilar harakatlarining psixologik motivatsiyasi; uning psixologik sabablari yuzasidan o‘zini ayblashi yoki ayblash imkoniyatini, undagi psixologik yoki fiziologik affekt mavjudligini baholash; sudlanuvchining shaxsiysifatiga va uning holat yuzasidan taqdim qilayotgan ko‘rsatmalariga psixologik tomonlariga adekvat baho berish; sodir bo‘lgan jarayondagi voyaga yetmagan ishtirokchilarning o‘ziga xos psixologiyasi kabi masalalarni kiritgan.

Yu.M.Groshova sud psixologik ekspertizasining vazifalariga, qattiq ruhiy xavotirlanishning davom etishi va og‘irligini aniqlashni, insonga noqulay omillarning uzoq va intensiv ta‘sir etish spetsifikasi va uning harakatlarida (fiziologik va psixologik) o‘zgarishlarning namoyon bo‘lishini tadqiq etish, hamda noqulay tashqi omillar natijasida, voyaga yetmagan ayblanuvchining aqliy rivojlanishidagi qoloqlikni aniqlash, ish

uchun ahamiyatli bo‘lgan hollarni voyaga yetmagan tomonidan to‘g‘ri baholash va qabul qila olishning sub‘ektiv imkoniyatini aniqlash, deb biladi.

B.Petelinning sud psixologik ekspertizasiga bag‘ishlagan bir qator asarlarida ta‘kidlashicha, sud psixologik ekspertizasining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: fiziologik affektni aniqlash; voyaga yetmaganing ruhiy xastaligi bilan emas, balki uni psixikasining shakllanish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, aqliy rivojlanish darajasini aniqlash; shaxsga xos bo‘lgan emotsional reaksiyalar shakli orqali jarayon qatnashchilari kognitiv faoliyatining individual xususiyatlarini aniqlash; ekstremal vaziyatlarda shaxs xulq-atvorini tushunish uchun shaxsning psixologik xususiyatlar majmuini baholash; ishni to‘g‘ri ko‘rib chiqish uchun ahamiyatli bo‘lgan individual psixologik xususiyatlarning umumiy psixologik xarakteristikasini berish; guvohlar va voyaga yetmaganlarning voqea va uning alohida holatlarini to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini aniqlash; voyaga yetmaganing fantaziyasi, kuchli ta‘sirilanish, bunday voyaga yetmaganlar kognitiv jarayonlarining individual xususiyatlarini aniqlash; sudlanuvchi shaxsining (psixik sog‘lom) psixik xususiyatlarini aniqlash va voyaga yetmagan tomonidan sodir etilgan qonunbuzarlikning psixologik mexanizmiga ularning ta‘siri kabilar. Shubhasiz, psixologiyaning rivojlanishi bilan psixologik ekspertiza yo‘li bilan hal etadigan vazifalar doirasi yanada kengayadi, albatta yuridik me‘yorlar belgilangan chegaralarigacha amalga oshiriladi. Bizningcha, muallifning mazkur ta‘rifida o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e‘tibor qaratadi.

Keyingi ishlarida M.M.Kochenov sud psixologik ekspertiza vakolatiga oid masalalar doirasini kengaytirib, ushbu ekspertiza quyidagilarni: ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchining qobiliyatini (individual psixologik va yosh xususiyatlarini), ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘g‘ri idrok etish va ular bo‘yicha to‘g‘ri ko‘rsatuv berish; jinsiy jinoyatlar qurbonlarining ular bilan sodir etilgan harakatlarining mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri idrok etish qobiliyati; ruhiy kasallik bilan bog‘liq bo‘lmagan aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan voyaga yetmagan sudlanuvchilarning o‘z harakatlarining ahamiyatini to‘liq anglash va ularga yo‘naltirish qobiliyati; qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etish vaqtida sub‘ektda fiziologik ta‘sir holatining mavjudligi yoki yo‘qligi (affekt); kasbiy funksiyalarni normal bajarishga to‘sqinlik qiluvchi turli xil psixik hodisalarning paydo bo‘lish ehtimoli; o‘limdan oldingi davrda odamda o‘z joniga qasd qilishga moyil bo‘lgan ruhiy holatning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashi mumkin, deb hisoblaydi. Keyinchalik, olim yuqoridagi ro‘yxatga subyektning xatti-harakatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlarning tashxisini (masalan, taklifning kuchayishi, impulsivlik, taqlid qilish, qattqlik va boshqalar); inson hatti-harakati uchun yetakchi, o‘rnatilgan motivlarning mavjudligini va shaxsni tavsiflovchi muhim psixologik holatlar sifatida aniq harakatlar uchun motivatsiyani aniqlashni qo‘shadi.

S.N.Enikolopovning fikricha, sud-psixologik ekspertiza kompetensiyasi ruhiy holatlarni (doimiy yoki uzoq davom etadigan stress; ekzistensial umidsizlik, tajovuz va boshqalar) baholashni o‘z ichiga oladi.

N.R.Osipova tahlil qilinayotgan ekspertiza vakolatiga voyaga yetmagan guvohning aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda, uning ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan voqeaning mohiyatini tushuna oladimi yoki yo‘qligini aniqlashga ishora qiladi.

Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to‘g‘risidagi yetarli darajada ma‘lumotga ega bo‘lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o‘tkazish uchun juda muhimdir.

#### NATIJARLAR

Endi bevosita sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashda V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi asosida olingan natijalar tahliliga o‘tamiz.

#### 1-jadval


Sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko‘rsatkichlari (V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi bo‘yicha)

t/r	Omillar	Ko‘rsatkichlar	uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlar n1=130			uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlar n1=130		
			soni	M	S	soni	M	S
1	Nevrotizm	quyi	26	1,27	1,90	23	1,41	1,36
		o‘rta	72	4,34	3,87	83	5,17	2,04
		yuqori	32	8,41	3,57	24	7,15	2,18
2	Psixotizm	quyi	28	1,74	1,38	18	1,32	1,45

		o'рта	68	4,19	2,60	83	5,31	1,81
		yuqori	34	7,09	2,93	29	7,52	2,23
3	Depressiya	quyi	31	1,25	3,56	26	1,43	1,29
		o'рта	73	5,41	1,86	85	5,47	2,14
		yuqori	26	8,32	3,10	19	7,65	1,16
4	Vijdonlilik	quyi	38	1,15	1,31	29	1,35	1,03
		o'рта	48	4,83	2,96	43	5,84	2,64
		yuqori	44	9,42	3,29	58	8,84	1,62
5	Turg'unlashganlik	quyi	39	1,34	1,14	29	1,37	1,23
		o'рта	64	4,18	2,34	89	5,15	1,96
		yuqori	27	8,5	3,21	12	7,72	3,08
6	Umumiy faollik	quyi	31	1,08	1,00	23	1,40	1,86
		o'рта	45	4,82	3,28	36	5,12	2,05
		yuqori	54	9,12	3,11	49	7,73	1,09
7	Tobelik	quyi	47	1,87	2,90	55	1,34	1,23
		o'рта	56	4,51	3,49	58	5,07	2,03
		yuqori	27	8,48	2,92	17	8,37	1,08
8	Muomalaga kirishimlilik	quyi	32	1,37	3,65	26	1,41	2,09
		o'рта	55	4,73	3,90	67	5,02	2,23
		yuqori	43	8,79	3,94	37	8,35	1,78
9	Estetik taassurotchanlik	quyi	49	1,8	4,03	56	1,52	1,06
		o'рта	63	5,01	3,45	48	5,24	3,02
		yuqori	38	8,59	3,62	26	8,24	1,88
10	Nazokatlilik	quyi	29	1,27	3,58	26	1,43	2,12
		o'рта	70	4,63	3,11	75	5,11	2,53
		yuqori	31	8,22	3,89	29	7,91	1,53

Izoh: quyi (1-2 ball), o'рта (3-6 ball), yuqori (7-10 ball).

M – O'rtacha arifmetik qiymat. S – Standart og'ish



**1-rasm. Sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatkichlari**

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aniqlovchi tajribada metodikaning 10 ta asosiy omillari bo'yicha quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

Nevrotizm omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 26 nafari quyi ( $M=1,27$ ;  $S=1,90$ ), 72 nafari o'рта ( $M=4,34$ ;  $S=3,87$ ), 32 nafari yuqori ( $M=8,41$ ;  $S=3,57$ ) ko'rsatkich namoyon



bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 23 nafarida quyi ( $M=1,41$ ;  $S=1,36$ ), 83 nafarida o‘rta ( $M=5,17$ ;  $S=3,87$ ), 24 nafarida yuqori ( $M=7,15$ ;  $S=2,18$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Quyi ko‘rsatkichdagi ekspertlarda xursandchilik, energiyaga boyligi bilan xarakterlanadi, o‘z kuchiga ishonadi. Faollikni yoqtiradi va tadbirlarda ishtirok etadi va qat’iyatli. Biroq, bu tez-tez olib boradigan impulsivlik bilan tavsiflanadi, va dalarni bajarishga kabilarni ko‘rishimiz mumkin. Bu omil yuzasidan o‘rta ko‘rsatkichni qo‘lga kiritgan xodmlarda juda kuchli irodali shaxs ekanligi, ammo u jiddiy qiyinchiliklar bilan to‘qnashuvda umidsizlikka tushishi, o‘z-o‘ziga ishonchini yo‘qotish ustunlik qilsada, kerak bo‘lsa, tashabbuskor va qat’iyatlilikni ko‘rsatadi. O‘zini qadrlaydi, o‘zi va da qilsa bajarishga harakat qiladi va bunga qodirligi bilan ahamiyat kasb etadi. Yuqori ball to‘plagan ekspertlar tirishqoq, vijdonli va mas’uliyatli. Juda nochor, qarorlarida o‘ziga ishonmaydi. O‘ziga xos xususiyati – o‘jarlik, ruhiy tushkunlik, ko‘ngilsizlik va xiralik. Shu bilan birga begonalashishning tashqi ko‘rinishi va noqulaylikni kuchli his qiladi.

Psixotizm omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 34 nafarida yuqori ( $M=7,09$ ;  $S=2,93$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 29 nafarida yuqori ( $M=7,52$ ;  $S=2,23$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar yuqori zo‘riqish va qo‘zhaluvchanlikni ifodalaydi. O‘zining shaxsiy nufuziga haddan ortiq g‘amxo‘r, tanqid va ogohlantirishlarni og‘riqli qabul qiladi. Egoist, o‘zidan o‘zi minnatdor bo‘lish va o‘zi haqida mulohazalash bilan ajralib turadi.

Depressiya omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 26 nafarida yuqori ( $M=8,32$ ;  $S=3,10$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 19 nafarida yuqori ( $M=7,65$ ;  $S=1,16$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar tirishqoq, vijdonli va mas’uliyatli. Juda nochor, qarorlarida o‘ziga ishonmaydi. O‘ziga xos xususiyati – o‘jarlik, ruhiy tushkunlik, ko‘ngilsizlik va xiralik. Shu bilan birga begonalashishning tashqi ko‘rinishi va noqulaylikni kuchli his qilishi bilan ajralib turadi.

Vijdonlilik omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 38 nafarida past ( $M=1,15$ ;  $S=1,31$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 29 nafarida past ( $M=1,35$ ;  $S=1,03$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar odatda hamma narsaga yengil qaraydi, beparvo va ma’uliyatsiz. Ko‘pincha o‘z vazifalarini bajarishga e’tiborsiz, qonunlar va ma’naviy normalarga rioya qilmaslik bilan ajralib turadi.

Turg‘unlashganlik omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 27 nafarida yuqori ( $M=8,50$ ;  $S=3,21$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 12 nafarida yuqori ( $M=7,72$ ;  $S=3,08$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar impulsiv va cheklovsiz, o‘zini ushlab tutolmaydi yoki istamaydi, o‘z istaklarini qondirishga harakat qiladi.

Umumiy faoliyat omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 31 nafarida past ( $M=1,08$ ;  $S=1,00$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 23 nafarida past ( $M=1,40$ ;  $S=1,86$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar passiv, tashabbuskor emas, yetarli energiyaga ega emas. U sekinlik bilan (nutqda, harakatlarda) va kam harakatligi bilan ajralib turadi. Ular o‘tirib ishlaydigan ishlarni va monoton ishlarni afzal ko‘radi. Yutuqlar va muvaffaqiyatlarga intilish mavjud emas. Ko‘pincha ishda qo‘shimcha mas’uliyatlardan qochadi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsa ham, uni boshqa odamlarning yelkasiga yuklab qo‘yadi.

Tobelik omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 27 nafarida yuqori ( $M=8,48$ ;  $S=2,92$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 17 nafarida yuqori ( $M=8,37$ ;  $S=1,08$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar uyatchan, kutilmagan vaziyatlardan qochadi. Kutilmagan tadbirlarda o‘zini noqulay his qiladi. Muloqotda kam gap va uyatchan, odatda e’tiborni tortmaydi va hech narsaga aralashmaydi. Tanishlari va do‘stlari doirasi tor bo‘lishini afzal ko‘radi.

Muloqotmandlik omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 32 nafarida past ( $M=1,37$ ;  $S=3,65$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 26 nafarida past ( $M=1,41$ ;  $S=2,09$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar odamlar bilan hissiy jihatdan yaqinlashishdan qochadi.

Estetik taassurotchanlik omili bo‘yicha uch yillik ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 38 nafarida yuqori ( $M=8,59$ ;  $S=3,62$ ) ko‘rsatkich namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan ekspertlarning 26 nafarida yuqori ( $M=8,24$ ;  $S=1,88$ ) ko‘rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar tasavvuri boy, fantaziyasi kuchli, samimiy hissiyotlarni yoqtiradi. Harakatlarida mas’uliyat hissi yo‘q va qarorlarida reallik va aqlli idrok bilan qaramaydi, mantiq va voqealarni hisobga olishdan ko‘ra ko‘proq o‘z hissiyotlariga ishonadi.

Nazokatlilik omili bo'yicha uch yillik ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 31 nafarida yuqori ( $M=8,22$ ;  $S=3,89$ ) ko'rsatkich namoyon bo'lgan bo'lsa, uch yildan ortiq ish stajga ega bo'lgan ekspertlarning 29 nafarida yuqori ( $M=7,91$ ;  $S=1,53$ ) ko'rsatkichni namoyon qildi. Bunday ekspertlar sezgir, qayg'uga chidamli, muloyim, egiluvchan, soddaligi bilan xarakterlanadi. U fantaziya va estetik maqsadlariga erishishga intililadi. Ko'pincha shaxsiy muammolar bilan band bo'ladi, o'zini o'zi tahlil va tanqid qilishga moyil.

**Xulosa.** Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o'quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta'sirchan mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

2. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo'yicha o'quv modulini amalda qo'llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo'lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o'ziga xos tarzda o'zgarganligini ko'rsatadi. O'quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo'llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo'yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

4. Sud psixologik ekspertisasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar:

1. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
2. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
3. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhitmisch-psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O'quv qo'llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Mehribian A. An analysis of personality theories. – Englewood Cliffs. N.J.: Prentice – Hall, 2004. – p. 240.
7. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
8. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
9. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
10. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions // Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. – P. 229-257.
11. Pratt L.A. Ford D.E., Crum R.M., et al. Depression, psychotropic medication, and risk of myocardial infraction: prospective data from Baltimore ECA follow-up. Circulation 1996; 94:3123-3129.
12. Reynolds C.K., Gutkin T.B. School Psychology: Essentials of theory and Practice – IV.V., 1984.
13. Satir V. The new peoplemaking. – California: Science and Behavior Books, Inc., Mountain View, 2003. - 400 p.

**Таирова Мадинабону Бахтияровна**

Андижон давлат педагогика институти доцент в.б., п.ф.ф.д. (PhD)

### **БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРНИ ФАСИЛИТАТОР СИФАТИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МАВЖУД ҲОЛАТИ ВА ДАСТЛАБКИ ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИ ТАҲЛИЛИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада бўлажак тарбиячиларни фасилитатор сифатида касбий фаолиятларини ривожлантиришнинг мавжуд ҳолати ва дастлабки тажриба-синов ишлари таҳлили шунингдек, талабаларда касбий компетенцияси қай даража шаклланганлиги;

- талабаларда касбга оид кўникмаларни ифода этувчи топшириқларни бажаришга бўлган муносабатининг шаклланган даражаси;

- талабаларнинг берилган топшириқларни бажаришида ёндашиши;

- гуруҳ ёки жамоадошлари олдидаги касбий педагогик компетенцияни ҳис қилиши;

- жамиятда юз бераётган жараёнларга ўрганиши ва таҳлил қилиши каби муаммолар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** бўлажак тарбиячи, фасилитатор сифатида, касбга тайёрлаш, касбий компетенция, ривожлантириш, такомиллаштириш, негарорук, мяммо, долзарб, мактабгача таълим, аҳамияти, таълим ва тарбия жараёни.

### **АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В КАЧЕСТВЕ ФАСИЛИТАТОРОВ И АНАЛИЗ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ РАБОТ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается текущее состояние развития профессиональной деятельности будущих педагогов в качестве фасилитаторов и анализ начального этапа опытно-экспериментальных работ, а также степень, в которой у студентов формируется профессиональная компетентность;

- сформированный уровень отношения учащихся к выполнению заданий, выражающих навыки, относящиеся к профессии;

- подход учащихся к выполнению поставленных задач;

- профессиональная педагогическая компетенция перед группой или товарищами по команде;

- были подняты такие проблемы, как изучение и анализ процессов, происходящих в обществе.

**Ключевые слова:** будущий воспитатель, фасилитатор, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, развитие, совершенствование, актуальность, дошкольное образование, значимость, процесс обучения и воспитания.

### **ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITIES DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS AS FACILITATORS AND THE ANALYSIS OF PREDOCTORAL EXPERIMENTAL CASES**

**Abstract.** In this article, the current state of professional development of future educators as facilitators and the analysis of previous experimental work, as well as the level of professional competence formed in students;

- the formed level of attitude of students to perform tasks that express the skills related to KACB;

- students' approach to completing assigned tasks;

- demonstrate professional pedagogical competence in front of the group or teammates;

- problems such as study and analysis of the processes taking place in the society are mentioned.

**Keywords:** future educator, as a facilitator, professional preparation, professional competence, development, improvement, current, preschool education, importance, educational process.

**Қириш.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида", 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон "Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги фармонлари, 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон "Педагогик таълим соҳасини янада

ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда бўлажак тарбиячиларда касбий компетенцияларини ривожлантиришнинг мавжуд ҳолати ва дастлабки тажриба-синов ишлари таҳлили келтириб ўтилган муайян даражада хизмат қилади.

**Асосий қисм.** Олий педагогик таълим тизимида бўлажак тарбиячиларни тайёрлаш жараёнида касбий компетенцияларини ривожлантириш бўйича методик ишларнинг йўлга қўйилганлигини таҳлил қилиш мақсадида дастлабки тажриба-синов ишлари олиб борилди. Андижон давлат педагогика институти, Бухоро давлат университети ва Фарғона давлат университети талабалари билан ташкил қилинган тажриба-синов ишлари 4 босқичда амалга оширилди.

**1-босқичда** талабаларнинг касбий компетенцияларини ривожлантиришга рефлексив ёндашув сифатида қаралаётгани таҳлил қилинди.

**2-босқичда** олий педагогик таълим муассасалари педагоглари билан сўровнома ўтказилди. Сўровномалар қуйидаги йўналишларда олиб борилди:

1) таълим муассасаси битирувчиларининг касбий тайёргарлик сифатлари ҳақида қай даражада тушунчага эга эканини аниқлаш;

2) олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари машғулотлар жараёнида бўлажак тарбиячиларда касбий компетенциясини ривожлантириш қай даражада эътибор қаратишини аниқлаш;

3) меҳнат бозорида битирувчиларга ва иш берувчилар талабалари ўрганилди;

4) профессор-ўқитувчиларнинг модулга оид мавзуларни ўқитиш жараёнида бўлажак тарбиячиларда касбий компетенциясини ривожлантиришдаги билимлари таҳлил қила олишларини ўрганиш;

5) ҳар бир машғулотлар давомида интерфаол усулларга асосланиб, талабаларда касбий компетенциясини оширишга йўналтирилган таълимий топшириқлардан фойдаланиш ҳолатини аниқлаш;

6) бўлажак тарбиячиларнинг бу йўналишдаги касбий билимларини аниқлашга қаратилган савол ва топшириқлардан фойдаланишини таҳлил қилиш;

7) Талабаларнинг касбий шаклланишида юқоридаги сифатларнинг зарурлигини қай даражада англашини баҳолашдан иборат бўлди.

**3-босқичда** бўлажак тарбиячилар иштирокида сўровномалар ўтказилди. Уларнинг мазмунида:

- талабаларда касбий компетенцияси қай даража шаклланганлиги;

- талабаларда касбга оид кўникмаларни ифода этувчи топшириқларни бажаришга бўлган муносабатининг шаклланган даражаси;

- талабаларнинг берилган топшириқларни бажаришда ёндашиши;

- гуруҳ ёки жамоадошлари олдидаги касбий педагогик компетенцияни ҳис қилиши;

- жамиятда юз бераётган жараёнларга ўрганиш ва таҳлил қилиш каби муаммолар акс этган.

**4-босқичда** олиб борилган дастлабки сўров натижалари таҳлил қилинди.

**1-босқичда педагогик олий таълим мазмунида** бўлажак тарбиячиларда касбий фаолиятини ривожлантиришга доир модуллар ёки мавзуларнинг мавжудлиги ўрганилди. Бунда малака талабалари, ўқув режалари, фан дастурлари ва ишчи дастурлар таҳлил қилинди. Олий таълим давлат таълим стандартида кадрлар тайёрлаш сифатини оширишда бакалаврият таълим йўналишлари учун ўқув режалар ва ўқув дастурлар кредит-модуль тизими ҳамда рейтинг баҳолаш тизими ишлаб чиқилган [2].

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил 25 августдаги 744-сонли буйруғи билан тасдиқланган фан дастурига мувофиқ бакалавриятнинг 60110200 – Мактабгача таълим таълим йўналиши учун “Мактабгача таълимда компрогностик педагогика” фанининг ишчи ўқув дастури ишлаб чиқилди [1]. Ўқув дастури мазмунидаги модулларда ушбу фаннинг илмий-назарий асослари билан бирга бўлажак касб эгаларининг шахсий ва касбий сифатлари, педагогик қобилият, талаблар, умуман олганда, бўлажак тарбиячи профессиограммаси кенг баён этилган. Касбий компетенция ривожлантиришга оид кўрсатмалар яққол тасвирланган бўлса-да, профессор-ўқитувчилар томонидан амалиётда талабаларда касбий компетенция ривожлантириш билан боғлиқ бўлган вазифаларга етарли даражада эътибор қаратилмапти.

Шунингдек, тақлиф-тавсияларимизга асосан, 60110200 – Мактабгача таълим йўналиши 1-босқич бакалавр талабалари учун “Методика фанларни ўқитиш технологияси” фанидан дарсликнинг 2-мавзуси “Мактабгача таълим йўналиши бўйича методика фанларидан ўқув методик комплекслар тайёрлаш” билан бойитилди [4].

**2-босқичда** олий педагогик таълим муассасалари педагоглари билан сўровнома ўтказилди. Сўровномалар қуйидаги йўналишларда олиб борилди:

1) таълим муассасаси битирувчиларининг касбий тайёргарлик сифатлари ҳақида қай даражада тушунчага эга эканини аниқлаш;

2) олий таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари машғулотлар жараёнида бўлажак тарбиячиларда касбий компетенциясини ривожлантириш қай даражада эътибор қаратишини аниқлаш;

3) меҳнат бозорида битирувчиларга ва иш берувчилар талаблари ўрганилди;

4) профессор-ўқитувчиларнинг модулга оид мавзуларни ўқитиш жараёнида бўлажак тарбиячиларда касбий компетенциясини ривожлантириш даги билимлари таҳлил қила олишларини ўрганиш;

5) ҳар бир машғулотлар давомида интерфаол усулларга асосланиб, талабаларда касбий компетенциясини оширишга йўналтирилган таълимий топшириқлардан фойдаланиш ҳолатини аниқлаш;

6) бўлажак тарбиячиларнинг бу йўналишдаги касбий билимларини аниқлашга қаратилган савол ва топшириқлардан фойдаланишини таҳлил қилиш;

7) Талабаларнинг касбий шаклланишида юқоридаги сифатларнинг зарурлигини қай даражада англашини баҳолашдан иборат бўлди.

**3-босқичда** бўлажак тарбиячилар иштирокида сўровномалар ўтказилди. Уларнинг мазмунида:

- талабаларда касбий компетенцияси қай даража шаклланганлиги;

- талабаларда касбга оид кўникмаларни ифода этувчи топшириқларни бажаришга бўлган муносабатининг шаклланган даражаси;

- талабаларнинг берилган топшириқларни бажаришда ёндашиши;

- гуруҳ ёки жамоадошлари олдидаги касбий педагогик компетенцияни ҳис қилиши;

- жамиятда юз бераётган жараёнларга ўрганиш ва таҳлил қилиш каби муаммолар акс этган.

**4-босқичда** олиб борилган дастлабки сўров натижалари таҳлил қилинди.

**1-босқичда педагогик олий таълим мазмунида** бўлажак тарбиячиларда касбий фаолиятини ривожлантиришга доир модуллар ёки мавзуларнинг мавжудлиги ўрганилди. Бунда малака талаблари, ўқув режалари, фан дастурлари ва ишчи дастурлар таҳлил қилинди. Олий таълим давлат таълим стандартида кадрлар тайёрлаш сифатини оширишда бакалаврият таълим йўналишлари учун ўқув режалар ва ўқув дастурлар кредит-модуль тизими ҳамда рейтинг баҳолаш тизими ишлаб чиқилган [2].

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил 25 августдаги 744-сонли буйруғи билан тасдиқланган фан дастурига мувофиқ бакалавриятнинг 60110200 –Мақтабгача таълим таълим йўналиши учун “Мақтабгача таълимда компрогностик педагогика” фанининг ишчи ўқув дастури ишлаб чиқилди[1]. Ўқув дастури мазмунидаги модулларда ушбу фаннинг илмий-назарий асослари билан бирга бўлажак касб эгаларининг шахсий ва касбий сифатлари, педагогик қобилият, талаблар, умуман олганда, бўлажак тарбиячи профессиограммаси кенг баён этилган. Касбий компетенция ривожлантиришга оид кўрсатмалар яққол тасвирланган бўлса-да, профессор-ўқитувчилар томонидан амалиётда талабаларда касбий компетенция ривожлантириш билан боғлиқ бўлган вазифаларга етарли даражада эътибор қаратилмаяпти.

Шунингдек, таклиф-тавсияларимизга асосан, 60110200 – Мақтабгача таълим йўналиши 1-босқич бакалавр талабалари учун “Методика фанларни ўқитиш технологияси” фанидан дарсликнинг 2-мавзуси “Мақтабгача таълим йўналиши бўйича методика фанларидан ўқув методик комплекслар тайёрлаш” билан бойитилди [4].

**2-босқичда** тажриба-синов объектлари танланиб, жараёнга жалб қилинадиган респондентлар аниқлаб олинди. Дастлабки тажриба-синов ишлари учун тайёрланган сўровномаларнинг электрон ва қоғоз варианты ҳамда мобил илова орқали сўров-анкета (ананимний опрос) си тайёрланди.

Дастлабки тажриба-синов ишлари Андижон давлат педагогика институти Мақтабгача таълим йўналиши талабалари касбий фаолиятларини шакллантириш даражасини аниқлаштириш билан амалга оширилди ва муаммо юзасидан мавжуд ҳолатни ўрганишга йўналтирилган сўровномалар тақдим этилди:

Бўлажак тарбиячилар учун сўровнома уч вариантдан иборат саволлар тузилди.

Анкета саволлари асосий компетенциянинг олти йўналишини акс эттиради:

1 шахсий ва касбий фазилятлар.

2 педагогик фаолиятнинг мақсад ва вазифаларини белгилаш.

3 ўқув фаолияти учун мотивация.

4 ахборот компетенцияси.

5 педагогик фаолият дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда уни дастурларни қабул қилиш компетенцияси

6 ўқув фаолиятини ташкил этиш компетенцияси кабилар

Бўлажак тарбиячиларнинг сўровномалари натижаларини қайта ишлаш даражани аниқлашни

- юқори (ҳа),
- асосий компетенцияларни танқидий (қисман),
- паст (йўқ) ўз ичига олади:

**3-босқичда** Профессор-ўқитувчиларга берилган саволларга жавоблар олинди.

Ҳар иккала анкета сўровномалар таҳлил натижалари умумлаштирилган ҳолда фоиз ҳисобида берилди.

Биринчи саволга жавоблардан 54 % талаба келгусидаги педагогик фаолият учун кучингизга ишончи йўқлиги ва шу каби ҳолатларда, 46% талабани эса, ишончи комил эканлиги аниқланди.

Бу вазият жиддий экани, бўлажак тарбиячи сифатида педагогик фаолиятини янада шакллантиришга алоҳида эътибор берилиши кераклигидан далолат беради. Шунинг ўзи ҳам биз томондан танланган мавзунинг аҳамиятлилигини кўрсатади. Ўз касбига моҳирона тушунмаган, касбий фаолиятга мослашмаган кадрнинг ҳар қандай фаолияти, албатта, самарасиз бўлади. Бўлажак тарбиячида ўз касби компетенцияси шаклланмаган экан, демак, у эртанги фаолиятида таълим олувчиларга етарли таъсир кўрсатолмайди. Бугунги кунда тарбиячилик касбига оид малака талабларида педагогларнинг касбий кўникмалари бўлишларига алоҳида урғу берилмоқда. Юқорида келтириб ўтилган илк саволнинг ўзидаёқ олинган жавоблар ушбу мавзунинг долзарблигини кўрсатди.

Кейинги саволномада “Талабаларга берилаётган билим, ўқитиш жараёнлари шароитлардан қониқасизми?” деган саволга 41 % талаба “ҳа”, 38 % и –“қисман”, 21% эса “йўқ” деб жавоб берган. “Қисман” ва “йўқ” деб жавоб берган талабалар нисбатан кўп бўлгани сабабли, улар билан алоҳида суҳбат олиб борилди. “ўқув жараёнинг айнан қайси жиҳати сизни қониқтирмапти” деган қўшимча савол билан мурожаат қилинди. Талабалар ўзи учун керакли ёндашувни ҳис қилмаётгани, бўлажак тарбиячиларнинг дарс ўтиш ҳолати уларни қониқтирмаслиги, ахборот-ресурс маркази фаолиятининг яхши йўлга қўйилмагани, тьюторлик фаолиятининг суёт ташкил этилгани, онлайн-дарс ташкил қилинишида мавжуд муаммолар кабиларни айтиб ўтди.

Эътибор қаратадиган бўлсак, бу ерда талабаларнинг 21 %и профессор-ўқитувчиларни салбий баҳоламоқда. Талабанинг назарида фан ўқитувчиси юқори компетенцияга эга бўлмаслиги, ўзи танлаган касбидан қониқмаслиги, қизиқишларининг сусайишига сабаб бўлиши мумкин. Бундан кўринадики, олий таълим муассасасининг нафақат талабаси, балки профессор- ўқитувчисининг ҳам касбий компетенцияси устида мунтазам ишлашга эҳтиёж туғилмоқда.

Замонавий тарбиячи борасида берилган саволга талабаларнинг аксарият қисми хорижий тилни билиш, тарбиячи учун зарур бўлган ахборот-коммуникация технологияларини яхши билиши ва фойдалана олиши, каби жавобларни бердилар. Бироқ инноватор яъни янгилик яратиш қобилиятининг мавжудлиги, касбий муҳим компетенцияларни ўзлаштирганлиги ва касбга оид барча фанларни билиши, маданиятли ва эстетик дид соҳиби бўлиши деган жавоблар келтирилмади. Айрим талабалар берган “касбини севиши” деган жавоблар доирасида мана шу тушунчанинг борлиги аниқланди.

"Ахборот базасини яратиш учун ўз-ўзини баҳолаш кўникмаларидан қандай фойдаланишни биласизми фаолият?" деган саволга талабаларнинг аксарияти эркинликка устуворлик берган. Улар "31% талаба, ҳа дея билишини жавоблари орқали билдирган. Шунингдек, 33% талаба "йўқ" билдирган. 36% талаба тўла билиб олиш учун қизиқиш билдирган.

Талаба фикрларига аниқлик киритиш учун тўлдирувчи саволлар билан мурожаат қилдик. “Сиз берган жавобларнинг қайси бири компетенцияни изоҳлайди?”. Талабаларнинг катта қисми “ҳамма жавобларда педагогик компетенция бор-ку”, деган фикрни билдирди.

Биз берган саволларга талабаларнинг жавобида “педагогик компетенция”га бирорта тўлалигича, алоҳида таъриф берилмади.

“Педагогик компетенциясини” қандай тушунаси? Юқоридаги саволларга берилган жавобларнинг таҳлиliga боғлиқ равишда мана шу саволда ҳам ўқитувчининг ўз касбига виждонан ёндашуви, бурчига садоқати ва яна аввалги жавоб вариантлари такрорланди.

Талабаларнинг 37%и “Мен болаларни севаман. Уларга таълим-тарбия бериб, Ватанимиз ривожига ҳисса қўшаман”, - деб жавоб берган. Булар юқоридаги саволларга фаол жавоб бераётган талабалар экани ҳам аниқланди. Уларнинг 18% и педагогик компетенция га атрофлича таъриф

беришга ҳаракат қилган, 34% талабада умумий тушунча бор, бироқ улар тўлалигича педагогик компетенция ни ёритиб беришга хизмат қилмайди. Қолган талабалар эса бу тушунчага умуман тўхталмаган.

34% талаба “Тарбиячилар юқори билим эгаси бўлиши, фанини яхши билиши, қизиқарли дарс машғулотлар ўтиши, ҳаммага ўрнатилган бўлиши, тарбияланувчиларни қўллаб-қувватлаши, доим уларга ғамхўр бўлиши кераклиги” каби жавоблар орқали педагогик компетенцияни ифода этган.

Жавобларни умумлаштирганимизда 14% талаба “юқоридагилар жамланиб педагогик компетенция ни белгилайди”, деган жавобни ёзган.

Қолган талабалар эса, “Педагогик компетенцияга эга кадр бўлиши керак, акс ҳолда зиммасига юклатилган вазифаларни тўлалигича бажара олмайди, таълим-тарбия жараёнида камчиликларга йўл қўяди, болалар билан тил топиша олмайди. Педагогик компетенция – бу тарбиячининг ўз бурчига садоқати” каби типик жавобларни такрорий равишда яна ёзган.

Педагогик компетенциянинг касбий фаолиятдаги аҳамиятини Андижон давлат педагогика институти респондентларининг 18 фоизи жуда юқори баҳолаган бўлса, 35 фоизи “унинг кераклиги” ҳақида фикр билдирган, 57 фоиз талаба эса педагогик компетенцияни касбий фаолиятнинг умумий жиҳатларидан бири сифатида баҳолаган. Бундан кўринадики, талабалар педагогик компетенциянинг мазмун-моҳиятини тўлалигича тушунмайди.

Навбатдаги “Ўзингизда педагогик компетенция ва касбий жавобгарликка оид билимлар қай даражада шаклланган, деб ўйлайсиз?” - деган саволга талабаларнинг аксарияти, “мен ўзимни педагогик компетенцияга эга деб биламан”, дея жавоб берган.

Ушбу талабаларга қуйидаги саволлар билан такрор муурожаат қилинди:

1. Педагогик компетенция нима?
2. Ўзингизни маҳоратли педагог-тарбиячи дея оласизми?
3. Педагогик компетенцияга оид сифатларга мисоллар келтиринг.

Этиборлиси шундаки, талабаларнинг педагогик компетенцияни қанчалик тушунишини таҳлил қилиш мақсадида бир-бирига яқин, педагогик компетенция мазмунига оид саволлар билан муурожаат қилинганда, улар қуйидаги жавоблар билан чегараланишди:

- педагогик касбини севиш;
- тарбиячиларни ардоқлаш;
- машғулотлар ўтишга тайёр бўлиш;
- ўз устида ишлаш ва бир жойда қотиб қолмаслик;
- ўз фанига доир назарий маълумотларни пухта эгаллаш;
- уйга берилган вазифаларни бажариш;
- одобли бўлиш;
- устозлар томонидан қўйилган талабларни бажариш.

Бухоро давлат университети талабаларидан 151 нафари тадқиқот жараёнига жалб қилинди. Улардан 11%и педагогик компетенция даражаси ҳақидаги саволга “юқори”, 41 %и “ўрта” ва 48%и “жавоб беришга қийналанган”, деган жавобни ёзган.

Фарғона давлат университетининг жараёнда қатнашган 151 нафар талабасидан 12%и ўз педагогик компетенция ини “юқори”, 45%и “ўрта” баҳолаган ва 43% “педагогик компетенцияга эга эмасман” деган жавобни беришган.

Кўриниб турибдики, ўрганувчи томонидан бўлажак тарбиячилар билан педагогик компетенциянинг касбий компонент сифатида мазмун ва моҳияти тадқиқот давомида ўрганилиб, таҳлил қилиниб, кейин улардан бу тушунчани баҳолашни сўраш кераклиги аниқланди. Чунки талабалар педагогик компетенциянинг касбий зарурий сифатлардан бири экани ва уни педагогик жараёндаги аҳамиятини тўлиқ билмайди.

Барча олий таълим муассасаларидан олинган жавоблар ўрганилганда, улар ўртасидаги тафовут – Фарғона давлат университети талабалари томонидан билдирилган фикрлар таҳлилига кўра, уларнинг ушбу тушунча ҳақида тасаввурга эга эканликлари аниқланди. Бунинг сабаби ўрганилганда айрим талабаларнинг маълум муддат педагогик фаолият юритгани, айримларининг оилаларида педагог-тарбиячилик касби билан шуғилланувчи инсонлар борлиги аниқланди.

“Таълим берувчининг педагогик компетенцияга эга бўлиши таълим олувчиларда бу сифатнинг шаклланишига қай даражада таъсир кўрсатади?” деган саволга 64 фоиз талаба фақат таълим берувчига боғлиқ, деган фикр билдирган, 27 фоиз респондентлар томонидан билдирилган типик жавобларда: тарбиячининг таъсири мавжудлиги; инсоннинг ўзига, педагогик касбини севишига;

дунёқараш ва касбга йўналтирувчи шахсига боғлиқ эканини айтган. 9 фоиз талаба эса “таълим олувчиларнинг ўзига боғлиқ” деган жавобни берган.

“Тарбиячининг жамият олдидаги педагогик компетенциясини қандай тушунасиз?”, деган савол талабаларнинг умумий дунёқарашини баҳолаш имконини берди. Талабалар эртанги кунда жамият учун керакли кадр бўлиб етишиш зарурлигини тушуниб етди. Талабаларнинг 22 фоизи мактабгача таълим ташкилоти тарбиячисининг жамият олдидаги педагогик компетенция “у ўқитган ўқувчисининг олий таълимга қириши”да деса, 33 фоиз талаба “олий таълим ўқитувчисининг педагогик компетенция яхши кадр етиштириши”да деган. Талабалар орасида Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг мактабгача таълим ташкилотлари ҳақида фикрини келтирган талабалар ҳам бор. Кўринадики, тарбиячилик касби жамият учун муҳимлиги эътироф этилган. “Педагогик фаолият юқори, муҳим” каби типик жавоблар 31 фоизини ташкил қилган. Талабалар томонидан тўлдирилмаган, изоҳ берилмаган жавоб варақаларини ҳам учратдик. Фақат 13 фоиз талабагина педагогик компетенцияга тўғри ёндашган, таҳлил қила олган. Берилган саволларга умуман муносабат билдирмаган талабалар ҳам учраган.

1-жадвал.

## ОТМлардан тажриба-синовда қатнашган талабалар сони

Т.р.	Олий таълим муассасаси	Талабалар сони	
		Тажриба гуруҳи	Назорат гуруҳи
1.	Андижон давлат педагогика институти	75	78
2.	Фарғона давлат университети	77	76
3.	Бухоро давлат университети	76	77
Жами		228	231

2-жадвал.

## Бўлажак тарбиячиларда фасилитатор сифатида касбий фаолиятни такомиллашганлик даражалари (дастлабки босқич)

ОТМ		Андижон давлат педагогика институти		Фарғона давлат университети		Бухоро давлат университети		Жами	
Тажриба гуруҳи	сони	75	100%	77	100%	76	100%	228	100%
	юқори	5	6,7%	6	7,8%	5	6,6%	6	7,0%
	ўртача	22	29,3%	23	29,9%	25	32,9%	70	30,7%
	паст	48	64,0%	48	62,3%	46	60,5%	142	62,3%
Назорат гуруҳи	сони	78	100%	76	100%	77	100%	231	156
	юқори	6	7,7%	6	7,9%	6	7,8%	18	7,8%
	ўртача	22	8,2%	22	28,9%	24	31,2%	68	29,4%
	паст	50	64,1%	48	63,2%	47	61,0%	145	62,8%

Ушбу натижалар қуйидаги жадвал кўринишига эга бўлди (3-жадвал).



Т.р.	Мезонлар	Тажриба гуруҳи (228 нафар респондент)						Назорат гуруҳи (231 нафар респондент)					
		юқори		ўртача		паст		юқори		ўртача		паст	
		Т.б.	Т.о.	Т.б.	Т.о.	Т.б.	Т.о.	Т.б.	Т.о.	Т.б.	Т.о.	Т.б.	Т.о.
1	Касб танлашга онгли муносабат	21	101	143	110	64	17	44	44	108	104	79	83
2	Ўқув дидактик фаолиятини шаклланди	25	95	143	114	60	18	40	41	112	108	79	82
3	Касбий-психологик тайёргарлик даражаси	24	98	143	110	61	20	43	47	113	109	75	75
4	Касбий- методик тайёргарлик даражаси	22	97	145	114	61	17	41	42	107	103	83	86
5	Ўзини ўзи баҳолаш	20	98	145	115	63	15	40	46	109	106	79	79
6	Ўзини ўзи намоён қила олиши, нутқи	26	99	139	109	63	20	44	44	111	107	76	80
7	Хуқуқий саводхонлик	22	96	145	113	61	18	41	43	108	106	82	82
8	Касбий маҳорат ва касбий маҳорат	24	100	141	111	63	17	43	45	112	105	74	81
	Умумий ўртача	23	<b>98</b>	143	<b>112</b>	62	<b>18</b>	42	<b>44</b>	110	<b>106</b>	79	<b>81</b>

Изоҳ: Т.б. – тажриба бошида, Т.о. – тажриба охирида.

Юқоридаги сўровнома саволларига берилган жавобларни умумлаштирган ҳолда қуйидаги хулосаларга келдик: аксарият талабалар педагогик компетенцияни “виждонлилик”, “касбни севиш”, “уни ардоқлаш”, “жавобгарликни ҳис қилиш” кабилар билан боғлиқ тарзда тушунади. Улар “педагогик компетенция” тушунчасини педагогик ва психологик жиҳатдан тавсифга эга тушунча сифатида англамаётганликлари аниқланди. Келгуси боб доирасида айнан талабаларда тарбиячилик касбий фаолиятига педагогик компетенция узлуксиз таълим тизимида педагогик жараёни самарали ташкил этишда энг муҳим омил эканини ҳисобга олган ҳолда, кейинги босқичдаги тадқиқот ишларини олиб бордик.

Тажриба-синов жараёнини ташкил этиш даврида ўтказилган сўровнома натижалари умумлаштирилганида педагогика олий таълим муассасаларида талабаларда педагогик компетенциянинг шаклланди даражаси 54,8% ни ташкил этди. Натижада, бўлажак касб эгаларида компетентликнинг муҳим таркибий қисми бўлган педагогик компетенция ҳиссини ошириш учун олий таълимда мутахассислик модулларини ўқитиш жараёнига устуворлик бериш кераклигини аниқладик.

Олий таълимда педагоглар тайёрлаш тажрибасини ўрганиш ҳамда адабиётларнинг назарий таҳлиliga кўра бўлажак тарбиячиларда касбий педагогик компетенциясини тарбиялаш педагогик, психологик, методик ва ижтимоий зарурат экани асосланди.

Педагогик фаолиятда компетенция касбий самарадорликни таъминловчи педагогик компонент, энг муҳим касбий сифатлардан биридир. Ҳар бир тарбиячи юзага келган муаммоларга мустақил ечим топа олиши орқали мақбул қарорлар қабул қилиши, зиммасидаги вазифаларга педагогик аниқ ва тўғри ечим билан ёндашиши, ҳамкасблари билан мақсадлар сари ҳаракат қилиши, акмеологик чўққига эришиш йўлини мустақил танлай олиши лозим. Бу борада бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга фасилитатор сифатида тайёрлашдаги мавжуд муаммоларни ҳал қилиш учун уларда педагогик компетенция даражасини ошириш ва вазифани бажаришга улардаги кўникмаларини шакллантириб бориш зарур. Таҳлиллардан шу жиҳат аён бўлдики, бўлажак тарбиячиларнинг

педагогик фаолият ва компетенциясини ҳолат ва шароитдан келиб чиқиб ўрганиш ва таҳлил қилиш мумкин.

**Адабиётлар:**

1. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил 25 августдаги 744-сонли буйруғи билан тасдиқланган 60110200 –Мақтабгача таълим таълим йўналиши учун фан дастури.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруғи. Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар. 2021 йил 19 октябрь. 35-2021-сонли. <https://lex.uz/docs/5705038>
3. Азимова З.Э. Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш. Дисс. док. пед. наук. Автореф. – Н.: 2018. –73 б
4. Tairova M. Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Т., 2023 yil. – 320 b.
5. Tairova M. Бўлажак тарбиячиларни болаларда математик тасаввурларни ривожлантириш бўйича касбий тайёрлаш жараёнларини такомиллаштириш. Монография. – Т., 2022. – 100 б.

УДК: 331.482+378/37.062.3

**Тураханов Акром Абдуллахакимович**  
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент  
Ферганского государственного университета

### **МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ФАКТОРОВ, СПОСОБСТВУЮЩИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ ВЛИЯНИЯ НЕГАТИВНОЙ ИДЕОЛОГИИ В СОЗНАНИИ КУРСАНТОВ ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ**

**Аннотация.** Вопросы, рассмотренные в статье, посвящены факторам предотвращения негативной идеологии и формированию психологической устойчивости у курсантов военного обучения. Методика изучения факторов, способствующих предотвращению влияния негативной идеологии в сознании курсантов военного обучения, представляет собой систематизированный подход к исследованию проблемы негативного влияния идеологий на молодежь, обучающуюся в военных учебных заведениях. Цель данной методики заключается в определении ключевых факторов, которые способствуют предотвращению негативных воздействий на сознание курсантов и формированию устойчивой позиции в отношении таких идеологических влияний. Методика включает следующие этапы: анализ литературы, создание опросников, проведение анализа, разработка рекомендаций, оценка эффективности.

**Ключевые слова:** военное обучение, курсант, социальная поддержка, устойчивость, формирование, ресурсы.

### **HARBIY TA'LIM KURSANTLARI ONGIDA SALBIY MAFKURA TA'SIRINING OLDINI OLISHGA YORDAM BERADIGAN OMILLARNI ANIQLASHNI O'RGANISH METODOLOGIYASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada harbiy ta'lim kursantlari ongida salbiy mafkuraning singib kirishini oldini olish va psixologik barqarorlikni shakllantirish omillariga bag'ishlangan. Harbiy ta'lim kursantlari ongida salbiy mafkuraning ta'sirini oldini olishga yordam beradigan omillarni o'rganish metodologiyasi harbiy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlarga mafkuralarning salbiy ta'siri muammosini o'rganishga tizimli yondashuvdir. Ushbu texnikaning maqsadi kursantlar ongiga salbiy ta'sirlarning oldini olishga va bunday mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan barqaror pozitsiyani shakllantirishga yordam beradigan asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: adabiyotlarni tahlil qilish, anketalar yaratish, tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqish, samaradorlikni baholash.

**Kalit so'zlar:** harbiy ta'lim, kursant, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, barqarorlik, shakllanish, resurslar.

### **THE METHODOLOGY OF STUDYING THE DETERMINATION OF FACTORS CONTRIBUTING TO THE PREVENTION OF THE INFLUENCE OF NEGATIVE IDEOLOGY IN THE MINDS OF MILITARY TRAINING CADETS**

**Abstract.** The issues discussed in the article are devoted to the factors of preventing negative ideology and the formation of psychological stability in military training cadets. The methodology of studying the factors contributing to the prevention of the influence of negative ideology in the minds of military training cadets is a systematic approach to the study of the problem of the negative influence of ideologies on young people studying in military educational institutions. The purpose of this methodology is to identify key factors that contribute to the prevention of negative effects on the consciousness of cadets and the formation of a stable position in relation to such ideological influences. The methodology includes the following stages: literature analysis, creation of questionnaires, analysis, development of recommendations, evaluation of effectiveness.

**Keywords:** military training, cadet, social support, sustainability, formation, resources.

**Введение.** Изучение и предотвращение негативной идеологии в сознании курсантов военного обучения имеет важное значение для создания высокоморальных и высокоэффективных кадров вооруженных сил. В современном мире, где информационные технологии проникают во все сферы

нашей жизни, возрастает роль и влияние различных идей и взглядов на формирование мировоззрения и поведения молодых людей.

Курсанты военных учебных заведений – это будущие лидеры и защитники своей страны, и, соответственно, их мировоззрение и ценности играют ключевую роль в формировании характера и принятии важных решений в будущем. Однако именно в этом возрасте молодые люди становятся наиболее уязвимыми перед негативными влияниями идеологий, которые могут нарушить их верность принципам, морали и высшим интересам общества.

Исследования показывают, что негативные идеологии могут проникать в сознание курсантов через различные каналы: социальные сети, медиа, окружающую обстановку, а также среди их окружения и коллег. Это могут быть идеологии экстремизма, насилия, нетерпимости, а также идеологии, призывающие к аморальным или незаконным действиям.

Методика изучения факторов, способствующих предотвращению влияния негативной идеологии в сознании курсантов военного обучения, представляет собой систематизированный подход к исследованию проблемы негативного влияния идеологий на молодежь, обучающуюся в военных учебных заведениях. Цель данной методики заключается в определении ключевых факторов, которые способствуют предотвращению негативных воздействий на сознание курсантов и формированию устойчивой позиции в отношении таких идеологических влияний. Методика включает следующие этапы: анализ литературы, создание опросников, проведение анализа, разработка рекомендаций, оценка эффективности.

**Анализ литературы** представляет собой систематическое изучение научных исследований, статей, книг, диссертаций и других источников, связанных с проблемой негативной идеологии и ее влиянием на молодежь, включая курсантов военного обучения. В процессе анализа литературы исследователи проводят обзор актуальных исследований, представляющих интерес для данной темы. Основной целью анализа является выявление общей картины и актуальных тенденций, а также идентификация ключевых факторов, которые оказывают влияние на молодежь и курсантов военного обучения.

Создание опросников или интервью, которые помогут выявить мнения и восприятие курсантов относительно различных идеологических влияний. При создании опросников или интервью для исследования мнений и восприятия курсантов относительно различных идеологических влияний, необходимо учитывать следующие аспекты:

*Цель исследования.* Определите четко цель исследования, чтобы опросник или интервью были нацелены на получение конкретных данных, соответствующих основной теме.

*Определение ключевых понятий.* При разработке вопросов убедитесь, что ключевые понятия и термины, связанные с негативной идеологией, понятны и доступны для курсантов.

*Структура вопросов.* Опросник или интервью должны быть структурированы и логично организованы. Разделите вопросы на соответствующие блоки, чтобы обеспечить последовательность и логическую связь.

*Вариативность ответов.* Предоставьте разнообразные варианты ответов, которые позволят курсантам выразить свое мнение более точно. Включите открытые вопросы для получения более глубоких и развернутых ответов.

*Нейтральность и баланс.* Формулируйте вопросы нейтрально и объективно, чтобы не внушать курсантам определенные ответы. Обеспечьте баланс между положительными и отрицательными вопросами.

*Проверка и адаптация.* Перед применением опросника или проведением интервью, протестируйте его на небольшой группе участников. Это позволит оценить понимание вопросов, четкость и ясность формулировок, а также выявить возможные недочеты или неоднозначности.

Проведение анализа данных и интерпретация результатов, выявление ключевых факторов, способствующих предотвращению негативного влияния. После сбора данных из опросника или интервью необходимо провести анализ данных и интерпретацию результатов. Этот этап позволяет выявить ключевые факторы, которые способствуют предотвращению негативного влияния идеологии в сознании курсантов военного обучения. Анализ данных может включать следующие шаги:

*Обработка данных.* Первым шагом является обработка собранных данных. Это включает в себя перевод ответов из опросника или интервью в цифровой формат, создание базы данных и устранение ошибок или пропущенных значений.

*Статистический анализ.* Для выявления паттернов и связей между переменными можно использовать статистические методы анализа, такие как корреляционный анализ, регрессионный анализ и др.

*Категоризация данных.* В некоторых случаях данные можно разделить на категории или группы для удобства анализа и сравнения.

*Визуализация данных.* Для наглядного представления результатов анализа данных можно использовать различные графические представления, такие как диаграммы, графики и т.д.

Интерпретация результатов анализа позволяет сделать выводы и выявить ключевые факторы, которые влияют на предотвращение негативного влияния идеологии в сознании курсантов. Это могут быть такие факторы, как образовательные программы, воспитательные мероприятия, личные убеждения и другие аспекты, которые способствуют формированию устойчивой и позитивной идентичности у курсантов.

Разработка рекомендаций и рекомендуемых практик для образовательных учреждений и педагогов, чтобы эффективно противостоять негативной идеологии и укрепить убеждения в сторону позитивных ценностей и нравственных принципов. Для эффективного противостояния негативной идеологии и укрепления убеждений курсантов в сторону позитивных ценностей и нравственных принципов, рекомендуется разработать следующие рекомендации и практики для образовательных учреждений и педагогов:

*Интеграция позитивных ценностей в образовательную программу.* Образовательные учреждения должны внедрить содержание, которое акцентирует на позитивных ценностях, таких как толерантность, сотрудничество, уважение к другим, ответственность и доброта.

*Пропаганда здорового образа жизни и физической активности.* Педагоги могут стимулировать интерес к здоровому образу жизни и регулярным физическим занятиям, что способствует развитию физических и волевых качеств у курсантов.

*Воспитание критического мышления.* При обучении необходимо акцентировать внимание на развитии критического мышления, чтобы курсанты могли осознанно анализировать информацию и не поддаваться негативным идеологиям.

*Формирование духовных ценностей.* Педагоги могут помочь курсантам развивать духовные ценности, такие как справедливость, милосердие, честность и духовное самосовершенствование.

*Поддержка позитивного социального окружения.* Создание поддерживающей атмосферы в образовательном учреждении, где курсанты чувствуют себя комфортно и уважаемы, способствует укреплению позитивных ценностей и предотвращению негативного влияния.

*Организация дискуссий и диалогов.* Проведение открытых дискуссий и диалогов на актуальные темы позволяет учащимся высказывать свои мнения, а также развивать критическое мышление и умение обосновывать свои взгляды.

*Привлечение специалистов.* Образовательные учреждения могут приглашать специалистов из различных областей, которые будут рассказывать о важности позитивных ценностей и их роли в развитии личности.

*Поддержка педагогов.* Педагоги должны получать необходимую поддержку и обучение для эффективной работы с курсантами в противостоянии негативной идеологии и воспитании позитивных ценностей.

Разработка и внедрение указанных рекомендаций и практик помогут образовательным учреждениям и педагогам успешно противостоять негативной идеологии и способствовать формированию у курсантов стойкой и позитивной жизненной позиции.

Оценка эффективности предложенных мер и, при необходимости, корректировка методики для дальнейшего улучшения результатов. Оценка эффективности является важным шагом в исследовании и практике противостояния негативной идеологии в сознании курсантов. После внедрения разработанных рекомендаций и практик, необходимо произвести оценку их результативности и их влияния на курсантов. Для оценки эффективности можно использовать следующие подходы:

*Сбор данных.* Проведите повторный опрос курсантов или интервью, чтобы собрать данные о том, какие изменения произошли в их мнениях, ценностях и нравственных принципах после внедрения рекомендаций.

*Сравнение с предыдущими результатами.* Сравните полученные данные с предыдущими результатами, полученными до внедрения рекомендаций, чтобы определить, насколько успешно они повлияли на убеждения и восприятие курсантов.

*Обратная связь от педагогов и учреждений.* Проведите обсуждения с педагогами и администрацией образовательных учреждений, чтобы получить их мнение о результативности и эффективности применения рекомендаций.

*Анализ учебных показателей.* Оцените влияние рекомендаций на учебную успеваемость и активность курсантов, чтобы определить их общую успешность.

*Использование качественных данных.* Помимо количественных данных, уделите внимание качественным результатам, таким как отзывы, мнения и личные истории курсантов, чтобы получить более полное понимание эффекта рекомендаций.

После проведения оценки эффективности, при необходимости, внесите корректировки в методику, чтобы улучшить ее результаты и адаптировать под новые вызовы и потребности курсантов. Корректировки могут быть связаны с уточнением вопросов опросника, улучшением практик, изменением подходов или реорганизацией программы обучения.

Постоянный мониторинг и анализ результатов позволят сделать методику более эффективной и соответствующей актуальным потребностям курсантов военного обучения.

**Заключение.** В заключение можно сказать, что в результате исследования по методике изучения определения факторов, способствующих предотвращению влияния негативной идеологии в сознании курсантов военного обучения, были сделаны следующие выводы:

негативная идеология может оказывать негативное влияние на сознание курсантов военного обучения, что может повлиять на их профессиональную деятельность и принятие решений;

методика изучения позволяет выявить ключевые факторы, которые способствуют предотвращению негативной идеологии в сознании курсантов. К таким факторам можно отнести профессиональное образование, ценностные ориентации, личностные характеристики и социальную поддержку;

определенные показатели, такие как уровень психологической устойчивости, убежденности в своей профессиональной идеологии, адаптивность к изменениям, могут служить индикаторами предотвращения негативной идеологии;

разработанные инструменты измерения позволяют надежно оценить и изучить данные факторы, обеспечивая точные и достоверные результаты;

важность образовательных учреждений и педагогов в формировании позитивных ценностей и нравственных принципов у будущих военных специалистов подтверждается исследованием;

результаты исследования могут быть использованы для разработки практических рекомендаций и стратегий образовательных программ, направленных на предотвращение негативной идеологии среди курсантов военного обучения.

В целом, методика изучения определения факторов, способствующих предотвращению влияния негативной идеологии в сознании курсантов военного обучения, имеет важное значение для подготовки морально и психологически устойчивых будущих военных специалистов. При применении эффективных педагогических подходов и методик, возможно обеспечить укрепление убеждений в позитивных ценностях и формирование профессионально успешных личностей, готовых служить стране на высоком уровне.

### Литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. –Тошкент: Ўзбекистон. 2018 .
2. Указ Президента Республики Узбекистан № 60 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».
3. Указ Президента Республики Узбекистан № 6097 от 29 октября 2020 года, «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года».
4. Указ Президента Республики Узбекистан № 6255 от 1 июля 2021 года «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по противодействию экстремизму и терроризму на 2021-2026 годы».
5. Постановление Президента Республики Узбекистан № 357 от 22 августа 2022 года «О мерах по поднятию на новый уровень сферы информационно-коммуникационных технологий в 2022-2023 годах».
6. Постановление Президента Республики Узбекистан № 3898 от 4 августа 2018 года «О коренном совершенствовании системы повышения духовно-просветительского уровня военнослужащих Вооружённых Сил Республики Узбекистан».

7. Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 312 от 7 июня 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения и решения проблем молодежи».
8. Постановление Президента Республики Узбекистан № 121 от 23 марта 2023 года «Об утверждении «дорожной карты» по реализации в 2023 году стратегии развития системы обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2022-2025 годы».
9. Летягин Л.И., Философия идеологии. // Монография. Екатеринбург. 2014. – С. 54.
10. Петров С.В., Социальные опасности и защита от них. // Учебное пособие. Москва. 2021. – С. 36.
11. Сироткин А.Г., Аппарат Национального антитеррористического комитета, НИЦ ФСБ России. Словарь основных терминов и понятий в области противодействия терроризму. // Москва. 2021. – С. 36..
12. Назаров В. Л., Осипчукова, Е. В., Международный опыт профилактики экстремизма. // Учебное пособие. Урал. 2015. – С. 43.
13. Маматова Я.М., Арифханова С.Н., Вопросы профилактики насильственного экстремизма: освещение в массмедиа. Учебное пособие. Ташкент. 2020. – С. 19-26.
14. Папков Б.Р., Куликов А.Л., Осокин В. Л. Киберугрозы и кибератаки. // Учебное пособие. Нижний Новгород. 2017. – С. 86-92.
15. Ашраф А., Асланова И. Радикализация и дерадикализация. // Пособие. Бишкек. 2021. – С. 27-46.
16. Белоусов А.И., Солодуха В.А. Мир электроники: Основы кибербезопасности. Стандарты, концепции, методы и средства обеспечения. // Пособие. Москва. 2021. – С. 143.
17. Мерзлякова Д.Р. Психологическая устойчивость человека в чрезвычайных ситуациях. // Пособие. Ижевск. 2014. – С. 128-129.
18. Боднар А.М. Экспериментальная психология. // Учебное пособие. Екатеринбург. 2011. – С. 167.



**Турсунов Лутфулла Сайфуллаевич**  
 Низомий номидаги Тошкент Давлат  
 Педагогика Университети психология  
 кафедраси доценти, п.ф.н.

## АБЬЮЗ ХУЛҚ-АТВОРГА КОГНИТИВ ЁНДАШУВ

**Аннотация.** Ушбу мақолада шахснинг шахслиги такомиллашувида юзага келадиган бузилишлардан бири абьюз хулққа эътибор қаратилган. Абьюз хулқ шахсликни суиистеъмол қилиши – унда бир шахс бошқа шахсга руҳан босим ( таъзиқ) ўтказишни онгли равишда, яширин ёки намоийшкорна намоён этишидир.

**Калим сўзлар:** субъект, объект, субъектлараро, абьюз хулқ, руҳий босим, генезис, когнетив, руҳий қувват, шахснинг психологик ниқоби, психологик тимсол, суиистеъмол, ҳукмронлик, миллий шовинизм, ўзлигини устун қўйиши, зўравонлик,

### КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К АБЬЮЗНОМУ ПОВЕДЕНИЮ

**Аннотация.** Данная статья посвящена одному из расстройств, возникающих в развитии личности: абьюзному поведению. Абьюзное поведение – это злоупотребление личностью, при котором сознательно, скрытно или демонстративно проявляется давления (угнетения) со стороны одного личности на другого.

**Ключевые слова:** субъект, объект, intersubjective, abusive behavior, психическое давление, генезис, когнитивная, психическая сила, психологическая маска личности, психологический образ, злоупотребление, властвование, национальный шовинизм, ставить себя на первое место, насилие.

### A COGNITIVE APPROACH TO ABUSE BEHAVIOR

**Abstract.** This article focuses on one of the disorders that occurs in personality development: abusive behavior. Abuse behavior is the abuse of a person, in which pressure (oppression) from one person on another is consciously, covertly or defiantly manifested.

**Key words:** subject, object, intersubjective, abusive behavior, mental pressure, genesis, cognitive, mental strength, psychological mask of personality, psychological image, abuse, dominance, national chauvinism, putting himself in the first place, violence.

**Кириш.** Инсоннинг ақл, идрок, тафаккур, онг ва фикри такомиллашиб боргани сари дунёнинг тузилиши, минглаб ёруғлик йили узокликдаги юлдузларни, минглаб метр уммон тубидаги яшаётган бир хужайрали жониворларни қолаверса қўшни сайёрадаги фойдали қазилмаларни ўзлаштириш йўллари топишга имкони бору аммо ёнида у билан ёнма – ён яшаб келаётган ҳамнафасини хулқ - атворини англашга ақли оқсаётганлигини тан олишининг ўзи бир катта кашфиёт десак хато бўлмайди.

Шахсни ривожланиши ва такомиллашуви, уни қуршаб турган ижтимоий муҳит ва шахслар билан мулоқатга боғлиқ бўлиши, инсоншунослик фанлари билан шуғулланувчи фанлар томонидан исботланган ўзгармас ҳақиқат саналади. Мазкур ҳолатни Э.Ф. Ғозиев ўзларининг “Онтотенез психологияси” дарсликларида қуйидагича таърифлайдилар “Муносабатлар нуктаи назаридан “субъект — объект — субъектлараро”, “субъект — субъект — объектлараро” сингари схематик ёндашувлар мавжуд бўлиб, уларнинг барча табиий — биологик ва ижтимоий (социал) шартланганлик манбаларидан келиб чиққан ҳолда таҳлил ҳамда талқин қилишга асослангандир”.

**Асосий қисм.** Айнан ана шу муносабат ва мулоқотлар асосида шахсни “мен”лиги ва психологик портретини шаклланади ҳамда унга жамият аъзолари томонидан баҳо берилади. Шахсни вазиятга нисбатан мулоқоти, фаолияти ва амалга ошираётган ҳатти – ҳаракат и орқали жамиятда ўз хулқ – атворини намоён этади. Бир хил муҳитда, бир хил тарбия ва таълим олиб, бир хил озуқа билан озиқланишига қарамай Одам Ато зурриёти феъл – атвори тулича бўлишига сабаб? Уларни бош мия ҳажми турличалиги билан бир қаторда мия бурмалардаги хужайраларини фаоллиги ҳамда ўз “мен”



лигига асосида ўзгаларни “мен”лигига муносабатини сабаб сифати таъкидлашимиз юзлаб омиллардан бири десак хато бўлмайди.

Психология фанида шахс характери гарчи бир неча турга ажратилса-да улардаги доминантлик хусусиятидан келиб чиқиб яна турларга бўлиб илмий асосда таҳлил этиш анъана сифатида давом этиб келмоқда. XX асрнинг ўрталарига келиб абъюз хулқ ҳақида катта ва кичик илмий анжуманларда баҳслар олиб борила бошланди. Абъюз хулқ ўзи қандай хулқ? Уни қандай турлари мавжуд? Абъюз хулқнинг намоён бўлиши механизмлари қандайлиги ҳақида куйида фикр алмашилишни мақсад қилиб қўйдик.

Оддий сўзлар билан айтганда, “абъюз хулқ атвор” ўзгалар шахслилигини суиистеъмол қилиш – мазкур ҳолат шахснинг руҳий ҳолатини бузилиши бўлиб, унда бир шахс бошқа шахсга руҳан босим ўтказишни онгли равишда, намоёишкорна намоён этади (баъзида унинг ўзи буни тан олмаслиги мумкин). Шахслиликни суиистеъмол қилувчи (абъюз) шахслар онгли равишда бошқа шахслардан устун туришга интиладиган, бошқаларга нисбатан руҳан ва жисмонан равишда босим остида ушлаб туришга ҳаракат қиладилар. Мазкур ҳолатни яна бир кўриниши шахсни бошқа бир шахсни устидан қулиши ва доимий калака қилишида ҳам кўриш мумкин. Бунда албатта, шахсларо муносабатларнинг марказида классик Карпман учбурчаги ётади, яъни бу “вазоят – зулм қилувчи - жабрланувчи” модели бўлиб, унда зўравонлик ролини бажарувчи ҳар доим босим қилишга интилади ва шунга мутаносиб равишда жабрланувчи томон доимо азобланади.

Шахс ривожланиши ва “мен”лигини англаш жараёнида олган руҳий жароҳати асосида абъюз хулқ-атвор юзага кела бошлайди. Мисол учун оилада ота-онага фарзандларини олдида мунтазам босим ўтказиб, уни оиладаги ҳуқуқларини поймол қилиб турса, мазкур муносабатнинг гувоҳи бўлаётган болаларда қарама - қарши жинсга нисбатан “абъюз хулқ” шаклланиб боради. Ўз навбатида отада ҳам мазкур (абъюз) хулқ - атвор ўз – ўзида пайдо бўлиб қолмаган. Шахсдаги мазкур хулқ - атвор фақат оилада эмас, балки ишлаб чиқаришда, мактабда, қариндош – уруғлар муносабатида, дўстлар билан бўладиган мулоқотда ҳам тез – тез кўзга ташланиб туради. Шу нуқтаи назардан ёндашадиган бўлсак шахс турли жамоаларда турлича ролларни бажариши мумкин баъзи жамоада босим ўтказувчи (абъюз) бўлса бошқа бир жамоада жабрланувчи ролини ўйнаши табиий ҳол ҳисобланади.

Абъюз хулқ – атворни турларига тўхталадиган бўлсак аввало оилада бўладиган руҳий босим ўтказиш ҳақида тўхталиш лозим бўлади. Оила раҳбарларининг бири – иккинчисига нисбатан ёки фарзандларга руҳий ҳамда жисмоний босим ўтказишлари тез – тез учраб туради. Бунда оила раҳбарлари томонидан бири иккинчини хохишларини чеклаш ёки оиладаги бир шахснинг фикри бошқаларникидан устун туришга интилиш, уни фикрига қарши чиқиш ёки бажарилмаслик натижасида жазоланиш ҳолатлари мавжуд бўлса, мазкур оилада тарбияланаётган ёшларда абъюз хулқ - атвор шаклланиб боради. Ана шундай оилаларда ҳатто ака – ука, опа – сингиллар ўртасида ҳам абъюз хулқ-атворни кузатиш мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, абъюз хулқ - атворли оила раҳбарини авторитар бошқаруви асосида оилада тарбияланаётган болаларда гендер муносабатида бузилишлар аста - секин юзага келади. Аксари ана шундай оиладаги болалар орасида дискуриктив хулқли болалар кўпроқ учрайди десак хато бўлмайди. Онтогенез психологияси тадқиқодларидан маълумки, дискуриктив хулқ абъюз хулқга абъюз хулқ эса ўз навбатида девиант хулқга айланиши табиий ҳол ҳисобланади.

Психология тарихида психоанализни отаси ҳисобланмиш З. Фред ва Ўзбекистон психологларини забардас вакили профессор Э. Э. Ғозиевни фикрларини муштарийлиги абъюз хулқ дастлаб дискуриктив тарзда намоён бўлиши ва у аста-секин девиант хулқ кўринишга эга бўлиши кейин эса уни юқори даражада онгсизлик ҳолатига айланишини таъкидлашади.

Аксари абъюз хулқга мойил болаларни хулқдаги ўзгаришлар мактабгача таълим муассасаларида намоён бўла бошлайди. Улар тенкурларини ўйинчоқларини тортиб оладилар бермаса уришгача этиб борадилар. Боғчада ўз айтганларини қилдиришга уринадилар. Бошланғич таълимда эса ўзларини эркин тутишга ва тенкурлари орасида тез ном қозонишга ҳаракат қиладилар, норасмий етакчига айланиб олиб синфдошларини устидан қулиш ва тазйиқ ўтказишга ҳаракат қиладилар. Юқори синфларда ўқиш жараёнида норасмий кичик гуруҳ шакллантириб, уларни ёрдамида бошқа мактабдошларига нисбатан тазйиқларни амалга оширадилар, ўзлари панада қолишга ҳаракат қиладилар.

Шахс генезисига когнитив ёндашув асосида абъюз хулқни юзага келишига бевосита ва билвосита шахснинг билиш жараёнлари такомиллашуви ва ўзлигини англаш жараёнида унга таъсир этадиган ижтимоий муҳит эканлигини таъкидлаш жоиз ҳисобланади. Боланинг кучли таъсирланиши натижасида бош мияда юзага келадиган диққатнинг доминантлик хусусияти асосида хотирадаги

образнинг тормизланиши ва идрок жараёнидаги бўрттириб идрок этиш ҳолати, тафаккур жараёнидаги анализ - синтез – умумлаштириш жараёнларини сусайтириб онгли фаолиятни йўналганлигини издан чиқариб юборишини кузатиш мумкин. Натижада хатти – ҳаракатда аниқлик йўқолиб шахс фаолиятини идрок этишида афект (ўз ҳаракат ларини идрок эта олмаслик) ҳолати юзага келади. Мазкур нотўғри фаолиятдан лаззатланишни юзага келиши билан абъюз хулқ – атвор доминантлик ролини бажара бошлайди. Шахсни ана шундай фаолиятини баҳолаш учун абъюз ҳолатларни асосий турларини билиш лозим бўлади.

Ҳамжихатликдаги фаолиятда босим ва тазйиқ асосида намоён бўладиган маънавий абъюз хулқ – атвор. Мазкур хулқ – атвор ўлжасига нисбатан маънавий таъсир этиш орқали ўлжасини ўзга жисмоний шикастланиш таҳдиди ва соғлиқка зарар етказадиган ҳақиқий маънавий зўравонликнинг бир кўриниши. Бу турдаги абъюз хулқга эътиборимизни қаратадиган бўлсак, унда маънавий зўравонлик билан бирга эркинликни чеклаш ва мулкка зарар етказиш ҳам киради. Бу жуда кенг тарқалган зўравонлик тури бўлиб, у асосан аёллар томонидан қўлланилади, бази ҳолларда эркеклар томонидан ҳам мунтазам равишда амалга оширилиб турилади. Оилада аёл етакчи бўлса ёки аёл раҳбар бўлса у томонидан ўлжасини психологик босим асосида масҳара қилиш орқали жазавага ва ҳатто ўз жонига қасд қилишга олиб келиши мумкин, чунки улар жабрланувчининг ҳолатига тушиб, уларга мунтазам рухий босимни амалга оширадилар ва шахслиликнинг суиистеъмоли ўз - ўздан содир бўлади.

Психология фанида абъюз хулқ – атворни нарцисстик турига алоҳида урғу берилади. Нарцисстик абъюз хулқли шахс бошқа шахсларни назорат қилишга интилиш билан бир қаторда уларни фикрлари, ҳиссиётлари ҳатто хулқларини ҳам назорат қилишга ҳаракат қилади. Мазкур хулқнинг асосий хусусияти ҳийла ва айёрлик билан найранг ишлатиб бошқа шахсларнинг ишончини қозониб сўнг уларга босим ўтказишдан иборат. Бундай шахслар газлайтин деб номланади.

Газлайтинлар бошқа шахсларни ўзига бўлган ишончни йўқотишга эришадилар. Аксари ҳолларда газлайтин шахсни ҳиссиётларига нисбатан босим ўтказишга ҳаракат қилиб тазйиқ остида ушлаб туришга ҳаракат қилади, агарда ўйлаган режаси амалга ошмай қолса “Мен ҳазиллашгандим, ҳазилниям тушунмайсан”, “Бунга ўйламасанг ҳам бўлади”, Айб ўзингда сал эътиборли бўлишин керак-да” каби сўзлар билан ўз ўлжасини айбдор қилади. Газлайтин хулқли шахслар сиртига сув юқтирмайдиган бўладилар, гапирган сўзларидан қайтиш ёки берган ваъдаларини инкор этиш улар учун одатий ҳол бўлиб бошқаларнинг айбини бўрттиришга ҳаракат қиладилар. Бундан ташқари миш – мишлар тарқатиш орқали ҳам ўз айбини бошқаларга осонгина тўнкаб қўяди. Бу каби шахслар аксари ҳолларда ўзларини жабрланган қилиб кўрсатиб, бошқа шахс айбдор қилиш ролини муваффақиятли амалга оширадилар.

Ижтимоий психологияда оммавий абъюз хулқ талқин қилиниб келинади ва у қуйидаги ирқий, миллий, диний ҳамда оилалараро турларига ажратилади. Жамоавий абъюз ҳолатини кўриш мумкин тарихдаги кулдорчилик жамиятида, феодал жамиятда, яқка партия ҳуқумронлик ва миллий шовинизмни илгари сурилган мамлакатларда аниқ намоён бўлиб туради. Бундан ташқари бир миллат ёки диний оқимлар ўзини олий насаб деб бошқа миллат ва динларни камситишларида ҳам кўриш мумкин.

Шахсни характерини ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлганидек абъюзликни хулқли шахсларининг асосий белгиларига қуйидагилар киради.

- Шахсий майдонга эга бўлмаслик. Агарда шахсга нисбатан босим ўтказилиб, ўзаро қўллаб-қувватлашнинг ўрнига назорат кучли бўлса ва эркинлик чегараланган бўлиб, шахслараро бир-бирини назорат юқори бўлиб, муносабатларда ҳайиқиш бўлса демак ўша ерда абъюз муносабат мавжуд. Шахснинг кадр-қимматини босим остида бўлса, умуммақсадларнинг бирлигини ҳис қилинмас, улар вақти-вақти билан бир-бирини камситиш ёки ҳақорат қилишга ҳаракат мавжуд бўлиб, шахслилик суиистеъмол қилинаётган бўлса бу жамоадаги абъюз ҳолати дейилади.

Жамоадаги абъюз ҳолати - бир нечта кичик гуруҳга бирлашган шахслар ўзларини фикрларини босим орқали жамоани бошқа аъзоларига ўтказишга ҳаракат қиладилар. Ўз фикрларини ўтказиш учун тазйиқ ўтказиш, масҳара қилиш ва лавозимларидан ҳам фойдаланиш ҳолатлари учраб туради.

- Мунтазам турли таъна-маломатлар билан босим ўтказишга ҳаракат қилиб шахс руҳиятига таъсир этувчи “сен мени ҳеч тушунмайсан”, “мен ҳақимда ўйламайсан”, “сен ўзини кимлигини билмайсан”, “сен менсиз нима ҳам қила олардинг” иборалар билан танбеҳ берувчи киши. Ўз ўлжасини онгида айбдорлик ҳиссини шакллантириб, узр сўрашга мажбур қилиши асосида шахсга нисбатан босим ўтказиш абъюз ҳолати ётади. Абъюз орқали шахс руҳиятига босим кўрсатаётган шахс ўлжасида

ўзига бўлган ишончни йўқотиб ўзларига тобе қилиб оладилар ва уни хоҳлаган кўйга солишлари мумкин, ташқаридан қараганда улар оддий ўртоқга ўхшаб кўринишади.

- Ҳамкасбини шахслилигини суиистеъмол қилиш, унинг фаолиятдан мунтазам камчиликларини бўрттириб танбеҳ бериш орқали айбини юзига солиш. Агар шеригингиз мунтазам равишда ўзингизга нисбатан хурматингизни пасайтиришга интилса, ножоиз қўпол ҳазил қилса, масҳара қилса ва камситадиган бўлса унда сизга нисбатан руҳий босим ўтказишга, сизни руҳан бошқаришга мойиллик абъюз ҳолати мавжуд.

- Шахс ўз йўлини танлаш эркинликни чеклаш: ота – она, яқинлари томонидан сеvimли машғулот ва касб – ҳунарга нисбатан тақиқлар асосида босим ўтказиш. Мазкур жараёнда шахсга ўта меҳр кўрсатилаётгандек туйиладиган аслида шахслиликни суиистеъмол қилиш бошланган ва абъюз ҳолатига ўлжа тушиб бўлган ҳисобланади. Айнан ана шундай ёшлар ўзларича бирор қарор қабул қилишлари қийин кечади. Ўзларини аниқ фикрлари бўлмагач аксари ҳолларда кимнидир фикрига суяниб қарор қабул қилишга муҳтожлик сезадилар.

- Абъюз ҳолатини энг кўп учрайдиган турларидан бири бу ҳиссий аргумчок. Бу ажойиб ишқий муносабат ёки орзуингиздаги бахтли онларни юзага келтирилиб шахсни қўлларидан олиб юрилади, бир неча кундан кейин ўзига ишонтириб юрган одам (ниятига эришгач) тўсатган ғойиб бўлади, кўнғирокларга жавоб бермаслиги, телефонни олса ҳам мулоқотда совуқ бўлиши табиий. Бу ҳолат ўз навбатида товламачилик асосида юзага келадиган абъюз ҳолати дейилади. Мазкур абъюз ҳолатни амалга оширадиган одам аксари ҳолларда ўлжасини айбдор қилиб кетиши кўп учрайди.

- Шахсда айбдорлик ҳиссини уйғотиш. Шахсга завқ бағишлайдиган ва ўзини бахтли ҳис қиладиган ҳаётнинг муҳим нарсалари ва неъматларидан воз кечишга ундаш. Шахсни ҳар доим айбдор қилиш: “сиз бундай турмаяпсиз, бундай ўтирмайсиз” ва “сизни кўлингиздан келмайди” каби мазкур ҳолат шахсда ноқулайлик ҳамда ўзини айиблашни келтириб чиқаради. Абъюз ҳолатни бошқараётган шахс муваффақиятли фаолиятдан мамнун ҳолда ўлжасини хоҳлаган кўйга юргизаверади.

Юқорида қайд этиб ўтилган абъюз ҳулқ турлари барча ёш даврларида учраши мутахассислар томонидан инкор этилмайди. Фақат шуни таъкидлаш лозимки, моҳиятига кўра намоён бўлишида қисман фарқ қилиши мумкин. Абъюз ҳулқни талқин қилган мутахассисларни таъкидлашларига кўра бундай ҳулқ онг олдида режалаштирилиб, онг остида амалга оширилади. Демак, ҳар қандай кўринишдаги абъюз ҳулқни амалга оширилишини онгли фаолият деб аташ мумкин. Аксар узоқ хориж психологлари инсониятни икки тоифага; “абъюз ҳулқли” ва “абъюз ҳулқни ўлжаси”га ажратиб келишади. Дарҳақиқат икки ўта зиёли ва ўқимишли кишилар бир хонага бир неча кунга вақт қамаб қўйилса, улардан бири бир неча соатлардан кейин абъюз ҳулқни (яшир равишда) намоён эта бошлайди. Бундан хулоса қилишимиз мумкинки, биогенетик назария тарафдорлари илгари сурган ирсий қонуният ўз таъсирини ҳар қандай ҳолатда ўз кучини кўрсатади десак, социал назария тарафдорлари илгари сурган ижтимоий муҳит таъсири қайда қолади? Хуллас, мазкур ҳулқга қайси бир нуқтаий назардан ёндашмайлик уни янги қирралари вазиятдан келиб чиқиб, ўзини намоён этаверади. Шу сабабли абъюз ҳулқнинг ўзини эмас, балки уни ҳаракатга келтирувчи механизмларига асосий эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир.

Э. Ғ. Ғозиев абъюз ҳулқни юзага келишига қуйидагича таъриф берганлар: “Тарбияси қийин ўсмирларнинг биринчи гуруҳи орсизлар ёки субутсизлар дейилади. Улар ўз хатоларини билиб туриб қонун ва қоидаларни бузадилар, номаъқул ишларни қиладилар. Кўпинча улар ўзларининг гуноҳкор эканликларини тан олмайдилар, мактабдаги айрим камчиликларни танқид қиладилар. Лекин ютуқларни эътироф қилишни хоҳламайдилар. Шахсий фикрларини бошқа кишиларга маъқуллашни ва ўз талабларини ўзгалар сўзсиз бажаришини жуда ёқтирадилар. Бундай болалар бетга чопар, ўжар табиатли, раҳм-шафқатсиз, “зўравон” бўладилар. Мустақил фикрга эга бўлмаган тенгдошларини ўз атрофларига тўплайдилар ва биргаликда тартиб бузишга ундайдилар”.

Юқорида келтирилган иқтибосдаги “Бундай болалар бетга чопар, ўжар табиатли, раҳм-шафқатсиз, “зўравон” бўладилар. Бундай болалар бетга чопар, ўжар табиатли, раҳм-шафқатсиз, “зўравон” бўладилар. Мустақил фикрга эга бўлмаган тенгдошларини ўз атрофларига тўплайдилар ва биргаликда тартиб бузишга ундайдилар” жумларга эътибор қаратадиган бўлсак абъюз ҳулқли болаларнинг нақадар аниқ тасвирини кўришимиз мумкин. Айни кунларда Халқ таълимида онда – сонда бўлса ҳам учраб турган “зўравон”лик кўринишларини механизминини устоз аниқ изохлаб бера олганликларини кўришимиз мумкин.

Мазкур “зўравон”ликни ортиб бориши ва уни асосида мустақил фикрга эга бўлмаган тенгдошларини ўз атрофларига тўплаб ва биргаликда тартиб бузишга ундашлари барча даврларда жамиятнинг энг оғриқли дарди ҳисобланган. Шу сабабли ҳам умумбашарият айнан ана шу абъюз

хулқга қарши курашиб келади. Абыюз хулқли шахсларнинг энг саялбий томонлари бошқа шахсларни шахслилигини суиистеъмом қилиб, руҳий босим ўтказишларидадир.

Мактабгача ҳамда халқ таълимининг турли босқичларида абыюз хулқли ўқувчиларни учратиш табиий ҳол ҳисобланади. Уларни ўз вақтида аниқлаб улар билан алоҳида тарбиявий ишлар олиб бориш давр талаби ҳисобланади. Ўқувчи хулқидаги салбий унсурларни ўз вақтида бартараф этилмаса у борган сари ўз таъсир кўламини кенгайтириб бориш табиий ҳол ҳисобланади.

**Хулоса.** Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики абыюз хулқли шахслар нафақат атрофидаги шахсларга нисбатан, балки жамият учун хавфли бўлиб, мазкур хулқ шаклланаётган ёшларни аниқлаб уларни тарбиясига алоҳида эътибор қаратиш жамиятдаги етук шахсларнинг бурчи ҳисобланади.

#### **Адабиётлар:**

1. Ғозиев Э. Ғ. Онтогенез психология. – Т.: Ношир, 2010.
2. Ғозиев Э. Ғ. Психология методологияси. – Т.: Ношир, 2013.



*Хаджакулова Диёра Эркин кизи*  
Старший преподаватель кафедры «Общая психология»  
Национального университета Узбекистана  
erkinovnadiyora0@gmail.ru

## ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ НА ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДЕЙ

**Аннотация.** Данная статья исследует роль социальной поддержки в управленческой деятельности судей и её влияние на процесс принятия решений. Судьи играют ключевую роль в правосудии и исполнении законов, и качество их решений может существенно повлиять на общество и его членов.

**Ключевые слова:** социальная поддержка, управленческая деятельность, судьи, принятие решений, стресс, организационные меры.

## SUDYALARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISHIGA IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATNING TA'SIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sudyalarning boshqaruv faoliyatida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Sudyalar odil sudlov va huquqni muhofaza qilishda muhim rol o'ynaydi va ularning qarorlari sifati jamiyat va uning a'zolariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, boshqaruv faoliyati, sudyalar, qaror qabul qilish, stress, tashkiliy choralar.

## INFLUENCE OF SOCIAL SUPPORT ON DECISION MAKING IN THE MANAGEMENT ACTIVITY OF JUDGES

**Abstract.** This article explores the role of social support in the management activities of judges and its impact on the decision-making process. Judges play a key role in justice and law enforcement, and the quality of their decisions can significantly impact society and its members.

**Keywords:** social support, managerial activity, judges, decision-making, stress, organizational measures.

**Введение.** Процесс принятия решений является ключевой составляющей управленческой деятельности судей, определяющей качество правосудия и его влияние на общество. Однако принятие судебных решений может быть сложным и непредсказуемым процессом, зависящим от различных факторов, включая социальные аспекты. В данной статье мы исследуем влияние социальной поддержки на принятие решений судьями и рассмотрим его важность в обеспечении справедливости и эффективности правосудия.

Справедливое и эффективное правосудие играет фундаментальную роль в обеспечении стабильности и развития общества. Судьи, как ключевые исполнители правосудия, несут ответственность за принятие обоснованных и объективных решений, которые влияют на жизни людей и общественные процессы. Однако процесс принятия решений судьями может быть сложным и многогранным, подверженным влиянию различных факторов, включая психологические и социальные аспекты.

Одной из значимых социально-психологических составляющих управленческой деятельности судей является социальная поддержка. Социальная поддержка представляет собой широкий спектр факторов, включающих профессиональную помощь, эмоциональную поддержку со стороны коллег и семьи, а также общественное признание за их труд и профессионализм. Это взаимодействие поддержки и уважения влияет на психологическое состояние судей и, в конечном счете, на их способность принимать обоснованные и справедливые решения.

Судьи, работающие в сложных условиях и сталкивающиеся с непрерывным напряжением и стрессом, особенно нуждаются в социальной поддержке для поддержания эффективности и высокого

уровня профессионализма. Однако редко исследовались социально-психологические аспекты управленческой деятельности судей, включая роль социальной поддержки в процессе принятия решений.

**Обсуждение.** Роль социальной поддержки в управленческой деятельности судей. Социальная поддержка представляет собой важный фактор, влияющий на психологическое и эмоциональное благополучие судей. Этот вид поддержки может включать профессиональную помощь, эмоциональную поддержку со стороны коллег и близких, а также общественное признание и уважение за их профессиональную работу. Судьи, которые чувствуют, что их работа ценится и поддерживается окружающими, обычно испытывают большую уверенность и мотивацию для принятия решений, что положительно сказывается на качестве их работы.

Социальная поддержка играет важную роль в управленческой деятельности судей и оказывает значительное влияние на их работу и принятие решений. Судьи, занимающие ответственные и сложные должности, сталкиваются с множеством стрессовых ситуаций и высокой нагрузкой, что может повлиять на их психологическое состояние и профессиональную эффективность. В этом контексте социальная поддержка, которую судьи получают от своего окружения, является критически важным фактором, способствующим успешному и продуктивному выполнению своих профессиональных обязанностей [4].

Одной из основных форм социальной поддержки для судей является поддержка со стороны коллег и семьи. Коллеги могут предоставить судьям профессиональную помощь, советы и поддержку в сложных судебных делах, а также поделиться своим опытом и знаниями. Семья также играет важную роль, обеспечивая эмоциональную поддержку и понимание, что помогает судьям справляться с трудностями и стрессом, связанным с работой.

Кроме того, общественное признание и поддержка также имеют важное значение для судей. Отношение общества к работе судей может оказать как положительное, так и отрицательное воздействие на их самооценку и уверенность. Поддержка общества, выражающаяся, например, в форме благодарности за их труд или важности их профессиональной роли, может способствовать повышению мотивации и преданности судебной деятельности.

Важным аспектом социальной поддержки является также обеспечение судьям возможности для саморазвития и профессионального роста. Профессиональные тренинги, обмен опытом с коллегами из других регионов и стран, а также доступ к новым знаниям и технологиям помогают судьям повышать свою квалификацию и компетентность, что в свою очередь положительно сказывается на их профессиональной деятельности [3].

Однако необходимо отметить, что социальная поддержка может быть различной для разных судей и зависит от множества факторов, включая профессиональный стаж, личные характеристики и особенности рабочей среды. Некоторые судьи могут иметь более сильную социальную поддержку, что способствует их лучшей адаптации и успешной работе, в то время как другим может не хватать этой поддержки, что может повлиять на их эмоциональное состояние и профессиональные результаты.

Влияние социальной поддержки на судебные решения. Исследования показывают, что уровень социальной поддержки может оказывать значительное влияние на принятие решений судей. Судьи, которые имеют хорошую социальную поддержку, обычно лучше справляются с трудными ситуациями, связанными с принятием решений в сложных делах. Они более уверенно и объективно анализируют доказательства и применяют законы, что способствует более справедливым судебным решениям [1].

Влияние социальной поддержки на судебные решения представляет собой важный аспект в процессе принятия судебных актов и решений. Судьи, занимающие ответственные должности, сталкиваются с непрерывным потоком сложных и важных решений, которые могут иметь значительные последствия для общества и отдельных людей. В этом контексте, социальная поддержка может оказать значительное влияние на качество и обоснованность судебных решений.

Поддержка со стороны коллег и опытных судей может сыграть важную роль в процессе принятия решений, предоставляя судьям доступ к дополнительной информации, опыту и знаниям. Коллеги могут предоставить судьям профессиональные советы и рекомендации, что может помочь им принимать лучшие решения на основе основательного анализа фактов и законов.

Социальная поддержка также может способствовать снижению стресса и эмоционального напряжения у судей, что в свою очередь может улучшить их способность принимать объективные и сбалансированные решения. Когда судьи чувствуют поддержку и понимание со стороны коллег и

окружающих, они чаще проявляют большую самоуверенность и могут лучше справиться с трудными ситуациями [2].

Социальная поддержка также может способствовать профессиональному росту и развитию судей. Судьи, получающие поддержку от своих коллег и общества, склонны к активному участию в профессиональных образовательных программах, тренингах и семинарах, что позволяет им повышать свою компетентность и экспертизу в различных областях права.

Однако необходимо также отметить, что социальная поддержка может представлять риски для независимости и объективности судебных решений. Влияние коллег или общественного мнения может привести к субъективным суждениям или сомнениям судьи в отношении принятых решений. Поэтому важно, чтобы судьи сохраняли независимость и объективность в своих решениях, несмотря на влияние социальной поддержки.

В заключение, влияние социальной поддержки на судебные решения является многогранным и сложным процессом. Социальная поддержка может положительно влиять на психологическое состояние и профессиональную деятельность судей, способствовать их развитию и росту, но требует баланса между поддержкой и сохранением независимости и объективности в принятии решений.

Способы улучшения социальной поддержки для судей. Для обеспечения эффективной управленческой деятельности судей важно создать подходящую среду с социальной поддержкой. Консультации со специалистами, обмен опытом с коллегами и развитие профессиональных сетей могут значительно улучшить социальную поддержку для судей. Также необходимо создать механизмы для выражения признания и поддержки со стороны общественности и других участников правовой системы.

Улучшение социальной поддержки для судей играет важную роль в повышении их эффективности, благополучия и профессионального развития. Вот несколько способов, которые могут помочь улучшить социальную поддержку для судей:

Программы обучения и развития: Организация специализированных программ обучения и развития для судей, на которых они могут обмениваться опытом, обсуждать сложные ситуации и получать обратную связь от опытных коллег. Это поможет судьям расширить свои знания и навыки, а также укрепит их связи с профессиональным сообществом.

Менторство: Создание программ менторства, в рамках которых опытные судьи могут работать с новичками, поддерживая их и помогая адаптироваться к работе в судебной системе. Менторы могут предоставлять рекомендации, делиться опытом и помогать решать сложные профессиональные вопросы.

Обеспечение поддержки в сложных судебных делах: Предоставление дополнительной поддержки судьям при работе над сложными и особо значимыми делами, например, за счет назначения ассистентов или команды специалистов, которые могут помочь собрать дополнительные материалы и анализировать данные.

Профессиональные сети: Поощрение судей к вступлению в профессиональные ассоциации и сети, где они могут общаться с коллегами из других регионов, обмениваться опытом и получать поддержку.

Психологическая поддержка: Обеспечение доступа к консультациям с психологами или психотерапевтами, которые могут помочь судьям справиться со стрессом, эмоциональными трудностями и принятием сложных решений.

Оценка и обратная связь: Проведение регулярных оценок профессиональной деятельности судей и предоставление им обратной связи от коллег и вышестоящих начальников. Это поможет выявить сильные стороны и области для улучшения.

Баланс работы и личной жизни: Поддержка судей в поддержании баланса между работой и личной жизнью, например, через гибкий график работы или доступ к услугам по уходу за детьми и семьей.

Влияние социальной поддержки на принятие решений в управленческой деятельности судей имеет значительное значение для их профессионального развития, эффективности и благополучия. Изучение этой темы позволяет лучше понять, как социальная поддержка может повлиять на принимаемые судьями решения и их общее функционирование в рамках судебной системы.

Анализ литературы и исследований свидетельствует о том, что наличие поддержки от профессионального сообщества, коллег и вышестоящих начальников способствует повышению уверенности судей в принимаемых решениях и снижает уровень страха перед ответственностью за

принимаемые судебные постановления. Поддержка также способствует развитию у судей навыков и компетенций, что позитивно сказывается на их профессиональной эффективности.

Социальная поддержка также оказывает положительное влияние на эмоциональное состояние судей, снижая уровень стресса и предотвращая профессиональное выгорание. Кроме того, поддержка может способствовать лучшему взаимодействию судей с коллегами и другими участниками судебного процесса, что улучшает общий климат в судебной системе.

**Заключение.** Однако, необходимо учитывать, что индивидуальные особенности судей и контексты их работы могут сказаться на том, как они воспринимают и используют социальную поддержку. Поэтому, для достижения максимально положительного воздействия, поддержка должна быть индивидуально адаптирована к потребностям и запросам каждого судьи.

В итоге, роль социальной поддержки в управленческой деятельности судей неоспоримо важна и оказывает множество позитивных воздействий на профессиональное развитие и благополучие судей, а также на качество принимаемых ими решений и функционирование судебной системы в целом. Понимание этой роли поможет оптимизировать систему поддержки и обеспечить наилучшие условия для профессионального роста и успеха судей.

#### Литература:

1. Colvin, A. D., Broussard, C. A., & Brandt, C. B. (2019). Judicial Decision Making: Factors Influencing the Decisional Processes of Trial Judges. *Annual Review of Law and Social Science*, 15, 151-167.
2. Epstein, L., & Mazerolle, P. (2019). Judicial Stress, Emotional Well-being, and Decision Making: Is Justice Blind when the Judiciary is Stressed?. *Law and Human Behavior*, 43(1), 58-70.
3. Hannett, M. J., & Sullivan, G. R. (2018). Social Support, Organizational Stress, and Burnout among Juvenile Court Judges. *Journal of Offender Rehabilitation*, 57(3), 146-162.
4. Krieger, L. H. (2019). Judges under Stress: An Exploratory Study of Occupational Stress and Well-being in the Judiciary. *Journal of Judicial Administration*, 29(4), 238-253.
5. Madsen, D., & Ewing, C. P. (2020). The Role of Social Support in Judicial Decision Making: An Exploratory Study. *International Journal of Law, Crime, and Justice*, 61, 1-12.
6. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Ziyavitdinova, G., & Kamalova, Z. (2022). The Relationship Between the Effectiveness of the Managerial Activity of an Education Manager With the Peculiarities of the Manifestation of His Communicative Potential in Uzbek System. *Journal of Higher Education Theory & Practice*, 22(4).



*Ҳайдаров Шаҳриёр Шухрат ўғли*  
Бухоро давлат университети тадқиқотчиси

### **БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРДА ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИК ОМИЛЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ҲИССИЙ-ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлиги шаклланишининг илмий-назарий асослари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларнинг ўрни ва аҳамияти очиқ берилган. Бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигини шакллантириши, уларнинг шахсий фазилатларини рўёбга чиқариши, психокоррекцион усуллар орқали фаолият самарадорлигига бевосита таъсир этувчи шахслик омиллари имкониятларини кўрсатиши йўналишларида илмий изланишларни чуқурлаштиришига имкониятлар яратилди. Хулоса қилиб айтиши мумкинки, бугунги ислохотлар даврида бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигига алоқадор омилларни тадқиқ қилиши долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

**Калит сўзлар:** психологик саломатлик, «Мен-концепция», ижтимоий идрок, акс эттириши, стресс, тажовуз, альтруизм, ижтимоий жасорат, ижтимоий етуклик, ижтимоий-психологик компетенция.

### **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ФОРМИРОВАНИИ ФАКТОРОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ**

**Аннотация.** В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования психологического здоровья будущих инженеров, а также роль и значение факторов, влияющих на него. Созданы возможности для углубления научных исследований в направлении формирования психологического здоровья будущих инженеров, реализации их личностных качеств, показа возможностей личностных факторов, непосредственно влияющих на эффективность труда посредством психокоррекционных методов. Подводя итог, можно сказать, что исследование факторов, связанных с психологическим здоровьем будущих инженеров, остаётся одной из актуальных проблем современной эпохи реформ.

**Ключевые слова:** психологическое здоровье, «Я-концепция», социальное восприятие, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность

### **THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EMOTIONAL QUALITIES IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH FACTORS OF FUTURE ENGINEERS**

**Abstract.** This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of the psychological health of future engineers, as well as the role and significance of the factors influencing it. Opportunities have been created for deepening scientific research in the direction of forming the psychological health of future engineers, realizing their personal qualities, showing the possibilities of personal factors that directly affect labor efficiency through psycho-corrective methods. Summing up, we can say that the study of factors related to the psychological health of future engineers remains one of the urgent problems of the modern era of reforms.

**Keywords:** psychological health, "I-concept", social perception, reflection, stress, aggression, altruism, courage, social maturity, socio-psychological competence,

**Кириш.** Жаҳон таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида психологик саломатлик муаммоларини ўрганиш бўйича жуда кўплаб изланишлар олиб борилмоқда. Жумладан, ЮНЕСКО ташкилоти қошидаги халқаро психология фанлари иттифоқи – IUPsyS (International Union of Psychological Science) Томонидан 2016-2021 йилларга мўлжалланган психологик саломатлик концепцияси яратилди. Бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлиги ва унинг педагогик-психологик компонентлари билан боғлиқлигини аниқлашга оид тадқиқотлар олиб борилмоқда. Шу жиҳатдан, бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигини ўрганиш амалиётини

такомиллаштиришнинг илмий-амалий механизмларини тадқиқ қилиш бўйича илмий асосланган концепцияларни ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Шунингдек, бўлажак муҳандисларнинг психологик муҳофаза ва эмоционал-иродавий сифатларни ривожлантириш, уларга педагогик-психологик таъсир этиш билан боғлиқ бўлган муаммоларни ўрганиш эса тобора долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Республикамизда ёш авлодни руҳий ва жисмоний жиҳатдан баркамол вояга етишида психологик саломатликнинг ўрни ҳамда унинг муаммолари тадқиқи алоҳида аҳамият касб этмоқда. Бу борада, «...психологик саломатликни кенг тарғиб этишга ва психик саломатлик билим ва кўникмаларини ёшлар ва катталарда шакллантиришга қаратилган ижтимоий, амалий, илмий ва фундаментал лойиҳалар таъсис этиш» масаласи устувор ҳисобланиб, бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигини ўрганиш жараёнини янги инновацион усуллар билан таъминлаш орқали ўсмирларга ҳар жиҳатдан психологик ёндашув тамойилларини янада мукамалроқ тарзда такомиллаштириш зарурати тобора ортиб бормоқда[1].

Психологик саломатлик ва уни шахс такомиллашувида муҳим омил эканлигини белгилайдиган ғоялар зардуштийликнинг қадимги манбаи «Авесто», шарқ мутафаккирларидан Абу Наср Форобийнинг «Фозил одамлар шахри», Абу Райҳон Берунийнинг «Ҳиндистон», «Минералогия», Абу Али Ибн Синонинг «Гадбири манзил», Юсуф Хос Хожибнинг «Кутадғу билиг», Алишер Навоийнинг «Маҳбуб-ул қулуб» асарларида илгари сурилган. Таҳлил кўрсатадики, шахснинг психологик саломатлиги жамият тараққиётини белгилайдиган муҳим омиллардан бири саналган, жамият ва шахс ижтимоийлашувнинг таъсири муҳимлиги эътироф этилган.

Мамлакатимиз олимларидан Р.А.Абдурасулов В.М.Каримова, Б.Р.Қодиров, А.М.Жабборов, Ш.Р.Баротов, З.Т.Нишонова, Р.С.Самаров, З.Г.Гаппаров, Д.Орзикулов, М.Маматов, Ф.Э.Газиев, Г.Бердиев, З.Файзиев, Дж.Насиров, Ф.Е.Газиева ва уларнинг шогирдлари томонидан олиб борилган тадқиқотларида психологик саломатлик ҳамда спортчилардаги психологик тайёргарликнинг фаолият самарадорлигига таъсири муаммолари тадқиқ этилган.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) мамлакати олимлари И.П.Волков, Д.А.Донцов, Н.Б.Стамбулова, А.В.Алексеев, В.Ф.Сопов, Л.С.Выготский Д.А.Леонтьев, А.В.Петровский, Р.М.Загайнов, В.Н.Лебедев, А.М.Столяренко, В.Н.Томалинцев, М.Ш.Магомед-Эминов, Л.А.Китаев-Смык, В.И.Медведев ва бошқаларнинг спорт психологияси бўйича олиб борган замонавий тадқиқотларида спортчиларнинг психологик саломатлигига таъсир этувчи омилларнинг педагогик-психологик тамойиллари очиқ берилган.

Хориж олимларидан Г.Олпорт, А.Ц.Пуни, А.Адлер, Бюлер, А.Маслоу, Б.Братус, З.Фрейд К.Роджерс Р.Плутчик, В.Рудик ўз тадқиқотларида психологик саломатликка таъсир қилувчи омиллар ва компонентларни илмий тадқиқ этишган.

Бугунги кунда, замонавий психологияда психологик саломатликнинг педагогик-психологик хусусиятлари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларни илмий-назарий асосларини таҳлил этишга бағишланган адабиётлар ниҳоятда озчиликни ташкил этади. Айни пайтда, психологик саломатлик ва унинг функцияларини очиқ берувчи ҳамда унинг методологик илдизларини асослаб бера олувчи илмий тадқиқотларни алоҳида ўрни бор.

Психологик саломатлик бу – психологик ва ижтимоий фаровонлик ҳолати бўлиб, унда инсон ўз имкониятларини англаб этади, ҳаётдаги қийинчиликлар ва стрессларга самарали қарши туради, самарали, онгли фаолият олиб боради ва жамият ривожига ҳисса қўшади. Аввало, бу психиканинг барқарор, етарли даражада ишлаши, шунингдек, асосий билиш жараёнлари: идрок, хотира, диққат, тафаккур туфайли амалга оширилади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг таъкидлашича, руҳий бузилишлар дунё аҳолисининг тахминан 12 фоизига таъсир қилади – тахминан 450 миллион киши ёки дунё бўйлаб ҳар тўртинчи одам психологик саломатлик билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда.

Биз илмий адабиётларни таҳлил қилар эканмиз, айнан психологик саломатлик методологиясини очиқ берувчи назарий, эътиборга молик асосий хусусиятларни илмий-назарий тадқиқ қилишга ҳаракат қилдик. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, маҳаллий ва хорижий адабиётларда психологик саломатликни шакллантиришнинг умумлаштирилган психологик-педагогик моделини ишлаб чиқишга бағишланган деярли ҳеч қандай ишлар мавжуд эмас. Айни пайтда психологик саломатликни шакллантиришга ёрдам берадиган ёки тўсқинлик қиладиган психологик шароитларнинг тавсифи, шунингдек, ушбу шартларнинг ёшга хос тавсифи ҳамда мақсадли таъсир қилишнинг ўзига хос усулларини ишлаб чиқиш бугунги кунда долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Психологик саломатлик ҳақидаги ғояларни шакллантиришнинг келиб чиқиши. Жумладан, римлик шифокорлар Гиппократ (эр.о. V аср), Гален (эр.о. II аср), Демокрит (эр.о. V-VI аср), Эпикур (эр.о. IV-III аср), Сократ (эр.о. V-IV аср) каби мутафаккирларнинг мушоҳадалари дастлабки психологик саломатлик тушунчаларининг шаклланишига тўртки бўлди. Қолаверса, дастлабки “психика”, “онг” тушунчалари тиббий физиологик билимлар билан бир мунча сайқал топди. Айни пайтда Платон, инсон саломатлиги ҳақида фикр юритганда, унда, биринчи навбатда, “қарама-қаршилиқлар келишуви”ни қуйидаги икки турга ажратади: а) “идентификация-фарк” б) “доимийлик-ўзгарувчанлик”.

Биз юқоридаги антик давр олимларини шахснинг тузилиши ва унинг психологик саломатлик билан боғлиқ назарияларини даврлар кесимида тадқиқ қилишга ҳаракат қилдик (1-жадвал)

1-жадвал.

**Шахс ривожланишининг турли даврларида психологик саломатлик тушунчаларини белгилайдиган асосий ёндашувлар**

№	Босқичлар	Шахс психологик саломатлиги учун доминант факторлар	Психологик саломатлик омиллари
	Қадимги давр дунё. Антик давр (Милоддан аввалги 476-аср)	Табиатшуносларнинг кузатувлари ва антик давр мутафаккирлари ва файласуфлари мулоҳазалари	Жисмоний ва ақлий мувозанат, эҳтиёткорлик, ўз-ўзини бошқариш ички ва ташқи оламнинг мувозанати
	Ўрта Асрлар (476-XIV аср ўрталари.) руҳий ҳаёт.	Саломатлик мезонлари-Худого бўлган ишонч ва диний ва дунёвий ишларда Худого эргашиш	Руҳий ҳолат ва саломатлик даражаси бу диний самимийлик эътиқод, иймон билан белгиланади
		Инсон саломатлиги ҳақида турли хил тарихий даврлардаги фикрлар учун асослар	Инсоният тарихидаги саломатлик детерминантлари
	Уйғониш Даври (XIV аср ўрталари – XVII аср бошлари.)	Табиий фанлар Асосидаги қарашлар ва кашфиётлар физика қонунларининг нуқтаи назари устунлик қилади ((астрофизика) ва кимё (ятрокимёгарлар). Динга иккиламчи рол берилган.	Саломатлик инсон табиатига боғлиқ (ақлий ва жисмоний кўринишларнинг ўзаро таъсири) ва унинг экологик таъсирлардаги акси. Жисмоний саломатлик ва унинг табиий моҳияти ҳақидаги фикрлар устунлик қилади.
	Янги даврнинг бошланиши ва ўрталари (XVII аср охири XX аср бошлари)	Инсоннинг атроф-муҳитга психофизиологик мослашувини аниқлашнинг биологик ва ижтимоий омиллар мажмуи ; шахснинг комплекси ижтимоийлашуви.	Саломатлик шахсий имконият ўз-ўзини англаш, ҳақиқатга интилиш ҳаётий қадриятлар гуманизм ва антропоцентризм тушунчалари орқали аниқланарди.

Замонавий давр: XX охири–XXI боши.	Ўз-ўзини эркинлик ижодкорликнинг ахлоқ ва маънавиятнинг тикланиши. Бир вақтнинг ўзида ахборот жамияти туфайли ички шахсий қарама-қаршиликларнинг ёмонлашуви. Инсон саломатлиги ҳақида фикрнинг муносабатга боғлиқ ҳолда ўсиши стрессда, беқарорлик, ноаниқлик экстремал ва ўзгаришлар даврига қарши туриш эҳтиёжи	англаш,	Саломатлик қуйдагиларга асосланган очик фикр, ривожланаётган, ўзига етарли даражадаги, жисмоний ва маънавий бой одам. Бир вақтнинг ўзида цивилизациянинг тезлаштирувчи табиати инсоннинг жамиятдан бегоналаштиришни келтириб чиқаради ўзи билан мулоқотнинг йўқолишига олиб келади, ва виртуал дунегачекиниш шахснинг саломатлиги ва ҳолатига салбий таъсир қилади. Қийинчилик ва бардошлик ноаниқлик, шахснинг ўзини ўзи ривожлантириш ва қобилиятнинг шаклланиши қаршилик қилиш, ноаниқлик, беқарорлик ва мувозанатсизлик.	
------------------------------------	---	---------	--	--

Бўлажак муҳандисларда психологик саломатликни шакллантиришда онг ва унинг шахс фаолиятидаги ўрнига алоҳида аҳамият қаратиш муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, кишининг онги бизнинг теварак-атрофимизни қуршаб турган олам ҳақидаги билимлар мажмуасидан таркиб топган. Унда субъект билан объект ўртасида аниқ фарқланишининг ўз ифодасини топиши, яъни шахс «Мен» деган тушунча билан «Мен эмас» деган тушунчага нима тегишли эканини аниқ билади. Тирик организмлар дунёси тарихида биринчи бўлиб ундан ажралиб чиққан ва ўзини атроф муҳитга қарама-қарши қўйган инсон ўз онгида ушбу қарама-қаршилик ва тафовутни сақлаб келмоқда. Жонли мавжудотлар ичида унинг ўзигина ўзини билишга, яъни психик фаолиятни ўзини тадқиқ этишга йўналтиришга қодир. Одам ўз хатти-ҳаракатларини ва умуман ўзини ўзи онгли равишда баҳолайди. «Мен»нинг «Мен эмас»дан ажратилиши ҳар бир киши болалигида бошдан кечирадиган йўл бўлиб, унинг ўзини ўзи англаши жараёнида юз беради. Қадим дунё файласуфларнинг соғлиқни сақлаш ҳақидаги фикрлари кейинги тадқиқотчилар ишларида ўз аксини топди. Замонавий даврда (XVII–XX аср охири) табиатшунослик фанларининг шаклланиши ва ривожланиши жуда катта моҳият касб этмоқда ва саломатлик омилларни аниқлаш ғояси унинг таркибий қисмлари сезиларли даражада ўзгармоқда. Аввало, саломатлик нафақат шахс учун, балки давлат учун ҳам аҳамиятли қадрият сифатида тушунилади, ва шунинг учун жамиятнинг ҳаётийлиги ва барқарорлиги иқтисодий ва маданий ривожланиш миллий фаровонликнинг кўтарилиш шарт сифатида қаралади. Психологик саломатликнинг асосий мезонларидан бири бу инсоннинг атроф-муҳитга, табиий офатларнинг кўпайишига ва мавжудликнинг экстремал шартларига мослашиш даражаси бўлиб ҳисобланади. Психология фалсафадан ажратилган даврда илмий психологик мактаблар шаклланди, уларнинг вакиллари соғлиқни инсон психикаси намён бўлишининг турли даражадаги позицияларидан кўриб чиқдилар. Тадқиқотлар натижалари таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда бўлажак муҳандисларда психологик саломатликни ривожлантиришга доир илмий изланишлар олиб борилишига қарамай, айнан, спортчиларда психологик саломатлик омилларининг педагогик-

психологик асослари ва унинг касбий фаолият самарадорлигига таъсири масалалари етарли даражада тадқиқ этилмаган.

**Методика.** Бу борада бўлажак муҳандисларни психологик саломатлиги шаклланишига таъсир қилувчи омилларни тадқиқ қилиш муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, бўлажак муҳандисларни психологик саломатлигини шаклланишига таъсир қилувчи ҳиссий-эмоционал ҳолатларни аниқлаш мақсадида Айзенкнинг «Ўз-ўзининг руҳий ҳолатини баҳолаш» методикаси қўлланилди (1-жадвал). Маълумки бўлажак муҳандислар шахсида кўрқув, хавотир каби психологик хусусиятлар унинг фаолиятга тайёрлашда муҳим рол ўйнайди. Чунки бу каби салбий ҳолатлар руҳий ва жисмоний зўриқишларга, мослашувнинг қийин кечишига, психофизиологик ресурсни керагидан ортиқ, беҳуда сафарбар бўлишига олиб келади. Бошқа томондан эса, бўлажак муҳандисларда травматик вазият (вазиятли ташвиш) ёки кўп сонли ижтимоий ташвиш, эътиборининг кучайиши натижасида келиб чиқадиган қўшимча стрессли омилларга дуч келади. Юқоридаги ҳолатлар бўлажак муҳандисларни психологик ҳолатига салбий таъсир кўрсатиши, диққатни заифлаштириши ва якуний спорт натижасини пасайтириши мумкин. Демак, салбий-руҳий ҳолатлар (хавотир, кўрқув, агрессивлик) бўлажак муҳандисларнинг психологик саломатлигига таъсир қилиб, уларнинг фаолият самарадорлигини пасайишига сабаб бўлувчи омиллардан бўлиши мумкин экан.

2-жадвал.

**Бўлажак муҳандисларда “Ўз-ўзининг руҳий ҳолатларни баҳолаш” (Айзенк) методикасидан олинган натижалар**

Мезонлар	1-курс бўлажак муҳандислар (бал)	4-курс бўлажак муҳандислар(бал)	Манна–уитни ўртача кўрсаткич	Р-аҳамиятлилик даражаси
Кўрқув, хавотир	9,85	8,42	4190,5	0,11
Агрессивлик	14,60	12,00	3566,5	0,00
Ригидлик (қотиб қолганлик)	9,06	11,02	3872,5	0,02
Фрустрация	10,50	11,51	3,54	0,32
11,02 11,2** 0,01 ** - фарқлар $p < 0,01$ аҳамиятлилик даражасида муҳимдир				

Энди бевосита жадвал натижаларига ўтамиз. «Кўрқув, хавотир» омили бўйича 1-курс бўлажак муҳандислар 9,85 бални қўлга киритди. Бундан кўриниб турибдики, демак ушбу талабаларда нафақат тананинг тузилишидаги, физиологик жараёнлардаги сезиларли ўзгаришлар билан, балки ҳиссий-қўзғалувчанлик, импульсивлик, ҳаяжоннинг тормозланишдан устунлиги, кайфиятнинг тез ўзгариши билан изохлаш мумкин. Бироқ, шуни таъкидлаш лозимки баъзи ҳолларда ташвиш бўлажак муҳандислар фаолиятини самарадорлигини оширишга ёрдам беради. «Агрессивлик» омили (14,60-12,00) юқори бўлган бўлажак муҳандислар аксарият ҳолатларда фаолият жараёнида тажанг ва қўзғалувчанлиги юқори даражада бўлиб, улар узоқ ва монотон машғулотлардан қочишади. Бундай бўлажак муҳандислар доимий равишда ўз имкониятларини ошириб борсалар-да, кўп ҳолларда ўз ҳатти-ҳаракатларини режалаштирмайдилар. Қулай, таниш муҳитда бўлиб ўтадиган паст даражадаги фаолиятда улар юқори натижаларини кўрсатишга қодир, айти пайтда, масъулиятли кескин ва кутилмаган шартларда улар ўз имкониятларидан самарали фойдаланадилар. «Фрустрация» омили (10,50-11,51) паст бўлган фаолиятда суст бўлиб, энг муҳим ва масъулиятли ҳолатларда ўзларининг энг яхши хусусиятларини намойиш этадилар. Шунингдек, 1-курс бўлажак муҳандисларнинг руҳий стресслари маълум шароитларда ақлий зўриқишларга олиб келиши мумкин. Хавф гуруҳига ташвиш даражаси юқори бўлган бўлажак муҳандислар иш фаолиятини сезиларли даражада пасайтиради. Шунингдек, бўлажак муҳандислар фаолиятида стресс ва депрессияга мойиллик ташвиш даражасининг ошишига ва натижада фаолият натижаларининг ёмонлашишига олиб келади. Айти пайтда, бўлажак муҳандислар динамик мониторинг, шунингдек профилактика чоралари ва касбий фаолиятга тайёргарликнинг индивидуал шакллари ривожлантириш ҳамда психологик ёрдам чораларини қўллаш зарурлигини англатади.

**Хулоса.** Бўлажак муҳандислар психологик саломатлик муаммосинининг долзарблиги унинг илмий жиҳатдан аниқ бир тизимга эга эмаслиги, назарий жиҳатдан маълум даражадаги илмий

таҳлилларнинг тақчиллиги, амалий жиҳатдан муаммо бўйича алоҳида эмпирик тадқиқотлар педагогик-психологияда олиб борилмаганлиги каби ҳолатларнинг мавжудлигини исботлади.

Бўлажак муҳандислар психологик саломатликни ривожланишида эмоционал интеллект муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларда эмпатия, эмоционал билимдонлик, эмоцияларни бошқариш, бошқаларнинг эмоцияларини тушуниш билан боғлиқ етакчилик тенденцияси аниқланди ҳамда ушбу омиллар психологик саломатликни ривожланишини таъминлаши асосланди. Шунингдек, спортчилар психологик саломатлигини шакллантиришда уларнинг шахс хусусиятлари ҳамда ўзига хос педагогик-психологик, билимларига асосланиш муҳим аҳамият касб этиши аниқланди.

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 472-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 09/19/472/3253-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.08.2021 й., 09/21/511/0793-сон.

2. Собиров А.А. «Виды психологической защиты личности в спорте и в жизни»

3. Sobirov.A.A Bo'lajak muhandislarda psixologik salomatlikni shakllantirish.

4. Гринь Е. И. Личностные ресурсы преодоления психического выгорания у работников: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Краснодар, 2009. 24 с.

5. Карпов В. Е. Совершенствование средств саморегуляции психического состояния хоккеистов высшей квалификации в игровой деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2002. 21 с.

*Sharopov Sherzod Shirinboy o'g'li*  
*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

## MULOQOT KOOPERATSIYASINING LINGVO-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, axborot, nutq, talaffuz, nutq, kognitiv, motivatsion, konditsiv, motivatsiya, til, verbal, mimika, kommunikativ, virtual.

## ЛИНГВИСТИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОММУНИКАТИВНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

**Аннотация.** Общение – потребность человека как социального, сознательного существа, как носителя сознания. Мы наблюдаем разделение различных высших животных и человеческого образа жизни на две стороны: отношения с природой и отношения с живыми существами. Первый вид общения называется деятельностью как особый вид человеческой деятельности. Второй тип общения определяется тем, что взаимодействующие друг с другом стороны являются живыми существами, обменивающимися информацией. Такое общение внутри и между видами называется общением.

**Ключевые слова:** общение, информация, речь, произношение, речь, познавательная, мотивационная, обусловленность, мотивация, язык, вербальный, мимикрия, коммуникативный, виртуальный.

## LINGUISTIC AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE COOPERATION

**Abstract.** Communication is a human need as a social, conscious being, as a carrier of consciousness. We observe the separation of various higher animal and human lifestyles into two sides: relations with nature and relations with living creatures. The first type of communication is called activity as a special type of human activity. The second type of communication is determined by the fact that the parties interacting with each other are living creatures that exchange information. Such communication within and between species is called communication.

**Key words:** communication, information, speech, pronunciation, speech, cognitive, motivational, conditioning, motivation, language, verbal, mimicry, communicative, virtual.

**Kirish.** Muloqot tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir [9,56].

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtayi nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar

uygʻunligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan maʼno va mazmunga ega.

**Asosiy qism.** Til – shartli belgilar tizimi boʻlib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan maʼnoga va mazmunga ega boʻlgan tovushlar yigʻindisi uzatiladi.

Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos boʻlib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. Soʻz esa, predmet yoki hodisa toʻgʻrisidagi tasavvur bilan bogʻliq.

Umumlashtirish funksiyasi har bir soʻz umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bogʻliq, bu esa tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, yaʼni muloqot muayyan maʼlumotlarni, fikrlarni, tuygʻularni odamlar bir-birlariga yetkazib berishdan iborat boʻlgan jarayondir [5,126].

Inson nutqining aniqqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, boʻgʻinlar, soʻzlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuygʻularini ifodalash imkonini beradi.

Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi maʼlumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni maʼlum tartibda aloqaga kirishishga yoʻnaltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, gʻazab, qaygʻu, hijron va shu kabilar) haqidagi maʼlumotlar oʻtishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar oʻrnatish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Biz, ochiq koʻngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, gʻazablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan oʻzimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga yetkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi maʼlumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni boʻlishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va koʻnikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti koʻp jismli boʻlib, ichki mazmuniga koʻra turli-tumandir. Mazmun-maqsadlari va vositalariga koʻra muloqotni bir nechta turlarga boʻlish mumkin. Mazmuniga koʻra, u moddiy (faoliyat jismlari va mahsulotlari almashinuvi), kognitiv (bilimlar almashinuvi), konditsiv (ruhiy va jismoniy holatlar almashinuvi), motivatsion (xohishlar, maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuvi), faoliyatli (harakatlar, muolajalar, malakalar, koʻnikmalar almashinuvi) boʻlishi mumkin.

Moddiy muloqotda subyektlar, shaxsiy faoliyat bilan mashgʻul boʻlgan holda, uning mahsulotlari bilan almashadilar, ular oʻz navbatida dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Konditsiyali muloqotda odamlar oʻzlarini maʼlum jismoniy yoki ruhiy holatga keltirishga moʻljallangan bir-birlariga nisbatan oʻzaro taʼsir koʻrsatadilar. Masalan, kayfiyatni koʻtarish yoki, aksincha, uni tushirib yuborish; bir-birini qoʻzgʻatib yuborish yoki tinchlantirish, va, oqibatda, bir-birining kayfiyatiga maʼlum taʼsir oʻtkazish. Motivatsiyali muloqotning mazmuni bir-biriga maʼlum istak, mayllarni etkazish yoki maʼlum yoʻnalishda harakatlanishga shay boʻlishlikdan iborat. Bunday muloqot sifatida insondagi biror maqsadga, boshqa odamda biror-bir intilishning paydo boʻlishi yoki yoʻqolishi, kimdadir harakatga boʻlgan maʼlum maylning yuzaga kelishi, qandaydir ehtiyojning dolzablashtirilishi uchun etishish istagining kuchliligi kabi vaziyatlarni keltirish mumkin. Kognitiv va faoliyatli muloqotning ifodasi bilish yoki oʻquv faoliyatining turlari bilan bogʻliq muloqot boʻla oladi. Bunda subyektdan subyektga dunyoqarashni kengaytiruvchi, layoqatlarni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi axborot yetkaziladi.

Maqsadlariga koʻra, muloqot xizmat koʻrsatish ehtiyojlariga muvofiq holda biologik va ijtimoiy turlarga boʻlinadi. Biologik – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur boʻlgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish bilan bogʻliq. Ijtimoiy muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini oʻrnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni nechta turga ajratish mumkin boʻlsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari boʻlishi mumkin.

Vositalariga koʻra, muloqot bevosita va vositali, toʻgʻridan – toʻgʻri va bilvosita boʻlishi mumkin.

Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qoʻllar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Vositali muloqot muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bogʻliq. Bular yo tabiiy (yogʻoch, erdagi izlar va h.k.) Yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televideniye, internet va h.k.) jismlar.

Toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining oʻzida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan



suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko‘rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot turlari orasida, shuningdek, ish bo‘yicha va shaxsiy, instrumental va maqsadli kabi turlarni ajratish mumkin.

Ish bo‘yicha muloqot, odatda, xususiy qism sifatida insonlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatiga kiritilgan va bu faoliyatning sifatini oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uning mazmuniga odamlar ichki dunyosining muammolari emas, balki ularning nima bilan mashg‘ulliklari kiradi. Ish bo‘yicha muloqotda suhbatdoshning shaxs, xarakter, yosh, kayfiyat xususiyatlari hisobga olinadi, lekin ishdan ko‘riladigan manfaat shaxsiy ixtiloflardanda ustun va muhimdir. Ish bo‘yicha muloqotdan farqli ravishda *shaxsiy* muloqot, aksincha, asosan, ichki xarakterning psixologik muammolariga, inson shaxsini chuqur va yaqinlik bilan ochib beradigan: hayot mazmunini izlash, muhim insonga, atrofdagi voqealarga, qandaydir ichki nizolarni hal etishga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratilgan.

Instrumental muloqot sifatida mustaqil ehtiyoj bilan rag‘batlantirilmaydigan, maqsadga aylanmagan, lekin muloqot aktining o‘zidan qoniqishdan tashqari, qandaydir boshqa maqsadga qaratilgan muloqotni keltirish mumkin. Maqsadli – bu o‘z holicha maxsus ehtiyojni, ushbu vaziyatda muloqotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi muloqot.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotning quyidagi turlarini ajratadilar:

1. «Niqoblar aloqasi» - suhbatdoshning shaxs xususiyatlarini tushunish va hisobga olishga intilish mavjud bo‘lmagan rasmiy muloqot bunda haqiqiy hissiyotlar, istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, odatiy xushmuomalalik, dimog‘dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarning to‘plami qo‘llaniladi.

2. Oddiy muloqotda boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi obyekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo‘lsa, aloqaga faollik bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo‘lsa, – itarib yuboradilar yoki tahdidli qo‘pol iboralarni qo‘llaydilar.

3. Rasmiy-rolli muloqot – bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqot (boshliq – qo‘l ostidagi xodim, sotuvchi – xaridor, servis xizmati xodimi – mijoz). Bunda ma’lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritilib, muloqot mazmuni va vositalari ularga bo‘ysundirilgan.

4. Boshqariladigan muloqot suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni (xushomad, qo‘rqitish, aldov va boshqalar) qo‘llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.

5. Dunyoviy muloqot – bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo‘lmasligidan iborat, ya’ni odamlar o‘z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiy bo‘lgan fikrlarni bildiradilar.

6. Havoyi muloqot – bu muloqot uchun muloqot.

7. Do‘stlarning ma’naviy, shaxslararo muloqoti vaqtida istalgan mavzuni qo‘zg‘atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin.

Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo‘lmaydi. U jadal va ko‘p tomonlama muloqotsiz paydo bo‘lmaydigan individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi.

Odamlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir.

Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo‘llanilishiga asoslanmagan bo‘lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko‘rish, eshitish, hid bilish, hamda, boshqa sezgi va tasavvurlar. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko‘pchiligi tug‘ma bo‘lib, faqat o‘ziga o‘xshashlar bilan emas, balki, boshqa tirik jonzorlar bilan ham hissiyot va hulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o‘zaro ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

Verbal muloqot faqat insonga xos bo‘lib, zarur shart sifatida tilni o‘zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o‘zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o‘zaro ta’sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Buyuk shoir sa’diyning so‘zlarini yodda tutish lozim: aqling bormi yoki yo‘q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so‘z aytmaguningcha. Verbal nutq muloqot tarkibiga: so‘zlar, iboralar ma’nosi va mohiyati kiradi.

Asosiy o‘rinni so‘zning qo‘llanilish aniqligi, uning ifodalanishi va hammabopligi, tovushlar, so‘zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. Nutqdagi tovush hodisalari: nutq jadalligi, tovush balandligi modulyasiyasi, tovush toni, nutq vazni, tovush sifati, ohangi, aniqligidan iborat. Tovush sifatining ifodalanishi: o‘ziga xos maxsus tovushlar: kulgu, hiqillash, yig‘i, pichirlash, xo‘rsinishlar va boshqalar; ajratuvchi tovushlar – bu yo‘tal; ahamiyatsiz tovushlar – tanaffuslar, shuningdek, nazalizatsiya tovushlari – «xm, xm», «e-e-e», «o-o-o» va boshqalar.

Tadqiqotlarga ko‘ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so‘zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo‘lmagan o‘zaro ta‘sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: “ovoq orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz”.

Kundalik muloqotda odamlar ko‘proq quyidagi fanlar o‘rganadigan muloqotning noverbal vositalaridan foydalanadilar: kinestetika (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), mimika (yuz mushaklarining harakati), imo-ishoralar (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), pantomimika (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), takesika (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo‘l siqish, o‘pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), proksemika (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalarini ajratadilar: yaqinlik sohasi (15-45 sm), shaxsiy yoki xususiy soha (45-120 sm), ijtimoiy soha (120-400 sm), ommaviy soha (400 smdan ortiq)).

Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning ko‘proq ma‘lumot olish mumkin bo‘lgan vositalari. Peshona, qoshlar, og‘iz, ko‘zlar, burun, iyak – bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari: hijron, g‘azab, shodlik, ajablanish, qo‘rqinch, nafrat, baxt, qiziqish, qayg‘u va boshqalarni ifodalaydilar.

Muloqot turlaridan tashqari, uning ba‘zi shakllarini ham ajratish mumkin, bular: rasmiy-ish yuzasidan, mutaxassislik, xususiy, ommaviy, pedagogik muloqot, autokommunikatsiya (o‘zi bilan muloqot)lardir.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma‘lum davrlarga ega. Eng mas‘uliyatli davr tayyorgarlik davri – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishish. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo‘lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi. Va, nihoyat, natijalarni qayd etish bosqichi boshlanadi. Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba‘zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko‘payadi. Ularga yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va yetkazish, ta‘lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o‘rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo‘lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘lsa, odamlarda ular ko‘plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o‘shish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo‘ladi.

Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o‘z hayotida bog‘liq bo‘ladigan umumiyliklar bilan o‘zaro ta‘sirini aks ettiradi.

Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g‘oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllari turlicha bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg‘ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog‘liq.

Muloqotning konativ (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga yetkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berish vositalari sifatida ta‘riflash mumkin.

Muloqot vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Til – muloqot uchun qo‘llaniladigan so‘zlar, ifodalar va ularni muloqotda qo‘llash uchun ma‘noli iboralarga birlashtirish qoidalari tizimi, shuningdek, turli ko‘rinish va shakllardagi (matnlar, chizmalar, suratlar), axborot yozish, etkazish va saqlashning texnik vositalari (radio- va videotexnika, yozuvning mexanik, magnitli, lazerli va boshqa shakllari) dagi belgilar tizimlari va yozuvdan iborat.

2. Ohang, emotsional ifodalanganlik, bir xil iboraga turlicha ma‘no berishga qodir.

3. Suhbatdoshning mimikasi, gavda holati, nigohi ibora ma'nosini kuchaytirishi, to'ldirishi yoki rad etishi mumkin.

4. Imo-ishoralar muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya'ni, belgilangan ma'noga ega bo'lishi yoki ekspressiv, ya'ni, nutqning ifodaliligini yanada oshirishi mumkin.

5. Suhbatdoshlar muloqotidagi masofa madaniy, milliy an'analarga, suhbatdoshga bo'lgan ishonch darajasiga bog'liq bo'ladi.

Inson o'zining tur ichidagi muloqot usullari va vositalarini tanlashdagi kashfiyotchiligi bo'yicha er sayyorasida bizga ma'lum tirik mavjudotlarni ancha quvib o'tdi.

Muloqot quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- muloqotga bo'lga ehtiyoj (axborotni etkazish yoki undan xabardor bo'lish, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish zarur, va h.k.) Boshqa odamlar bilan aloqaga kirishishga undaydi;

- muloqot maqsadlari, muloqot vaziyatini to'g'ri belgilash;

- suhbatdosh shaxsini belgilash;

- o'z muloqoti mazmunini rejalashtirish, odam aynan nima haqida so'z yuritishini tasavvur qiladi (odatda anglanmagan holda);

- inson ongsiz ravishda (ba'zan ongli) foydalanishi mumkin bo'lgan aniq vositalar, nutqiy iboralarni tanlaydi, qanday gapirib, o'zini qanday tutishini o'ylab qo'yadi;

- suhbatdoshning javob reaksiyasini idrok qilish va baholash, qaytar aloqa o'rnatish asosida muloqot samaradorligini nazorat qilish;

- muloqot yo'nalishi, uslubi, metodlariga tuzatishlar kiritish.

Agar muloqot aktining biror-bir halqasi izdan chiqqudek bo'lsa, so'zlovchi muloqotdan kutgan natijalariga erisha olmaydi.

Ko'plab odamlar uchun virtual muloqot ularning turmush tarzining bir qismiga aylanib bormoqda. Virtual muloqot tilining o'ziga xos xususiyati shundaki, u yozma aloqa shakli bo'lib, u zamonaviy nutq tiliga asoslangan va axborotni maksimal darajada siqish istagi bilan ajralib turadi. Uning xarakterli xususiyatlari - qisqartmalar, qisqartirishlar va qisqartmalarning keng qo'llanilishi, yozuvning fonetik printsipining ustunlik qilish tendentsiyasi. Internet chatlarida muloqot shoshilinch va juda sodda. Buni telegrafga yaqin sintaksis, katta harflar, tinish belgilaridan voz kechish, ko'p sonli qisqartmalardan foydalanish dalolat beradi. Virtual aloqa jarayonida ma'ruzachilar lingvistik vositalarni tanlaydi, ushbu muloqotning maqsadlari uchun eng oqilona. Ushbu tendensiya zamonaviy jamiyatning matnning axborot mazmunini kamaytirish orqali oshirishga bo'lgan madaniy intilishiga mos keladi. Virtual aloqa, shuningdek, jo'natuvchi va qabul qiluvchining sa'y-harakatlarini tejash tamoyiliga bo'ysunadi. Bu uning leksik va grafik qisqartmalar bilan boyligini tushuntiradi. Chatlarda muloqot qilish uchun ma'lumotni uzatishning ixcham usuli kerak, bu fonetik yozuv bo'lib, u so'zlarning grafik dizaynini ularning tovushi bilan aniqlashga asoslangan.

Virtual aloqa ishtirokchilari katta miqdorda qisqartirilgan birliklar nafaqat matn miqdorini kamaytirish uchun. Muloqotning noodatiy va nostandart shakllariga moyillik chat xonalarida qisqartmalar va qisqartmalar tarqalishining yana bir sababidir. Og'zaki innovatsiyalar oson nutqda, tor ijtimoiy muhitda, ko'pincha yoshlar o'rtasida me'yorni ataylab buzish, unga qarshi norozilik sifatida, taniqli, tez-tez ishlatiladigan so'z umumiy ifoda va yangilikka ega bo'lganda tug'iladi.

Kompyuter nutqida ishlatiladigan atamalar orasida "uzun" so'zlarni qisqartirish tendentsiyasi mavjud [5, 6-7], masalan: - rasmlar yoki fotosuratlar o'rniga rasmlar, - ertaga o'rniga tmr, - istayman o'rniga wanna yoki wana, - iltimos o'rniga pls yoki plz, - odamlar o'rniga ppl, - are o'rniga r, - ayol o'rniga f, - m o'rniga erkak, - turmushga chiqmagan o'rniga nm, - have o'rniga av, - chunki o'rniga coz, - asal o'rniga hun, - xususiy o'rniga pvt, - sizning o'rniga ur yoki yr, - Howya o'rniga Howya doin. qilyapsanmi?, wuz o'rniga nima "s va boshq.

Kompyuter matnlarida qisqartmalarning o'ziga xos xususiyati nafaqat atamalarni, balki so'zlashuv nutqida tez-tez ishlatiladigan iboralar va butun jumalarni qisqartirishdir.

Suhbat xonalari va forumlardagi xabarlarini tahlil qilgandan so'ng, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ko'plab grammatik shakllarni qisqartirish tendentsiyasi mavjud. Masalan, ingliz zamonlarining butun tizimidan, umuman olganda, grammatik jihatdan noto'g'ri bo'lsa ham, faqat Simple guruhining zamonlari qo'llaniladi: *Bugun men uni buzdim. - Bugun sindirdim. (Bugun men uni buzdim. Men "bir oy davomida o'sha zerikarli kitobni o'qiyapman. - Men bir oy davomida o'sha zerikarli kitobni o'qiyapman".*

Ingliz tilidagi jumlada mavzuning yo'qligi imperativ kayfiyatni anglatadi, ammo shunga qaramay, Internet aloqasi paytida mavzu ko'pincha o'tkazib yuboriladi: [5, 26]. *Hey Anna, sizni ko'rganimdan xursandman, hali ham meni eslaysizmi? - Salom Anna, sizni ko'rganimdan xursandman. Hali ham meni*

*eslaysizmi? (Hey, Anna, sizni ko'rganimdan xursandman. Meni eslaysizmi?). Ingliz tilini mashq qilishni xohlayman. - Men ingliz tilini mashq qilmoqchiman. (Men ingliz tilini mashq qilmoqchiman)*

Interfaol muloqotda o'ziga xos lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan rasmiy so'zlar, masalan, so'roq va inkor gap va artikllardagi yordamchi fe'llar ko'pincha tushib qoladi. Bundan tashqari, so'roq gaplardagi to'g'ridan-to'g'ri so'z tartibi ko'pincha mo'ljallangan teskari o'rniga saqlanadi: *Siz asosan yigit yoki qizmisiz? - Siz o'g'ilmisiz yoki qizmisiz? (Siz o'g'ilmisiz yoki qizmisiz?). Mendan nima istaysiz? - Mendan nima istaysan? (Mendan nima istaysan?). Kimdir suhbat qurmoqchimi? - Suhbatlashishni xohlaydiganlar bormi? (Kimdir suhbat qurmoqchimi?)*

Ko'pgina mamlakatlarda virtual muloqot tili o'smirlar orasida mashhur - ularning ota-onalari uchun hali ham shifrlash qiyin. Suhbat tili tarafdorlari uning moslashuvchanligini, undan foydalanishda cheklovlar, qoidalar va me'yorlarning yo'qligini ta'kidlaydilar, bu sizga ijodiy bo'lishga va yozishda so'zlarning yangi shakllarini ixtiro qilishga imkon beradi, buning natijasida til boyitiladi.

Suhbat xonalarida va imloda ishlatiladigan tilda aniq belgilangan qoidalar mavjud emasligi va grammatik normalar til, ba'zi tadqiqotchilarni tilning kelajagidan qo'rqishlariga sabab bo'ladi. Virtual muloqot til mutaxassislarining munozarali mulohazalari va baholarini keltirib chiqaradi, ular yangi tendensiyalarning muqarrarligini tan olish bilan birga, me'yoriy milliy tilning holati haqida ma'lum xavotirlarni bildiradilar. Ko'rinib turibdiki, har qanday lingvistik formatsiya alohida-alohida rivojlanib, mavjud bo'lolmaydi. Ular standart tilga ta'sir qiladi va o'zgartiradi, bu tilshunoslarning fikriga ko'ra, savodxonlikning butunlay pasayishiga olib kelishi mumkin. Ko'pgina tilshunos olimlar virtual muloqotda ishlatiladigan tilning me'yoriy ingliz tiliga ta'sirini aniqlashga harakat qilmoqdalar. Misol uchun, kanadalik tilshunoslar ushbu tilning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini aniqlashga qaratilgan keng ko'lamlil tadqiqotlar o'tkazdilar. Internet foydalanuvchilari tomonidan ishlab chiqilgan jargon umumiy lug'atga aylanib bormoqda va yangi, tarmoqli hayot va fikrlash tarzining shakllanishi lingvistik vaziyatga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Biroq tadqiqotlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi: adabiy tilni yaxshi biladiganlar Internet tilida turli qisqartmalar o'ylab topishda ko'proq muvaffaqiyat qozonishadi, bu esa o'z navbatida adabiy tilni bilishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Hozirgi vaqtda internet tili kompyuter nutqi ishtirokchilarining imlo va sintaktik qoidalarni bilishiga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi, ammo ta'sir hali ham mavjud. Tilning yangi uslubi - Internet-muloqot uslubi shakllanmoqda, bu nafaqat Internet hamjamiyatining o'ziga xos xususiyati, balki butun jamiyatning nutq xatti-harakatlariga ham ta'sir qiladi.

Virtual muloqotning lingvistik jihatini tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, suhbatdagi nutq fiksatsiyadir. og'zaki nutq, uning aksi yozish, nazariy jihatdan yozishning ba'zi xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lsa-da. Bundan tashqari, virtual matnning o'ziga xos uzatish mexanizmlari uning idrokiga ta'sir qiladi.

Qisqartmalar va qisqartirishlarga to'la chat tilining xususiyatlarini tahlil qilib, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Shubhasiz afzalliklarga quyidagi xususiyatlar kiradi [7,39]:

- 1) Qo'shimcha ma'lumotni minimal vaqt ichida uzatish;
- 2) adresat mavjud bo'lmaganda ma'lumotni uzatish imkoniyati;
- 3) O'z fikrlarini qisqa va aniq shakllantirishni o'rganish qobiliyati;
- 4) Axborot va hissiyotlarni bir vaqtda uzatish (og'zaki nutqning intonatsiyasini etkazishi mumkin);
- 5) Xat yozish an'analariining tiklanishi.

Shaxsning shakllanishida muloqotning roli juda katta. Nutq aloqasi uning barcha shakllari va janrlarida insonga oldingi avlodlar tomonidan mazmunli va tizimlashtirilgan tayyor ijtimoiy tajribani olish imkonini beradi. Muloqotda ma'naviy, intellektual va moddiy madaniyatni egallash, insonning dunyo va o'zini bilishi va buning natijasida - shaxsning ijtimoiylashuvi va inson xatti-harakatlarining korreksiyasi mavjud.

"Psixologlarning guvohlik berishicha, bolaning atrofidagi dunyoni o'zlashtirishi uchun ham, fikrlash usullarini o'zlashtirishi uchun ham kattalar bilan og'zaki munosabat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Og'zaki muloqot og'zaki muloqot qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida rivojlanadi va nutq faolligi yaxshilandi.

**Xulosa.** Kattalar bilan muloqot qilish orqali bola nafaqat atrofidagi dunyo obyektlari nima deb atalishini, balki turli xil narsalarni qanday tutishni, dunyo qanday ishlashini, odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni va odamlar bilan qanday muloqot qilishni ham o'rganadi. Til muhitidan tashqarida bola na intellektual, na axloqiy jihatdan rivojlana olmaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts <https://conferencepublication.com>. Berlin., B.181.
2. Axmedova O.I. Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 29. -B. 290-293.
3. Astafurova T.N. Madaniyatlararo nutq faoliyatining xilma-xilligi biznes aloqasi// Annotatsiyalar. ilmiy. konf. "Lingvistik shaxs: janr nutq faoliyati", Volgograd, 6-8 dekabr. 1998 yil - Volgograd. 1998 .-- S. 6-7.
4. Babaeva E.V. So'zning leksik ma'nolari madaniy va lingvistik tushunchani ifodalash usuli sifatida // Til shaxsi: Madaniy tushunchalar. - Volgograd; Arxangelsk. 2002 .-- S. 25-33
5. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. –М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
6. Buzrukova M O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari. Samarqand., Xorijiy filologiya №1.2020-yil, B.108.
7. Vodak R. Til. Nutq. Siyosat. - Volgograd: O'zgarish, 2007. - 139 p.
8. Grice, H. Pol. "Mantiq va suhbat." Sintaksis va semantika, 1975
9. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
10. Holliday, D. C. (2005). Cooperate and feel great: Cooperative learning training manual. Lanham: University.
11. Hurlley, E. A., & Chamberlain, A. M. (2003). Cooperative learning and achievement: theory and research. In Handbook of psychology: Educational.
12. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1989). Cooperation and competition: theory and research. Edina, MN: Interaction Book Company.

*Saidova Yulduz Zamon qizi*

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası tadqiqotchisi*

## TALABALAR MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda ularning yosh va individual – psixologik xususiyatlarini hisobga olish, talabalarda yosh o'zgarishi bilan ma'naviy sifatlarning dinamikasi ham o'zgarishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda iroda, aqliy qobiliyat, his-tuyg'ularining o'rni pedagogik nuqtayi nazardan aniqlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** Respublika, islohot, ta'lim-tarbiya, talaba, ma'naviyat, rivojlanish psixologi, pedagogika, iroda, hissiyot, qobiliyat, yosh xususiyat, kasbiy madaniyat.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной статье анализируется динамика изменения духовных качеств у студентов с учётом их возрастных и индивидуально-психологических особенностей с изменением возраста в развитии духовности студентов с научно-теоретической точки зрения. Также с педагогической точки зрения определена роль воли, умственных способностей и эмоций в развитии духовности студентов.

**Ключевые слова:** Республика, реформа, образование, студент, духовность, психолог развития, педагогика, воля, эмоция, способности, молодой характер, профессиональная культура.

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS' SPIRITUAL DEVELOPMENT

**Abstract:** In this article, taking into account their age and individual-psychological characteristics in the development of students' spirituality, the dynamics of spiritual qualities change with the age of students is analyzed from a scientific and theoretical point of view. Also, the role of will, mental ability, and emotions in the development of students' spirituality has been determined from a pedagogical point of view.

**Key words:** Republic, reform, education, student, spirituality, developmental psychologist, pedagogy, will, emotion, ability, young character, professional culture.

**Kirish.** Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar butun ta'lim tizimini isloh qilish bilan uzviy bog'liqdir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "O'zbekiston-2030" strategiyasiga asosan oliy ta'lim shakli va mazmuni shakllanmoqda. Oliy ta'lim tizimida chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda talabalar o'z mutaxassisligining nazariy va amaliy bilimlariga, kasbiy malakalarga ega bo'lmoqdalar. Ularda huquqiy demokratik davlatning fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etish, umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lish kabi shaxs sifatlari kamol topmoqda. Albatta, ushbu sifatlarni shakllantirishda talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ularning ma'naviy tarbiyasida, intellektual va madaniy saviyasini ko'tarishda, mustaqil fikrlashida muhim o'rin tutadi. Bunga o'zbek xalqi yosh avlodni hayotga tayyorlashda alohida e'tibor berib kelgan. Yoshlar tarbiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida barcha xalqlar va mamlakatlar uchun eng muhim hayotiy muammo bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasi har bir millat mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lgan muammodir.

Buning boisi shundaki, birinchidan, mutafakkirlar ma'lum millat, xalq manfaati nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiyaning nazariy asosi, maqsad, vazifalarini belgilasalar, ikkinchidan, ularning faoliyati va asarlari ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini boyitgan, uchinchidan, o'z millati, xalqi, Vatanining istiqbolini ko'p jihatdan yoshlarning tarbiyasiga bog'liq deb bilganlar. Millatimiz, xalqimiz shuhratini butun dunyoga yoygan, jahon fanining ravnaqida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlar yosh avlodning o'ziga xos yosh xususiyatlarining aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi to'g'risida qimmatli fikrlar bildirganlar. Bular xalq og'zaki ijodi namunalarida, yozuvchi va shoirlar ijodi, buyuk mutafakkirlarning ilmiy-nazariy qarashlarida namoyon bo'lgan.

**Asosiy qism.** Bolalar tarbiyasida ularning yoshiga qarab o'sish davrlariga jahon psixologiyasi va pedagogikasi namoyondalari ham katta e'tibor bergan. Yosh davrlari psixologiyasi bilan rus olimlaridan K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya predmeti sifatida", N.F.Kopterevning "Pedagogik psixologiya", I.A.Sikorskiyning "Bola ruhi", A.P.Nechaevning "Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab ta'limiga munosabati", A.F.Lazurskiyning "Maktab o'quvchisining tavsifi", P.F.Lestgaftning "Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati", K.Yelniskiyning "Qizlar tavsifi" asarlarida o'z ifodasini topgan. Buyuk rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P. Pavlovlar ham umumiy pedagogika va yosh psixologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Jahon psixologlaridan amerikalik Dj.Bruner, U.Djems, S.Xoll, fransuz olimlari E.Dyurkgeym, P.Jane, shveysariyalik J.Piajelar yosh psixologiyasi va uni davrlashtirish masalalari bilan shug'ullanganlar.

O'zbekistonda yosh davrlari psixologiyasi bilan olimlardan P.I.Ivanov, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G'oziyevlar salmoqli tadqiqotlar olib borganlar.

Mazkur olimlar yosh davrlarini tabaqalashtirish va har bir yosh davrga xos xususiyatlarni tadqiq qilishda o'zlari nazariy asos qilib olgan tamoyil, nuqtayi nazaridan yondashganlar.

Umuman, yosh davrlari psixologiyasiga doir nazariyalar quyidagi ko'rinishlarga bo'lish mumkin: Biogenetik nazariya. Bu nazariyaga ko'ra, insonning biologik rivojlanishi bosh omil hisoblanadi. Boshqa jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib, biologik rivojlanish ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Mazkur nazariyaga binoan rivojlanishning bosh maqsadi biologik determinantlar (belgilovchilar)ga bog'liq, ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi.

Har bir inson takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan biologik va ijtimoiy mohiyatga ega sotsial mavjudotdir. Insonning o'ziga xos xususiyatlari o'zgarimas, qotib qolgan belgilar bo'lmay, balki o'zaro bog'liq bo'lib, domiy o'zgarishdadir. Ularning o'zaro ta'siri kishining hayot sharoiti, faoliyatining mazmuni va yoshiga bog'liqdir.

Shuning uchun inson o'ziga xos umumiylikni inkor qilmaydi. Ammo bu umumiylik kishining mavjud shaxs sifatida tashqi xususiyatlari hamda qobiliyati bilan birgalikda qaralishi lozim. Kishilarning individual xususiyatlarini ma'lum guruhga birlashtirish mumkin. Individual xususiyatlarning tabiiy asosi irsiyat bo'lib, fan tilida genotip deb yuritiladi. Genotip - ingenlar tizimi bo'lib, individning ma'lum xususiyatlarining shakllanishida belgilovchi rol o'ynaydi. Insonlar irsiy jihatdan mutlaqo bir-biridan farq qiladi.

Insonning tashqi qiyofasi, xulq-atvori, nutq va tafakkurining xususiyatlari (fenotip) ijtimoiy muhit ta'siri ostida shakllanadi. Fenotip o'z navbatida genotipga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ayrim xususiyatlarning rivojlanishiga sharoit yaratadi yoki ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh genotip bilan bog'liq bo'lib, unda belgilovchi - jinsiy va yosh xususiyatlaridir. Bu xususiyatlar garchi umuminsoniy xarakterga ega bo'lsa-da, har kimda irsiyat va rivojlanish sharoitiga qarab alohida namoyon bo'ladi [2, 42].

Ikkinchi guruh o'quvchi qobiliyatidagi farqlarda, ya'ni shaxsning individual xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida iste'dod va miyaning tabiiy anatomik-fiziologik hamda nerv sistemasining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shular asosida kishilarda takrorlanmas individuallik (alohidalik) shakllanadi. Bular asosida inson shaxsining yo'nalganligi shakllanadi, yo'nalganlik kishining qiziqishi, e'tiqodi, intilishi va ideallarida o'z aksini topishini yuqorida bayon qilgan edik. Shaxsning xususiyatlari uning yo'nalganligida o'z ifodasini topib, yosh o'zgarishi bilan uning xususiyatlari ham o'zgaradi. Ayniqsa, bu o'zgarish o'smirlik va o'spirinlik yoshida boshqa davrlarga qaraganda yorqinroq namoyon bo'ladi.

Talabalar rivojlanishida doimiy ravishda bir yosh davridan ikkinchisiga o'tish orqali uning shaxsida o'zgarishlar yuz beradi. Ular uchun uni o'rab olgan borliq ikkiga bo'lingan: "narsalar olami", "odamlar olami". Shuning uchun o'spirin munosabatlari (faoliyati) "Bola - narsa" va "bola - kattalar" tizimi tarzida namoyon bo'ladi. O'quvchilar shaxsining rivojlanishida o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu eng avvalo ularda o'zini takomillashtirish istagi (o'z madaniy saviyasini o'stirish, yoqimli, "bilag'on" kishi bo'lish xohishi) ning kuchayishi va o'qishga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan xarakterlanadi.

Talabalar uchun eng muhimi o'zlarining ichki dunyolari - ma'naviy jihatdan kamolotga intilishining kuchayishidir. Tashqi olamga, kishilarga munosabat chuqur ichki-ma'naviy mazmun kasb etadi. O'zining ichki dunyosini anglash o'spirin-yoshlarda quvonch bilan birga ko'p tashvish va ichki kechinmalarni ham keltirib chiqaradi. Bunda asosiy ziddiyat ichki ma'naviy dunyo "men" bilan tashqi xulq-atvor normalarining bir-biriga mos kelmasligidir. Bu esa yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilishning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Talabalarda o'zligini anglashning takrorlanmas xususiyatlari bilan birga shaxsiy, axloqiy, kasbiy masalalarni hal qilishda yakkalik hissini sezishi ham juda muhim xususiyatdir. O'z hayotiga doir masalalarni yakka holda ichki bir tuyg'u bilan muhokama qilish, o'zining botiniy nidosini,

ichki ovozini eshitish asosida chuqur ma'naviy sifatlarni o'ziga singdirishga ehtiyoj kuchayadi. Bularning hammasi asosida kelajak masalasi, kelajak orzular haqida o'ylar, yoshlar fikri-zikrida belgilovchi bo'lib qoladi.

Bu masalalarni hal qilishda kattalar bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Talabalardagi jinsiy balog'atga yetishishning kuchayishi sevgi-muhabbat hislarini uning hayotida muhim masalaga aylantiradi. Bu yoshda o'quvchilarda ma'lum maqsad paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Shaxsiy maqsadlarning umumlashib va yiriklashib borishi asosida ma'naviy qadriyatlarining barqarorlashishi yuz beradi. Shu bilan birga motiv va maqsadlar aniqlashib, tabaqalashadi. Mavhum, orzu tarzidagi hayot maqsadlari aniqlanib, aniq bir komillik tariqasida shakllanadi. Hayot maqsadi va u asosida shakllangan ideal bir vaqtning o'zida murakkab tuzilishga ega bo'lib, o'spirin hayotida ijtimoiy va axloqiy hodisa darajasiga ko'tariladi. "Kim bo'laman" (kasbiy o'zini anglash) bilan "qanaqa bo'laman" (ma'naviy o'zini anglash) avval aniq anglashilmagan bo'lsa, talabalarda aniq hayot maqsadiga aylanadiki, bu esa uning ma'naviy tarbiyasining mohiyatini tashkil etadi.

Bu davrda o'zligini anglashda keskin o'zgarishlar yuz beradi. O'z navbatida shaxsiy sifatlari umumiyliklashib, yaxlit o'ziga nisbatan munosabatning shakllanishiga olib keladi. O'ziga baho berishda ham avvalgi yaxshi-yomonni aniqlash, faoliyatdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni bir-biridan ajratish, sabablarini aniqlash kabi holatlar paydo bo'ladi.

Talabalarining o'zini anglashida o'zidagi salbiy sifatlarni tuzatish masalasiga, o'ziga tanqidiy qarash asosida ijobiy ma'naviy sifatlarni shakllantirishga intilish kuchayadi. Bu yoshda o'smirlikdagi bosqichlik, vazminlik asosida o'z xatti-harakatiga emotsional baho berishga o'tish kuchayadi. Bu davrda talabalar o'zlarini aniq bir jins sifatida anglash orqali boshqa jinsga munosabatlari kuchayadi.

Talabalar o'zining takrorlanmas mukammalligini, boshqalarga o'xshamasligini anglashi bilan birga yakkalik, juda ko'p ichki kechinmalarni yechishda bir o'zi ro'para bo'lib qolishdan cho'chish paydo bo'ladi. Bu holat uni boshqalardan alohida bo'lishga intilishiga olib keladi. Undagi bolalikdagi odatlaridan qutilishga bo'lgan kuchli intilish bilimga intilishni, o'zini bilishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Talabalardagi o'zi haqidagi tasavvur albatta boshqalarga, ayniqsa, o'zini tushunishini istagan kishi bilan solishtiriladi. Talabalardagi o'zini tasvirlash, o'ziga baho berish yosh o'tishi bilan ma'lum sifatlarni hamda ma'lum mezonlarni tanlash bilan xarakterlanadi. Talabalarda e'tiqod, did, aqliy qobiliyat, his-tuyg'u va iroda kabi xislatlarga munosabat keskin oshadi. Shu bilan birga mehnatga va boshqa kishilarga munosabati kuchayib, shaxs sifatlariga baho berishda alohida kishilarga emas, umuman insoniy sifatlarga e'tibor kuchayadi. Shu asosda o'ziga tavsif berish umumlashib, ayrim sifatlarga alohida yondashishi, ularni hurmatli kishilar sifatleri bilan taqqoslashga alohida e'tibor beriladi.

Talabalarda yoshining o'zgarishi kishilarga munosabatni idrok qilishda ham qator o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kishilarga baho berishda tanlash mufassal ketma-ketlikda inson sifatlarini bayon qilish, kishi xulq-atvorini tahlil qilish va tushuntirish, uni ishonarli, aniq tasvirlash kabi xususiyatlar rivojlanadi. Talabalarda o'zlariga baho berganda ham shaxsiy va psixik xarakterdagi belgilarni izohlash bilan birga o'zining boshqalardan farqini ko'rsatishga alohida e'tibor beriladi.

Buni talabalarining ma'naviy tarbiyasiga oid fikrlarini quyidagi so'rovnomaga asosida ham bilish mumkin:

Talabalarining ma'naviy tarbiyalanganligi mezonlari:

1. Mustaqillik, davlatimiz ramzlari mohiyatini bilishi.
2. Tarixiy merosimzga hurmat tuyg'usi.
3. Buyuk mutafakkirlar va zamonamiz qahramonlarini bilishi.
4. Xalqimiz an'analari,
5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlay olish tuyg'usi.
6. Sog'lom turmush tarzi, ogohlikka rioya etishi.
7. Dinlar haqida ma'lumotga egaligi san'at va adabiyotga qiziqishi.
8. Madaniy saviyasini oshirishga intilishi.
9. Mehr-muruvvat, insonparvarlik, o'tganlarni xotirlash kabi xislatlarga munosabati.
10. Jamiyatimiz ma'naviy-axloqiy me'yorlariga rioya etishi.

Talabalarni ma'naviy tarbiyalashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida, tadqiqot jarayonida ilgari surilgan nazariy fikrlar va amaliy tajribalarni sinab ko'rish maqsadida dastlabki ta'kidlovchi eksperimentda olib borilgan metodikadan foydalanilgan holda yakuniy natijalarni aniqlash va olingan ma'lumotlarni dastlabkilari bilan qiyoslash hamda bular asosida umumiy xulosalar chiqarishga qaratildi.



Bunda biz yana suhbatlar, savolnoma, testlar o‘tkazish, muammoli vaziyatlar yaratish kabi metodlardan foydalandik. Talabalarining tarbiyalanganlik darajasini tashxislash turli shakllarda amalga oshirildi. Bular indekslar, shkalalar va turli belgilardir.


Talabalarining ma’naviy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda olti balli shkaladan foydalandik. Bunda +1,+2,+3 kabilar talabaning ma’naviy tarbiyalanganlik darajasini, -1, -2, -3 esa ma’naviy tarbiyalanmaganligini belgilashda qo‘lladik. Sifat jihatdan baholash bilan son jihatdan baholash quyidagicha uyg‘unlashtirildi:

Masalan, yuqori darajada ma’naviy sifatlari har tomonlama shakllangan talaba +3, ma’naviy sifatlari birmuncha rivojlangan, lekin ularning xatti-harakatlarida bu xislatlar barqaror bo‘lmasa +2, ma’naviy sifatlari sust rivojlangan, boshlagan ishini oxiriga yetkazishda sustkashlik qilsa +1 bilan belgilandi.

Yoki salbiy xatti-harakatlarga moyillik seziladigan talabaga -1, salbiy xatti-harakatlar qilishga intiladigan talabaga -2, xulqida salbiy xatti-harakatlar namoyon bo‘ladigan talaba -3 ball belgilandi.

Talabalarni ma’naviy xatti-harakatlarini baholashda shaxsning alohida xislatlari emas, balki umumijtimoiy yo‘nalganligi nazarda tutildi. Bu esa ular tarbiyasini motivlashtirish - rag‘bat bilan bog‘liq bo‘ladi. Zero, bilim olishda ham, tarbiyada ham motiv-rag‘bat uning asosiy tarbiyalanganligi darajasini belgilay oladi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi talabalarda ijodiy motivlar-rag‘batlarni burch va mas’uliyatni his etish, jamiyatga foyda keltirish, Vatan uchun xizmat qilish kabilar orqali ijtimoiy motiv-rag‘batga moyil shaxslar deb tanladik.

Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan nazariy fikrlarni tajriba-sinov jarayonida sinab ko‘rish maqsadida dastlabki ta’kidlovchi eksperimentda olib borilgan metodikadan foydalanilgan holda yakuniy natijalar aniqlandi va olingan ma’lumotlar dastlabkilari bilan qiyoslandi. Natijalar diagramma ko‘rinishida quyidagicha bo‘ldi:



Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok etish istagi kuchayagan. Buning oqibatida ularda o‘quv yurti, auditoriya va undan tashqaridagi ijtimoiy ishlarga faol ishtirok etish, fan asoslari, kasb-hunar o‘rganishga jiddiy va ijodiy yondashish mayllari barqaror tus ola boshlagan. Shuning uchun o‘quv yurti ma’muriyati, guruh rahbarlari, tarbiyachilar, tyutorlar talabalardagi bunday xususiyatlardan to‘g‘ri foydalanishlari lozim. Ammo talabalarda hali o‘z xatti-harakatlariga ortiqcha baho berish hollari batamom tark etmagan bo‘ladi. Shuni hisobga olib, o‘qituvchilar, tarbiyachilar talabalarga o‘zining fazilatlarini to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishda juda ustalik bilan yordam berishlari lozim. Talabalar xatti-harakatlarini o‘rganish va ularni kuzatish shuni ko‘rsatdiki, ular o‘zlarini qo‘rqmas, jasur qilib ko‘rsatishga, noo‘rin xatti-harakatlar orqali atrofdegilar oldida obro‘-e’tiborli bo‘lishga intiladilar. Bunday vaziyatda tarbiyachilar ularga sun‘iy yo‘llar bilan qiyinchiliklarni yengib bo‘lmasligini tushuntirishlari muhimdir.

**Xulosa.** Yuqorida bayon qilingan fikrlar ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarni chuqur bilish asosida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasini nihoyatda muhim qilib qo‘yadi. Bunda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar nafaqat o‘zlari o‘qitadigan fanlarni har tomonlama chuqur

bilishlari, balki ularning talabalar uchun yuksak insoniy xislatlar namunasi, ya'ni ma'naviy boy, axloqiy pok estetik go'zallikning timsoli bo'lishlari ham hayot talabidir.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi PQ-3160-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология /Под ред. В.В.Давидова. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
3. Махкамов У. Ахлоқ-одоб saboqlari. – Т. Fan, 1994.–135 b.
4. Олимов Ш.Ш. Духовно-нравственные факторы узбекской этнопедагогике // Международная научно-практическая конференция профессорско-преподавательского состава и молодых учёных России и Узбекистана. Челябинск, 2020. – С. 85.
5. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 228 b.

**Шониязова Ирода Мурадуллаевна**

Ассистент кафедры «Психология»

Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

## ОПИСАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ И МЕТОДИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВА АФФИЛИАЦИИ

В этой статье рассматриваются вопросы об описании методологической основы и методического исследования мотива аффилиации. Потребность личности в мотиве принадлежности считается универсальной и является психологической особенностью, общей для всех людей, независимо от возраста, гендерных различий и этнической принадлежности. Характер и содержание этой потребности могут меняться и проявляться в зависимости от образовательной среды, условий социализации и культурных аспектов.

**Ключевые слова:** мотив, аффилиация, психологические исследования, эффективность программы, корпоративное обучение, измерение, выявление, изучение, Р. Кеттелл, Дж. Гилфорд, А. Меграбян.

## AFFILIATSIYA MOTIVINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA METODIK VOSITALAR TAVSIFI

Ushbu maqolada affiliatsiya motivini tadqiq etishning metodologik asoslari va metodik vositalar tavsifi haqida so'z yuritiladi. Shaxsning affiliatsiya motiviga nisbatan ehtiyoji universal hisoblanib, yosh, gender tafovutlar yoki etnik mansublikdan qat'iy nazar, barcha odamlarga xos bo'lgan psixologik xususiyatdir. Ushbu ehtiyojning xarakteri va mazmuni, albatta, tarbiya muhiti, ijtimoiylashuv sharoitlari, madaniy tomonlarga bog'liq holda o'zgarib turishi va o'zicha namoyon bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** motiv, bog'liqlik, psixologik tadqiqot, dastur samaradorligi, korporativ trening, o'lchash, aniqlash, o'rganish, R. Cattell, J. Gilford, A. Megrabyan.

## DESCRIPTION OF THE METHODOLOGICAL BASIS AND METHODOLOGICAL STUDY OF THE AFFILIATION MOTIVE

This article discusses questions about the description of the methodological basis and methodological study of the motive of affiliation. The need of the individual for the motive of belonging is considered universal and is a psychological feature common to all people, regardless of age, gender differences and ethnicity. The nature and content of this need may change and manifest itself depending on the educational environment, conditions of socialization and cultural aspects.

**Key words:** Motive, affiliation, psychological research, program effectiveness, corporate training, measurement, detection, study, R. Cattell, J. Gilford, A. Megrabyan.

**Введение.** С первых лет независимости в нашей стране целью молодежной политики является повышение интеллектуального потенциала молодежи, повышение ее активности во всех сферах, создание и обеспечение социально-экономических, правовых и организационных условий для их жизни. здоровое и зрелое формирование и развитие. С этой точки зрения заслуживают внимания решения и указы, принятые в последние годы, поскольку они направлены на защиту прав и интересов молодежи.

При этом можно отметить, что развитие мотива аффилиации у подростков проявляется в четыре основных этапа:

- в проявлении интересов;
- в проявлении эмоционального отношения;
- инициативные действия;
- проявление чувствительности.

Можно сделать вывод, что компоненты мотива аффилиации развиваются по-разному в разные возрастные периоды.

Исследования Игоря Кона показывают, что преимущественно в подростковом возрасте возрастает мотивация отношений с представителями противоположного пола и начинает проявляться аффилиация со взрослыми.

Из приведенных научных соображений видно, что потребность личности в мотиве принадлежности считается универсальной и является психологической особенностью, общей для всех людей, независимо от возраста, гендерных различий и этнической принадлежности. Однако характер и содержание этой потребности могут меняться и проявляться в зависимости от образовательной среды, условий социализации и культурных аспектов.

Поскольку основной целью нашей научно-исследовательской работы является определение уровня развития мотивации аффилиации у подростков, мы сосредоточили внимание на проведении эмпирической и практической работы среди подростков. Этот процесс занял около пяти лет.

**Методика.** Цель постановки данного вопроса состоит в том, что человек – существо социальное. Оно всегда находится в центре социальных отношений, и именно аффилиативные мотивы служат обеспечению эффективности этого процесса. С этой точки зрения можно сказать, что целью нашего исследования была экспериментальная проверка степени развитости аффилиативного мотива у подростков.

В качестве основного объекта нашего исследования выступили 5-9 классы средней общеобразовательной школы, всего приняло участие 167 респондентов. Из них 82 девочки и 85 мальчиков.

Так, эмпирические и прикладные исследования были проведены всего в пяти образовательных учреждениях Самаркандской и Бухарской областей.

Сегодня ответственная задача по обеспечению конкурентоспособных кадров с всесторонним интеллектуальным потенциалом, поставленная нашим правительством перед наукой, требует исследования сложных закономерностей психического развития молодежи и их совершенствования новыми инновационными методами. Мы думаем, что наши исследования внесут определенный вклад в решение вышеизложенных научных и практических вопросов.

В настоящее время наши научные исследования проводились в несколько этапов:

**Первый этап:** измерение, выявление и изучение мотива аффилиации у подростков, определение соразмерности методов. С этой целью мы использовали четыре метода, направленные на изучение аффилиационной мотивации у подростков. Они полностью представлены в Приложениях 1–8, а методологические принципы их использования представлены ниже.

**Второй этап:** На этом этапе мы провели исследование с использованием специальных методов с целью определения связи мотива аффилиации с личностными характеристиками.

**Третий этап:** На третьем этапе мы исследовали социальный интеллект подростков в рамках групповой деятельности и провели эмпирический эксперимент, посвященный определению роли и значения мотивации присоединения и их взаимосвязи.
